

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**Gularam Kamilovna Masharipova,**  
**Tamara Jo‘rayevna Xo‘janova**

**MA‘NAVIYATSHUNOSLIK**

**FANIDAN**

**(BARCHA TA‘LIM YO‘NALISHLARI BAKALAVR TALABALARI UCHUN  
DARSLIK)**

**“Fan ziyosi” nashriyoti**  
**Toshkent – 2022**

**KBK: 87.60**  
**UO'S: 871.614**

**ISBN 978-9943-7477-3-9**

**Masharipova G.K.. Xo'janova T.J.**

**Ma'naviyatshunoslik:** barcha bakalavr ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv darsligi / G.K. Masharipova, T.J. Xo'janova. – Toshkent: Fan ziyosi nashriyoti, 2022. - 416 b.

**Mualliflar:**

**G.K.Masharipova** - Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti professori, falsafa fanlari doktori

**T.J.Xo'janova** – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

**Taqrizchilar:**

**Ismoil Saifnazarov** – falsafa fanlari doktori, professor

**G.Navro'zova** – falsafa fanlari doktori, professor

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2021-yil 7 oktyabrdagi 02/01/01-554-son xatiga asosan barcha bakalavr ta'lim yo'nalishlari uchun tayyorlangan.

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 3-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'iga asosan, barcha ta'lim yo'nalishlari 1 kurs bakalavr talabalari uchun nasrga tavsiya etilgan.

© **Masharipova G.K., Xo'janova T.J.**  
© **“Fan ziyosi” nashriyoti, 2022.**

## ANNOTATSIYA

Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy sohalarida mavjud bo‘lgan muammolarni ma’naviyatni rivojlantirish, unga tayanish orqali hal etish mumkin. Ma’naviyat millatni taraqqiyotga huyetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki qayerda, qaysi mamlakatda ma’naviyat yuksak darajada bo‘lsa, o‘sha joyda, o‘sha mamlakatda johillik, hasadgo‘ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, manmanlik, tekinxo‘rlik, g‘iybat, ko‘rolmaslik, yovuzlik, qo‘paruvchilik, o‘z vatani va xalqiga nisbatan sotqinlik, tuhmat qilish kabi salbiy illatlar, ma’naviyatsizlik ko‘rinishlariga o‘rin qolmaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng erkin fikrlaydigan, o‘z-o‘zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama uyetuk, komil insonni tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa, eng avvalo, tarbiyalanuvchilarning ichki ruhiy ma’naviyatini boyitish va mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni taqozo etadi. Har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir.

\*\*\*

Проблемы в экономической, социально-политической сферах общества можно решить, развивая и опираясь на духовность. Духовность является важным фактором, который ведет нацию к развитию и увеличивает могущество государства. Потому что везде, где есть высокий уровень духовности, есть и такие негативные пороки, как невежество, зависть, равнодушие, эгоизм, лень, высокомерие, эгоизм, сплетни, зависть, злоба, клевета, предательство своей страны и народа. аморальные выступления. В результате комплексных реформ и созидательной работы, проводимой в нашей стране, меняется сознание и

мировоззрение нашего народа. В построении правового государства и гражданского общества в нашей стране возрастает значение жизненной идеи «От национального возрождения к национальному прогрессу». После обретения независимости задача воспитания свободомыслящей, самосознающей, понимающей цели и интересы общества, всесторонне зрелой личности была определена в качестве приоритета государственной политики. Его реализация, прежде всего, требует обогащения внутренней духовности воспитанников и формирования самостоятельного мировоззрения. Каждое государство, каждый народ могущественен своим интеллектуальным потенциалом и высокой духовностью.

\*\*\*

Problems in the economic, socio-political spheres of society can be solved by developing and relying on spirituality. Spirituality is an important factor that leads the nation to development and increases the power of the state. Because wherever there is a high level of spirituality, there are also such negative vices as ignorance, envy, indifference, selfishness, laziness, arrogance, selfishness, gossip, envy, malice, slander, betrayal of one's country and people, immoral performances. As a result of comprehensive reforms and creative work carried out in our country, the consciousness and worldview of our people are changing. In building the rule of law and civil society in our country, the importance of the vital idea «From National Revival to National Progress» is growing. After gaining independence, the task of educating a free-thinking, self-aware, understanding the goals and interests of society, a comprehensively mature personality was identified as a priority of state policy. Its implementation, first of all, requires the enrichment of the inner spirituality of the pupils and the formation of an independent worldview. Each state, each nation is powerful with its intellectual potential and high spirituality.

## KIRISH

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat.

**Shavkat Mirziyoyev**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma'naviyat masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan 2021 yil 19 yanvardagi videoselektor yig'ilishda quyidagilarni bayon etdilar: «Afsuski, hali oramizda milliy g'oyaning, ma'naviyatning mohiyatini to'liq anglab yetmaganlar, ma'naviyat kerakmi-yo'qmi deb yurganlar ham yo'q emas. Milliy g'oya deganda eski sovet mafkurasini tasavvur qilib, labiga uchiq toshayotganlar ham yo'q emas. Bu ham haqiqat. Lekin agar mafkura odamiy bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini, uning qadr-qimmatini ulug'lashga xizmat qilsa, nima uchun undan qo'rqishimiz kerak? Hamma harakatlarimizning asosi – xalqimizni rozi qilish. Shu munosabat bilan ta'kidlab aytmoqchiman, biz yaratayotgan Yangi O'zbekistonning mafkurasini – ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Albatta, bu yuksak g'oyalar osmondan tushmagan. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 26 mart 2021 yilgi PQ-5040-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/5344692>.

tushuncha va qadriyatlariga asoslangan»<sup>2</sup>. Prezident pandemiya davrida O‘zbekiston xalqi ko‘rsatgan birdamlikni milliy qadriyatlarga bir misol sifatida eslab o‘tdi.

Bugungi kunda ma‘naviyat asoslarini o‘qitishdagi muammolarni topib ularni bartaraf etish mumkin bo‘lgan asosiy muammolarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

- ta‘lim sohasidagi muammolar;
- ta‘limdan tashqari muammolar.

Shu jumladan, ta‘lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirishda nimalarga e‘tibor berishimiz kerag-u nimalarni o‘rganishimiz lozim?

Oily ta‘lim tizimida ma‘naviyat asoslari barcha auditoriyalarda o‘qitilmayapti.

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – talaba-yoshlar ongi va qalbiga milliy va umuminsoniy ma‘naviy qadriyatlarni singdirish orqali ularda yuksak ma‘naviyat va ma‘naviy qashshoqlashuvning inson va jamiyat hayotidagi mohiyatni tushunib yetish hamda yuksak ma‘naviyatga ega bo‘lish malakalarini shakllantirishdan iborat.

#### **Fanning vazifalari:**

- Inson va jamiyat hayotida ma‘naviyatning o‘rni va ahamiyati to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” konsepsiyasini talabalar ongiga singdirish;

- mustaqillik yillarida mamlakatimizda milliy-ma‘naviy tiklanish borasida amalga oshirilgan islohotlar va erishilgan yutuqlar, xususan, so‘nggi yillarda ularni yuksak ma‘naviyatli insonlar qilib tarbiyalash borasidagi vazifalarning mohiyati-mazmuni, asosiy yo‘nalishlarini talabalarga yetkazish asosida ularning bu jarayonlarda faol ishtirok qilishini ta‘minlash va ularning ruhiyatini mustahkamlash;

- Buyuk ajdodlarimizning ma‘naviy barkamol inson to‘g‘risidagi fikr-mulohazalarini talabalar ongiga singdirish;

- Milliy-ma‘naviy qadriyatlar, ma‘naviy qashshoqlashuvning salbiy oqibatlari haqidagi tegishli bilimlarni talabalarga yetkazish va ularda bu jarayondan ogoh bo‘lish ruhiyatini shakllantirish;

---

<sup>2</sup> «Ma‘naviyat kerakmi - yo‘qmi deb yurganlar ham yo‘q emas». Prezident Shavkat Mirziyoyev ma‘naviyat masalalariga bag‘ishlangan nutq. 2021 yil 20 yanvar. <https://kun.uz/news/2021/01/20/prezident-manaviyat-kerakmi-yoqmi-deb-yurganlar-ham-yoq-emas>.

- bugungi kunda jahonda keng yoyilayotgan “ommaviy ma’naviyat”, turli ma’naviy qashshoqlikka olib keluvchi oqimlarning maqsad va muddaolarini talabalarga yetkazish, ular ongi va dunyoqarashida ma’naviy immunitetni shakllantirishdan iborat.

Ma’naviyat tarkibiy qismlaridan eng muhimi – axloq va odobdir. Axloq - jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy hatti-harakatlar yig‘indisidir. Odob - inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo‘lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli hatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi.

O‘tmishda yashab ijod etgan allomalarimiz Farg‘oniy, Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Buxoriy, Termiziy, Marg‘iloniy, Motrudiy, Zamaxshariy va boshqa allomalar nafaqat ilm cho‘qqilarini egallabgina qolmay, uni – ya’ni ma’rifatni keng targ‘ib etganlar, o‘rgatganlar, shogirdlarni tarbiyalaganlar. Turkiston ma’rifatchilik maktabi boy o‘tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Ishoqxon Ibrat, Ahmad Donish va boshqalar mamlakatni, xalqni milliy zulm va ma’rifiy qoloqlikdan xalos etishning yagona yo‘li ma’rifatda deb bildilar. Ma’rifatparvarlik harakatining yorqin siymolaridan biri Abdulla Avloniyning «Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir», - degan g‘oyasi ma’rifatparvarlik harakatining dasturini tashkil etgan.

Ma’rifatli inson bilimlidir. Bilim insonning fazilatini ulug‘lovchi xususiyatlardan biridir. Bilim olish, ma’rifatli bo‘lish, insonlar turli sohalarda qiyinchilikka duch kelganda moddiy va ma’naviy jihatdan g‘alaba qilishi uchun zarur. Bilimsiz, ma’rifatsiz kishi himoyasizdir. Ma’rifat keng ma’noda odamlarga bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil demakdir. U ma’naviyatni shakllantiruvchi, jamiyatning yaratuvchanlik, bunyodkorlik quvvatini oshiruvchi inson faoliyati sohasidir. Boshqacha aytganda, ma’rifat jamiyatning ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan inson faoliyatini qamrab oluvchi tushunchadir.

Zaminimizda kamol topgan, el-yurtga tanilgan, ma’naviy barkamol, komil zotlar o‘zlarida ma’naviyat va ma’rifatni yuksak darajada mujassam etgan allomalar bo‘lganlar. Ular ma’naviyat va ma’rifat chiroqlarini mash’ala singari yoqqanlar.

Yuksak ma'naviyat va ma'rifat tufayli Turon zamini yer yuzida shuhrat qozongan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi davrda milliy kamolot yo'li mana shu yo'l, bundan boshqa yo'l yo'q. Ma'naviyat va ma'rifat xalqimizning, millatimizning, Vatanimizning porloq kelajagi uchun suv va havodek zarur. Ma'naviyat va ma'rifatning o'zaro birligi, uyg'unligi, ma'naviy va ma'rifiy tarbiya ishlarimizni birga olib borish taraqqiyotimiz taqozosi. Ularni bir-biridan ajralgan holda, boshqa-boshqa olib borib bo'lmaydi. Zero, ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi", chunki "... inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi.

Ma'naviyat va ma'rifat, uni egallash masalasiga yondashuvga hadislarda aytilgan "Bu dunyoni deb u dunyoni, oxiratni deb bu dunyoni unitmang" degan mazmundagi naqlini hech qachon esdan chiqarmasligimiz zarur. Chunki tarix va hayot tajribasi dunyoviy va diniy qadriyatlar, ilm-ma'rifat doimo bir-birini to'ldirib, boyitib kelganligi shu asosda kishilar ma'naviy kamolot cho'qqilariga erishganligidan dalolat beradi. Ma'naviy va ma'rifiy qashshoqlik bilan hech bir millat, u yashayotgan mamlakat hech qachon iqtisodiy va ijtimoiy – siyosiy taraqqiyotning yuksak cho'qqilariga erisha olmaydi.

Ma'naviyatshunoslik darsligi 3 ta bob, yettita mavzuni o'z ichiga oladi.

I bob – "Ma'naviyatshunoslikka kirish" deb atalib, ushbu bobda "Ma'naviyatshunoslik" fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va Sharq allomalari merosining milliy ma'naviyatimizga ta'siri mavzularini o'z ichiga oladi.

II bob – "Istibdod va istiqloq: ma'naviyat uchun olib borilgan kurashlar va hozirgi zamon" deb atalib, ushbu bobda mustamlakachilik va qaramlik yillarida ma'naviyat va oila, jamiyat, shaxs ma'naviyatini rivojlantirish omillari va vositalari tushuntirib o'tilgan.

III bob – "Globalashuv jarayoni va Yangi O'zbekistonning ma'naviy yangilanish strategiyasi" mavzusida bo'lib, ushbu bobda globalashuv jarayonida yoshlar ma'naviyati va ma'naviy tahdid, Yangi O'zbekistonning ma'naviy yangilanish strategiyasi va mafkuraviy profilaktika – yosh avlodni g'oyaviy himoyalash omili mavzulari yoritib berilgan.



## I BOB. MA'NAVIYATSHUNOSLIKKA KIRISH

### 1-MAVZU:“MA'NAVIYATSHUNOSLIK” FANINING OBYEKTI, PREDMETI VA MA'NAVIYATNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI

#### Reja:

1. Ma'naviyat tushunchasi mazmun-mohiyati. “Ma'naviyatshunoslik” fanining predmeti.
2. Fanni o'rganishning maqsad va vazifalari. Fanning kategoriyalari va rivojlanish qonuniyatlari.
3. Ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni.
4. “Ma'naviyatshunoslik” fanining metodologik asosi.
5. “Ma'naviyatshunoslik” tarixiy-nazariy fan sifatida.

*Tayanch tushunchalar: axloq, odob, inson ma'naviyati, Vatanparvarlik, insonparvarlik, millatiga sadoqat, shaxs ma'naviyati, mezonlar, iymon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, e'tiqod, poklik, halollik va vafodorlik, shaxs ma'naviy fazilatlari, milliy o'zlikni anglash, milliy va diniy bag'rikenglik, huquqiy savodxonlik, qonunga itoatkorlik, davlat tizimiga hurmat, fuqarolik burchiga sadoqat, shaxs ma'naviy barkamolligi mezonlari.*

#### 1.Ma'naviyat tushunchasi mazmun-mohiyati. “Ma'naviyatshunoslik” fanining predmeti

Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Chunki ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o'z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo'lgan asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

Xo'sh, jamiyat, mamlakat va millat taraqqiyoti, shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur zamin bo'lib xizmat qiluvchi ma'naviyat o'zi nima?

«Ma'naviyat» arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi “ma'nolar majmui”

demakdir. Bugunga qadar «Ma'naviyat» tushunchasiga berilgan ta'riflar soni 100 dan ortiqni tashkil etadi. Quyida ushbu ta'riflardan ayrimlarini keltirib o'tamiz.

Taniqli faylasuf A.Jalolov «**Mustaqillik ma'suliyati**» nomli asarida «Ma'naviyat» tushunchasiga «*Ma'naviyat - insonning zot belgisi, uning faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi, ongi, aql-zakovatining mahsuli*»<sup>1</sup>, - deb ta'rif beradi va «**Hayot falsafasi va falsafa hayoti**» maqolasida bu ta'rifni yanada kengaytirib, shunday yozadi: «*Ma'naviyat – inson faoliyatining ruhiy mazmuni bo'lib, kishilar uning vositasida o'zlarini anglaydilar, jamiyatni, tabiatni, ularning mavjudligi hamda taraqqiyoti xususiyatlarini o'rganadilar, qonunlarini kashf etadilar va ularga tayanib, o'z turmush sharoitlari, amaliy faoliyatlari muammolarini hal etadilar*»<sup>2</sup>. Muallif o'z fikrini davom ettirib, ma'naviyatsiz hayotni qorong'i bir xonaga o'xshatadi.

Ko'rinadiki, bir muallifning o'zi ma'naviyatni ta'riflashga turlicha yondashmoqda, bu ham ma'naviyatning ko'p qamrovli tushuncha ekanligini ko'rsatadi.

«**Vatan tuyg'usi**» nomli kitobni varaqlar ekanmiz, ma'naviyatga berilgan ushbu ta'rifni o'qiymiz: «... *jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha*»<sup>3</sup>.

A. Erkayevning fikricha, «*Ma'naviyat – insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir*».

Ma'naviyat muammosi bilan anchadan buyon shug'ullanib kelayotgan olimlarimizdan M.Imomnazarov mazkur masalaga bag'ishlab yozgan «**Ma'naviyatning takomil bosqichlari**» nomli asarida «*Ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy nur...*», - deb yozgan bo'lsa, ikkinchi «**Milliy ma'naviyatimizga chizgilar**»

<sup>1</sup> Jalolov A. Mustaqillik ma'suliyati. – Toshkent: "O'qituvchi". 1996. – B.29.

<sup>2</sup> Muloqot. 1997, № 5, 15-bet.

<sup>3</sup> Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B. 111.

kitobida «*Ma'naviyat - inson qalbida, ko'ngil ko'zgusida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta'rif darhaqiqat, so'fiyona ramziy ta'rifdir, zotan boshqacha ta'rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo'yadi*», - deb yozadi.

E.Yusupov o'zining “**Inson kamolotining ma'naviy asoslari**” nomli asarida insonda mavjud bo'ladigan hamma xislatlar emas, balki ijobiylarigina ma'naviyat bo'la olishini ko'rsatib: «*Ma'naviyat - inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir*»<sup>4</sup>, - deb ta'riflaydi.

Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlarning hammasida ham ma'naviyatning ko'pgina qirralari o'z ifodasini topgan va bu ta'riflarda mualliflar masalaga nisbatan o'z nuqtai nazarlarini bildirganlar.

Ma'naviyat haqida yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, **ma'naviyat** – *avvalo, inson ichki olami, uning his tuyg'ulari, bilim, tafakkur tarzi, qobiliyati, inson, shaxs sifatidagi hatti-harakati, faoliyatidir*. Yanada chuqur va kengroq mushohada qiladigan bolsak, ma'naviyat - *insonning ruhiyatini, uning o'z-o'zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyati, aql-zakovati, o'z oldiga, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir*, - deb ta'rif berish o'rinli deb hisoblaymiz. Albatta, bu ta'rif eng oxirgi, qiyomiga yetgan, mukammal deb, aytishimiz mumkin emas. Yuqorida aytganimizdek, ma'naviyatning ma'nosi keng, uni tushunish, his etish uchun masalaga yanada jiddiy yondoshish kerak.

O'qituvchi ushbu masala yuzasidan talabalarga “Qani siz ma'naviyatga qanday ta'rif bergan bo'lardingiz?” degan savol bilan murojaat qilishi va talabalarning bu haqdagi qisqacha fikrini eshitishi mumkin.

Ma'naviyatning inson va millat kamolotidagi hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini aniq bilib olish hamda shu asosda uni rivojlantirish, uning mohiyatini hamda mazmunini ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi.

---

<sup>4</sup> Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. - Toshkent: Universitet, 1998, 34- bet.

Shuni ta'kidlash lozimki, sobiq sho'rolar tizimi sharoitida ma'naviyat bugungi holatda o'rganilmagan. U ma'naviy madaniyatning tarmog'i sifatida e'tirof etilgan, xolos. Bu juda murakkab masalaga shu darajada «e'tiborsizlik» ataylab qilingan. Chunki u shaxs va millatning ichki ruhiy salohiyati bilan bog'liq bo'lgan omildir, shuning uchun shaxsning ruhiy olamiga kirib borish, uni mustaqil fikr yuritishga, millatning esa ma'naviy-ruhiy olamini yuzaga chiqarish, uning o'zini o'zi anglashga, o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi va o'zi xohlagan taraqqiyot yo'lidan borishiga yo'l qo'ymaslik mustamlakachilik siyosatiga asoslangan sovet davlatining asosiy maqsadlaridan edi.

Ma'naviyatni shaxs, millat, davlat va jamiyatning qudratli kuchi sifatida o'rganish faqat mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingina boshlandi. Bu esa mustaqillik sharoitidagi milliy tafakkur taraqqiyotimizda yangi yo'nalishdir. Shuningdek, ma'naviyatni o'rganish Islom Karimov nomi bilan bog'liqdir.

“Ma'naviyat” ko'p qirrali tushuncha. U insonning zohiriy va botiniy jihatlarini o'zida qamrab oladi. Shu bois, uning mohiyati, predmeti, tushunchalari va rivojlanish qonuniyatlariga bag'ishlanib respublikamiz ziyolilari o'rtasida qizg'in munozaralar olib borilmoqda.

“Ma'naviyat” tushunchasiga ilmiy, falsafiy, adabiy, axloqiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab ta'riflarni keltirish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaralganda, olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar, risolalar, o'quv qo'llanmalar, lug'atlarda “Ma'naviyat” tushunchasi va uning tamoyillariga o'ziga xos izoh va ta'riflar berib kelinmoqda. Bunga sabab “Ma'naviyat” tushunchasi keng ma'noda jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etgan ijtimoiy-ma'naviy hodisa ekanligidir<sup>5</sup>.

Aslida ma'naviyat – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvat ma'naviy-ruhiy omil hisoblanadi. Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji- deyilganda uning ushbu xislati, ya'ni yuksak ma'naviyat egasi bo'la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko'rmaymiz.

---

<sup>5</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B.18-20.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz maxluqotlarga xos. Ma'naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo'lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma'naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir.

T.Mahmudov «Ma'naviyat – insonning ma'lum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balog'ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir»<sup>6</sup>, - degan ta'rifni beradi.

Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlarning hammasida ham ma'naviyatning ko'pgina qirralari o'z ifodasini topgan va mualliflar o'zlarining nuqtai nazarlarini bildirganlar, ammo ularda inson salohiyatini o'stirish masalasi e'tibordan chetda qolganligi ko'rinadi. Hali yana ko'plab olimlarimiz ma'naviyat tushunchasiga o'z munosabatlarini bildiradilar va ana shu bildirilgan turli fikrlar asosida umumiy mukammal ta'rif shakllanadi, degan umiddamiz.

Bugunga qadar ma'naviyat tushunchasiga mukammal ta'rif shakllanmaganligiga sabab uning keng qamrovli, murakkab va ayni vaqtda «sodda» tushuncha ekanligida. Ma'naviyat ko'proq insonning ichki, botiniy, yashirin dunyosini aks ettirishidir. Insonning ichki, botiniy dunyosi esa gavhar to'la tubsiz dengiz singaridir. Bu dengizdan qancha gavhar olsangiz tugamagani singari inson ichki dunyosi ham tubsiz va o'zini rang-barang tarzda namoyon etadi. Inson qalbiga, botiniy dunyosiga qanchalik chuqur kirib borsangiz, shunchalik turli-tumanlik bilan toblanib, o'zining yangidan-yangi qirralarini namoyon etadi. Mana shuning uchun ham ma'naviyat tushunchasiga mukammal, har taraflama to'liq ta'rif berish mushkulroq. Ammo Respublikamiz olimlari tomonidan «Ma'naviyat» tushunchasiga berilayotgan ta'riflarni va uning inson, millat, xalq, jamiyat hayotida tutgan o'rni to'g'risida ilgari surilayotgan g'oyalarini umumlashtirgan holatda ma'lum bir umumlashgan xulosa chiqarish mumkin bo'ladi.

Shunday qilib ma'naviyat – insonning ruhiyatini, uning o'z-o'zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan

---

<sup>6</sup> Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. - Toshkent: Sharq. - 2001. - B. 9.

xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir, - deb ta'rif berish o'rinli deb hisoblaymiz. Albatta, bu ta'rifni eng oxirgi, qiyomiga etgan, mukammal deb, aytishimiz mumkin emas.

Ma'naviyat inson tug'ilishida ona suti, uning allasi, mehri, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib shakllanadi. Uning qaror topishida oiladagi muhit, jamiyatdagi hamjihatlik, davlat olib boradigan siyosatdagi adolatparvarlik va insonparvarlikning qay darajada amal qilinishi asosiy o'rinni egallaydi. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Hayotga qadam tashlayotgan bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qadr topadi.

Har bir oila farzandining ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsalarni tushunib, anglay boshlaydi. Ota-onasiga, bobo va momolariga mehr va hurmati, o'zini o'rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan-kunga takomillashib boradi. Agar ota-ona, katta o'g'il-qizlar o'zini tutishni bilmasa, axloq-odob bobida kichiklarga o'rnak bo'lish o'rniga qo'pol muomila qiladigan bo'lsa, bu holat bola ma'naviy olamining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Vaqti-soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga noloyiq, xunuk odat sifatida namoyon bo'ladi. Oiladagi ma'naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag'ritosh bo'lib voyaga yetishi mumkin. Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo, har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish maqsadga muvofiqdir.

Farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin farzandlarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak

ma'naviyat asosida voyaga yetkazish nafaqat oila uchun, balki jamiyat uchun ham dolzarb ahamiyat kasb yetib kelgan. Farzand tarbiyasiga e'tibor bermaslik nafaqat ota-onalar, butun bir oila, butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ko'pgina hayotiy misollarda ko'rish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha bunyodkorlik ishlarimiz farzandlarimizning baxtu-saodati ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu-saodat faqat boylik, molu-mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, oilaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir<sup>7</sup>.

Barcha fanlarda bo'lganidek, ma'naviyatning ham mustaqil predmeti mavjuddir. Uning predmeti inson va jamiyat ma'naviy hayoti, maqsadi esa komil inson – iymon etiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish va jamiyat ma'naviy salohiyatini rivojlantirishdir.

Ana shu keng qamrovli vazifalardan ko'rinib turibdiki, inson kamoloti va jamiyatning yuksak darajaga ko'tarilishi ma'naviyatni rivojlantirishga bog'liq bo'ladi.

Ma'naviyatning moddiy kuchga aylanishi har bir insonning hatti-harakatlarida, o'z oilasi, millati va Vataniga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Yuqorida aytganimizdek, uning shakllanishida ota-ona, inson yashayotgan atrof-muhit, milliy, diniy qadriyatlar, jamiyatdagi insonparvarlik va adolatparvarlik siyosati muhim ahamiyatga ega.

Odam ota – onadan tug'iladi, ammo uning axloqi, odob borasidagi fazilatlari, ya'ni ma'naviy dunyosi jamiyatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta'sirida shakllanadi. Insonning ma'naviy olami asosan ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo'lsa ham, u o'z navbatida, jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatadi, uni belgilab beradigan omillardan biri sanaladi. Odamlarda axloq, odob, iymon, vijdon, halollik, mehnatsevarlik, milliy va insoniy g'urur tuyg'usi, burch va mas'uliyatni his qilishi qanchalik kuchli va yuqori bo'lsa, jamiyat taraqqiyotining zaminlari ham kengayishiga, tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlik barqaror bo'lishiga olib keladi.

---

<sup>7</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B.52-56.

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi kishilarning ma'naviy kamolotida ham yangi davrning yuzaga kelishidir. Ma'naviyatsiz adolatli, yuksalish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyat bo'lmaganidek, jamiyatsiz ma'naviyat ham rivojlanishi mumkin emas.

1-Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek: "Jahon xalqlari tajribasi, ularning bosib o'tgan murakkab rivojlanish yo'llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qayerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o'z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo'yib yashashi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, o'sha yerda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma'naviyat yuksalish uchun yangi imkoniyatlar tug'iladi"<sup>8</sup>. Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai sanaladi. Ma'naviyatsiz hech qachon jamiyatda odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmaydi.

Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy sohalarida mavjud bo'lgan muammolarni ma'naviyatni rivojlantirish, unga tayanish orqali hal etish mumkin. Ma'naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki qayerda, qaysi mamlakatda ma'naviyat yuksak darajada bo'lsa, o'sha joyda, o'sha mamlakatda johillik, hasadgo'ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, manmanlik, tekinxo'rlik, g'iybat qilishlik, ko'rolmaslik, yovuzlik, qo'paruvchilik, o'z vatani va xalqiga nisbatan sotqinlik, tuhmat qilish kabi salbiy illatlar, ma'naviyatsizlik ko'rinishlariga o'rin qolmaydi.

Millat ma'naviyati ushbu millatga aloqador barcha shaxslar ma'naviyatining majmuidan iboratligini ham aniqlashtirib oldik. Ammo bu hammasi nazariy ta'riflar. Amalda milliy ma'naviyat nazariyasini yaratish uchun qaysi manbalarga tayanish, uning asoslarini qayerlardan qidirish kerakligi Prezident asarlarida avval boshidanoq aniq ko'rsatib berilgan va qayta-qayta ta'kidlab kelinmoqda. Bu manbalardan eng birinchi va asosiysi buyuk ajdodlarimiz merosidir. Buyuk ajdodlarimiz bizga qoldirgan ulkan meros milliy ma'naviyatimiz nazariyasini shakllantirish uchun butun kerakli unsur va tarkiblarni yaratib qo'yibdi, faqat uni xolis nazar bilan astoydil

---

<sup>8</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B. 28-29.



qidirsak, kifoya. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab muntazam davom yetib kelayotgan qutlug‘ an‘ana-ulug‘ bobolarimiz, dunyoga dong taratgan, jahon jamoatchiligi allaqachon o‘z muqaddas mulki deb tan olgan ma‘naviy meros sohiblarining yubileylarini mamlakat va jahon miqyosida nishonlash haqidagi farmonlar va ularning ijrosi ayni shu masala milliy ma‘naviyatimiz sarchashmalariga butun xalqimiz va birinchi navbatda, yosh avlod e‘tiborini jalb etish maqsadini ko‘zda tutadi.

Xalq ma‘naviyatini, millat ma‘naviyatini sun‘iy ravishda, qandaydir o‘ylab topilgan aqidalarga, dogmalarga tayanib, yuzaga keltirib ham, keskin o‘zgartirib ham bo‘lmaydi. Chunki ma‘naviyat tushunchasining mazmuni bir kunda, bir yilda, hatto bir asrda shakllanadigan narsa emas, u har bir xalqning juda uzoq tarixi qa‘ridan oziq olib, teranlik kasb yetib keladi.

## **2.Fanni o‘rganishning maqsad va vazifalari. Fanning kategoriyalari va rivojlanish qonuniyatlari**

«Ma‘naviyatshunoslik» kursining **maqsadi** talaba yoshlar ongida ma‘naviyat tushunchasi, ma‘naviyatning inson va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, xalqimiz ma‘naviyatining shakllanish bosqichlari haqida muayyan bilim va tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

Har bir fanning o‘ziga xos **vazifalari** bo‘lganidek, “Ma‘naviyat asoslari” kursining ham vazifalari mavjud. Bular quyidagilardir:

- ma‘naviyat tushunchasi mazmun-mohiyatini yoritib beradi;
- ma‘naviyatning inson va jamiyat hayotidagi o‘rnini aniqlaydi;
- xalqimiz ma‘naviy rivoji tarixini o‘rganadi;
- yurtimizda amalga oshirilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar mohiyatini yoritib beradi;
- talaba-yoshlar ongida ezgu tuyg‘ularni shakllantiradi.

«Ma‘naviyatshunoslik»ning **kategoriyalari** falsafa, estetika, etika, dinshunoslik va boshqa fanlarning tushunchalari bilan ham uyg‘unlashib ketgan. Bu

tabiiy hol. Zero, ma'naviyatni ularning uyg'unligisiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi.

Uning kategoriyalariga inson, millat va jamiyat hayoti bilan bog'liq bo'lgan quyidagi tushunchalar kiradi: shaxsning o'z-o'zini anglashi maqomida: bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, xayrixohlik, iymonlilik, halollik, e'tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to'g'rilik va boshqalar.

Shaxsning millat vakili sifati maqomida: milliy o'z-o'zini anglash, milliy g'urur, millatparvarlik, vatanparvarlik, millat taqdiriga nisbatan ma'suliyatni, milliy manfaat ustivorligini his etish, milliy til, milliy tarix, adabiyot, san'at, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, davlat tizimiga, qonunlarga hurmat va itoatkorlik, vazminlik, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish, mamlakat ichki va tashqi faoliyatidan xabardor bo'lish va uni qo'llab-quvvatlash, mamlakat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida faollik va boshqalar bo'lsa; shaxsning jamiyat vakili sifatidagi maqomida: mamlakatning jahondagi nufuzini oshirishdagi ma'sullik, jahon sivilizatsiyasi yutuqlarini egallash, jahon xalqlari oldida turgan umumbashariy muammolariga befarq bo'lmaslik, milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg'unligini anglash, inson tabiatining bir bo'lagi ekanligi, uni asrashda ma'sullik va boshqalar.

Ma'naviyat rivojlanishi ham ma'lum qonuniyatlarga tayanadi. Garchand bunday qonuniyatlar bir necha yo'nalish va jarayonlarni o'z ichiga olsa ham, ularni asosan ikki yirik guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga shaxs, millat yoki jamiyatning ichki salohiyati bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlar kiradi. Agar ichki salohiyat nochor bo'lsa, shaxs barkamollik darajasiga, millatning o'z bir butunligini saqlashga va ayni paytda jamiyatning yuksak taraqqiyot pog'onasiga erishishiga salbiy ta'sir qiladi. Yana ham aniqroq qilib aytiladigan bo'lsa, ichki salohiyat tayanch va obyektiv zaruriyatdir. Ichki salohiyatning darajalari esa obyektiv va subyektiv omillar bilan bog'liq bo'ladi. Uning rivojlanishi ularning uyg'un holatda bo'lishini taqjzo etadi.

Ichki salohiyatning mustahkam bo'lishi, tarixiy taraqqiyot bosqichi yoki shaxs shakllanish jarayoni qanday murakkab bo'lmasin, bari bir zaruriy sharoitlar yuzaga kelgan paytda shaxs ma'naviy kamoloti va millatning yuksalishini ta'minlashga

xizmat qilaveradi.

Ikkinchi guruh qonuniyatlariga shaxslar va millatlarning o‘zaro munosabatlari jarayonida sodir bo‘ladigan «o‘zaro ta’sir» va «o‘zaro boyitish» orqali bo‘ladigan jarayonlar kiradi. Ya’ni shaxs ma’naviy kamoloti onadan tug‘ilishi bilan yuzaga kelmaydi. Xuddi shuningdek, millat ham tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichlarida boshqa xalqlar, millatlar bilan hamkorlik natijasida shakllanadi. Hech qachon shaxs, inson o‘zgalarsiz yashay olmaganidek, millat ham boshqa millatlar, xalqlar bilan aloqa munosabatlarsiz taraqqiy qila olmaydi, boz ustiga bugungi kunda dunyoda «sof» millat borligiga hech kim guvohlik yoki kafolat bera olmaydi. Jamiyat xuddi ana shu qonuniyat asosida rivojlanadi.

Ma’naviyat ana shu o‘zaro munosabatlar va «ta’sirlar» asosida rivojlanib boradi. Bu jarayonda bir tomon ikkinchisiga nimanidir «beradi» va nimanidir «qabul» qiladi. Shunday qilib, ma’naviyat rivojlanishida «ta’sir» va «aks ta’sir» qonuniyati mavjud bo‘lib, u ma’naviyatshunoslikning rivojlanib borishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ko‘rinib turibdiki, «Ma’naviyatshunoslik»ning ham boshqa ijtimoiy – gumanitar fanlar kabi, o‘ziga xos kategoriyalari va rivojlanish qonuniyatlari mavjud. Ularni o‘rganishni takomillashtirib borish yo‘li bilan ma’naviyatshunoslikning jamiyat taraqqiyoti va komil insonni tarbiyalashdagi imkoniyatlardan yana ham kengroq foydalanish mumkin bo‘ladi.

Ma’naviyat har doim ma’rifat bilan, ya’ni bilim bilan uyg‘un holda rivojlanib boradi. Har ikkalasining uyg‘unligiga erisha olsakina yoshlarimizning ma’naviy barkamol, iymon-e’tiqodli, vatanparvar, insonparvar, vijdonli, diyonatli, or-nomusli, halol va pok insonlar bo‘lib tarbiya topishlariga erisha olamiz. Bu haqda Abu Hamid Muhammad G‘azzoliy quyidagi fikrlarni bildirgan edi: Gumroh kishilar «Ilm bo‘lgach, amalga hojat yo‘q qablida fikr qiladilar. Bunday fikrlar ilmning o‘zi bilan kifoyalani, shariatni inkor etuvchilar e’tiqodi bo‘lib, ular uchun ilm hosil bo‘lsa-yu, amal bo‘lmasa. Bu kabi ilmdan foyda yo‘qligini bilishmaydi. Holbuki o‘qib o‘rgangan ilmga amal qilmagan kishining qiyomat kunidagi azobi ikki hissadir»<sup>9</sup>. Insonning bilim va ilmni egallab kundalik amaliy faoliyatda ularga amal qilishi insof,

---

<sup>9</sup> Abu Hamid Muhammad G‘azzoliy. Oxiratnoma. - Buxoro, 1992, 12-bet.

iymon, vijdon, ixlos kabi ko‘plab ma’naviy fazilatlarining yanada mustahkamlanishiga olib keladi.

Ma’naviyati va ma’rifati yuksak kishilargina elim, yurtim deb yashaydi, o‘zgalarga himmat – muruvvat ko‘rsatishni, yordamga muhtoj kishilarga ko‘mak berish va to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishni o‘zlari uchun baxt deb biladi. Yuksak ma’naviyat va marifat sohibi bo‘lgan kishilar boshiga mushkil ish, qayg‘u tushgan kishining mushkiulini oson qiladi, qayg‘usiga sherik bo‘ladi, dardiga malham bo‘ladi, hojatini chiqaradi, yetim-esirlarni parvarish qiladi. Bunday fazilat egasi bo‘lgan kishilarda milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘usi, oriyat kuchli bo‘ladi. Ular o‘z millati, el-ulusi manfaati sharafini himoya qilishni o‘zi uchun shon-sharaf deb biladi, Vatan mustaqilligiga xavf tug‘ilsa, uning himoyasi yo‘lida mol-dunyosini, jonini ayamaydi, fidoiylilik va qahramonlik namunalarini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib faqat ma’rifatli kishilargina yuksak ma’naviyat sohibi bo‘lar ekan degan xulosaga kelish ham unchalik to‘g‘ri emas. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, ma’naviyatli odamlarning hammasi ham doimo ma’rifatli bo‘lavermaganlar. Shu bilan birga ilmi, ma’rifatli kishilarning ham hammasi yuksak ma’naviyatli bo‘lmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Shunday kishilarga qarata xalqimiz haqli ravishda o‘zida chuqur ma’no-mazmunni ifoda etgan «Olim bo‘libtiyu, ammo odam bo‘lmabdi», - degan hikmatli iborani ishlatib kelgan. Boshqacha aytganda insonlar borki, olim emas. Olim bo‘lmasa bo‘lmas, ammo ma’naviyati yuksak. Olimlar borki ular inson zotiga loyiq emas. Bunisi og‘ir. Ulardan elga, yurtga foyda yo‘q<sup>10</sup>.

Xalqimiz topib aytganidek, sholi kurmaksiz bo‘lmaydi. Bu ibora hayotda kamdan-kam uchraydigan ma’naviyati sayoz ayrim ilm ahllariga nisbatangina ishlatib kelingan. Bunday insonlarga nisbatan kishilar nafrat bilan qaragan. Aksincha, ma’naviyat va ma’rifatni o‘zida uyg‘un mujassam etgan ilm ahllaridan ibrat olganlar, o‘z farzandlarini shunday insonlar bo‘lib kamol topishini orzu qilganlar. Yuqoridagi ibora bilan birga xalqimiz «Olim bo‘lma, odam bo‘l» iborasini ham ishlatib kelgan. Bunday holat ma’naviyat va ma’rifat bir-birini inkor etadi degani emas. Aksincha,

---

<sup>10</sup> Otamurotov S., Abduraxmonov M., Xusanov S. Ma’naviyat asoslari. Darslik. – Toshkent, 2009, 59-b.

ma'naviyat va ma'rifat o'zaro hamohang, bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan, bir-birini taqozo etuvchi, inson va jamiyatni kamolotga eltuvchi omildir. Ular bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib rivojlanib boradi.

### **3.Ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni**

Ma'naviyatshunoslikning mustaqil fan sifatida shakllanib va takomillashib borishi uning jamiyat taraqqiyoti va komil insonni tarbiyalashdagi rolini oshirmoqda.

Ma'naviyat - davlat siyosatida ustivor sohaga ko'tarildi va u o'zining ijobiy natijalarini ko'rsata boshladi.

1-Prezidentimiz Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy majlisning birinchi sessiyasida qilingan ma'ruzasida ham ma'naviyat masalasi XXI asr bo'sag'asida ikkinchi ustivor yo'nalish deb qaradi. Hozirda erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifa ekanligi qayd etildi. Boshqacha aytganda, o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea – hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalashimiz kerak ekanligi uqtirildi.

Aslini olganda, hozirgi kunda ma'naviyatning ustivor sohaga ko'tarilishining bir qator sabablari bor. Ular quydagilardan iborat:

**Birinchi**dan, jamiyatda amalga oshiriladigan barcha vazifalarning taqdiri, unda yashaydigan odamlarning tafakkuri, ongi qay darajada o'sishi bilan bog'liqdir. Ularning ongi va tafakkurini amalga oshirmoqchi bo'lgan vazifalar mohiyati va manfaati yo'nalishidan kelib chiqqan holda o'zgartirmasdan turib ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ana shu ma'noda ham ma'naviyat jamiyat hayotini o'zgartirishning muhim mexanizmi hisoblanadi va har qanday davlat o'z maqsadlari va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishga ustivorlik bilan qaraydi.

**Ikkinchi**dan, mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq Sovet mafkurasidan voz kechish bayrog'i ostida umuman har qanday mafkuraga qarshi kurash boshlandi. Bu

o'z navbatida odamlarning ma'naviyatiga, shakllangan qadriyatlariga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkaza boshladi. Ayniqsa, matbuotlarda ba'zi olimlar, birinchi navbatda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish zarur, ma'naviyat esa ana shu iqtisodiy tafakkur zaminida yuzaga keladi degan fikrlarni ilgari sura boshladilar. Oqibatda odamlar ruhiyatida yana bir tomonlama ketish turmush tarzida yetakchi o'rinni egallay boshladi. Bu o'z navbatida, milliy manfaatlar yoki vatanparvarlik haqida qanchalik gapirmaylik, u o'zining biz kutayotgan natijalarini bermasdan, balki odamlarda shaxsiy manfaatlarga ustivorlik berishga xizmat qila boshladi. Bunday salbiy jarayonning yuzaga kelishi yangi jamiyat qurish uchun xatarli.

**Uchinchidan,** mustaqillikning dastlabki yillarida yuzaga kelgan iqtisodiy muammolar oldida odamlarning aksariyat qismi dovdirab qoldi, ko'pchilik hollarda yoshlarning ta'lim olish, kasb o'rganish, san'at va badiiy asarlarga qiziqishdan ko'ra bozorga chiqish, pul topishga intilish xavfini yuzaga keltirdi. To'g'ri, pul topish, o'z hayotining iqtisodiy imkoniyatini mustahkamlash har bir inson uchun hayotiy ehtiyoj va zarurat hisoblanadi. Ammo bu ehtiyoj shaxs va millat kamoloti manfaatlariga zid bo'lmasligi, ularning ma'naviy qashshoqlashib ketishiga xizmat qilmasligi lozim. Ana shu yuzaga kelayotgan xavfli jarayonning oldini olish zarur.

**To'rtinchidan,** sobiq ittifoq sharoitida fan, texnika, maorif, oliy ta'lim, bir qator sanoat korxonalarini vujudga keltirish va rivojlantirishda ko'pgina yutuqlar qo'lga kiritilgan edi. Ammo, ular markaz va qolaversa «katta og'a» manfaatlariga xizmat qilgan. Ana shu potensial sobiq Ittifoqdosh Respublikalarga turli bahonalar bilan rus millati vakillarini yuborish, ularni mahalliy xalqni boshqarish, ularga rus turmush tarzi, tili, urf-odatlarini, xarakterini singdirish hisobiga mamlakatda rus millati ma'naviyati ustivorligiga tayanuvchi yagona til, ma'naviyat va turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilib kelgan edi. Bunday ayyorona va zo'ravonlik siyosati oqibatida millatlarning o'zligini anglashga bo'lgan intilishiga katta zarb berildi. Bu sobiq ittifoqda umummilliy inqirozni yuzaga keltirdi.

Bu inqiroz millatning «yo'q» bo'lib ketishi xavfini vujudga keltiradi. Bunday salbiy jarayonning oldi olinmasdan, millatning rivojlanishiga erishib bo'lmaydi. Uni bartaraf etish faqat milliy ma'naviyatni tiklash va rivojlantirish orqali amalga

oshirilishi mumkin.

**Beshinchidan,** ma'naviyatning davlat siyosatida ustivor bo'lishiga yana bir sabab, millat son jihatidan kattami yoki kichikmi bundan qat'iy nazar, uning real subyekt, ma'lum moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi, iste'molchisi, boshqalarda uchramaydigan, o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini va o'zining mustaqil o'rniga ega bo'lishi kabi omillarni, ya'ni chinakam millat sifatidagi maqomini tiklash hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarilgan edi. Uni hal etish millat va davlatning kelajagi uchun amaliy ahamiyatga egadir.

**Oltinchidan,** o'zbeklar jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan xalqdir. Uning ma'naviyat, fan, madaniyat sohasidagi erishgan yutuqlari jahon xalqlariga asrlar osha xizmat qilib kelmoqda. Ammo sho'rolar tuzumi davrida ajdodlari tomonidan yaratilgan ana shu yutuqlarni o'zbek xalqining ongi va qalbidan «chiqarish» borasida ham katta ishlar amalga oshirilgan edi. Mustaqillik sharoitida esa uni qayta tiklash, jahon sivilizatsiyasidagi munosib va adolatli o'rnini tiklash zarur edi. Bunga esa faqat ma'naviyatni rivojlantirish orqali erishish mumkin.

**Yettinchidan,** ma'naviyat millatni va butun mamlakat aholisini ma'lum maqsadlar sari davlat atrofiga uyushtiruvchi, ularni faollashtiruvchi, yorqin kelajakka ishontiruvchi, inson zotini ulug'lovchi, uning qadrini anglatuvchi ulkan «mexanizm» hamdir. Xuddi ana shu muhim «mexanizm»dan mustaqillikni mustahkamlash, islohotlarni amalga oshirish, millatimizning qaddini ko'tarishda foydalanishga bo'lgan ehtiyoj davlatimiz, eng avvalo, 1-Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan o'z vaqtida anglab olindi.

Ma'naviyatni rivojlantirish mamlakatimiz va millatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida ayniqsa asosiy vazifa darajasiga ko'tarilmoqda. Bu faqat mamlakatimizning ichki hayoti bilangina bog'liq bo'libgina qolmasdan, balki uning barqaror rivojlanishga tahdid solishga urinayotgan tashqi turli oqimlarning mavjudligi bilan ham bog'liqdir. Ularning ayniqsa hayot tajribasiga ega bo'lmagan yoshlarimizning ongini zaharlash borasida olib borayotgan harakatlariga qarshi tura oladigan, erkin fikrlaydigan, fidoiy Vatanparvarlarni tarbiyalash ma'naviyatni yuksak darajada rivojlantirishini taqozo qilmoqda.

Agar ana shu vazifalardan kelib chiqiladigan bo'lsa bugun ma'naviyatni rivojlantirishni quydagi yo'nalishlarda:

Birinchi, sobiq sovet totalitar tuzumining zo'ravonlik va tobelik tafakkuri qoldiqlaridan qutilish. Buning uchun har bir insonning ichki ruhiy salohiyatini yuzaga chiqarish, fikr erkinligini ta'minlash, har bir shaxsning o'z taqdiri va kelajagini o'zi yaratish imkoniyatini hamda ruhiyatini shakllantirish;

Ikkinchi, har bir shaxsda mustaqillik tafakkurini rivojlantirish, o'zbek millatiga mansubligidan faxrlanish, avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni egallash, ularni mamlakat va milliy taraqqiyotiga keng jalb qilishda fidoiylik ko'rsatish zarurligini anglash ruhiyatini mustahkamlash;

Uchinchi, har bir shaxsda milliy o'zligini anglash jarayonini rivojlantirish, Vatan va millat manfaatlari yo'lida fidoiylik ko'rsatishi, mamlakat va milliy taraqqiyotga, siyosiy, ijtimoiy hamda millatlararo barqarorlikka, diniy bag'ri kenglikka putur yetkazuvchi har qanday harakatlarga qarshi ma'naviy – siyosiy va fuqarolik salohiyatiga ega bo'lishiga erishish;

To'rtinchi, har bir shaxsning bilim olishga intilishiga, mamlakatimiz va jahonda fan, texnika, texnologiya sohasida erishilgan yutuqlardan bahramand bo'lishiga sharoitlar yaratish, O'zbekistonning jahonda nufuzining mustahkamlanib borishidan g'ururlanish kabi ma'naviy-ruhiy salohiyatiga erishishdir.

Mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqaroda, ayniqsa yoshlarimizda ana shunday salohiyatlarni shakllantirishimiz umumma'naviy yuksalish uchun asosiy mezon hisoblanadi.

1-Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Bugungi kunda xalqimizga azaldan xos bo'lgan hamjihatlik va bag'rikenglik, mehr-oqibat, mehmondo'stlik va sahovat kabi insoniy fazilatlar yanada yorqin namoyon bo'lmoqda va bunday ma'naviy muhit odamlarning ruhiyati va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda»<sup>11</sup>.

Bunday ijobiy ko'rsatgichlarga mamlakatimizda ma'naviy yuksalishga qaratilgan siyosatning olib borilayotganligi asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlarining "Milliy

---

<sup>11</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 1994. – B. 28.



tiklanishdan – milliy yuksalish sari” deb nomlangan to‘rtinchi jildi o‘zbek va rus tillarida “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida nashrdan chiqdi. Kitob to‘rt bo‘limdan iborat bo‘lib, uning birinchi bo‘limi “Xalqimizning hayot darajasi va sifatini yangi bosqichga ko‘tarish – eng muhim vazifamiz” deb nomlangan. Unga davlat rahbarining O‘zbekistonning siyosiy - ijtimoiy hayotidagi eng muhim voqealar munosabati bilan so‘zlagan nutq va ma’ruzalari kiritilgan.

“El-yurtimizning mustahkam irodasi va matonatiga tayanib, sinovlardan munosib o‘tamiz” deb nomlangan ikkinchi bo‘limdan esa koronavirusga qarshi kurashga bag‘ishlangan ma’ruza, nutq va murojaatlar joy olgan.

Kitobning “Do‘stona amaliy hamkorlik – barqaror rivojlanish kafolati” deb nomlangan uchinchi bo‘limining xorijiy davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashuvlardagi nutq va ma’ruzalardan iboratligi qayd etilgan.

Kitobning to‘rtinchi – “Tabrik va qutlovlar” bo‘limiga esa O‘zbekistonda keng nishonlanib kelayotgan umumxalq bayramlari, tarixiy sanalar, turli xalqaro anjumanlar, tadbir va marosimlar munosabati bilan yo‘llangan tabrik va qutlovlar kiritilgan.

Bugungacha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 3 jiltlik, shu jumladan, “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”, “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir”, “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi” asari yana o‘zbek va rus tillarida “O‘zbekiston” nashriyot - matbaa ijodiy uyida nashrdan chiqqandi.

Turkiya Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi, Kutubxonalar va nashriyotlar bosh boshqarmasi va Turkiya Respublikasining Toshkentdagi elchixonasining Madaniyat va Targ‘ibot boshqarmasining tashabbusi bilan professor doktor Firat Purtash boshchiligidagi guruh shu jumladan matnlarni o‘zbek tilidan turk tiliga professor doktor Firat Purtash bilan doktorantura (Phd) talabasi Saida Burhonidinova o‘g‘irar ekan tahrir qilish ishlarini dotsent doktor O‘g‘uzxon Aydin o‘z zimmasiga olgan kitob, eng avvalo Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xalq kutubxonasi ochilish marosimida (20 – fevral 2020) yagona faxrli mehmon sifatida

ishtirok etgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga Prezident Erdo‘g‘an tomonidan sovg‘a qilingandi.

#### **4. “Ma’naviyatshunoslik” fanining metodologik asosi**

«Ma’naviyatshunoslik» ham boshqa fanlar kabi o‘zining mustaqil tarkibiy qismlariga ega. Ular madaniyat, madaniy meros, mafkura, qadriyatlardir.

Ma’naviyat va madaniyat bir-biriga yaqin tushunchalardir. Ammo ular bitta narsa emas, biri ikkinchisidan farq qiladi. Shuning bilan birga ular bir-birini to‘ldirib turadilar. Madaniyat har doim ma’lum bir ma’naviyatning timsolini ifodalaydi. O‘z navbatida ma’naviyat ham qaysidir narsa, belgi, tasvir, ramzlar moddiylikda namoyon bo‘ladi.

Madaniyat deyilganda, mehnat qurollarini yaratish va ulardan foydalanish, fan-texnika yutuqlari va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish, kishilarning ishlab chiqarish va ijtimoiy ko‘nikmalari, mehnatni ijtimoiy tashkil etish, salomatlikni saqlash, aholi o‘rtasida bilimlarning yoyilish darajasi va ma’lumot, umumiy majburiy va oliy ta’limni amalga oshirish, adabiyot va san’at asarlari, ijtimoiy, falsafiy, diniy g‘oyalar va shu kabilar. Boshqacha aytganda, madaniyat - bu insonning tabiat, jamiyat bilan birgalikdagi yaratgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar dunyosidir. Uning tadqiqot manbaiga:

- inson yaratgan san’at sohasi;
- kishilarning muomala vositasi bo‘lgan til;
- jamiyat boyligi va mezonini bo‘lmish bilim;
- ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tashkilotlar;
- jamiyatda sodir bo‘luvchi demografik va etnik jarayon kabilar kiradi.

Madaniyat bir butun ikki sohadan iborat: Moddiy va ma’naviy madaniyat . Uzoq vaqtlar fanda madaniyat deganda faqat ma’naviy madaniyat nazarda tutilgan. Negaki, borliqni haqiqat, yaxshilik, go‘zallik belgilaydi deb hisoblashgan.

Industrial jamiyatining vujudga kelishi, uning texnikaviy taraqqiyoti va texnologiyalarini tezda almashishi madaniyatshunoslarni insoniyatning barcha

moddiy madaniyatini o'rganishga majbur qildi.

Moddiy madaniyat bir butun uch sohadan iborat: 1-sohasi bu mehnat qurollari ishlab chiqarishning barcha vositalari, turar joylar, aloqa vositalari, texnika qurilmalarga, bu jamiyat hayotining moddiy texnika asosi deb ataladi.

2-sohasiga ijtimoiy hayot va uning barcha tarmoqlarining me'yoriy harakatini ta'minlovchi ko'plab ijtimoiy institutlar, tashkilot va muassasalar faoliyati bilan bog'liq. Bunga turli hokimiyat tuzilmalari va unga munosib boshqaruv shakllari, ijtimoiy tashkilotlar, ta'lim, yosh avlodni tarbiyalash va ta'lim berish, sog'liqni saqlash va dam olish, bo'sh vaqt va ko'ngil ochish muassasalari tizimi kabi barcha ijtimoiy institutlar amalda jamiyat madaniyatini saqlaydi, o'zgartiradi va qayta shakllantiradi.

Moddiy madaniyatning uchinchi sohasi (ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab chiqaruvchi) insonning o'zi hisoblanadi. Moddiy madaniyatning bu sohasi nafaqat insoniyatni shunchaki biomavjudotlik muammolarini tadqiq qilmasdan, balki avlodlarning o'zaro munosabatlari muammolarini ham tahlil qiladi.

Umuman, moddiy madaniyatga mehnat madaniyati, ishlab chiqarish madaniyati, turmush madaniyati, ekologik madaniyatlar kiradi.

Ma'naviy madaniyat kishilar ma'naviy ijodkorligi faoliyatlari natijalari-tasavvurlar, g'oyalar, ilmiy bilimlar, diniy qarashlar, san'at sohalari, axloqiy va huquqiy me'yorlarni ishlab chiqarishdan hosil bo'ladi.

Ma'naviy madaniyatning aniq sohalariga falsafa, huquq, axloq, estetika va umuman ijtimoiy gumanitar fan sohalari kiradi.

Madaniyatning ikkinchi turi-bu ma'naviy madaniyatdir. Ma'naviy madaniyatga insonning aqli va ma'nan yaratuvchanlik faoliyatlari va ularning natijalari kiradi. Ma'naviy madaniyat tushunchasi ko'p qirrali bo'lib insoniyat o'z-o'zini, avlodlarini saqlab qolishda, hayotda paydo bo'lib turadigan ijtimoiy-ma'naviy inqirozlarni yengib, yangi sharoitlar yaratishda, uni o'rganishda, taraqqiyot yo'llariga o'tishning eng to'g'ri yo'llarini kashf etishda xizmat qiladigan bilim, tajriba, dunyoqarash, an'analar va urf-odatlar majmuini ifodalaydi. Ma'naviy madaniyat ilm-fan, falsafa, san'at, adabiyot, axloq, huquq, siyosat, maorif, ma'rifat, ommaviy axborot vositalari,

urf-odatlar, an'analar hamda din va diniy amaliyot-ibodat, diniy marosimlar, diniy adabiyot, san'at kabi ko'plab tarixiy va zamonaviy qadriyatlar yig'indisidan tashkil topadigan insonning zohiriy va botiniy ma'naviyati, ruhiyati olamidir. Yuqoridagilar ma'naviy madaniyatning inson va jamiyat faoliyatida namoyon bo'luvchi ko'rinish va shakllaridir.

Ma'naviy boyliklar olimlar, musavvirlar, bastakorlar, shoir va yozuvchilar, nazariyotchilar, xullas, xalq tomonidan yaratiladi. Ma'naviy madaniyatni yaratish, o'zlashtirish va rivojlantirish jarayonida jamiyat taraqqiy etadi, mehnat unumdorligi ortadi, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanadi, kishilarning ma'naviy qiyofasi shakllanadi, axloq odobi, did va farosati, estetik zavqi, ijodiy kuchi va qobiliyatlari taraqqiy etadi.

Umuman kishilik jamiyatini madaniyatsiz, xususan, ma'naviy madaniyatsiz tasavvur qilish qiyin. Jamiyat, inson bor ekan u ma'lum madaniyatga ega, busiz bo'lishi mumkin emas.

Madaniyatning barcha turlari dialektik birlikda, o'zaro aloqadorlikdadir. Moddiy madaniyatni ma'naviy madaniyatdan batamom ajratib qarash mumkin emas. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida moddiy va ma'naviy madaniyat organik ravishda birikadi. Birorta mehnat qurolini, moddiy boylikning biror turini inson aql-idrokisiz, tafakkurisiz, aqliy mehnatisiz yaratib va takomillashtirib bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytsak, moddiy madaniyatni barpo etish zamirida ham ma'naviyat yotadi. Har qanday moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalari inson aqliy va jismoniy mehnati sintezi asosida yuzaga keladi. Ma'naviy madaniyat voqe'likni badiiy aks ettirish va o'zlashtirish vositasidir.

Madaniyat – umuminsoniy hodisa. U barchaga baravardir. Masalan, maqomlar, adabiyot, me'morchilik durdonalari, fan-texnika yutuqlari, transport va aloqa vositalari barchaga tegishlidir. Ammo, bu madaniyatning milliy shakli bo'lmaydi, degan ma'noni anglatmaydi. Chunki u qanchalik umuminsoniy bo'lmasin, baribir uning zaminlari milliylikka borib taqaladi. Umuminsoniyat mulkiga aylangan har qanday madaniyat ham u yoki bu millat tomonidan yaratiladi, u madaniyatga o'ziga xos bo'lgan tomonlarini singdiradi. Masalan, umuminsoniyat mulkiga aylangan

Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi hunarmandchilik va arxitektura durdonalari, eng avvalo O'zbeklarniki, ularga O'zbeklarning avlod-ajdodlari o'zlariga xos milliy jilo berganlar. O'zbekona bunday san'at asarlari dunyoning boshqa xalqlarida uchramaydi. Xuddi ana shu xususiyati bilan ular milliy hisoblanadi.

1-Prezidentimiz milliy ma'naviyat haqida to'xtab: "Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur yetib bo'lmaydi. Bu borada, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi", - deb ta'kidlagan edi.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent va boshqa qadimiy shaharlarimizdagi xalqimiz moddiy va ma'naviy madaniyatini o'zida ifoda etgan Sharq me'morchilik san'atining durdonalari bo'lmish tarixiy obidalarini saqlash, ularni qayta tiklash va ta'mirlash ishlariga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Chunonchi, mustaqillik yillari Samarqanddagi Imom Buxoriy va Imom Moturudiy ziyoratgohlari, Buxorodagi Abduxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshbandiy, Minorai Kalon va Masjidi Kalon majmualari, Farg'onadagi Ahmad Farg'oniy va Burhonuddin Marg'iloniy yodgorliklari, Surxondaryodagi Hakim Termiziy va Imom Termiziy, Hivadagi Ichan qal'a, Shahrisabzdagi Dorut – tilovat, Qarshi shahridagi Odina va Ko'kgumbaz obidalarini, Karmana shahridagi Qosim shaxh maqbarasi, Toshkentdagi Hazrati Imom (Hastimom) majmuasi singari o'nlab qadamjolarini obod etish bo'yicha keng ko'lamdagi bunyodkorlik ishlari olib borildi.

Sobiq sho'ro davrida boy ilmiy-madaniy merosni o'zida jamlagan tarixiy – ma'naviy qo'lyozmalar maxsus fondlarda saqlab kelinar va ulardan faqat tor doiradagi mutaxassislar ilmiy maqsaddagina foydalana olardi. Bu ma'naviy merosimizni asl insoniy mohiyatiga mos ravishda chuqur o'rganish, ma'naviy hayotimizning uzviy bir qismi sifatida talqin va targ'ib qilishga mutlaqo yo'l qo'yilmasdi. Bunga jur'at qilgan odamlarning qanday tazyiq va xavf-xatarlarga uchrashi muqararligini yaqin o'tmishimiz bilan tanish bo'lgan har qaysi o'rta va keksa avlod yaxshi biladi. Tarixiy madaniy – me'moriy madaniyat yodgorliklari –

masjid va madrasalar, maqbaralar qarovsiz, xaroba holga kelib qolgan edi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq diniy ma'naviy-madaniy merosimizga bo'lgan bunday salbiy munosabatga chek qo'yildi, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma'naviy va madaniy merosga voris xalq ekanligimizni anglash va bu bilan faxrlanish yo'lida qator tadbirlar amalga oshirildi. Ulug' ajdodlarimiz yaratgan bebaho ilmlar, jahon fani va madaniyatiga beqiyos katta hissa bo'lib qo'shilgan asarlarni teranroq o'rganish imkoniyati yuzaga keladi. Yurtdoshlarimiz Imom at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy, Baxouddin Naqshbandiy, Mahmud Zamaxshariy, Burxoniddin Marg'inoniy, Abu Mansur Moturudiy va boshqa islom olamining allomalari hayoti va ijodi o'rganilib, ularning o'lmas asarlari xalqimiz ma'naviy xazinasiga qaytarildi. Mazkur ulug' zotlar mangu qo'nim topgan joylar obodonlashtirilib xalqimizning ziyoratgohlariga aylantirildi. Zotan bu buyuk siymolar odamlar ongiga poklik, halollik, diyonat, adolat, insonparvarlik kabi umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarni singdirishib, kishilik jamiyatining ezgulik yo'lidan taraqqiy topishiga ulkan hissa qo'shdilar.

Allomalar qoldirib ketgan ma'naviy meros bugungi kunda diniy qadriyatlarimizni tiklashimizning asosi bo'lmoqda, ma'naviyatimizni, qalbimiz va ruhiyatimizni boyitmoqda. Ularning asarlari o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy boyligi bo'lishi bilan birga butun dunyo xalqlarining mulkiga aylangandir.

Avlod-ajdodlarimizdan qoldirilgan ana shu moddiy va ma'naviy meros mustaqillik sharoitida ma'naviy tiklanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy rivojlanishimiz uchun asosiy manba bo'lib kelayotganligi, ruhiyatimizni boyitib borayotganligi madaniyat va ma'naviyatning har doim uyg'un rivojlanishini tasdiqlovchi yorqin misol bo'la oladi. Ular har doim bir-birlariga ijobiy ta'sir o'tkazib o'zaro bir-birlarini boyitib kelganlar. Ularning uzviyligi umummilliy ma'naviyatimizni rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

**«Ma'naviyatshunoslik» fanini o'rganish va o'qitish uslublari.** Ma'naviyat ko'ngil ko'zgidan taralgan nur, u inson qalbida yashiringan. Demak, «Ma'naviyatshunoslik» fanining asosiy vazifasi ham ruh tarbiyasi, ko'ngil ko'zgisiga sayqal berishda har bir shaxsga ko'maklashuvdir. «Ma'naviyatshunoslik» fani

insonning Oliy haqiqatga nisbatini o'rganadi. Buning uchun ma'naviyat muallimi, faylasufdan farqli o'laroq, o'z mulohazalarini sof mantiqiy mulohazalar tarzida emas, balki ma'naviy merosga, bu sohada ajdodlarimiz erishgan beqiyos yutuqlarga asoslangan holda olib boradi, ya'ni bu fan, ma'lum ma'noda, tarixiy-nazariy fandır. Uning teranligi va ko'lami ajdodlarimizning ming yillar davomida to'plagan yaxlit tarixiy-ma'naviy tajribasi bilan belgilanadi, shu bilan birga xalq donishmandligining turli suratlarda zuhur etishi ham undagi nazariy xulosalarning manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Milliy ma'naviyat o'tmishnigina emas, ham bugun, ham kelajakni o'zida mujassam etadi. Buning uchun uning manbai sifatida biz faqat ajdodlarimizning yozma merosiga tayanib qolmay, balki ushbu merosdan anglanimizni bir paytning o'zida xalqning tirik xotirasi bilan, uning ma'naviy qadriyatlari bilan qiyoslab, ularning uyg'un jihatlariga e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Shu bilan birga tarix tajribasi va sinovlaridan o'tgan qiymatlarni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, hozir va kelajak uchun ahamiyati nuqtai nazaridan baholash ko'zda tutiladi. Xullas, milliy ma'naviyat nazariyasi voqelikni faqat ong bilan, aql bilan tushunib etish tajribasiga emas, haqiqatni anglab etishning barcha vositalari, e'tiqod, ibrat, taqvo, riyozat, irfon, mehr, did-farosat, amaliy yaratuvchilik faoliyatining barcha turlariga e'tibor qaratib, millatning barcha amaliy va nazariy tajribasini o'rganishga intiladi, ushbu tajribani ongli o'zlashtirishda har bir insonga ko'maklashadi, maqsad bitta, ko'ngil ko'zrusiga sayqal berishda har bir shaxsga iloji boricha yordam berishdir.

Inson ruhida tabiatga nisbatan, o'zgaralarga nisbatan mehr va adolat tuyg'ulari shakllanishiga uning moddiyligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan nafsi ammorasi, ya'ni g'afolat, shahvat va kibr kabi qusurlar doimo xalaqit berib turadi, shuning uchun har bir kishi hayotga, o'z faoliyatiga sergak boqishi lozim. Ushbu illatlar har bir inson fitrati bilan bog'liq bo'lgani tufayli inson moddiy mavjudot sifatida tirik ekan, ulardan butkul qutulish umidi xom xayol, faqat ulami muvozanatlovchi kuch kerak. Ayni shu kuch ma'naviyatdir.

«Ma'naviyatshunoslik» tushunchasi faqat ba'zi hollarda «madaniyat» tushunchasining tarkibida «ma'naviy madaniyat» («duxovnaya kultura») sifatida olib qaralgan. Bugungi kunda bu masalaga yangicha qarash shakllanib kelmoqda. Bu qarashga binoan ma'naviyat moddiy ehtiyojlar hosilasi sifatida emas, inson va jamiyat hayotining asosini tashkil etuvchi mustaqil uch yo'nalish (iqtisod, siyosat, ma'naviyat)ning biri sifatida olib qaralmoqda. Shunday yondoshuvdan kelib chiqqanimizda, aksincha, «madaniyat» inson ma'naviy faoliyatining hosilasi, boshqa so'z bilan aytganda, inson ma'naviyatining moddiy voqelikdagi izlari sifatida namoyon bo'ladi. «Milliy ma'naviyat asoslari» fani dasturiy tizimini belgilashda ushbu yangicha yondoshuvga tayanildi.

Ma'naviyat insondagi yaratuvchilik qudratidir, insonda shu qudratni uyg'otish va harakatga keltirishga muvaffaq bo'linsa, barcha ulug'vor rejalarni amalga oshirish uchun imkoniyat vujudga keladi. Masalaga bugungi jahon taraqqiyotining ilg'or tamoyillari darajasida yondoshilsa, milliy ta'limning eng muhim vazifasi ham ana shu imkonni shakllantirish, ya'ni yosh avlod ruhida yaratuvchilik qudratini uyg'otib, uni bashariyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muayyan o'zanlar sari yo'naltira bilish bilan belgilanadi.

Ma'naviyat poydevori baquvvat bo'lmasa, unday insonning butun g'ayrati, jo'shqin faoliyati, oxir natijada, xalq va vatan uchun, bashariyat kelajagi uchun, qolaversa, uning o'z shaxsi uchun qanday xulosaga olib keladi, aytish qiyin. Imom G'azzoliy o'z davrida bekorga aytmaganlar. «Shuni bilsinlarki, odamzodni azbaroyi o'yin uchun yaratmishlar, aning amali ulug'dir va uning uchun buyuk xatar bordir». Ana shu «ulug' amal» va «buyuk xatar» oralig'ida yo'nalishni to'g'ri belgilab olmoq ko'p jihatdan ma'naviy ogohlik va kamolotga bog'liq. «Milliy ma'naviyat asoslari» fanini o'qitish jarayonida asosiy e'tibor ushbu «ma'naviy ogohlik» masalasiga qaratiladi, shu bosh maqsaddan kelib chiqqan holda, imkon darajasida yosh avlodni milliy ma'naviyatimizning asosiy tamoyillari, uning ming yillik ildizlari, takomil bosqichlari, bosh qadriyatlari va tayanch nuqtalari, kelib chiqish manbalaridan ogoh etiladi.



«Milliy ma'naviyat asoslari» fanining asosiy obyekti - mustaqil O'zbekiston uchun eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan shaxs va millat ma'naviyatining takomili, asosiy qadriyatlari, shakllanish yo'llari xususidagi milliy ma'naviy merosimiz an'alariga tayanuvchi nazariy xulosalar va qarashlar tizimidan iboratdir. Ma'lumki, jahon madaniyatiga bizning ajdodlarimiz qo'shgan hissa ozmuncha emas. «Milliy ma'naviyat asoslari»ning maxsus fan sifatida o'rganilishi, shu ma'noda, bugungi kunda ham jahon madaniyati rivojiga muayyan ijobiy natijalar keltirish ehtimolini nazardan qochirib bo'lmaydi. Demak, milliy ma'naviyat doimo umumbashariy miqyosni nazarda tutgan holda o'rganiladi.

### **Fanning o'qitish uslublari:**

- 1) uning maqsad va vazifalaridan;
- 2) ta'lim qaysi tinglovchilar (talabalar, o'quvchilar) uchun mo'ljallanayotganligidan kelib chiqib belgilanadi: ma'ruzalar, suhbatlar, turli xil amaliy mashg'ulotlar tizimi har bir o'quv yurti ixtisos yo'nalishiga muvofiq ravishda ishlab chiqilib, ular nafaqat ushbu oliy dargoh professor-o'qituvchilari, balki mavzu toqozosiga ko'ra, respublikaning muayyan sohadagi yetakchi olimlari va mutaxassislarini taklif qilingan holda tashkil etiladi. Darslar, ayniqsa, suhbatlar faqat darsxonalarida emas, mavzuga muvofiq ravishda turli madaniyat muassasalari, jumladan, muzeylar, teatrlar, ilmiy tadqiqot institutlari va h.k.larda ham tashkil etilishi yaxshi samara beradi.

**“Ma'naviyatshunoslik” tarixiy-nazariy fan sifatida.** Meros insoniyatning har bir tarixiy bosqichda yashagan ajdodlari tomonidan yaratilgan va keyingisiga yetib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari majmuidir. Madaniy meros ham meros doirasiga kiradi, ammo undan biroz farq qiladi. O'tmishdagi barcha madaniyat yodgorliklari meros sifatida saqlanib qolishi mumkin, lekin ularni hammasi ham madaniy qadriyatga ega bo'lavermaydi. Madaniy merosda kishilikning kelgusi taraqqiyotiga, ma'naviy yuksalishga xizmat qiladigan, unga ijobiy ta'sir qiladigan, qadriyat ahamiyatiga ega bo'lgan tomonlar hisobga olinadi.

O'tmish avlodlar yaratgan madaniy yodgorliklarning hammasi ham madaniy meros bo'lavermaydi, chunki o'tmishdan qolgan narsalarning hammasi ham qadriyat

ahamiyatiga ega bo'laermasligi hammamizga ma'lum. Masalan, Sho'rolar davrida yaratilib, uning siyosati, mafkurasini targ'ib etgan, endilikda o'z umrini yashab o'tgan kitoblarning bugun uchun ham, kelajak uchun ham qadriyati, ahamiyati yo'q. To'g'ri, ular meros, lekin madaniy meros emas, ularni tarixiy fakt sifatida saqlab qo'yish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, madaniy meros deb, o'tmish avloddan keyingi avlodga vorislik asosida qoldirilgan, zamonda barqarorlik sinovidan o'tgan, saralangan, insoniyatning hozirgi va kelgusi taraqqiyotiga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy madaniyat majmuiga aytishimiz mumkin.

Kishilikning har bir avlodi ajdodlari tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni meros sifatida qabul qilib oladi. Tarixiy vorislik – jamiyat va uning madaniyati ravnaqi shartidir. Ming afsuslar bo'lsinkim, Sho'rolar davrida madaniy merosga to'g'ri munosabatda bo'linmadi. «Boy-u zamindorlarga, hokim sinf tabaqalariga xizmat qilgan o'tmish madaniyatining bizga keragi yo'q, yangi proletar (yo'qsil) madaniyatni yaratamiz» degan shior ostida sobiq Sovet Ittifoqi xalqlarining, jumladan, o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy madaniyatiga qiron keltirildi, saroylar, masjid va madrasalar buzib tashlandi, qarovsiz xaroba holiga keltirildi, nodir asarlar yondirildi. Bu siyosat tufayli madaniy merosimiz toptaldi.

Madaniy va ma'naviy meros o'zaro bir-biridan farq qilsa-da, ularning o'rtasiga o'tib bo'lmas «Xitoy» devorini qo'yish ham mumkin emas, madaniy merosni barpo etishning zamirida ham ma'naviyat – ya'ni insonning ma'naviy–ruhiy bilimlari, qobiliyati, iste'dodi, aqli, empirik va nazariy bilim tajribalari, mehnat malakasi kabi boshqa ma'naviy faoliyatlari yotadi. Madaniy va ma'naviy meros o'rtasida umumiylik ham, farqli tomonlar ham mavjud. Ayni payitda, ular o'rtasida yuqorida aytilgan aloqadorlik, bog'liqlik, o'zaro munosabat, ta'sir bor. Shuningdek, madaniy meros o'z ko'lami jihatidan ma'naviy meros tushunchasidan kengroqdir.

Madaniy merosda ko'proq umumiylik ustunlik qilsa, ma'naviy merosda xususiylik ustunlik qiladi. Madaniy meros umuman madaniyat yutuqlarini o'z ichiga qamrab olsa, ma'naviy meros ma'naviy madaniyat yutuqlarini o'z ichiga qamrab olishi bilan farqlanadi. Madaniy merosning qadri abadul-abad tushmaydigan qismiga

milliy qadriyat deyiladi. Ma'naviy boyliklar avloddan avlodga, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga meros sifatida o'tadi va jamiyat, uning ma'naviy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy meros deb uzoq va yaqin o'tmishdagi, hozirgi davrdagi ma'naviy jihatdan g'oyat qimmatli, o'chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, butun ijtimoiy manfaati va ehtiyojiga, ezgulikka xizmat qiladigan umuminsoniy ma'naviy boyliklarga aytiladi. Ma'naviy meros ma'naviy qadriyat sifatida namoyon bo'lib, unga ilm-fan, jumladan falsafa, adabiyot, san'at, axloq, diniy va dunyoviy ta'limotlar, hurfikrlik va boshqalar kiradi.

Ma'naviy meros zamonlar o'tishi bilan o'z qadrini yo'qotmaydi, balki sifat jihatdan yangicha mazmun va ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy meros kishilar ongiga, ichki dunyosiga, his-tuyg'usiga ta'sir yetib, ular ongini boyitadi, axloq odobni ezgulik sari etaklaydi.

Ma'naviy meros biror xalq, millat, uning vakillari tomonidan yaratilib, so'ng umuminsoniyatning ma'naviy boyligiga, merosiga aylanib qoladi. Markaziy Osiyo xalqlarining o'tmish avlodlari qoldirgan ma'naviy meros bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'naviy merosimiz jihatidan jahondagi oldingi o'rinlardan birini egallaymiz. 1-Prezidentimiz Islom Karimov qayd etganidek, «Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin»<sup>13</sup>. Bularning hammasi Turon zaminida yashagan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidirkim, endi bu nodir ma'naviy merosimizni jiddiy o'rganish, xalqimizga yetkazish davri keldi. Milliy-ma'naviy merosimiz jihatdan 1-Prezident ta'kidlaganidek, jahon xalqlari orasida oldingi o'rinlardan birida turamiz, ammo ana shu boy merosimizni o'rganish, o'zlashtirish, idrok etish jihatidan jahon xalqlari

---

<sup>13</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B. 3-4.

orasida 57 o‘rinda turishimiz achinarli holdir. Milliy – ma’naviy merosimiz bilan uni o‘rganish va idrok etish orasidagi masofa ancha olis.

Mazkur boy milliy–ma’naviy merosimizni har tomonlama chuqur o‘rganish, idrok etishimiz uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish uchun tarixchi, olim, adabiyotchi, san’atkorlarimizdan, qo‘yingki milliy ma’naviyatimiz jonkuyarlaridan g‘ayrat –shijoat, qunt bilan ishlash, izlanish talab etiladi. Prezidentimiz aytganlaridek, xalqimizning tayanchi ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosning o‘zi katta bir xazina. Bu xazinadan mustaqilligimizni mustahkamlashda, ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda oqilona foydalanishimiz lozim. Qadimiy yozuvlar, bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, ulug‘ shoir va mutafakkirlarimiz yaratgan dunyoviy bilim va badiiy asarlar, Qur’oni karim, hadislar, Yassaviy va Boqirg‘oniylar yaratgan diniy-axloqiy ruhdagi asarlar, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojiblar yaratgan axloqiy, pand-nasihat tipidagi asarlar, Najimiddin Kubro, Bahouddin Naqishbandiylar yaratgan, inson ichki dunyosi, ruhiyatiga qaratilgan ta’limotlar, Navoiyning o‘lmas badiiy ijod xazinasini va boshqalar bizning boy ma’naviy merosimiz hisoblanadi. Ular inson ichki dunyosini, ruhiyatini, ma’naviyatni sayqal topishiga qaratilgan. “Muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, sahovat va kamtarlikka chaqiradi”<sup>14</sup>. Ularda insonlar ma’rifatga, bilim olishga, yuksak axloq–odobga, olijanob fazilatlarga, yaxshilikka da’vat etiladi; yomonlik, yovuzlik qoralanib undan saqlanishga chaqiradigan pand-nasihatlar, o‘gitlar juda ko‘p. Ular kishilarni ma’nan tarbiyalaydi. Ma’naviyatsizlik, ma’naviyatdan mahrum bo‘lish insonni o‘g‘irlik, yulg‘ichlik, poraxo‘rlik kabi illatlar sari yo‘llyaydi.

Madaniyat, ma’naviy va madaniy meros, ma’naviyat rivoji insoniyat sivilizatsiyasi bilan bog‘lanib ketadi. Ammo ularni bir-biri bilan aralashtirib yuborish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Sivilizatsiyaning o‘zi insoniyatning madaniyati va ma’naviyati taraqqiyoti bosqichlarida ro‘y beruvchi sifat jihatidan yangi bosqichi bo‘lib, kishilik jamiyati tarixida chuqur iz qoldiradi. Sivilizatsiya – ma’lum bir tarixiy

---

<sup>14</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - B. 21.

bosqichda insoniyatning madaniy taraqqiyotida yaratgan, erishgan, qo‘lga kiritgan sifat jihatidan yangi, yuqori yutuqlari majmui.

Ma’rifatparvar alloma Abdulla Avloniy inson ma’naviy yuksalishida bilim va ilmning ahamiyati ustida to‘xtab shunday yozgan edi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur»<sup>15</sup>.

Ingliz faylasufi F.Bekon ta’kidlashicha «Bilim kuch, kuch esa bilimdadir», Rudakiy esa «Bilim – barcha kulfatlarga qalqon» deb bilimning inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini izohlaydi. Ma’rifatli inson bilimlidir. Bilim insonning fazilatini ulug‘lovchi xususiyatlardan biridir. Bilim olish, ma’rifatli bo‘lish, insonlar turli sohalarda qiyinchilikka duch kelganda moddiy va ma’naviy jihatdan g‘alaba qilishi uchun zarur. Bilimsiz, ma’rifatsiz kishi himoyasizdir. Ayniqsa, mamlakatimiz bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda insonlar, xususan, tadbirkorlar ma’rifatli bo‘lmas ekanlar, ular hayot qiyinchiliklariga bardosh bera olmay qiynaladilar.

Bilimli, ma’rifatli kishilarning ko‘payishi jamiyat boyligidir. Ma’naviyatni yuksaltirish ham ma’rifatga bog‘liq. Milliy qadriyatlarning tarixini, kelajagini anglash ma’rifat orqali amalga oshadi<sup>16</sup>.

Sivilizatsiyaning madaniyatdan farqi shundaki, u o‘zidan oldingisini qabul qilmaydi, balki sifat jihatidan yangi, unga o‘xshamagan o‘zgarishlarni vujudga keltiruvchi jarayon hisoblanadi.

Sivilizatsiya har bir xalqning yohud jamiyatning, tarixiy bosqichning o‘ziga xos tarixiy-madaniy rivojlanishi, shakllangan qadriyatlari, tafakkur taraqqiyoti hisoblanadi. Hozirgi davrda ilmiy adabiyotlarda uni «Sharq» va «G‘arb» sivilizatsiyasiga bo‘lish qabul qilingan. Insoniyat tarixidagi bu sivilizatsiyalar hind, konfutsiylik, buddaviylik, musulmon yoki katolik, pravoslav va hokazolarning paydo bo‘lishi shaklida bo‘lgan.

Bugungi sivilizatsiya insoniyatning olamni bilishi, undan umumbashariy

<sup>15</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. Toshkent, "O‘qituvchi", 1992, 22-bet.

<sup>16</sup> Otamurotov S., Abduraxmonov M., Xusanov S. Ma’naviyat asoslari. Darslik. – Toshkent, 2009, 57-b.

manfaatlari yo'lida foydalana olishi, har bir xalqning umuminsoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'naviyati va ma'rifati shaklida namoyon bo'lmoqda.

Shunday qilib, madaniyat, ma'naviy meros, sivilizatsiyalar yutug'i jamiyat va inson ma'naviyatining rivojlanishida, ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq o'tmishda toptalgan ma'naviy merosimizni tiklashga qat'iy kirishildi. Mustaqilligimizning o'tgan o'ttiz bir yili ana shu boy merosimizni o'rganish va o'zlashtirish orqali chinakam milliy tiklanishimizga erishdik. O'zbeklar o'zining milliy-ma'naviy «qiyofasiga» ega bo'ldilar, Yangi O'zbekistonni rivojlantirishga bel bog'ladilar. Ammo, bu borada hali oldimizda juda katta vazifalar turibdi. Ana shulardan biri hali merosimizning bizga noma'lum, ammo dunyoning turli mamlakatlarida saqlanayotgan, jahon sivilizatsiyasida munosib o'rin egallab kelgan juda ko'plab moddiy va ma'naviy meroslarimizni o'z Vatanimizga keltirishimiz, ularni o'rganishimiz, dunyoqarashimiz va ma'naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz lozim bo'ladi.

## **5. «Ma'naviyatshunoslik» tarixiy-nazariy fan sifatida**

Ma'naviyat va mafkura bir-birlari bilan mustahkam bog'langandir. Ma'naviyat insonning ruhiyati, o'zini-o'zi anglashi, yuksaklikka intilishidagi salohiyati bo'lsa, «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» konsepsiyasida ko'rsatilishicha «Mafkura-muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir»<sup>17</sup>.

Mafkuraning ma'naviyatda tutgan o'rni shundaki, u inson, jamiyat, yohud millat yoki guruhlarining intilishlari, ruhiyatlari va kayfiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ma'naviyat singari mafkuraning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda kattadir. 1-Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng

---

<sup>17</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -Toshkent: O'zbekiston, 2000. – B . 9

dolzarb siyosiy – ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog‘lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o‘z muddaolariga erishishi uchun ma’naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo‘lib kelgan»<sup>18</sup>. Mafkura jamiyat taraqqiyotida quydagi vazifalarni bajaradi: birinchidan, davlat rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy – ma’rifiy sohalaridagi vazifalarni o‘zida mujassamlashtiradi; ikkinchidan, bir davlat, bir mamlakat miqiyosida barcha fuqarolarni, turli millat, elat, sinflar va ijtimoiy guruhlarni bir g‘oya va maqsad sari birlashtirishga xizmat qiladi; uchinchidan, davlat olib boradigan ichki va tashqi siyosat g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirib, uni fuqarolarga targ‘ib etadi; to‘rtinchidan, davlat doirasida yashayotgan fuqarolarni yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlik faoliyatini faollashtiradi va ularni jamiyat maqsadlariga yo‘naltiradi; beshinchidan, xalqning orzu-umidlarini o‘zida ifoda ettiradi, jamiyatda mavjud bo‘lgan muammolarni hal qilish uchun butun jamiyat va fuqarolarni harakatga keltiradi; oltinchidan, mafkura jamiyatda ma’lum siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy qarashlarni shakllantiradi.

Mafkuraning jamiyat, millat, shaxs va fuqaro hayotidagi ana shunday muhim ahamiyatini hisobga olib, Istiqlolimizni qo‘lga kiritgan ilk kunlardan boshlab, biz milliy g‘oyamizning eng asosiy tushuncha va tamoyillarini belgilab olish va ishlab chiqarishga harakat qildik. Shu maqsadda ijtimoiy fanlar sohasidagi yetakchi olimlar, siyosatshunos va iqtisodchilar, ijodkor ziyolilar, keng jamoatchiligimiz e’tiborini ana shu muhim masalaga qaratdik. Xalqimizning asriy orzusi, ko‘zlangan yuksak maqsadlarimizga etishning asosiy omili-avvalambor mustaqillikni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash bilan bog‘liq ekanidan kelib chiqqan holda, milliy g‘oyamizning ma’no-mazmunini ham ana shunday mezonlar negizida belgilashni vazifa qilib qo‘ydik<sup>19</sup>.

Jamiyatning, jamiyat a’zolarining mustahkam va ravshan mafkurasi, g‘oyasi, maqsadi bo‘lmasa, inqirozga yuz tutadi. Insoniyat tarixida davlatlar va jamiyatlar paydo bo‘libdiki, ularga egizak holda mafkuraviy qarashlar ham shakllangan. Boisi – mafkurasiz davlat yoki jamiyat bamisoli hech bir maqsad-rejasiz, tavakkal qilib

---

<sup>18</sup> Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B. 5.

<sup>19</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - B.71-72.

yo'lga chiqqan odamga o'xshaydi. Yo'lga chiqdingmi – manzil, maqsad aniq bo'lmog'i kerak. Har bir xalq o'z oldiga qo'ygan ulug'vor maqsadlarga erishishida milliy g'oyaning ahamiyati nechog'li muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" kitobida quydagilarni yozgan:

"Insoniyatning ko'p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, bu dunyoda o'zining milliy davlatini qurishga azmu qaror qilgan har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo'lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg'otish, eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga o'tishda o'ziga qo'shimcha kuch-quvvat va madad topishda umumiy, yagona maqsad va orzu-intilish ifodasi bo'lgan milliy g'oyani tayanch va suyanch deb biladi"<sup>20</sup>.

Mafkura-umummilliy, umumxalq ahamiyatiga ega g'oya bo'lib, u xalqni, millatni birlashtiruvchi, umumsafarbarlikka da'vat etuvchi kuch. Inson, uning qadr-qimmatini, farovonligi, Vatanimizning yorqin kelajagi bizning milliy g'oyamiz, milliy mustaqillik mafkuramizning negizini tashkil etadi.

Milliy mafkura, avvalambor, o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart.

Ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarining intilishlari va umidlaridan, har qanday millat vakili, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini umumsafarbarlikka da'vat etuvchi kuch.

Uchinchidan, milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarida madadkor bo'lishi zarur.

To'rtinchidan, u Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislar deb his qilishimizga shu bilan birga jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga

---

<sup>20</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B. 71.



erishmoqqa yo‘l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da’vat qiladigan g‘oya bo‘lishi kerak.

Mustaqillik bizni porloq rivojlanish imkoniyatlariga ega qildi. Xalqimiz katta orzu-maqsadlar va intilishlar bilan yashayapti. Huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyati-oldimizda turgan nurafshon manzildir. Ammo bu manzillar o‘z- o‘zidan dunyoga kelmaydi, uni o‘z-o‘zidan mashaqqatsiz, izlanishlarsiz, yaratuvchilik, ijodkorlik ishlarisiz egallanmaydi. Yangi jamiyat yuksak darajada rivojlangan ongni, ma’naviy kamolotni yanada baland bosqichga ko‘tarilishini taqozo etadi. Ilg‘or demokratik qoida va tushunchalar bilan boyigan milliy istiqlol mafkuramiz ana shu yangi ma’naviyatning hal qiluvchi mezonlaridan biridir.

Milliy istiqlol mafkurasini chuqur egallay olsakgina, u dunyoqarashimizning ajralmas qismiga aylansagina, qalbimizdan mustahkam o‘rin olsagina Vatanimiz va xalqimiz taraqqiyotining oldida turgan ulkan vazifalarni amalga oshirishimiz mumkin bo‘ladi. Ma’naviyat mafkurasiz rivojlana olmaydi. Chunki, inson ruhiyatini shakllantirish, milliy qadriyatlarni tiklash va jamiyat maqsadlarini amalga oshirishda mafkura harakatga keltiruvchi kuch sifatida katta ahamiyat kasb etaveradi.

Xullas, mafkura – umummillatga, umumxalqqa, butun jamiyatga taalluqli ulkan g‘oyalar majmui. Ammo uning ildizlari har bir insonning qalbida, vijdonida, iymonida, aql-droki va tafakkurida. Shu bois, haqiqiy, hayotiy, chuqur insoniy mafkurasi bor xalq, mamlakat va jamiyat qudratlidir.

Qadriyatlar ham ma’naviyatning tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. Ular ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanib boradi. Qadriyatlar kishilarning turli sohalardagi, avvalo, ishlab chiqarishi, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va hodisalar majmui bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Tabiat va jamiyat hodisalari insonning moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish, yaratuvchanlik faoliyati tufayli, uning ehtiyojlarini qondirish natijasida qadriyatlilik ahamiyatiga ega bo‘ladi. Odamlarning manfaatlari, ehtiyojlarini qondira olmagan, ularning orzu-istaklari, intilishlariga mos kelmaydigan, tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyatlar sirasiga kiritish noo‘rindir.

Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va

ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlarini, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim<sup>21</sup>. Tabiat va jamiyat boyliklari, hodisalarini qadriyatlar sirasiga kiritilishning asosiy sababi-kishilar ularni qadrlaydilar, avaylab-asraydilar, chunki, bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini, ma'naviy – ruhiy dunyosini boyitadi, yaratuvchanlik faoliyatiga yo'llaydi.

Ma'naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyatiga to'xtashdan avval, qadriyatlarning turlari va ko'rinishlarini bilib olish lozim. Qadriyatlar o'z mohiyati, xususiyatlari va amal qilish doirasiga ko'ra bir necha turlariga va shakliy ko'rinishlarga bo'linadi. Avvalo, barcha qadriyatlar orasida inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr-qimmatini, ahamiyati haqida so'zlash bema'nilikdir. Insonsiz borliqdagi mavjud barcha narsa va hodisalar o'zining qadriyatlilik ahamiyatini yo'qotadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq inson qadr–qimmatini e'zozlash, uning manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil yetib kelmoqda. Jahonda e'tirof etilgan taraqqiyotning «o'zbek modeli»ning asosiy tamoyillaridan biri ham bozor iqtisodiyotiga o'tishda aholining ijtimoiy himoyasiga qaratilganligida chuqur insonparvarlik mohiyati mavjuddir.

Insonning yashashi uchun zarur bo'lgan barcha tabiiy boyliklar – yer, suv, havo, quyosh, turli madanlar, o'simliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar, shuningdek, inson mehnati, hatti-harakati, aql-zakovati bilan yaratilgan turli-tuman moddiy boyliklar, zavod va fabrikalar, ishlab chiqarish, transport vositalari, asbob-uskunalar, hozirgi zamon axborot texnologiyalari, turar joy, mol-mulk, noz-ne'matlar va boshqalar tabiiy va moddiy qadriyatlar hisoblanadi. Bularsiz insoniyat yashay olmaydi. Tabiat va uning boyliklari biz uchun moddiy ne'matlarning bosh manbai hisoblanadi. Ularni asrab-avaylash, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga har birimiz ma'naviy va amaliy jihatdan mas'ulmiz.

---

<sup>21</sup> Tulenov J., Qodirov B., G'ofurov Z. Ma'naviy yuksalish sari. –Toshkent: "Mehnat", 2000. - B.103.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida: «Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonat dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir»<sup>22</sup>, - deb yozilganki, ularni asrab-avaylash, saqlash, kelgusi avlodlarga sof holda qoldirishimizda har birimizga javobgarlik ma’suliyatini yuklaydi.

Muayyan jamiyat, davlat tuzilmasi, uning huquqiy asoslari, shaxs erkinligi va huquqlari, adolat, ozodlik, tenglik, tinchlik, birodarlik kabilar ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar sirasiga kiradi. Insonning erkinligi, uning qadr-qimmatini jamiyatimizning oliy qadriyatidir. Bu haqda asosiy qomusimizda shunday so‘zlar yozilgan: «O‘zbekiston Respublikasi demokratiya, umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi»<sup>23</sup>.

Xalqimiz va umuminsoniyat tomonidan yaratilgan ilmiy-falsafiy qarashlar, tarixiy, badiiy san’at asarlari va diniy amollar; urf-odatlar, an’analar, bayramlar, marosimlar; insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, yaxshilik, burch, vijdon, to‘g‘rilik, halollik kabi axloqiy me’yorlar insonni ma’naviy kamolotga eltuvchi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar sanaladi.

Ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda milliy ma’naviy meros va qadriyatlarni, diniy axloq mezonlarini yoshlarimiz ongiga singdirish, ularning amaliy faoliyatlariga aylantirish muhim ahamiyatga egadir. Xususan, IX-XII va XIV-XV asrlarda yashab o‘tgan buyuk mutafakkirlarning ilmiy-falsafiy bilimlar va islom ilmi va madaniyati rivojiga qo‘shgan hissalarini o‘rganish yoshlarimizda ma’naviy barkamollikning muhim belgilaridan biri milliy g‘urur va milliy o‘zlikni anglab etishda muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda mustaqillik yillari ma’naviy meros va qadriyatlarning ma’naviy barkamol insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdagi muhim o‘rniga ahamiyat berib, o‘tmishda toptalgan ma’naviy qadriyatlarimizni tiklashga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

<sup>22</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2012. - B. 5.

<sup>23</sup> O‘sha joyda.

Diniy qadriyatlarimiz ham inson ma'naviy kamolotining muhim omillaridan biridir. Asrlar mobaynida xalqimizning ma'naviyati, insonparvarlik, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlarini Sharq falsafasi va islom diniy ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib kelgani hozirgi kunda hammamizga ayon. Vazifa esa xalqimizni, xususan, yoshlarimizni ma'naviy kamolot cho'qqilariga yetkazishda islomiy qadriyatlardan ham bekamu ko'st foydalanishdan iborat.

Diniy qadriyatlarimiz inson faoliyatini oqilona boshqarish, jamiyat hayotida tinchlik, adolat, insonparvarlik, halollik, diyonatlilik, insoflilik, mehr-shafqatlilik kabi ko'plab insoniy fazilatlarni inson qalbi va ruhiyatida qaror toptirishga yo'g'rilgan. Ularning har biri inson qalbida chuqur tomir otgan, ruhiyatini harakatga keltiradigan ma'naviyatdir.

Inson tug'ilganidan so'nggi nafasigacha an'analar, urf-odatlar, bayramlar qurshovida hayot kechiradi. Ular esa kechagi avlodlardan bugungi, bugungi avlodlardan ertangi avlodlarga ma'naviy meros bo'lib o'tib ma'naviy kamolot sari eltadi. Urf-odat, an'analar bugungi avlodni ajdodlar tajribasi bilan tanishtiradi, ularda o'z burchi vazifalariga mas'uliyat bilan qarash fazilatlarni shakllantiradi va mustahkamlaydi.

Sharq xalqlarining, xususan, o'zbek xalqining qadimiy bayramlaridan biri "Navro'z" asrlar silsilasidan o'tib kelib, bugungi mustaqillik kunlarida yangicha mazmun kashf etgan holda xalqimiz ma'naviyatini boyitishda, yoshlarimizning ma'naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb yetib kelmoqda. U xalqimiz tomonidan uyg'onish va yasharish, go'zallik va nafosat, muruvvat va sahovat ramzi sifatida yuksak qadrlanadi. Navro'z bayrami kunlari yoshu-qari, har qaysi inson o'zini mo'jizakor tabiatining uzviy bir qismi ekanini chuqur anglaydi, tabiiy muhitni asrab-avaylab, u bilan ham ohang bo'lib, mustaqilligimizning har bir osuda kunining qadriga yetib yashash kerakligini yana bir bor idrok yetib qalbidan o'tkazadi.

Navro'z ayyomi arafasida mahallalar, ko'chalar, aholi turar joylari obodonlashtiriladi, ariq-zovurlar tozalanadi, ziyoratgoh, qabriston hamda tabarruk qadamjolar tartibga keltiriladi, mevali, manzarali daraxtlar, gul ko'chatlari o'tkaziladi. Bayram kunlari esa etim-esir, beva-bechora, xasta va muhtoj kishilarga

mehr-muruvvat, sahovat ko'rsatiladi, qariyalarimizning duosi olinadi. Bunday insoniy qadriyatlar yoshlarimizning ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutadi.

Ma'naviyatshunoslik - axloqshunoslik, xuquqshunoslik, dinshunoslik, nafosatshunoslik, tarbiyashunoslik (pedagogika), siyosatshunoslik (politologiya), jamiyatshunoslik (sotsiologiya), tarix (tarixshunoslik), elshunoslik (etnografiya) kabi fanlar bilan aloqadorlikka ega.

**Xulosa.** O'zbek xalqining mehnatsevarlik, yerga cheksiz muhabbat, mehmondo'stlik, katta yoshdagilarni hurmat qilish, nonni, suvni e'zozlash bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p qadimiy ma'naviy qadriyatlar chuqur hayotiy mazmunga ega bo'lib bugungi kunda ma'naviy barkamol insonlarni tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, har bir davrning ehtiyojlari, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyoti uning ilmiy tafakkur salohiyati darajasi bilan belgilanadi. Biror muammoni hal etish imkoniyatlarini inson o'z aql-zakovati, bilimi va irodasi bilan aniqlaydi. Bilim va ilm har bir insoning yo'lini yoritib turuvchi mash'aldir. Inson ma'naviy kamolot cho'qqilariga erishmoqchi ekan, u bilim va ilmni puxta egallashi lozim.

#### **Mavzuni takrorlash uchun savollar:**

1. Ma'naviyat tushunchasining mohiyatini izohlab bering?
2. Ma'naviyatning asosiy tushunchalariga nimalar kiradi?
3. Ma'naviyat taraqqiyotining qanday asosiy qonunlarini bilasiz?
4. Ma'naviyatni rivojlantirish davlat siyosatida ustivor soha ekanligini izohlang?
5. Madaniyat nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
6. Madaniy va ma'naviy meros nima? Ularning farqi nimada?
7. O'zbek xalqining boy madaniy va ma'naviy merosi haqida nimalarni bilasiz?
8. Mafkura va ma'naviyat munosabatlarini qanday tushunasiz?
9. Qadriyatlar va uning qanday turlarini bilasiz?
10. Ma'naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyatini izohlang.

## TARQATMA MATERIALLAR

### Ma'naviyatning ta'rihi to'g'risida mulohazalar va uning falsafiy tahlili

1-ilova

#### «Ma'naviyat» tushunchasining falsafiy tahlili

Ma'naviyat – insonning ruhiyatini, uning o'z-o'zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir.

*I.KARIMOV*

Ma'naviyat – inson faoliyatining ruhiy mazmuni bo'lib, kishilar uning vositasida o'zlarini anglaydilar, jamiyatni, tabiatni, ularning mavjudligi hamda taraqqiyoti xususiyatlarini o'rganadilar, qonunlarini kashf etadilar va ularga tayanib, o'z turmush sharoitlari, amaliy faoliyatlari muammolarini hal etadilar

*A.JALOLOV*

Ma'naviyat – jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha.


*A.IBROHIMOV, X.SULTONOV, N.JO'RAYEV*


Ma'naviyat – insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati, ya'ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir.

**A.ERKAYEV**

**2-ilova**

**Ma'naviyatning asosiy kategoriyalari, uning rivojlanish qonuniyatlari**






### 3-ilova

**«G'arb - oqil, Sharq – donishmand, G'arb – kenglik, Sharq – teranlik, G'arb – harakat bilan yashagan, Sharq esa orzu-umid bilan, agar G'arbning atoqli olimlari faol bo'lsalar, Sharqda ular faylasuflar... G'arbga nisbatan bir-necha asrlar avval Sharqda ilm-fanning deyarli barcha sohalari uchun asos yaratilgan edi»**

***S.SULGINSKIY***




### Ma'naviyat tushunchasining mazmuni




### Islom Karimov tomonidan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasining ishlab chiqilishi va uning mohiyati


**Ma'naviyat** - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon – e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir

**O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning asosiy negizlari**






**Ma'naviyatning shaxs, millat, taraqqiyot va jamiyat  
bilan o'zaro aloqadorligi**



**Ma'naviyatning tarkibiy qismlari**



**MA'NAVIY MEROS** - bashariyat rivojlanishning uzoq davr mobaynida tarkib topgan, inson aql-zakovatining ifodasidir. O'tmish davrlardan insoniyatga qolgan moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklar majmuiga aytiladi.

**MILLIY QADRIYATLAR**- millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat, hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

**UMUMINSONIY QADRIYATLAR**- barcha millat, elat, xalqlarning maqsad va intilishlarining yaxlitligi va umumiyligini ifodalaydi. Tabiatni muhofaza qilish, ekologik tarbiya, madaniyatni rivojlantirish, insoniyatning sihat-salomatligini ta'minlash, oziq-ovqat, madaniy boyliklar sivilizatsiyani saqlab qolish, urushlarning boshlanishiga yo'l qo'ymaslik, tinchlikni saqlab qolish kiradi.


### Ma'naviyatning tarkibiy qismlariga ta'rif

Milliy ma'naviyat muayyan elat, millatga uning ajdodlariga xos bo'lgan g'oyat qimmatli ma'naviy boyliklar

Mintaqaviy ma'naviyat – muayyan jug'rofiy mintaqa millatlariga xos, ular uchun umumiy bo'lgan ma'naviy boyliklar

Umuminsoniy ma'naviyat – butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy axloqiy belgilar


**«Ma'naviyat asoslari» kursini  
o'rganish metodlari**



### Ma'naviyatshunoslikni boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Tarbiyashunoslik (Pedagogika)	Ta'lim-tarbiya masalalari	Ma'rifat yo'llari (jumladan, ibrat va ilm, riyozat va mehr) orqali ifodalanuvchi o'zlikni anglash (ko'ngil ko'zgusini sayqallash) jarayoni
Siyosatshunoslik (Politologiya)	Siyosat	Davlat tizimi va siyosiy partiyalar, demokratiya va ijtimoiy adolat masalalari
Jamiyatshunoslik (Sotsiologiya)	Insonlar jamiyatining sinxronik holati	Turli ijtimoiy toifalar va tuzilmalar holatidagi o'zgarishlar va ularning sabab oqibatlarini
Tarix (Tarixshunoslik)	Jahon va turli o'lkalar tarixi	Bashariyat va turli elatlarning siyosiy, ijtimoiy, madaniy taraqqiyoti qonuniyatlari
Elshunoslik (Etnografiya)	Turli xalqlarning urf-odatlarini va marosimlarini	Xalq ongidagi asotir tafakkur unsurlari, an'anaviylik va etiket, xalq ijodi turlari va shakllari, urf-odatlar va marosimlarning tarbiyaviy ahamiyati

### Milliy ma'naviyat



**MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYAT UYG'UNLIGI**

Ma'naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirish, millatimizning o'z-o'zini anglashga erishish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini mustahkamlash

Mustaqillik sharoitida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish

Ta'lim tizimini isloh qilish

Milliy ma'naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini tiklash va bugungi kunda ma'naviyat, ma'rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma'naviyati tizimi rivojiga hissa qo'shish

Yoshlar ma'naviyatini milliy istiqlol g'oyalari bilan boyitib borish, ular ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish

Insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarini milliy-ma'naviy salohiyatimizning ajralmas qismiga aylantirish



## ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Otamurotov S., Ramatov J., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. - Toshkent, 2002.
2. Imomnazarov M., Saidov M. Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: “Akademiya”, 2005.
3. Umarov E., Abdullaev M. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2006.
4. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. O'quv qo'llanma. “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. - Toshkent, 2006.
5. Sadulla Otamuratov. Sarvar Otamuratov. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. O'quv qo'llanma. - Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2003.
6. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. “Fan va texnologiya” nashriyoti. - Toshkent, 2008
7. Abdurahmonov M., Otamurotov S., Ma'naviy salohiyat. O'quv qo'llanma. Toshkent: Universitet, -2009.
8. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jayev. “Dinshunoslik” O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2014.
9. Erkayev A. “Ma'naviyatshunoslik”. I-jild. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi Monografiya. - Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
10. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. II- jild. Ma'naviyat metodologiyasi va praktsiologiyasi Monografiya. - Toshkent: Ma'naviyat, 2018
11. Quranboev Q., Abdurahmonov M. Islom Karimov. “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asarini o'qitish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2010.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining “Terorizmga qarshi kurash to'g'risida” qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Axbarotnomasi, 2001 yil, 1-2-son, 15-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 yil, 25-son, 287-m)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida.

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil 6-son 70-modda).

3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2018.

5. Karimov I.A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida Asarlar, 6-jild – Toshkent: “O'zbekiston” 1998.

6. Abu Nasr Forobiy Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

7. Aliev A. Istiqlol va adabiy meros. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.

8. Otamurotov S., M.Abdurahmonov., Sh.Rizaev. O'zbekistonda ma'naviyat sohasidagi islohotlar: rivojlanish bosqichlari, erishilgan natijalar va istiqboli. Toshkent: Akademiya, 2010

9. Maxmudov T. Mustaqillik va Ma'naviyat, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlari asosida. – Toshkent: Sharq Nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – 2001.

10. Ergashev F., Ergashev I. Fidoiylik – hayot mazmuni. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.

11. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.

12. Choriev A. Inson falsafasi. II. Mustaqil shaxs. - Toshkent: Chinor ENK. 2002.

13. Erkaev A.P. Ma'naviyat millat nishoni. – Toshkent, 1997.

14. Eshonqulov A. Ma'naviyat tarbiyasi. // Muloqot, 1997. №1.

15. Mahmudov T. Nafosat va ma'naviy qadriyatlar. – Toshkent, 2001.

16. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari. – Toshkent, 1997.

17. Ziyoev X. Istiqlol-ma'anaviyat negizi. - Toshkent: Ma'naviyat, 1999.

18. Qahharova Sh. Global ma'naviyat - globallashuvning g'oyaviy asosi. - Toshkent: Tafakkur nashriyoti. 2009.

19. Otamuratov S. Globallashuv va millat. - Toshkent: Yangi asr avlodi. 2008.

### **Axborot manbalari:**

1. “Xalq so‘zi” gazetasi –www info XS. Uz.
2. “Turkiston” gazetasi - www turkiston sarkor. uz.
3. “Ma’rifat” jurnali - www ma’rifat – inform.
4. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali - www rzult academy freenet uz.
5. “Moziydan sado” jurnali - www moziy dostlink. Net
6. www.mfa.uz.
7. www.press-servise.uz.
8. www.literature.uz
9. www.Ziyonetuz..
10. www.pedagog.uz
11. www.edu.uz

## **2- MAVZU: SHARQ ALLOMALARI MEROSINING MILLIY MA’NAVIYATIMIZGA TA’SIRI**

### **Reja:**

- 1. Birinchi Renessans davri allomalari merosida ma’naviyat tushgunchasi**
- 2. Ikkinchi Renessans - XIV asr oxiri - XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda madaniy yuksalish (Temuriylar misolida)**
- 3. XVI-XIX asr birinchi yarmidagi Turkiston madaniyati va jadidlarning ma’naviyatga oid boy ilmiy merosi.**

*Tayanch iboralar: ma’naviyat, meros, Renessans, birinchi, Ikkinchi va Uchinchi Renessans, madaniy va ma’naviy boyliklar, ilmiy meros, diniy asarlar, madaniyat, madaniy hayot.*

### **1. Birinchi Renessans davri allomalari merosida ma’naviyat tushgunchasi**

XI asrlardan boshlab Markaziy Osiyoda ham tasavvuf keng tarqala boshladi. Xususan, Yusuf Hamadoniy (1048-1140) Buxoroda tasavvuf ta’limotini o‘rgatish va

targ'ib etishga kirishdi. Birinchilardan bo'lib uning qo'lida Xoja Ahmad Yassaviy (vafoti 1166 yil) ta'lim oldi, tasavvuf sirlarini o'rgandi va Turkistonga borib, u yerda tasavvufni targ'ib qildi. Uning ta'limoti Yassaviya nomini oldi.

Hamadoniy ta'limoti asosida Abduxoliq G'ijduvoniyning «Xojagon» tariqati vujudga keladi. Shu tariqat Bahovudsin Naqshband davrida keng yoyilib, naqshbandiya yo'nalishini tashkil etadi.

XII asrda Xorazmda ham tasavvuf ilmi keng yoyila borib, Najmiddin Kubro (1146-1221) boshchiligida tasavvufning kubroviya oqimi shakllanib, Markaziy Osiyo va boshqa Sharq mamlakatlarida keng yoyildi.

Mamlakatimiz hududida, Movarounnahrda azaldan dunyoviy davlatchilik hukm surgan. Ilmiy til bilan ifodalaganda sekulyarizm Markaziy Osiyo hududida uzoq tarixga ega. Islom 31 dinining VII asr oxirlarida Markaziy Osiyo hududiga kirib kelishi mahalliy turkiy xalqlar madaniyati va e'tiqodi tomonidan yaxshi kutib olingan. Chunki islomgacha turkiy xalqlar ham yakkaxudolikka, Tangriga e'tiqod qilganlar, Ollah ham Tangri kabi yagona qudratli kuch, yaratuvchi deb e'tirof etilgan. Shu bois islom dinining Markaziy Osiyo hududiga, turonzaminga kirib kelishi ma'lum ma'noda ancha oson kechgan. Aks holda oradan bir, bir yarim asr o'tib Markaziy Osiyoda islom olami uchun Uyg'onish davri – Muso al-Xorazmiy, al-Farg'oniy Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va boshqa mutafakkirlar boshlab bergan ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat ravnaqi, futuvvatchilik, so'fiylik, tasavvuf va boshqa turli tariqatlar yuzaga kelmas edi<sup>24</sup>.

Tasavvuf ta'limotlari boshqa musulmon mamlakatlarida bo'lganidek, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyatining so'nggi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Qadimgi arab va fors tilidagi manbalarda bu davrda yashab ijod etgan juda ko'p olimu fuzalolar, qomusiy bilim egalari, badiiy so'z ustalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Masihiy, Habash al-Hosib, Bayhaqiy, Ishoq al-Buxoriy, Daqiqiy, As-Suxayliy al-Xorazmiy, Abdulla Xorazmiy Abu-l-Fadl, Al-Xorazmiy al-Adoliy, Ahmad al-Axsikotiy, Saolibiy al-Muzaffar al-Naysaburiy, Rashididdin al-Vatvot, Zakariya al-Forobiy kabilar shular jumlasidandir. Bu allomalarning hammasi haqida

---

<sup>24</sup> Saifnazarov I., Obidov A. Dinlararo hamjihatlik – ijtimoiy barqarorlik omli. – Toshkent: Innovatsion-rivojlanish matbaa uyi, 2019, 30-31-bb.

hikoya etiSh imkoni yo‘q, nimagaki, ularning ko‘pchiligining hayoti va ijodi hali o‘rganilmagan va ular haqida kam ma‘lumotga egamiz.

Juda ko‘p manbalarda VIII-XIII asrlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq, savdo yo‘llari, dehqonchilik, qurilish ishlarining avj olganligi, Shuningdek, Samarqand, Buxoro, Shosh, Biskent, Axsi-kas, Farg‘ona, Quba, Marg‘inon, O‘sh, O‘zkand, Ushrushona, Havoqand, Xo‘jand, Kent, Urganch, Xiva, Marv, Termiz kabi qator rivoj topgan shaharlar, ulardagi me‘moriy yodgorliklar, bozorlar, obodonchilik haqida muhim ma‘lumotlar keltiriladi. Markaziy Osiyoda arab, fors va turkiy tillar keng tarqalganligi, aholi o‘rtasida, ayniqsa, turkiy va forsiy tildan keng foydalanilganligi haqida ham noyob ma‘lumotlar serobdir.

Arab tili Markaziy Osiyoni islom dini, arab dunyosi, bu tilda Yaratilgan madaniy-ma‘naviy boyliklar, qilingan tarjimalar yordamida qadimgi islom ilmiy-madaniy boyliklaridan bahramand bo‘lishga olib kelgan bo‘lsa, fors tili qadimgi va o‘rta asrdagi Eron madaniyatini, she‘riyatini chuqur o‘rganish, madaniy aloqalarni rivojlantirish imkonini berdi.

Keng tarqalgan turkiy til O‘rta Sharq va Koshg‘ardagi barcha turkiy tilli qabilalar bilan tarixiy keng aloqada bo‘lishga olib keldi. Ko‘p tillilik bu davr rivojlangan madaniyatining muhim xususiyati va muhim sabablaridan biri hamdir.

IX-XII asrlar davomida Movarounnahr butun musulmon olamiga ilmiy-madaniy jihatdan eng rivoj topgan o‘lka sifatida mashhur bo‘lib, bu erda qadimiy an‘analar bilan arab, fors, qisman hind hamda qadimgi yunon ilmiy-madaniy an‘analari qorishuvi asosida islomiy, falsafiy va tabiiy ilmlar — astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, dorishunoslik, jug‘rofiya kabilar rivoj topdi. Bu yerda mashhur hadisshunoslik va islom fiqhshunoslik maktablari shakllanib, tarixshunoslikda muhim asarlar vujudga keldi.

Bu davr ma‘naviyatining muhim tomonlaridan biri shundaki, olim, donishmand, shoirlarning ko‘pchiligi qomusiy bilimlarga ega bo‘lib, ilmlar bir-biridan ajralmasdan, uzviy bog‘liq holda mavjudligi xarakterli edi. Shuning uchun ham al-Forobiy, ibn Sino, Al-Beruniy, Az-Zamaxshariy, Ismoil Jurjoniylar juda ko‘p sohalarda ijod yetib, o‘chmas iz qoldirdilar. Shu bilan birga matematika,

astronomiya, tibbiyot, mantiq, tilshunoslik, tarix kabi ilmlar, madaniyat, ma'naviyatning rivojida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etgan din, islom dinining nazariy masalalari bilan birga axloqiy tomonlari ham keng rivoj topganini ko'ramiz. Umuman, bu davrda islom musulmon Sharqida nafaqat din sifatida, balki yaxlit madaniyat, ma'naviyatning shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. U madaniyatning boshqa sohalari: ilm-fan, san'at, axloq, siyosat kabilarning rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Musulmon Sharqi, shuningdek, Markaziy Osiyo Uyg'onish davri madaniyati yuqorida ko'rsatilgan o'ziga xos xususiyatlarni ifodaladiki, bu xususiyatlar bu yerda madaniyat, ma'naviyatning so'nggi rivojini belgilashda etakchi rol o'ynadi.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa, keyingi to'rt yil ichida mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar darhaqiqat 750-1150 yillardagi Birinchi Uyg'onish davri, 1370-1507 yillardagi Ikkinchi Uyg'onish (Temur va temuriylar Renessansidan) keyin Uchinchi Uyg'onish davriga qadam qo'yayotganimizdan darak beryapti. Bu quruq gap emas, aksincha, haqiqat va haqqoniyatdir. Yevropa XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Uyg'onish davriga qadam qo'ydi. Aynan shu davrida Vizantiya imperiyasining qulashi, Yevropaga qochib borgan vizantiyaliklar asrlar mobaynida imperiya poytaxti Konstantinopolda to'plangan kutubxonalar, san'at asarlarini o'zlari bilan olib ketishlari, birinchi bosqichda Italiyada, keyinchalik Fransiya va boshqa Yevropa mamlakatlarida ilmiy kashfiyotlar, adabiyot va san'atning, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlanishi kuzatildi. Va... inson qadri ulug'landi. Yevropalik mutaxassislarining o'zlari ushbu jarayonlarning barchasida unutilayozgan ilmiy, madaniy, adabiy merosga berilgan alohida e'tibor hal qiluvchi rol o'ynadi, deb hisoblaydilar. Ayni paytda, ushbu voqealardan avvalroq Ispaniya va Italiyada topilgan, o'z davrining olimlari va tarjimonlari tomonidan Ibn Sino, Farg'oniy, Beruniy va Xorazmiyning lotin va jonli Yevropa tillariga o'girilgan asarlari ham Yevropadagi Uyg'onish davri jarayonlariga ijobiy ta'sir qildi. Uyg'onish davri gumanizm davriga, gumanizm esa ma'rifat davriga asos yaratdi. Buyuk ilm-fan namoyandalari, amaliy san'at ahli, yozuvchilar va shoirlar ana shu muhitda yetishib chiqdilar.

Keyingi yillarda yurtimizda iqtisodiyot, ichki va tashqi siyosat, ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat, ajdodlar merosi, xotirasi, diniy ma'rifat va tarbiya sohalaridagi islohotlar, yaqin va uzoq fursatlarga mo'ljallangan rejalar, xalqni rozi qilishga qaratilgan, inson manfaatlari va huquqlarini to'liq ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar va bularning natijasida jamiyat a'zolarida shakllangan ertangi kunga ishonch yurtimizda Uchinchi Uyg'onish davriga qadam qo'yayotganimizdan darak berib turibdi.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda tarqalgan va rivojlangan tasavvuf ta'limotlari va oqimlari ham jamiyat ma'naviy hayotining rivoji uchun xizmat yetib, uning o'ziga xosligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma'lumki, G'arb adabiyotlarida Ovro'po mamlakatlarida keskin madaniy yuksalishga olib kelgan XV- XVII asrlarni Renessans - Uyg'onish davri nomi bilan yuritadilar. Biroq ko'pchilik mualliflar Sharqda Shunday jarayon bo'lganligidan ko'z yumadilar. Holbuki, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda Ovro'podan bir necha asr ilgari madaniy yuksalish yuz berganligini hech kim inkor eta olmaydi. U Ovro'podagidek Yangi siyosiy-iqtisodiy jarayon, ya'ni burjua munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lmagan bo'lsa-da, madaniyat tarixida so'nmas iz qoldirdi va Ovro'po Renessansining vujudga kelishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Shuning uchun biz IX-XII asrlardagi Markaziy Osiyo madaniy yuksalishini Uyg'onish davri, aniqrog'i ilk Uyg'onish davri deb atashga ham to'la asosimiz bor. Bu ilk uyg'onish davri madaniyati siyosiy-iqtisodiy jihatdan Ovro'po mamlakatlaridan farqli o'laroq mustaqillikka erishish va bu mintaqada mustaqil davlatlarning vujudga kelish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir.

Bu davrda Markaziy Osiyoda arab, fors va turkiy tillardagi dastlabki she'riy asarlar vujudga keldi.

Bu davr madaniy yuksalishi haqida gap borar ekan, ma'naviyatga, Uyg'onish davri madaniyatiga xos quyidagi xarakterli tomonlarni qayd yetib o'tish mumkin:

- koinotning vujudga kelishi, bosqichlari, olamning tuzilishi, modda va ruhning xususiyatlari kabi umumiy ilmiy masalalarga qiziqish;
- insonni koinotni yaratguchining eng oliy mahsuli deb baholash. Avvalo, ilm,

inson ahli tafakkurini ulug‘lash, unga ishonch bildirish, targ‘ib-tashviq etish, ularni yaratguchining eng ulug‘ va yuksak ijodi deb baholash, ma‘rifat tarqatish, jamiyat, jamoani yaxshilikka eltish insonning muhim vazifasi deb bilish;

- axloq, odob, muomalani inson tarbiyasining asosiy maqsadlaridan deb bilish. Insonning adolat, yuksalish, ma‘naviyatga intilishiga yo‘l ochish, imkoniyat yaratish. Aqlda, axloqda, ma‘naviyatda yetuk bo‘lish, komil insonni yaratish, insonparvarlik, vatanga, odamlarga xizmat qilish, insonlar orasidagi do‘stlik, o‘zaro yordam, ko‘maklashuvga chaqirish, bu davr madaniyatining yetakchi jihatlaridandir;

- komil inson rivojlangan davlatchilikda shakllanadi. Bunday davlatchilik esa aql va ilmga o‘zaro kelishuv, birlikka ega bo‘lish natijasida amalga oshiriladi. Mustahkam davlatchilik turli ilm-fan tarmoqlarining rivojini ta‘minlaydi;

- mustahkam davlatchilik fozil jamoani vujudga keltira oladi - bu davlat, jamoaga rahbarlik, hokimlik qilayotgan shaxsning ma‘rifatli, ilmli, axloqli bo‘lish, jamoani kelishib boshqara olishiga bog‘liqdir. Ma‘rifatli shoh, jamoa yaratish, davlatchilikni mustahkamlash bu davr ijtimoiy ta‘limotlarining muhim xislatidir.

XIII asrning boshida Markaziy Osiyo xalqlari Chingizxon boshliq mo‘g‘ullar bosqiniga uchradi. Bu bosqin katta hududni o‘ziga bo‘ysundirgan Xorazmshohlar davlatiga qarshi shiddatli janglar bilan boshlandi, deyarli ikki yil davomida Movarounnahr ham bosib olindi, ko‘p shaharlar, madaniy yodgorliklar vayron etildi. Olimu fozillar o‘ldirildi, boshqa mamlakatlarga quvg‘in bo‘ldi, ilm-fan, madaniyat keskin tushkunlikka yuz tutdi. Lekin ilk uyg‘onish, IX-XII asrlardagi madaniy yuksalish Markaziy Osiyoning so‘nggi ma‘naviy rivojida o‘chmas iz qoldirdi.

Tarixiy ildizlari uch ming yildan chuqurroq qadimiyatga borib taqaluvchi o‘zbek davlatchiligi ko‘p marotaba yuksalishlarni boshidan kechirgan. Eng qadimgi davlat uyushmalarining shakllanishi natijasida taraqqiy topgan davlatlarning vujudga kelishi, bu davlatlarning G‘arb va Sharq mamlakatlari bilan Buyuk Ipak yo‘li orqali olib borgan aloqalari samarasi o‘laroq Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining gurkirab ivojlanishi omillari ilm-fan ahlini ko‘pdan beri qiziqtirib keladi.

Markaziy Osiyo, shu jumladan, O‘zbekiston insoniyat sivilizatsiyasi qaror topgan mintaqalardan biri sifatida o‘z o‘rni va salohiyatiga ega hudud sanaladi. O‘z



davrida hozirgi zamon ilm-faning ilk poydevorini qo‘ygan va rivojlantirgan ajdodlarimiz qadim-qadimlardan G‘arb va Sharq xalqlari yaratgan tafakkur, g‘oya, kashfiyotlar va donishmandlikni sinchiklab o‘rganganlar. Shuning uchun ham o‘rta asrlarda ham Qadimgi Rimliklar o‘zaro “*Ex Oriente lux*” ya’ni “*Nur Sharqdandir*” iborani ko‘p bora ishlatilganligi manbalarda qayd etilgan.

Sharq Uyg‘onish davri – Musulmon Renessansi deb nom olgan o‘rta asrlar va undan keyingi zamonlarda bugungi O‘zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning jahon ilm-fani va madaniyati, muqaddas islom dini rivojiga qo‘shgan bebaho hissasi dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

Buyuk ajdodlarimiz o‘z ilmiy merosi bilan insoniyat sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shganlar. Sharq va G‘arbning ilmiy dunyosi birlashgan va uyg‘unlikda rivoj topgan. Allomalarimiz faqat Markaziy Osiyoning ilm-fan yutuqlari bilan chegaralanib qolmasdan, xorijlik mutafakkirlarning ham ilmiy yutuqlaridan bahramand bo‘lganlar va ularni yanada boyitishga alohida e’tibor qaratganlar.

Buyuk allomalarimiz o‘zlariga mansub bo‘lgan fan sohalaridagi faoliyatlaridan tashqari, qadimgi yunon tilida yozilgan Platonning (“*Qonun va Timey*”), Aristotelning (“*Siyosat*”, “*Kategoriyalar*”, “*Analitika*”, “*Paydo bo‘lish va yo‘qolish to‘g‘risida*”, “*Jon haqida*”, “*Etika*”), Gippokratning (“*Og‘ir kasalliklar*”, “*Inson tabiati*”), Galenning (“*Hunar*”, “*Qon tomiri va kasallikni davolash*”, “*Anatomiyalashtirish*”), Evklidning (“*Geometriya asoslari*”, “*Cho‘qqilar*”), Ptolomeyning (“*Almagest al-Majistiy*”), Arximedning (“*Shar va silindr to‘g‘risida*”, “*Doirani to‘rt va yetti qismga bo‘lish*”, “*Tutashuvchi doiralar*”), Appoloniya Bergskiyning (“*Konussimon kesishmalar*”, “*Yassi kesishmalar*”), Aristarx Samosskiy, Teofrast, Prokl, Aleksandr Afrodziy, Porfiriylar asarlari mashhur bo‘lib, qadimgi yunon va ellinizm davrida yashagan olimlarning matematika, falsafa, tibbiyot, geografiya, astronomiyaga oid bir necha yuzlab eng sara asarlarini Sharq alloma va mutafakkirlari tomonidan arab va suryoniy tillarga tarjima qilganlar. Mana shu tarjimalar va o‘zlarining asarlari shu tariqa Qadimgi Sharq fanining shakllanishi va yuksak taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan.

O'рта Osiyo arablar tomonidan istilo qiliganidan bir asr keyin yangi madaniyat shakllana boshladi, uning gullab-yashnashi IX-XII asrlarga to'g'ri keldi. Uning barcha sohalarida dastlab arab islom madaniyatining kuchli ta'siri, shuningdek arab va mahalliy an'analarning o'zaro ta'siri ham sezilarli edi. Mafkura sifatida faqat islom, ilm va ilohiyot tili hukmron bo'ldi.

Butun Sharqda bo'lgani kabi Movaraunnahrda ham ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjimlar, matematika, fizika, tibiiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar yetishib chiqdilar. Ular o'z ilmiy ishlarida axloq-odob masalalariga ham katta e'tibor berdilar. Bular ilgari surgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamol topishida pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Demak, Markaziy Osiyo Sharqning yuksak ma'naviyat va yirik ilmiy tafakkur markaziga aylandi. Ana shu IX-XII asr Sharq Renessansi davrining buyuk allomalari jahon madaniyati rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. Jumladan:

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (785-850) Xorazmda tug'ilgan, shu yerda o'sgan. Umrining ayni gullagan davrida (20-25 yosh) vatanni tashlab chiqib ketadi. U Iroq va Shomga borib, yetuk olim va shoirlar bilan tanishadi va ulardan ta'lim oladi. Nishopur, Sheroz shaharlarida bo'ladi. U IX asr boshlarida mashhur olim sifatida taniladi. Bag'doddagi «Bayt-ul hikma» ilm markaziga chaqiriladi. Al-Xorazmiyning ilmiy asrlari: 1) «Al-jabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» («Al-kitob al-muxtasarfi hisob al-jabr va muqobala») asarida sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar, ularni yechish yo'llarini bayon etadi. Risola 3 qismdan iborat: a) algebraik qism, bo'lim keltiriladi, b) geometrik qism algebraik usul qo'llab o'lchashlar haqida, v) vasiyatlar haqida bo'lib, muallif uni «Vasiyatlar kitobi» deb ataydi. Asar o'zining bir xususiyati bilan xarakterliki, unda ma'naviyat riyoziyot nuqtai nazaridan axloqiy-odob tamoyillari hisob-kitob qonunlari bilan singdiriladi. «Aljabr va muqobala» asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib, o'zidan avvalgi bilimlarni o'rgandi va ularni sintezlashtirdi, qo'llash usullarini aytdi.

2) «Hind hisobi bo'yicha kitob», 3) «Astronomik zij», 4) «Yer surati haqida kitob» kabi asarlari bor. Umuman al-Xorazmiy «Al-jabr val-muqobala» asari tufayli «Al-Xorazmiy» nomi (XII asr boshlarida), keyinroq algebra, lotincha «algoritm» shaklini oldi, keyinchalik hozirgi zamon hisoblash matematikasining asosiy tushuncha algoritm algoritfmga aylandi.

Ahmad al-Farg'oniy (787-861) - g'arbda Alfraganus nomi bilan, Sharqda esa Hosib-hisobchi nomi bilan mashhurdir. Uning asarlari (XII-XIII asr) Yevropada tarjima qilinishi tufayli u «Birinchi arab astronomi» nomini oldi. Uning «Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob», «astronomiya negizlari» asari bor. Umuman Ahmad al-Farg'oniy Sharqda «Hisob» (matematik) - hisobchi, «munajjim ar-Rais» nomi bilan shuhrat qozondi. U Farg'onaning Quvasida tug'ilib, Misrda vafot etgan. Qadimgi Kubo shahristoni atrofida Ahmad Farg'oniy xiyoboni yaratilmoqda. Misrda Dafn etilgan marhumning hoki 1999 yili keltirilib, Quva maqbarasiga quyildi. YUNESKO Bosh konferensiyasining 29-sessiyasi va O'zbekiston Hukumati 1998 yilda Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilligini nishonlashga oid qaror qabul qildi va 1998 yil 24 oktyabrda bu sana katta tantanalar bilan nishonlandi. Al-Farg'oniyning nomi Dante, Shiller, Erkin Vohidov asarlarida ulug'landi. Dante «Ilohiy komediyasi»da Dunyo tuzilishi haqidagi ma'lumotlarni uning asarlaridan oldi. «Astronomiya negizlari» (asoslari) asarining to'liq nomi «Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob», uni qisqacha «Astronomiya asoslari» deb yuritishadi. Bu asardan hanuzgacha darslik sifatida foydalanib kelinadi. VIII asrda Farg'ona o'lkasi arab istilochilari tomonidan zabt etildi. 919-920 yillarda arab xalifasi Ma'mun Farg'onani markazi Buxoroda bo'lgan davlat tarkibiga o'tkazdi.

Arab istilosidan keyin ilm va ma'rifat arab xalifatining markaziy shaharlariga ko'chgach, Ahmad al-Farg'oniy ham ilmiy ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida Xalifa al-Ma'mun saroyiga chaqirtirilib, undan xalifa bilan Bag'dodga keldi. Bag'dodda jam bo'lgan olimlar bilan birga «Hikmatlar uyi» deb atalmish fanlar akademiyasini tashkil etdi va ko'p yillar unga rahbarlik qildi. VIII asr oxiri va IX asr boshlarida arab xalifaligini Xorun ar-Rashid (786-809) va uning o'g'li Ma'mun (813-

833) boshqargan vaqtlarda Bag‘dodda kuchli ilmiy markaz dargohi tashkil topgan edi. Uni «Baytul hikma» («Hikmatlar uyi») deb ataganlar. Bag‘dod ilk o‘rta asrlar davrida ilm-fan taraqqiyy qilgan markaz edi. Bu yerda «Bilimlar uyida» Markaziy Osiyo, Eron va boshqa yurtlardan kelgan turli xalq va millat olimlari to‘plangan edi. U ham shu uyda ishladi. «Bilimlar uyi» kutubxonasida 400 mingdan ziyod qo‘lyozma kitob bor edi. Kutubxonaga Xorazmiy boshchilik rahbarlik qilgan.

Ko‘p tillarni yaxshi bilgan olim ilm uchun qulay sharoitga ega bo‘lgach, qadimga dunyo fani asarlarini o‘rganadi, ularni hind, yunon, suriya, sanskrit, arab, fors va boshqa tillarga tarjima qiladi. Ahmad Farg‘oniy Bag‘dodda madrasada astronomiyadan dars beradi, yosh tolibi ilmlarda ilmga havas va muhabbat tuyg‘ularini tarbiyaladi. 833 yilda taxtga xalifa Mu‘tasim chiqadi. U Bag‘dod yaqinida Shammasiya va Damashq yonidagi Kassiyun tog‘ida 2 rasadxona qurishni Ahmad Farg‘oniyga topshiradi va ular qurib ishga tushiriladi. Ahmad Farg‘oniy «Astronomiya asoslari» asarida o‘sha davrda astronomiyaga zid bilimlarni bir qolipga soldi, o‘z yangi natijalari kashfiyotlari bilan boyitdi, astronomik asboblarni, Quyosh soatlari bayonini berdi. Mamlakatni 7 iqlimga bo‘lib o‘rgandi. Joylarning geografik koordinatlarini Sharqdan g‘arbga yo‘nalishda berdi. Kopernikkacha astronomidan asosiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi.

Abu Nasr Forobiy (873-950) - «ikkinchi ustoz» («muallimi soniy»). Aristoteldan keyin jahon ilmida ikkinchi ustoz deb tan olingan. U o‘z davri jahon ilmi yutuqlariga tayanib, birinchi va mukammal ilmdar turlanishini yaratadi va bu haqda ko‘plab asarlar yozadi. 160 ga yaqin asari bor. «Sharq Aristoteli» asarlarini ikki guruhga ajratish mumkin: a) qadimgi grek faylasuflari va tabiatshunos olimlarining (Aristotel, Platon, Evklid, Galen va boshqalar) ilmiy meroslarini sharhlash, targ‘ib qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan; b) O‘rta asr fanining tabiiy va ijtimoiy-falsafiy fikri sohalariga, uning turli dolzarb masalalarini ishlab chiqishga, tabiatshunoslik, musiqashunoslik, filologiya, jamiyatshunoslikning muhim sohalariga bag‘ishlangan risolalar. Forobiy ilmiy merosining bir qismini uning sharxlari tashkil yetib, ular boshqa muallimlarning asarlarga shunchaki tushuntirish va izohlar bo‘lib qolmasdan, balki teran va qiziqarli fikrlar bilan yo‘g‘rilgan, shuning uchun ham ularni mustaqil

asarlari sifatida o'rganmoq lozim. Olimning «Ideal jamiyat haqida», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» kabi asarlari ma'naviy-falsafiy muammolarni hal etishga bag'ishlangan. Olimning insonparvarlik, vatanparvarlik, inson shaxsini tarbiyalash kabi fikrlari ijtimoiy masalalarni hal etish haqidagi nazariy saboqlari bilan singishib ketgan.

Forobiyning asarlarini mazmuniga qarab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) falsafaning umumiy masalalariga, ya'ni bilimning umumiy xususiyatlari, qonunlari va turli kategoriyalariga bag'ishlangan asarlar («Masalalar manbai»);
- 2) inson bilish faoliyatining falsafiy tomonlariga bag'ishlangan, ya'ni bilishning shakllari, bosqichlari, usullari haqidagi asarlar. («Yoshlarning aqli haqida kitob»),
- 3) falsafa va tabiiy fanlarning fan sifatidagi mazmuni, mavzui haqidagi asarlar («Falsafaga izoh» va boshqalar),
- 4) moddaning miqdori, fazoviy va hajmiy munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan («Musiqqa haqidagi so'z»),
- 5) moddaning xossa va turlari, noorganik tabiat, hayvonlar va inson organizmining xususiyatlarini o'rganuvchi («Inson a'zolari haqida risola»),
- 6) tilshunos, she'riyat, notiqlik, san'ati, hattotlikka oid asarlar («Ritorika haqida kitob»),
- 7) ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalariga, axloq, tarbiyaga bag'ishlangan, ya'ni huquqshunoslik, etika-pedagogikaga oid asarlar («Baxt-saodatga erishuv», «Shaharni boshqarish», «Urush va tinch turmush haqida kitob», «Fazilatli xulq» va boshqalar).

X-XI asrlarga kelib Xorazmda ma'rifatparvar shoh Abul Abbas ibn Ma'mun rahnamoligida Gurganjga to'plangan olimlar ishtirokida 1004 yilda «Majlisi orifin» («*Donishmandlar uyi*») tashkil topdi. Bu ilmiy markaz tarixga «Ma'mun akademiyasi» (*X asr oxiri — XI asr boshlari*) degan nom bilan kirdi.

Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun akademiyasi («Majlisi ulamo»)da Abu-l-Xayr Hammor (X-XI asr), Abu Muhammad Ibn Xidr al-Xo'jandiy (X-XI asr), Ma'mun ibn Ma'mun (vaf. 1017), Abu Rayhon Beruniy, Abu Sahl Iso ibn Yahyo al-Jurjoniy al-Masihiy (vaf. 1011), Abu Nasr ibn Iroq, Abu Said ibn Ahmad ibn

Muhammad ibn Miskavayx (vaf. 1030), Ahmad Muhammad as-Saxriy (vaf. 1015), Zaynuddin Jurjoniy (X-XI asr), Abulkarim Zirg'aliy (X-XI asr), Abu Ali ibn Sino, Abu Abdulloh al-Biyon an-Naysaburiy, (vaf. 1004) Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy al-Xorazmiy (vaf. 1015), Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038), Abu Abdulloh Iloqiy (vaf. 1038) va boshqa olimlar ijod qilganlar. Ular riyoziyot, falakiyot, ruhiyat, al-kimyoy, mantiq, tibbiyot, falsafa, tarix, tilshunoslik, pedagogika (farzand tarbiyasi), adabiyot, musiqa, jo'g'rofiya, topografiya, mexanika, geodeziya singari turli fan sohalari bilan shug'ullanishgan.

«Ma'mun akademiyasi»ga mudarris sifatida Abu Rayhon Beruniy (973-1048 y) va qator qomusiy olimlar bilan birgalikda astronom va matematik olim Abu Nasr Ibn Iroq (960– 1036 y), tabobat ilmi namoyondasi Abu Ali Ibn Sino (980-1037 y), astronom, tarixchi, tilshunos olim Abu Sahl Masihiy (tah 971-1011 y), mantiqshunos olim Abulxayr Ibn Hammor (941-1048 y), Abu Mansur Abdumalik Ibn Muhammad Ibn Ismoil As-Saolibiy An-Naysaburiy (961-1038 y), Ahmad Ibn Muhammad As-Sahriy (tah – 1015 y), Abu Ali Al-Hasan Ibn Horis Al-Hububiy Al-Xorazmiy (X-XI asr), Abu Abdulloh Muhammad Ibn Homid Al-Xorazmiy (X-XI asr) kabi olimlarning ko'plab ilmiy asarlar tarjima qilinib, jahon fani rivojiga katta hissa qo'shdilar.

Buyuk allomalarimiz yoshligidanoq haqiqiy ilm bir necha tillarni bilishni taqozo etishini juda erta anglab yetganlar va shu bois o'zining ona tilidan tashqari arab, ivrit, fors, suryoniy, yunon, sanskrit tillarini chuqur o'rganganlar. Manbalarda Abu Nasr Forobiyning (797-865) ko'plab tillarni bilganliklari qayd qilingan.

Abu Nasr Mansur Ali ibn Iroq – Abu Rayhon Beruniyga ustozlik qilgan buyuk riyoziyotchi va falakiyotchi. U haqida mashhur shoir va olim Umar Xayyom «Matematika bilan shug'ullanganlarning eng ulug'i», degan edi. Ibn Iroqning «Al-Majistiy ash-Shohiy» («Podshoh al-Magesti»), «Risala fi javob masail al-handasa» («Handasadan savollarga javob») va boshqa asarlari ma'lum.

Abu Saxl Iso ibn Yahyo al-Jurjoniy al-Masihiy – Ma'mun akademiyasida tibbiyot, axloq masalalari, ruhshunoslik, falsafa bilan shug'ullangan buyuk alloma. Hayoti va ilmiy ijodi davomida ko'plab shogirdlar ham tayyorlagan. Uning «Tibbiyotga doir yuz masala», «Ruh haqidagi kitob», «Umumiy tibbiyot kitobi»

asarlari ma'lum.

Abu Usaybi'aning yozishicha, Masihiy Ibn Sinoning yaqin do'sti bo'lishi bilan birga, tib sohasida unga ustozlik qilgan. Ibn Sino Masihiyga bag'ishlab asarlar ham yozgan. Masihiy sulton Mahmudning G'aznaga taklifini rad yetib, Ibn Sino bilan birgalikda Xurosonga qochib ketayotganida yo'lda 1010 yilda 40 yoshida vafot etadi<sup>25</sup>.

Abul Hakim Al-Kosiy – kimyo fani bilan shug'ullangan akademiya allomasi. Uning «San'atning mohiyati va yordami» (عين الصنعة و عين الصناعة) («Ayn as-san'a va ayn as-sana'a») Yevropada XIII-XIV asrlardagi ilmiy tadqiqotlar darajasiga to'g'ri kelishi, 1905 yilda esa ingliz tiliga tarjima qilinishi uning bilimi naqadar yuksakligidan dalolat beradi. Al-Kosiyning mazkur asari haqida O'zbekistonlik olim S.Karimova ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy – tarix, adabiyot, mantiq, tilshunoslik bo'yicha bilimlar sohibi, akademiyaning eng sermahsul ijodkorlaridan. Kishilar axloqi, so'zlashish odobi muammolariga oid ko'plab asarlar muallifi bo'lgan alloma bizga boy meros qoldirgan. U «Asr ahllarining fozillari haqida zamonaning durdonasi», «Afzal xulqlar», «Til qonunlari va arab tili sirlari», «Ajoyib ma'lumotlar» va boshqa asarlar muallifidir.

Abu Ubayd Abd-al-Vohid al-Juzjoniyy – hakim, Ibn Sinoning shogirdi. U falsafa, tibbiyot, fiqh bilan shug'ullangan. Juzjoniyy ustozini merosini saqlash borasida fidoiylilik namunasini ko'rsatdi. Uning mashhur asari «Olimlar boshlig'i (Ibn Sino)ning tarjimai holi»dir. Juzjoniyy ustozini asarlarini qunt bilan o'rganishdan tashqari jarrohlik operatsiyalarida ham ishtirok etgan. Tibbiyotga doir «Shohlar tabobati», «Tabobatlik maqsadi», «Xorazmshohlar xazinasi», «Tabobat sohasidagi esdalik» asarlari uning qalamiga mansub. Ulardan eng kattasi 12 jildlik «Xorazmshohlar xazinasi» edi<sup>26</sup>. Bu risolalar bizgacha yetib kelmasada, o'z davrida tibbiyot fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ma'lum. Alloma ustozini Ibn Sinoning «Al-qonun» asarini qisqartirib, uni ixchamlashtirgani natijasida olimlar undan kengroq foydalana

---

<sup>25</sup> Sezgin F. Geaschichte des arabischen Schrifttums. - Leiden, 1974. - P. 326.

<sup>26</sup> Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2019. – 157 b.

olganlar<sup>27</sup>.

Ma'mun o'z saroyida olimlar bilan ilmiy muzokaralar o'tkazib turgan. Ular turli sohalar bo'yicha xilma-xil muammolarga oid o'z fikrlarini bildirganlar, bahslashganlar. Bunday ilmiy anjuman g'oliblariga qimmatbaho sovg'alar hadya qilingan, muruvvat ko'rsatilgan.

Allomalarga Abu Rayhon Beruniy boshchilik qilgan, Xorazmshohning bosh vaziri, ilm-fan homiysi Abu Mansur as-Sahriy ham olimlar uchun haqiqiy ijodiy muhit yaratishda o'z xizmatlarini ayamagan. Allomalar Gurganchning boy kutubxonasida mutolaa bilan mashg'ul bo'lganlar, o'z shogirdlari bilimlarini chuqurlashtirib, tafakkurini kengaytirib borganlar. Akademiya vakillari nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Sharq va G'arb mamlakatlarida ilm-fan yuksalishiga munosib hissa qo'shganlar<sup>28</sup>. Ular Movarounnahr va Xurosonda uning nufuzi yanada oshishiga xizmat qilganlar.

Xorazm Ma'mun akademiyasining mudarrisi Abu Rayhon Beruniy o'z zamonasining mashhur olimi Abu Nasr ibn Iroq qo'lida ta'lim oldi. Bu ustoz falakiyot, geometriya va riyoziyotga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Abu Rayhon Beruniyga bag'ishlaydi. Uni Evklid geometriyasi va Ptolemeyning falakiyot ta'limoti bilan tanishtirdi.

Abu Nasr Mansur ibn Iroq o'zining ilmiy asarlaridan birida yozishicha, Abu Rayhon Beruniy Xorazmda yashagan davrda hali juda yosh bo'lishiga qaramay, 384-385 (milodiy 994-995) yillari Kot shahrida muhim falakiyot kuzatishlari olib borgan. Bu kuzatishlar uchun o'zi asboblari ixtiro qilgan. Lekin u faqat Jayhun (Amudaryo)ning chap qirg'og'ida Xorazm shahridan janubda joylashgan bir qishloq uchun eng uzoq, eng yuqori ekliptika nuqtasi va azimutsiz ekliptikani aniqlashga muvassar bo'lgan.

Abu Nasr ibn Iroqning qo'lida Abu Rayhon Beruniy ta'lim-tarbiya olib, yetuk olim bo'lgan. U yoshlik chog'laridayoq riyoziyot, falakiyot va bular bilan boshqa fanlardan ham chuqur bilimga ega bo'lgan. Eng avvalo, uning ko'p tillarni bilganligi

---

<sup>27</sup>Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2019. - 158 b.

<sup>28</sup> O'sha yerda.



diqqatga sazovor. Olimning barcha asarlari arab tilida yozilganligiga qaraganda, o'sha davrda islom tarqalgan yerlarda arab tili umumiy ilmiy til bo'lgan, u til grammatikasini har tomonlama chuqur bilgan. Uning «Mineralogiya», «Hindiston» va boshqa asarlari arab she'riyatini, undagi vaznlarni ham mukammal bilganligidan dalolat beradi<sup>29</sup>.

«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Qonuni Mas'udiy» va «Saydana» kabi asarlari Abu Rayhon Beruniy so'g'diy va forsiy-dariy tillarini ham juda yaxshi bilganligini ko'rsatadi. «Saydana»da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, u yoshligidanoq yunon tili bilan shug'ullangan. Sanskrit tilini esa yoshlik chog'larida Xorazmdaligida hind savdogarlaridan o'rgana boshlagan<sup>30</sup>.

Abu Rayhon Beruniy yoshlik yillarida mazkur tillarda yozilgan tarixiy risolalardan ham xabardor bo'lganligi uning eng birinchi yirik asari (1000-1003 yillarda yozilgan) «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»da o'z aksini topgan.

Abu Rayhon Beruniy amaliy falakiyot yo'nalishida joylarning jo'g'rofiy kengligi va uzunligini aniqlash<sup>31</sup>, taqvimlar tuzish<sup>32</sup> haqida fikrlar bayon qilgan.

Uning «Kartografiya» asarida ikkita risola haqida eslatadi: birinchisi «Globus yasash kitobi»<sup>33</sup> bo'lib, u faqat «Kartografiya»da eslatilgan, ikkinchisi «Yerdagi joylarning uzunlama va kenglamalarini aniqlash haqida kitob»<sup>34</sup> deb nomlangan. Ular qomusiy olimning ilmiy asarlari ro'yxatida keltirilgan.

Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida oy manzillari haqida bunday yozadi: «Men oliy dargohdan uzoqlashib, sharaflı xizmat saodatidan mahrum bo'lgan kunlarimda Ray shahrida ilmi nujum olimlari qatorida sanaluvchi birovni ko'rdim»<sup>35</sup>. Bu yerda eslatilayotgan «oliy dargoh», albatta,

---

<sup>29</sup> Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. T.3. Turar joylar (orasidagi) masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash. [Geodeziya] // Muqaddima, tarj. va izohlar muallifi A.Ahmedov. - Toshkent: Fan, 1982. - 24 b.

<sup>30</sup> Shamsi F. Abu al-Rayhan al-Bayruni. - P. 194-195; Beruniy va filologiya masalalari haqida mufassalroq U.I.Karimovning "Saydana"ga yozgan tadqiqi 41-52-betlariga qarang.

<sup>31</sup> Садыков Х.У. Беруни и его работы по астрономии и математической географии. - Москва: АН СССР, 1953. - 77 с.

<sup>32</sup> Сираждинов С.Х., Матвиевская Г.П., Ахмедов А. Математика и астрономия в работах Абу Райхана Беруни. - Ташкент: Фан, 1973. - 44 с.

<sup>33</sup> Беруни. Картография. - 303 с.

<sup>34</sup> Беруни. Картография. - 257 с.

<sup>35</sup> Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. T. 1. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Mas'ul muharrirlar I.Abdullayev, O.Fayzullayev; Tarj. A.Rasulov. - Tashkent: Fan, 1968. - 399 b.

Kotdagi Xorazmshoh Abu Abdullohning saroyi va «sharafli xizmat» – uning Xorazmshohga xizmati. Undan mahrum bo‘lish deb, Abu Rayhon Beruniy, Xorazmshohning qatl qilinishi va o‘zining Xorazmdan ketishini nazarda tutyapti. Bu hodisadan so‘ng olimning Rayga borganligini «Mineralogiya»dagi «Rayda mening Isfahon savdogarlaridan bir do‘stim bor edi, ba‘zan uning uyiga mehmon bo‘lib borardim», degan jumalari, «Geodeziya»dagi «Biroq Abu Mahmud menga o‘z og‘zi bilan uning o‘lchashlariga . . . xatolik kirib qolganligini va eng katta og‘ish miqdorini aniqlashdan xursandligi kam bo‘lganligini aytgan», degan satrlari to‘la isbotlaydi.

Abu Rayhon Beruniyning «Mineralogiya» asariga olim butun umr ma‘lumot to‘plagan. Bolalik yillarida Xorazm, keyinroq Eron, Hindiston va Afg‘onistonda bo‘lgan vaqtlarida ham qimmatbaho toshlarning xususiyatlari, ular qazib olinadigan yerlar va bunday ma‘danlar haqidagi rivoyat, hikoya va ma‘lumotlarni to‘playdi, ularning fizik va kimyoviy xususiyatlarini o‘rganadi. Qariyb 60 yillik izlanishlari natijasini «Mineralogiya»da bayon qiladi. Risolada u jismlarning og‘irligi, hajmi haqida tushuncha beradi, 50 dan ortiq moddaning zichlik va solishtirma og‘irligini fan tarixida birinchi marta hozirgi zamon aniqligi bilan hisoblaydi, qattiq jismlar va suyuqliklarning solishtirma og‘irliklarini o‘lchashga mo‘ljallangan maxsus asboblarni yasaydi, ularning tavsifini keltiradi<sup>36</sup>.

Olim umrining oxirgi daqiqalarigacha ilmga bo‘lgan muhabbatiga sadoqatli qoldi. Hatto o‘lim to‘shagida yotib ham bilish, o‘rganishga intildi. Abu Rayhon Beruniy o‘z umri davomida riyoziyot, falakiyot, uning asboblari, jo‘g‘rofiya, falsafa, mineralogiya, farmakognoziya, tarix, etnografiya, xronologiya va filologiyaga oid 155 ta asar yozgan.

Xorazmda ilm-ma‘rifatga homiylik qilayotgan Xorazmshoh Abu Rayhon Beruniyning taklifi bilan Gurganchga Sharqning ko‘plab yirik olimlarini yig‘a boshladi. Ular orasida mashhur tabib, faylasuflar, shoirlar, riyoziyotchi, falakiyotchi, tarixchi va tilshunoslar bor edi.

---

<sup>36</sup> Леммлейн Г.Г. Минералогические сведения. - Москва: АН СССР, 1992. - С. 292-402; Беленицкий А. Место минералогического трактата. – Москва, 1973. - С. 402-418; Акромхо‘jayev O. Beruniy – dastlabki tadqiqotchi. - Toshkent: Fan, 1976. - 32-63 b.; Usmonov T. Beruniyning fizika tarixidagi o‘rni. - Toshkent: Fan, 1977. – B. 179-197.

Shulardan biri Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy haqida Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni yozadi: «Ma'munshohga Sahriy hamkorlik qilardi. U olim edi, shuningdek, juda chiroyli va ajoyib did bilan nomalar tuzardi». O'sha zamonda Xorazm allomalarini qiziqtirib kelgan ilm doirasining kengligi kishini hayratga soladi. Ular fiqh, geologiya, grammatika, bayon, nazm nazariyasi, tarix, falsafa, mantiq, tibbiyot, hisob, geometriya, falakiyot, musiqa, mexanika, optika, kimyo, munajjimlik, fiziognomika, so'zlar izohi, geodeziya, topografiya, o'lchov va tarozilar hamda aniq o'lchov asboblari haqidagi bilimlar, suvning aralashuvi va kimyoga doir fanlar bilan shug'ullanar, tilsim, ta'lim-tarbiya, ruhiyot, sehrgarlikka doir bilimlarni o'rganardilar. Olimlarning hammasi bir-biriga ustoz va shogird edilar.

Ma'mun akademiyasi allomalari, asosan, aniq fanlar va tibbiyot sohalarida ijod qilganlar. Ular orasida atoqli tabib, faylasuf, falakiyotchi, tilshunos va axloqshunos Abu-l-Hayr Hammor o'zining sermahsul ijodi bilan alohida ajralib turgan. U Bag'dodda tug'ilgan, Xorazmshoh Ma'mun II Abul-Hayr Hammorni Gurganchga chaqirtirib, o'zining shaxsiy tabibi va nadimi qilib tayinlaganidan so'ng, Ibn Sino bilan birga saroyda xizmat qiladi. Abul-Hayr Hammor nasroniy dinidan chiqib, islom diniga o'tadi. U turli ilmlarga qiziqqan, ayniqsa, falsafa va tibbiyotga oid asarlari bilan mashhur bo'lgan, uni «Ikkinchi Gippokrat» deb ataganlar. U yunon tibbiyotidan yaxshi xabardor bo'lib, bu sohadagi ilmiy yutuqlari bilan butun Sharqqa tanilgan. Hammor ham akademiya ilmiy munozaralarida faol ishtirok yetib, katta obro'ga ega bo'lgan. Uning bu yerdagi faoliyati alloma ijodidagi eng sermahsul davr edi.

Mahmud G'aznaviy Xorazmni o'z ta'sir doirasiga o'tkazgach, Hammorni o'zi bilan poytaxtga olib ketadi. Saroyda Hammor sultonning shaxsiy tabibi vazifasini bajaradi, umrining oxirigacha uni davoladi. Sulton allomaga Hammor degan joydan xususiy yer ajratib beradi, uning ism- sharifiga bu nom qo'shilib aytiladigan bo'ladi.

Abul-Hayr Hammor nafaqat kitob yozish bilan shug'ullangan, balki tarjimonlik ishlarini ham amalga oshirgan. Uning tarjima asarlaridan bizgacha quyidagilar yetib kelgan: «Kitob al-osor al-alviya» (كتاب الآثار العلوية) («Oliy ta'sirlar kitobi»), كتاب اللبس (في الكتب الأربعة في المنطق) Kitob al-lubs fi-l-kutub al-arba'a fi-l-mantiq («Mantiqqa oid to'rt kitobdagi chalkashliklar haqida kitob»).

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolardan bo'lib, uning ilmiy ishlari xorazmlik qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy asarlari bilan birgalikda o'sha davr fani taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisini tashkil etadi.

Ibn Sinoning fikricha, riyoziyot fanlar quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi: sonlar nazariyasi (علم العدد) ('ilm al-'adad), geometriya (علم الغيامتريية) ('ilm al-handasa), falakiyot (علم الهيئة) ('ilm al-xay`a) va musiqa (علم الموسيقى) ('ilm al-musiqi)<sup>37</sup>.

Abu Ali ibn Sinoning hayoti va ijodiyoti nihoyatda og'ir sharoitda o'tdi. U umri bo'yi bir shahardan ikkinchisiga, bir o'lkadan boshqasiga ko'chib yurishga majbur bo'ldi. 999 yilda Somoniylar davlati tugatildi, 1002 yilda Ibn Sino Buxorodan Xorazmga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 9042 raqamli «Ajoyib at-tabaqot»<sup>38</sup> nomli qo'lyozma saqlanadi. Bu risola muallifi Muhammad Tohir ibn Abu-l-Qosim<sup>39</sup> bo'lib, u muqaddima va yetti bobdan iborat. Uning to'rtinchi bobi so'nggi qismida qizil siyohda «Zikri Shayx Abu Ali ibn Sino»<sup>40</sup> degan sarlavha bilan u haqida ma'lumot berilgan. Bu qo'lyozma jo'g'rofiy asardir<sup>41</sup>. Ibn Sinoga bag'ishlangan sahifalarining birida uning Buxoro va Xorazmda qancha vaqt bo'lgani haqida quyidagi satrlar yozilgan:

«Abu Ali ibn Abdulloh ibn Sino yigirma to'rt yoshida aqliy, naqliy va riyoziy ilmlarning hammasidan xabardor bo'lib, Buxoroda olimlar bilan tortishib, ularni mot qilgan. Keyin Xorazmga borib, etti yil davomida u erda dars o'qitgan. Keyin esa u yerdan Jurjonga boradi»<sup>42</sup>.

Xuddi shunday fikrni Sharifjon mahdum Sadri Ziyo ham o'rtaga tashlagan. U kishining Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zR SHI qo'lyozmalar fondida

<sup>37</sup> Матвиевская Г.П. Из истории изучения физико-математического наследия Ибн Сины // Математика и астрономия в трудах Ибн Сины, его современников и последователей. - Ташкент: Фан, 1981. – 18 с.

<sup>38</sup> СВР, VIII. - Тошкент: 1967. 72-73-бб, 5660-тавсиф.

<sup>39</sup> СВР, I, 299-300-бб; 686-689-тавсифлар.

<sup>40</sup> O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti (bundan keyin O'zR FA SHI deb yoziladi) fondi, ashyo raqami 9042, 174b-varaq.

<sup>41</sup> СВР, I. - Тошкент: Фан, 1952. – 299 б.

<sup>42</sup> Muhammad Tohir ibn Abu-l-Qosim, Ajoyib at-tabaqot, O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondi, ashyo raqami 9042, 175a-varaq. Bundan keyin Ibn Sinoning Jurjonda kasallarni davolaganligi haqida gap boradi; A.Irisov. Abu Ali ibn Sino. - Tashkent: Fan, 1980. – 59 b.

saqlanayotgan «Tazkirai shuaroi mutaqaddimin va salotin» nomli asarida bu xususda quyidagi satrlar yozilgan:

«Abu Ali Sino o‘n ikki yoshligida olimlar bilan munozara qilib, barchasi ustidan g‘olib keldi, Xorazmda etti yil davomida Xorazmshoh xizmatida bo‘ldi»<sup>43</sup>. Ikkala iqtibosda ham yetti yil, degan ibora e‘tiroz tug‘diradi. Chunki Ibn Sinoning Xorazmni tark qilish yilini Yu.N.Zavadovskiyda hijriy 401/milodiy 1011 yil deb ko‘rsatilgan<sup>44</sup>. Ibn Sino al-Masihiy bilan Jurjonga yo‘l olishdi va Qoraqum orqali ketishdi.

Yo‘lda ancha qiyinchiliklar yuz berdi, yo‘lboshlovchi adashib qoldi, shu tariqa yo‘l azobi, suvsizlikka bardosh berolmay, Abu Sahl al-Masihiy yo‘lda vafot etdi. Natijada, yo‘lboshlovchi bilan Ibn Sino ko‘p qiyinchiliklardan so‘ng hozirgi Ashxoboddan yigirma chaqirimcha nari bo‘lgan Nasoga, undan Abivardga yetib keldi. U Xuroson shaharlarining bir nechtasida bo‘ldi, lekin u bularning birortasida o‘ziga doimiy qo‘nim topolmadi. Unga bu yerdagi ichki ziddiyatlar, g‘alayonlar osoyishtalik bermadi.

Ibn Sinoning o‘zi u bilan chorak asr birga bo‘lgan shogirdi Abu Ubayd Juzjoniy tomonidan yozilgan tarjimai holida bayon yetilishicha, Somoniylar davlati siyosiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining yuksak bosqichiga ko‘tarilgan bir davrda olimlik kamolotiga erishdi. U tabobat, mantiq, falsafa va tabiiy fanlar bilimdoni sifatida shuhrat qozondi. Ilmiy tadqiqot doirasiga tabiiy fanlarni alohida o‘rganish uchun yetarli asoslar borligini inobatga olgan holda, Xorazm Ma‘mun akademiyasida faoliyat olib borgan allomalardan Abu Ali ibn Sinoning fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Ali ibn Sinoning hayoti va ilmiy faoliyati haqida muhim ma‘lumotlarni al-Bayhaqiy (1105-1169), Ibn al-Qiftiy (1172-1227), Abu-l-Faraj Bar Ebrey (1226-1286), Ibn Hallikon (vaf. 1282), Ibn Abu Usaybia (XII asr) asarlaridan topish mumkin.

---

<sup>43</sup> Sharifjon mahdum Sadri Ziyo, Tazkirai shuaroi mutaqaddimiyn va salotin, O‘zR FA SHI fondi, ashyo raqami 2193/X, 272a-varaq; Sahobiddin Siddiqov, Ibn Sino ba‘di 900 sol (Ibn Sino 900 yildan so‘ng), gaz. “Maorif va madaniyat”. - Dushanba, 1980 yil, 28 fevral; A.Irisov. O‘sha asar, 59 b.

<sup>44</sup> Завадовский Ю.Н. Материалы для биографии Абу Али ибн Сины. - Тадж.ССР: Изв. АН. Тадж.ССР, отд. общ. наук. Вып. 2. 1958. – 11 с.

Tabiiy fanlar sohasida Ibn Sino bir qancha risolalar bilan tanishib, Evklid «Negizlar»i va Ptolemey «Almajistiy»siga sharhlar yozgan. Bu haqda oʻrta asr Sharq fani tarixiga oid barcha asarlarda muhim maʼlumotlar keltirilgan<sup>45</sup>.

Bu asarning tabiiy fanlar va metafizikaga tegishli qismlari 1887-88 yili Tehronda tosh bosmada nashr etilgan, mantiq qismi esa 1962 yildan boshlab Qohirada bir necha jildda bosilgan. Faqat ayrim boʻlimlarigina fors, ibroniy, lotin, nemis, ingliz, rus, suryoniy, fransuz va oʻzbek tillarida nashr etilgan<sup>46</sup>. Abu Ali ibn Sinoning tibbiy asarlari<sup>47</sup> bilan bir qatorda «ash-Shifo»ning uchinchi qismini (buni muallif uchinchi jumla, yaʼni turkum deb ataydi – *G.M.*) riyoziy fanlarga oid asarlar tashkil qiladi.

Ibn Sinoning «Usul ‘ilm al-handasa» (أصول علم الهندسة) («Geometriya negizlari») asari oʻn besh maqoladan (hajmi jihatidan katta boʻlganligi uchun biz maqolani kitob, deb ataymiz) iborat boʻlib, unda 418 ta geometriyaviy shakllar bor.

Xorazm bu davrda Sharqning madaniy oʻchoqlaridan biri boʻlib, u yerda ijod etish uchun sharoit Buxoroga nisbatan birmuncha yaxshi edi. Bu erda Abu Sahl Masihiy, Abu Nasr ibn Iroq, Abu-l Xayr Hammor, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Misqavayh va boshqa sohalardan mashhur olim, shoirlar yashar edi.

Xorazm X asrda qoraxoniylar hujumidan birmuncha tinch edi. Bu yerda madaniy-maʼrifiy ishlar yaxshi yoʻlga qoʻyilgan. Maʼmun ibn Maʼmun saroyga tevarak-atrofdan juda koʻp olim va fozil kishilarni toʻplagan, ilm-fan bilan shugʻullanishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan.

---

<sup>45</sup> Gartz J. De interpretibus et explanatoribus Euclidis arabicis. - Halae 1823; Klamroth M. Veber den arabischen Euklid. Zeitschr.d. Deutsch Morgenland. Ges.Bd 35. 1881. - P. 270-326; Steinsneider M. Euklid bei Arabern. Eine bibliographische Studie. «Zeitschr.fur Math. u. Phys». Bd 31. 1886. - P. 81-110; Steinschneider M. Die arabischen Ubersetzungen aus dem Griechischen. Zweiter Abschnitt. Mathematik // «Zeitschr. d. Deutsch. Morgenland. Ges.»Bd. 50. 1896. - P. 161-219; 337-417; Steinschneider M. Die arabischen Bearbeiter des Almagest//“Bibl. math.”, F. 2, b. 6, 1892.

<sup>46</sup> Ibn Sino. Tibbiy oʻgitlar. - Tashkent: Fan, Mehnat, 1991. - 192 b.

<sup>47</sup> Ibn Sino. I kitob: Tib qonunlari. - Tashkent: Fan, 1954. - 458 b.; Ibn Sino. II kitob: Tib qonunlari. - Tashkent: Fan, 1956. - 844 b.; Ibn Sino. IV kitob: Tibqonunlari. - Tashkent: Fan, 1960. - 802 b.; Ibn Sino. V kitob: Tib qonunlari. - Tashkent: Fan, 1961. - 348 b.; Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 3-jildlik saylanma. H.Hikmatullaev, U.Karimov hamkorlikda. - Tashkent: Mehnat, 1993; Hikmatullayev H. Abu Ali ibn Sinoning «Yurak dorilari» risolasi. - Tashkent: Fan, 1966. - 181 b.; Каримов У.И. К вопросу о взглядах Ибн Сины на химию // Материалы научной сессии АНУзССР. посв. к 1000-летию юбилею Ибн Сины. - Ташкент: Фан, 1953. - С. 13-38.; Каримов У.И. Классификация наук по Ибн Сины // Материалы Первой Всесоюзной научной конференции востоковедов в г.Ташкенте 4-11 июня 1957. - Ташкент: Фан, 1958. - С. 986-990.

Ibn Sinoning ta'kidlashicha, Xorazm Ma'mun akademiyasida ilm-fanni sevuvchi vazir - Abu-l-Husayn as-Sahliy bo'lgan<sup>48</sup>. Ibn Sino o'z tarjimai holida Xorazmga borganida u yerning amiri Ali ibn Ma'mun (997-1009) edi<sup>49</sup>, deb ko'rsatadi. Abu Ali ibn Sino egniga fiqh - qonunshunoslar kiyimini kiyib, shaharga kirib boradi. Bundan ko'rinishicha, bu paytlarda bunday libos kiyganlarga hurmat va ehtirom bilan qaralgan, begonaligi unchalik sezilmasdi. Shu tarzda u Xorazm poytaxti Gurganch shahriga yetib keladi. Uning o'z iborasi bilan aytganda, Xorazmshoh unga «o'xshaganga kifoya qiladigan miqdorda oylik tayin qiladi»<sup>50</sup>. Shu tariqa Ibn Sino Xorazm diyorida osoyishta umr kechira boshlaydi.

O'rta asrlarda o'lkamizda ko'plab ilm va ma'naviyat maskanlari faoliyat ko'rsatgan. Ushbu markazlarda juda ko'plab olim va ulamolar ijod qilgan, xalqning ma'rifatini ko'targan. Masalan, buxorolik olimlar soni haqida Narshaxiyning shunday yozadi: "Agar Buxoro olimlarining hammasini zikr qilsak, bir nechta daftarni tashkil etadi".

Yosh avlod ongiga jahon ilmu fani va madaniyati rivojiga benazir hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlarimiz hayoti va ijodini, shuningdek, yurtimizda bunyod etilgan moddiy merosni asrab-avaylash mas'uliyatini singdirish, ularni munosib vorislar yetib tarbiyalash bugungi kunda ham muhim vazifalardan hisoblanadi.

Istiqlol yillarida allomalar hayotiga oid ko'plab asarlar o'zbek tilida chop etilib, xalqimizga tuhfa etildi. Bu asarlar yoshlarimizni ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qilmoqda. Markaziy Osiyo zaminida kamol topgan, turli fanlar rivojiga hissa qo'shgan allomalar merosini o'rganish insonni taraqqiyotga etaklaydi, jaholatdan yiroqlashtiradi hamda qalbida yurtga muhabbat, xalqqa xizmat, Vatanga sadoqat tuyg'ularini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bugun xalqlarning bir-biri bilan bo'lgan aloqalarini ularning madaniy qadriyatlarini, buyuk mutafakkirlari ma'naviy merosini o'rganish orqali tez yaqinlashtira olmaydi. O'zbekistonning dunyodagi davlatlar bilan madaniy, ma'naviy-ma'rifiy sohada hamkorlik istiqbollari ulkan. Zero, xalqlar bir-birining

<sup>48</sup> Ibn Abi Usaybia. Uyun al-anbo fit-tabaqot al-atibbo. – Qohira, 1882. - II juz'. - 4 b.

<sup>49</sup> Ibn Abi Usaybia. - O'sha asar. 4 b.

<sup>50</sup> Завадовский Ю.Н. Материалы для био-библиографии Абу Али ибн Сины. - Известия АН. Тадж.ССР. отд. общ. наук. Вып. 2. – Таджикистан, 1958. – 58 с.

tarixi, madaniyati va ma'naviyatini yaxshi bilsa, davlatlar o'rtasida hamkorlik ham shuncha mustahkam bo'ladi.

Holbuki, buyuk alloma va mutafakkirlarining ilmiy merosi faqat bir millat yoki xalqniki emas, balki butun bir insoniyatning ma'naviy mulkidir hamdir.

XIII asr boshida Markaziy Osiyo yana o'z mustaqilligini yo'qotdi, u mug'ullar tomonidan bosib olindi. Shuning uchun ilk Uyg'onish davri deyishimizga sabab bunday jarayon - madaniy yuksalish XIV-XV asrlarda mo'g'ul mustamlakachiligidan qutulib, Amir Temur va Temuriylarning mustaqil davlati barpo etilishi bilan bog'liq holda yana bir bor yuz berganini ko'ramiz.

## **2. IKKINCHI RENESSANS - XIV ASR OXIRI - XV ASRLARDA MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MADANIY YUKSALISH (Temur va Temuriylar davri)**

Jahon madaniyatini Muso Xorazmiy, Ismoil Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zamaxshariy kabi nomlar bilan bezagan Markaziy Osiyoning IX-XII asrlardagi madaniyati - Uyg'onish davri keskin ro'y bergan tarixiy voqealar tufayli birdan uzilib qoldi.

XIII asrning boshida Xorazmshohlar davlati Chingizxon qo'shinlarining dahshatli va ayovsiz hujumiga uchradi. Bu hujum 1219 yilda Xorazmshohlarning Shimoliy chegarasidagi O'tror qal'asini zabt etishdan boshlandi va 1220-21 yillarda Xorazmshohlar markazi Ko'hna Urganch dushman qo'liga o'tdi. Xorazmshoh qo'shinlari yaxshi qurollangan bo'lishiga qaramay, ichki nizolar va kelishmovchiliklarning kuchayganligi, qo'shinning shaharlar himoyasi uchun bo'lib yuborilganligi, birlikning yo'qligi Chingizxon hujumiga bardosh beraolmay tezda barbod bo'lishiga olib keldi. Shaharlar, madaniy markazlar vayron etildi, aholi qirg'inga uchradi. O'lka to'lig'icha mo'g'ullar mustamlakasiga aylandi. Markaziy Osiyoni turli tumanlarga bo'lib yuborgan mo'g'ul xonlari o'rtasidagi o'zaro nizolar va kurashlar ham avj oldi - bular hammasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi, madaniyat o'choqlari so'ndi. Juda ko'p madaniy boyliklar, ilm



maskanlari, madrasa va kutubxonalar yo‘q qilindi, san‘at va ilm-fan vakillari: olimlar, shoir va yozuvchilar, munajjimlar, me‘mor va musavvirlar o‘ldirildi, tasodifan omon qolganlari esa Shimoliy Hindiston, G‘arbiy Eron va Xurosonning turli viloyatlariga qochib, jon saqlab qoldilar.

Shunday sharoitda mo‘g‘ullar va mahalliy amaldorlarning o‘zboshimchaligi va jabr-zulmning kuchayib borishi xalq ommasining ko‘tarilishiga olib keldi. Bu xalq qo‘zg‘olonlarining eng yirigi - 1337 yilda Sabzavor shahrida boshlanib, qariyb 45 yil davom etgan sarbadorlar chiqishidir.

Xalq ommasining ajnabiy istilochilar hamda mahalliy ezuvchilarga qarshi ayovsiz kurashi, Markaziy Osiyoda mo‘g‘ullar hukmronligini ancha zaiflashtirdi va ularga qarshi keskin kurash kuchayishi uchun qulay zamin yaratib berdi. Shunday sharoitda Amir Temur (1336-1405) maydonga chiqdi va ijtimoiy jarayonda tezda ko‘zga tashlandi hamda mamlakat hayotida juda katta rol o‘ynadi.

Amir Temur tarqoq va uzoq urushlardan xonavayron bo‘lgan Movarounnahr va Xuroson yerlarini mo‘g‘ullar mustamlakasidan ozod yetib, Yagona, mustaqil va mustahkam davlatga birlashtirdi. Uning markazi yetib Samarqand shahri tanlandi.

Amir Temur davlati o‘z davrida Ovro‘po va Osiyodagi eng yirik, mustahkam va rivojlangan davlat sifatida tanildi.

Temur vafotidan so‘ng ham XVI asr boshiga qadar uning avlodlari mamlakatga hukmronlik qildilar. Temuriylar davrida markaziy davlat ikkiga - Movarounnahr va Xurosonga ajratilib idora etildi. Samarqand va Hirot bu ikki davlatning markazi bo‘lib xizmat qildi. Ayniqsa, Temuriylardan uzoq vaqt hukmronlik qilgan Shohrux, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro davrlarida madaniyat gullab-yashnadi.

Musulmon Sharqi, ayniqsa, Markaziy Osiyoning madaniyati tarixida Temur va Temuriylar hukmronlik davri XIV asrning ikkinchi Yarmidan XVI asrning boshlarigacha bo‘lgan davr so‘nggi umumiy tarixiy rivojlanishga juda katta ta‘sir ko‘rsatgan yorqin, sermazmun, samarali davr hisoblanadi.

Bu davrda o‘zbek tili adabiy til sifatida uzil-kesil shakllandi va Markaziy Osiyoning so‘nggi madaniy rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Bu yuksalish birinchi navbatda Amir Temur nomi va faoliyati bilan uzviy

bog‘liq bo‘lsa, uning o‘g‘illari, nabira va boshqa avlodlari u boshlab bergan ijtimoiy-madaniy hayotdagi yo‘nalishlarni davom ettirishga, Temuriylar saltanatining an‘analarini saqlab qolishga harakat qildilar.

Markaziy Osiyodagi IX-XII asrlardagi ilm-fan, madaniyatning gurkirab yashnashi Markaziy Osiyo xalqdari tarixida ilk Uyg‘onish davrini tashkil etgan bo‘lsa, XIV asr oxiri va XV asr mo‘g‘ullar mustamlakachiligidan qutulib, mustaqil davlatning shakllanishi va rivoji asosida madaniyatda yana ko‘tarilish va keskin rivoj ro‘y berdi. Bu davrni madaniyatdagi keskin ravishda bo‘linib qolgan Uyg‘onish davrining Yakuni - so‘nggi Uyg‘onish davri deb atash mumkin. Bu ko‘tarilish avvalgi madaniy yutuqlarga, ularni yanada yuksaltirish va zamona ma‘naviy talablari asosida yangilash natijasida vujudga keldi. Bu davrda arab tili qisman fan tili bo‘lib qolsa-da, asosan ilm va badiiy adabiyot, san‘at tili sifatida turkiy va forsiy tillarning mavqei kuchayib, asosiy o‘ringa chiqdi. Davlat ishlari ham shu tillarda olib borildi.

Sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning mashhur “O‘zbekiston” qasidasida e‘tirof etilganidek:

“Temur tig‘i yetmagan joyni  
Qalam bilan oldi Alisher”.

Temuriylar davri Renessansining yorqin namoyandasi bo‘lmish davlat arbobi, buyuk alloma, ulug‘ shoir va mutafakkir ajdodimiz Alisher Navoiyning oliymaqom ma‘naviyati yurtimiz asrlar osha taraqqiy topishi hamda millatimiz qadr-qimmatini olam aro yuksalishi borasida buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning mohirona davlatchilik faoliyati va harbiy jasoratidan sira kam bo‘lmagan darajada ulug‘vor o‘rin tutadi.

Temur va Temuriylar davlati deyarli bir yarim asr Osiyo, ayniqsa, Markaziy Osiyo tarixida nihoyatda ko‘p, serqirra, rang-barang madaniy-ma‘naviy boyliklarni yaratishga, xalq talantlari uchun imkoniyat yarata olganligi, turkiy xalqlar madaniyati tarixida tamoman yangi, uzoq asrlarga ozuqa bergan qatlamlar, yangi sahifalar vujudga keltirgani bilan mashhurdir.

Temur mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirishga harakat qildi. U ishg‘ol qilgan xorijiy mamlakatlardagi ilm ahlini o‘z panohiga oldi. Movarounnahr va

Xuroson shaharlarini obodonchiligi uchun jon kuydirdi. Rus olimi A.Yu.Yakubovskiy Temurning bu sohadagi ishlari haqida yozgan edi: «U yaxshi hisob-kitoblik xo‘jayin edi. U Movarounnahrda nafaqat turli-tuman boyliklarni, balki hunarmand, musavvir, me‘mor va olimlarni ham olib keldi. To‘g‘ri, Movarounnahrning o‘zi mutaxassis va olimlarga boy edi. Lekin fan va madaniyat arboblari, hunarmandlar qancha ko‘p bo‘lsa, hunarmandchilik, madaniyat va ilm-fan ham shuncha tez rivojlanadi».

XIV asrning oxiriga kelib Samarqand Sharqning eng go‘zal va obod shaharlaridan biriga aylandi. Bu yerda ulkan binolar, keng xiyobonlar qurishga katta e‘tibor berildi. XV asr boshida Movarounnahrda kelgan ispan sayyohi Rui Ganzales de Klavixoning ma‘lumotiga qaraganda, Samarqandning boyligi faqat oziq-ovqatning mo‘lligi bilan emas, balki shoyi matolari, atlas, mo‘ynadan qilingan kiyimlari, turli mamlakatlardan keltirilgan son-sanoqsiz mollari, bozor va maydonlari, ko‘chalarining keng va ko‘rkam-ligi bilan ko‘zga tashlanadi.

Ayniqsa, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish borasida mamlakatda har xil qurilish inshootlari barpo qilinib, irrigatsiya shaxobchalari tuzatilib, Mug‘on cho‘li o‘zlashtirildi. Xurosonda va boshqa joylarda kanallar o‘tkazildi, ko‘priklar qurildi, yo‘llar ta‘mirlandi. Turli xil hunarmandchilik - ip gazlama, shoyi va jundan to‘kilgan matolarni ishlab chiqarish, kiyim-kechak tikish keng yo‘lga qo‘yildi. Olacha, duxoba, kimxob va boshqa matolarni to‘qiydigan va ularga bezak beradigan maxsus ustalar paydo bo‘ldi. Bu davrda paxtadan tayyorlangan matolarga, xususan, dag‘al matolar va polotnolarga bo‘lgan talab kuchli edi. Zargarlik, kulolchilik hunarlari keng rivojlandi.

XIV asrning ikkinchi Yarmidan boshlab Movarounnahr va Xurosonda ichki va tashqi savdo ravnaq topa boshladi. Samarqand qadimdan Sharqning savdo markazi bo‘lib, bu Yerdan boshqa mamlakatlarni bog‘lovchi «Ipak yo‘li» o‘tar edi. Ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Rusiya, arab mamlakatlari bilan savdo aloqalarini o‘rnatilishi Temur davlatining iqtisodiy qudratini mustahkamlashga xizmat qildi. Amir Temur savdoning rivojiga, karvon yo‘llarini yaxshilash, ularni turli talon-tarojlardan himoya qilish, chetdan keltiriladigan mollarga solinadigan soliqlarni tartibga solish,

savdogarlarga imkoniyatlar tug'dirish ishlariga katta e'tibor bergan edi. Bularning barchasi ishlab chiqarishning rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi va moddiy boyliklarning ko'payib borishiga olib keldi. Bu haqda Temur «Tuzuklar»da shunday degan edi: «...Agar kasbu hunar va ma'rifat ahllaridan bo'lsa, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin. Bulardan boshqa bilagida kuchi bor faqir miskinlar esa o'z ahvoli va kasbu koriga qarab ish tutsinlar. ...Sarmoyasi qo'lidan kyetib qolgan savdogarlarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olish uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekish uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin. Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, unga yordam berilsin»<sup>51</sup>.

XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab qurilish va obodonchilik ishlari tez taraqqiy eta boshladi. Xususan, Samarqandda Bibixonim, Ko'ksaroy masjidi, Shohizinda maqbarasi, Kesh (Shahrisabz) shahrida Oqsaroy, Samarqand atrofida Bog'i Shamol, Bog'i Dilkusho, Bog'i nav, Bog'i Chinor kabi bog'lar, Amudaryo va Sirdaryoga ko'priklar, karvon saroylari, rabotlar qurdirildi, ko'plab madrasa va xonaqohlar, hammomlar barpo qilindi.

Ulug'bek davrida Samarqandda 1417-1420 yillarda ulkan madrasa, shu yillarda Buxoroda, 1432-1433 yillarda G'ijduvonda madrasalar barpo qilindi. Bulardan tashqari, Ulug'bek Temur davrida qurila boshlagan Bibixonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasini qurib bitkazdi. Lekin bu davrdagi eng nodir me'morchilik san'ati namunasi - bu Ulug'bekning falakiyot rasadxonasidir.

Shohrux va Husayn Boyqaro davrida Hirotda va Xurosonning boshqa shaharlarida ham katta qurilishlar ro'y berdi. Xususan, Hirotda «Dorushshifo» shifoxonasi, Qurbon Shayx, Feruzshoh, Chaqmoq Shoh, Alayh Ko'kaldosh madrasalari, «Bog'i bayt ul-imom», «Bog'i hamsa oroyi» kabi bog'lar bunyod etildi. Tarixchi Xondamirning yozishicha Husayn Boyqaro davrida Xurosonda 40 ga yaqin inshootlar vujudga kelgan.

Markaziy Osiyoda madaniyatning rivojlanishida qo'shni mamlakatlar bilan

---

<sup>51</sup> «Temur tuzuklari», Toshkent, 1991, 66-67-betlar.

madaniy aloqalar muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo Eron bilan qadimdan mustahkam aloqa o'rnatgan bo'lib, XIV-XV asrlarda bu ikki davlat o'rtasida iqtisodiy, madaniy aloqalar ham kuchaya boshladi. Bu davrda Xitoy bilan ham aloqa kuchaydi. 1420 yili Shohrux mashhur rassom G'iyosiddin naqqosh boshchiligida Xitoyga elchilar yubordi. Ular Xitoy xalqining urf-odati, turmush tarzi, madaniy hayoti, davlatni boshqarish uslubi bilan tanishib qaytdilar. Shuningdek, Shohrux davrida Hindiston bilan ham aloqa yaxshilanib, 1442 yilda u tomonga elchilar yuborildi.

Temuriylar davrida madaniyat yangi bosqichga ko'tarilib, Markaziy Osiyoda qadimgi yunon va hind olimlarining falakiyot, riyoziyot, tibbiyot, kimyo va boshqa fan sohalaridagi tadqiqotlari keng tarqaldi. Ilk o'rta asrlarda yunon olimlarining risolalari arab tiliga tarjima qilinib, asarlariga ko'plab sharhlar bitildi. Shuning uchun qadimgi yunonlarning arab tiliga tarjima qilingan asarlari, xususan, Arastu, Aflotun, Ptolemey va bohqqalarning tabiiy-ilmiy va falsafiy asarlari XIV-XV asrlarda ham Markaziy Osiyo olimlari uchun yangilik emas edi.

XIV-XV asrlarda ma'naviy-madaniy rivojlanish islom diniy qarashlarining mustahkamlanib borishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, hukmron mafkura sifatida madrasayu masjidlarda keng o'qitilib, o'rganilib, qonun-qoida, odat, an'analar esa shariat asosida olib borilar edi. «Temur tuzuklari»da din arboblari, Shayx, sayyid, ulamolar faoliyatiga alohida o'rin ajratilib, ularning davlat ishlaridagi ishtiroki maxsus va bir necha bor qayd etilib o'tiladi. Lekin bu davrda shu bilan birga xalq orasida, ayniqsa, ziyolilar, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi ilm-fan, san'at, madaniyat xodimlari o'rtasida o'z davrida islom qoidalarini zamona talablari, ijtimoiy yuksalish zarurlari asosida talqin etishga intilish natijasida yuzaga kelgan tasavvuf ta'limoti keng tarqaladi.

Markaziy Osiyoda XI asrdan boshlab yoyila boshlagan tasavvuf ta'limoti bu davrga kelib Movarounnahr va Xurosonda tasavvufning Yassaviya, kubraviya, qadiriya va ayniqsa, naqshbandiya tariqati ma'naviy hayotda katta rol o'ynaydi.

Naqshbandiya tariqati Yusuf Hamadoniy, G'ijduvoniy va XIV asrga kelib Bahovuddin Naqshband nomi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu ta'limot XV asrda

nazariy va amaliy jihatdan yanada rivoj topib, u saroy ahli, ko'p hollarda temriyzodalar faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatdi.

Amir Temurning o'zi ham mutasavvuf olimlarga katta hurmat bilan munosabatda bo'lib, tasavvufning naqshbandiya suluki targ'ibotchilaridan Sayyid Mir Kulolni (Shamsuddin Foxuriy, vafoti 1371 yil) o'ziga pir deb bilgan. Shuningdek, turli o'lkalardagi yirik mutasavvuflarga ham hurmat ko'rsatgan. Uning hamadoniya tariqatiga asos solgan yirik mutasavvuf Sayyid Hamadoniy bilan uchrashib suhbatda bo'lganligi, 1398 yilda Turkistonning Yassi Shahrida yirik mutasavvuf Ahmad Yassaviy qabrini ziyorat etganligi, uni ta'mirlatib, ustiga oliy bino qurishni buyurgani tarixiy manbalarda ko'rsatib o'tilgan.

«Tuzuklar»da: «...mashoyixlar, so'fiylar xudoni tanigan oriflardir. Ularning xizmatlarida bo'lib, suhbatlar qurdim va oxirat foydalarini oldim. Ulardan tangri taoloning so'zlarini eshitib karomatlar ko'rdim», - deb yozadi Amir Temur.

XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalayotgan tasavvuf ta'limotining Sufi, Porso, Charxiy, Mahdumi A'zam, Xo'ja Ahror kabi yirik vakillari Naqshbandiya tariqatiga oid qator risolalar yaratish bilan birga, jamiyatning ma'naviy poklanishi va rivojlanishi yo'lida faol xizmat qildilar, taniqli arboblar bilan muloqotda bo'lib, ularga ta'sir o'tkazdilar. Bu jihatdan, ayniqsa, Xoja Ahror faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy, Jomiy, Qosimiy, Lutfiy, Bobur kabi Shoirlar tasavvufni targ'ib qildilar.

Bu davrda Samarqand, Hirot va boshqa shaharlarda musavvirlik, naqqoshlik san'atining mohir ustalari paydo bo'ldi. Xususan, «Sharq Rafaeli» deb tanilgan Kamoliddin Behzod o'z ijodi bilan butun Sharqdagina emas, balki Ovro'poda ham mashhur bo'ldi. Xattotlik va muqovasozlik san'ati ham taraqqiy yetib, bu sohada yangi uslublar paydo bo'ldi. Masalan, Mir Ali Tabriziy xattotlikning nasta'liq uslubini ixtiro qildi. Bu uslub keyinchalik butun Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga keng yoyildi.

«Rafiqiy» taxallusini olgan Mir Ali Majnun ibn Kamoliddin Mahmud, Samarqandlik xattot Xo'ja Abdulqodir Ruyanda, «Xattotlar sultoni» nomini olgan Sulton Ali Mashhadiy va boshqa xattotlar ijodini ham alohida qayd etish lozim.

Ustod Shayx Foniy Nayi, Mavlono Qosim Rabboniy, Husayn Udiy, Xoja Yusuf Andijoniy, Shohquli G'ijjakiy, Darvish Ahmad Qonuniy, Ustod Shodiy kabi musiqashunoslar ham shu davrda yashab ijod etganlar. Ulug'bek, Navoiy, Jomiy, Binoiy kabi buyuk mutafakkirlar ham muzika sohasida ma'lum ishlarni amalga oshirganlar.

XIV-XV asrlarda fanlarning ko'p sohalari: tibbiyot, riyoziyot, handasa, jug'rofiya, falakiyot, tarix, mantiq, adabiyot, falsafa, axloqshunoslik va boshqa fanlar taraqqiy etdi. Adabiyot va adabiyotshunoslik yuksalib, she'riyat, nazm sohasida ijod qiluvchi mashhur shoirlar yetishib chiqdi. Yirik shoirlar Davlatshoh Samarqandiy, Sakkokiy, Bisotiy Samarqandiy, Javhariy, Xoja Sug'diy Samarqandiy, Mirzabek, Vosifiy, Niyoziyalar Samarqandda, Ismoil Buxoriy, Hofiz Xorazmiy, Yaqiniy, Hiloliy, Gadoiy, Atoiy, Suxayliy, Husayn Ali Tufayliy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Mullo kabilar Movarounnahr va Xurosonning turli shaharlarida yashab, ijod yetib, bir qancha she'riy va nasriy asarlar yaratdilar.

XV asrda o'zbek tili va adabiyoti, she'riyati, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy timsolida o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Navoiy o'zbek adabiy tilining fazilatlarini har tomonlama ochib, asoslab berdi. Jomiy va Navoiydan tashqari, til muammolari bilan shug'ullangan Xoja Jaloliddin Fazlulloh Abu-l-Laysiy, Abul-l-Qosim ibn Abu Bakr Laysiy Samarqandiy hamda Isomuddin Ibrohim ibn Muhammad ibn Arabshoh Isfaroiniy kabi yirik olimlarning nomlarini keltirish mumkin.

XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyoda falakiyot va riyoziyot fanlari rivoj topdi. Ulug'bek asos solgan falakiyot maktabi bunga yorqin misol bo'lib, bu maktabdan juda ko'p iqtidorli olimlar yetishib chiqdi. Ular Mansur Koshiy, Miram Chalabiy, Abduali Birjandiy, Ali Qushchi, G'iyosiddin Jamshid va boshqalardir.

Bu davrda tibbiyot ilmi ham o'zining yirik namoyandalariga ega edi. Samarqandga kelib ijod qilgan tabobat ilmining yirik vakillaridan Burhoniddin Nafis ibn Evaz hakim al-Kirmoniy Sulton Ali tabib Xurosoniy, tabib Husayn Jarroh shular jumlasidandir.

XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda mantiq va falsafa fanlari bilan

shug‘ullangan yirik olimlar paydo bo‘ldi. Bu fanlarning rivoji, asosan ikki yirik mutafakkir Saadiddin bin Umar Taftazoniy va Mir Sayyid Jurjoniy nomlari bilan bog‘liqdir. Jurjoniy va Taftazoniylardan tashqari, Samarqandda o‘sha davrda Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsiddin Munshiy, Mavlono Abdulla Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nug‘moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Jalol Hoqiy va boshqa olimlar yashab ijod etganlar. O‘z davrining ilg‘or ijtimoiy va axloqiy fikrlari badiiy adabiyotda, tasavvuf she‘riyatida, nazm va nasrda, g‘azal va ruboiylarda mufassal bayon qilina boshlandi. Navoiy, Jomiy, Lutfiy, Binoiy, Qosimi Anvar va boshqalarning badiiy asarlari boy falsafiy va axloqiy mazmunga egadir.

Bu davrda axloq va ta‘lim-tarbiya muammolariga bag‘ishlangan maxsus risolalar paydo bo‘ldiki, ularning orasida Husayn Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniylarning merosi alohida o‘rin egallaydi.

Temur va Temuriy Shahzodalar o‘z davri tarixini yozib qoldirish, Movarounnahr va Xurosonning mo‘g‘ullar zulmidan ozod etilishi tarixini o‘rganish va yoritishga katta e‘tibor berdilar. Nizomiddin Shomiy, Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofizi Abru, Natanze, Fosih Xavofiy, Muyiniddin Isfizoriy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar Temuriylar davri tarixini yozib qoldirdilarki, ular yozib qoldirgan asarlar hozirda biz uchun o‘sha davr hodisalarini, madaniy yuksalishini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Movarounnahr va Xurosonda XIV asrning ikkinchi Yarmi va XV asrda ro‘y bergan madaniy yuksalish butun musulmon Sharqinigina emas, Ovro‘po mamlakatlarini hayratga soldi. Bu yuksalish Markaziy Osiyoning so‘nggi madaniy-ma‘naviy rivojinigina belgilab bermay, qo‘shni mamlakatlardagi madaniy taraqqiyotga ham katta turtki berdi. Temuriy Shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonni 1425-26 yillarda o‘ziga qaratib, «Mo‘g‘ullar imperiyasi» deb nom olgan davlatga asos soldi va bu davlatda XV asrdagi Markaziy Osiyo madaniyatining an‘analarini davom ettirdi va rivojlantirdi.

Temur va Temuriylar davridagi madaniy yuksalishning umumiy omillarini aniqlash shuni ko‘rsatadiki, ular o‘zaro uzviy bog‘langan va yaxlit bir butun holdagina qisqa vaqt ichidagi madaniy-ma‘naviy yuksalishni yuzaga keltira olgan.



Bulardan birinchi navbatda siyosiy-ijtimoiy omilni ko'rsatish mumkin. Movarounnahr va Xurosonda tarqoq, o'zaro nizo va urushlar natijasida turli viloyat, amirliklarga bo'linib ketgan, kelgindi hukmronlar - mo'g'ullar tomonidan ayovsiz ezilgan xalqning mustamlakachilikdan qutilishi, mamlakatda yagona birlashgan davlatning barpo etilishi, yagona davlatchilik asosida boshqarish qoidalarining joriy etilishi, zo'ravonliklar, o'zbilarmonchilik kabi illatlarning tugatilishi ijtimoiy yuksalishni ta'minladi.

Ikkinchi - iqtisodiy omil - Movarounnahr va Xurosonda yagona idora tizimining joriy etilishi iqtisodiy osoyishtalik ishlab chiqarishning so'nggi rivojlanishiga olib keldi. Davlat tomonidan dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiqning rivojiga e'tibor berilishi va bu sohada qator tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatning ma'naviy-madaniy taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi.

Uchinchi - ma'naviy omil - avvalgi madaniy meros, ma'naviy qadriyatlar, boyliklardan keng foydalanish, ular asosida rivojlanishni amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Markaziy Osiyoda avvalgi asrlarda, xususan IX-XIII asrlarda yaratilgan ma'naviy-madaniy boyliklardan, Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Chag'iniylar merosidan; arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Rumi, Tusiy, Attor kabi allomalar merosidan; musulmon Sharqi ma'naviy merosida keng ahamiyat kasb etgan qadimgi yunon ilmiy-ma'naviy boyliklaridan keng foydalanildi.

Bu davrda Amir Temur davlatining ta'sirida bo'lgan va bo'lmagan boshqa mamlakatlar o'rtasida madaniy aloqalar tez rivojlandiki, bunday aloqalar ma'naviy boyliklarni o'zaro almashishga keng yo'l ochib berdi. Eron, arab mamlakatlari, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan bo'lgan aloqalarda madaniy boyliklar almashinuvi ham muhim ahamiyat kasb etdi.

To'rtinchi - g'oyaviy omil - bu omil ma'naviy omilning uzviy davomi bo'lsa-da, uning muhim ahamiyatga ega bo'lganligi va o'z davri ma'naviy hayotida katta rol o'ynaganligi uchun alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu XV asrga kelib Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan tasavvuf – xususan, naqshbandiya ta'limotidir. Markaziy Osiyoda Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoniy

ta'limotlarini rivojlantirish asosida shakllangan naqshbandiya ta'limoti va uning yirik vakillari XIV-XV asrlardagi siyosiy-ijtimoiy hamda madaniy hayotda nihoyatda muhim rol o'ynadi, ma'naviy o'zgarishlar ma'lum erkinlik uchun g'oyaviy asos, omil bo'lib xizmat qildi. Temur va temuriy shahzodalar, ko'p olim-fozillar, hunarmandlar naqshbandiya ta'limotidan ozuqa oldilar, o'z faoliyatlari, ijodlari bilan uni har tomonlama boyitdilar.

XV asrda yashab ijod etgan naqshbandiya ta'limotining yirik vakili Xo'ja Ahror Vali faqat madaniy hayotdagina emas, siyosiy-iqtisodiy tinchlik va rivojlanish ishida ham muhim ijobiy rol o'ynadi.

Bu kabi omillar Temur va Temuriylar davri madaniyati, ma'naviyatining tez va yuksak darajada ko'tarilishiga olib keldiki, uning yutuqlari so'nggi uzoq asrlar davomida madaniy rivojlaniSh uchun ozuqa bo'ldi.

XIV asrning oxiri XV asr Markaziy Osiyo, aniqrog'i Movarounnahr va Xuroson tarixida - o'rta asr uchun oliy darajadagi madaniy-ma'naviy yuksalish davri bo'ldi. Bu yuksalishni Markaziy Osiyo zaminida IX-X asrda ro'y bergan va sun'iy ravishda uzilib qolgan madaniy-ma'naviy yuksalish - Uyg'onish davrining tiklanishi va oliy darajasi deb atash mumkin. Bu yuksalishlar bir jarayonning ikki xil bir-biriga bog'liq bo'lgan davrining boshlanishi va yakunidir. Chunki ular iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy jihatdan nihoyatda o'xshash, ayrim hollarda bir xil asoslarga egadir.

Birinchi davr arablar istilosidan so'ng mustaqillikka erishuv va erli davlatlarning vujudga kelishi bilan izohlanadi. Shuningdek, so'nggi XIV-XV asr ma'naviy-madaniy rivojlanish davri mo'g'ullar istilosidan qutulib, mustaqil davlatning vujudga kelishi zaminida yuzaga keldi. Har ikki holda ham ishlab chiqarish, hunarmandchilik, Sharqqa xos bo'lgan institutlarning rivoji, mustahkamlanishi va ular madaniy yuksalishga katta ta'sir ko'rsatganligini ko'ramiz. Har ikki holda ham islom dini va uning qoidalari ma'naviy hayotda ustunlik va belgilovchi ahamiyat kasb etdi. Lekin shu bilan birga davrning ijtimoiy-siyosiy omillari, ma'naviy mazmunida tafovutlar ham ko'zga tashlanadi.

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xuroson hududlarida arab mustamlakachiligidan qutulish va mustaqil davlatni barpo etishga intilish jarayoni erli

davlatlarning paydo bo'lib, so'ng yo'qola borishi, ular o'rtasidagi o'zaro kurashlarning uzluksiz davomi bilan xarakterlanadi. Uch asr davomida Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlarining vujudga kelib, keyin tarix sahnasidan surilib ketgani buning yorqin misolidir.

XIV-XV asrda mo'g'ullar mustamlakachiligiga qarshi kurashda Movarounnahr va Xuroson hududida yaxlit, yirik va mustahkam davlat qad ko'tardi. Bu - yuksak davlat arbobi va sarkarda sohibqiron Amir Temur nomi va faoliyati bilan bog'liqdir. Madaniyatning yuksalishi ham Amir Temur va Temuriylar faoliyati, harakati, siyosatining natijasidir.

IX-XII asrlar Movarounnahr va Xurosonda islom tarqalganiga endigina II-III asr bo'lgan, u ma'naviy hayotning turli sohalariga singib bormoqda edi. XIV-XV asrlarga kelib islom, shariat mustahkamlanishi bilan tasavvuf va ayniqsa, uning xalq hayotiga juda yaqin ko'rinishi — naqshbandiya tariqatining ustun bo'lishi bilan ko'zga tashlanadi. Bu davr ma'naviy hayotida arab tiliga nisbatan turkiy va forsiy tilning roli kuchaydi. Hozirgi haqiqiy o'zbek tili va adabiyoti shu davrdan boshlandi. bu masalalar maxsus o'rganish, tadqiqotni talab etadi.

Lekin mazmun jihatdan har ikki davr ma'naviyatida, ya'ni umuman uyg'onish davri ma'naviy-madaniy hayotida insoniy qadriyatlarning yuksak xislatlari - ilmga intilish, bilimni kuchaytirish, aqlni ulug'lash, insoniylik, ruhiy poklanish, axloqiy kamolotga erishuv, adolat, ijtimoiy yuksalish, barcha uchun baxt-saodat, do'stlik-birodarlik, komil jamoa va komil insonni yaratish kabi masalalar olg'a surildi. Ular muhim ilmiy tadqiqotlar, adabiyot, san'at, diniy asarlarning mazmunini tashkil etdi. Bu davrdagi olim, mutafakkir, donishmand, san'atkorlarning ko'pchiligi shu maqsad yo'lida ijod qildilar.

Bu davr madaniyatining yutuqlari xalqimizning keyingi madaniy rivojlanishida katta zamin yaratdi.

Prezident Sh.Mirziyoyev yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, buning uchun tarixni yaxshi o'rgatish, bu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqotlarni kengaytirish muhimligini alohida ta'kidladi va qator ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Toshkent shahridagi “G‘alaba bog‘i” majmuasini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar uchun harbiy tarix va ajdodlarimiz qahramonligini o‘rganish bo‘yicha ilmiy markazga aylantirish, O‘zbekistonda tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, o‘zbek tilining davlat tili maqomini kuchaytirish, yurtimizda va xorijda uni o‘rganish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish shular jumlasidandir.

Prezident Sh.Mirziyoyev qayd etganidek, “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”.

Binobarin, ana shu sa’y-harakatlarimiz samarasi sifatida yuzaga chiqadigan ma’naviy-ma’rifiy Uyg‘onish biz bunyod etishga kirishgan Uchinchi Renessans uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Yanada aniq qilib aytganda, har qanday Renessansning muhim asosini ma’naviy-ma’rifiy uyg‘onish tashkil etadi.

Ta’kidlash kerakki, davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida, O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigida, shuningdek, O‘zbekiston yoshlarining birinchi forumi hamda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishlarida ma’naviyat yo‘nalishidagi dolzarb vazifalarni, ma’naviy-ma’rifiy yangi Uyg‘onishning ilmiy-nazariy va metodologik asosini yaratib berdi.

### **3. XVI-XIX ASR BIRINCHI YARMIDAGI TURKISTON MADANIYATI VA JADIDLARNING MA’NAVIYATGA OID BOY ILMIY MEROSI**

XVI asr boshlariga kelib Movarounnahr va Xurosonda ichki nizolarning avj olishi bu yerlarga tashqi hujumlarning kuchayishiga imkon tug‘dirdi. Ayniqsa, shimolda Dashti Qipchoq tomondan Movarounnahr shaharlarini bosib olishga bo‘lgan harakat borgan sari ortib bordi.

1500-1510 yillar orasida Movarounnahr va Xuroson erlari Shayboniyxon boshchiligidagi qo‘shinlar hujumi tufayli o‘zining tasarrufiga o‘tdi. U o‘zining so‘nggi yurishida keskin qarshilikka duch keldi va 1510 yil Marv uchun bo‘lgan

urushda qurbon bo'ldi. U Movarounnahr madrasalarida tahsil ko'rgan, temuriylar bilan uchrashgan, olim va adiblar bilan muloqotda bo'lgan, madaniyat tarixidan yaxshi xabardor, temuriylarga o'xshab ijod ahliga rahnamolik qilgan, o'zi ham she'rlar yozgan davlat boshlig'idir.

Uning o'limidan so'ng avlodlari 1601 yilga qadar hukmronlik qildilar. So'nggi yillarda uningkim avlodlari o'rtasidagi kurashlar natijasida davlat parchalanib, Xuroson Safaviylar qo'liga o'tdi. Shayboniylar esa faqat Movarounnahrda hukmron bo'lib qoldilar. Hokimiyat asta-sekin uning avlodlari o'rtasidagi nizolar tufayli parchalanib ketdi, Buxoro xonligi, so'ng g'arbda Xiva xonligi vujudga keldi. Hukmronlik uchun olib borilgan uzoq kurashlardan so'ng Abdullaxon II (1557-1598) davrida Buxoro xonligining mavqei ancha-muncha ortdi.

Abdullaxon II davrida Buxoro xonligida iqtisodiy-madaniy hayot bir muncha jonlandi. Xususan, dahqonchilik tez rivojlandi, qator suv inshootlari, kanallar barpo etildi, yirik shaharlarda hunarmandchilik ravnaq topdi. Samarqand qozikaloning XVI asrdagi hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, hunarning 61 turi mavjud bo'lgan, turli-tuman temir buyumlar, ip va ipak matolar, yuqori navli qogoz ishlab chiqarilgan. Buxoro shahri kengaytirilib, devor va harbiy istehkomlari qaytadan qurilgan, shaharda ko'p madrasalar, xonaqohlar, karvonsaroy va bozorlar barpo etilgan. Bu davrda ichki va tashqi savdo, xususan, Eron, Turkiya, Hindiston, Rusiya kabi mamlakatlar bilan aloqalar kengaydi.

Abdullaxon II ning vafotidan so'ng yana o'zaro nizolar avj oldi. 1601 yildan boshlab Buxoro xonligi yangi Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligiga o'tdi.

Ashtarxoniylar sulolasi bir yarim asr (1601-1753) Buxoro taxtida hokimlik qildi, ular davrida xonlikda o'zaro nizolar hamda qoraqalpoqlar, mustaqil bo'lgan Xiva xonligi, Eron bilan uzluksiz urushlar davom etdi, mamlakat iqtisodiy-siyosiy hayotida parokandalik avj otdi, xonlik taxti uchun talashuvda aka-uka, ota-o'g'il, qarindoshlar o'rtasida kurashlar kuchaydi. Xonlikdagi zulmning ortishi, soliqlarning oshib borishi natijasida tez-tez xalq qo'zg'olonlari ro'y berib turardi. Buxoro taxtida uzoq xonlik qilgan Imomqulixon (1611-1642) davrida hokimiyatning nisbatan mustahkamlanganligini nazarga olmaganda, boshqa Ashtarxoniylar davrida xonlikka

har tomondan hujumlar, turli shaharlar, o'lkalarning xonlikdan ajrab ketishga intilishi kuchaydi. Bu intilish ayniqsa, Ubaydullaxon davrida avjiga chiqdi. Bundan foydalangan Nodirshoh Buxoro xonligiga qarashli ko'p yerlarni Eronga qo'shib oldi. So'nggi yillarda Ashtarxoniylar sulolasining nufuzi susayib, mang'it qabilasidan bo'lgan Muhammad Hakim otaliqning ta'siri kuchaya bordi va u 1753 yili o'zini amir deb e'lon qildi. Bu davrda Turkistonda Buxoro xonligidan tashqari Amudaryoning quyi oqimida Xiva xonligi mustaqil rivojlanayotgan edi. XVIII asrning oxiriga kelib Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi ham o'zini mustaqil xonlik sifatida ko'rsata boshladi.

Turkistondagi XVII-XVIII asr madaniyati mavjud iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy ahvol ta'sirida turli tebranishlar, yo'qotishlarni boshidan kechirdi.

XVI asrda Hindistonda Boburiylar davlatining vujudga kelishi bilan Temuriylar davrida shakllangan madaniyatning qisman Hindiston tomon oqib o'tganini kuzatamiz. Boburiy podshohlar Movarounnahr va Xuroson madaniy qadriyatlaridan keng foydalanishga intiladilar, ularni Hindiston yerida keng targ'ib etdilar. XVI asrlarda ko'pgina Markaziy osiyolik donishmand, alloma, san'atkorlarning o'zlari yoki Boburiylar taklifi bilan Hindiston shaharlariga kyetib qoldilar. Boburiylar saroyida turkiy va ayniqsa, forsiy tildagi adabiyot, san'at, ilm-fan rivoj topdi. Bu Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston va Hindistondagi Boburiylar davlati o'rtasidagi madaniy aloqalarning kuchayishiga, ularning o'zaro ta'siri orta borishiga olib keldi. Boburiylar o'zlarini Temuriylar davri madaniyatining merosxo'ri, davomchilaridan deb biddilar. Ayniqsa, Boburiylardan Akbarshoh, Shohjahon, Avrangzeb davrida Hindistonda Markaziy Osiyo ma'naviy qadriyatlariga asoslangan musulmon madaniyati keng rivoj topdi va muhim yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Temuriylar davrida rivoj topgan madaniy boyliklar ta'sirida yangi ma'naviy-madaniy qadriyatlar vujudga keldi, ayniqsa, adabiyot, san'at, qisman ilm-fan, xususan, tarix fani ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritdi. Tasavvuf bu davrning dunyoqarashi, tasavvuri va ma'naviyatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbek va fors tilida qator tarixiy, adabiy, she'riy asarlar yaratildi. O'z davrining yetuk adibi, davlat arbobi va Shayxulislomi Poshshoxo'ja (1480-1547) oilasida tug'ilib, tarbiya

topgan Hasanxo'ja Buxoriy Nisoriyning «Muzakkir al-ahbob» hamda Shoir Mutribiyning «Tazkirat ush-Shuaro» tazkiralarda XVI asrda yashab ijod etgan juda ko'p adib, shoirlar, ularning ijodi haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Masalan: Nisoriy Buxoro madrasalarida o'qib, o'z davrining ilmlaridan xabardor bo'lgan, aruz sirlarini egallagan, so'ng madrasalarda dars bergan, davlat arbobi sifatida ham xizmat qilgan, uning shoir sifatidagi dovrug'i ko'p o'lkalarga taralgan. «Malik ush-Shuaro» unvoniga sazovor bo'lgan. U o'z davridagi turli shoir, adiblarning asarlarini o'rganib «Muzakkir al-ahbob» tazkirasini yaratgan. U asosan Temuriylar, Shayboniylar hamda Boburiylardan yetishib chiqqan, shuningdek, markaziy osiyolik, xurosonlik, Sharqiy turkistonlik, hindistonlik, ozarbayjonlik shoirlar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirgan. Unda Poshshoxoja, Muhammad Solih, Mutribiy, Fitratiy, Sho'xiy kabi shoirlar haqida muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin. Nisoriy 1597 yili vafot etgan va Bahovuddin Naqshband maqbarasi yoniga dafn etilgan.

Bu davrda o'zining o'zbek tilidagi she'rlari bilan mashhur bo'lgan shoir, tarixchi, davlat arboblardan biri Muhammad Solihdir (1455-1535). U Xorazmda tug'ilib, boshlang'ich ma'lumotni o'sha yerda ta'lim olgan. So'ng Hirot shahrida o'z ilmini davom etdirgan, shoir ulamolar bilan ilmiy-ijodiy bahs yetib turgan. Xurosonda, so'ng Samarqand, Buxoroda Temuriylar xizmatida bo'lgan.

1507-1510 yillarda Muhammad Solih Hirotda yashab madaniy hayot ichida bo'lgan, o'z ijodi bilan adabiy muhitga keng tanilgan. Uning ijodiga Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Lutfiy, Nisoriy kabi shoirlar yaxshi baho berganlar.

XVI asrning ikkinchi yarmidagi eng yirik shoirlardan Mushfiqiyni ko'rsatib o'tish zarur. Shoir Abdullaxon II davrida saroy Shoiri sifatida ma'lum bo'lsa-da, xalq orasida uning hajviy, hurriyatparvar she'rlari keng tarqalgan.

XVI-XVIII asrlarda o'zbek va tojik tillarida she'riy asarlar bitgan Turkistonning turli shaharlaridan chiqqan shoir, adiblarni ko'rsatib o'tish mumkin. Sayido Nasafiy, Turdi Farog'iy, Mashrab, So'fiy Olloyor shular jumlasidan bo'lib, ularning ijodi turli yo'nalishda ekanligi o'z davrining tushkunliklari, ziddiyatlari, qiyinchiliklarini o'zida ifodalashi bilan ko'zga tashlanadi. Bu davrda Hindistonda yashab ijod etgan, o'z asarlarini forsiyda yozgan Mirzo Abdulqodir Bedilning (1644-1720) chuqur ijtimoiy-

falsafiy mazmundagi she'rlari Turkiston ziyolilari orasida e'tibor qozondi.

XVII asrda Subhonqulixon davrida Muhammad Bedil tazkira tuzib, unda o'z zamonasining 200 ta shoir, adib, adabiyotshunoslari haqida ma'lumotlar beradi. Umuman XVI-XVIII asrlar ma'naviy hayotida Turkistonda tasavvuf ta'limotlari, xususan, Naqshbandiya, Yassaviya, Kubraviya ta'limotlarining keng tarqalgani, ularning adabiyot, san'at, ijtimoiy bilimlarga katta ta'sir ko'rsatganini ko'ramiz. San'atkorlar tasavvufdan zamona qiyinchiliklarini engish, zulm-adolatsizlikka qarshi kurash, haqiqiy insoniy munosabatlarni targ'ib qilish yo'lida foydalanishga intildilar.

XVI-XVIII asrlar davomida adabiyot, she'riyat bilan bir qatorda tarixshunoslik, fiqh, falsafa, xattotlik ilmi kabi sohalarda ham ijobiy yutuqlar qo'lga kiritildi.

Bu davrda ayrim tarixiy asarlar fors tilidan o'zbek tiliga tarjima etildi. Mirzo Haydarning «Tarixi Rashidiy», Abdulla ibn Muhammadning «Zubdat ul-asror» («Asrlar qaymog'i»), Fazlulloh ibn Ruzbehxon Isfaxoniyning «Mehmonnomayi Buxoro» («Buxoro mehmoni haqida kitob»), Hofiz Tanish Buxoriyning Abdullaxon II davrining tarixiga bag'ishlangan ulkan asari «Sharafnomayi Shohiy» («Shoh sharafi haqida kitob») yoki «Abdullanoma» kabi tarixiy asarlar shular jumlasidandir. Bu asarlarda o'sha davrning murakkab jarayonlari o'z ifodasini topgan.

Shoir va tarixchi Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» asari nazm aralash qofiyalashtirilgan nasrda, fors tilida yozilgan bo'lib, asosan Shayboniylarning o'z davlatlarini mustahkamlash uchun olib borgan kurashlar tarixini, siyosiy-ijtimoiy masalalarni o'z ichiga qamrab olgan katta asardir.

Tarixiy asarlar daliliy ashyolarga boy bo'lish bilan birga ayrimlarida tarixiy hodisalarni umumlashtirish, ulardan xulosalar chiqarish ko'zga tashlanadi. Bunday intilishlar so'nggi asrlarda vujudga kelgan «Tarixi Muqimxoniy» («Muqimxon tarixi»), Mahmud ibn Valining «Bahr ul-asror» («Sirlar dengizi»), Mirmuhammad Amin al-Buxoriyning «Ubaydullanoma» («Ubaydullaxon haqida kitob»), Muhammad Amin ibn Muhammad Zamoni Buxoriyning «Muhit ut-tavorix», Abdurahmon Tolening «Tarixi Abulfayzxon» kabi asarlarida ham uchraydi.

Tarixshunoslik ilmining ma'lum darajada rivoji albatta, boshqa ijtimoiy fanlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



XVI-XVIII asrlar davomida ijtimoiy-falsafiy fikr, fiqhshunoslik sohasida ham yangiliklar vujudga keldi, o'z davrining yetuk mutafakkirlari yetishib chiqdi. Uz yurti Eronni tashlab ketishga majbur bo'lgan va Buxoroda xonning e'tiboriga sazovor bo'lgan Mirzajon Sheroziyning asosiy ilmiy-ma'rifiy faoliyati Movarounnahrda o'tdi. U turli madrasalarda falsafa, mantiq, fiqh ilmlaridan ma'ruzalar o'qish bilan birga o'tmish mutafakkirlari Ibn Sino, Faxriddin Roziy, Nasriddin Tusiy, Mir Sayyid Jurjoniy, Davoniy kabilarning turli risolalariga sharh va hoshiyalar yozdi. Mirzajon Jaloliddin Davoniyning bevosita shogirdi bo'lib, o'zining asosiy ilmiy qiziqishlarini falsafiy muammolarni hal etishga qaratdi. Uning hoshiyalari bilan birga «Fi ta'rifi ilmi» («Ilmlar ta'rifi»), «Anmuzadjul funun» («San'atlar namunalari»), «Fi aksil mustafa» («Aks ettirish hakida») kabi qator risolalari ham bizgacha yetib kelgan, ular O'zR FA Beruniy nomli Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

Mirzajonning Shogirdi bo'lmish, asli ozarbayjonlik Yusuf Qorabog'iy ham XVII asrda Movarounnahrning eng yirik faylasuf va mantiqshunos olimlaridan bo'lib tanildi. Buxoro xoni Imomqulixon e'tiborida bo'ldi. U Samarqand, Buxoro madrasalarida mudarrislik qildi, falsafa, arab grammatikasi, fiqh, mantiq sohasida qator asarlar yozib qoldirdi. Qorabog'iy falsafa, arab tili bo'yicha shogirdlar etishtirib berdi.

O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida 20 dan ortiq asari saqlanayotgan Muhammad Sharif Buxoriyning ijodi ham diqqatga sazovordir.

XVI-XVIII asrlarda tabiiy-ilmiy fanlar o'zlarining avvalgi an'analarini yo'qota boshladi, ularning rivoji borgan sari susayib bordi. 1593 yilda Amir Ahmad Roziyning «Haft iqlim» nomli geografik-biografik lug'ati, deyarli shu yillarda Mutribiyning «Tazkirat ush-Shuaro»siga ilova etilgan dunyo xaritasi vujudga keldi. Ayrim tarixiy ma'lumotlarda aytilishicha, bu davrlarda tibbiyot sohasida qator amaliy ishlar, turli tabiblar, ko'z do'xtirlari, singan suyaklarni tuzatuvchilar faol ish olib borgan (Sulton Ali degan tabib «Tabobat bo'yicha qo'llanma» yozib qoldirgan), yirik shaharlarda kasalxonalar mavjud bo'lgan. Lekin XVIII asrlarga kelib tabiiy fanlarga e'tibor susayib, umumiy ijtimoiy, siyosiy tarqoqlik birinchi navbatda shu ilmlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, diniy dunyoqarashning ta'siri kuchaygan. Adabiyot, she'riyat

bilan bog‘liq holda musiqashunoslik, musiqa ilmi rivojiga ham e‘tibor berilgan. Buxoroda Mavlaviy Kavkabiy musiqa ilmi, maqomlar bo‘yicha risola yozgan.

Kitob yozish, to‘plash, bezash sohasidagi an‘analar XVI-XVIII asrlarda ham davom etgani, ayrim xonlar maxsus kutubxonalar yaratgani va unda ko‘plab qo‘lyozmalar to‘planganligi haqida ma‘lumotlar saqlangandir. Masalan, Shayboniylardan Abdullaxon II, Abdulazizxonlar, ashtarxoniylardan Subhonqulixon o‘z saroylarida - Buxoroda katta kutubxonalar tashkil etganlar. Umuman kitob san‘ati, husnixat - xattotlik, miniatyura sohasida muhim yutuqlar qo‘lga kiritildi. Buxoro maktabi faol ravishda o‘zini tanitdi.

XIV asrdan boshlab shakllanib kelgan Buxorodagi husnixat va miniatyura XVII-XVIII asrlarga qadar Sharqda o‘z yetakchi mavqeini saqlab keldi va boshqa musulmon sharqidagi bu san‘at rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. XVI-XVII asrlarda ijod etgan mashhur husnixat va miniatyura ijodkorlaridan Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xevraviy, Mahmud ibn Ishoq ash-Shihobiy, Abdulla, Muhammad Murod Samarqandiy, Do‘st Muhammad Buxoriy kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Do‘st Muhammad Buxoriy husnixat nazariyasi bo‘yicha maxsus risola ham yozgan. Xususan, shu davrlarda «Tarixi Abdulxayrxon» («Abulxayrxon tarixi»), «Tavorixi guzidaiy nusratnoma» («G‘alaba haqida tanlangan tarixlar»), Alisher Navoiy asarlari ro‘yxati kabilarning chiroyli ko‘chirmalari va ularga ishlangan miniatyuralar o‘z davri san‘atining oliy namunalari hisoblanadi.

Movarounnahr san‘ati, ilm-fan, madaniyati bu asrlarda ham boshqa musulmon sharqi, Eron, Turkiya, Qoshg‘ar, Hindiston kabi mamlakatlar bilan yaqin aloqada bo‘ldi, o‘zaro ta‘sirida rivoj topdi. Boshqa o‘lkalardan Movarounnahrga turli ziyoli, madaniyat arboblari kelib o‘z faoliyatini davom ettirganidek, Buxoro, Samarqand kabi turli shaharlardan chiqqan olim, donishmand, san‘at arboblari boshqa mamlakatlardagi madaniy oqimda ishtirok etdilar.

Masalan, Turkiyada miniatyura san‘atining rivojida Markaziy osiyolik san‘atkorlar peshqadamlik qildilar. Akademik V.V.Bartold bu haqda shunday deydi: «Turkistonning Old Osiyoga bo‘lgan ta‘siri qanchalik uzoq davom etgani shu faktdan ma‘lum: «Sulton Boyazid II davri (1481-1512) da rassomlik san‘atini dastlab

Turkiyaga keltirgan kishi o‘zbek san’atkori bobonaqqosh edi». Bobonaqqosh turk miniatyurachilarining ustoz bo‘lib tanilgan edi. Shayboniyxon tomonidan naqqosh G‘ulom Shodi Qozon xoni Muhammad Amin saroyiga uning iltimosiga binoan yuboriladi. Shuningdek, XVI asrning ikkinchi yarmida buyuk boburiy shohlardan Akbar saroyiga Samarqand ustalari Muhammad Murod va Muhammad Nodirlar safarbar etilgan edi. Erondan qator olim-fozillar, san’atkorlar diniy sharoitning noqulayligidan qochib yoki o‘z ixtiyorlari bilan Movarounnahr shaharlariga kelib joylashib qoldilar. Shoirlar Fayzulloh ibn Ruzbehxon, Zayniddin Vosifiy, mashhur xattotlar Xo‘ja Mahmud, Said Ahmad mashhadiy, yuqorida qayd etilgan Mirzajon Sheroziy, Qorabog‘iy kabilalar shular jumlasidandir.

Movarounnahrda so‘nggi asrlardagi taxt uchun kurashlar, parokandalik asta-sekin yagona davlat tarkibidan turli shaharlarning ajrab ketishi, mustaqil Xiva va Ko‘qon xonliklarining tashkil topishi, ular o‘rtasidagi urush-ziddiyatning avj olishi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida yomon oqibatlarga olib kelish bilan birga, madaniy-ma‘naviy hayotga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatdi, uning rivojiga g‘ov bo‘ldi, orqaga ketuviga olib keldi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi Turkiston tarixida iqqisodiy-siyosiy jihatdan o‘zaro nizolar, urushlar, boshboshdoqlik, parokandalik aholining nihoyatda qashshoqlashgan, madaniy-ma‘naviy jihatdan tushkunlikka uchragan davri edi. O‘zaro ichki nizolarning kuchayib ketganligidan foydalangan Eron shohi Nodirshoh 1740 yillar Buxoroni va Xivani bosib olib o‘ziga qaram qildi. Buxoro taxtiga o‘z odami Muhammad Hakim otaliqni o‘tkazib qaytdi. Lekin Nodirshoh vafotidan so‘ng (1747) Hakimxonning o‘g‘li Muhammad Rahim ashtarxoniylar sulolasini umuman chetlatib, 1753 yili o‘zini amir deb e‘lon qildi. Shunday qilib, Buxoroda mang‘it qabilasidan chiqqan sulola hukmronligi boshlandi.

O‘zbek xoni Elbarsxon 1512 yili Xiva xonligani barpo yetib, unga Xorazmning qator shahar, qishloqlari, turkman yerlari va Xurosonning shimoliy qismini qo‘shib olgan edi. Lekin bu xonlikda uzluksiz o‘zaro kurashlar, xonlikning turkmanlar, qoraqalpoqlar, Buxoro xonligi, Eron bilan urushlari davom etganligi iqtisodiy-siyosiy ahvol, madaniy hayotning qashshoqlanishiga olib keldi. Abdullaxon II davrida

Xorazm, Buxoro xonligi tomonidan bosib olindi. Abdullaxon II vafotidan so'ng Xiva xonligi yana mustaqilligini tiklab oldi. Shuningdek, 1598 yili Subxonqulixon yana Xorazmni Buxoro xonligiga qaram qiladi. Uzoq vaqt o'tmay Xiva Yana mustaqil xonlikka aylandi. XVII asrda Xiva xonligi madaniyati tarixida eng yirik arbob sifatida ish ko'rgan xon Abulg'ozixonni ko'rsatib o'tish mumkin. U faqat yirik davlat arbobigina bo'lib qolmay, mashhur tarixchi va tabib ham edi. Abulg'ozixon Buxoro, Toshkent, Eron shaharlarida quvg'inda, bir necha bor qamoqda bo'lgan, nihoyat 1643 yili Orol o'zbeklari uni xon qilib ko'taradilar va 1645 yili Xiva taxtiga chiqadi. U deyarli yigirma yillik (1645-1663) xonlik davrida markazlashgan davlat tuzishga, mamlakat rivojini ta'minlashga intildi, madaniyatga e'tibor berdi. 1663 yili taxtni o'g'li Anushaxonga topshirdi. Abulg'ozixon fan tarixida mashhur olim, Xorazm tarixnavisligining asoschisi sifatida nom qoldirdi. Uning qalamiga mansub «Shajarayi tarokima» («Turkmanlar tarixi») va «Shajarayi turk» («Turklar Shajarasi») kabi asarlar Markaziy Osiyo tarixiga oid muhim manba hisoblanadi. Bu asarlar nemis, fransuz, rus tillariga tarjima etilgan va sharqshunos olimlar orasida ma'lumdir. XVIII asrning oxirlariga kelib Farg'ona butunlay Buxorodan mustaqil bo'lib ajrab chiqdi va Qo'qon xonligi vujudga keldi. Bu xonlikning asoschisi ming qabilasidan chiqqan Shohruxbiy bo'lib, u XVIII asr boshlarida Farg'onada mustaqil davlat barpo etadi. Bu davlat asta-sekin atrofdagi qishloq va shaharlarni bosib olish hisobiga kengaya boradi.

Norbo'tabiy (1769-1800) yillarda Qo'qon xonligidagi ziddiyatlarni tinchitib, o'z hokimiyatini mustahkamladi. Bu xonlik XIX asrning birinchi Yarmida ancha rivoj topdi. U Toshkent va uning atrofidagi shaharlarni, janubiy Qozog'istonni bosib oldi, Shuningdek, Farg'ona shahridagi viloyatlar ham unga qaram bo'ldi, hatto Koshg'ar chegaralariga borib yetdi, Olimxon, Umarxon, Muhammad Ali, Sheralixon, Xudoyorxonlar davrida Qo'qon xonligida o'zaro keskin kurashlar davom yetib turdi. Shu bilan birga Qo'qon xonligining Koshg'ar, Xitoy, Rossiya, Buxoro bilan savdo-madaniy aloqalari rivojlandi. Shunday qilib, o'zaro urushlar vaqti-vaqti bilan ko'tarilib tursada, XVIII asrning oxiri XIX asrning boshiga kelib Turkistonda uch mustaqil davlat: Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga keldi. Mazkur

uch davlatda madaniyat, adabiyot, ilm-fan, san'at o'ziga xos ravishda rivojlandi.

Qo'qon xonligida XIX asr boshlarida me'morchilik rivoj topdi, juda ko'p qurilish ishlari olib borildi, xususan Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Andijon kabi yirik shaharlarda turli binolar: madrasa, masjid, xonaqo, bozor, hammom kabilar barpo etildi, kanallar o'tkazildi, binolarni bezash ishlaridan keng foydalanildi, hunarmandchilik ravnaq topdi. Masalan: shu davrda madrasai Muhammad Yasovul, madrasai Rizqulbek, madrasai Oftob oyim, madrasai Mingoyim, madrasai Hakimxon to'ra, madrasai Xo'ja dodxoh, madrasai Haqquli mingboshi kabi madrasalarning o'zidan bir nechitasi qurildi. Qog'oz ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Qo'qon yzuvi butun Markaziy Osiyo shaharlarida o'zining sifati bilan nom qozondi. Kitob yozish va bezash ishlari, xattotlikka alohida e'tibor berildi, o'tmish mashhur shoirlarning asarlari ko'chirilib, maxsus rang va chizmalar bilan bezatildi. Lutfiy, Navoiy, Umarxonlarning devonlaridan iborat «Muhabbatnoma» degan bir majmua maxsus, chiroyli qog'ozga bezaklar bilan, go'zal xatda ko'chirilib xon tomonidan Turkiyaga sovg'a qilib jo'natilgan.

Qo'qon xonligining siyosiy mavqeining oshishi, iqtisodiy-ijtimoiy rivoji madaniy hayotda ijobiy o'zgarishlarga olib keldi.

Adabiyot, san'at, tarixshunoslik va boshqa muhim ijtimoiy fanlarda jonlanish yuz berdi. Bu jihatdan ayniqsa, Amir Umarxon hokimiyati (1809-1822) davrida ancha ishlar amalga oshirildi. U xonlikni mustahkamlash va kengaytirish, tashqi mamlakatlar bilan iqtisodiy va diplomatik aloqalarni rivojlantirish bilan birga adabiyot, san'at ravnaqiga katta e'tibor berdi, saroyga shoirlarni, adabiyotchilarni to'plab mushoiralar, uchrashuvlar o'tkazib turdi. O'zi ham «Amiriy» taxallusi bilan o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozdi, rafiqasi mashhur shoira Nodirabegim esa ayol shoira-adabiyotchilarga rahnamolik ko'rsatdi. Umarxon topshirig'i bilan Fazliy Namangoniy, adabiyotchi shoirlarning «Majmuat ush-Shuaro» («Shoirlar to'plami») to'plamini tartib yetib, unga o'sha davrda ijod etgan juda ko'p shoiralarning asarlaridan namunalar kiritdi. Bu davrda Nodira, Uvaysiy, Ado, G'oziy, Mahzuna, Maxmur, Ma'dan, Dilshod, Bahriniso, Muntazir, Turobiy, Nusrat, Gulxaniy kabi adiblar yetishib chiqdilar. Ularning asarlarida xonlar saroyi hayotidan tortib, oddiy

xalqning kundalik turmushi, qiyinchiliklari, xalq orasida vujudga kelgan noroziliklar, axloq, insonparvarlik, xalqparvarlik masalalari o'z aksini topgan. Bu adiblarning ko'plari Fazliyning «Majmuat ush-Shuaro»idan joy olgandir. Ular asosan o'zbek tilida, ko'pincha ikki tidda, o'zbek va tojik tillarida ijod etganlar. Fazliyning o'zi ham o'zbek va tojik tillarida yozilgan qator she'riy asarlarning muallifidir. XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan, o'zining hajviy xalqchil ruhdagi she'rlari bilan nom qozongan talantli shoirlardan biri Maxmurdir. Bu davr adiblaridan Gulxaniy she'rlar bilan birga nasrda «Zarbulmasal» deb nomlanuvchi asar yozgan bo'lib, unda mashhur hind asari «Kalila va Dimna»ning ta'siri yaqqol ko'rinadi. Asarda qushlar hayoti orqali o'z davridaga oliy tabaqaga mansub bo'lganlarning kirdikorlari fosh etilgan. Asar o'zbek adabiyotidagi masal janrini boyitishga muhim hissa qo'shdi. Bu davrda Qo'qon xonligida tarix ilmi sohasida ham qator asarlar yaratildi. Ular XIX asr Turkiston tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir. Xo'ja Muhammad Hakimxonto'raning «Muntaxab at-tavorix» («Tarixlardan saylanma»), Ashur Muhammad Ho'qandiyning «Tarixi Shohruxiy» («Shohrux tarixi»), Junayd Mulla Avaz Muhammadning «Tarixi jahonnomiy» («Jahonni ko'rsatuvchi tarix»), Eshon xo'ja Qori Toshkandiyning «Xulosat ul-ahvol» («Ahvollar xulosasi»), Shuningdek, Muhammad Solih Toshkandiyning «Tarixi jadidi Toshkand» («Toshkentning yangi tarixi»), Mulla Olim Mahdumning «Tarixi Turkiston» («Turkiston tarixi») kabi kitoblari shular jumlasidandir. Ularda o'sha davrda xonliklar o'rtasidagi kurashlar, Qo'qon xonligini kengaytirish sohasida olib borilgan urushlar, uning yerlarini asta-sekin rus askarlari tomonidan bosib olinishi haqidagi ma'lumotlar bilan birga madaniyat sshasida olib borilgan ishlar haqida ham turli fakt va axborotlar keltirilgandir. Ma'lumki, Qo'qon xonligi shimoldan bosib kelgan rus askarlarining birinchi hujumiga uchradi va unga bir necha yil davomida qarshilik ko'rsatib keldi. Bu voqealar ham shu tarixiy asarlarda qisman o'z ifodasini topgandir.

Xo'ja Muhammad Hakimxonto'raning «Muntaxab at-tavorix» asarida Farg'ona va Buxoro tarixi aksini topgan. Hakimxonto'ra xonga yaqin kishilardan bo'lgan, 1822 yili Madalixon taxtga chiqqandan so'ng o'zi birga o'sib ulg'aygan Hakimxonto'rani avval siylab, so'ng Qo'qondan chiqarib yuboradi va u Sibirga yo'l

oladi. U Semipalatinsk, Omsk, Orenburg, Astraxon Shaharlarida bo'ladi, rus tilini ham o'rganadi, rus amaldorlari, zobitlari bilan bir necha bor uchrashadi. Hakimxonto'ra haqida axborot rus podshohsiga borib yetadi va Aleksandr I uni Peterburgga taklif etadi, u bormaydi. Buning sababini tushuntirib: «uzimning xeshu aqrabolarimdan bo'lgan podshohlardan nima ko'rdimu, begona mamlakat podshohidan nima ko'rardim», deb yozadi Hakimxonto'ra o'z kitobida. Aleksandr I Orenburgga kelganda Hakimxonto'raning shu shahardaligini eshitib, uni o'z huzuriga chaqirib, uzoq suhbat quradi. Hakimxon rus podshosida yaxshi taassurot qoldiradi. Hakimxon so'ng Astraxon orqali Kavkazga, undan Turkiya va Misrga boradi. So'ng Qizil dengizda kemaga o'tirib bir qancha shaharlarda bo'ladi, Makka va Madinani ziyorat qilib, Arabiston sahrolari orqali Misrga qaytadi. Hakimxonto'ra so'ng Iroq orqali Eronga o'tib, uning qator shaharlarini ko'radi, ko'p qiyinchiliklardan so'ng Buxoroga keladi. U safarda Turkiya sultoni va Eron shohi huzurida suhbatda bo'ladi. Buxoroga qaytgandan so'ng Shayxulislom huzuriga taklif etilishiga qaramay, Shahrisabzga qaytib keladi va qolgan umrini o'sha yerda o'tkazadi. U o'zining boShidan kechirganlarini «Muntaxab at-tavorix» degan asarida batafsil bayon etgan. Kitobda o'sha davrdagi Turkiston madaniy hayoti, Qo'qon, Buxoro xonliklaridagi voqealar haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan, ularga muallifning munosabati biddirilgan. Bir so'z bilan aytganda, Hakimxonto'ra o'z davrining yetuk davlat arbobi, adibi, tarixchisi, sayyohidir. Uning asari esa xotiranoma adabiyotiga, tarix va jug'rofiya ilmiga qo'shilgan muhim hissadir.

Hakimxonto'ra o'z davrining bilimdoni, madaniyatli ziyolisi, ma'rifatparvar, qator tillarni yaxshi bilgan har tomonlama ma'lumotli arbob sifatida tarihdan nom qoddirdi. «Muntaxab at-tavorix»ning o'zbekcha va tojikcha nusxalari bor.

Muhammad Solihxo'ja Toshkandiy o'zining «Tarixi jadidi Toshkand» asarida Qo'qon xonligining XGX asr o'rtalaridagi shimoliy chegaralari ahvoli, ruslarning hujumlari, ayovsiz urushlari, yerli xalqlarning qahramonona qarshiligi, Toshkent qamali, Samarqand, Andijon, Marg'ilonning bosib olinishi, Qo'qon xonligining Rossiyaga bo'ysundirilishi kabi voqealarni ishtirokchi sifatida bayon etadi.

XIX asrning boshida, ayniqsa, Muhammad Rahimxon davrida Xiva xonligi

mustahkamlandi, so'ng uning yerlari kengaydi. Savdo-sotiq, hunarmandchilik, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalar quchaydi. Xivada, Hazorasp kabi shaharlarda madrasa, masjidlar qurildi, me'morchilik san'ati, madaniyatning boshqa sohalariga nisbatan taraqqiysi uchun imkon vujudga keldi. Bu davrda me'morlik yuksak darajada rivoj topdi. Pahlavon Mahmud maqbarasi yonidagi majmua, Kunya arkidagi binolar, Muhammad Aminxon madrasasi, Juma masjidi, Olloqulixon saroyi, Ichan qal'a majmuasi kabi qator binolar shu davrda vujudga keldi. Hozirgi Xiva shahri, undagi boy va rang-barang binolar, minoralar asosan XVIII-XIX asrning birinchi yarmida bunyod etilgan. Bu davrda Xivada ilm-fan, adabiyot, san'at asta-sekin rivoj topa boshladi. Munis Xorazmiy, Komil Xorazmiy, Ogahiy, Avaz O'tar kabi yetuk qalam egalari, shoir va adabiyotchi, tarixchilar yetishib chiqib, milliy adabiyotni rivojlantirishga munosib hissa qo'shdilar. Bu davrda qator tarixiy asarlar, jumladan, Sharqning mashhur tarixchilari Ma'sudiy va Ibn Asrning asarlari arabchadan, Mirxond, Xondamirlarning asarlari forschadan o'zbek tiliga tarjima etildi. Abulg'oziy Bahodirxondan boshlangan Xorazm tarixnavislik maktabi XIX asrga kelib yangi bosqichga ko'tarildi. Munis, Ogahiy, Bayoniylar «Firdavs ul-iqbol» («Baxt jannati»), «Zubdat ut-tavorix» («Tarixlar qaymog'i»), «Riyoz ud-davla» («Davlat bog'lari»), «Shohidi iqbol» («Iqbol Shohidi»), «Shajarai Xorazmshohiy» («Xorazmshohlar Shajarasi») kabi tarixiy asarlar yozib qoldirdilar va Xorazm, umuman Turkiston tarixiga oid muhim davr voqealarini yoritib berdilar.

Buxoro amirligida (1753-1920) uzoq davom etgan o'zaro kurashlar, parokandalik, mamlakat iqtisodi va madaniyati rivojiga katta zarar yetkazdi. Amir hokimiyatni mustahkamlash, markazlashtirish va kengaytirish sohasida to'xtovsiz kurash olib bordi. Ayniqsa, Mirza Haydar zamonida beklar o'rtasidagi kurashlar, turli xalq qo'zg'olonlari kuchaydi. Uning vorisi amir Nasrullo (1826-1860) zamonida ziddiyatlar tinchitilib, bir muncha yumshab, u o'z davlatini janubga tomon ancha kengaytirdi.

Buxoro amirligida o'zaro nizolar, boshqa xonlik bilan kurashlar to'xtovsiz davom yetib turishiga qaramay qurilish, madaniyat sohasida ayrim ishlar amalga



oshirilganini ko‘ramiz. Bu davrda tabiiy ilm, fanning ko‘p sohalari o‘zining oldingi mavqeini yo‘qotgan, diniy ilmlarningta’siri kuchaygan bo‘lsada, Buxoro Markaziy Osiyoda o‘zining ma’rifat markazi mavqeini saqlab qoldi. Bu yerda ko‘plab madrasalarda o‘z davri talabalariga binoan o‘qitish ishlari davom etdi. Ko‘p bo‘lmasada binolar barpo etildi. Buxorodagi avvaldan hukm surib kelgan tarixnavislik sohasida ayrim asarlar vujudga keldi.

XVIII asr oxirlari va XIX asrning birinchi Yarmida Muhammad Vafoiy Karminagiyning «Tuhfai xoniy», («Xon tuhfasi»), Muhammad Sharifning «Toj ut-tavorix» («Tarixlar toji»), Mir Olim Buxoriyning «Fathnomai sultoniyy» («Sultonning g‘alaba kitobi») asarlari yaratildi. Ularda o‘sha davrdagi Buxoroning ichki va tashqi siyosati, davlat tuzilishi, xalq harakatlari, madaniy hayoti haqida qiziqarli ma’lumotlar bayon etilgandir.

Bu davrda o‘zbeklar bilan qardosh bo‘lgan boshqa qo‘shni xalqlar madaniy hayotida xalqlarni birlashuvga chaqiruvchi, do‘stlik, birodarlikni targ‘ib etuvchi yetuk va mashhur arboblardan, adib-shoirlardan yetishib chiqdilar. Ular o‘zaro urushlarni, nizolarni oldini olishga chaqiruvchi asarlar yozib, xalq manfaatlarini himoya etdilar. Qoraqalpoq Berdaq, turkman Maxtumdul, qozoq Cho‘qon Valixonov, Abaylar Shular jumlasidandir.

**Xulosa.** Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy masalalar bilan bir qatorda ma’naviyat va ma’rifatni uyg‘un holda rivojiga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. O‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi, jurnalist nima uchun xalq og‘zaki ijodi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi kerak?
2. Nima uchun xalq og‘zaki ijodini badiiy adabiyotning ilk namunalari deb baholaymiz?
3. Folklor atamasiga izoh bering.
4. Sinkretik janr deganda nimani tushunasiz?
5. San’at asari qanday fazilatlarga ega bo‘lishi lozim?
6. Xalq og‘zaki ijodi – so‘z san’ati ekanini qanday belgilar dalillaydi?


## TARQATMA MATERIALLAR:

1-ilova


### Ma'naviyat nima? (Ma'naviyatning turli nuqtai nazardan ta'riflari)

a) Ma'naviyat iqtidor, yaratuvchilik quvvati sifatida	«Ma'naviyat — Insonning, Xalqning, Jamiyatning, Davlatning kuch-qudratidir».
b)Ma'naviyatning qudratini izohlovchi ta'rif	«Ma'naviyat — insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch»
d) Ma'naviyatning ajdodlarimiz merosida aks etgan ramziy ta'rif	Ma'naviyat — Haqiqat nurining inson qalbida aks etishidir.
e) Ma'naviy kamolotga jarayon sifatida yondoshuv («O'zini anglab yetgan Robbini anglab yetadi» hadisiga muvofiq)	Ma'naviyat — o'zlikni anglashdir
f) Ma'naviyatning ilmiy ta'rif (ma'naviyat—ma'rifat yo'llarining noqonuniy xulosasi sifatida)	Ma'naviyat — inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik
g) Ma'naviyatga diniy nuqtai nazardan berilgan ta'rif	Ma'naviyat — dunyoviy va uxraviy maqsadlarning uyg'unligidir
h) Ma'naviyat fano va baqo nisbati sifatida	Ma'naviyat — baqoning fanoda zuhuri (namoyon bo'lishi)
i) Ma'naviyat — inson va jamiyat hayotining uch asosiy yo'nalishining biri sifatida	Ma'naviyat — insonning Haqqa (Borliq haqiqatiga) munosabati


*Ma'naviy jamiyatni rivojlantirishning muhim omillari*




**Ma'naviy qashshoqlikni yo'qotish**




**Amir Temur davlatini boshqarishdagi 4 omil**




**Islom Karimov ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash zamana talabi ekanligi to'g'risida**




Ma'naviyatdagi o'zaro munosabatlari va qonuniyatlar




## Amir Temur buyuk davlat arbobi, yuksak ma'naviyat sohibi




**Temuriylar sulolasi davrida yaratilgan ma'naviy merosning o'zbek xalqining ma'naviy tiklanishida tutgan o'rni**



**Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida yaratilgan ma'naviy merosning o'zbek xalqining ma'naviy tiklanishida tutgan o'rni**



**Shaxs ma’naviyatining botiniy belgilari**



**ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. Otamurotov S., Ramatov J., Xusanov S. Ma’naviyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. - Toshkent, 2002.
2. Imomnazarov M., Saidov M. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. “Akademiya” Toshkent, 2005.
3. Umarov E., Abdullayev M. Ma’naviyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2006.
4. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. O‘quv qo‘llanma. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. - Toshkent, 2006.
5. Otamuratov S., Otamuratov S. O‘zbekistonda ma’naviy-ruhiy tiklanish. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2003.
6. Saifnazarov I., Obidov A. Dinlararo hamjihatlik – ijtimoiy barqarorlik omili.



– Toshkent: Innovatsion-rivojlanish matbaa uyi, 2019.

7. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. "Fan va texnologiya nashriyoti. - Toshkent, 2008

7. Abdurahmonov M., Otamurotov S., Ma'naviy salohiyat. O'quv qo'llanma. Toshkent: Universitet, 2009.

8. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jayev. "Dinshunoslik" O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2014.

9. Erkayev A. "Ma'naviyatshunoslik". I-jild. Ma'naviyat ontalogiyasi va fenomenologiyasi Monografiya. - Toshkent: Ma'naviyat, 2018.

10. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. II- jild. Ma'naviyat metodologiyasi va praktsiologiyasi Monografiya. - Toshkent: Ma'naviyat, 2018

11. Quranboyev Q., Abdurahmonov M. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarini o'qitish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2010.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018.

3. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Asarlar, 6-jild – Toshkent: "O'zbekiston" 1998

4. O'zbekiston Respublikasining "Terorizmga qarshi kurash to'grisida" qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Axborotnomasi, 2001 yil, 1-2-son, 15- modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 yil, 25-son, 287-m).

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil 6-son 70-modda)

6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

7. Aliyev A. Istiqlol va adabiy meros. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
8. Otamurotov S., M.Abdurahmonov., Sh.Rizayev. O‘zbekistonda ma’naviyat sohasidagi islohotlar: rivojlanish bosqichlari, erishilgan natijalar va istiqboli. Toshkent: Akademiya, 2010
9. Maxmudov T. Mustaqillik va Ma’naviyat, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlari asosida. – Toshkent: Sharq Nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. - 2001 yil
10. Ergashev F., Ergashev I. Fidoiyluk – hayot mazmuni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001 yil
11. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O‘zbekiston , 2000 yil
12. Choriyev A. Inson falsafasi. II. Mustaqil shaxs. - Toshkent: Chinor ENK. 2002.
13. Erkayev A.P. Ma’naviyat millat nishoni. – Toshkent, 1997.
14. Eshonqulov A. Ma’naviyat tarbiyasi. // Muloqot, 1997. №1.
15. Mahmudov T. Nafosat va ma’naviy qadriyatlar. - Toshkent, 2001.
16. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari. – Toshkent, 1997.
17. Ziyoyev X. Istiqlol-ma’naviyat negizi. - Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
18. Qahharova Sh. Global ma’naviyat - globallashuvning g‘oyaviy asosi. - Toshkent: Tafakkur nashriyoti. 2009.
19. Otamuratov S. Globallashuv va millat: Yangi asr avlodi. 2008 .

#### **Axborot manbalari:**

1. “Xalq so‘zi” gazetasi –www info XS. Uz.
2. “Turkiston” gazetasi - www turkiston sarkor. uz.
3. “Ma’rifat” jurnali - www ma’rifat – inform.
4. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali - www rzult academy freenet uz.
5. “Moziydan sado” jurnali - www moziy dostlink. Net.
6. www.mfa.uz.
7. www.press-servise.uz.

## II BOB. ISTIBDOD VA ISTIQLOL: MA'NAVIYAT UCHUN OLIB BORILGAN KURASHLAR VA HOZIRGI ZAMON

### 3-MAVZU: MUSTAMLAKACHILIK VA QARAMLIK YILLARIDA MA'NAVIYAT

#### **Reja:**

- 1. Jadidchilik faoliyatining vujudga kelishi va uning maqsad va vazifalari**
- 2. Jadidlarning ma'rifatparvarlik harakati va uning xalq ma'naviyatini yuksaltirishdagi roli**
- 3. Mustamlakachilarning ma'naviy sohadagi olib borgan siyosati va uning salbiy oqibatlari**
- 4. Mustamlakachilik va qaramlik sharoitida o'zbek xalqining milliy va diniy qadriyatlarining buzilishi**

**Tayanch iboralari:** *jadid, mustamlakachilik, o'zbek xalqi, diniy qadriyat, salbiy oqibatlari, jadidchilik faoliyati, ma'rifat, ma'rifatparvarlik, yangi maktab, najot – ilmda, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, «Oyna», «Kecha va kunduz», «O'tgan kunlar», «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot».*

#### **1. Jadidchilik faoliyatining vujudga kelishi va uning maqsad va vazifalari**

Chorizm nafaqat Turkistonda balki butun Rossiyada turkiy xalqlarni taladi, ezdi, jaholat va qashshoqlikka yuz tutdi. Bu xalqlarni, uning boyligini, milliy burjuaziyani, ziyolilarni uyg'otdi.

Turkiy xalqlarning og'ir qismatini birinchi bo'lib, turkiy qrim-tatar farzandi Ismoilbek Gasirpali (1851-1914) anglab etdi. U turkiy xalqlarni ilg'or xalqlar darajasiga ko'tarish harakatini boshladi. Hukumat oldiga turkiy xalqlar madaniyatini rivojlantirish, maorifni isloh qilish, maktablarda diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlarni ham o'qitish masalalarini qo'ydi.

Gasirpali 1884 yilda o'zining «Tarjimon» gazetasi orqali musulmonlarga

murojaat qilib «Eng muqaddas intilish ilmga, maorifga intilishdir. Bilim madaniy turmush(sivilizasiya)ga etishish vositasidir», - dedi. Bu bilan u ozodlikka erishish yo'li ma'rifatli bo'lishdir, degan fikrni ilgari surdi.

Shu yili «yangicha usul» - usuli jadid - saftiya usuli bilan o'n ikkita bolani o'qitib qirq kunda savodini chiqardi. O'z usulini Turkistonga ham tavsiya etdi.

«Jadid» o'zi arabcha so'z bo'lib, o'zbekchada ma'nosi «yangi» demakdir. Shu ma'noda, yangilik va islohotchilikka intiluvchilar «jadid» degan nom oldilar.

Zero, bu davrga kelib millatni saqlab qolish va istiqloлга olib chiqishda ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy tarbiya asosiy omil, muhim qurol bo'lib qoldi. Aynan shuni jadidlar ozodlik yo'lidagi harakatning asosi deb bildilar.

Demak, jadidchilikning paydo bo'lishiga birinchidan, islomdagi taraqqiyparvarlik, ilm-fanga rag'bat va dunyoviyilik, ikkinchidan, Sharq va G'arbda rivojlangan demokratik, milliy-ozodlik va islohotchilik harakatlari ta'siri ham kuchli bo'ldi. Bular:

XIX asr 90-yillaridan 1917 yilgacha bo'lgan davrda rus sotsial-demokralari erishgan g'alabalar va ularning Turkstononga ta'siri;

Afg'onistonlik Jaloliddin Afg'oniy (1839-1897) va Muhammad Abdolar (1848-1903) asos solgan musulmon dunyosidagi islohotchilik va uyg'onish harakatlari;

Turkiyadagi uyg'onish harakatlari va inqilobiy-demokratik voqealar (1908-1909), yosh turklar (monarxiyaga qarshi respublikachilar).

XIX asr 90-yillarida Turkistonda jadidchilik harakati paydo bo'ldi. Bunga yuqoridagi holatlar, shuningdek, Ismoilbekniig Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbaxga maktub yo'llashi va 1893 yilda Toshkent, Samarqand, Buxoroda bo'lishi katta turtki berdi.

Turkiston jadidlari safida Maxmudxo'ja Behbudiy, Shukuriy, Nosirxon To'ra, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqa ko'plab millat fidoiyilari, vatanparvarlar bor edi.

### **Turkistonda jadidchilik harakati va jadidlar tarixi davrlari:**

**Birinchi davr.** XIX asr 90-yillaridan 1917 yil fevraligacha. O'z navbatida bu davr 3 bosqichga bo'linadi:

XIX asr 90-yillari - 1905 yil. Jadidchilikning paydo bo'lishi va muntazam harakatga ayilanishi;

1905-1909 yillar. Harakatning nisbatan tez va qarshiliksiz rivojlanishi.

1909-1916 yillar. Harakatning chorizmning ozodlik, demokratiya va inkilobiy kuchlarga qarshi kurashni kuchaytirgan davrda rivojlanishi.

**Ikkinchi davr.** 1917 yil fevraldan- 1929 yilgacha. Bu davrni ham 3 bosqichga bo'lish mumkin:

1917 yil fevral-oktyabr;

1917 yil noyabr-1924 yil;

1925-1929 yillar;

**Jadidlarniig maqsadi:**

a) maorifni isloh qilib, aholini, ayniqsa yoshlarni savodli va ma'rifatli qilish;

b) yangi usul maktablari ochib, ular uchun darslik va qo'llanmalar yozish;

v) o'lkada zamonaviy (yevropacha) oliy ta'limni yo'lga qo'yish;

g) ma'naviy tarbiyaga e'tiborni kuchaytirish, adabiyot va san'atni rivojlantirish;

d) Siyosiy tashkilot (partiya)larga uyushish va aniq maqsad yo'lida kurashish;

**Jadidlarning g'oyalari:**

Ozodlik, Tenglik, Adolat - shu maqsad yo'lida:

➤ Turkiston musulmonlariga siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar g'oyasini singdirish;

➤ O'lka xalqini yagona g'oya, maslak va fikr asosida birlashtirish;

➤ boshqa mamlakatlarning mustaqillik va demokratiyaga asoslangan tajribasini o'rganish;

➤ Turkiston xalqlari orasida mavjud ixtiloflarni yo'qotish;

➤ Turkistonda Rossiya Federativ Demokratik Resirublikasi tarkibida milliy-hududiy-federativ-demokratik resirublika tashkil etish.

Ko'rinib turibdiki, jadidlar tenglik va ozodlikka qon to'kmasdan, tinch yo'l bilan ya'ni ma'rifat orqali o'tish tarafdori edilar.

Ammo sovet tarixi fanida jadidlar va jadidchilik harakatiga «milliy burjuaziya

harakati», «milliy burjuaziya sinfi mafkurachisi», hatto «xalq dushmani» deb baho berildi.

Bu harakatni soxtalashtirish bo'lib, haqiqatdan uzoq edi. Bugun biz uning to'g'ri bahosini berib, ozodlik va mustaqillik uchun kurashchilar deb atamoqdamiz.

Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnashib olishi kuzatiladi. U o'z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklaSh, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almaShtiriSh, mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtiriShgacha borildiki, yerli aholini bu xilda tahqirlash hollari mustamlakachilarning bedodligini yaqqol ko'rsatardi. O'sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o'z «Xitobnoma»si (1898)da yaxshi bayon qilgan (qarang Andijon qo'zg'oloni).

Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari - hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish - siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar.

Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda fidoiylarcha kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gaz va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy

ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdiridagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlaridan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Saidahmad Siddiqiy-Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jayev (Ubaydulla Xo'jayev), Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Isxoqxon Ibrat, Muqammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov (Xiva jadidlari) turardi.

Turkiston mintaqasidagi Jadidchilik harakati, tarqalish joyi va yo'nalishiga ko'ra, uchga bo'linadi: Turkiston, Buxoro va Xiva jadidchiligi. Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o'rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o'lkasidagi Jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xom ashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so'ng mustaqil davlat bo'lishini yoqlab chiqdilar.

Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma'rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat so'zining ko'pchilikdagi ma'nosi

maorifdir. Ma'rifat atama sifatida – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifatli degani – bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor, demakdir. Fanlar chuqur va keng rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bilim va ilmga intilgan har bir kishi, talaba, fan namoyondasi ilmning, ya'ni ma'rifatning ma'lum sohasinigina egallashga erisha oladi. Masalan, kimyoning ma'lum sohasini, xuddi shuningdek, matematika, fizika, biologiya, tibbiyot va boshqalarning ham ma'lum yo'nalishlarini egallaydilar.

Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Demak, ma'rifat - bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif esa ana shu mazmuni yoyish quroli, vositasidir.

Ma'rifat asosan umumiy va o'rta maxsus bilim beruvchi maktab, o'quv yurtlarida tarqatiladi. Ma'rifat tushunchasi maorif tushunchasidan keng bo'lib, bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari, shakllari va sohalarini o'z ichiga oladi.

Jamiyatda ma'rifat, ya'ni bilim ma'rifatparvarlar orqali yoyiladi. Ma'rifatparvar – ma'rifat uchun kurashuvchi; ilm, bilim chiroqini yoquvchi; ma'rifat homiysi va tarafdori demakdir.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o'tishi ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng yetuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoiy, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli kishilari ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanadilar. Ma'rifatparvarlar odatda davr uchun, jamiyatning, mamlakatning, xalqning buguni va kelajagi uchun muhim g'oyalarni ilgari suradilar, shu g'oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib boradilar.

Ma'rifat ma'naviy qaramlik, qo'rquv va hadikni bartaraf etadi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat baxsh etadi. Shuning uchun ozodlik uchun kurashchilar mamlakat, millat ozodligini xalqning ma'rifiy uyqoqligida deb biladilar va ma'rifat uchun kurashadilar. Bizning xalqimiz azal-azaldan ma'rifatga intilib yashagan. Bu o'lkadan dunyo ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalar yetishib chiqqan. Ular ham dunyoviy, ham diniy ilmlar sohasida dunyo ilmi ahlini hayratga solganlar. Bunga 1998 yilda Ahmad al Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi va hadis



ilmi sultoni Imom al Buxoriy tavalludining 1225 yilligi keng nishonlanganligini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

O'tmishda ijod etgan allomalarimiz al-Forobiy, al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va boshqalar nafaqat ilm cho'qqilarini egallab qolmay, uni - ya'ni ma'rifatni keng tarqib etganlar, shogirdlarni tarbiyalaganlar.

Turkiston ma'rifatchilik maktabi boy o'tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o'qli, Abdulqodir Shakuriy, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Ishoqxon Ibrat va Ahmad Donishlar XIX asr oxirlarida faoliyat boshlab, mamlakatni, xalqni milliy zulm va qoloqlikdan xalos etishning yagona yo'li ma'rifatda deb bildilar. Bu fidoiy zotlar mustabid tuzum va jaholatga, ma'naviy qullik va zulm-zo'ravonlikka qarshi bor kuchlari bilan kurash olib bordilar. Bu ma'rifatparvar bobolarimiz dunyo kezib, dunyo xalqlarining ilmu urfoni, madaniyati bilan tanishib, mustamlaka o'lkani, uning kishanlarini ilm chiroqi bilangina ozodlik sari boshlamoq, parchalamoq mumkin ekanini chuqur his etdilar. Shu sababli ham eng avvalo yurtimizda maktab-maorif ishlarini rivojlantirishda ham amaliy, ham nazariy jihatdan azmu shijoat namunasini ko'rsatdilar.

Ko'rinadiki, jadidchilik, ma'rifatchilik ham millatni ma'rifatli qilish, ma'naviyatini yuksaltirish maqsadlarida yuzaga kelgan buyuk tarixiy harakatdir.

Jadidchilik - yangilanish, yangi usul ma'nosini anglatadi. U yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yo'llari tarafdorlarining umumiy nomi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari: Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, «Usuli qadim»ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy qo'shin tuzish va boshqalardan iborat.

Turkistonda jadidchilik milliy-ozodlik kurashi jarayonida yuzaga kelgan, o'zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat bo'lganligi bilan ajralib turadi. Ularning dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g'oyalar yetakchilik qilgan. O'lkani mustamlaka zulmidan

ozod qilishni jadidlar hamma narsadan ustun qo'ydilar. Jadid ziyolilari erk, istiqloлга erishish uchun milliy ongni o'stirish zarurligini payqadilar. Shu orqali milliy uyg'onish yasamoqchi bo'ldilar. Buni esa ta'lim va tarbiyada - ma'rifatda deb bildilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bu harakatning tarixiy ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Bu davrlarda jamiyatning ma'naviy inqirozi chuqurlashgan bo'lib, milliy madaniyatni ko'tarmay, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lmay ma'rifat, tarbiyaviy ishlarni keng yo'lga qo'ygan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotga imkoniyat yaratib bo'lmas edi. Jadidlar, ya'ni ma'rifatchilar millatning ma'naviy kamoloti yo'lida o'zining butun kuchi va iste'dodini safarbar etishga tayyor bo'lgan fidoiylar edi.

Jadidlar millatni qoloqlik, xurofot botqog'idan olib chiqish uchun harakat qilar ekanlar, bunda shariatga qat'iy rioya qilish orqali maktab va madrasalarda ta'lim berish tizimini dunyoviy ilmlarni berish asosida isloh qilish g'oyasini ilgari surganlar va bu borada o'zlari amaliy harakat namunasini ko'rsatganlar.

Xullas, jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy uyg'onish va milliy ong yuksalishida katta rol o'ynagan.

Jadidchilik g'oyalarini uning yorqin vakillaridan Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fayzullo Xo'jayev, So'fizoda, Tavallo, Ishoqjon Ibrat kabilar g'oyat og'ir sharoitlarda tarqib etishga harakat qilganlar. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini yerga urishga yo'l qo'ymaslik borasida katta ishlar qilganlar. Ma'rifatchi jadidchilar og'ir moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrlarida millatning milliy ongini yuksaltirish, milliy iftixor to'yg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab etganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga oldilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o'zlari dars berar, o'quv qo'llanmalari yozar, nashr etar va bu yo'lda jonbozlik ko'rsatar edilar. Bu yo'lda hatto o'z mablag'larini ayamaganlar. Bunday sahovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu ishlar bizning hozirgi mustaqil

rivojlanishimiz uchun ham nihoyatda zarur. Matbuot orqali, televideniya orqali odamlarda ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarbiyalash, maktab-maorif tarmoqlariga homiylik, sahovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu xususiyatlarni kuchaytirish zarur», deb ta'kidlaganlarida yuqorida biz qalamga olgan fidoiy, saxiy, millatparvar insonlar kabi bo'lishga bizni chorlayotgan bo'lsalar, ne ajab!

Jadidlar harakatining Turkistondagi namoyandasi, uning nazariy asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiydir (1879-1919).

Behbudiy Samarqand shahrida ruhoniy oilasida tuqilgan. Yoshligidan ilm-fanga qiziqadi, hisob, huquq, din, arab va fors tillaridan chuqur saboq oladi.

U haj ziyoratini ado yetib, Makka va Madinaga boradi. Misr va Turkiya shaharlarida bo'ladi. Peterburg, Minsk, Qozon, Ufa va Orenburg kabi Rossiya shaharlarida bo'lib yangi davr madaniyati bilan yaqindan tanishadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, bolalarga diniy va dunyoviy ilm berish bilan birga, millat farzandlarini zamonaviy ilm olish uchun taraqqiy topgan mamlakatlardagi o'quv yurtlariga yuborish kerak, degan masalani o'rtaga tashladi. U quyidagi uch qoidani olg'a surdi: 1) zamon talablaridan kelib chiqib ish ko'rish; 2) millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni yetishtirish; 3) milliy biqlikdan chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy munosabatlarda jahon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish.

Jadidchilik harakatining ko'zga ko'ringan vakillaridan yana biri Munavvarqori Abdurashid o'qli (1878-1931). U Toshkentda tuqilgan. Munavvarqori ham boshqa jadidchilar kabi Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotining asosiy omili deb xalqni savodli va ma'rifatli qilishni tushunadi. U ana shu fikrdan kelib chiqib, Toshkentda 1901 yilda yangi uslubdagi maktabni ochadi, unga rahbarlik qilib, musulmon bolalarni o'qitadi. O'z zamonasi uchun maqbul bo'lgan «Adibi avval», «Adibi Soniy», «Yer yuzi» kabi darsliklar yozadi. U ko'proq yetimlarni, beva-bechoralarning bolalarini o'qitishga ahamiyat beradi.

Munavvarqori ta'lim-tarbiya ishlarini isloh qilmay, xalqning ongini oshirmay, madaniy saviyasini ko'tarmay jamiyatda katta o'zgarishlar qilish aslo mumkin

emasligini tushunib etadi.

Munavvarqorining millat taraqqiyoti uchun olib borgan g'oyalari tufayli sobiq zo'ravon Sho'rolar hukumati uni ta'qib ostiga oldi. 1931 yil 25 aprelda esa otib tashlandi.

Milliy uyg'onishga chorlovchi g'oyalarni ilgari surgan jadid harakatining yana bir yirik vakili Abdulla Avloniydir. U millatning ma'naviy inqirozda bo'lishini tanqid qildi, barchani savodli bo'lish, zamonaviy fan, madaniy yutuqlarni egallashga chaqirdi. Abdulla Avloniyning «Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir» degan g'oyasi ma'rifatparvarlik, jadidchilik harakatining dasturini tashkil etadi. U ma'rifatparvar safdoshlari singari mazlum Turkiston ahlini ilm-ma'rifat ziyosidan bahramand qilishda unitilmas xizmatlar ko'rsatdi. «Turkiy Guliston yohud axloq» kitobida ma'rifat, ilm-fanning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Allomaning qarashlarini o'rganish – bugun o'zligimizga qaytish jarayoni kechayotgan bir paytda alohida ahamiyat kasb etadi. «Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatlarimizni oyna kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. To'g'ri yo'lga rahnamolik qilib, dunyo va oxiratda mas'ul bo'lishimizga sabab bo'lur. Bizlarni ilm jaholat qorong'uligidan qutqarur. Madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur. Alloh taologa muhabbat va e'tiqodimizni orttirur... Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur».

Jadidchilarning qismati chor hukumati, vaqtli hokimiyat va ayniqsa, sobiq Sho'rolar tuzumi davrida nihoyatda fojeali bo'ldi. Ularning ko'pchiligiga yuqorida bayon qilingan talablari uchun millatchi, «panturkist» degan tamg'a bosilib, qataqon qilindi, jadidlar g'oyalari va harakatiga qora chiziq tortildi. Jadidchilikning tor-mor qilinishi turkiy millatlarning jahon miqyosida tanilishini yana bir asrga orqaga surdi. Jadidchilik bir asr davomida avval kommunistik g'oyaning tazyiqida, keyinchalik esa iskanjasida bo'lib, to'la ravishda namoyon bo'la olmadi. Uning zaminlari shakllanishi tarzini o'rganishga intilganlar ham tazyiq ostiga olindi. Uni o'rganishga intilganlar ham ta'qib qilindi. Mustaqillik sharofati bilan Turkiston xalqlarining erki,

mustaqilligi, milliy davlatchilik g'oyalari, ma'rifati uchun kurashgan vatanparvarlarning muborak nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Jadidlarning g'oyalari o'lmas g'oyalar bo'lgani uchun ham mustaqillik bilan birga hayotimizga qayta kirib keldi.

Buxorodagi jadidlar Turkistondagiga nisbatan og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullavachchalar, mayda do'kondorlar va ma'murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o'rtasida nufuzi avvaliga past bo'lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo'lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo'raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi. Buxorodagi Jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo'lgan qadimiylar oqimi qarshi chiqdi.

XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimiylarga bo'lingan edi. 1908 yil «Buxoroi Sharif Shirkati» tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug'ullandi. Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (Usmon Xo'ja), Hamidxo'ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov, Abdulqodir Muhiddinov, Sadridin Ayniy, Abdurahmon Sa'diy Shirkatning tashkilotchilari edi. 1909 yilda jadidlar Buxoroda «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») maxfiy jamiyatini tuzishdi (asoschilari: Abdulvohid Burhonov, Homidxo'ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammal Burhonov, Hoji Rafe). Bu jamiyat turkistonlik va buxorolik yoshlarni Istanbuldagi «Buxoro ta'limi ma'orif jamiyati» bo'limiga o'qishga jo'natdi. Xorijdagi ta'lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilish yasadi. Jadidlar Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo'lsa ham, amirlikdagi og'ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910 yildan dan boshlab Buxoroda Jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va «tarbiyai atfol» maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi.

XX asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shartsharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi.

Uning o'ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonni bosh vaziri Islomxo'ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ygan edi. Xivada jadidchilikning so'l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo'lib, qozikalon Boboovun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o'stirish maqsadini qo'yishgan edi. 1904 yil «Jamiyati xayriya» tuzilib, uning ko'magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi (1904 yil 10 noyabr). Xiva jadidlari ma'rifiy ishlar bilan kifoyalaniq qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo'lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914 yil avgustda u partiya shaklini olgan.

## **2.Jadidlarning ma'rifatparvarlik harakati va uning xalq ma'naviyatini yuksaltirishdagi roli**

1904-1905 yillardagi rus-yapon urushi, 1905-1907 yillarda bo'lgan 1-rus inqilobi, 1905-1911 yillardagi Eron inqilobi, 1908 yil Turkiyada bo'lgan Yosh turklar inqilobi jadidlar dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Jadidlar o'z gazeta va jurnallari, Yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida to'planishar edi. Ularning ko'pchiligi shu davrning ko'zga ko'ringan ijodkorlari - shoiru yozuvchilar edi. Ular o'z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyot davr voqealariga hamohang bordi. 1910 yillardayoq ma'rifat va ozodlik g'oyalari uning markaziy mavzuyiga aylandi.

Adabiyotga «millat» va «vatan» tushunchalari kirib keldi. Milliy she'rlarga rag'bat kuchaydi. Yangi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi,

publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Mirmuhsin) rivojlandi, realistik proza shakllandi. Shuning uchun ham bu davr adabiyoti O‘zbekiston mustaqilligidan keyin haqli ravishda milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti deb davrlashtirildi. Adabiyotdagi bunday uyg‘onish, ayni vaqtda, shu davr madaniy hayotida ham ro‘y berdi.

Jadidlar o‘zbek xalqi hayotiga tom ma‘nodagi milliy teatrni olib kirdi. Milliy matbaaning vujudga kelishi bilan kitob bosish ishi yo‘lga qo‘yila boshlandi. Yevropa ko‘povozli musiqa san‘ati bilan tanishgan jadidlar o‘zbek an‘anaviy musiqa uslublarini ham isloh qilishga da‘vat etishgan. 1919 yilda Toshkentning eski shahar qismi (hozirgi «Turon» kutubxonasi yonidagi bino)da jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyasining milliy (eski shahar) bo‘limi tashkil etildi. Shu tarzda jadidlar san‘at vositasi bilan millat qadrini ko‘tarish, san‘atning deyarli barcha turlarini yuksaltirishga intildilar («O‘zbekiston Respublikasi» maxsus jildining tegishli bo‘limlariga - Adabiyoti, Teatri, Musiqasiga Jadidchilikning aksar vakillari yoshlarga dastavval diniy ta‘lim bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o‘qitish masalasini kun tartibiga qo‘ydilar. Ular musulmon maktablarining ta‘lim usuli va dasturlarini isloh qilib, yangicha usuldagi maktablarni ochdilar. Maxmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, A. Burhonov, Abdulla Avloniy va boshqalar, yangi usul maktablari uchun darsliklar yozib, nashr etishgan.

Jadidchilik harakati davomida ularning o‘z matbuoti shakllandi. Jadidlar Toshkentda 1905-06 yillarda «Taraqqiy» (muharriri - Ismoil Obiliy), «Xurshid» (muharriri – Munavvarqori Abdurashidxonov), 1907-1908 yillarda «Shuhrat» (muharriri - Abdulla Avloniy), «Osiyo» (muharriri - Ahmadjon Bektemirov), «Tujjor» (muharriri - Saidkarimboy Saidazimboy o‘g‘li), Buxoroda 1912 yilda «Buxoroyi Sharif» (muharriri - Mirzo Jalol Yusufzoda), «Turon» (muharriri - G‘iyos maxsum Husayniy), Samarqandda 1913 yilda «Samarqand» (muharriri - Maxmudxo‘ja Behbudiy), Toshkentda «Sadoyi Turkiston» (muharriri - Ubaydulla Xo‘jayev), Qo‘qonda «Sadoyi Farg‘ona» (muharriri - Obidjon Mahmudov) gazetalari va Samarqandda 1913 - 15 yillarda «Oyina» (muharriri – Mahmudxo‘ja Behbudiy), Toshkentda 1915 yil «Al-isloh» (muharriri - Abdurahmon Sodiq o‘g‘li)

jurnallarini nashr qilishdi.

Shuningdek, 1917-1918 yillarda Toshkentda «Najot» (muharriri – Munavvarqori Abdurashidxonov), «Kengash» (muharrirlari - Ahmad Zakiy Validiy va Munavvarqori Abdurashidxonov), «Turon» (muharrirlari - Mustafu Afandizoda, Abdulla Avloniy), «Ulug‘ Turkiston» (muharriri - Kabir Bakirov), «Shuroy Islom» (muharriri - Abdulla Battol), «Turk so‘zi» (muharriri - Temirbek Xudoyorxonov), «Turk eli» (taxriry’ati), Samarqandda «Hurriyat» (muharrirlari - Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shomansurov, Fitrat), Qo‘qonda «Tirik so‘z» (muharriri - Obidjon Mahmudov), «El bayrog‘i» (muharriri - Bo‘lat Soliyev) gazetalari va «Kengash» (muharriri - Hamza), «Yurt» (muharriri - Ashurali Zohiriy) jurnallari chop qilindi. Matbuot millat dilidagi gaplarni o‘z sahifalariga ko‘chirish bilan kifoyalanmay, qanday ishlarni birinchi navbatda amalga oshirish masalasini o‘rtaga qo‘ydi. 1909 yilda Toshkent yosh ziyolilari tomonidan «Jamiyati xayriya» tashkil etildi. Mahalliy yoshlardan davlat mahkamalarida, sanoat, tijorat sohasida ishlaydigan mutaxassislar tayyorlash, kambag‘al musulmonlarga madaniy-ma’naviy yordam ko‘rsatish masalasi qo‘yildi. Bu millatning boshqa xalqlar ichiga singib ketmasligi yo‘lida ko‘rilgan tadbirlar edi.

Bu davrda jadidlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida ko‘rindilar. Xalq ularda o‘z himoyachilarini his etdi. Sirdaryo viloyatidan Peterburgda o‘tadigan Davlat dumasiga a‘zolikka saylangan Abduvohidqori Abduraufqoriyevga Toshkent, Chimkent va boshqa joylarning aholisidan 12 moddadan iborat talabnomani Davlat dumasiga topshirish yuklandi. Bu hujjatda ko‘pgina ijtimoiy talablar ko‘rsatilgan edi. Abduvohidqori 1907 yil 20 fevral - 3 iyunda Peterburgda Sadri Maqsudiy (1879-1957), Muso Jorilloh, Alimardon To‘pchiboshev kabi musulmon ziyolilari bilan tanishib, musulmon fraksiyasining raisi Biglovga Turkiston xalqi dardini yetkazdi. Biroq Abduvohidqori, oradan ko‘p o‘tmay, qamoqqa olindi va Tulaga surgun qilindi.

Ilmiy tarzda, jadidchilik harakati 1906-1916 yillarda o‘zining asosiy yo‘lini belgilab oldi. Jadidlarning nashrlari xalqni Yangi davr boshlangani bilan tanishtirar ekan, o‘zligini anglab, uyushishga chaqirdi. O‘lka moddiy va ma’naviy boyliklari talanayotganini oshkor qildi. Cho‘lpon she‘r va maqolalarida mustamlakachilarning



asl qiyofalarini ochib tashladi. Mashhur advokat Ubaydulla Xo'jayev oliy o'quv yurtini tashkil etish, soliqlarni tartibga solish, bolalar tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish masalasini bayon qildi. Lev Tolstoy bilan fikrlashish chog'ida mashhur yozuvchini yon berishga majbur etgan Ubaydulla Xo'jayev chor hukumati ma'murlarining poraxo'rliigi va zolimligini fosh yetib, ayrimlarini davlat ishidan chetlatishga erishdi. Musulmon aholisiga amaliy tarzda yordam berib, mavjud hokimiyat qonun-qoidalarini tushuntira bordi.

Jadid matbuoti o'z vakillarining fikrlarini e'lon qilar ekan, xalqni «har vaqt g'aflat uyqusidan uyg'otuvchi», «millat ongining ochqichi» ekanligini namoyon etish bilan birga Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda «Erk», «Turon», «O'qituvchilar jamiyati» kabi uyushmalar paydo bo'ldi. Munavvarqori Abdurashidxonov aytganidek, «Ularning butun umidi Rossiyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haq-huquqlarini Yevropaliklar bilan tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi».

Jadidlar bu davrda «Ozodlik, tenglik va adolat» shiori ostida ishladilar. Ularning 1916 yil mardikorlikka olish voqeasiga munosabati g'oyatda e'tiborga molikdir. Mardikorlikka olish - birinchi jahon urushi ketayotgan joylardagi ishlarga turkistonliklarni jalb qilish oq podshoning 1916 yil 25 iyun farmoniga muvofiq amalga oshirildi. Bu kutilmagan tadbir, birinchidan, 1865 yil shartnomasiga zid edi. Ikkinchidan, general Kuropatkin (1848-1925)ning xulosasiga qaraganda, «Aholi va ma'muriyat turar joydan tashqaridagi ishlarga mutlaqo tayyorlanmagan va bunday shoshilinch amalga oshirilgan tadbir og'ir tartibsizliklarni keltirib chiqargan». Aholi uchun ana shunday musibatli paytda jadidlarning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan Ubaydulla Xo'jayev («Turkiston mardikorlikka olish qo'mitasi» raisi) va millatparvar boy Mirkomilboy Mirmo'minboyev Rossiya jamoatchiligining e'tiborini bu masalaga jalb etish, farmonni bekor qildirish uchun Peterburgga yo'l oldilar. Davlat dumasining 1916 yil 13 va 15 dekabr kunlari o'tgan majlisida Nikolay II ning 25 iyun farmoni Rossiya imperiyasining qonunchiligida ko'rsatilgan hollarga

zid ravishda qabul qilingani tan olindi. Farmon Dumada muhokama qilingunga qadar iyun-avgust oyida jadidlar harakati orqali bir necha eshelon to'xtatib qolindi. Jadidlarning mardikorlarni qaytarishga urinishlari 1917 yil fevral inqilobi boshlanishi bilan to'la amalga oshdi. Bu hodisa el orasida ularning obro'sini ko'tardi. Mazkur holat jadidlar ma'rifatparvarlikdan siyosiy kurashga allaqachon o'tganliklarini bildirar edi.

## **2.JADIDLARNING MAORIF, MADANIYAT, ADABIYOT VA SAN'AT SOHASIDAGI ISLOHOTCHILIK FAOLIYATLARI**

Jadidlar o'z maqsad va g'oyasiga erishish uchun harakatni shu vaqtga qadar islom dunyosida qo'llanilmagan ilg'or va tezkor o'qitish - savtiya (tovush) usulidan boshladilar.

Ismoilbek Gasirpali 1893 yilda Buxoroda amirdan ruxsat olib shunday maktabni ochgach, 1898 yil Qo'qonda Salohiddin domla, 1899 yil Andijonda Shamsiddin domla, Toshkentda Mannon qori ham jadid maktabini ochdilar.

Bunday yangi usul maktablarda diniy va dunyoviy bilimlar birga o'qitiladi. Ular to'rt (boshlang'ich) va yetti yillik edi. 7 yillik maktabni bitirgan yoshlar madrasa hatto, xorijiy oliy o'quv yurtlarida o'qish, savdo va boshqa korxonalarda kotib bo'lib ishlashi mumkin edi. Chunki ular ona tili, rus tili, arab tili, diniy va dunyoviy bilimlarni bilishardi.

Tabiiyki, jadid maktablariga chor ma'muriyati qarshi edi. Nima uchun? Ular mahalliy aholi xat-savodli bo'lishini istashmas edi. Din peshvolari esa eski maktab va shariat tartibi buzilishidan cho'chib, ularni qo'llamadi.

Bunday sharoitda jadidlarga o'z maktablari uchun darslik va qo'llanmalarni ham o'zlari yozishlariga to'g'ri keldi. Bu ishda Saidrasul Saidazizov, Munavvarqori, Bexbudiy, Abdulla Avloniy kabi jadidlar alohida faollik ko'rsatdilar. Masalan, A.Avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq», Behbudiy «Qisqacha umumiy geografiya», «Rossiyaning qisqacha geografiyasi», «Islomning qisqacha tarixi» kabi darsliklarini yozdilar.

Ma'lumotlarga qaraganda 1903 yilda maktablarning soni 102 taga, xususan, Toshkentda 20 taga etgan. Oqibatda ma'muriyat 1908 yildan jadid maktablarini qattiq nazoratga olib, arzimagan bahonalar bilan yopa boshladi.

Jadidlar mavjud madrasalardan birini zamonaviy universitetga aylantirishni so'rab general-gubernatorga, Buxoro amiri, Xiva xoni va Toshkent shahar dumasiga ham murojaat qildilar.

Jadidlar o'z faoliyatlarida milliy-mahalliy matbuot va jurnalistikaga ham katta e'tibor berdilar. Ular zamonaviy gazeta-jurnallarni millat himoyasi uchun jangovar qalqon va muazzam minbar deb bildilar. Shu maqsadda Taraqqiy, Xurshid (1906), Shuhrat, Tujjor (1907), Samarqand, Oyna, Sadoi Farg'ona kabi gazeta va jurnallar chop etila boshlandi. Ammo ular nazoratda edilar.

Rossiyadagi 1917 yil fevral inqilobi natijasida chorizmning ag'darilishi jadid matbuoti uchun yanada keng yo'l ochdi. Yana Munavvarqori, A.Avloniy, Zaki Validiy, Ashurali Zoxiriy, A.Battol, Bulat Soliyev va boshqalar o'z gazeta-jurnallarini chiqara boshladilar.

### **Jadid matbuoti millatga nima berdi?**

1. O'z ahvoli, siyosiy qaram va huquqsizligini angladi; 2. Rossiya va dunyodagi voqea va hodisalardan xabardor bo'ldi; 3. Musulmonlar bilan o'zaro birlashish va hamdardlik hissi uyg'ondi; 4. O'zlikni anglash jonlandi; 5. Maqsadga erishmoq uchun o'qish, zamonaviy bilimlarni egallash zarurligini anglab yetdi; 6. Milliy muxtoriyat va jumhuriyat g'oyasini, millatlararo tenglik va qon-qardoshlikni targ'ib qilishni to'g'ri yo'lga qo'ydi.

Jadid adabiyoti o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra mumtoz (klassik) adabiyotdan katta farq qildi. Bu quyidagi holatlarda ko'rindi:

Mumtoz adabiyotda diniy jihat ustun bo'lgan bo'lsa, jadid adabiyotida o'zaro tenglik, diniy-dunyoviyilik qaror topdi.

Ilgari bo'lmagan roman, drama, esse, hikoya, proza va publisistika paydo bo'ldi.

U ijtimoiy-siyosiy va ma'rifatchilik mafkurasi bo'ldi. Jonli xalq tilida yozildi. Milliy ruhning eng muhim xususiyatiga aylandi.

Qahramonlar qiyofasi o'zgardi. Endi ular an'anaviy oshiq yoki

ma'rifatirarvargina emas, balki mavjud tuzumga qarshi kurashchi bo'lib qoldi.

1905-1917 yillarda 80 dan ortiq jadid adabiyoti namoyandalari ayni shu yo'lda qalam tebratdilar. Bundan tashqari jadidlar drama, tragediya, komediya janrlarida ham 30 dan ortiq asar yozishgan. Ularning ko'pchiligi sahnalashtirilgan. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi va boshqalar.

Shuni aytish kerakki, jadidlar xalq orasidan chiqdi va unga tayandi. Aks holda ular bunchalik hurmat va obro'ga erisha olmasdi. Jadidlarni millati va xalqini o'ylagan, vatani ozodligini o'ylagan Saidkarim Saidazimboy o'g'li, Saidnosir Mirjalilov, Mirkomil Mirmuminboyev kabi dunyo ko'rgan, ilg'or ruhdagi boy va savdogarlar quvvatlab turgan. Shuningdek, jadidlar millat va vatani kelajagini o'yilab turli xayriya jamg'armalari tashkil yetib, to'plangan mablag'larni maktablarga yordam berish, kutubxonalar ochish, yoshlarni xorijga o'qishga yuborish kabi ishlarga sarflangan. Masalan, «Ko'mak» va «Tarbiya atfol» xayriya jamg'armalari yordamida 1911 yilda 15 ta, 1912 yilda 30 ta Turkistonlik iqtidorli yoshlar Istambulda o'qishgan.

Farg'ona va Toshkentdagi voqealar yakuni jadidlarning umidlarini so'ndira olmadi. Ular Buxoro respublikasi rahbarlari bilan bir yoqadan bosh chiqarib, ish boshladilar. Buxoroda Jadid taraqqiyparvarlar firqasi tuzildi. Bu firqa dasturiga ko'ra, davlatni jumhuriyat raisi (prezident) va parlament boshqarishi ko'zda tutilgan edi.

1921 yil 25 avgustda Buxoroda Validiy boshchiligida Turkiston milliy birligi tashkiloti tuzildi. U istiqloqlilik harakatini jipslashtirishda muhim rol o'ynaydi. Turkiston milliy birligi tashkiloti bilan Munavvarqori rahbarligidagi «Milliy ittihad» (1919 yil tuzilgan) tashkiloti o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatdi. Har ikki tashkilotning asosiy maqsadi Buxoro respublikasi, umuman, Turkiston mintaqasini sovetlashtirish va ruslashtirish ta'siridan saqlab qolish, Turkistonning mustaqilligiga erishish bo'lgan. 1925 yil «Milliy ittihad» tashkiloti asosida «Milliy istiqloql» tashkiloti tuziladi.

Jadidchilik harakatining so'nggi yillari faol siyosiy kurashlar bilan ajralib turmaydi. Bu davrda sovet rejimi turli siyosiy ishlar («O'n sakkizlar guruhi», «Inog'omovchilik», «Qosimovchilik», «Badriddinovchilik» va boshqalar) tuzib,

milliy ziyolilarni ommaviy ravishda qatag'on qilishga kirishdi. 1929 yil noyabda Munavvarqori boshchiligidagi 38 kishining qamoqqa olinishi (keyinchalik ularning soni 87 kishiga etgan) bilan jadidchilik harakatiga kuchli zarba berildi. Biroq istiqlol g'oyasi o'z kuchida qolaverdi.

Jadidchilik harakati siyosiy ma'rifatparvarlikdan jadid taraqqiyparvarlar firqasi darajasiga ko'tarila oldi. Bu harakat hamda firqa a'zolari o'z faoliyati va dasturiga ko'ra, sho'ro adabiyotlarida aytilganidek, «bir hovuch boylar manfaatiga xizmat qiluvchi liberal burjuaziya vakillari» emas, balki Turkistonning barcha xalqlari taqdirini o'ylab ish ko'rgan demokratik jarayonning eng savodli, olijanob namoyandalari edi.

### **3. MUSTAMLAKACHILARNING MA'NAVIY SOHADAGI OLIB BORGAN SIYOSATI VA UNING SALBIY OQIBATLARI**

Turkistonda sovet hokimiyati zo'ravonlik yo'li bilan o'rnatilgach, jadidlarning bir qismi faol siyosiy hayotdan chetlashib, faqat badiiy ijod bilan shug'ullandi (A.Burxonov, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy va boshqalar). Ayrim jadidlar sovet idoralari madaniy-ma'rifiy shoxobchalarida mehnat qilishdi (Ubaydulla Xo'jayev, Munavvarqori, Hamza, S.Tursunxo'jayev, T.Norbo'tabekov va boshqalar). Ba'zi jadidlar «mahalliy kommunistlar» sifatida yuqori davlat va hukumat lavozimlarida ishlashni davom ettirdi (Fayzulla Xo'jayev, Abdulqodir Muhiddinov, Nizomiddin Xo'jayev va boshqalar). Ayrim jadidlar bo'lsa, Turkistondagi istiqlolchilik harakati saflariga borib qo'shildi va xorijga muhojirlikka jo'nab ketdi (Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Sadriddinxon Sharifxo'jayev, Abdulhamid Oripov va h. k.).

Jadidchilik harakatining barcha taniqli namoyandalari (Sadriddin Ayniydan tashqari) 30-yillarda sovet mustabid rejimi tomonidan amalga oshirilgan qirg'in natijasida halok bo'ldi. Jadidchilik harakatiga sovet davrida «millatchilik», panturkizm, panislamizm tamg'alari bosilib, nohaq qoralandi. Jadid adabiyotini o'qish taqiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jadidchilik harakati va uning

namoyondalari nomiga qo'yilgan tavqi la'nat va soxta yorliqlar olib tashlanib, ularning asl nomlari qayta tiklandi. Tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, faylasuf, huquqshunos, san'atshunos va pedagog olimlar jadidlarning boy ilmiy va adabiy merosini o'rganishda dastlabki natijalarni qo'lga kiritishdi. Mustaqillik yillarida Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniyning 2 jildli, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Sidqiy Xondayliqiy, Ibrat, Ajziy, So'fizodaning 1 jildli, shuningdek, Fayzulla Xo'jayev, Munavvarqori, Po'lat Yusupovning asarlari chop qilindi. Jadidlarning 20 ta mashhur vakili kiritilgan «Unutilmas siymolar. Jadidchilik harakatining namoyandalari» (Toshkent, 1999) albom-kitobi nashrdan chiqdi. Ularning serqirra faoliyati darslik va qo'llanmalarga kiritildi. 1999 yil 16-18 sentyabrda Toshkentda «Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (Jadidchilik, Muxtoriyatchilik, Istiqlolchilik)» mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazilib, unda AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Turkiya, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan nufuzli olimlar jadidchilik va istiqbolchilik harakatlari to'g'risida jahon ilm-fanida to'plangan so'nggi xulosalar yuzasidan o'zbekistonlik hamkasblari bilan o'zaro fikr almashdilar. Jadidchilik harakati jahonshumul ahamiyatga molik hodisa ekanligi e'tirof qilindi. Konferensiyada ushbu muammoni tadqiq qiluvchi xalqaro ilmiy kengash tuzildi.

#### **4. MUSTAMLAKACHILIK VA QARAMLIK SHAROITIDA O'ZBEK XALQINING MILLIY VA DINIY QADRIYATLARINING BUZILISHI**

Dunyoviylik va diniylik o'rtasidagi nisbat masalasi insoniyat tarixining barcha davrlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Boshqacha aytganda, inson hayoti mazmunini tashkil qiluvchi ushbu ikki tarkibiy qism o'rtasida murosaga erishish har qanday jamiyatning mavjud holati va istiqbolini belgilovchi bosh mezon bo'lib kelgan.

Ba'zan ushbu ikki omil o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, mamlakatlarni to's-to'polonlar va jaholat girdobiga tortgan. O'rta asrlar Yevropasida amal qilgan, vahshiyona jazolar va qiynoqlarning timsoliga aylangan inkvizitsiya davri bunga

misol bo'la oladi. Ibn Rushdning g'oyalarini rivojlantirgani uchun jazoga hukm etilgan Siger Brabantskiyning taqdiri, sog'lom ilmiy qarashlari tufayli jabr ko'rgan Jordano Bruno, Nikolay Kopernik, Nikolay Kuzanskiy va boshqa mutafakkirlarning qismati esa jamiyat hayotida diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi sog'lom muvozanatning shakllanishi yo'lidagi qiyinchiliklarga misoldir. Ushbu jarayonning fojiali ko'rinishlari musulmon Sharqi hayotida ham sodir bo'ldi. Buyuk mutasavvif alloma Abu Mansur al-Halloj xudoning mohiyatini idrok etish yo'llari haqidagi ortodoksal aqidalarga zid qarashlari uchun o'tda yoqildi.

Dunyoviylik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ehtiyojlari hamisha hamohanglik kasb yetib kelgan. Ya'ni dunyoviylik qotib qolgan dogma emas, aksincha, u muntazam ravishda takomillashib boruvchi hodisadir. Zamonaviy ilmiy tilda aytganda, dunyoviylik modernizatsiya deb nomlanuvchi jarayonning harakatlantiruvchi kuchidir. U jamiyat ilmiy salohiyatining uzluksiz oshib borishi, texnologik taraqqiyotning davomiyligi, iqtisodiy hayotning ratsionallashuvi, madaniyatning yuksalib borishi kabi muhim jarayonlar bilan uyg'un ravishda takomillashib boradi.

Dunyoviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan har qanday mamlakatda din va davlat o'rtasidagi munosabatlarning muhim qirrasini din va siyosat orasidagi aloqalar tashkil etadi. Oxirgi paytlarda islomning siyosat bilan, boshqacha aytganda, islomning davlat bilan munosabatlari masalasi jiddiy tashvishlarga sabab bo'lmoqda. Aholisining ko'pchiligini musulmonlar tashkil etuvchi ayrim mamlakatlarning oxirgi o'n yilliklardagi tajribasi "islom – olamshumul dinlar orasidagi eng siyosiy lashgan dindir" deya da'vo qilayotgan olimlar va siyosatchilarning fikrini tasdiqlayotgandek ko'rinadi. Ayrim mutaxassislar, hatto "islom – siyosiy hayotning eng asosiy omillaridan biridir, uni – siyosatdan, siyosatni esa, undan ajratib bo'lmaydi", deya xulosa qilmoqdalar.

Bugun hatto, "jamiyatning diniy xavfsizligi" degan tushuncha paydo bo'ldi. Chunki oxirgi yarim asr davomida diniy omilning ta'siri tufayli ayrim mamlakatlarning milliy xavfsizligiga putur yetgani haqiqat. Masalan, Ol'styerda katoliklar va protestantlar o'rtasida vaqti-vaqti bilan xunrezlik va

to'polonlarni keltirib chiqarayotgan ziddiyatlar Buyuk Britaniyaning umummilliy xavfsizligiga putur yetkazayotgan xatarli omillardan biriga aylanganini inkor yetib bo'lmaydi.

XX asrning o'rtalaridan faollasha boshlagan radikal diniy oqimlar 1970 yillarda Misr Arab Respublikasining siyosiy tizimiga, demakki, uning milliy xavfsizligiga nisbatan jiddiy xatarga aylangani ham yuqoridagi mulohazaning o'rinli ekanini ko'rsatadi.

Jazoirdagi voqealar tufayli esa XX asrning 80-yillari oxiriga kelib, jamiyat siyosiy-mafkuraviy va diniy-ma'naviy asosda ikkiga bo'linib ketdi. 1992 yildagi parlament saylovlarida ushbu vaziyatdan foydalangan siyosiylashgan radikal diniy doiralar ko'pchilik o'rinlarni qo'lga kiritdi. Ular shariat talablariga mos ravishda mamlakat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini tubdan o'zgartirish talabini olg'a surdilar. Bu jamiyatdagi bo'linishni yanada chuqurlashtirdi, davlat va jamiyat qurilishida dunyoviylik va islomga suyangan diniylik o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib keldi. Oxir-oqibatda esa, o'tkazilgan saylovlar yakuni bekor qilindi. Buning natijasida yuzaga kelgan keskin ichki ijtimoiy-siyosiy va diniy-mafkuraviy ziddiyatlar qariyb 7 yil davom etgan qonli to'qnashuvlarni keltirib chiqardi. Mutaxassislarning fikricha, ularda kamida 30 ming kishi qurbon bo'ldi, siyosiylashgan diniy omil esa, umummilliy barqarorlik va xavfsizlikning haqiqiy dushmaniga aylandi. Bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Musulmon dunyosida faoliyat ko'rsatayotgan diniy-siyosiy guruhlar va partiyalar nisbatan yaqinda mustaqillikka erishgan, aholisining ko'pchiligini musulmonlar tashkil etadigan mintaqamiz mamlakatlarini ham o'z ta'sir doirasiga tortishga faol intilmoqda. "Hizb at-tahrir al-islomiy"ning oxirgi 10-15 yil davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekistondagi faoliyati ham buning isboti bo'la oladi. Bunday tashkilotlar oddiy fuqarolarning diniy his-tuyg'ulari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning bir shaklidan ikkinchisiga o'tish davrida yuzaga chiqadigan obyektiv qiyinchiliklar, konfessiyalararo munosabatlarning nozik jihatlaridan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanishga intilmoqda. Bunday intilishlarning oldini olish deyarli barcha musulmon jamiyatlari uchun alohida



dolzarblik kasb etmoqda. Zero, ba'zi hollarda diniy ongning radikallashuvi va siyosiylashuvi, diniy ekstremizmdan terrorizmga o'tib ketish jarayonlarining tezlashuvidek milliy xavfsizlik uchun o'ta xatarli omillar kuzatilmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining mustaqillik yillaridagi taraqqiyot tajribasi musulmon jamiyatlarida milliy o'zlikni anglash va islomiy uyg'onish jarayonlari bir-biri bilan aloqador tarzda, hatto bir-biriga kirishib ketgan holda kechadi, degan xulosaning to'g'riligini tasdiqlamoqda. Darhaqiqat, milliy o'zlikni anglash bilan bog'liq turfa jarayonlarni diniy qadriyatlardan ayri holda tasavvur etish amrimahol. Bizning jamiyatimiz uchun ham tabiiy bo'lgan ushbu xususiyat, o'zining o'ta nozikligi barobarida xatarliligi bilan ham ajralib turadi. Mazkur ikki tushunchani bir deb qabul qilish, ularning o'zaro nisbatini baholashda xato qilish – dinning siyosiylashuviga yo'l ochib beradi. Shuni unutmaslik lozimki, ayrim hollarda, jamiyatdagi muayyan kuchlar o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishish uchun ongli tarzda aynan shunday qiladilar.

#### **Xulosa qilib aytganda, jadidlar:**

Birinchiidan, Turkiston xalqlarini uyg'otishda, ularni ozodlik va mustaqillik ruhida tarbiyalashda katta ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirdilar.

Ikkinchiidan, XIX asr oxiri-XX asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan jadidlar o'z harakatlari bilan bugungi milliy istiqloq g'oyasini shakllanishiga muhim hissa qo'shdilar.

Uchinchiidan, Xalq milliy-ozodlik harakatiga g'oyaviy-mafkuraviy va tashkiliy rahbarlik qildi o'lkada ta'sirchan ijtimoiy - siyosiy kuchga ayilandi.

#### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. »Jadid« so'zining ma'nosi nima?
2. Jadidchilik harakatining paydo bo'lish sabablarini tushuntiring.
3. Jadidchilik harakatining namoyondalaridan kimlarni va ularning qanday asarlarini bilasiz?
4. Mahmudxo'ja Behbudiy kim bo'lgan?
5. Munavvarqori faoliyatini izohlab bering.
6. Abdulla Avloniy haqida nima bilasiz?

7. Ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgan qanday shoir va yozuvchilarni hamda ularning qaysi asarlarini bilasiz?

8. Jadidchilik harakati namoyandalarining tarixiy taqdirlari haqida nimalarni bilasiz?

9. Mustaqillik va jadidchilik harakatiga munosabatdagi o'zgarishlarni tushuntirib bering.

## TARQATMA MATERIALLAR:

### 1-ilova

### «Jadid» so'zining ma'nosi

«Jadid» arabcha so'z bo'lib, «yangi» degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun ham yangilik va islohotchilikka intiluvchi, yangilik yaratuvchi faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan taraqqiyparvar, ilg'or ruhdagi milliy ziyolilar tarixda «jadid» degan nomga musharraf bo'ldilar. Ularning harakati esa jadidchilik deb nomlandi. Bu harakatning paydo bo'lishi bevosita o'sha davrdagi ichki muhit hamda tashqi xalqaro maydondagi ijtimoiy-siyosiy va demokratik yangilanishlar bilan bog'liq bo'ldi.

### 2-ilova

### Ismoil Gaspirali



- I.Gaspirali 1884-yilda o'n ikkita bolani yangicha usul – «usuli jadid» - savtiya (tovush) usuli bilan o'qitib, qirq kunda savodini chiqaradi. Ular o'qish va yozishni mukammal o'zlashtira boshladilar. U 1892 yilda Turkiston general-gubernatori L.V.Vrovskiyga maxsus maktub yo'llab, unda maktablarni isloh qilish, jadid maktablarini tashkil etish madrasalardan birini zamonaviy - dunyoviy oliy o'quv yurtga moslab isloh qilishni taklif etadi. Ammo bu takliflar amalga oshmaydi. Shundan so'ng Ismoilbek Gaspirali 1893 yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo'ladi. U erdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi va bu maktabga «Muzaffariya» degan nomni beradi. Jadidchilik harakati, shu vaqtgacha islom dunyosida sira ham ko'rinmagan ilg'or va tezkor o'qitish «Savtiya» (tovush) usuliga asoslangan jadid maktablarni tashkil topishidan boshlandi.

### 3-ilova

#### Mahmudxo‘ja Behbudiy



- XX asr boshlarida Turkiston jadidchiligiga asos solgan va Turkiston jadidlarining «otasi» deb nom olgan Mahmudxo‘ja Behbudiy singari favkulodda iste‘dod sohiblarining hayoti va ijodini o‘rganishning alohida ahamiyat kasb etganligi.
- Behbudiyning dramaturg, pedagog, publitsist, yirik olim va jamoat arbobi sifatida maydonga chikishi va xalqni ma‘rifat orqali milliy uyg‘onishga da‘vat etishi. Behbudiyning Istanbul, Misr, Moskva, Peterburg, Kozon, Orenburg shaharlarida bo‘lib, u erdagi maorif va matbuot sohasidagi yangiliklarni o‘rganish va o‘zining ham dunyoviy ilmlarini o‘qitishga asoslangan yangi usuldagi maktablar ochib, mazkur maktablarga muo‘ljallab yangi darsliklar yaratishi. O‘lkada jadidchilik-ma‘rifatchilik harakatining keng yoyilishida Behbudiyning xizmatlari. Behbudiyning jurnalistik faoliyati, publitsistikasi. Behbudiyning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma‘rifiy sohadagi ilg‘or qarashlari bilan zamondoshlaridan ilgarilab ketganligi. Behbudiyning mustabid tuzum tomonidan qatl etilishi.

### 4-ilova

#### Munavvar qori Abdurashidxonov

- Turkistondagi ushbu davr siyosiy–huquqiy fikrlarni yanada rivojlanishi bevosita Munavvar qori Abdurashidxonov nomi bilan bog‘liqdir. Turkistonda ilm- fanni, ma‘rifatni, madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha, jamiyatni isloh qilish to‘g‘risida o‘z ilg‘or fikr va mulohazalarini ilgari surgan adiblardan biri Munavvar qori Abdurashidxonov bo‘lib, u 1878 yilda Toshkent shahar Shayx Xovandi Tahir daha Darxon mahallasida tug‘ilgan. Ota – onasi ilmi, ziyoli bo‘lishgan. 1898 yilda Buxoroda hadis, fikh, ilmi tafsir bo‘yicha o‘qishni davom ettirgan.
- Munavvar qori siyosiy-huquqiy qarashlarining shakllanishiga ushbu davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot, shu bilan bir qatorda Turkiya, Misrdan kelgan xorijiy tashviqotchilarning fikrlari ta‘sir etgan. Uning fikricha, jamiyatda yangi usuldagi maktablarni ochish, xalqni ma‘rifatli qilish, bu uchun esa dastur va darsliklar yaratish birinchi galdagi vazifa bo‘lib, bu vazifani kechiktirmaslik zarur masala edi. O‘zi ham 1901 yildan boshlab ilk maktab ocha boshlagan. Xalq dorilfununi ochish ishlari bilan shug‘ullangan.



### 5-ilova



#### Abdurauf Abduraxim o‘g‘li

##### Fitrat

- Abdurauf Abduraxim o‘g‘li Fitrat 1886 yili Buxoro shahrida tug‘iladi. «Fitrat» Abduraufning adabiy taxallusi bo‘lib, bu so‘z tug‘ma tabiat, tug‘ma iste‘dod degan ma‘noni anglatadi. Uning otasi o‘zbek, onasi tojik bo‘lgan. Fitratning otasi savdogarchilik bilan shug‘ullangan, dindor, o‘qimishli shaxs bo‘lib, olam keizishni, tijoratni yaxshi ko‘rgan.
- Buxoroda jadidlar «Yosh buxoroliklar» nomi bilan ish olib bordi. Fitrat mana shu harakatning rahbarlaridan biri edi. Yosh buxoroliklar o‘z faoliyatlarini boshlarida (birinchi yashirin jamiyat Buxoroda 1908 yilda tuzilgan) yangi usuldagi maktablar ochib, ularda boy hamda kambag‘allarning bolalarini o‘qitdilar.
- Sud Fitratni 1938 yil 5 oktyabrda otishga hukm qiladi. Bu hukm bir kun oldin ijro etiladi.

## Abdulla Avloniy

- Taniqli o'zbek pedagogi va olimi Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkent shahning Mergancha mahallasida, mayda hunamand-to'quvchi oilasida dunyoga keldi. Ota-onasi savodli kishilar bo'lganlar. Abdulla Avloniy eski usul maktabini tamomlagandan so'ng 12 yoshida madrasaga o'qishga kirdi. U yozda ishlab ota-onasiga yordam qilar, boshqa vaqtlarda o'qir edi.
- Abdulla Avloniy 1917 yil to'ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jaddidlar harakatining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan edi. A.Avloniy ilg'or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag'larga dunyoviy ilmlarni o'qitadigan "Usuli jaddid", ya'ni yangicha ilg'or usuldagi o'quv muassasalari ochdilar va bu o'quv muassasalarda oddiy xalq bolalarini o'qitdilar.



## 7-ilova

## Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon

- Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1897-yili Andijon shahrining Qatorterak mahallasida dunyoga keladi. U gazmol savdosi bilan shug'ullanibgina qolmay, ayni paytda qalam tebratib, Rasvo taxallusi ostida xajviy she'rlar ham yozgan. Misr, Xindiston kabi olis mamlakatlar, Rossiyaning Ufa, Kozon kabi shaxarlarida nashr etilgan gazetalarini obuna yo'li bilan olib turgan. Ana shunday oilada tug'ilgan Cho'lponning madrasa bilan birga rus-tuzem maktabida ham tahsil ko'rish va yoshlik chog'laridanoq badiiy ijodga xavvas qo'yishi tabiiydir.
- Milliy uyg'onish xarakatining boshqa namoyondalari singari, Cho'lpon xam 1917-yil fevral inqilobidan keyin Turkiston xalqlarining mustaqilligi uchun kurash ishiga butun vujudi bilan kirishdi.
- Cho'lpon - serqirra faoliyat sohibi. U 20-yillarning boshlaridanoq badiiy ijod bilan birga jurnalistika va teatr ishlari bilan xam faol shug'ullana boshladi.
- Cho'lpon xayoti 20-yillarning o'rtalaridan boshlab mustabid tuzumning doimiy tazyiqi ostida kechdi. Uning ko'plab asarlari o'z vaqtida e'lon qilinmadi. U 1937-yil 14-iyulda millatchi va aksilinqilobchi sifatida qamoqqa olinib, 1938-yil 4-oktyabrda Toshkentning YUnusobod tumanidagi qatlgoxlarning birida otib tashlandi.



## ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Otamurotov S., Ramatov J., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – Toshkent, 2002.
2. Imomnazarov M., Saidov M. Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Akademiya" 2005.
3. Sharipov R., Muxiddinova F. «O'zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy

ta`limotlari tarixi». – Toshkent, 2004.

4. Rahmonov R. G`ofurov Z. “Mustaqillik va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi”. - Toshkent: “O`zbekiston”, 1999.

5. Boboev X.B. taxriri ostida «Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi». - Toshkent, 2003.

6. Toshqulov J. O`zbekiston xalqlari siyosiy-xuquqiy fikrlari tarixidan. – Toshkent, 1996.

7. Umarov E., Abdullayev M. Ma`naviyat asoslari. O`quv qo`llanma. - Toshkent: Cho`lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2006.

8. Milliy ma`naviyatimiz asoslari. O`quv qo`llanma. “O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. – Toshkent, 2006.

9. Sadulla Otamuratov. Sarvar Otamuratov. O`zbekistonda ma`naviy-ruhiy tiklanish. O`quv qo`llanma. - Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2003

10. Hamdamova M. Ma`naviyat asoslari. O`quv qo`llanma. “Fan va texnologiya” nashriyoti. – Toshkent, 2008

7. Abdurahmonov M., Otamurotov S., Ma`naviy salohiyat. O`quv qo`llanma. - Toshkent: Universitet, 2009.

8. Mo`minov A., Yo`ldoshxo`jayev. “Dinshunoslik” O`quv qo`llanma. – Toshkent, 2014.

9. A. Erkayev “Ma`naviyatshunoslik”. I-jild Ma`naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi Monografiya. - Toshkent: “Ma`naviyat”. 2018

10. A. Erkayev “Ma`naviyatshunoslik”. II-jild Ma`naviyat metodologiyasi va praksiologiyasi. Monografiya. - Toshkent: “Ma`naviyat”. 2018

11. Quranboyev Q., Abdurahmonov M. Islom Karimovning “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch” asarini o`qitish bo`yicha o`quv-uslubiy qo`llanma. - Toshkent, 2010.

#### **Qo`shimcha adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. – Toshkent: “O`zbekiston” NMIU, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng

oliy bahodir. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018.

3. Karimov I.A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida Asarlar, 6-jild – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1998

4. O‘zbekiston Respublikasining “Terorizmga qarshi kurash to‘grisida” qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Axborotnomasi, 2001 yil, 1-2-son, 15-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004 yil, 25-son, 287-m)

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil 6-son 70-modda)

6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

7. Aliyev A. Istiqlol va adabiy meros. - Toshkent: O‘zbekiston, 1997.

8. Otamurotov S., Abdurahmonov M., Rizaev Sh. O‘zbekistonda ma’naviyat sohasidagi islohotlar: rivojlanish bosqichlari, erishilgan natijalar va istiqboli. - Toshkent: Akademiya, 2010.

9. Maxmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlari asosida. – Toshkent: Sharq Nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2001.

10. Ergashev F., Ergashev I. Fidoiylik – hayot mazmuni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.

11. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.

12. Choriev A. Inson falsafasi. II. Mustaqil shaxs. - Toshkent: Chinor ENK. 2002.

13. Erkaev A.P. Ma’naviyat millat nishoni. – Toshkent, 1997.

14. Eshonqulov A. Ma’naviyat tarbiyasi//Muloqot, 1997. №1.

15. Mahmudov T. Nafosat va ma’naviy qadriyatlar. – Toshkent, 2001.

16. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari. – Toshkent, 1997.

17. Ziyoev X. Istiqlol-ma’naviyat negizi. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.

18. Qahharova Sh. Global ma’naviya t- globallashuvning g‘oyaviy asosi. –

Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2009.

19. Otamuratov S. Globallashuv va millat. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008 .

#### **Axborot manbalari:**

1. «Xalq so‘zi» gazetasi –www info XS. Uz.
2. «Turkiston» gazetasi - www turkiston sarkor. uz.
3. «Ma’rifat» jurnali - www ma’rifat – inform.
4. «Jamiyat va boshqaruv» jurnali - www rzult academy freenet uz.
5. «Moziydan sado» jurnali - www moziy dostlink. Net
6. www.mfa.uz.
7. www.press-servise.uz.
8. www.literature.uz
9. www.Ziyonetuz..
10. www.pedagog.uz
11. www.edu.uz

#### **4-MAVZU: OILA - JAMIYAT-MA’NAVIYAT SHAXS MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA VOSITALARI**

##### **Reja:**

1. Inson ma’naviyatining shakllanishida oilaning o‘rni
2. Oilaviy burch – muhim axloqiy-ma’naviy qadriyat
3. Shaxs ma’naviyatini shakllantirishda ota-ona mas’uliyati
4. Yangi O‘zbekistonda ayollarga e’tibor va bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar

*Tayanch atamalar:* oila, mafkura, ma’naviyat, axloq, madaniyat, yoshlar, tarbiya, sog‘lom avlod, davlat, dastur, qarindoshlik, etika, estetika, tinchlik, xotirjamlik, komil, inson, sog‘lom muhit, mustaqillik, milliylik, urf-odatlar, ota-ona - aziz va mo`tabar zot; ota-ona farzandning suyanchig‘i, bitmas-tuganmas boyligi, ma’naviy dunyoni boyitish.

## **1.Inson ma'naviyatining shakllanishida oilaning o'rni**

Oila - ijtimoiy, tabiiy omillar asosida shakllangan kichik jamoa sifatida ikki jinsga mansub bo'lgan shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning birga hayot qurib nasl qoldirish, faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki ularni ma'naviy va jismoniy kamol topdirib, hayotga mustaqil qadam qo'yishiga sharoit yaratishdir.

Inson qadrini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom ko'rsatish, mo'tabar onalarni e'zozlash, opa-singillarni qadrlash orqali ro'yobga chiqishi shubhasiz. Konstitutsiyamizning 46-moddasida «xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqli» deb belgilanganligi mamlakatimizda gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirish borasidagi tizimli islohotlar uchun huquqiy asosdir. Xususan, 2022 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining: «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni; «Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori; «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi.

Hammamizga ma'lumki, BMT Bosh Assambleyasining 1993 yil 15 maydagi rezolyusiyasiga asosan ushbu kun butunjahon oila kuni (International Day of Families) deb e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyun kunidagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qaroriga asosan "15 may - Xalqaro oila kuni" sifatida keng nishonlanib kelinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev aytganlaridek: «Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk xayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan mezon va qarashlari yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir».



Oila asli arabcha soʻz boʻlib, “ayolmand, niyozmand”, “er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tugʻishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon” degan maʼnoni anglatadi.

Professor O.Musulmonova taʼkidlaganidek: “Oilaning asosi er-xotin yohud ota-onadir. Modomiki, er-xotin oilaning tamal toshlarini mustahkam bunyod etishga masʼul ekanlar, ular unda uchraydigan turmush qiyinchiliklari, hayot quvonchlari-yu, tashvishlarini boshdan kechirishda, oilani idora etishda, farzand tarbiyasida masʼuldirlar”<sup>61</sup>.

Oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning oʻzi yohud bir ayolning oʻzi oila boʻla olmaydi. Qolaversa, oila faqat er va xotindagina iborat emas. Oila eru xotindan tashqari erning ota-onasi, yaʼni qaynota va qaynona, farzandlar, uka singillardan iborat koʻp boʻgʻinli xonadon. Uning har bir aʼzosi oʻz mavqeiga ega, shu oilaning ichki intizomiga boʻysunib yashaydi. Shu maʼnoda oila jamiyat ichidagi jamiyatdir. Bu jamiyatning oʻz saltanati bor: bunda minglab tasodiflar jarayonida er-xotin muhabbati sinovdan oʻtadi, shu sinov jarayonida ular bir-birini chuqurroq tushunadilar, bir-birlarini qadrlashni oʻrniga quyadigan boʻladi, bir-birlariga kechirimli boʻlishadi, er-otaga, xotin-onaga aylanadi, farzandlarini tarbiyalab, orzu-havas koʻradi. Shu maʼnoda oila inson hayotiga toʻkislik baxsh etadi, jamiyatning muqaddas maskani sifatida sadoqat sarchashmasiga aylanadi.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini taʼminlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni maʼnaviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng goʻzal moʻjizalaridan biri boʻlib, u insonlarga xos “tabiiy-biologik”, iqtisodiy, huquqiy, maʼnaviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir.

Oʻzbek xalqi uchun oila eng muqaddas dargohdir. Yurtboshimiz taʼbiri bilan aytganda: “Bunda oʻzaro hurmat va qattiq tartib boʻlmasa, oilaning barcha aʼzolari oʻz burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat koʻrsatmasa yaxshi munosib tarzda yashash mumkin emas... Oʻzbeklarning aksariyati oʻzining

---

<sup>61</sup> Oynisa Musurmonova. Oila maʼnaviyati-milliy gʻurur. – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 2000, 60-bet.

shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘shnilarining eson-omonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajada ma‘naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, oiladagi mehr-oqibat, ota-bola, aka-ukalar, opa-singillar, qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi munosabat yosh avlodning komil inson bo‘lib yetishishiga, hayotda o‘z qarashiga ega bo‘lishida katta ahamiyatga egadir.

Oliy Majlisning XI sessiyasida qabul qilingan “Oila Kodeksi” esa oilalarning mustahkamligini ta‘minlashda, ularning huquqiy manfaatlarini muhofaza etishda huquqiy kafolat bo‘lib hisoblanadi.

Huquqiy jihatdan kafolatlangan oila o‘z burchlarini ham unutmashligi lozim. Shulardan eng asosiysi, oilani yaxshi oila qilib ko‘rsatuvchi fazilatlardan biri - farzandlarni oila qurishga tayyorlashdir. Darhaqiqat, mamlakatimizda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash – oilalarning mustahkamligini ta‘minlashning muhim shartidir. Shu boisdan ham “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da xuddi mana shunday masalaga alohida e‘tibor berilgan, ya‘ni:

- oila-oilaviy an‘analarni hamda ma‘naviy-axloqiy merosni saqlab qoluvchi, davom ettiruvchi;

- jamiyatning eng kichik bir qismi bo‘lib, bolaning madaniy, estetik va boshqa ehtiyojlari o‘shishini va sog‘lom turmush tarzini ta‘minlovchi;

- bolaning fe‘l-atvori asoslarini shakllantiruvchi birinchi murabbiy;

- hayotning barcha jabhalarida yosh avlodning doimo maslahatchisi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchisidir, deyiladi.

Demak, oila poydevorining mustahkamligi – jamiyat poydevori va binosini puxta qilib qurishni ta‘minlashning asosiy shartidir, uning moddiy va ma‘naviy barkamolligi esa davlat va jamiyat farovonligining negizidir.

Mamlakatimiz mustaqilligidan so‘ng oila farovonligini ta‘minlash hukumatimiz faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridn biriga aylandi. Buning uchun oilaning mustahkamligi, farovonligi va barqarorligini ta‘minlash bilan bog‘lq barcha

masalalarni o'zida mujassam etgan quyidagi yo'nalishlarda muhim ishlar amalga oshirilmoqda:

- oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, oila manfaatlarini huquqiy himoya qilishni ta'minlash, onalik va bolalik huquqlarini muhofaza qilish;

- oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oila a'zolarining sog'ligini muhofaza qilish va bilim darajasini oshirish uchun imkoniyatlarni yaxshilash;

- oilaning iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaning daromadlarini, oila a'zolarining ish bilan ta'minlash darajasini oshirish, ro'zg'or yumushi va turmush sharoitlarini yaxshilash. Kam ta'minlangan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

- oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini va madaniy manfaatlarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- oilaning sog'lom, aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning vazifalarini takomillashtirish;

- oila muammolarini ilmiy va ijtimoiy tadqiq etish, oila, xotin-qizlar va bolalarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini ko'rsatuvchi statistika hisobotini to'plash va takomillashtirishdan iborat.

Har bir oila uzoq tarixga va chuqur ildizga ega bo'lgan tarixiy-ijtimoiy hodisa sifatida kishilik jamiyati taraqqiyotida o'ziga xos betakror xususiyatlari bilan uning rivojlanishida muhim rol o'ynab kelmoqda.

Hozirgi zamon o'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat bo'lishi kerak? U uzoq o'tmish oilalardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

Oila jamiyat, tabiat qonun-qoidalari asosida barpo etilsa va yashasa-da, oiladagi er-xotin, ota-ona farzandlar, qaynona-qaynota, qayin uka va singillar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, oila an'analari va qadriyatlar borasida mustaqil makon bo'lib qolaveradi. Lekin u yoki bu tuzum, davlat yoki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy mafkuraviy, ma'naviy-axloqiy boradagi ustuvor g'oyalari va munosabatlarga

bilvosita yoki bevosita ijobiy yoki salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi.

Oilaning o'ziga xos qator vazifalari mavjud bo'lib, uning asosiy vazifalaridan biri – reproduktivlikdir, ya'ni farzand ko'rish, avlodlar daomiyligini, yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlashdan iboratdir. Xalqimiz "Bolalik uy bozor, bolasiz uy mozor" deganlaridek, bolalik uyda shodu-xurramlik, tinchlik-osoyishtalik hukm suradi. Bunday oilaning har bir kuni mazmunli, rejali va aniq maqsadli o'tadi. Farzandsiz oila aksariyat hollarda notinch, omonat bo'ladi.

Oilaning vazifalaridan yana biri iqtisodiy-moliyaviy xo'jaligining faoliyatini to'g'ri yuritish hisoblanadi.

Oila – eng qadimiy ijtimoiy tashkilotlardan biri. Oila ko'p asrlik an'analarga amal qilib yashaydi, inson uchun ishonchli tayanch, uning ma'naviyati va axloqiylikning o'zagi hisoblanadi. Inson o'z hayotining ko'pchilik qismini o'tkazadigan oila jamiyatda favqulodda muhim rol o'ynaydi. Oila va oilaviy-qarindoshlik munosabatlari bo'lmagan ijtimoiy tuzilma hech qayerda yo'q.

Oila tarixiy-ijtimoiy hodisa sifatida kishilik jamiyatida qator vazifalarni bajarib, ham o'zining, ham jamiyatning takomillashuvini ta'minlab kelmoqda. Oilaning dastlabki bosh vazifasi – demografik vazifadir. Sirasini aytganda, oila nainki jinsiy aloqani tartibga solish, balki zurriyotni davom ettirish ehtiyoji tufayli ham yuzaga kelgan ijtimoiy-biologik hodisa hisoblanadi.

Jahonda ayni zamonda kechayotgan demografik siyosat o'zbek oilasini ham befarq qoldirmayapti. Xususan, mustaqillik tufayli kun tartibiga qo'yilgan sog'lom avlod uchun kurash maqsadlari ishni sog'lom oiladan boshlashni taqozo eta boshladi. Bu hol oilani rejalashtirish masalasini keltirib chiqardi. Oilani rejalashtirish bola tug'ishni tartibga solishni anglatrsa-da, bu masalada jahon demografik siyosatida ikki yo'nalish hukm surib kelmoqda.

Birinchi yo'nalish – oilani ixtiyoriy usulda rejalashtirish. Bunda qancha farzand ko'rish masalasini har bir oilaning o'zi hal qiladi. Iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda ayollarning ma'lumotlilik darajasi o'sib, ishlab chiqarishda bandliklari oshgan, shuningdek, tibbiy himoyalani oshirish imkoniyatlari kengaygan vaziyatda bir yoki ikki farzand ko'rish bilan cheklanish an'anaga aylangan. Bu hol,

ayniqsa, Yevropa mamlakatlarida tobora chuqurlashmoqda. Bu mamlakatlarda demografik siyosat tug'ilishni rag'batlantirishga qaratila boshlandi. Chunonchi, Germaniya va Polshada farzand ko'rgan oila bir yo'la katta miqdorda pul mukofoti bilan taqdirlansa, Vengriyada farzand ko'rgan ayol birinchi yili yuz foiz, ikkinchi yili oltmish foiz miqdorida oylik maosh olib turadi. Gretsiyada esa ayol homila ta'tiliga chiqqan kundan bolasi yetti yoshga to'lib maktabga borguniga qadar avvalgi ish joyida qancha maosh olib turgan bo'lsa, har oyda o'sha oyligini olib turadi va ish joyi ham saqlanadi. Bunday imtiyozning bitta sharti bor. Shart shundaki, ona o'zi bolasini har jihatdan sog'lom yetib tarbiyalalamog'i va maktabga tayyorlamog'i shart. Maktabga esa maxsus imtihon ko'rigi bilan tanlanadi. Bola shu ko'rik imtihondan muvaffaqiyatli o'tib maktabga qabul qilinsa, davlat yetti yil davomida onaga berib kelgan maoshdan kechadi va ona avvalgi ish joyida ishini davom ettiraveradi. Bordiyu, aksincha bo'lsa, ona yetti yil ish jarayonida davlat bergan maoshni qaytarmog'i shart.

Ikkinchi yo'nalish – oilani siyosiy yo'l bilan davlat tomonidan rejalashtirish. Bunday demografik siyosat Osiyo va Afrika hamda Lotin Amerikasi mamlakatlarida yigirmanchi asrning o'rtalaridan qo'llanila boshlandi. Zero, bu davrga kelib bu mamlakatlarda tug'ilish shiddatli tus olib, aholini oziq-ovqat, kiyim-bosh va ish bilan ta'minlash o'ziga xos muammo sifatida jiddiy tus ola bordi.

Eng keng tarqalgan tushunchalardan bo'lgan axloq va ma'naviyat - bir xil tushunchalardir. Birinchi nuqtai nazar bo'yicha axloq – ong shakli va «insoniyat idealini va tarixning gumanistik istiqbolini ifodalaydigan shaxsning o'ziga o'zi baho berishini, barcha odamlarning baxtli va munosib hayot kechirishga intilishidagi tengligini tasdiqlashga yo'naltirilgan ijtimoiy munosabatlar turi», ma'naviyat esa amaliy hatti-harakatlar, urf-odatlar sohasidir.

Ikkinchi nuqtai nazar axloqqa ijtimoiy normalar, ijtimoiy nazorat va ijtimoiy-psixologik majbur qilish hamda jamoatchilik fikri yordamida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida (oilada, mehnat faoliyatida, siyosatda va hokazolarda) hulq-atvorni tartibga solib turuvchi vosita sifatida qaraydi. Ma'naviyat esa shaxsning ma'naviy erkinligi, uning gumanizm qadriyatlarini ichki tanlashi, shaxsiy ongi sohasi.

Boshqacha soʻz bilan aytganda, shaxsning maʼnaviyatida jamiyatning qadriyatli asosini, odamlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni tashkil etadigan yalpi ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan axloq prinsiplari aks ettiriladi.

Insonning inson boʻlib shakllanishida, hayotda oʻz oʻrnini topishida, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor boʻlishida, yuksak axloq-odob qoidalarini oʻzida mujassam etishida oila asosiy oʻrinni egallaydi. Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini taʼminlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlar, axloqiy-maʼnaviy qadriyatlar saqlanadi va rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va maʼnaviy hayot poydevori qoʻyiladi.

Oʻzbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, “Oʻgʻil-qizlarimizni el-yurtimizga munosib farzand, ertaga Vatanimizning haqiqiy fuqarosi boʻladigan insonlar yetib tarbiyalash avvalo, oila bagʻrida, oilaning sogʻlom iqlimi, ota-onaning bir-biriga mehri va hurmati sharoitida chuqur ildiz otishini oʻylaymanki, hammamiz yaxshi anglaymiz”<sup>62</sup>.

Bu narsa maʼnaviyat bilan oʻzaro bogʻliqdir, yaʼni oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urugʻlar, qoʻni-qoʻshnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik – maʼnaviyatning maʼnosi ana shunday keng va oila asosiy rol oʻynaydi.

Maʼnaviyat oʻz-oʻzidan shakllanadigan narsa emas, u avvalo, har bir insonning ichki maʼnaviy salohiyatini shakllantirish yoʻlida barcha moddiy va maʼnaviy boyliklarni oʻzlashtirish, vatan va millat manfaatlarini yoʻlida halol, fidoiylik bilan mehnat qilish jarayonida shakllanadi. Oila mustahkamligi, maʼnaviy va jismoniy barkamol farzand jamiyat mustahkamligi va maʼnaviy yetukligining garovidir. Sohibqiron Amir Temur ham oʻgʻil uylantirishda kelin tanlashni, farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga koʻtarganligi bejiz emas. Davlatning qudrati – sogʻlom fikrli, bilimli, axloq-odobli, xalq, millat, vatan taqdiri uchun jonini tikadigan insonlar qoʻlida.

Maʼnaviy ongning mohiyati odamlar oʻrtasidagi maʼnaviy muomalaning barcha masalalarini hal etadigan, yaxshilik va yomonlikni belgilab beradigan oʻtmish va

---

<sup>62</sup> Islom Karimov. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yoʻlida va fuqarolik jamiyati barpo etishda mustahkam poydevordir. – Toshkent: “Oʻzbekiston” 2009, 29-bet.

bugungi kun manaviyatining ilg'or elementlari qo'shilishidan iborat. Ma'naviy ong - «Inson ongida odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, ularning jamoat ishiga, jamiyatga munosabatini tartibga soladigan ma'naviyat prinsiplari va normalarining aks etishidir».

Shaxs ma'naviy ongi darajasi tavsifining umumiy mezoni bilan ma'naviy talablarni bilish darajasi va ularning kundalik hayotda namoyon bo'lishi bilan belgilanadi.

Ma'naviy ongning muhim tarkibiy qismi – ma'naviy his-tuyg'ular (masalan, vatanparvarlik, insonparvarlik, burch, mas'uliyat, or-nomus, vijdon) insonning inson bilan muomalada bo'lishi jarayonida shakllanadi va axloqiy o'zaro munosabatlarni belgilab beradi. Insonning ma'naviy his-tuyg'ulari odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning hissiy jihatini ifodalaydi va intellekt bilan birgalikda o'zini yoki boshqa kishilarning hatti-harakatiga axloqiylik nuqtai nazaridan baho berish imkonini beradi.

Ma'naviy ong har xil omillar (masalan, inson hayoti sharoitlari, uning hayotiy tajribasi, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat) ta'siri ostida shakllanishi mumkin. Ushbu holatda davlat tomonidan yaratiladigan shart-sharoitlar shaxsning etnik ma'lumoti va tarbiyasida katta rol o'ynaydi.

Ma'naviy boy va axloqiy yuksak shaxsni kamol toptirish oila va mamlakatdagi demokratik qayta o'zgartirishlarning umumiy jarayoni, xalq ongida milliy mustaqillik, yangi ilg'or qadriyatlar qaror topishi bilan uzviy bog'liqdir.

Ma'lumki, Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan hisoblangan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Demak, mahalla-yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero, oila farovonligi – milliy farovonlik asosi hisoblanadi.

Insonning jamiyatdagi vaziyat bilan bog'liq xulq-atvorini madaniy, ijtimoiy, shaxsiy va psixologik omillar belgilab beradi. Ular o'z navbatida ijtimoiy institutlar tomonidan shakllantiriladi. Ushbu jarayonda jamiyatning muhim instituti sifatida asosiy rol oilaga tegishlidir. XXI asr boshida jamiyat hayotining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sohalarida yuz berayotgan, insonga, uning ishlab chiqarishdagi, oiladagi,

maishiy hayotdagi mavqeiga favqulodda katta ta'sir ko'rsatayotgan tub o'zgarishlar munosabati bilan oila muammolariga bo'lgan qiziqish keskin o'sdi. Oilaning universalligi «oila funksiyasi» tushunchasida ochib beriladi.

Ijtimoiy funksiyalar deganda, jamiyat va odamlarning oila qondiradigan asosiy ehtiyojlari nazarda tutiladi. Har bir tarixiy bosqichda oilaning u yoki bu funksiyasi turlicha ahamiyat kasb etdi. Oilaning jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalari ular namoyon bo'lishi sohalariga qarab bir necha guruhga bo'linadi. Oila hayotining ma'naviy sohasi bolalarning ijtimoiylashuvi sifatida tushuniladigan aholining tabiiy o'sishi funksiyasini ifodalaydi. Oilada dam olishning tashkil etilishi ham uning ma'naviy funksiyasi deb hisoblanadi.

Ko'pchilik mualliflar iste'molni tashkil etish funksiyasini va tomorqa uchastkalarida yordamchi xo'jalik yuritadigan oilalar tomonidan ishlab chiqarish tashkil etilishi funksiyasini oila ijtimoiy hayotining moddiy sohasiga tegishli deb biladi. Bundan tashqari, oilada bolalar va keksalarni moddiy ta'minlash, oilaning turmushini tashkil etish, uning tarkibidan ajralib chiqadigan shaxslarga yordam berishning moddiy bazasini tashkil o'tadigan muayyan mol-mulkni jamg'arishning ijtimoiy funksiyasiga kiritish mumkin.

Psixologlar, sotsiolog pedagoglarning qarashlarini umumlashtirib, oilaning ijtimoiy funksiyalarini tasavvur qilish mumkin.

Oilaning moddiy faoliyati uning rivojlanishining turli bosqichlarida bevosita ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, xususiy mulkni jamg'arish, iste'molni tashkil etish singari funksiyalar orqali ifodalanadi. Shu bilan birga iqtisodiy, moddiy-ishlab chiqarish, xo'jalik-maishiy funksiyalar jamiyat rivojlanishining har xil bosqichlarda ko'p jihatdan, shuningdek, o'sib kelayotgan avlodni ijtimoiy, professional, ma'naviy, siyosiy va huquqiy tarbiyalash vositasi ham bo'lib keldi. Ishlab chiqarish mehnati u vaqtlarda hali oila doirasidan chetga chiqmagan, bolalarning ko'z o'ngida yuz berar edi. Shu sababli ota-onalarning mehnat faoliyati bolalar ko'z o'ngida ularning obro'sini ko'taradi.

Inson oilada qadriyatlar, idrok qilish, ustunliklar berish, yo'nalish, o'zini tutish va hatti-harakatlarning bazaviy tizimini o'zlashtirib oladi. Oilada insoniy qadriyatlar,



e'tiqod, ideallar barqaror shaxsiy tavsiflarga aylanadi, shaxsning keyingi hatti-harakatlarini, umuman uning motivatsiyasini shakllantiradi. Ayni vaqtda har bir oila xalq, konfessiya, davlatning umumiy madaniyati doirasida o'zining tabaqalashtirilgan madaniy muhitini yaratadi. Oila ma'naviy-madaniy tiklanishda juda muhim rol o'ynaydi, chunki u ma'naviyat va madaniyat yashaydigan va oziqlanadigan yohud yemiriladigan va halok bo'ladigan ijtimoiy muhit hisoblanadi.

Oilaning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, uning yo'nalishlari va ustuvorliklari mutaxassislar va jamoatchilikning doimiy diqqat-e'tiborini talab qiladigan dolzarb muammolardir. Ularni tizimli sotsiologik tahlil qilish yo'li bilan aniqlash mamlakatning o'sib kelayotgan avlodini kamol toptirishda oilaning ijtimoiy rolini aniqlash, O'zbekiston jamiyatining iqtisodiy va madaniy rivojlanishning jadallashtirishda oilaning tarbiyaviy va ma'naviy salohiyatidan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Hozir nafaqat bizda, balki jahondagi barcha demokratik dunyoviy davlatlarda oilani mustahkamlash, tarbiyani yaxshilash, xotin - qizlar, bolalarning huquqlarini himoya qilish, jismoniy va ma'naviy sog'lom avlodni tarbiyalash masalalariga e'tibor qaratilmoqda. Mashhur jadidchilarimizdan Abdurauf Fitrat shunday degan: «Har bir oilaning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millatlar ham shuncha kuchli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi».

Sotsiologik tahlil ma'lumotlari oila manfaatlari uchun ish olib borishning kompleks ilmiy prinsiplarini ishlab chiqish manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi O'zbekistonda zamonaviy oila holatining sotsiologik monitoringini muntazam ravishda o'tkazib keladi.

## 2. OILAVIY BURCH – MUHIM AXLOQIY-MA’NAVIY QADRIYAT

Sharq xalqlarida qadimdan kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzatda bo‘lish, insofli bo‘lish, rostgo‘ylik, xushmuomalalik, mehmondo‘stlik kishining odob-axloqini ko‘rsatib beruvchi qoidalar sifatida amal qilinib keladi.

Bu axloq qoidalari har bir shaxsda to‘liq namoyon bo‘lgan taqdirdagina u ma’naviy barkamol shaxs hisoblanadi.

Demakki, u jamiyat oldidagi, kishilar oldidagi insoniylik burchini ado etgan hisoblanadi.

Burch muhim axloqiy-ma’naviy qadriyat hisoblanib, har bir shaxsning jamiyat oldidagi fuqarolik, ota-ona oldidagi farzandlik, xalq, millat oldidagi insonparvarlik, jamoatchilik oldidagi odamiylik vazifalarini bajarish demakdir.

Burch – ado etilishi majburiy bo‘lgan insoniy vazifalar va insoniylik yuzasidan bajarilishi mumkin bo‘lgan axloqiy qoidalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Ota-onaning farzand oldidagi, jamiyat oldidagi burchi, farzandning ota-ona oldidagi burchi, insoniyatning o‘tmish merosini asrash va kelgusi avlodlarga yetkazish burchi, millat oldidagi, kelajak avlod oldidagi burchi, tabiatni asrash burchi, vatan oldidagi burch - majburiy vazifalardir.

Ota-onaning farzand oldidagi burchlari «Qobusnoma»da zikr etilishicha, «...farzandga yaxshi ot qo‘yish, farzandni yaxshi doyaga topshirish, sunnat qilish, to‘y-tomosha berish, ilm va kasb-hunar o‘rgatishdan iboratdir».

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, ota-ona farzand tarbiyasida jamiyat oldida ham javobgardirlar. Har tomonlama yetuk farzandni tarbiyalash ota-onaning asosiy, majburiy burchidir.

Ota-onani hurmat va izzat qilish, keksayganda moddiy ta’minlash, ular nasihatiga quloq tutish va uni so‘zsiz ado etish farzandning ota-ona oldidagi burchi hisoblanadi. Farzand el-yurt oldida ota-ona obro‘si, qadr-qimmatini ko‘tarishi lozim.

Farzand, ayniqsa, otani hurmat qilishga, topshiriqlarini bekamu-ko‘st bajarishga majbur. Uning ko‘nglini og‘ritish aslo mumkin emas. Oqil farzand ota qadrini yuksak tutadi. Xalqimiz «Ota qarg‘ishi o‘q» deb bejiz aytmagan.

Ulamoyu fuzalolarimiz fikriga ko'ra: ota - farzand uyidagi istagan narsani olishi mumkin ekan. Farzand esa ota uyidan uning ruxsatisiz hech narsani olishga haqqi yo'q ekan.

Mana, farzandning ota-ona oldidagi burchi, haqi nima bilan belgilanadi?

Ulamolarning bayon qilishicha: "Ota-onaning farzandiga nisbatan saksonta haqi bor ekan. Ularning qirqtasi tiriklik vaqtida va qolgan qirqtasi o'lgandan keyin amalga oshiriladi. Tiriklik chog'idagi qirqta haqning o'ntasi tanga, o'ntasi tilga, o'ntasi dilga va o'ntasi molga taalluqlidir"<sup>63</sup>.

Oilada kelinning ham qaynona-qaynota oldidagi burchi farzand burchi demakdir.

Xalqimizning ma'naviy merosi hisoblanadigan mehnatsevarlik, mehr-oqibatlilik, birodarlik, insonparvarlik, mardlik, halollik, iymon-e'tiqodlilik kabi fazilatlarni, Al-Beruniy, Najmiddin Kubro, Az-Zamaxshariy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Al-Farg'oniy, Al-Buxoriy, imom Termiziy, Bahouddin Naqshband va shu kabi mutafakkirlarimizning ma'naviy merosini avaylab-asrash, asrlar davomida qadriyat darajasiga ko'tarilgai milliy ma'naviy merosni kelajak avlodga yetkazish har birimizning jamiyat oldidagi, insoniyat oldidagi, kelajak avlod oldidagi burchimizdir.

Vatan - bu har bir kishining tug'ilib o'sgan muborak joyi, mahallasi, qishlog'i, shahri, ona yurtidir. U yashayotgan zamindir. Mana shu vatanni himoya qilish, vatanning gullab-yashnashi uchun halol mehnat qilish, kerak bo'lsa, vatan himoyasi uchun jonini fido qilish O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaroning burchidir.

Insonning eng katta boyligi bu - Vatandir. Vatanni sevish deganda, Vatanning milliy tilini sevish, davlat ramzlarini sevish, milliy qadriyat va urf-odatlarini qadrlash, tinchligi va osoyishtaligi uchun jon kuydirish kabilar tushuniladi.

Darhaqiqat, Vatanni sevmoq iymondandir. Ya'ni, iymoni but, ongli, Vatan tushunchasini to'la anglab yetgan, Vatan uchun butun kuch-g'ayratini bag'ishlagan, Vatan ilm-ma'rifati yo'lida mehnat qilayotgan, o'z Vatani bilan g'ururlanadigan insongina Vatan oldidagi burchini ado etgan bo'ladi.

Marhumlarni xotirlash - bugungi avlodning farzandlik burchidir. Vatan tarixini bilish, boyliklarini ko'z qorachig'iday saqlash, Vatan taraqqiyotiga o'z hissasini

---

<sup>63</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: "Fan", 1994, 30-bet.

qo‘shish, halol mehnat qilish, ma’naviy qadriyatlarini, urf-odatlarini o‘rganish va avaylab-asrash asosiy vazifasidir. O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo‘shishda bor kuch-imkoniyatlarini sarf etish har bir fuqaroning burchidir. Ota-ona, jamoatchilik va ustoz-murabbiylarning asosiy burchi bugunni jamiyat talablariga mos ma’naviy va jismoniy barkamol, milliy ong va tafakkuri shakllangan shaxslarni tarbiyalab yetishtirishdan iboratdir.

Balog‘at yoshidagi yigitlarning asosiy burchi mamlakatimizning milliy armiyasida xizmat qilib, Vatan tinchligi, osoyishtaligini saqlash, uni har qanday tajovuzlardan, ichki va tashqi dushmandan saqlashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Vatan oldidagi asosiy burchlari mamlakatimiz Qomusi - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48, 49, 50, 51, 52-moddalarida belgilab berilgan. Ya’ni, ular «Fuqarolar Konstitutsiya va Qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar. Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar.

Madaniy yodgorliklar davlat muhofazasidadir.

Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar.

Fuqarolar Qonun bilan belgilangan soliq va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar.

O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish - O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir, fuqarolar Qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar”<sup>64</sup>, – deyilgan.

Insoniyat o‘zi yashab turgan tevarak-atrof tabiatini muhofaza qilishga majburdirlar. Biz o‘zimiz bilgan va bilmagan holda tabiatga zarar yetkazamiz. Biz tabiatdan va tabiiy zahiralardan to‘g‘ri foydalangan taqdirimizdagina tabiatni hech qanday salbiy oqibatlersiz kelajak avlodga yetkazib berish majburiyatini bajargan bo‘lamiz.

Tabiatni asrash esa barchaning burchidir. Har bir insonning tabiat va jamiyat oldidagi burch va vazifalari mavjuddir. Ular oldidagi o‘z burchini sadoqat, poklik

---

<sup>64</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Adolat”, 2021, 19-20-betlar.

bilan ado etgan insonning kelajagi porloq, obro‘-e‘tibori baland bo‘ladi.

### **3.SHAXS MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONA MAS’ULIYATI**

Shaxs ma’naviyatini rivojlantirishning omillari va vositalari ko‘p. O‘zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom yetib kelayotgan, o‘z ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan biri – ota-onani yuksak darajada e‘zozlash, hurmatini joyiga qo‘yishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko‘ra mehribon, aziz va mo‘tabar zot yo‘q. Ota-ona farzandlarning suyanchig‘i, bitmas-tuganmas boyligidir.

Ota-ona o‘z farzandidan hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan buyukliklari ham ana shunda. O‘zbek xalqi odob-axloqi bo‘yicha, keksalarning, ota-onaning oldidan salom bermasdan o‘tish gunoh hisoblanadi. Ota-onani qadrlash, ularning beo‘lchov, beminnat xizmatiga bir umr sodiq bo‘lish, duolarini olish – bolalarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talablaridan biridir.

Buyuk bobomiz hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, ota-onani hurmat qilish «...farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo‘lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo‘lishni istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kuningga nur berib turgan - birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so‘zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, «adab» so‘zidagi «dol» kabi qomatingni ham qil».

Tan olishimiz kerakki, sho‘rolar davrida keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish haqidagi milliy qadriyatlarimiz biroz xira torta boshladi. Ba‘zi yoshlarimizda o‘zlaridan kattalarni, nuroniy qariyalarni hurmat qilish, ularning nasihatlariga quloq solish singari yuksak ma’naviy fazilatlar yo‘qolib ketayotgani sezilmoqda. Ehtimol, boshqa millat kishilari bunga unchalik e‘tibor berishmas, lekin biz, o‘zbeklar buni his

qilmay ilojimiz yo‘q.

Keksalar uchun ajratilgan uylarda farzandlari tirik o‘ziga to‘q bo‘lgan ota-onalar yashayotganligiga toqat qilib bo‘lmaydi. Gohi-gohida bo‘lsa ham, ota-onaga qo‘l ko‘tarish, undan ham og‘irroq jinoyat qilish hollari sodir bo‘lib turganligini eshitib turibmiz! Bu - oddiy nuqson emas, balki uchiga chiqqan tubanlik, bag‘ritoshlik milliy qadriyatlarimizni oyoq-osti qilish, o‘z insoniyligini yo‘qotishdir. Milliy qadriyatlarimizga, o‘zbek xalqining sha‘niga dog‘ tushuradigan bunday salbiy hodisalar zamini, ildizi, sababi nimada, degan savol paydo bo‘lishi tabiiy.

Sho‘rolar davrida, avlod-ajdodlarimizning o‘g‘itlari, pand-nasihatlari, ajoyib an‘analarimiz targ‘ib qilinish o‘rniga nuqul qoralandi, yomon otli qilindi, bid‘at, xurofot, deb baholandi. Milliy tarbiya borasidagi merosimiz o‘rganilmadi, targ‘ib etilmadi. Ularning o‘rniga ta‘lim-tarbiya borasida YYevropa, Rusiya modelini ko‘klarga ko‘tarib maqtab, targ‘ib qilib, yoshlarimizni o‘z milliy qadriyatlarimizdan bebahra qilib qo‘ydik. Ana shu tufayli diniy-axloqiy, oila, qo‘ni-qo‘shni, mahalla-koylar ta’siri kabi ta‘lim-tarbiyaning hayot sinovidan o‘tgan bebaho boyliklaridan judo bo‘la boshladik. Mustaqilligimiz tufayli bularga chek qo‘yildi, bunday salbiy illatlarni tugatish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr-shafqat, ota-onalarga e‘zoz, farzandlarga mehr-sadoqat kabi insonni inson sifatida ulug‘laydigan, axloqiy, ma‘naviy jihatdan go‘zal va barkamol qiladigan qadriyatlarimiz odamlar, ayniqsa yoshlar qalbidan o‘rin ola boshlagani quvonchli bir holdir. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonuni – Konstitutsiyada farzandlarning jamiyat, oila, ota-onalari oldidagi insoniy burchlari va mas‘uliyatlari nimalardan iboratligi milliy qadriyatlarimizdagi asosiy g‘oya va qoidalarga asoslanib belgilab berilgan. Uning 66-moddasida qayd qilinishicha, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amho‘rlik qilishga majburdirlar.

Xullas, har bir farzandning o‘z ota-onasini e‘zozlashi farzandlik burchi va jamiyat oldidagi mas‘uliyati sanaladi. Ota-onani e‘zozlashning quyidagi Sharqona talablariga hammamiz amal qilishimiz ham farz, ham qarz, farzandlik burchimizdir. Ota-onaga taom berish, ozoda qilib kiyintirib qo‘yish, kasal bo‘lganda shifokorga

ko'rsatish, kerakli dori-darmonni keltirib berish, doimo hol-ahvol, sihat-salomatliklarini so'rab turish, ota-ona oldida «uh» tortmaslik gerdaymaslik lozim bo'ladi. Ota-ona norizo bo'lgan ishni qilmaslik, aroq ichma, yomonlarga qo'shilma, desa uni qilmaslik va qo'shilmaslik kerak bo'ladi. Ko'chada yurganda otadan oldin yurmaslik, otadan avval ovqatga, dasturxonga qo'l uzatmaslik, otadan avval o'tirmaslik, otadan ko'ra poygakda o'tirish lozim. Otaning oldida oyoqni uzatib, yonboshlab olish bizning axloq-odobimizga kirmaydi. Ota-ona chaqirganda labbay deb javob qaytarish, nima ish qilayotgan bo'lsa, hech ikkilanmasdan darrov ularga javob berish farzandlik burchi hisoblanadi. Shunda ota-ona o'z farzandidan rozi bo'ladi. Ota-onaning roziligini olgan farzand baraka topadi, ishi o'ngidan kelaveradi, oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi.

Ota-onasi norizo bo'lgan farzand kechgacha yugursa ham, ishining barakasi bo'lmaydi, biri ikkiga aylanmaydi. Turmushga chiqish, uylanishda ota-onaning roziligini, oq fotihasini olishda hikmat ko'p. Yuqoridagilarning hammasi biz uchun bir hovuch oltin, xazina. Kelgusi hayotimiz uchun poydevor qo'yish demakdir. Bu dunyo qaytar dunyo, nima eksang shuni o'rasan, siz ota-onangizga nima qilgan bo'lsangiz, u sizga farzandlaringizdan qaytadi. Bu ham tabiat qonuni bo'lsa neajab!

Endi ota-onani hurmat qilishning ulug'vorligi haqidagi ba'zi ibratli fikrlarni hadislardan keltirib o'tamiz. «Qaysi bir musulmon farzandi savob umidi bilan ertalab ota-onasini ziyorat qilsa, Olloh taolo unga jannatdan ikkita eshik ochadi. Agar ulardan bittasini ziyorat qilsa, unga jannatning bir eshigini ochadi. Bola ota-onasidan qaysi birini xafa qilsa, uni rozi qilmaguncha, Olloh taolo undan rozi bo'lmaydi»; «Kim ota-onasini rozi qilsa, unga tubo (jannatdagi daraxt) nasib bo'lib, Olloh taolo uning umrini ham ziyoda qiladi»; «Uch toifa kishilarning duosi, hech shubhasiz, Olloh taologa maqbuldir: mazlum kishining duosi, musofirning duosi va ota-onaning duosi»; «Ota-onalarning keksaygan vaqtda har ikkisini yoki biri bo'lmaganda boshqasini rozi qilib, jannatiy bo'lib olmagan farzand xor bo'lsin, xor bo'lsin va yana xor bo'lsin»; «Ota-onaga itoat qilish – tangriga itoat qilishdir. Uni oldida gunoh qilish tangri oldida gunoh ish qilish bilan barobardir» va boshqalar.

Yuqorida farzandning ota-ona oldidagi burchi haqida fikr yuritdik. Ota-onaning

ham farzand oldidagi burchi nihoyatda katta va mas'uliyatlidir. Farzandlarning kelajakda qanday ma'naviyat egasi bo'lishi ko'p jihatdan ota-ona, u bergan tarbiyaga bog'liq. Har bir ota-ona farzandi oldida o'z otalik, onalik burchini to'liq his etishi, unga javobgarligini ma'nadan anglab yetishi kerak.

Farzand tarbiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishini har bir ota-ona yaxshi bilishi foydadan holi bo'lmaydi.

Birinchisi – nasl tarbiyasi, ya'ni bola tarbiyasi. Bola tug'ilmasdan oldin boshlanishi kerak. Ya'ni bo'lg'usi ona va otaning sog'ligi, farzand tarbiyalashga mas'ulligini hisobga olish lozim bo'ladi. Bu – bola, farzand ko'rishni istagan otaning bo'lajak farzandlari taqdiriga mas'uliyat bilan qarab, o'zlarining salomatliklarini yaxshilashlarini nazarda tutadi.

Ikkinchi bosqich – homiladorlik davridagi parvarish. Bu masala o'ta muhim, o'ta ahamiyatlidir. Rivojlangan mamlakatlarda homiladorlik davri tug'ilajak inson taqdirining 60 foizini belgilashi ko'zda tutiladi. Bu davrdagi chora-tadbirlar aksariyat ota-onalar tomonidan amalga oshiriladi.

Uchinchi davr bola tug'ilgandan to 6-7 yoshgacha bo'lgan davr. Shu davrga kelib, bola ma'naviyatining asosiy kurtaklari shakllanib bo'ladi. So'ng ana shu ma'naviy kurtaklarni parvarishlash va yanada rivojlantirish davri boshlanadi.

Ma'naviy barkamollik, balki beshikdagi allaning mazmunidan, bolani kiyintirish-u uni halol luqma bilan boqishdan boshlanishi mumkin. Hazrati Bahouddin Naqshbandiy aytganlaridek, insondagi yaxshi fe'llar, amallar halol luqmadandir.

Demak, ota-ona farzandini halol luqma bilan boqsa, u farzand ma'nadan pok va halol bo'lib voyaga yetadi. Biz sho'rolar zamonida buni unutayozdik, ahamiyat bermadik, boz ustiga tarbiyani ham tuzum o'z manfaatlariga moslashtirib, uni o'z qo'liga oldi.

O'zbek oilasining tashqaridan sezilmaydigan o'ziga xos ichki qonun-qoidalari, axloqiy, ma'naviy mezonlari bor. Quyida biz shulardan ba'zilari, turmush uchun zarurlari haqida to'xtab o'tishni lozim topdik. Zero, bu oila qurish oldida turgan yoshlar uchun foydadan holi bo'lmas, degan niyatdamiz.



Rizq-ro‘z tongda har bir odamga, oilaga ulashiladi. Kimki g‘aflat bosib, o‘rnida yotaversa, rizqidan quruq qoladi, deyiladi. Barvaqt turilsa, ish unumli, o‘sha kun xayrli bo‘ladi....

Yuz-qo‘lni yuvmasdan hol-ahvol so‘ralmaydi, yuz-qo‘lni yuvgandan so‘ng kichiklar kattalarga salom beradilar, ayollar nonushta tayyorlaydilar, qizlar-kelinlar hovli, eshik oldini supurib, suv sepib qo‘yadilar...

Ish yoki o‘qishga oilaning tabarruk yoshlilaridan fотиha olib ketilishi axloq-odob doirasiga kiradi, qaytganda, avval ularga uchrashib, salom beriladi, hol-ahvol so‘raladi...

Oila odobiga ko‘ra, katta yoshlilar bolalarga, balog‘atga yetgan farzandlar, kelinlar katta yoshlilarga ochiq-sochiq holda ko‘rinmaydilar, bachkana qiliq qilmaydilar, pardasiz so‘zlarni aytmaydilar. Ko‘chaga uy kiyimida chiqilmaydi. O‘zbek oilasining fazilatlarini ko‘p, qonunlarda belgilanmagan, ammo millatimizning qadriyatlariga aylangan tartib va talablari mavjud. Ularni farzandlarimiz o‘zlashtirishi ham farz, ham qarzdir.

Shunday qilib, oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini. Oilada singdirilgan tarbiya, Vatan, el-yurt, mustaqillik, ozodlik haqida berilgan tushuncha, tasavvur bolaning murg‘ak qalbida bir umr muhrlanib qoladi. Oila mustahkam, tinch, farovon, sog‘lom bo‘lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek, «Oilaning jamiyatdagi o‘rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuqtai nazaridan yondashmasdan turib, xalqchil mafkura yaratolmaymiz». Ya‘ni ma‘naviy sohadagi vazifalarimizni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz.

Shuning uchun ham mamlakatimizda oilani mustahkamlashga alohida e‘tibor berilmoqda. Jumladan, asosiy qonunimizning «Oila» deb atalgan 14-bobida quyidagi qoyidalarini o‘qish mumkin. 63-modda Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega...

64-modda. Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar...

65-modda. ...Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi».

Mustaqil Respublikamizda Oila munosabatlariga alohida ahamiyat berilayotganligini Oliy Majlisning birinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasida «Oila kodeksi»ning qabul qilinishida ham ko`rishimiz mumkin. Davlatimizning oila rolini oshirishga qaratilgan siyosati albatta farzandlarimizning ma'naviyati yuksaltirishida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Milliy tarbiyani tadqiqot qilishning metodologik asoslaridan biri - aniq fanlarda erishilgan yutuqlarni o'rganish, ularning mazkur tadqiqot predmetiga munosabatini umumlashtirishdir. Ana shunday fanlardan biri bo'lmish oliy nerv faoliyati fiziologiyasi va pedagogika orasida uzviy bog'liqlik mavjud. Zero, «har qanday ta'lim va tarbiya o'zining fiziologik mexanizmiga ko'ra, shartli reaksiya (organizmning tashqi ta'siriga javobi), ko'nikma va taassurotlarni hosil qilish jarayonidir».

Shaxs ma'naviyatini shakllantirishda ta'lim-tarbiya muassasalarining o'rni nihoyatda katta. Maktablar, litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari ma'naviy tarbiyaning asosiy o'choqlaridir. Ularning barchasida amalga oshiriladigan ma'naviy tarbiya jarayonida, barcha o'quv qo'llanmalar va dasturlar, qo'shimcha adabiyotlarda, o'tkaziladigan tadbirlarda ma'naviy, ma'rifiy tarbiya beriladi.

Tarbiyaviy ishlar ham oilaning funksiyalariga tegishli. U reproduktiv funksiya bilan mustahkam bog'liq. Oila bolaga muayyan g'oyaviy-siyosiy qarashlar asoslarini singdiradi, bola oilada axloq normalarini bilib oladi va ularni o'zlashtiradi, undagi dastlabki ko'nikmalar va xulq-atvor namunalari oilada shakllanadi. Jismoniy sog'lomlik va kamol topish asoslari ham oilada qo'yiladi. Bu eng avvalo, oilaning tarbiyaviy faoliyati, ya'ni jamiyatning talablarini hisobga olgan holda bolaga muayyan fazilatlarni singdirish uchun unga aniq maqsadni ko'zlab ta'sir ko'rsatish tufayli amalga oshiriladi. Tarbiya bolaning oila a'zolari bilan kundalik muomalada bo'lishi jarayonida amalga oshiriladi. Bola maktabda, so'ngra oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtida o'qigan, ishlab chiqarishda ishlagan davrda ham oilaning tarbiyaviy funksiyasi to'xtab qolmaydi.

Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy

hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi”<sup>67</sup>.

Oiladagi muhim masala yoshlarda sogʻlom oila haqidagi tushunchani shakllantirishdadir. Yoshlar oilaning buyuk maʼnaviyat, qadriyat burch va maʼsuliyat ekanini anglab yetishlari zarur. Buning uchun:

- onalar va yoshlar bolalarga gʻamxoʻrlik qilish, ularning salomatligini mustahkamlash uchun sharoitlar yaratishi lozim;

- bir yoshgacha boʻlgan davrda ularning salomatligini mustahkamlash;

- besh - olti yoshgacha boʻlgan davrda ularning salomatligini mustahkamlash;

- nogiron bolalarni davlat tomonidan himoyalashni kuchaytirish;

- bolalarni maktab davrligida tarbiyalash;

- yoshlarni boʻsh vaqtini band etish;

- yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish ham maʼnaviy yetuk insonni tarbiyalashning muhim shartidir.

#### **4. YANGI OʻZBEKISTONDA AYOLLARGA EʼTIBOR VA BU SOHADA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR**

Bugungi kunda Yangi Oʻzbekiston Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish sari dadil qadamlar qoʻymoqda. Shu oʻrinda aytish joizki, yangi Uygʻonish davri, avvalo, ilm-fanning taraqqiyotiga, milliy maʼnaviyatning mustahkamligiga bogʻliqdir. Mazkur oʻtkir haqiqatni chuqur his qilgan holda xotin-qizlarning taʼlimi va ilm-fan bilan shugʻullanishlari uchun davlatimiz tomonidan yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Xususan, «Oila va xotin-qizlarni tizimli qoʻllab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi farmoni bilan 2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish boʻyicha Milliy dastur hamda Milliy dasturni 2022-2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Jamiyatdagi barcha ayollarni ilm-fanga ruhlantirish maqsadida yangi

---

<sup>67</sup> Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: “Sharq”, nashriyoti Matbaa Konserni, 2008, 8- bet.

mexanizm – «Olima ayollar jamiyati» tuzilib, uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yanada rag‘batlantirish uchun Davlat byudjetidan 50 milliard so‘m ajratilishiga doir yangilik barcha xotin-qizlarning ko‘nglida jamiyatning eng faol qatlami «olima ayol» bo‘lishga intilishlarini yanada kuchaytirishi ayni haqiqat. Ushbu islohotlar Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, azal-azaldan xalqimizda shakllangan «Bitta qiz bolani o‘qitsangiz – butun oilani o‘qitgan bo‘lasiz» degan haqiqatning bugungi kunda, tom ma’nodagi, o‘z ifodasini topayotganligidan darakdir.

Xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha qabul qilingan Milliy dastur amalga oshirilayotgan islohotlarning davomiyligini ta’minlashda dasturilamal bo‘lishi, shubhasiz.

Milliy dasturning huquqiy va siyosiy ahamiyatini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

birinchidan, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan 10 asosiy vazifa belgilab berildi;

ikkinchidan, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishdagi 11 ta asosiy muammo kesimida ularni hal etishga qaratilgan aniq yechimlar berildi;

uchinchidan, xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan 6 ta asosiy yo‘nalish doirasida ishlarni amalga oshirish belgilab berildi;

to‘rtinchidan, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning beshta asosiy toifasi belgilanib, aniq vazifalar nazarda tutildi;

beshinchidan, xotin-qizlar orasida jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning oldini olishning ikkita asosiy yo‘nalish belgilanib, uning doirasida to‘rtta muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Milliy dasturda belgilab olingan ustuvor vazifalarning 3 bosqichda amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek: «Ayol baxtli bo‘lsa, jamiyat ham baxtli bo‘ladi!» Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning baxti asosiga qurilmoqda, desak ayni

haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Milliy dasturni 2022-2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasida nazarda tutilayotgan yangiliklar fikrimizning to‘liq isbotidir.

Xususan, 6 ta asosiy yo‘nalish va 112 ta banddan iborat bo‘lgan chora-tadbirlar rejasida xotin-qizlarni mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirishga qaratilgan, ilgari jahon mamlakatlari amaliyotida kuzatilmagan Yangi O‘zbekistonning o‘ziga xos tajribasiga asos bo‘ladigan quyidagi yangiliklar belgilandi:

**birinchi yo‘nalish:** xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida: qonunchilikda «xotin-qizlarni ta’qib etish» tushunchasining huquqiy ta’rifini ishlab chiqish; o‘quvchi-yoshlarga nisbatan jismoniy tazyiq o‘tkazganlik, zo‘ravonlik sodir etganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilash; uzoq muddatga chet davlatlarga chiqib ketayotgan ota-onalar tomonidan farzandiga vasiy yoki homiy tayinlashning majburiy tartibini belgilash;

«Bolalarga aliment undirish va oilani ta’minlashning boshqa shakllarining xalqaro tartibi to‘g‘risida»gi Gaaga Konvensiyasiga qo‘shilish xotin-qizlarning mehnat huquqlari ta’minlanganlik holatini o‘rganish;

xo‘jalik hisobidagi korxonalar va tashkilotlarda rasmiy ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug‘ish nafaqasi to‘lash tizimini yaratish; jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etiladigan xotin-qizlarning oilalaridagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishga ko‘maklashish;

«Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida»gi, «Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi va «Bola huquqlari to‘g‘risida»gi konvensiyalar asosida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari ijrosini o‘rganish va boshqa masalalar belgilangan;

**ikkinchi yo‘nalish:** xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish maqsadida:

2022 yilda - 140 ming, 2023 yilda - 150 ming nafar xotin-qizlarni ishga joylashtirish choralari ko‘rish; 2022 yilda - 66 ming, 2023 yilda - 74 ming nafar xotin-qizlarni haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish orqali ularning bandligiga

ko'maklashish;

2022 yilda 17 062 nafar, 2023 yilda 19 020 nafar xotin-qizga subsidiyalar ajratish; respublika va hududlarda «Yetakchi ayollar muloqoti» platformasini tashkil etish;

Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining magistraturasiga nomzodlarni tavsiya etishda xotin-qizlarning sonini magistraturada o'qishga tavsiya etilgan nomzodlar umumiy sonining 30 foizigacha yetkazish;

«Bir million dasturchi» loyihasida ishtirok etadigan xotin-qizlar sonini 30 foizga yetkazish kabi muhim masalalar o'z ifodasini topgan;

uchinchi yo'nalish: ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida:

14 ming nafar xotin-qizlarga turarjoy ijara to'lovi bo'yicha kompensatsiyalar to'lash, 12 ming nafar xotin-qizlarni ijtimoiy ijara shartlari asosida ijtimoiy uy-joylarga joylashtirish;

uy-joyga muhtoj noturar joylarda yashaydigan «Ayollar daftari»ga kiritilgan 6 ming nafar xotin-qizlarga bir martalik moddiy yordam ko'rsatish;

«Ayollar daftari»ga kiritilgan yolg'iz ehtiyojmand xotin-qizlarga kamida 100 ming nafar xotin-qizlarga bir martalik moddiy yordam ko'rsatish;

30 ming nafar xotin-qizlarga ularning ta'mirlab uy-joylarini ta'mirlash uchun qurilish materiallari olib berish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

84 333 nafar onaxonlarni bepul chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish;

12 919 nafar onaxonlarni tashkilotlar va kasaba uyushmalari sanatoriylarida davolanishlarini tashkil etish;

«Ayollar daftari» tizimi orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz 300 ming nafar xotin-qizlarning bandligini ta'minlash kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

**To'rtinchi yo'nalish:** oila institutini mustahkamlash maqsadida: har yili reja-jadval asosida 1 000 ta notinch va kam ta'minlangan oilalarni ichki turistik sayohatga imtiyozli yuborish;

oilaviy ajralishlarning oldini olishda mediatorlik institutining rolini kuchaytirish; O'zbekistonning 2030 yilgacha mo'ljallangan demografik barqarorlik

Konsepsiyasini ishlab chiqish;

«Demografiya» milliy portalini yaratish hamda mazkur sohada faoliyat yuritayotgan olimlarning yutuqlari va ishlanmalarini yoritib borish kabi dolzarb vazifalar nazarda tutildi.

**Beshinchi yo‘nalish:** xotin-qizlar orasida jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida:

xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish borasida fuqarolik jamiyati institutlari rolini oshirish; voyaga yetmagan qizlar bilan ishlashda «Oila - mahalla - ta'lim muassasasi» hamkorlik mexanizmi samaradorligini oshirish;

profilaktik hisobda turgan xotin-qizlar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni amalga oshirish kabi xotin-qizlar bilan ishlash borasidagi amaldagi yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

**Oltinchi yo‘nalishda** esa monitoring yuritishning tashkiliy mexanizmlari belgilandi. Mazkur holat xotin-qizlarning chinakamiga baxtli hayot kechirishlari, saodatli ayol sifatida oila va jamiyatda mustahkam o‘rin egallashlari uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishiga xizmat qilishi, shubhasiz.

O‘zbekistonda kamida 5 yil mehnat stajiga ega bo‘lgan ayollar OTMlarga imtihonsiz qabul qilinmoqda. Vazirlar Mahkamasining «Mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo‘lgan xotin-qizlarni oliy ta'lim muassasalariga to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish tartibini tasdiqlash haqida» qarori qabul qilindi.

**Xulosa** qilib aytganda, oila poklikka va soflikka, ikki tomonlama muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Bu farzandlar tarbiyasi uchun muhim omil hisoblanadi. Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, e'tiqodiga ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Sharq xalqlarida qadimdan kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzatda bo'lish, insofli bo'lish, rostgo'ylik, xushmuomalalik, mehmondo'stlik kishining odob-axloqini ko'rsatib beruvchi qoidalar sifatida amal qilinib keladi. Bu axloq qoidalari har bir shaxsda to'liq namoyon bo'lgan taqdirdagina u ma'naviy barkamol shaxs hisoblanadi. Demakki, u jamiyat oldidagi, kishilar oldidagi insoniylik burchini ado etgan hisoblanadi.

## TARQATMA MATERIALLAR:

1-ilova


### Ma'naviyatning tarkibiy qismlariga ta'rif

Milliy ma'naviyat muayyan elat, millatga uning ajdodlariga xos bo'lgan g'oyat qimmatli ma'naviy boyliklar

Mintaqaviy ma'naviyat – muayyan jug'rofiy mintaqa millatlariga xos, ular uchun umumiy bo'lgan ma'naviy boyliklar


Umuminsoniy ma'naviyat – butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy axloqiy belgilar

2-ilova






**Milliy ma'naviyat**



**Milliy ma'naviy boyliklar**



Umuminsoniy  
axloqiy me'yorlar

**5-ilova**

**MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH**

Millatga  
mansubligini  
anglash

Millatning insoniyat  
taraqqiyotidagi tarixiy  
o'rnini bilish

Milliy  
qadriyatlarga  
sodiqlik


**MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH**

Milliy  
manfaatlarni  
tushunib etish


Milliy mustaqillik  
va milliy  
taraqqiyotga erishish


Vatanparvarlik

**SHAXS MA'NAVIYATINING ZOHIRIY BELGILARI**



**Komil inson va uning sharqona fazilatlarini**



**Ma'naviy barkamol inson tushunchasi, uning mohiyati****Vatan va vatanparvarlik tushunchalarning  
falsafiy talqini**

Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin qarindoshlar qimmatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» degan so'zda mujassamlashgan. Vatanga nafi tekkudek bo'lsa, qaysi vijdonli odam u uchun jonini berishga ikkilanar ekan.

**SITSERON**

Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi.

**GEGEL**

Kimki o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.

**BAYRON**

O'z Vataniga dog' tushirish – uni sotish degan so'z.


**GYUGO**

Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug‘iladi. Ya’ni inson o‘zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib yuksala boradi. Bu ildiz qanchalar chuqur bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo‘ladi

*I.KARIMOV*

10-ilova


### Vatanparvarlik tushunchasi



Yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo'lish


11-ilova


**Insonning ma'naviy fazilatlari**




12-ilova

**Milliy-ma'naviy qadriyatlar**





13-ilova



- Oila – demografik, iqtisodiy ijtimoiy, madaniy va boshqa muhim funksiyalarni bajaradi.
- **Shuning uchun jamiyat va davlat oilanung farovon bo'lishidan manfaatdordir!**

2

***Konstitutsiyaning 63 -moddasida***

- **quvidagi e'tirof etilgan:**
- **Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.**

4

- ***Oilaning farovonligi nima bilan belgilanadi?***
- **Xonadondagi ijtimoiy-maishiy sharoitning qoniqarli ekanligi;**
- **Oiladagi ma'naviy muhit;**
- **Avlodlar orasidagi mehr-oqibat;**
- **Oila a'zolarining jismoniy sog'lomligi;**
- **Mehnatsevarlik.**


5



- ***Qanday oilani ehtiyojmand oila deyish mumkin?***
- **Iqtisodiy,**
- **ijtimoiy,**
- **xuquqiy va maishiy imkoniyatlari cheklangan oilani ehtiyojmand oila deyish mumkin.**

6





*Qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari* uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida bu borada muayyan qadriyatlar shakllangan. Jahon tarixining oxirgi bir necha asrida hukmron bo'lgan begonalashuv jarayoni bu sohaga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ayrim erlarda qo'shnilarga mutlaqo befarqlik yuzaga kelgan. Bunday holatning oldini olish muhim.



### *Keksalarga hurmat*

- *Keksalarga hurmat* — inson hayotiy tajribasi davomida shakllangan qadriyat. Jonli tabiatda hayot uchun kurash qonuniyati mavjud. Nasl qoldirish, yangi avlodga mehr qo'yish, uni oyoqqa turg'azguncha jon fido qilish hollari aksariyat hayvonlarda kuzatiladi. Ammo, qadriyalarni e'zozlash, keksalarga ehtirom, mehr-muruvvat ko'rsatish—insoniy fazilatdir. Bularsiz milliy g'oyamizni tasavvur eta olmaymiz.

## Ayol zotiga ehtirom

- *Ayol zotiga ehtirom* — insoniyatning yarmidan ko‘pini tashkil etadigan xotin-qizlarga bo‘lgan munosabatning eng yuqori cho‘qqisidir. Tarixda ayollar iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan hukmron bo‘lgan davr matriarxat deb atalgan. Hukmronlik erkaklarga o‘tgan davrlarda ayolning haq-huquqlari va erkinliklarini kamsitadigan munosabatlar joriy etilgan. Demokratiyaning eng muhim yutug‘i har ikki jinsning teng huquqli va erkin bo‘lishini ta‘minlashdir.

## Onaga bo‘lgan hurmat va sadoqat

- *Onaga bo‘lgan hurmat va sadoqat*—eng oliy qadriyatdir. Shuning uchun Vatanga, milliy tilga nisbat berilganda, Ona nomi qo‘shiladi. Milliy istiqlol g‘oyasi onalar uchun, jamiyatdagi barcha ayollar uchun farovon xayot, go‘zal turmush yaratishni maqsad qilib, xotin-qizlarning erkinligi va o‘z qadriyatini anglab etishiga, o‘z salohiyat va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishiga sharoit yaratishni bosh g‘oyasida mujassamlashtirgan.

## OILA DAVLAT VA JAMIYAT MUHOFAZASIDA

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarining ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.  
(XIV bob 63-modda)

Ota onalar farzandlarini voyaga etguniga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat etim bolalarni va ota onalarining vasiyigidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta‘minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarini rag‘batlantiradi.

(XIV bob 64-modda)

Farzandlar ota onalarining nasl nasabidan va fuqarolik holatidan qat‘iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

(XIV bob 65-modda)

Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar

(XIV bob 66-modda)

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Ota-onaning farzand oldidagi ulug‘ligi nimada?
2. Birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh iborasining mazmunini izohlang.
3. Ota-onaning farzandlar oldidagi burchi nimada deb bilasiz?
4. Farzandlarning ota-onalar oldidagi burchi nimada deb bilasiz?
5. Ota-ona va farzandlar mas’uliyati haqida O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida nimalar ko‘rsatilgan?
6. Ota rozi – Xudo rozi iborasining mazmunini izohlang.
7. Farzand tarbiyasini qaysi davrda boshlanishi haqida nimalar bilasiz?
8. «Yaxshi fe’llar, yaxshi a’mollar – halol luqmadandir?» iborasining mazmunini izohlang.
9. O‘zbek oilasining ma’naviy-axloqiy jihatlari haqida nimalarni bilasiz?
10. Kishilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda adabiyot va san’atning ahamiyati nimada deb bilasiz?
11. Qaysi yozuvchi va shoirlar asarlarida o‘zbek milliy ma’naviyatining o‘ziga xos jihatlari o‘z ifodasini topgan? Ular milliy ma’naviyatimizning rivojlanishida qanday ahamiyatga ega?
12. Inson ma’naviyatini shakllanishida oilaning o‘rni qanday?
13. Axloq va ma’naviyat tushunchalari haqida nimalarni bilasiz?
14. Ma’naviy ongning muhim tarkibiy qismi nimalardan iborat?
15. Oilaning asosiy funksiyasi nimalardan iborat?
16. Oilaning jamiyat hayotida tutgan o‘rni qanday?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar muammolari. (Davlat, jamiyat, oila va yoshlar muammolari Respublika konferensiyasi materiallari). – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
2. Aliyev A. Istiqlol va adabiy meros. - Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
3. Soifnazarov I., Soifnazarova F. Ma’naviyatimizning umrboqiy sarch. - Toshkent: Mehnat, 1997 yil
4. Saifnazarov I. Ma’naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. – Toshkent: Sharq nashriyot, matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001.

5. Otamurotov S., Ramatov J., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
6. Imomnazarov M., Saidov M. Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Akademiya", 2005.
7. Umarov E., Abdullahev M. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.-2006.
8. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2006.
9. Sadulla Otamuratov. Sarvar Otamuratov. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2003
10. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008
11. Abdurahmonov M., Otamurotov S., Ma'naviy salohiyat. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Universitet, 2009.
12. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jayev. "Dinshunoslik" O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2014.
13. A. Erkayev "Ma'naviyatshunoslik". I-jild Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi Monografiya - Toshkent: "Ma'naviyat", 2018.
14. A. Erkayev "Ma'naviyatshunoslik". II-jild Ma'naviyat metodologiyasi va praktsiologiyasi. Monografiya. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2018.
15. Quranbohev Q., Abdurahmonov M. Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarini o'qitish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2010.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Kolonxonov M. Kolonxonova M. Qadriyatnoma (yohud yuz o'gitga yuz rivoyat). – Toshkent: "Nihol", 2006.
2. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
3. Mavrulov A. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2008.
4. Xo'janiyozov T. Oila tarixi va huquq. – Toshkent: "Adolat", 2006.

5. Inson ko‘rki odob. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti”, 2004.
6. Xidoyatxo‘jayev T. Farzandlar jannat Rayhonlaridir. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2002.
7. Imom Buxoriy. Al-adab al-Mufrad. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2006.
8. Yoshlar oilaviy hayot bo‘lag‘asida. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2000.
9. Dehqonov M., Abduraximov Q. Oilada go‘zal xulq, ta‘lim-tarbiya, inson husni va odobining ziynati. – Toshkent: “Fan”, 2006.
10. Ubaydullayeva R.A. Mustaqil O‘zbekiston: ayol, oila va jamiyat – Toshkent: “Fan”, 2006.
11. Yusupov E. Oilaning ma‘naviy asoslari. - Namangan. 2002.
12. Ата-Мирзаев О., Уманский Я., Ганиева М., Каюмов У. и др. Женщины независимого Узбекистана (по результатам социологического исследования). Отв.ред. Убайдуллаева Р.А., Райнхард Крумм. – Ташкент, 2004.
13. Oila ma‘naviyati. - Toshkent, 2007.
14. Quronov M. Otalar kitobi. – Toshkent, O‘zbekiston, 2007.
15. Xoliqov E., Lafasov M., Masharipova G., Lafasova G., Norqulov H. Oila ma‘naviyati. – Toshkent, 2010.

#### **Axborot manbalari:**

1. “Xalq so‘zi” gazetasi –www info XS. Uz.
2. “Turkiston” gazetasi - www turkiston sarkor. uz.
3. “Ma‘rifat” jurnali - www ma‘rifat – inform.
4. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali - www rzult academy freenet uz.
5. “Moziydan sado” jurnali - www moziy dostlink. Net.
6. www.mfa.uz.
7. www.press-servise.uz.
8. www.literature.uz.
9. www.Ziyonetuz..
10. www.pedagog.uz.

**III BOB. YANGILANAYOTGAN O`ZBEKISTONDA YOSHLARNI  
AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY TAJOVUZLARDAN  
ASRASHNING TAKTIKA VA STRATEGIYASI**

**5-MAVZU: GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MA`NAVIYATI  
VA MA`NAVIY TAHDID**

**Reja:**

- 1. Globallashuv jarayoni va uning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri**
- 2. Ma'naviy tahdid, uning zamonaviy ko'rinishlari**
- 3. Missionerlik, ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati**
- 4. "Kibermakon" tushunchasi va uning mazmun-mohiyati**
- 5. Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan asrashning dolzarb masalalari**

*Tayanch iboralar: globallashuv, globallashuv jarayoni, yoshlar ma'naviyati, ma'naviy tahdid, yoshlarni yot g'oyalar, diniy fundamentalizm, ekstremizm va terrorizmdan, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy vositalar, urush va tinchlik, ekologiyaviy falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm, globallashuv, baynalminallashuv, integratsiya, totalitarizm, demokratlashtirish, insonparvarlik, ilmiy-texnikaviy inqilob, atom energiyasi, gen muhandisligi, elektronika, fazoviy televideniya, informatsion kommunikatsiya, internet, siyosiy fazo, ommaviy madaniyat, sovuq urush, gumanizm, «Buyuk davlatchilik», «buyuk millat», g'ayriinsoniylik, vayronkorlik, «totalitar tuzum», egoizm, shovinizm, «Irqchilik», «Tajovuzkor millatchilik», fanatizm, ateizm, «Milliy davlatchilik tizimi», «fuqarolik burchi», «tadbirkorlik», «jamoaga sadoqat».*

**1.Globallashuv jarayoni va uning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri**

Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir

zamonda yashamoqdamiz. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana biron yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamogda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat, ratsional mag'iz bor. Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda. Bunday ta'rif, menimcha, ko'p tomondan masalaning mohiyatini to'g'ri ifodalaydi. Nega deganda, hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas.

Ana shunday globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama butungi kunda ilmiy falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

Globalashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerak bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Shu ma'noda, globallashuv bu avvalo, hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir"<sup>68</sup>.

Bugun "globallashuv" jarayonning qachon boshlanganligi va uning ilmiy iste'molga qachon kirilganligi turli-tuman fikrlar bildirilmoqda va ularning ayrimlarida biri ikkinchisiga qarama-qarshi bo'lgan g'oyalar ham ilgari surilmoqda.

Jumladan, g'arb olimlaridan R. Qobden va J. Brayt kabilar globallashuv to'liqlarini mamlakatlar o'rtasida erkin savdoning amalga oshuvi va uning natijasida iqtisodiyotdagi o'sish bilan bog'laydilar hamda uning boshlanishini XIX va XX asr bilan chegaralaydilar. Ularning fikricha, Britaniya o'zining dengiz, industriya va

---

<sup>68</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.



moliyaviy qudrati bilan globallashuv to'liqlinining birinchi bosqichi kafolati bo'lgan. Ular globallashuvning ikkinchi bosqichi yoki tiklanishini 1970 yillarning oxirlarida informatika va telekommunikatsiyada sodir bo'lgan inqiloblar asosida boshlanganligini ta'kidlaydilar.

O'zbek olimlaridan filologiya fanlar doktori, professor Muhammadjon Xolbekovning fikricha: "Insoniyat XXI asrga qadam qo'yishi bilan bu atamaga moyillik sezildi va u hayotimizdan mustaqil o'rin oldi... milloddan oldingi IV asrda yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiy butun Osiyoni qurol kuchi bilan zabt qilib, aslida yarim dunyoni birlashtirmoqchi, qudratli davlat barpo etmoqchi bo'lgan va shu tariqa insoniyat tarixida globallashuv jarayonini boshlab bergan. Yoki milloddan oldingi I asrda Rim imperatori Yuliy Sezar ham xuddi shunday yo'l tutib, butun Ovropani ishg'ol qilgan va qudratli imperiya sarhadlarini kengaytirgan. Ta'bir joiz bo'lsa, insoniyat tarixida zo'ravonlik bo'lsada, ikkinchi globallashuvga asos solgan". Olimning fikricha, adabiyotga globallashuv jarayoni o'rta asrlarda (IV-XIV) ham sodir bo'lgan va insoniyat globallashuvining o'zgacha ko'rinishini boshdan kechirdi...

Amir Temur davrida Sharq va G'arb mamlakatlari o'rtasida bevosita aloqalar va elchilar almashinuvi yo'lga qo'yilgan, insoniyat tarixida ilk bor o'zaro hamjihatlik, ya'ni globallashuvga intilish yuzaga kelgan edi.

XIV-XVII asrlarda qadimgi yunon-rim va islom tamaddunidan bahra olgan ilg'or fikrli ziyolilar G'arbiy Ovroputa uyg'onish davri madaniyatiga asos soldi. Madaniy hayotdagi globallashuv G'arbiy Ovroputaga ko'chdi... 1789 yili Fransiya Burjua inqilobi g'alaba qildi. Shu tariqa XVIII asrda globallashuv ma'rifatparvarlik harakatlarida ko'rindi va ular tomonidan amalga oshirildi... XIX asrda adabiyoti globallashuv tamoyilini saqlab qola olmadi...

XX asrda Marks ta'limotiga asoslangan sotsialistik realizm va Kerkegor hamda Nitsshe nazariyasini targ'ib qilgan modernizm (postmodernizm) ijodiy jarayonidagi globallashuvga yetakchilik qildi... Bugun olimlar adabiyot va san'at XXI asrda qaysi yo'ldan boradi, iqtisodiyot va siyosatda kutilayotgan globallashuv adabiy jarayonga qanday ta'sir o'tkazadi, degan masala ustida bosh qotirmoqdalar.

Globallashuvning boshlang'ich bosqichi haqida prof. A. Qodirov uni XX asrda texnika, avtomatik boshqaruvda paydo bo'lgan yangiliklar bilan bog'laydi. U shunday ta'kidlaydi: "O'tgan XX asr ijtimoiy-tarixiy salmog'i, voqealarining nufuzi va insoniyat sivilizatsiyasi uchun ahamiyati jihatidan bir necha ming yilliklarga teng asr bo'ldi. Insoniyat nafaqat mikroolamni, balki koinotni zabt etdi, hatto inson irsiyati qonunlarini ham kashf etdi.

XX asrning yutug'i ham tafakkurda ham texnikada afsonaviy tezlik va tezlanishlarning boshqara olish, sun'iy materiallarining yarata olish imkoniyatlarini yaratilishidir.

Kompyuter texnikasi, robot texnikasi, avtomatik boshqarish tizimi, global informatsion to'r-internet va hokazo hodisalar darhaqiqat, XX asr mo'jizalaridir. XX asrda nafaqat mamlakatlar, hatto qit'alar o'rtasidagi masofa qisqardi, bir necha daqiqa ichida jahonning xohlagan nuqtasidan ma'lumot olish yoki ma'lumot almashish mumkin bo'ldi.

Jahonda iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar ham yaqinlasha boshladi, umumjahon yaqinlashuvi va uning natijasida globalizatsiya, ya'ni butun yer shari miqyosida o'zaro hamkorlik munosabatlari rivojlana boshladi". Keltirilgan fikrdan ko'rinib turibdiki, prof. A. Qodirov globallashuv jarayonini XX asrda keng ma'noda texnikada paydo bo'lgan yutuqlarda jahon iqtisodiyoti, siyosiy va madaniy aloqalarning yaqinlashuvi bilan bog'laydi. Professor A. Ochildiyev globallashuvning ildizlarini XV-XVII asrlar bilan, uning yangi ijobiy xarakter kasb etishini esa XX asr bilan bog'laydi va bu haqida u shunday yozadi: Bugun o'zini yorqin namoyon qilayotgan globallashuv bir necha asrlik ildizlarga ega. XV-XVII asrlardagi geografik kashfiyotlar ko'plab mamlakatlar va mintaqalarning xalqaro savdo doirasiga tortilishiga, sanoat revolyutsiyasi esa umumiy aloqalarning yanada kuchayuvchi, keng qamrovli kasb etib iqtisodiy zamin yaratgan edi. Keyingi davrlar bunday munosabatlar yanada chuqurlashib bordi. XX asr boshlariga kelib yangi sifatli xarakter kasb etgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan mazkur jarayon globallashuv tushunchasi orqali ifodalana boshlandi.

Bahodir Umarovning fikricha, "... globallashuv jarayoni boshlanadigan aniq bir

tarixiy davr va makonni ajratib ko'rsatish qiyin. Negaki, nazariy jihatdan qaraganda tarixiy taraqqiyot xususiyatlaridan qat'iy nazar, xalqaro mehnat taqsimoti tizimiga uyg'unlashib borayotgan, xorijiy sarmoyalarni o'z iqtisodiyotiga izchil jalb etayotgan hamda zamonaviy texnologiyalar sari intilayotgan har qanday mamlakat uchun globallashuv jarayoni tufayli vujudga kelgan iqtisodiy afzalliklardan foydalanish imkoniyati tug'ildi...".

Dunyoni manfaat boshqaradi, degan gap bor. Shu nuqtai nazardan globallashuv jarayonlarining asos-mohiyatini foyda va daromad tashkil etgani kapitalistik munosabatlarining takomillashtiruviziz tasavvur yetib bo'lmaydi..."<sup>15</sup>. Keltirilgan fikrdan ma'lum bo'ldiki, muallif globallashuvni ma'lum tarixiy davr bilan bog'lamay, balki uni barcha davr uchun uzluksiz jarayon sifatida qaraydi.

Shu fikrlardan kelib chiqqan holda "baynalminalchilik", "internatsionalizm", "integratsiyalashuv", "ilmiy-texnik taraqqiyot", "ilmiy-texnik inqilob" kabi tushunchalar va ularning "globallashuv" tushunchasiga nisbati hamda namoyon bo'lishi xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

**Globallashuv jarayoniga turli munosabatlar.** Dunyoning ko'zga ko'ringan nazariyotchilari, ekspertlari va mutaxassislari globallashuvni iqtisodiyotda ketayotgan jarayon sifatida qarab kelmoqdalar. Jumladan, iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotining sovrindori, Kolumbiya universitetining professori (AQSH) Jozef Sgiglits, AQSHning taniqli faylasufi va sotsiologi Frensisa Fukuyama, shu mamlakat prezidentining sobiq yordamchisi, taniqli sotsiolog Zbignev Bjezinskiy, iqtisodiyotni Bombay, Kembridj, Oksford universitetlarida, Massachuset texnologiya institutlarida va Kolumbiya universitetlarida o'rgangan globallashuv jarayoni bo'yicha ekspert, dunyoning yetakchi iqtisodchilaridan biri Jagdish Bxagvati va boshqa bir qator iqtisodchilar globallashuvni jahon iqtisodiyotida sodir bo'layotgan jarayon sifatida qaraydilar. Shuning bilan bir qatorda globallashuvni siyosat va davlatchilik bilan bog'lab qaraydiganlar ham bor. Ular jumlasiga globallashuvni o'rganuvchi Yer markazi eksperti (AQSH) Mark Sirvel, J. Kennedi nomidagi Garvard universitetining Siyosat maktabi institutining direktor o'rinbosari Devid King, rossiyalik yetakchi Analitik "Siyosat" ... prezidenti Vyacheslav Nikolov va boshqalarni ko'rish mumkin.

Ulardan ayrimlarining fikrlari quyidagicha: Jozef Sgiglits “globallashuv insonlar hayotini yaxshilashning eng yaxshi potensialidir, shu jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi yaxshilanmoqda. Uning ayrim yo‘nalishlari hozirning o‘zida, masalan, ilmning globalashuvi, sog‘liqni saqlash, insonlarning umrini uzaytirishga olib keldi”.

Jagdish Bxagvati “globallashuvni iqtisodiyotdagi ketayotgan globallashuv sifatida tushunadi va uning fikricha bu o‘ziga savdo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar transnatsional korporatsiyalar faoliyati, mamlakatlar o‘rtasidagi moliyaviy oqim, xalqaro migratsiyalarni o‘z ichiga oladi”.

Vyacheslav Nikolovning fikricha “globallashuv davlatning ichki va tashqi siyosati chegaralarini bartaraf etishiga yordam beradi va xavfsizlik siyosatining mohiyatini o‘zgartiradi”.

Keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, dunyoning yetakchi nazoratchilari va ekspertlari globallashuvning iqtisodiyotda ketayotgan jarayon sifatida qarab kelmoqdalar.

Haqiqatan ham bugungi kunda globallashuv jarayonining yaqqol ko‘zga tashlanayotgan jihatlari iqtisodiyotda sodir bo‘lmoqda. Iqtisodiyot omili vositasida dunyo “maydon tamoqlaridan” yagona makonga aylanmoqda, uning iqtisodiyotda huzurini ham taraqqiy qilgan mamlakatlar ko‘rmoqda. Ammo, jahon miqyosida uning insoniy, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, asrlar davomida shakllanib kelgan, ammo qog‘ozlarda o‘z ifodasini topmagan axloqiy qadriyatlarning barbod bo‘lishiga o‘zkazayotgan ta’siri haqida bugun butun qirrayu zaminda yashayotgan insonlarni boxabar qilish vaqti yetib kelganligini anglash jarayoni orqada qolmoqda.

Zero, jamiyat va insonlar taraqqiyotining asosi bo‘lgan iqtisodiyotning globallashuv oxirgi manzilga yetib, yer yuzida yagona iqtisodiy makon batamom qaror topganidan keyin ma’naviyat, axloq va millatlar ham iqtisodiyotining hukmiga bo‘ysunmaslik imkoniyati qolmoqda va yagona ma’naviyat, yagona axloq va yagona millatning shakllanish jarayonining oldini olib bo‘lmaydi. Hozircha, ketayotgan bu jarayonning mohiyatini kimlar tushunayotgan bo‘lsa, ikkinchi birovlar, tushunsalarda undan manfaatdor bo‘lganligi bois sukut saqlamoqdalar, uchinchi birovlar esa

iqtisodiyotning har doim beqaror bo'lishi, uning kundalik hayot uchun doim tashvish keltirganligi sababli uning globallashuviga ta'sir o'tkazayotgan omillardan manfaat ko'rishi bilan o'zlariga dalda berishga majbur bo'lmoqdalar.

**Globalashuvning namoyon bo'lish xususiyatlari.** Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas.

Globalashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar.

Bugun insoniyat o'zining aql-zakovati bilan yaratgan yangi sivilizatsiya sharoitida yashamoqda. Uning hayot ritmi mislsiz darajada rivojlanmoqda, bugun u radio, televedeniya, uyali telefon va internet kabi vositalar bilan qurrai zaminning eng kichik nuqtalarida sodir bo'lgan mittigina xabar zudlik bilan tarqalishi, yoki fan, texnika va texnologiya sohasida bir soat yoki bir daqiqada bo'lishi mumkin.

Ayni paytda u ana shu vositalarning insonni axloqsizlik botqog'iga yetaklovchi hayosizsilik, shafqatsizlik, bag'ritoshlik va zo'ravonlikning ashaddiy ko'rinishlari bilan "oshna" bo'lishi mumkin. Ularning barchasi insoniyat taraqqiyotining so'ngi 20 yili ichida ana shu darajada rivojlandi. Bugun dunyo miqyosida uyali telefon keng rivojlanishi jarayonini olib ko'radigan bo'lsak, uning insonlarning hayot kechirish vositasi darajaga ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin. U dunyo aholisining deyarli yarmidan ko'prog'ida mavjud.

Bugun insoniyat globallashuv jarayonining ta'sirida jadal tezlashuvi sharoitida yashamoqda. Bu jarayonning ijobiy tomoni shundaki, qisqa vaqt ichida yer osti zaxiralarini hozirgi zamon texnika-texnologiyasi kuchidan foydalanib, qisqa muddatda o'zlashtirish hisobiga insonlarning yaxshi hayot kechirish imkoniyatlarini qo'lga kiritmoqdalar.

**Muammo** shundaki, agar mavjud resurslardan bugungi avlod foydalanadigan

bo'lsa, kelajak avlod qanday hayot kechiradi, ularga nimalar qoladi? O'zlashtirishlarning jadallashuvi mavjud resurslarni tez tugashiga olib kelishini hisobga olsak, kelajak insoniyatning hayot kechirish muhlati qisqarib, hozirgi zamon sivilizatsiyasi barbod bo'lmaydimi?

**Muammo:** insoniyatning yashash muhlatini (ya'ni hozirgi sivilizatsiyani) saqlab qolish yoki umrini uzaytirish uchun nima qilish kerak? Masalan:

1. Globallashuv jarayoniga qarshi turish kerakmi? Umuman, bu jarayonni to'xtatish mumkinmi?

2. Millatning intellektual salohiyatini mustahkamlash yo'li bilan globallashuv jarayonini to'xtatib bo'ladimi?

3. Milliy-ma'naviy immunitetni mustahkamlash globallashuvga qanday ta'sir o'tkazishi mumkin?

4. Globallashuv jarayonida "iste'molchi" emas, balki barcha jarayonlarda tenglar ichida teng darajada ishtirok etish uning ta'siridan himoyalanih imkoniyatini beradimi? Ya'ni o'zining yuksak salohiyati bilan o'z o'rniga ega bo'lish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi imkoniyatlarini "eksport" qilish darajasiga ko'tarilishi lozim.

Aks holda, globallashuv ta'sirida yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlar taraqqiy qilayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarni "yutib" yuborishlari mumkin.

### **Globallashuvning ma'naviyatga tahdidi. "Ma'naviy tahdid - o'zligimiz va kelajagimizga tahdid**

Bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun «Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish» niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko'zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi.

Shu borada ayrim qudratli davlatlar tomonidan muayyan mamlakatlarga, avvalambor, yer osti, yer usti boyliklariga ega bo'lgan hududlarga nisbatan olib borilayotgan ana shunday g'arazli siyosatni dunyoning ayrim mintaqalarida tinch

hayotning izdan chiqishi, hokimiyat tepasiga aynan o'sha davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishi bilan bog'liq misollarda ko'rish qiyin emas.

Ana shunday vaziyatni hisobga olgan holda, yana va yana bir bor xalqimizning ma'naviy olamini bunday tahdidlardan asrash, hozirgi o'ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga yetib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo'lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni, kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmazlik kerak.

Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining **ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar** odamni tashvishga solmay qo'ymaydi.

Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda"<sup>69</sup>.

Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin.

Mana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan

---

<sup>69</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 56-58.

hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol. Buni kundalik hayotda uchrab turadigan ko'plab voqealar misolida yaqqol kuzatish mumkin va ularning qanday og'ir oqibatlarga olib kelishini uzoq tushuntirib o'tirishning hojati yo'q, deb o'ylayman. O'tgan yillar davomida dunyoda va mintaqamizda ro'y bergan, biz bevosita o'z boshimizdan kechirgan voqealar, mafkuraviy jarayonlarning rivoji bu xulosaning to'g'ri ekanini qayta-qayta isbotlamoqda.

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televideniya, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz.

Binobarin, biz davlatimiz kelajagini o'z qobig'imizga o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson xuquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o'z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz. Biz butun ma'rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz.

Biz uchun shunday yo'l ma'qul, uning boshqa muqobili yo'q.

Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.



**Globalashuvning ma'naviyatga salbiy ta'siriga qarshi kurash omillari va vositalari.** "Ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashda ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, **sharqona axloq kodeksini** ishlab chiqqanliklarini eslash o'rinli. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu-hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadi...

Yosh avlodimizni turli ma'naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, nafaqat xalqimizni ulug'laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma'qul odatlar haqida ham ochiq so'z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish to'g'risida o'ylashimiz lozim. Men bu o'ta muhim vazifa keng jamoatchiligimizning, ayniqsa, ziyolilarimiz, olim va adiblarimiz, san'at va madaniyat ahli, o'zini ma'naviyat sohasiga bag'ishlagan barcha insonlarning doimiy diqqat markazida bo'lishini istardim...

Ma'naviy hayotimizga jiddiy xavf soladigan yana bir illat haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Shaxsan o'zim bu illatdan jirkanaman. Shu illatga chalingan odamni ko'rarga ko'zim yo'q. Bu - sotqinlikdir. Men har qanday yovuzlikni sotqinlikdan ko'raman. Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo'lmagan, ularga ishonmagan odam qo'rqinchlidir. Tabiatida sotqinlik xususiyati bo'lgan odam rahbarlik kursisiga o'tirib qolsa bormi, u yerda osoyishtalik yo'qoldi, deyavering. Ikkita odamning, ikkita mamlakatning o'rtasidagi urushni ham aynan shunday odamlar boshlab beradi. Shu bois bunday odamlardan ogoh bo'lishimiz, ularga yonimizda o'rin bo'lmasligi lozim. Agar tevarak-atrofimizdagi birorta kishida shunday alomatlar sezilayotgan bo'lsa, ularni darhol tarbiyamizga olib, to'g'ri yo'lga boshlashimiz kerak.

Shu munosabat bilan tarixda ko'p marta o'z tasdig'ini topgan, men ham o'z tajribamda sinagan hayotiy bir haqiqatni yana bir bor takrorlashni zarur deb hisoblayman: **agar biz ahil bo'lsak, el-yurt manfaati yo'lida bir tanu bir jon**

**bo‘lib yashasak, o‘zimizdan sotqin chiqmasa, o‘zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi”<sup>70</sup>.**

Bundan tashqari, globallashuvning salbiy ta‘siridan himoyalashda mafkuraviy profilaktikaning o‘rni alohida ahamiyatga ega.

**Mafkuraviy profilaktika** – ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g‘oyaviy-tarbiyaviy, ma‘naviy-mafkuraviy majmuasi bo‘lib, butun g‘oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi.

**Globallashuvning yoshlar ongi va qalbiga salbiy ta‘siridan himoya qilishda ta‘lim tizimining o‘rni.** “Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o‘ylangan, puxta il-miy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma‘naviy tarbiya bilan javob berish mumkin”.

Globallashuv o‘z-o‘zidan kechadigan jarayon emas, balki u bir qator omillar va vositalarning ta‘siri natijasidagina moddiylikka aylanadi. Haqiqatan ham iqtisodiyot, siyosat, ma‘naviyat va mafkuraning globallashuvi deganimizda mamlakatlar, xalqlar, millatlar va mintaqalarning alohidalikdan umumiylikka birlashuvi, ya‘ni bir butunlik holatiga kelishi zamonaviy telekommunikatsiya, kundalik internet, mobil telefon va boshqa informatsion vositalarning kuchi hamda ularning faoliyati orqali sodir bo‘layotgan jarayonni nazarda tutamiz.

Ayni paytda, ana shu vositalar inson aql-zakovatining mahsuli bo‘lib, uning faoliyati va hayot kechirishi bilan bog‘liq bo‘lgan yuksak taraqqiyotga ko‘tarilganining ko‘rsatkichi hamdir. Aytish mumkinki, bugungi kunda insoniyatning barcha sohalarda erishgan yutuqlari XXI asr mo‘‘jizasidir. Zero, u hali o‘z tarixida bunday yuksak taraqqiyotga erishmagan. Shu ma‘noda ham bir qator ilmiy adabiyotlarda insoniyat erishgan bugungi yutuqlar hozirgi zamon sivilizatsiyasi sifatida baholab kelinmoqda. Agar, globallashuvni moddiy kuchga aylantirayotgan omillar va vositalarni insoniyat tafakkurining mahsuli va uning yuksak taraqqiyotga erishganligining ko‘rsatkichi sifatida qaraydigan bo‘lsak, ularning bugungi sivilizatsiya (tamaddun) bilan nechog‘lik aloqasi bor, xalqlar, millatlar va etnik birliklarni yagona hududiy va ma‘naviy “makon”ga olib kelayotgan globallashuvning

---

<sup>70</sup> Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.

bugungi tamaddun (sivilizatsiya) ko‘rinishi deyish mumkinmi? Boz ustiga, bugun globallashuv jarayonini ba’zi mutaxassislar insoniyatning yaxshi hayot kechirishini ta’minlaydigan omil sifatida baholashidan qat’iy nazar, uning mamlakatlar, ularda yashayotgan xalqlar, millatlar va etnik birliklarning o‘ziga xosligini barbod qilishga o‘tkazayotgan ta’sirining guvohi bo‘lib turibmiz. Shunday ekan, globallashuv yoki uni moddiylikka aylantirayotgan vositalarni bugunning tamadduni sifatida qarashimiz mumkinmi? Agar mumkin bo‘lsa, qanday asoslarga tayanishimiz lozim; agar mumkin emas, deb hisoblaydigan bo‘lsak, uning zaminida qanday asoslar turadi, - degan o‘ta murakkab va ayni zamonda aniqlik kiritish zarur bo‘lgan muhim masalalardir. Zero, nafaqat O‘zbekistonda, shuningdek, MDH mamlakatlarida e’lon qilinayotgan aksariyat ilmiy adabiyotlarda ham bu masala e’tibordan chetda qolib kelmoqda. Bugun ularda asosan globallashuvning ijobiy natijalari eyforiyasi yetakchi o‘rinni egallamoqda. Ayniqsa, uning hozircha iqtisodiy hayotga o‘tkazayotgan ta’siriga yuksak baho berish bugun ham davom etayotganligini ta’kidlash lozim bo‘ladi<sup>71</sup>.

Bugungi kunda “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘parishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi. Afsuski, go‘yo barcha millat va elatlar madaniyatlarining qorishmasi bo‘lishi va barcha tomonidan birdek qabul qilinishi lozim bo‘lgan “ommaviy madaniyat” qisqa vaqt ichida kishilik jamiyatini ichidan emirishga qodir kuchga aylanib ulgurdi. Asrlar osha yetib kelayotgan milliy va umumbashariy qadriyatlarni mensimaslik, axloq va huquq normalariga nisbatan bepisandlik, kishini o‘z oilasidan, davlatidan, o‘zligidan mutlaqo begonalashib ketishiga olib keladigan individualizm, egotsentrizm g‘oyalari, ilm-fan, madaniyat yutuqlaridan voz kechish, faqat bugungi kuni bilan yashashga o‘rganish... afsus, “ommaviy madaniyat”ning bu kabi salbiy xususiyatlari bundan-da ko‘proq. Haqli savol paydo bo‘ladi: Xo‘sh, “ommaviy madaniyat” himoyachilari bu

---

<sup>71</sup> Otamuratov S.O. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. – Toshkent, 2012. – B. 35.

orqali nimaga erishishlari mumkin?

Avvalo, “ommaviy madaniyat” kishining ma’naviyatini buzadi, uni ma’naviy qadriyatlarga bepisand munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi, hayotga engil-yelpi munosabatda bo‘lish kayfiyatini shakllantiradi, bu esa, kishini o‘zligidan, milliyligidan mahrum qiladi, uning mafkuraviy immunitetini parchalab tashlaydi. Natijada bu toifadagi kishilarni birgina axborot makonining o‘zi bilan, ortiqcha kuch yoki mablag‘ sarflamasdan turib boshqarish imkoniyati paydo bo‘ladi. “Ommaviy madaniyat” kishini oilasidan, o‘zi yashab turgan jamiyatdan, Vatanidan uzoqlashtiradi. Natijada uning ta’siri ostida qolgan kishi uchun hech qanday muqaddas narsaning o‘zi qolmaydi. U o‘zining tor manfaati yo‘lida istalgan narsadan - oilasidan, Vatanidan voz kechishi mumkin. “Ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari iqtidorli, bilimli yoshlarni ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. Aytaylik, “XXI asr liderlari” kabi mavzularda o‘tkaziladigan seminarlarda ular go‘yoki iqtidorli yoshlarni tanlab olishda hokimiyatga yordam beradi, biroq bunda eng avvalo, o‘z manfaatlarini ko‘zlashadi. So‘ngra chet ellarga muntazam safarlar uyushtiriladi, ularda turli simpozium va seminarlar davomida bu odamlarning ongiga g‘oyat ustalik bilan ta’sir o‘tkaziladi. Shu tariqa o‘zlarini “dunyo fuqarolari” deb ataydigan kishilar toifasi tayyorlanadi va ularga yaqin kelajakda yer yuzida hech qanday chegara qolmaydi, degan fikr singdiriladi. Oradan yillar o‘tib ular o‘z davlatlarining “integratsiya o‘yinlari” qurboni bo‘lishiga sababchi bo‘ladilar.

“Ommaviy madaniyat”ning yana bir jihati shuki, u doimiy ravishda moliyalashtirib turishni talab qilmaydi, aksincha, axloqsizlik, madaniyatsizlik, kelajakka ishonchsizlik, huquqiy nigilizm, o‘z joniga qasd qilish, pornografiya, zo‘ravonlik, alkogolizm, giyohvandlik va shu kabi yot illatlarni targ‘ib qiluvchi foto, audio, video va boshqa ko‘rinishdagi materiallar, turli bosma nashrlar, global axborot tarmog‘iga joylashtirilgan millionlab saytlar ular uchun doimiy daromad manbai vazifasini ham bajaradi. Shunisi xavfliki, “ommaviy madaniyat”, asosan, yoshlarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Chunki uning homiylari katta yoshdagi kishilarga nisbatan yoshlarning ongu shuurini egallab olish osonroq ekanligini yaxshi anglaydilar. Agar ular maqsadlariga u yoki bu darajada erishgudek bo‘lsalar, buning oqibatini bartaraf

etish uchun bir necha o'n yilliklar, hatto, asrlar kerak bo'ladi, bu esa, butun insoniyat taqdiri juda katta xavf ostida qolishi mumkinligini anglatadi.

Bu kabi omillar bizning Vatanimiz, uning buguni va ertasi uchun ham ulkan xavf manbai ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun yoshlar ongini egallashga urinayotgan mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashish, xalqimizning milliy qadriyatlarini, ma'naviyatimizni asrab-avaylash davlatimizning doimiy diqqat-e'tiborida bo'lishi tabiiydir. Bu borada ijtimoiy hayotning barcha sohaları singari, ta'lim, ma'naviyat, madaniyat va sport, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohalarini rivojlantirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Globallashuv jarayonida tobora kuchayib borayotgan ma'naviy xurujlarga qarshi kurashish maqsadida amaldagi qonunchilikka qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi, yangi qonun hujjatlari qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 may 2019 yildagi PQ-4307-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo'shilib qolish holatlari hamon uchramoqda.

Tabiiyki, huquqiy mexanizmlar "Ommaviy madaniyat" targ'ibotchilarining g'arazli maqsadlariga qarshi kuchli himoya vositasi vazifasini bajaradi. Lekin bu xotirjamlik yoki befarqlikka berilish uchun asos bo'lmaydi. Bu jarayonda barchamizning ogoh bo'lishimiz, Vatanimizning kelajagi, taraqqiyoti uchun qayg'urishimiz juda muhim. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya muassasalari va ommaviy axborot vositalari globallashuv va "ommaviy madaniyat"ning salbiy xurujlariga

qarshi turuvchi eng asosiy qalqon ekanliklarini unutmasliklari lozim. Zero, aynan ta'lim muassasalari yosh avlodning mafkuraviy immunitetini shakllantiruvchi, ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalovchi, yuksak bilimli, intellektual rivojlangan kadrlarni yetkazib beruvchi markazlar hisoblanadi.

Bu jihatdan ta'lim muassasalarini globallashuvning salbiy tahdidlariga qarshi turuvchi ichki himoya tizimi, deb ta'riflashimiz mumkin bo'ladi.

“To'rtinchi hokimiyat” vakillari esa, global axborot makonida tashqi mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashuvchi eng samarali vosita – mazkur jarayondagi tashqi himoya tizimi vazifasini bajaradi. Chunki mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan mustaqil ommaviy axborot vositalarigina jahonning turli mintaqalaridagi mafkuraviy poligonlar tomonidan global axborot tarmoqlari orqali amalga oshirilayotgan axborot xurujlariga qarshi doimiy kurash olib borish imkoniyatiga ega.

Albatta, globallashuv jarayonida tashqi ma'naviy tahdidlarni, “ommaviy madaniyat”ning kishilik jamiyatiga qarshi qaratilgan salbiy ta'sirini butunlay bartaraf etish qiyin. Lekin bu holat hech narsa qilmaslik yoki lozim darajada harakat qilmaslik uchun asos bo'la olmaydi. Shunday ekan, ushbu masala barkamol avlodni shakllantirish jarayonida eng muhim masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Unga jiddiy yondashish, masalaning tub ildizlariga yetib borish va uni hal etish esa, bugungi kunimizning eng asosiy talabidir.

## **2.Ma'naviy tahdid, uning zamonaviy ko'rinishlari**

Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib bora-yotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechir-gan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shid-datli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalist-lar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamqda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat, ratsional mag'iz bor. Chunki, ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi-alomatini aks

ettirishi tabiiy. Ammo ko'pchilikning ongi-da bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda. Bunday ta'rif, menimcha, ko'p tomondan masalaning mohiyatini to'g'ri ifodalaydi. Nega deganda, hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Ana shunday globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerak. Bugungi kunda, har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Shu ma'noda, globallashuv - bu avvalo, hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalar, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda.

Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda - ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelgan va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz.

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, "Ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q", deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas. Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar.

Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Bu masala kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibat-larini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin.

Mana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy, milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy taxdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol. Buni kundalik hayotda uchrab turadigan ko'plab voqealar misolida yaqqol kuzatish mumkin va ularning qanday og'ir oqibatlarga olib kelishini uzoq tushuntirib o'tirishning hojati yo'q. O'tgan yillar davomida dunyoda va mintaqamizda ro'y bergan, biz bevosita o'z boshimizdan kechirgan voqealar, mafkuraviy jarayonlarning rivoji bu xulosaning to'g'ri ekanini qayta-qayta isbotlamoqda.

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat, internet, ijtimoiy tarmoqlar kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni



tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o‘z oldimizga qat’iy maqsad qilib “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” deb qadam qo‘yganmiz va bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz.

Binobarin, biz davlatimiz kelajagini o‘z qobig‘imizga o‘ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o‘z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko‘ramiz. Biz butun ma’rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz. Biz uchun shunday yo‘l ma’qul, uning boshqa muqobili yo‘q.

Muxtasar qilib aytganda, ma’naviy olamda bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun yoshlarning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat va ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur.

Shuni unutmash kerakki, bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arziyasiz bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

Hammamiz yaxshi bilamizki, har qaysi davlatning chegaralarini daxlsiz saqlashda harbiy kuch-qudrat, suv bilan havodek zarur. Ammo xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimiz ma’naviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib ish olib borishimiz kerak, degan savol barchamizni o‘ylantirishi tabiiy.

Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zi bo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi va aksincha, qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat

qudratli kuchga aylanadi.

Ayniqsa, bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun «Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish» niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko'zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi.

Shu borada ayrim qudratli davlatlar tomonidan muayyan mamlakatlarga, avvalambor, yer osti, yer usti boyliklariga ega bo'lgan hududlarga nisbatan olib borilayotgan ana shunday g'arazli siyosatni dunyoning ayrim mintaqalarida tinch hayotning izdan chiqishi, hokimiyat tepasiga aynan o'sha davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishi bilan bog'liq misollarda ko'rish qiyin emas.

Ana shunday vaziyatni hisobga olgan holda, yana va yana bir bor xalqimizning ma'naviy olamini bunday tahdidlardan asrash, hozirgi o'ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga yetib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo'lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

Biz yurtimizda yangi hayot, Yangi O'zbekiston asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. «Ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuklik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalariga qarshi kurashish zarurligi, xatarli tahdidlar oldini olish zarur.

Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda. Bu haqda fikr yuritganda, bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, Sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o'rinli. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, uyat - o'limdan qattiq, degan gaplar xalqimiz

tilida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan, aksincha, bunday iboralar el-yurtimizga mansub ezgu va go‘zal axloqiy qadriyatlarning asl mazmunini ifoda etadi.

Darhaqiqat, uyat va or-nomusini yo‘qotgan odam, Ahmad Yassaviy bobomiz aytganidek, xuddiki hayvon jinsiga aylanib qoladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning:

Oldig‘a qo‘yganni emak - hayvon ishi,

Og‘ziga kelganni demak - nodon ishi,

degan chuqur ma‘noli so‘zlari ham bu fikrni tasdiqlab beradi.

O‘z-o‘zidan ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq ko‘z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon-atrofimizda mavjud bo‘lgan, tobora kuchayib borayotgan ma‘naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. Shu bois yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz o‘yinlari to‘g‘risida biryoqlama va soxta tasavvur bo‘lmasligi kerak.

Ma‘lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta‘bir joiz bo‘lsa, avvalo, ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib etishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning «da‘vati» ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham ularga o‘z ta‘sirini o‘tkaza olmaydi.

Yosh avlodimizni turli ma‘naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, nafaqat xalqimizni ulug‘laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma‘qul odatlar haqida ham ochiq so‘z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug‘chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish zarur.

Azal-azaldan ochiq ko‘ngil, samimiy va mehnatkash, yaxshilikni yuksak

qadrlaydigan xalqimiz bunday illatlardan doimo hazar qilib keladi. Lekin ming afsuski, umr yo'llarida hasad balosiga ko'p duch kelamiz. O'lis va yaqin tariximizda ne-ne buyuk zotlar hasad va baxillik, ko'rolmaslik tufayli qanday azob-uqubatlarni boshidan kechirgani, sog'lig'i, hatto hayotidan judo bo'lganini achchiq misollarda ko'rish mumkin.

O'zbek nomini, o'zbek ilm-fani va madaniyatini, bir so'z bilan aytganda, xalqimizning yuksak salohiyatini, uning qanday buyuk ishlarga qodir ekanini dunyoga namoyish qilishda yurtimiz zaminidan yetishib chiqqan yuzlab ulug' zotlar fidoiylilik namunalarini ko'rsatib kelgan. Bunday insonlar diyorumizda hozir ham ko'plab topiladi va bundan keyin ham ularning saflari kengayib boraveradi. Hamma gap ana shunday insonlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, ularni qo'llab-quvvatlashda. Agar biz mamlakatimizning qaysi shahar yoki qishlog'ida bo'lmasin, yilt etgan iste'dod uchqunini ko'rganda, hammamiz uni o'z vaqtida payqab, ardoqlab, parvona bo'lib, unga yo'l ochib bersak, barcha sa'y-harakat va intilishlarimizni ana shunday oli-janob maqsadga qaratsak muxtasar aytganda, hasad qilib emas, havas qilib yashashni hayotimiz qoidasiga aylantirsak, hech shubhasiz, biz milliy taraqqiyot bobida yanada yuksak marralarni egallashga erisha olamiz.

Ma'naviyat bor joyda unga qarshi qaratilgan kuch ham bo'ladi. Chunki ma'naviyatga fazilatlar majmuasi deb qarajak, illatlar yig'indisini ma'naviyatsizlik hisoblaymiz. Afsuski, fazilatlar ham, illatlar ham bir shaxsning o'zida namoyon bo'lishi mumkin. Shuning uchun komil inson g'oyasi kishining o'zidagi fazilatlarini umrining oxiriga qadar takomillashtirish, illatlarni esa bartaraf yetib borishni taqozo etadi. Dunyoda ma'naviyatni ravnaq toptirishni istaydigan, faoliyatini batamom shunga qaratadigan kuchlar bo'lgani kabi ma'naviyatga to'g'ridan-to'g'ri qarshi qaratilgan guruhlar ham mavjud. Ularning ma'naviyatga qarshi yo'naltirilgan hatti-harakatlari majmuasini «ma'naviy tahdidlar» deymiz.

Bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish hech qachon oson kechmagan. Ana shunday murakkab jarayonda muayyan ma'noda mafkuraviy bo'shliq paydo bo'ladi. Muayyan kuchlar bu bo'shliqni egallashga jon-jahdi bilan harakat qilishadi.

Globalashuv davrini kompyutersiz, internet tarmog'isiz aslo tasavvur qilib

bo'lmaydi. Bugun kompyuterni bilmaydigan, internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalana olmaydigan odamlar zamondan ortda qolgan hisoblanadi. Yoshlarimiz shuni his etgan holda kompyuter va internetdan foydalanishni puxta o'rganilmoqda. Yana bir jihatni aytish kerakki, bugun internetdan foydalanish uchun kompyuter sotib olish shart emas. Zamonaviy uyali telefonlar orqali internet tarmog'iga bemalol ulanish va undan istagancha foydalanish mumkin.

Xo'sh, internet ham yaxshi, ham yomon ma'lumotlar o'chog'i hisoblansa, yoshlarimiz undan bemalol foydalanayotgan bo'lsa, ular tarmoqlardan qaysi ma'lumotlarni olayotganini kim nazorat qiladi? Aytish joizki, internetdan foydalanish uchun bir oz xarajat ham kerak bo'ladi. Bu xarajatlar, albatta, oila byudjetidan ajratiladi. Biz – farzandsevar xalqimiz, hayotimizni bolalarimizga tikkanmiz, ulardan hech narsamizni ayamaymiz. Biroq... Gap shundaki, internet orqali bolalarimiz aqlan o'sib, ma'nan yetuklikka erishishi, komil inson bo'lib tarbiyalanishi, ilm-ma'rifat o'rganib, ezgulikka intilishi mumkin. Bugungi kunda internetdan foydalanmay turib zamon talablariga javob beradigan mutaxassis bo'lib yetishishni mutlaqo ko'z oldimizga keltira olmaymiz. Shu bilan birga, aynan internetning salbiy ta'sirida farzandlarimiz ong-tafakkurining yomon tomonga o'zgarishi mumkinligini ham nazardan qochirib bo'lmaydi.

«Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi». Dono xalqimiz bu hikmatni bejiz aytmagan. Bugun aynan internet orqali fe'l-atvori o'zgarib, odamovi bo'lib borayotgan, shuningdek, jinoyatchi qiyofasiga kirib, o'zini-o'zi o'ldirayotgan hamda terrorchiga aylanib, qo'lga qurol olayotgan yoshlarimiz ham yo'q emas. Hozir ko'chalarda yoshlarga e'tibor qiling: deyarli hammasining qo'lida zamonaviy telefon, qulog'ida go'shak. Ayrimlari dasturxon atrofida ham internet xabarlarini o'qigani-o'qigan. Atrofdagilar bilan ishi yo'q. Hayot bilan qiziqmay qolgan, fikri xayoli qo'lidagi ana shu «matoh»da. Internet-kafelar ham yoshlarimiz bilan gavjum. Ammo bu yerga kirgan farzandlarimiz internetdan nima maqsadda foydalandi, nimalarni oldi, qanday o'yin o'ynadi, kimga nima yubordi? Bularni kim nazorat qiladi? Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida ichki ro'yxatga olingan hamda ichki ishlar organlari profilaktik hisobida turuvchi o'quvchilar ham bor. Ulardan ayrimlarining

internetga kirib, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolmasligiga kim kafolat beradi? Yoki vaqtinchalik ish bilan ta'minlanmagan yoshlarimizga nisbatan ham shunday fikr aytish mumkin. Chunki barcha yomon illatlarning ildizi bekorchilik va ishsizlikka borib taqaladi.

Dunyoda g'oyadan kuchli qurol bo'lmaydi. Bugungi kunda yovuz kuchlar o'z g'arazli g'oyalarini tarqatish uchun internetdek tayyor «dastyor»dan ustomonlik bilan foydalanib kelmoqda. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar aynan «ommaviy madaniyat»ni targ'ib etishning eng keng tarqalgan vositasiga aylanib boryapti. Bundan bolalarni asrashimiz lozim. Bu masala bugun hammani, ya'ni butun jamiyatni o'ylantirishi shart.

2017 yilning 15 iyun kuni poytaxtimizda «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi» mavzusida anjuman o'tkazildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlab, jumladan, hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo'qligini qayd etdilar. «Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solayotgani» alohida ta'kidlandi.

Xo'sh, diniy-ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushib, bugun xorijiy davlatlarda xunrezliklarga sherik bo'lib qolgan yoshlarni aynan internet o'z to'riga ilintirmadi, deb kim ayta oladi. Ana shu salbiy oqibatlariga qarab aytish mumkin-ki, hozirgi zamonda ijtimoiy tarmoqlar insoniyat boshiga bitgan balo ham bo'ldi. Vayronkor g'oya ilmsiz jamiyatga ko'proq bostirib kiradi. Shuning uchun fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi esa ma'rifat bilan kurashmoq zarur. Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish uchun jamiyatda ilm-ma'rifatni ravnaq toptirish eng muhim vositalar sirasiga kiradi. Ma'naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan kuch – mafkuraviy immunitet Keyingi paytlarda tilimizda «tahdidbardoshlik» degan yangi atama ham paydo bo'ldi. Tovar bozor sharoitida raqobatdosh bo'lgani kabi, kishilar ongi va qalbini egallash uchun kuchli raqobat kechayotgan hozirgi o'ta murakkab va

tahlikali zamonda aynan jamiyatning tahdidbardoshligini ta'minlash ham juda muhimdir.

Shu munosabat bilan tarixda ko'p marta o'z tasdig'ini topgan, men ham o'z tajribamda sinagan hayotiy bir haqiqatni yana bir bor takrorlashni zarur deb hisoblayman: agar biz ahil bo'lsak, el-yurt manfaati yo'lida bir tanu bir jon bo'lib yashasak, o'zimizdan sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi.

Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur taxlil yetib, quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: «Dushmanlardan qo'rqma - nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma - nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq - ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi».

Har bir inson hayotida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday fikrlarni unib-o'sib kelayotgan yoshlarning ongiga singdirish, ularni hayot sinovlariga bardoshli yetib tayyorlash bizning ota-ona, ustoz-murabbiy, rahbar-rahnamo sifatidagi, shu muqaddas yurt fuqarosi sifatidagi muqaddas burchimizdir.

Bu boradagi eng dolzarb vazifamiz - yuqorida zikr etilgan barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat.

Buning uchun avvalambor taraqqiyotimizning har bir yo'nalishi - jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning rivoji haqida maxsus adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Ayniqsa, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va

sogʻlom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Faqat ana shunday asosda yoshlarni oʻz fikriga ega, turli maʼnaviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir boʻlgan, irodali, fidoiy va vatanparvar insonlar yetib tarbiyalashga erishish mumkin. Bu borada maʼnaviy-maʼrifiy targʻibot ishlarining taʼsirchanligini taʼminlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qoʻllanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishimiz zarur.

### **3.Missionerlik, ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati**

Missionerlik deganda nima tushunamiz?

Missionerlik (missiya-lotincha yuborish, topshiriq) – biror dinga eʼtiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dini targʻib qilish demakdir.

Missionerlik asosan, xristianlikka xos boʻlib, bu harakat xristianlik Vizantiya imperasida davlat dini sifatida eʼlon qiliganidan eʼtiboran olib boriladi. Mazkur harakatning ilk davrida xristian missionerlari oʻzlarining missionerlik harakatlarini Yevropa va Yaqin Sharqdagi koʻp xudolikka sigʻinib kelgan aholini yakka xudolikka tarqib qilishdan iborat deb koʻrsatganlar.

Keyinchalik bunday qarashlari eskirdi, xususan, hozirgi vaqtda kelib, jahon aholisining deyarlik 80-90 foizi oʻz diniga, aksariyat hollarda yakka xudolikka ega boʻlgan davrda «missionerlik» va ayniqsa, «prozelitizm» salbiy bir holatga aylanib qoldi.

Bugungi kunda Oʻzbekiston misolida oladigan boʻlsak, mahalliy xristian diniy tashkilotlarining «misionerlik» harakatlari toʻgʻridan-toʻgʻri mahalliy-tub aholini «evangelizatsiya» qilishga, yaʼni oʻz diniga ogʻdirishga qaratilgani namoyon boʻladi.

Oʻsha davrdagi evangellashtirshni bugungi kunda hududimizda tatbiq etish toʻgʻri boʻlarmikan va shartmikan? bugungi kunda mavjud maʼlumotlarga koʻra,



respublikamiz fuqarolarning 99 foizi o'zini qaysidir bir diniy yo'nalishiga tegishligini ma'lum qilgan, Shundan 90 foiziga yaqini musulmonlar, 7-8 foizini pravoslavlar va boshqa din vakillari tashkil etadilar. Mazkur fuqarolarning deyarli hammasi yakka xudolikka ishonadilar. Garchi shunday ekan, ularni yana qanaqangi yakka xudolik, «haqiqiy» dinga yetaklash mumkin.

Xristian missionerlik tashkilotlarning maqsadlari asosan uch nuqtaga qaratilgan:

1.Xalqlarni xristianlashtirish. Shu orqali ularni iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan g'arb davlatlari ta'sir doirasiga tushurish.

2.Xalqlar o'rtasida o'z e'tiqodiga shubha uyg'otish ishonch va e'tiqoddan yuz o'girish va undan chiqqishiga olib kelish.

3.Xristianlikni qabul qilganlarni o'z e'tiqodida qattiq turishini ta'minlash va shu orqali ularning safini «Yangi xristianlar» bilan to'ldirish.

Bu maqsadlarga erishish uchun ular hech nimani ayamaydilar va doimo o'z uslub va metodlarini takomillashtirib boradilar, jumladan mamlakatimiz hududida faoliyat yuritayotgan ba'zi xristian diniy tashkilotlari quyidagi usullaridan o'zlarining missionerlik harakatlarida foydalanadilar:

-xayriya yordamini ko'rsatish, bunga birinchi navbatda moddiy yordam kiradi, tibbiy yordam, dori-darmon topib berish hamda oziq-ovqat bilan ta'minlash ham xayriya yordami hisoblanadi. Bunday harakatlari bilan ular o'zlari haqida ijobiy xulosa yoki bahoga ega bo'ladilar. Hamkorlikni yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'ladilar:

- bepul xristianlikni targ'ib qiluvchi mahalliy tilda chop etilgan, juda sifatli rangli ishlangan kitob va jurnallarni tarqatish.

- xristianlikga chaqiruvchi video va audio kassetalarni tarqatish;

- tibbiy, ta'lim-tarbiya sohasiga maxsus kadrlarni yuborish (tibbiy xizmatchi, o'qituvchi-murabbiy);

- missionerlik ruhidagi kutubxona, ingliz tili va kompyuter o'rgatish xonalarini tashkil etish;

- o'z saflariga qo'shilganlarni moddiy rag'batlantirish, ularni xorijiy safarlarga yuborish va ish bilan ta'minlash.

Missionerlik harakatida yana bir holatini alohida ajratish lozim. Bu ma'lum bir ijtimoiy qatlamni ajratib olish va bilan maqsadli ish olib borish. Jumladan, yoshlar bilan ishlashning turli missiyalari mavjud bo'lib, ulardan biri bolalar uchun xristian lagerlarini tashkil qilish. «Xalqaro xristian lagerlari» assotsiatsiyasining bugungi kunda 200 ga Yaqin lagerlari mavjud. O'zbekistonda ham ularning borligi 90-yillarda kuzatilgan. Nukusda «Emanuel» tashkiloti lager tashkil qilgan uchun yopilgan.

Qozog'istonda «Niva» lageri («Jatva» cherkoviga oid) da oxirgi 5 yil ichida 3000 ta bola dam olgan. Ularning 80 % e'tiqod qilmaydiganlar oilasidan bo'lgan. Lager dasturiga ko'ra, lager mavsumi tugashiga borib (15 kun ichida), dam oluvchilarning yarmi Iso Masihni tan olgan.

Missionerlikning bizning respublikaga xos bo'lgan xususiyatlardan biri bu xristian diniy tashkilotlarida o'zbek va boshqa mahalliy tillarda diniy ibodatlar olib borishga harakat qilishdir.

Ikkinchisi-bu mahalliy millat vakillari orasida o'zbek va boshqa mahalliy tillardagi diniy adabiyotlarni tarqatish va ulardan foydalanish: «U murabbiydir», «Xudo tayin qilgan qurbonlik», «Iso Masihning shogirdlari «Xudo» so'zi o'rnida «Alloh» so'zini ishlatishlari mumkinmi?», «Xudo muqaddas uchlikda birlashgan», «Shaxsan menga Xudo murojaat qilyapti», «U sizni sevadi» va h.k.

Mazkur ko'rinishdagi missionerlik harakatini eng ko'p olib boradiganlar, hozirgi kunda, bu «Iegova shohidlari» diniy tashkiloti vakillaridir. Ularning vakillarini jamoat joylarida, xiyobon va mahallalarda ochiqdan-ochiq missionerlik ruhidagi adabiyotlarini tarqatishlarini kuzatish mumkin.

Missionerlik bilan faol shug'ullanuvchi «Iegov shohidlari» sektasida ta'sir etish mexanizmlari aniq va lo'nda qilib ishlangan. Bu yo'nalish XIX asrning 70-yillarida AQSHda vujudga kelgan. Bugungi kunda jahonning turli mamlakatlarida 100 ga yaqin bo'linmalariga ega. Bu tashkilot qat'iy markazlashgan bo'lib, uning boshqaruvchi raisi cheklanmagan hokimiyatga ega. Yuqoridan pastga ko'rsatmalar va adabiyotlar, pastdan yuqoriga hisobotlar yuborib turiladi. «Iegov shohidlari» o'zining

matbuot organiga ega. «Posbon minora», «Uyg'on». Bu jurnallar jahon xalqlarining 160 dan ziyod tilida nashr qilinib, dunyoning turli burchaklarida tarqatiladi.

Ularning tarqatayotgan adabiyotlari didli, rangli va chiroyli manzaralar bilan tasvirlangan. «Jalb etuvchilar»ning ovoz ohanglari tinchlantiruvchi va mehrlil sado etadi. Mutaxassislarning aytishicha, «Iegov shohidlari» sektasi a'zolari jalb etishning 86 xil usulidan foydalanar ekanlar.

Ular ko'pincha quyidagi turdagi kishilarni o'z ta'sir doiralariiga olishga urinadilar:

- birinchi va to'rtinchi kurs talabalari;
- keksalar, ayniqsa, endigina nafaqaga chiqqanlar va yolg'iz qariyalar;
- o'z o'rmini topishga intilayotgan o'smirlar;
- kuchli stressni (kasallik, yaqin odamining vafoti, ajralish va h.k.) boshidan kechirayotganlar;
- qochoqlar, bemorlar va ishsizlar.

Yana bir missionerlik harakati bilan shug'ullanayotgan diniy tashkilot «To'liq injil xristian cherkovi»dir. Ular ba'zi ibodat uylarida o'zbek tilida ibodatlarni olib bormoqdalar, modiy yordam ko'rsatish orqali o'z dinlariga da'vat qilishga harakat qilmoqdalar.

Missionerlik faoliyatining eng cho'qqisi bu prozelitizm. Prozelitizm – bu to'g'ridan-to'g'ri biron bir dinga ishongan fuqaroni majburan o'z dinidan voz kechtirish va o'zga dinni qabul qilishga majbur qilishdan iborat.

Prozelitizm illatining ba'zi bir noxush natijalarini keltirish mumkin: bir qancha vaqt islom dinida yurib, keyin xristian dinini qabul qilgan kishilar vafot etganda, jasadlarini musulmon qavmlariga qo'yish muammo tug'dirmoqda. Sababi, mayitning musulmon ota-onalari o'z farzandlarini xristian mozoriga dafn etishni xohlamaydilar. Musulmonlar esa, xristian dini vakili jasadini o'z musulmon birodarlari yotgan joyga ular uchun haqorat deb biladilar. Natijada kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

Missionerlik qonun orqali ta'qib qilinib turiladi: O'zbekiston Respublikasida vijdon erkinligi qonunan kafolatlangan. Har bir fuqaro xohlagan diniga e'tiqod qilishi mumkin. Davlat va diniy tashkilotlar bir-biridan ajratilgan. Shu bilan birga diniy

konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik, totuvlik va daxlsizlikni ta'minlash maqsadida prozelitizm (bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan hatti-harakatlar) va har qanday missionerlik faoliyati qonunan man etilgan.

Ushbu qoidaning buzlishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun oldida javobgarlikka tortiladilar.(Jinoyat kodeksining 216(1), 216(2) moddalari)

Aholining, xususan soha mutaxassislarining, missionerlik haqida ma'lumotga ega bo'lishlari ularning burch va vazifalari sanaladi. Chunki yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "Islom-bu ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz dini. Uni tashqi ta'sir, buzg'unchi unsurlardan tozalash muqaddas burch sanaladi."

Mustaqil respublikamizdagi ayrim oilalarning, xususan, yoshlarning ota-bobolarimizning muqaddas islom dinidan voz kechib, xristian missionerlari domiga ilinayotganini inobatga olsak, bu faoliyat tinch-totuv yashayotgan xalqimiz o'rtasiga solinayotgan raxna-adovat ekani kunday ravshan bo'lib qoladi.

Missionerlik ta'siriga tushib qolmaslik uchun ham uni bilishimiz, u haqida quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishimiz lozim ekan.

Birinchiidan, xushyor bo'lishimiz, loqaydlikka berilmasligimiz kerak bo'ladi, Chunki "Vatan", "millat", "imon-e'tiqod" bu muqaddas tushunchalardir. Uni hech narsaga almashtirib bo'lmaydi.

Ikkinchiidan, har bir inson biror narsa haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishi darkor. Hech kimning biror narsani, hatto dinni ham noto'g'ri, yanglish va bo'yab talqin qilishga xhaqqi yo'q va bo'lmasligi kerak.

Uchinchiidan, va eng muhimi fuqarolar uchun nima kerak va muhim va nojoiz va kerak emasligini yana bir eslatib qo'yish lozim bo'ladi.

Missionerlik so'zi asli lotincha bo'lib, «yuborish», «vazifa topshirish» degan ma'nolarni anglatadi. Missionerlik bilan yonma-yon ishlatiladigan prozelitizm esa, to'g'ridan-to'g'ri biron bir dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va o'zga dinni qabul qilishga qaratilgan harakatlarni anglatadi. U o'z mohiyatiga ko'ra missionerlikning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi umumiy missionerlarning 2/3 qismini xristian missionerlari tashkil etadi. Dastlabki xalqaro xristian missiyalari, 1910 yilda

Shotlandiyaning Edinburg shahrida paydo bo'lgan edi. Bugungi kunda yuzlab shunday maqomga ega missiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularni yanada rivojlantirish, yetarli moddiy, ma'naviy va inson resurslari bilan ta'minlash juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Odatda, xalqaro missiyani tashkillashtirishda ma'lum bir konfessiyaning barcha shaxobchalari qatnashadi. Masalan, tashkilotning nashriyoti uni tegishli adabiyotlar bilan ta'minlasa, tadqiqot markazi muayyan mamlakat aholisi, uning hayot tarzi, urf-odatlarini, zaif tomonlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va diniy adabiyotlarni mahalliy tillarga tarjima qilish bilan shug'ullanadi. Missiyani moddiy-moliyaviy ta'minlashda ishlab chiqarish tuzulmalarining, missioner kadrlar tayyorlash va ko'ngilli homiylarni topishda missionerlik bazalarining ahamiyati beqiyosdir. Mana shunday kuch va tayyorgarlik bilan xalqaro missiya istalgan mamlakatda tegishli targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etishiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Ayni damda, missionerlik faoliyati bilan faol shug'ullanishga harakat qilayotganlar orasida bahoiylar, krishnachilar bilan bir qatorda yangi paydo bo'lgan sektalar borligini ham ta'kidlash zarur. Sekta bu – faqat o'zini haq din, insonlarni najotga yetkazuvchi deb da'vo qiladigan, aslida esa muayyan siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko'zlaydigan guruh hisoblanadi. Psixologlar mazkur sektalarni «ommaviy ijtimoiy-psixologik qirg'in quroli» deb ta'riflaydilar.

Diniy sekta deganda ma'lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo'lmagan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruhlar tushuniladi. Bugungi kunda missionerlik faoliyati bilan asosan turli sektalar shug'ullanadi. Hozirgi kunda taxminan 5000 ta sektaning faoliyati aniqlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz bilan chegaradosh bo'lgan davlatlarda «Bogorodichiy sentr», «Serkov ob'edineniya», «Serkov Iisusa», «Serkov Novogo Zaveta», «Beloe bratstvo», «Bojestvennyy orden Pervogo Angela», «Farxat ata», «Dianetika» kabi yuzlab diniy sektalar faoliyat olib bormoqda. Iblisga ibodat qilishga asoslangan «Satanizm» sektasi ham ayrim qo'shni respublikalarda keng tarqalmoqda. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, o'ta xavfli bo'lgan mazkur sektaning Rossiyada 100 ming, yer yuzida 5 milliondan ortiq tarafdori bor.

Mazkur sektalar aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo‘rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo‘lganlar ichida tashviqot olib borish yo‘li bilan o‘z tarafdorlarini ko‘paytirishga harakat qilmoqda.

Missionerlar makon va zamonga moslashgan holda o‘z uslub va vositalarini doimiy takomillashtirib kelganlar. So‘nggi vaqtlarda ular ma‘lum bir ijtimoiy qatlamni ajratib olib, maqsadli ish olib borishga intilmoqdalar. Jumladan, missionerlar asosiy e‘tiborni aralash millat vakillaridan iborat oilalarning a‘zolari, ilgari hech bir dinga e‘tiqod qilmagan, og‘ir xastalikka, judolikka, moddiy qiyinchilikka duch kelgan, axloq tuzatish muassasalaridan chiqib kelgan, ya‘ni moddiy va ma‘naviy ko‘makka muhtoj kishilarga qaratmoqdalar.

Ziyolilarning turli qatlamlari ichida san‘at sohasi xodimlari, kutubxonachilar, o‘rta maktab o‘qituvchilari, turli idoralar xizmatchilari faol missionerlik targ‘iboti obyektida tanlanayotganini ham qayd etish lozim. Bunday yondashuvda o‘ziga xos mantiq bor. Masalan, prozelit san‘atkor san‘atning hissiy-emotsional ta‘sir quvvatidan foydalanib, e‘tiqodiy bosim o‘tkazishda yuqori samaradorlikka erishishi mumkin bo‘lsa, e‘tiqodini o‘zgartirgan kutubxonachida esa «o‘lja» sifatida tanlanganlar bilan yakka tartibda ishlash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Missionerlarga tabiatan ishonuvchan, tashqi ta‘sirga moyil bo‘lgan va ayni paytda, hayotda sabr-bardoshli va fidoiy bo‘lish bilan bir qatorda hamisha ma‘naviy-ruhiy ko‘makka, qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan ayollarga ham alohida e‘tibor bilan qaramoqdalar. Ularning maqsadi jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqarish, ijtimoiy va milliy totuvlik asoslariga rahna solishdir.

Qayd etilgan misollar ham missionerlik obyektida tanlanayotgan qatlamlar doirasi muntazam ravishda kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Missionerlar o‘zlarining targ‘ibotchilik faoliyatini kuchaytirish maqsadida xilma-xil va turli davrlarga mo‘ljallangan dasturlar ishlab chiqqanlar. Xristian nazariyotchisi Luis Bush xristian missionerlari alohida e‘tibor qaratishi lozim bo‘lgan hudud - shimoliy kenglikning 10 va 40-parallellari orasida joylashgan, deb hisoblab, uni «10/40 OYNA», deb atagan edi. Ushbu parallellar orasi esa buddaviylik

konfutsiylik xinduiylik, islom, sintoiylik va daosizm dinlari keng tarqalgan hududlar hisoblanadi. Bu hududda Osiyoning 40 ga yaqin, Afrika qit'asining 20 dan ortiq davlati joylashgan.

Missionerlikda eng avvalo, hududlarga xos xususiyatlar inobatga olinadi. Masalan, «10/40 OYNA» hududiga kiruvchi mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari, aholisining diniy qarashlari, turmush tarzi, missionerlik faoliyatini olib borishda e'tibor berilishi zarur bo'lgan jihatlar haqida batafsil ma'lumotlar shakllantirilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda dunyodagi 3000 ga yaqin etnik guruhlar to'laqonli faoliyat yuritadigan cherkovlarga ega emas.

«Uiklif» xalqaro xristian missiyasi «Xushxabar»ni 600 dan ortiq tilga tarjima qilgan. Ularning harakatlari natijasida 45 million kishi «Muqaddas kitob» tarjimasi bilan tanishgan.

Hozirgi kunda ushbu missiya dunyo bo'yicha mavjud 6913 ta til guruhidan 1376 tasida ish olib bormoqda. Bunda avvalo tilning lingvistik tadqiqoti amalga oshiriladi va bu ish oxir-oqibatda «Injil»ni o'sha tilga tarjima qilish bilan yakunlanadi. Missiyaning dunyoning 60 davlatida faoliyat yuritayotgan 5277 ta va maxsus tayyorgarlikdan o'tayotgan 442 ta missioneri oldiga ana shunday vazifa qo'yilgan.

Dunyo xalqlarini injillashtirish bo'yicha mavjud rejalar haqida ham ta'kidlash lozim. 2002 yilda nashr etilgan AQSHda «Butunjahon xristianligi tendensiyasi» kitobida 2000- yilgi ko'rsatkichlar va 2025 yilgacha erishishi lozim bo'lgan holat qiyosiy tahlil qilingan. Xususan, unda yozilishicha:

- Yer yuzi aholisining «Injil» bilan tanishtirilishi 73,1 foizdan 100 foizga etkazilishi;

- dunyo aholisi tarkibidagi xristianlarning ulushi 33 foizdan 40 foizga o'sishi;

- xristianlarning 10 foizini tashkil qilgan missionerlarning ulushi 20 foizga ko'tarilishi;

- xristianlar o'z daromadlarining 1,8 foizini cherkov hisobiga o'tkazib kelishgan bo'lishsa, bu ko'rsatkich 3 foizga etkazilishi;

- har 3000 kishiga 1 ta missioner to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich har 1000 kishiga 1 ta missionerni tashkil etishi;

- cherkov mavjud bo'lmagan, aholisi 50000 dan ortiq 116 ta shaharning barchasida cherkovlar yuzaga kelishi;

- cherkovlar tuzilmagan 1000 dan ortiq etnik guruhning har birida cherkovlar tashkil etilishi;

- yoki umuman tarjima qilinmagan, yoki qisman tarjima qilingan barcha tillarga «Injil» tarjima qilinishi lozim.

Real voqelik va missionerlar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarni o'rganish, afsuski, bu rejalarda belgilangan maqsadlarga asta-sekin bo'lsa-da, erishilayotganini ko'rsatadi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, missionerlikda yoshlarga alohida e'tibor berilayotganini ta'kidlash lozim. Yoshlarning faol ijtimoiy kuchga aylanib borayotgani bugungi kunda ularning turli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarning asosiy obyekti ga aylanishiga olib keldi. Bunda ularning jamiyatning hali yetarli tajribaga ega bo'lmagan, tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan va ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmoqda.

Missionerlikning taniqli nazariyotchisi Patrik Djonstoun talaba yoshlarni missionerlik faoliyatining asosiy obyekti deb qarab, o'zining «Dunyo operatsiyasi» kitobida shunday yozadi: «Butun dunyoda universitet va kollejlarda 37 million talaba tahsil oladi. Ularning ko'plari 20 yildan so'ng yirik mansablarni egallashadi». Ushbu fikrlar missionerlarning jamiyatning ertangi kunini belgilab beradigan avlod ongini egallash, nazorat qilishni ko'zlab ish yuritayotganini anglash imkoniyatini beradi.

Xayriya yordamlari ko'rsatish ham missionerlikdagi eng qadimiy va samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda turli tadbirlar uyushtirilib, ularga asosan yoshlar jalb etiladi. Beg'araz deya taqdim etilayotgan, aslida jamiyatning yordamga muhtoj qatlamlarini aniqlash va so'ngra ular bilan maqsadli ish olib borishni ko'zlaydigan bunday harakatlar hatto «Yangi yil», «Navro'z», «Xotira va qadrlash kuni» kabi xalqimizda keng nishonlanadigan bayramlar davomida ham g'arazli maqsadlarda amalga oshirilishi kuzatilgan. Missionerlar o'zlari ko'rsatayotgan «yordamni» shu



bayramlar ruhiga moslashtirishga ham harakat qilmoqda.

### **Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati**

Diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Zero, hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo'lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi.

Ekstremizm (lotincha – «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarashlar va harakatlarni anglatadi. Ularga diniy tus berish esa, diniy ekstremizmga olib keladi.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi.

Ekstremistik qarashlarni barcha dinlarda, buddaviylik, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar – papa hokimiyati dushmanlarini ta'qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo'lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o'ziga xos ko'rinishi sifatida baholaydilar. Ammo hozirda islom dini niqobi ostidagi diniy-siyosiy harakatlar a'zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Fundamentalizm - (lotincha - «asos») tushunchasining ma'nosi muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko'rinishini anglatadi.

Diniy fundamentalizm – «ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin», degan fikrni ilgari surish ta'limotini anglatadi. Istilohda aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha

yo‘l-yo‘riqlarni qat’iy va og‘ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo‘llaniladi.

«Fundamentalizm» atamasi aslida xristian dini bilan bog‘liqdir. Fundamentalizm iborasi birinchi bor I-jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantlikdagi ortodoksal oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910 yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an’anaviy aqidalariga, ayniqsa Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonishni mustahkamlash, uni so‘zma-so‘z sharhlashga qat’iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib ketdi. 1919 yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, bu so‘z islomga nisbatan qo‘llanila boshladi. Bunda «fundamentalizm» atamasi – Qur‘on va hadislarni so‘zma-so‘z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ‘ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi yo‘nalishga nisbatan ishlatildi. Buning natijasida jahon matbuotlarida islom niqobidagi mutaassib jangarilarni «fundamentalistlar» deb atash ham odat tusiga kirdi.

Shunday ekan, ekstremizm yoki fundamentalizmni faqat muayyan din bilan bog‘lash mutlaqo asossiz. Xususan, islom dini, u bilan bog‘liq turmush tarzi va qadriyatlar majmui hech qachon ekstremistik tuzilmalarning go‘yo din va musulmon jamoasi ravnaqi yo‘lida amalga oshirayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin emas.

Islom shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar xuddi yuqoridagi kabi go‘yoki, keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko‘rsatish, aslida esa jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag‘ yig‘ish, asosiy tahdid manbai sifatida odamlar ongini egallash, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko‘zlaydi.

Hozirgi davrda ko‘plab ekstremistik uyushmalar va mutaassib harakatlar turli dinlar, shu jumladan, islom, xristianlik, Yahudiylik dinlarini niqob qilib olgan holda faoliyat yuritayotganlarini ko‘rish mumkin.

Aqidaparastlik (arab. – «aqida» – «ishonch», «biror narsani ikkinchisiga bog‘lash») muayyan sharoitda, biron-bir g‘oyaga qat‘iy ishonib, uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko‘r-ko‘rona qo‘llash yoki shunga urinishni anglatadi. U muayyan qonun va qoidalar ta‘sir doirasini sun‘iy kengaytirishga urinishda yorqin namoyon bo‘ladi.

Mutaassiblik (arab. – «g‘uluv ketish», «chuqur ketish») o‘z fikr-mulohaza va dunyoqarashi to‘g‘riligiga o‘ta qattiq ishonib, boshqa diniy e‘tiqodlarga murosasiz munosabatda bo‘lishni anglatadi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo‘nalishlar orasida keskin nizo va to‘qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy mutaassiblik g‘oyalarning tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu jarayonning eng xatarli jihati dinni siyosilashtirish vositasida hokimiyatga intilish, dindan odamlar orasiga nifoq solish, qo‘poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g‘arazli manfaatlarni ro‘yobga chiqarishda foydalanishga urinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi bu – mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo‘lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. Shu o‘rin qayd etish joizki, ko‘p manbalarda «aqidaparastlik» so‘zi hozirgi voqelikdan kelib chiqib «mutaassiblik» so‘zi bilan almashtirilgan holda istifoda etilmoqda.

Mutaassiblik va g‘uluv Qur‘oni karimda muhokama qilingan mavzulardan hisoblanib, uning har qanday ko‘rinishi qat‘iy rad etilgan. Jumladan, «Moida» surasida shunday deyiladi:

**«Ey, imon keltirganlar! Sizlar uchun Alloh halol qilib qo‘ygan narsalarni haromga chiqarmangiz va haddan oshmangiz! Zero, Alloh haddan oshuvchilarni yoqtirmaydi» (Moida, 87).**

Payg‘ambarimiz (alayhis-salom) ham o‘zlarining qator hadislarida diniy masalalarda haddan oshganlar noto‘g‘ri yo‘lda ekanini ko‘p bor ta‘kidlab, ularning aksariyati Allohning g‘azabiga uchrab, halok bo‘lganini aytib o‘tganlar. Jumladan, Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisi sharifda: «*Albatta, din osonlikdir. Kim*

*dinda chuqur ketsa, u yengiladi*», deyilgan (Imom Buxoriy rivoyati). Boshqa bir hadisda esa, Rasululloh (alayhis-salom) «*Dinda chuqur ketadiganlar halok bo'ldi. Dinda chuqur ketadiganlar halok bo'ldi. Dinda chuqur ketadiganlar halok bo'ldi*», (Imom Muslim rivoyati) deb uch bora takror aytganlarining o'zidan ham mutaassiblik va g'uluvning naqadar yomon illat ekanini ko'rishimiz mumkin.

**Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari.** Terrorizm (lotincha – «qo'rqitish», «vahimaga solish») – aholining keng qatlamlarida vahima va qo'rquv uyg'otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir.

Terror – ommaviy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlikdan hamda zo'ravonlik qilish bilan tahdid solishdan muntazam foydalanishdir. Shunday qilib, «terror» dushmanni jismoniy zo'ravonlik yo'li bilan qo'rqitish, hatto uni jismonan yo'q qilishni anglatadi. «Terrorizm» esa terror amaliyotidir. Bu ikki tushunchani shu tarzda chegaralash maqbul bo'lsa, u holda terrordan kelib chiqqan terrorizm aslo yangi hodisa bo'lmay, bugungi kungacha asrlar qo'ynidan yetib kelgan, deb hisoblash mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida «terrorizm»ga quyidagicha ta'rif berilgan: «Terrorizm – xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy va yuridik shaxsni biron bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo'rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug'diruvchi boshqa qilmishlar yohud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek, terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishni ta'minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yohud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag', vositalar va resurslar berish yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat».

Yuqorida keltirilgan ta'riflarda terrorizmning nihoyatda muhim bir xususiyati - uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalariga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-sado, shov-shuvga erishishga qaratilgani ta'kidlangan. XX asrning 60-yillaridan boshlab, terrorizmning mojarolarni keltirib chiqaruvchi hodisa sifatidagi salohiyati, butun-butun mintaqalar yo'nalishi turlicha bo'lgan terrorchi tashkilotlar va guruhlar faoliyat ko'rsatgan joylarga aylanib qoldi. Buning natijasida, terrorchilik harakatining ko'lamigina emas, balki metodlari ham o'zgardi. Uning eng dahshatli ko'rinishlaridan biri – o'zini avvaldan o'linga tayyorlagan terrorchi-kamikadzelar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarni keltirish mumkin.

Musulmon mamlakatlarida terrorchi uyushmalar ommaviy bo'la olmagan uchun aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg'otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Demak, terrori, va terrorchilik faoliyati birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmni tashkil etadi. Hozirgi davrda u global miqyos kasb yetib, xalqaro terrorizm shaklini oldi.

«Xalqaro terrorizm» tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. u og'ir jinoyatlardan bo'lib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

Xalqaro terrorizm fenomeni, ayniqsa, XX asr boshlarida avj ola boshladi, ya'ni xalqaro terrorizmga qarshi kurashda davlatlararo hamkorlikni yo'lga qo'yilishi o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Masalan, 1934 yilda Madridda bo'lib o'tgan jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalashtirish muammolariga bag'ishlangan konferensiyada terrorizmning «Aholini dahshatga solish va har qanday ijtimoiy tashkillashuvni yo'q qilish maqsadida biror bir vositani qo'llash» degan ma'nodagi ta'rifi qabul qilinishiga erishilgan. 1937 yilda 20dan ortiq davlat terrorizmning oldini olish va bunday harakatlar uchun jazolash haqidagi Konvensiyani imzoladi.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini ta'kidlash zarur. 1970 yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan terror amaliyoti

ko'proq uchragan bo'lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus va poezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko'plab tasodifiy kishilarning qurbon bo'lishiga olib keladigan qo'poruvchilikni amalga oshirishga e'tibor berilmoqda. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda nobud bo'lganlardan ko'ra, uning guvohlariga qaratilgan.

Xalqaro terrorchilik harakatlarining asosiy belgilari:

- xalqaro huquq himoyasidagi obyekt yoki subyektlarga qarshi qaratilgani;
- davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;
- a'zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, shu jumladan, yollanma shaxslar bo'lgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilishi;
- ekstremistik guruhlar tarkibida qo'poruvchilik harakatlari bo'yicha xorijlik yo'riqchilarning qatnashishi;
- ekstremistik guruh a'zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko'rishi;
- tayyorgarlik ko'rish va qo'poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog' savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanilishi.

Muayyan mamlakat hududida sodir etilgan terrorchilik xurujida qayd etilgan u yoki bu belgilarning bo'lishi, unga xalqaro maqom berilishi va shundan kelib chiqib, unga mos choralar ko'rilishiga olib keladi.

#### **4. "Kiber makon" tushunchasi va uning mazmun-mohiyati**

Kiber makonning bir nechta ta'riflari ilmiy adabiyotlarda ham, rasmiy hukumat manbalarida ham mavjud bo'lsa-da, hali to'liq kelishilgan rasmiy ta'rif mavjud emas. F. D. Kramerning fikriga ko'ra, kiber kosmik atamasining 28 xil ta'rifi mavjud.

##### **Eng so'nggi ta'rifi quyidagicha:**

Kiber makon - bu elektronlar va elektromagnit spektrning birgalikda ishlatilishi bilan tavsiflanadigan global va dinamik domen bo'lib, uning maqsadi axborotni yaratish, saqlash, o'zgartirish, almashish, almashish va ajratish, ulardan foydalanish,

yo'q qilish va jismoniy resurslarni buzishdir.

Kiber makon quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) keng ma'noda tushuniladigan texnologik va aloqa tizimlari tarmoqlarini ulashga imkon beradigan jismoniy infratuzilmalar va telekommunikatsiya qurilmalari (SCADA qurilmalari, smartfonlar, planshetlar, kompyuterlar, serverlar va boshqalar);

b) domenning asosiy operatsion ishlashi va ulanishini kafolatlaydigan kompyuter tizimlari (a bandiga qarang) va tegishli (ba'zida o'rnatilgan) dasturiy ta'minot;

c) kompyuter tizimlari orasidagi tarmoqlar;

d) kompyuter tizimlarini birlashtiruvchi tarmoqlar;

e) foydalanuvchilar va vositachilarning marshrut tugunlariga kirish tugunlari;

f) tarkibiy ma'lumotlar (yoki rezidentlar to'g'risidagi ma'lumotlar). Ko'pincha, umumiy tilda (va ba'zida tijorat tilida) tarmoqlarning tarmoqlari Internet, kompyuterlar orasidagi tarmoqlar esa intranet deb nomlanadi. Internetni (I kapitali bilan, ba'zan jurnalistik tilda «Net» deb nomlanadi) tizimning bir qismi deb hisoblash mumkin).

Kiber makonning o'ziga xos va konstitutsiyaviy xususiyati shundaki, biron bir markaziy tashkilot ushbu yangi domenni tashkil etuvchi barcha tarmoqlar ustidan nazoratni amalga oshirmaydi. Haqiqiy dunyoda dunyo hukumati bo'lmaganidek, kiber makonda institutsional ravishda oldindan belgilangan iyerarxik markaz yo'q. Shunday qilib, iyerarxik tartiblash printsipiga ega bo'lmagan domen kiber makon uchun biz Kennet Vals tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro siyosat ta'rifini «hech qanday qonunlar tizimi mavjud emas» deb kengaytira olamiz. Bu kiber kosmosda kuchning o'lchovi yo'qligini yoki kuchning tarqalib, minglab ko'rinmas oqimlarga tarqalishini yoki ba'zi olimlar bashorat qilganidek, son-sanoqsiz odamlar va tashkilotlarga teng ravishda tarqalishini anglatmaydi. Aksincha, kiber makon hokimiyat iyerarxiyalarining aniq tuzilishi bilan ajralib turadi.

**Kiber makon Internet metafora sifatida.** Kiber makonni Internet bilan aralashtirib yubormaslik kerak bo'lsa-da, bu atama ko'pincha aloqa tarmog'ining o'zida mavjud bo'lgan obyektlar va identifikatorlarga murojaat qilish uchun

ishlatiladi, shuning uchun veb-sayt, masalan, metafora bilan «kiber kosmosda mavjud» deyish mumkin. Ushbu talqinga ko'ra, Internetda sodir bo'layotgan voqealar ishtirokchilar yoki serverlar jismonan joylashgan joylarda emas, balki «kiber-kosmosda» sodir bo'lmoqda. Faylasuf Mishel Fuko atamani ishlatgan heterotopiyalar, bir vaqtning o'zida jismoniy va aqliy bo'lgan bunday bo'shliqlarni tavsiflash.

Birinchidan, kiber kosmik bir-biriga bog'langan kompyuterlar tarmog'i orqali raqamli ma'lumotlarning oqimini tavsiflaydi: bu darhol «haqiqiy» emas, chunki uni moddiy obyekt sifatida fazoviy joylashtirib bo'lmaydi va uning ta'siri aniq «haqiqiy». Kiber makon qanday ishlashi haqida ixcham model yaratishga bir necha bor urinishlar bo'lgan, chunki bu qarash mumkin bo'lgan jismoniy narsa emas. Ikkinchidan, kiber kosmik sayt kompyuter vositasida aloqa (SMS), bu yerda onlayn aloqalar va onlayn identifikatsiyaning muqobil shakllari qabul qilingan bo'lib, Internetdan foydalanishning ijtimoiy psixologiyasi, «onlayn» va «oflayn» hayot shakllari va o'zaro aloqalar o'rtasidagi munosabatlar va «real» va «virtual». Kiber makon orqali madaniyatni qayta tiklashga e'tibor qaratiladi yangi ommaviy axborot vositalari texnologiyalar: bu nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy yo'nalish va o'z-o'zidan madaniy ahamiyatga ega. Va nihoyat, kiber kosmik «yashirin» identifikatorlar orqali jamiyat va madaniyatni o'zgartirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishi yoki cheksiz aloqa va madaniyat sifatida qaralishi mumkin.

Kiber maydon - bu telefon suhbatini paydo bo'ladigan «joy». Haqiqiy telefoningiz ichida emas, ish stolidagi plastik qurilma. Boshqa odamning telefonida emas, boshqa shaharda. Orasidagi joy telefonlar. So'nggi yigirma yil ichida bir vaqtlar ingichka va qorong'i va bir o'lchovli bo'lgan bu elektr «kosmik» - telefondan telefonga cho'zilgan tor bir trubkadan biroz ko'proq - xuddi ulkan dev kabi ochilib ketdi. Yorug'lik uning ustiga tushdi, yonib turgan kompyuter ekranining dahshatli nuri. Ushbu qorong'u elektr tarmog'i dunyodagi ulkan gullab-yashnagan elektron landshaftga aylandi. 1960 yillardan boshlab telefon dunyosi kompyuterlar va televizorlar bilan o'zaro aloqada bo'lib kelmoqda va garchi hanuzgacha kiber makon uchun hech qanday modda mavjud bo'lmasa ham, siz hech narsa qila olmaysiz, ammo u hozirda g'alati jismoniy xususiyatga ega. Bugungi kunda kiber makonni o'ziga xos joy sifatida gapirish



mantiqan to'g'ri keladi.

Video o'yinlar matnli aloqadan farqi shundaki, ekrandagi tasvirlar aslida bo'sh joyni egallagan raqamlar bo'lishi kerak va animatsiya bu raqamlarning harakatini ko'rsatadi. Tasvirlar bo'sh joyni belgilaydigan ijobiy hajmni tashkil qilishi kerak. O'yin kiber makon metaforasini o'yinga ko'proq o'yinchilarni jalb qilish orqali qabul qiladi va keyin ularni obrazli ravishda ekranda namoyish etadi. O'yinlar avatar - pleyer darajasida to'xtab turishi shart emas, aksincha ko'proq narsani maqsad qilgan joriy dasturlar immersiv o'yin maydoni (ya'ni Lazer yorlig'i) shaklini oladi kengaytirilgan haqiqat kiber makondan ko'ra, to'liq immersiv virtual haqiqatlar amaliy emas.

Garchi global kommunikatsiya tarmog'ining yanada radikal oqibatlari ba'zi bir kiber kosmik tarafdorlari tomonidan taxmin qilingan bo'lsa-da (ya'ni Jon Perri Barlou nazarda tutgan davlat ta'sirining pasayishi) amalga oshmadi va bu so'z o'zining bir oz yangilik jozibasini yo'qotdi.

Biroz virtual jamoalar masalan, kiber-makon tushunchasiga aniq murojaat qiling Linden laboratoriyasi mijozlariga qo'ng'iroq qilish «Aholi»ning Ikkinchi hayot tushuntirish va taqqoslash maqsadida barcha bunday jamoalar «kiber hududda» joylashishi mumkin (Sterling ham Hackerning buzilishi, undan keyin ko'plab jurnalistlar) metaforani kengroq birlashtirgan kiber - madaniyatdir.

Metafora yangi avlod fikrlash yetakchilariga asosan AQSH Mudofaa vazirligi boshchiligidagi dunyodagi yangi harbiy strategiyalar asosida mulohaza yuritishda yordam berishda foydali bo'ldi. Kiber makonni metafora sifatida ishlatishning chegaralari bor edi, ayniqsa, metafora jismoniy infratuzilma bilan aralashib ketadigan joylarda. Bundan tashqari, tarmoqni nima ekanligini tasvirlash uchun kosmik metaforani yolg'on ishlatganligi uchun foydasiz deb tanqid qilindi.

Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990 yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982 yil «Sojjenie Xrom» («Burning Chrome») nomli hikoyasida yozadi.

Keyinchalik, Gibsonning 1990 yilda yozib tugatgan “Neuromancer” (“Asabli manzaralar tasvirlovchisi”, “Nervo-sochinitel”) nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida qo’llagan. Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o’ziga xos ko’rinishi sifatida tasvirlangan. Bu erda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida subyektiv psixologik holat sifatida namoyon bo’ladi.

Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog’i orqali bir-biri bilan bog’langan va bir vaqtning o’zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma’lumotlariga o’ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo’lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi «superkorporatsiya» texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg’unchilikni sodir etishga bo’lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o’z g’arazli maqsadlari yo’lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda.

Bu borada O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida quyidagicha ta’kidlangan: «Taassufki, ba’zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g’arazli maqsadda ularni teng qo’yish kabi holatlar ham ko’zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g’o’r yoshlarni o’z tuzog’iga ilintirib, bosh-ko’zini aylantirib, ulardan o’zining nopok maqsadlari yo’lida foydalanmoqda. Bunday nojo’ya harakatlar avvalo, muqaddas dinimizning sha’niga dog’ bo’lishini, oxir-oqibatda esa ma’naviy hayotimizga salbiy ta’sir ko’rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur».

“Kibermakon”da din niqobidagi “kiber hujum”lar tahdidi: din niqobi ostidagi ekstremistik saytlarda asosan davlat to’ntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap

boradi. Jumladan, bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan ISHID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidini keltirib o'tish mumkin. Ularda ISHID go'yo Islom yo'lida "qurbon" bo'layotgani aks etgan videolavhalar va fotosuratlar joylashtirilgan.

Terrorchilarning targ'ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. "Odnoklassniki", "Facebook", "Instagram", "Twitter", "Vkontakte" ijtimoiy tarmoqlarida buzg'unchilik va yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Shuningdek, Islom dinini noto'g'ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo'lga kiritish hisoblanadi.

Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990 yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982 yil «Sojjenie Xrom» («Burning Chrome») nomli hikoyasida yozadi. Keyinchalik, Gibsonning 1990 yilda yozib tugatgan «Neuromancer» («Asabli manzaralar tasvirlovchisi», «Nervo-sochinitel») nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida qo'llagan. Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida tasvirlangan. Bu yerda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida subyektiv psixologik holat sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog'i orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi «superkorporatsiya» texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg'unchilikni sodir etishga bo'lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o'z g'arazli maqsadlari yo'lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda.

«Kibermakon»da din niqobidagi «kiberhujum»lar tahdidi: din niqobi ostidagi ekstremistik saytlarda asosan davlat to'ntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi. Jumladan, bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan ISHID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidini keltirib o'tish mumkin. Ularda ISHID go'yo Islom yo'lida «qurbon» bo'layotgani aks etgan videolavhalar va fotosuratlar joylashtirilgan.

Mafkuraviy immunitet - shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi. Immunitet (lot. immunitet - ozod bo'lish, qutilish) tibbiy tushuncha bo'lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o'zini turli ta'sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmui tushuniladi. Sodda qilib aytganda, immunitet - kishi organizmining turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyatidir. Yuqoridagidan farqli o'laroq insonning umumiy immunitet tizimi tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlash mumkin. Mafkuraviy immunitet tizimining, asosiy va birinchi elementi bu bilim. Ammo, bilimlarning turi ko'p.

Buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi tarafdorlari ham muayyan "bilim"larga tayanadilar, albatta. Shunday ekan, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obyektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyitishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ular, o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan va millat manfaatlari bilann uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy elementi ana shunday ilg'or bilimlar zahirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik obyektiv va chuqur bo'lsa, uning zahirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Ammo bilimlar va qadriyatlar tizimi mavjudligining o'zi mafkuraviy immunitetning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki element

mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim elementi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi maqsadlar tizimi bilan bog'liq. Ana shunday aniq maqsadlar tizimi bo'lmas ekan, inson, millat yoki jamiyat goh oshkora, goh pinhona mafkuraviy tazyiqlarga duchor bo'laveradi.

## **5.Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan asrashning dolzarb masalalari**

Internet fan-texnika taraqqiyoti natijasi, madaniyat evolyutsiyasining hosilasi hisoblanadi. Hozirgi kunda hayotini internetsiz tasavvur qilish juda mushkul. Ayniqsa, yoshlar hayotida global tarmoqning o'rni tobora oshib bormoqda. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o'zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha internetdan eng ko'p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanar ekan.

O'zbekistonda ham Internet tizimi rivojlanib, undan foydalanuvchilar safi jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. So'nggi o'n yilda global tarmoqdan foydalanuvchilar o'n barobarga oshgan. Tarmoq orqali axborot izlash, qabul qilish, uzatishning juda qulay va ommabopligi undan foydalanuvchilar sonining tobora ortib borishini ta'minlamoqda. Mamlakatimizda 2007- yilda internetdan foydalanuvchilar soni (mobil internet foydalanuvchilari bilan qo'shib hisoblaganda) bir millionni tashkil etgan bo'lsa, 2016- yil yakunida bu ko'rsatkich o'n ikki milliondan oshdi.

Internet yoshlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning rivoji yoshlarga g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'lamining keskin darajada o'sishiga olib keldi.

Globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lgani kabi, internet tarmog'i ham shunday xususiyatlarga ega ekanini unutmashlik zarur. Albatta, global tarmoq – ulkan resurs. Biroq, bu resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishi ham juda jiddiy masalalar sirasiga kiradi. Xususan, ma'lumotlarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog'ida ma'naviy-axloqiy tubanlikni targ'ib etuvchi

sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etgan.

Ushbu fakt va raqamlar internet sanoati rivojlanib borayotgan davrda kishilarning axborotlarga nisbatan juda ehtiyotkorlik, ogohlik va ziyraklik bilan munosabatda bo'lishlarini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, kishilarimizda, ayniqsa, yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Aynan shu taraqqiyot vositasidan ustamona foydalanib, qalblarni zabt etishda diniy omilning roli yuqori. Shuning uchun ham turli diniy-ekstremistik va terrorchi uyushmalar o'z g'oyalarini targ'ib qilishda internetni eng samarali vosita sifatida qo'llamoqda.

Bunda diniy-ekstremistik oqimlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan keng foydalanish, internet orqali turli tillarda targ'ibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoatlar tuzish asosiy vazifaga aylangan. Masalan, bugungi kunda bir necha yirik terrorchi tashkilotlar o'z saflariga faol tarzda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan 17-35 yosh oralig'ida bo'lgan kishilarni yollamoqda. Bunda psixologik ta'sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoq a'zolarining sahifalari, qo'yilayotgan rasmlar, sharx va izohlar hamda olib borilayotgan suhbat mavzularini puxta o'rganadi va shu asosda «nishon»ga olingan shaxsga mavzuga oid materiallar internetning Facebook, Odnoklassniki, VKontakte, Telegram, Twitter, WhatsApp kabi keng auditoriyaga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali (yozma xabar, matn, fotosurat, stiker rasmlar, audio-video rolik) jo'natiladi va o'zaro aloqa yo'lga qo'yiladi.

Yoshlar orasida mutaassiblikka yo'g'irilgan bunday forumlarning tobora ommalashuvi hamda ularda turli ko'rinishdagi buzg'unchi «fatvo»larning berib borilishi muammoning naqadar jiddiy ekanini namoyon etadi. Chunki dunyo aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Yoshlar katta kuch hisoblanadi. Ularning endi shakllanib kelayotgan ongiga nimani singdirilsa, o'sha toshga o'yilgan naqshdek muhrlanadi. Shuning uchun ham radikal oqimlar aynan yoshlarni tuzog'iga ilintirishga harakat qiladi. Ulardagi ishonuvchanlik, kuch-g'ayrat, qiziqqonlik ularning maqsadini amalga oshirishda qo'l keladi.

Shuning bilan birga, bugungi kunda aksariyat yoshlarning qo'lida internetga ulangan zamonaviy uyali aloqa vositalari mavjud. Bu hol ularning yuqorida sanab o'tilgan turli xil ijtimoiy tarmoqlarga bevosita ulanish, do'stlari va tanishlari bilan uzluksiz muloqot qilish imkonini beradi. Ayni paytda, statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda eng ko'p yuklab olinayotgan dastur ichida «WhatsApp», «Telegram» tarmoqlari etakchi o'rinni egallaydi. Ilm-fanning yutug'i bo'lmish bu yangiliklar insonlarning uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilayotgani shubhasiz. Shu bilan birga, bu kashfiyotlar dunyo yangiliklaridan bir zumda voqif bo'lish va ma'lumotlarni oson tarqatish imkonini ham beradi. Biroq, mazkur tarmoqlarda millatlar va dinlar o'rtasida adovatni keltirib chiqaruvchi, nizoli vaziyatlarga sabab bo'luvchi, Shuningdek, insonlar orasida vahima uyg'otishga qaratilgan ig'vo, fitna-fasod xabarlarining keng tarqatilayotgani ko'pchilikni tashvishga solishi tabiiy. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida urfga aylangan mazkur muloqot tizimidan diniy-ekstremistik oqim a'zolari ham unumli foydalanmoqda. Chunki internet orqali aloqa bog'lashning osonligi, foydalanuvchilar sonining ko'pligi, aloqaning anonimligi, tashqaridan boshqarish va tahrir qilish cheklanganligi, axborotlar qisqa muddatda keng makonda tez tarqalishi, faoliyat sarf-xarajatlarining bir necha barobar kamligi terrorchi guruhlar uchun o'z tarafdorlari sonini ko'paytirishning qulay jihatlaridan biri hisoblanadi.

Ming afsuski, bunday manfur kuchlar asosan ilm va ma'rifatdan yiroq, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmagan kishilarni, asosan yoshlarni jalb etishga intilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali «jihod», «takfir», «shahidlik», «hijrat» tushunchalarini noto'g'ri talqin etgan holda o'z Vatanlarini tark etishga urinmoqda. Shuningdek, ayrim kimsalar tomonidan maqsadli ravishda islom mohiyatiga zid bo'lgan turli xil asossiz axborotlar, manbasi aniq bo'lmagan diniy tusdagi xabarlar yoki kishilarni vahimaga soluvchi foto va videolavhalar keng targ'ib etilmoqda. Bunda ba'zi yoshlarning axborot vositalari orqali tarqatilayotgan milliy va diniy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabarlar, aniq manbasi ko'rsatilmagan, asossiz axborot va ma'lumotlarga ishonib qolishayotgani, mulohaza qilmasdan ko'r-ko'rona qabul qilayotgani undan ham keskin oqibatlarini keltirib chiqarmoqda.

Bugun axborot iste'mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o'zida uni iste'mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, o'zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur.

Axborot iste'moli madaniyati, eng umumiy ma'noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Inson o'zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, hech bo'lmaganda «Bu axborotni kim uzatayapti?», «Nima uchun uzatayapti?» va «Qanday maqsadda uzatayapti?» degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak.

Shundagina turli g'oyalar ta'siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste'moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarga nisbatan o'ziga xos qalqon rolini o'taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo'lishi lozimki, ular virtual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Axborot iste'moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta'siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

«Kimki axborotga ega bo'lsa, u, dunyoga egalik qiladi», degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e'tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy amaliy ahamiyatga ega.

Yoshlarning turli oqimlarning ta'siriga tushib qolmasliklari uchun internetdan foydalanishda quyidagi zaruriy ko'rsatmalarga ahamiyat berishni tavsiya etadi:



- Yoshlarning bo'sh vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda o'tirish bilan o'tkazishi xatodir. Chunki, hech narsa jonli, haqiqiy va real muloqotlar o'rnini bosa olmaydi;

- Internetdan foydalanuvchilar shaxsiy ma'lumotlarini turli ijtimoiy tarmoqlar, bloglarga, elektron pochtaga kiritishlari, g'arazli maqsaddagi kishilarga ayni muddao bo'lib xizmat qiladi;

- «O'rgimchak to'ri»da aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi saytlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday tahlikali zamonda yoshlarga faqat «uz» domenidagi saytlardan foydalanish tavsiya qilinadi;

- Har qanday xabarni boshqalarga tarqatish kerak deyilsa, tarqatavermaslik lozim. Ba'zan islomiy iboralar aralashgan maktub keladi. Unda bu xatni Shu kechaning o'zida, bir necha kishiga tarqatishingiz kerak. Shunday qilsangiz undoq bo'ladi, qilmasangiz oqibati yomon bo'lishi aytiladi. Aslida bu narsalarning bari yolg'on hisoblanadi.

Darhaqiqat, islom dini ko'rsatmalarida ham naql qilingan biror xabarga ishonishdan avval uni tekshirib, aniqlab olish talab etiladi. Jumladan, Qur'oni karimda Shunday deyiladi: **«Ey, mo'minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda biror qavmga aziyat etkazib qo'yib, (keyin) qilgan ishlarigizga pushaymon bo'lmasligingiz uchun (u xabarni) aniqlab (tekshirib) ko'ringiz!»** (*Hujurot, 6*).

Bu haqida Qur'oni karimning yana bir oyatida insonlar uchun muhim ko'rsatma kelgan bo'lib, unda ham turli vositalar orqali olinayotgan xabar va ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishdan qaytariladi: **«(Ey, inson!) O'zing (aniq) bilmagan narsaga ergashma! Chunki quloq, ko'z, dilning har biri to'g'risida (har bir inson) mas'ul bo'lur (javob berur)»** (*Isro, 36*). Demak, inson ko'rgan, eshitgan har bir ma'lumotiga ishonishi, unga ergashishi oqibatida Alloh oldida ham so'raladi.

Payg'ambar Muhammad (alayhis-salom)dan rivoyat qilingan bir necha hadislarida ham Shunday deyiladi: *«Xabarni tekshirish Allohdan, (unda) shoshqaloqlik qilish shaytondandir»*, deganlar (Imom Bayhaqiy rivoyati). Shuningdek, *Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan boshqa bir hadisda esa, Rasululloh (alayhis-salom): «Kishining yolg'onchi ekanligiga uning eshitgan har bir*

*narsasini gapiraverishi kifoya qiladi» deganlar (Imom Muslim rivoyati).*

Ta'kidlash lozimki, internetda buzg'unchiliklarni targ'ib qiluvchi veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqdagi guruhlar soni kun sayin ko'paymoqda. Turli yolg'on ma'lumotlar ko'paygan bir vaqtda to'g'ri va haqqoniy axborotni ajratish yo'llarini bilish lozim. Jumladan, bunday sharoitda ajdodlar tutgan yo'lni tanlash kerak. Imom Buxoriy hazratlari hadislarining sahih, zaif va to'qimalarini ajratishda juda mohir bo'lganlari sir emas.

Rivoyat qilinishicha, Imom Buxoriy bir hadisning roviysi, ya'ni rivoyat qiluvchisini qidirib topadilar. Lekin roviy bir hayvonni quruq qo'l bilan aldab, qo'raga olib kirayotganini ko'rib, suhbatlashmasdan qaytadilar va undan hadis rivoyat qilmaydilar.

Demak, har bir olingan ma'lumotni tekshirib, asosli yoki asossiz ekanini aniqlamay turib, o'sha ma'lumotga qarab ish tutish islom mohiyatiga ko'ra, shayton yo'lga kirish hamda yolg'onchi bo'lib qolish bilan barobar bo'ladi. Chunki bunda xabar tarqatayotgan kishining g'arazli maqsadini amalga oshirishiga zamin yaratib qo'yiladi.

Yoshlarni turli xildagi yot g'oyalardan asrashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

*Birinchi*dan, jamoatchilik fikrini chalg'itayotgan, vayronkor axborotlar tashqaridan kelayotganini nazarda tutib, muntazam ularga qarshi turish. Befarqlik va sukut saqlash kayfiyatiga barham berish.

*Ikkinchi*dan, har qanday hujumkor va buzg'unchi g'oyaga qarshi o'z vaqtida, mo'ljalni aniq olib munosabat bildirish va bunda ehtirosga berilmaslik, ortiqcha shov-shuvlarga yo'l qo'ymasdan vazminlik va bosiqlik, ayni paytda, uddaburonlik bilan kuchli ta'sir o'tkazish usullarini qo'llash.

Turli guruhlar millatni yo'q qilish, ildizini qirqib tashlash maqsadida axborot tizimidan foydalanishga zo'r bermoqda. Mana shu jarayonda yoshlar o'zining aqliy salohiyatini ishga solib, o'zini o'zi himoya qilish va har qanday tajovuzlarga qarshi tura olish iqtidorini shakllantirishi lozim.

Oxirgi paytlarda internet tarmoqlarida har xil asossiz axborotlar, yoshlar ongiga

salbiy ta'sir ko'rsatadigan uydirma ma'lumotlar juda ko'p tarqatilmoqdaki, bularning ta'sirida yoshlar orasida bir-biriga nisbatan keskin adovatlar avj olishi kuzatilmoqda.

Unutmaslik lozimki, axborot xurujlari – biron shaxsga, muayyan tashkilot yoki davlatga qarshi yo'naltirilgan g'oyaviy ta'sir hisoblanadi. Uning asl maqsadi o'sha shaxs, tashkilot va davlatning tinchligini buzish hamda qora niyatiga etishdir.

Yoshlarning barchasi internet tarmog'idan faqat ilm yo'lida foydalanmoqda desak, yanglishamiz. Afsuski, internetdan noto'g'ri, buzg'unchilik va behayolikka doir ma'lumotlarni olishda ham foydalanmoqda. Bu kabi noxush holatlardan so'ng yoshlar kelajakda qahri qattiq, mehrsiz, hayosiz bo'lib yetishmaydi, deb hech kim kafolat berolmaydi.

Ma'lumki, ko'plab sayt va tarmoqlar katta mablag'lar evaziga filtrlab qo'yilgan va bu holatni ko'p davlatlarda kuzatish mumkin. Albatta, ta'qiqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan himoya qilish juda qiyin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5 sentyabr 2019 yilda 07/19/4436/3693-sonli qarori qabul qilindi. Unga asosan mamlakatimizda milliy an'ana va qadriyatlarimizni rivojlantirish, ulug' alloma ajdodlarimiz ilmiy merosini chuqur o'rganish, yoshlarimizni Vatanga muhabbat, ilm-ma'rifatli, intellektual barkamol avlod yetib tarbiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Bu sohada olib borilayotgan islohotlar dunyo miqyosida ham munosib e'tirof etilib, diniy bag'rikenglikning namunali modeli sifatida baholanmoqda. Xususan, O'zbekistonning diniy erkinliklar sohasida alohida xavotir uyg'otadigan davlatlar ro'yxatidan chiqarilganligi, BMT Bosh Assambleyasi yalpi majlisida O'zbekiston tomonidan taklif etilgan «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» rezolyusiyasining qabul qilinganligi bunga yaqqol misoldir.

Shunga qaramay, yurtimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga diniy tus berish, soxta g'oyalarni asl diniy qadriyatlar sifatida talqin qilish va aholi orasida nosog'lom aqidani singdirish holatlari kuzatilmoqda.

Diniy-ma'rifiy sohani yanada takomillashtirish, jamiyatda «jaholatga qarshi - ma'rifat» degan ulug'vor g'oya asosida dinning insonparvarlik, ezgulik va tinchlik kabi fazilatlarini hamda diniy bag'rikenglik ruhini keng targ'ib qilish, shuningdek, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning (Qo'mita) Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi bilan birgalikda jamiyatda vijdon erkinligi kafolatlari va diniy-ma'rifiy muhit barqarorligini ta'minlash bo'yicha mustahkam va doimiy hamkorligini nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etildi.

Quyidagilar yangi tizim doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari yetib belgilandi:

➤ din sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi, vazifalari va prinsiplarini keng jamoatchilikka, davlat va jamoat tashkilotlari rahbar va xodimlariga tushuntirish, ularning faolligi, tashabbuskorligi oshirildi;

➤ vijdon erkinligi kafolatlarining buzilishi holatlariga nisbatan tezkor choralar ko'rildi;

➤ aholining, ayniqsa, yosh avlodning diniy va dunyoviy qarashlarini rivojlantirildi;

➤ ommaviy axborot vositalari, Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan radikal g'oyalarga qarshi milliy an'ana va qadriyatlarimizning keng targ'ib etilishi ta'minlandi.

Qo'mitaning yangilangan asosiy vazifalari yetib belgilandi:

➤ vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq din ishlari sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

➤ O'zbekiston Respublikasining dunyoviy davlat tamoyilini amaliy ro'yobga chiqarish, fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlarini himoya qilish;

➤ diniy mutaassiblik va ekstremizm g'oyalarini tarqatish, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni yuzaga keltirishga qaratilgan hatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish;

➤ jamiyatda diniy-ma'rifiy muhit barqarorligi va e'tiqod erkinligiga tahdid tug'dirishi mumkin bo'lgan omillarni o'rganish, tahlil qilish va ularning oldini olish choralari ko'rish, shuningdek, ushbu jarayonlarda diniy-ma'rifiy soha vakillarining ishtirokini kengaytirish;

➤ davlat organlarining diniy tashkilotlar bilan o'zaro aloqasi va hamkorligini muvofiqlashtirish hamda davlat siyosatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan diniy tashkilotlar manfaatlarini aks ettirish;

➤ aholi orasida konfessiyalararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlash bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

➤ fuqarolarning xorijiy davlatlarga va chet el fuqarolarining O'zbekistonga ziyorat turizmini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

➤ ekstremizm, separatizm va mutaassiblik g'oyalari ta'siriga tushib qolgan shaxslarni, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarni sog'lom hayotga qaytarish, jamiyatda tinchlik va totuvlik muhitini mustahkamlash borasida ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish, bu borada ilg'or xorijiy tajriba asosida takliflar tayyorlash;

➤ manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda aholining diniy-ijtimoiy jarayonlarga munosabatini o'rganish bo'yicha sotsiologik so'rovlarni tashkil etish.

Qo'mita: jamiyatda «jaholatga qarshi - ma'rifat» degan ulug'vor g'oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlar ifodasi ekanligini targ'ib etish maqsadida barcha davlat va nodavlat-notijorat tashkilotlariga bu boradagi faoliyatni amalga oshirishda ko'maklashmoqda, mamlakatdagi diniy-ijtimoiy jarayonlar hamda diniy bag'rikenglikni ta'minlash masalalarini o'rganish natijalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash, targ'ibot va tashviqot tadbirlarini o'tkazish choralari ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan tarixiy nutqida ushbu dolzarb masalaga alohida e'tibor qaratib: "Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular

bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etadi", - deya ta'kidlagan edi.

Bunday adolatli yondashuv xalqaro doiralarda keng muhokamalarga sabab bo'ldi. BMT Xavfsizlik Kengashining 2017 yil 21 dekabrda 2396-sonli rezolyusiyasida: "Terrorizm, zo'ravon ekstremizm hech bir din, millat va sivilizatsiya bilan aloqador emas va bog'liq holda talqin qilinmasligi kerak", deb qayd etildi.

O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyasining tinchlik-osoyishtalikni saqlash, diniy bag'rikenglikni ta'minlashdagi ahamiyatini quyidagi jihatlarda ko'rish mumkin:

Birinchidan, rezolyusiya O'zbekiston Prezidentining diniy-ma'rifiy sohaga oid tashabbuslari nafaqat xalqimiz, balki xalqaro jamoatchilik tomonidan ham faol qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi – bularning barchasi xalqaro darajadagi yirik loyihalardir. Ushbu tashabbuslarning ahamiyati shundaki, ilm-ma'rifat, madaniyat zamini bo'lgan O'zbekistondan ma'rifiy islom g'oyalari tarqalishi, muqaddas dinimizning asl insonparvarlik ta'limotlarini yoyish bo'yicha Movarounnahrda shakllangan tarixiy maktablar an'anasining davom etishi "Jaholatga qarshi – ma'rifat" bilan kurashishning eng samarali yechimi bo'ladi.

Ikkinchidan, "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi dunyo jamoatchiligini bezovta qilayotgan terrorizm, ekstremizm, zo'ravonlik, murosasizlik kabi bugungi kunning o'tkir muammolariga yechim sifatida ilm-ma'rifat, o'zgalarga adolatli va bag'rikeng yondashuv hamda tinchlikparvar siyosatni targ'ib qiladi.

**Xulosa.** Dunyoning turli mintaqa va hududlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to'qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko'rinishdagi tahdidlarga qarshi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa, bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni, bir so'z bilan aytganda har birimiz uchun muqaddas bo'lgan oilamizni din niqobi ostidagi yot g'oyalar ta'siridan asrash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etish, bunda


«fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish» har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Globallashuv jarayoni va uning yoshlar ma'naviyatiga ta'sirini qanday izohlaysiz?
2. Ma'naviy tahdid, uning zamonaviy ko'rinishlari qanday?
3. Missionerlik, ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyatini izohlang.
4. «Kibermakon» tushunchasi va uning mazmun-mohiyati nimadan iborat?
5. Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan asrashning dolzarb masalalari nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Mutaassiblik deganda nimani tushunasiz?
7. Globallashuvga ta'rif bering.

### TARQATMA MATERIALLAR:

#### 1-ilova





### GLOBALLASHUV HAYOT SUR'ATLARINING BEQIYOS TEZLASHUVI SIFATIDA

Globallashuv (*lot, globus – “shap”, “Yer sayyorasi”; ingl, globalization – “ommalushuv”*) – XX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof-muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarning keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushuncha.

## GLOBALLASHUV

Texnik-texnologiyaning yuksak darajada rivojlanishi I-Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch” kitobida qayd etganidek, globallashuvning ikki ko'rinishini yuzaga keltirdi. Birinchisi, ijobiy xususiyat bo'lib, insoniyatning o'zaro axborot, texnologiya almashuvi tezlashdi va xalqlar yaqinlashmoqda.

Ikkinchisi, salbiy bo'lib, unga ko'ra, muayyan xalq manfaatlarini, qadriyatlarini ustuvor qo'yilmoqda va milliy an'analar, madaniyatlar inkor qilinmoqda.




GLOBALIZATION



✳ **«VIJDON»**

- ✳ A.Madvaliev tahriri ostida nashr etilgan «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «Vijdon» so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan:
- ✳ **«Vijdon»** (*arab.* ehtiros, his-tuyg'u, insof, diyonat) kishining o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat hissi, insoniylikning asosiy belgilaridan biri; diyonat, insof», deya izoh berilgan.

✳ **FUQAROLIK VA SIYOSIY  
HUQUQLAR TO'G'RISIDAGI  
XALQARO PAKTNING**

**19-moddasida:**

- ✳ Vijdon erkinligi shaxsning o'z dini va e'tiqodini o'zgartirish huquqini kafolatlashi aniq. Lekin bunday o'zgartirish boshqa shaxsning ta'sirida bo'lmasligi shart. Aks holda, bu qonunchiligimizda ta'qiqlangan missionerlikning bir ko'rinishiga aylanib qolishi mumkin.

✳ **O'zbekiston respublikasining**

✳ **«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar  
to'g'risida»gi qonunining 8-moddasida:**

- ✳ «O'zbekiston respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi».

## GLOBALLASHUV NIMA?

**Globallashuv bu avvalo hayot sur'atlarining  
beqiyos darajada tezlashuvi demakdir**

**I.Karimov**

Globallashuv jarayonlarining asos-mohiyatini foyda va daromad tashkil etgani kapitalistik munosabatlarning takomillashtiruvvisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

**U.Saidov**

Globallashuv – yuksak darajada taraqqiy qilgan mamlakatlarning kuchli bosimi ostida u millatlar, mamlakatlar va mintaqalarning barcha sohalar bo'yicha bir butunligining vujudga kelishining ko'rinishi, namoyon bo'lishining ifodasidir

**S.Otamuratov**

Globallashuv – muttasil davom etadigan tarixiy jarayon bo'lib, jahonning gemogenlashuvi va universallasuvi jarayoni.

**B.Bandi**

Globalizatsiya, ya'ni butun yer shari miqyosida o'zaro hamkorlik munosabatlari, jahon iqtisodiyoti, siyosiy va madaniy aloqalarning yaqinlashuvi rivojlanishidir

**A.Qodirov**

Globallashuv – bu “sovuq urush tizimini” almashtirgan yangi tizim

**Amer Fridman T.**

Globallashuv - milliy chegaralarning yuvilib ketish jarayoni

**B.Bandi**

Globallashuv davlatning ichki va tashqi siyosati chegaralarini bartaraf etishiga yordam beradi va xavfsizlik siyosatining mohiyatini o'zgartiradi.

**Vyacheslav Nikolov**




## XAYRIYA YORDAMLARI KO'RSATISH SHAKLLARI

- OZIQ-OVQAT PAKETLARI TARQATISH;
- MUHTOJ BEMORLARGA DORI-DARMONNI XARID QILISHDA KO'MAKLASHISH;
- MUHTOJ KEKSALARNI OVQATLANTIRISH;
- YANGI YOKI CHERKOV A'ZOLARI FOYDALANGAN, AMMO ULARGA KERAK BO'LMAY QOLGAN KIYIM-BOSHLAR, POYAFZALLARNI MUHTOJLARGA TARQATISH
- HAFTANING MUAYYAN, AKSARIYAT HOLLARDA PAYSHANBA VA YAKSHANBA KUNLARI XAYRIYA TUSHLIKLARI TASHKIL ETISH

## Missionerlar ta'lim tizimida o'z faoliyatini amalga oshirishda alohida e'tibor beradigan jihatlar

- - maktabga yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish uchun ta'mirlash materiallari olib beriladi;
- - ibodatga qatnaydiganlarning bevosita ta'mir ishlarida qatnashishi ta'minlanadi;
- - ibodatga keluvchilarning axborotlariga tayanib, konkret-adresli yondashuv asosida yangi o'quv yili arafasida muhtoj oilalarning 1-sinfga boradigan bolalariga daftar, qalam va boshqa kantselyariya mollari olib beriladi;
- - "mehribonlik uyi" tarbiyalanuvchilariga bolalar kiyim-boshlariva o'yinchoqlar sovg'a qilinadi;
- - til va kompyuter o'rgatish markazlari, hatto maktab yoshigacha bo'lgan bolalar uchun shu yo'nalishdagi ixtisoslashgan bog'chalar ochish orqali ham yoshlar orasida tegishli targ'ibot tashkil etiladi

## BOLALAR ORASIDA MISSIONERLIKNI AMALGA OSHIRISHDA E'TIBOR BERILADIGAN JIHALAR





## Ekstremizm tushunchasi

- ◆ Diniy ekstremizm - muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashaddiy mutassib, fanatik unsurlarning faoliyati mafkurasi. Fanatizm o'z aqidasiining shakshubhasiz to'g'riligiga ishonib, boshqa firqa va mazxablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarini buzushda ayblab, ularga qarshi urush ochishga chaqiradigan omilladandir. Diniy foleotelizm diniy ekstremizm va terorizmga zamin tayyorlaydi.



- ◆ Fundamentalizm iborasi ilk bor birinch jahon urushi arafasida vujudga kelgan protentantizm dagi ortodoksal oqimlarini ifodalash uchun ishlarilgan.



### INTERNET (*LOT, INTER – “ARO” VANET (WORK) – “TARMOQ”*):

- 1) katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'laydigan butun jahon kompyuter tizimi, butun dunyo bo'ylab faoliyat ko'rsatadigan xalqaro axborot almashuvining global kompyuter tarmog'i;
- 2) turli-tuman masalalar va sohalar bo'yicha ma'lumotlarni qamrab oladigan, uzoq, masofalardan turib aloqani amalga oshirish, elektron tijorat, masofaviy ta'lim, audio, video, tele, tasvir ayirboshlash va umuman, ko'pdan-ko'p yangilik va ma'lumotlarni jamlaydigan elektron axborot vositasi va dasturini anglatuvchi tushuncha.

## Mutaassiblik

Mutaassiblik – insonning biror g‘oya, aqida yoki odatlarga me‘yorida ortiq darajada ishonishi (fanatizm). Mutaassib odatda o‘zining tushunchalarini va qarashlarini mutlaq haqiqat deb biladi. O‘zgalar fikr-mulohazalarini eshitishni ham istamaydi. “Men haqman, mening bilganlarim to‘g‘ri,” – deb o‘zini ishontiradi va ruhiy jihatdan ayniydi.

Mutaassiblik maqsadli va ongli ravishda g‘alamis va g‘arazgo‘y kimsalar, guruhlar tomonidan amalga oshiriladi. Ayniqsa, yoshlarning ongini zaharlab, o‘zlarining zararli maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalanadi.

## MUTAASSIBLIKNING ZARARLI OQIBATLARI

Mutaassiblikning zararli oqibatlari moddiy zararlardan o‘nlab barobar ustuvor turadi. Bu zararli oqibatlarining eng asosiylari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Mutaassiblik shaxs aqlini zaiflashtiradi.

Mutaassiblik shaxs qarashlari va fikrlarini dogmalashtiradi.

Bularning natijasida odam manqurtlashib boradi.


Barcha zamonlarda mutaassiblik qoralanib kelingan.

Turkiy xalqlar mutafakkirlaridan biri Ch.Aytmatov mutaassiblik oxir-oqibatda insonning nasliga daxl qiladi, degan fikrga kelgan (“Qiyomat” asari).

## DINIY AQIDAPARASTLIK

Diniy aqidaparastlik iymon-e‘tiqodni noto‘g‘ri talqin qilishdir. Unga ko‘ra, johil kimsalar iymon borasidagi o‘z tushunchalarini yoshlar ongiga singdiradilar. Haqiqiy diniy manbalarni o‘qitmaydilar. Yurtimizdan chiqqan mutafakkirlar asarlarini o‘qima, ota-onang yoki yoru birodarlaring gap-so‘ziga quloq solma, deya o‘rgatishadi.

Vaholanki, O‘zbekiston mo‘tadil diniy e‘tiqodni ta‘sis etib, dunyo xalqlariga taqvim qilgan mamlakatlardan biridir.



### “Ommaviy madaniyat”

“Ommaviy madaniyat” mohiyatiga ko‘ra aholi aksariyat qismining hayotini tashkil etgan voqea-hodisalar, intilishlar va ehtiyojlar bilan to‘lib-toshgan. “Ommaviy madaniyat” o‘z nomi bilan omma, ya‘ni ko‘pchilik ehtiyojiga mo‘ljallangan bo‘lib, bu shakl va mazmun standartlashgani, shuningdek, tijorat nuqtai nazaridan muvaffaqiyatga qaratilganlikni taqozo etadi.

## EGOSENTRIZM

XXI asr boshini yangi mafkuraviy tahdidlar va ilmiy-texnologik asosga qurilgan targ‘ibotlar kurashi davri, deb ham atash mumkin. Bu borada M.Saidov: “G‘arb olamida keng tarqalgan egotsentrizm xudbinlikning bir ko‘rinishi bo‘lib, faqat o‘zini, o‘z manfaatlarini o‘ylab yashash, boshqa hech narsani tan olmaslikni bildiradi,” – deydi.

## Adabiyotlar:

1. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari / A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuhamedov, U.G'afurov, J.Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.
2. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To'ldirilgan nashr. Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sharq, 2014. – 536 b.
3. Imdan boshqa najot yo'q / A.Abdullayev, N.Hakimova, Sh.Jo'raev, J.Karimov. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. – 156 b.
4. Otamuratov S.O. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. – Toshkent, 2012.
5. Shermuhammedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2016. – 224 b.
6. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni (yangi tahriri) 2021 6 iyul. <https://lex.uz/acts/-65108>.
7. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
8. Najmiddinov J. Missionerlik: kecha va bugun. - Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
9. Ochildiyev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari. - Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.
10. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. – Toshkent: TIU, 2014. – 552 b.
11. Strategy, Lance (1999). «Kiber makon turlari: ta'rifi va delimitatsiyasi muammolari». G'arbiy aloqa jurnali. 63 (3): 382–83.[doi:10.1080/10570319909374648](https://doi.org/10.1080/10570319909374648).



12. Shtayger, Stefan; Xarnisch, Sebastyan; Zettl, Kerstin; Lohmann, Yoxannes (2018-01-02). «Kiber kosmosdagi mojarolarni konseptualizatsiya qilish». Kiber siyosat jurnali. 3 (1): 77–95. doi:10.1080/23738871.2018.1453526. ISSN 2373-8871.

13. Entsiklopediya site:uz.wikisko.ru

14. www.Ziyonetuz.

15. www.pedagog.uz.

16. www.edu.uz.

## **6-MAVZU: YANGI O`ZBEKISTONNING MA`NAVIY YANGILANISH STRATEGIYASI**

### **Reja:**

- 1. Yangi O'zbekiston va ma'naviy yangilanish strategiyasi.**
- 2. Ma'naviy yangilanishlarda inson ko'rsatkichi muhim mezon sifatida.**
- 3. Ma'naviy-ma'rifiy strategik islohotlar va uning barkamol inson tarbiyasidagi roli.**
- 4. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi.**

*Tayanch iboralar: Yangi O'zbekiston, ma'naviy yangilanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, dialektika, strategiya.*

### **1. Yangi O'zbekiston va ma'naviy yangilanish strategiyasi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, bilimli odam - e'tiqodli bo'ladi. Ma'naviyat vakinasini har bir millatning o'zi yaratadi. Bugungi ma'naviy qashshoqlik - adolatli haqiqatdir.

Haqiqatan ham, iqtisodiyot va ma'naviyat uyg'unligiga erishmog'imiz shart. Hozirgi kunda iqtisodiy kambag'allikni tugatish choralarini ko'ryapmiz, lekin ma'naviy qashshoqlikka barham berish borasidagi natijalarimiz bilan hali maqtana olmaymiz.

Odatda paxta dalasidagi g'o'zalar yo bog'dagi mevalarga qurt yoki g'allaga

zang tushsa, unga qarshi kurashishga darrov o'tlanamiz. Biroq milliy ma'naviyatga ziyor yetkazadigan "qurt"larga nisbatan negadir ko'pincha beparvomiz.

Bu borada, bir tomondan, ilm-fanga tayangan holda, ikkinchi tomondan, "Gap - kam, ish - ko'p" degan aqidaga amal qilgan holda ish olib borishimiz kerak. Ya'ni iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotning uzviyligiga erishish lozim. Ma'naviyat hur va erkin bo'lishini ta'minlashimiz darkor<sup>73</sup>.

Buning uchun, avvalo, so'z va ijod erkinligi omili ulkan ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o'zbek va jahon adabiyoti sara namunalarini muntazam o'qib-o'rganish, kitobxonlik va mutolaa madaniyati ko'magida milliy ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish nihoyatda muhim.

Shuning uchun mamlakatimizda milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish maqsadida "Ijod" jamoat fondi negizida Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash fondi tashkil etilayotgani e'tiborga sazovor.

"Savol tug'iladi: mana, iqtisodiy kambag'allikni qisqartirish bo'yicha katta ishlarni boshladik. Lekin ma'naviy qashshoqlikni qanday qisqartiramiz? Fikr qaramligidan qanday qutulamiz? Islohotlarimiz uchun zarur bo'lgan mablag' va investitsiyalarni qiyinchilik bilan bo'lsayam topyapmiz, ammo ma'naviy immunitetni mustahkamlash uchun ruhiy resursni qayerdan topamiz".

Prezidentimiz xuddi shu savollarni kun tartibiga qo'ydi. Yanada muhimi, davlatimiz rahbarining bu boradagi fikrlarida ma'naviyatning o'ziga xos indikatorlari, ya'ni ma'naviyat darajasini belgilash mezonlari qanday bo'lishiga doir chuqur tushunchalar o'z aksini topdi.

Ma'naviyat darajasini belgilovchi mezonlar bormi?

**Birinchi mezon** — ma'naviyat va huquq. Ma'naviyatni yuksaltirish sohasidagi barcha sa'y-harakatlarni huquqiy maydonda amalga oshirish lozim. Xususan, yoshlar ongu tafakkurini himoya qilish uchun bevosita qonunchilik asosida ish ko'rishimiz kerak.

Ma'naviy tarbiya va ta'limni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. "Beshikdan to -

---

<sup>73</sup> Deputat fikri. Akmal Saidov. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari. Uchinchi Renessans va ma'naviy-ma'rifiy uyg'onish <https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/33444>.

qabrgacha ilm izla” hadisi ham yaxlit uzluksiz ma’naviy tarbiya va ta’lim tizimini yaratish zarurligini ko’rsatib turibdi.

Toki ma’naviy tarbiya bilan ma’naviy-huquqiy tarbiyaning o’zaro uzviyligi ta’minlansin. Bu haqda fikr yuritganda, keyingi yillarda ushbu sohani yangilash maqsadida qator qonun va qarorlar qabul qilinganini qayd etish lozim.

Keyingi to’rt yilda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi raisi Prezident ekani belgilab qo’yilishi va kengashning hududiy bo’limlariga mas’ullik hokimlar zimmasiga yuklatilishi qat’iy huquq maydonida amalga oshirildi. Qonuniy asosda joriy etilgan ushbu o’zgarishlar ma’naviy-ma’rifiy ishlarni davlat siyosatida yanada yuksak o’ringa ko’tardi.

O’z navbatida, soha qonunchiligini yanada rivojlantirish — davr talabidir. Davlat rahbari qayd etganidek, “Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish kerak. Lekin Vatan, xalq taqdiri o’rtada turganda, kerak bo’lsa, qonun ham o’z kuchini ko’rsatishi shart”.

**Ikkinchi mezon** — ma’naviyat institutlari tizimini rivojlantirish. Bu o’rinda, jumladan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi faoliyatini tubdan takomillashtirish nazarda tutilmoqda. Prezidentimiz qayd etganidek, ushbu markaz va uning tizimidagi tashkilotlarning moddiy-texnik ta’minoti keskin kuchaytiriladi, uning faoliyati ilmiy tadqiqot va targ’ibot-tashviqot yo’nalishlarida qayta tashkil qilinadi.

Ular faoliyatini “Yangi O’zbekiston — Uchinchi Renessans sari” g’oyasi asosida milliy inson kapitalini rivojlantirishga qaratish lozim bo’ladi.

**Uchinchi mezon** — ma’naviyat targ’ibotchilarini tarbiyalash, ma’naviyat ta’limi tizimini shakllantirish. Bu boradagi asosiy vazifa mamlakatimiz hayotining turli sohalarida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yuksak ma’naviyatli shaxs, sodda qilib aytganda, lafzli inson bo’lishiga erishishdir.

Shu maqsad yo’lida:

- joriy yildan ma’naviyat va ma’rifat sohasi ixtisosliklari fanlar klassifikatoriga kiritilib, bu yo’nalish bo’yicha yetuk kadrlar tayyorlash ishlari boshlanadi;
- maktabgacha ta’lim muassasalariga jajji o’g’il-qizlarimizni bolaligidanoq

bilimli va fazilatli yetib tarbiyalash uchun metodik yordam ko'rsatish yo'lga qo'yiladi;

- maktablar, o'rta maxsus va oliy ta'lim dargohlarida mavjud shtat birliklari doirasida yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor lavozimi joriy etiladi;

- har bir mahallaga "Bir ziyoli — bir mahallaga ma'naviy homiy" tamoyili asosida professor-o'qituvchi va taniqli ziyolilar birlashtiriladi;

- Toshkent shahar nuroniylarining tarbiyasi og'ir, ishsiz yoshlarga ko'maklashish bo'yicha tashabbusi keng tatbiq qilinadi;

- hududlar markazida namunaviy loyiha asosida Ma'naviyat va ma'rifat maskanlari barpo etilib, mahalliy byudjetlar hisobidan sohaga qo'shimcha shtatlar ajratiladi.

**To'rtinchi mezon** — ma'naviyat targ'iboti ishlari monitoringi. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda.

Ayniqsa, bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash hamda milliy "aql markazlari"ni shakllantirishni talab etmoqda. Atrofimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta'sirchan tilda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam, dedi Prezidentimiz.

Bunday vaziyatda jamiyatimizni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Nega deganda, davlat rahbari doimo takrorlab kelayotganidek, "ilmga asoslanmagan sohaning kelajagi bo'lmaydi".

Shu nuqtai nazardan, Ma'naviyat va ma'rifat, "Taraqqiyot strategiyasi", Islom sivilizatsiyasi markazlari, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi tadqiqot institutlarini haqiqiy "aql markazlari"ga aylantirish vazifasi kun tartibiga qo'yildi.

**Beshinchi mezon** — ma'naviyat va jahon hamjamiyati. Globallashib borayotgan bugungi dunyoda terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiberjinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi ortib, hatto ba'zi hududlarda atayin beqarorlik va norozilik kayfiyatlari tobora avj oldirilmoqda.

Shunday qaltis hamda murakkab sharoitda har birimiz hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab yashashimiz farzu qarzdır.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ayni vaqtda dunyoning juda ko'p mintaqalarida insoniy qadriyatlar yemirilmoqda. Hatto iqtisodiy taraqqiyoti yuksalayotgan aksariyat mamlakatlarda ham ma'naviyat inqirozga yuz tutmoqda.

Ayniqsa, pandemiya sharoitida ayrim o'lkalarda betoqatlik, tajovuzkorlik kayfiyatlari kuchayib borayotgani achinarlidir. Bugun dunyoda sodir bo'layotgan shu kabi tashvishli voqeliklarning barchasi O'zbekiston Prezidenti haq ekanini, ya'ni iqtisodiy va ma'naviy yuksalish uyg'unligini ta'minlash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yangi O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha yangi xalqaro shartnomalar qabul qilinishi tashabbusi bilan chiqmoqda. Bunday tashabbuslarning amaliy ifodasini, jumladan, 2018 yilda BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyasi qabul qilingani, shuningdek, BMTning Yoshlar huquqlari bo'yicha konvensiyasi loyihasi ishlab chiqilgani misolida ko'rish mumkin. Prezidentimiz 75-sessiyadagi nutqida mazkur hujjatni qabul qilish zaruratiga xalqaro hamjamiyat e'tiborini yana bir bor qaratdi.

Ma'naviy-ma'rifiy sohada xalqaro hamkorlikni izchil rivojlantirish yo'lida mamlakatimiz ana shunday tashabbuskor odimlarini dadil davom ettirishi lozim. Xususan, turli xurujlarga qarshi kurashish borasida milliy ma'naviyatimizning o'ziga xos xususiyatlari bilan xalqaro hamjamiyatni izchil tanishtirib borishda xorijiy davlatlardagi elchixonalarimiz imkoniyatlarini ishga solish ayni muddaodir.

Zero, Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida ta'kidlaganidek, "Biz xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidagi umumiy xatarlarga qarshi yangicha yondashuvlar asosida va yaqin hamkorlikda ishlashimiz zarur".

Shunday ekan, albatta, o'zbek xalqining yuksak ma'naviyatini, boy milliy madaniy, tarixiy, ma'rifiy merosini, xususan, kitobat va hattotlik, musiqa va raqs, kino va teatr san'ati, me'morlik va hunarmandchilik, zargarlik va kandakorlik, pazandalik va qandolatpazlik bobidagi mahoratini dunyoga keng hamda izchil targ'ib qilish taqozo etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Agar kimdir, ma'naviyat masalasi - bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir".

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga davlat darajasida nazorat qilinishi bu sohaning nakadar muhim ahamiyatiga ega bo'lishidan dalolat beradi. Uzbekistondagi davlatning beshta barqaror yo'nalishlari bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi belgilangan yoshlarga tegishli davlat hujjatlarini takomillashtiruvchi yoshlarning huquq va manfaatlari, himoya qilish, barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun sharoitlarni yaratish bo'yicha muhim hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi PQ-3160-son Qarori ma'naviy-ma'rifiy sohada yangicha tub burilish yasadi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26 mart 2021yildagi PQ-5040-sonli «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorining qabul qilishlari ma'naviy-ma'rifiy ishlarining samaralarini oshirish ko'lami belgilab berilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" degan hayot baxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimovning «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asari ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi, milliy o'zlikni anglash, milliy ma'naviyat muammolariga erishgan bo'lsa, hozirgi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning asarlarida yoshlarni ma'naviyatli qilish inson yetib tarbiyalash uchun besh muhim tashabbusning ahamiyati katta.

Ayniqsa, yoshlarda soglom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini yaratish, internet-axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish va axborotlar, ularga g'oyaviy xurujlarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi,

ommaviy madaniyat, narkobiznes va boshqa taxdidlarga qarshi g'oyaviy kurash olib borish jamiyatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilish, ichki tahdidlarga qarshi kurashish g'oyalarini yoshlar o'rtasiga keng targ'ib qilish muhim vazifalari hisoblanadi.

Ta'lim tarbiya sifati va ma'naviy ishlar samaradorligini oshirishda birinchi navbatda yoshlarga ma'naviy, g'oyaviy, bilim va tarbiya berish hamda jamiyat manfaatlariga zid zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish orqali O'zbekistonni buyuk kelajakka erishish to'g'ridan-to'g'ri yoshlarni voyaga etishtirish muhim ahamiyat kasb etish.

Kichik yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'limni qamrab olish darajasi to'rt yil davomida ikki barobar ortib 60% ga yetdi. Bog'chalar soni esa uch barobarga ko'payib, o'n to'rt mingdan oshdi. Bu yil oliy ta'limga qabul parametrlari 2016 yilga nisbatan ikki yarim barobarga o'sdi, shuningdek, yoshlarimizni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 25 foizga yetdi.

Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq avvalo ma'naviy birlashuvi, milliy g'oyasi bilan yuksalgan. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g'oya masalasi juda muhim ahamiyatga egadir.

«Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat», - deydi Shavkat Mirziyoyev.

Biz yaratayotgan Yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan, - dedi davlatimiz rahbari.

Bundan buyon Respublika Ma'naviyat va ma'rifiy markazi barcha xududiy kengashlarning, vazirlik, boshqaruv va tashkilotlarning ma'naviy-ma'rifiy ishlarini muvofiqlashtirish belgilandi.

Markaz va tizimdagi tashkilotlarning moddiy-texnik ta'minoti keskin kuchaydi. Uning faoliyati ilmiy tadqiqot va targ'ibot-tashviqot yo'nalishlarida qayta tashkil qilindi.

## **2.Ma'naviy yangilanishlarda inson ko'rsatkichi muhim mezon sifatida**

Ma'lumki, bugungi O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davriga – Birinchi (ma'rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo'lgan. Bu – jahon ilm-fanida o'z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi O'zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Aynan mana shu jarayon men uchun islohotlarimizning eng katta natijasidir. Chunki, maqsadning aniqligi – harakatlar samarasini ta'minlaydigan eng muhim mezondir<sup>74</sup>.

Agar biz bundan besh yil oldin qabul qilgan Harakatlar strategiyasining tub mazmun-mohiyatini muxtasar ifoda etadigan bo'lsak, ushbu noyob hujjatda o'z oldimizga Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk vazifalarni strategik maqsad qilib qo'ygan edik.

Ta'kidlash kerakki, Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir.

Yangi O'zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida

---

<sup>74</sup> Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. <https://iiv.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>.



umume'tirof etilgan norma va printsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir.

O'tgan tarixan qisqa davrda islohotlar tufayli erishgan natijalarimiz haqida uzoq gapirmoqchi emasman. Bu mavzuda mamlakatimiz hamda chet el ommaviy axborot vositalari orqali nufuzli davlat va siyosat arboblari, ekspert va tahlilchilarning fikrlari muntazam e'lon qilib kelinmoqda.

Bunday xolis baholar barchamizni quvontiradi. Ayni vaqtda shuni ta'kidlashni istardimki, biz bu demokratik o'zgarishlarni kimlargadir yoqish, maqtanish, turli reytinglarga kirish uchun emas, aksincha, demokratik jarayonlar o'zimizga suv bilan havodek zarur bo'lgani uchun, xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimizning bugungi hayoti va ertangi istiqbolini o'ylab, milliy manfaatlarimiz yo'lida amalga oshirmoqdamiz.

Biz – O'zbekiston fuqarolari jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi shiddat bilan o'zgarib, hayotimizda yangicha munosabatlar, yangi imkoniyat va qadriyatlar shakllanayotganini hammadan ham ko'proq his etmoqdamiz. Ayniqsa, “inson huquq va erkinliklari”, “qonun ustuvorligi”, “ochiqlik va oshkoralik”, “so'z erkinligi”, “din va e'tiqod erkinligi”, “jamoatchilik nazorati”, “gender tenglik”, “xususiy mulk daxlsizligi”, “iqtisodiy faoliyat erkinligi” singari fundamental demokratik tushunchalar va hayotiy ko'nikmalar hozirgi vaqtda real voqelikka aylanib borayotgani e'tiborlidir.

Bir haqiqatni ochiq tan olishimiz lozim: vaqt o'tishi bilan islohot jarayonlari tobora kengayib bormoqda, shiddatli zamon oldimizga yanada ulkan vazifalarni qo'ymoqda. Hayotning o'zi bizni ko'p narsaga o'rgatmoqda. Shu sababli biz doimiy izlanishdamiz. Izlanish bor joyda yutuqlar bilan birga kamchilik va nuqsonlar ham bo'lishi tabiiydir.

Eng asosiysi, “Harakatda – barakat” deganlaridek, biz eng qiyin bosqichdan o'tdik, ya'ni, yo'limizni aniq belgilab, katta ishlarni boshladik. Endi hamma gap islohotlar yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish va mantiqiy yakuniga yetkazishda. Bu

albatta, oson emas, ammo biz bunga qodirmiz. Muhimi, keyingi yillarda bunday ulkan va murakkab vazifani amalga oshirish uchun yetarli siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-institutsional zamin yaratildi.

Bugun odamlar uyg'onmoqda, jamiyat uyg'onmoqda. Ma'naviy uyg'oq jamiyat – bu, hech shubhasiz, qudratli kuchdir.

O'zingiz ayting, atigi bir necha yil oldin bunday natijalarni tasavvur qilish mumkinmidi? Yo'q, albatta. Shuning uchun bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emas, bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Ayni paytda yana bir haqiqatni unutmasligimiz lozim: bugungi O'zbekiston – bu hali tom ma'nodagi, biz orzu qilayotgan, intilayotgan Yangi O'zbekiston emas. Hali bu marraga yetish uchun oldimizda juda olis va mashaqqatli yo'l turibdi. Yo'limiz shu paytgacha oson bo'lgani yo'q, bundan keyin ham oson bo'lmaydi. Lekin biz dadil oldinga borishdan, kerak bo'lsa, kutilmagan, ammo pirovard natijasi samarali va xalqimiz manfaatlariga javob beradigan noan'anaviy qarorlar qabul qilishdan cho'chimasligimiz zarur.

Mana, so'nggi paytda ko'pgina masalalarda, jumladan, “propiska”, xorijga chiqish uchun “stiker”, majburiy mehnat, paxta va g'allaga davlat buyurtmasini belgilash kabi eski tartiblardan mutlaqo voz kechish bo'yicha g'oyat muhim qarorlar qabul qildik.

Sodda qilib, jaydari tilda aytadigan bo'lsak, bu bilan osmon uzilib, yerga tushgani yo'q. Aksincha, byurokratiya, vazifani suiste'mol qilish, tamagirlik ko'rinishlari kamayib, jamiyatimiz hayoti erkinlashdi, odamlar yengil nafas ola boshladi. Xalqimiz ham, dunyo jamoatchiligi ham bu qadamlarimizni ijobiy baholamoqda.

Yangi O'zbekiston – bu, avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiy tizimi to'liq qayta qurilmoqda, qanchalik og'ir bo'lmasin, bozor mexanizmlarini amalda joriy etishni boshladik.

Hozirgi vaqtda elektron kartochkadagi pullarni bankomatlar orqali naqd pulga

aylantirish, milliy valyuta kursining “qora bozor”da – bir xil, banklarda esa boshqacha bo’lishi, xorijiy valyutalarni sotib olish, fuqarolikka ega bo’lish, O’zbekistonning istalgan hududidan uy-joy va mol-mulk sotib olish hamda ularni ro’yxatga qo’yish bilan bog’liq muammolar tarixda qoldi.

Islohotlar aholining barcha qatlamlari manfaatlariga ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda: tadbirkorlar o’z biznesini rivojlantirish uchun erkinlik va yangi-yangi imkoniyatlarga ega bo’lmoqda, dehqon va fermerlar, klaster xo’jaliklari o’zlari etishtirgan hosilning haqiqiy egasiga aylanmoqda. Holbuki, sobiq mustabid tuzum davrida “tepa”dan buyruq bo’lmasa, bir qadam bosishga ham haqqimiz yo’q edi. Ahvol shu darajaga yetib borgan ediki, uyimizning tomigacha paxta ekdik, lekin kosamiz oqarmadi. Maktab bolalarini ham paxtaga haydadik. Sevimli shoirimiz Abdulla Oripov o’z davrida chuqur dard va iztirob bilan “Million egatlarga sochilgan o’zbek”, deb yozganidek, yuz yil egilib paxta terdik.

Yaqin-yaqingacha har yili taxminan 6-7 million odam paxta terimiga majburan safarbar etilardi. 2017 yildan buyon ular bu mashaqqatdan qutuldik. Qanchalik qiyin bo’lmasin, bu sohada bozor iqtisodiyotining sinalgan va samarali usullarini, jumladan, klaster tizimini joriy etildi. Klasterlar yordamida gektaridan paxta bo’yicha – 50 sentner, g’alla bo’yicha 100 sentnerdan hosil olishni ko’zlangan.

Afsuski, mamlakatimizda tezlik bilan hal etish kerak bo’lgan o’tkir muammolar boshqa sohalarda ham yig’ilib qolgan.

Beparvolikka, loqaydlikka berilishga aslo haqqimiz yo’q. Koronavirus hali ham yonimizda, biz bilan birga yashamoqda. Shuning uchun mamlakatimizda tegishli tibbiyot markazlari, dori-darmon va himoya vositalarining yetarli zaxirasi shakllantirildi. Shu ma’noda, Yangi O’zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o’rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo’limizni yangi bosqichda davom ettirilmoqda.

Madaniy-gumanitar yo’nalishda – madaniyat, kino, raqs va tasviriy san’at sohasini, adabiyot va kitobxonlikni rivojlantirish bo’yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz xalqimizga yaxshi ma’lum, albatta. Xususan, xalqaro maqom anjumani, baxshichilik va milliy hunarmandchilik festivallarini tashkil etilganligi va yuksak

saviyada o'tkazilayotganligi Yangi O'zbekistonni dunyoga keng targ'ib etishda muhim ahamiyatga ega.

Milliy tariximizni xolis va haqqoniy tadqiq etish uchun bugungi kunda O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi, Fanlar akademiyasi qoshida O'zbekistonning yangi tarixi markazi, "O'zbekiston tarixi" telekanali faoliyat ko'rsatmoqda.

Islom dini rivoji yo'lida beqiyos xizmat qilgan buyuk muhaddis bobolarimizning diniy va ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish va targ'ib etish maqsadida Samarqandda – Imom Buxoriy, Surxondaryoda – Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, shuningdek, Toshkentda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ish olib bormoqda.

Toshkent shahrida barpo etilgan O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi xalqimizning boy diniy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish va dunyoga targ'ib etish, yosh avlodimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda beqiyos o'rin tutadigan ilm-ma'rifat markaziga aylandi.

Biz hozirgi murakkab va shiddatli zamonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'rni va ta'siri tobora ortib borayotganini hisobga olib, bu sohadagi faoliyatimizni yanada kuchaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" PQ-5039-sonli 2021 yil 26 martda hamda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5040-sonli 26 mart 2021 yilda qabul qilingan Prezident qarorlari ayni shu sohadagi vazifalarni samarali hal etishga qaratilgan.

Yangi O'zbekiston nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda barcha sohalar qatori ma'naviy-ma'rifiy masalalarga oid tashabbuslarni ham dadil o'rta qo'ymoqda. Bu haqda so'z yuritganda, mamlakatimiz tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasini qabul qilish bo'yicha ilgari surilgan tashabbus xalqaro jamoatchilik tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi.

Shuningdek, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining video anjuman shaklida o'tgan 31 mart – 1 aprel 2021 yilda o'tkazilgan SAMMITIda ilm-fan, ta'lim,

madaniyat va san'at sohasini, shuningdek, turkiy dunyo birligini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan atoqli shaxslarni rag'batlantirishga qaratilgan yana bir muhim tashabbusimiz qabul qilinib, Turkiy kengashning Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofoti ta'sis etildi. Biz buni barcha turkiy xalqlarning faxru iftixori bo'lgan hazrat Alisher Navoiy bobomizga, shunday ulug' zotlarni tarbiyalab voyaga etkazgan xalqimizga bo'lgan yuksak hurmat-ehtirom ifodasidir.

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, so'z va diniy e'tiqod erkinligi, gender tenglik bo'yicha erishayotgan yutuqlarimiz nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda izchil mustahkamlanib bormoqda.

Dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi yurtdoshlarimizni qo'llab-quvvatlash va ular bilan aloqalarimizni yanada mustahkamlash maqsadida "Vatandoshlar" jamg'armasi tashkil etildi.

Jamiyatimizda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarimiz sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Har yili Xalqaro do'stlik kuni sifatida keng nishonlanadigan 30 iyul sanasi O'zbekistonda "Xalqlar do'stligi kuni" deb e'lon qilindi. 2021 yilda ushbu bayram mamlakatimizda birinchi bor keng nishonlandi. Buni ham ichki va tashqi siyosat omillari birlashadigan mushtarak hodisa sifatida qabul qilish mumkin.

Butun dunyoda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham ekologik muammolarni hal etishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Qo'shni davlatlar va jahon jamoatchiligi bilan birgalikda Orol dengizi halokati oqibatida yuzaga kelgan ekologik fojialar ta'sirini yumshatishga qaratilgan harakatlarni qat'iy davom ettirilmoqda. Dengizning qurigan tubida yuz minglab gektar o'rmon va butazorlar tashkil etilmoqda, Orol bo'yi hududlarida ulkan qurilish va obodonchilik ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda tuzilgan Orol bo'yi mintaqasida inson xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'p tomonlama Trast fondi faoliyati muhim ro'l o'ynaydi.

Bu haqda so'z yuritganda, O'zbekistonning Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish bo'yicha BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish haqidagi muhim tashabbusi

2021 yil 18 may kuni Assambleya tomonidan bir ovozdan ma'qullanganini qayd etish o'rinlidir. Ushbu rezolyutsiyani ishlab chiqishda AQSH, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Ozarbayjon kabi dunyodagi nufuzli davlatlar, jami 50 mamlakat hammuallif sifatida ishtirok etgani bu tashabbus jahon hamjamiyatida qanday katta qiziqish uyg'otganidan dalolat beradi.

**Ta'limning inson rivojlanishiga ta'siri.** Inson rivojlanishining asosiy maqsadi odamlarning farovonligini ta'minlash, sog'lom va bunyodkorlik hayotidan yetarli cha bahra olish imkoniyatini beradigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hamda ekologik muhitni yaratishdan iborat. Inson rivojlanishi konsepsiyasida ta'lim asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi. Insoniyat sivilizatsiyasi davomida ta'lim va ilm-fanni yuqori darajada rivojlantirish ijtimoiy, texnik hamda iqtisodiy taraqqiyotning muhim dvigatellari hisoblangan.

Statistik ma'lumotlar kambag'allik muayyan darajada ta'lim darajasiga ham bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Bu bir tomondan, kam rivojlangan mamlakatlarning o'z ta'lim sohasini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashi uchun moliyaviy resurslarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Ikkinchi tomondan, mamlakatning yuqori darajali ish unumdorligini va pirovardida iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasini ta'minlash imkoniyati ham aynan ta'lim darajasiga bog'liqdir. Aholisi ancha savodli mamlakat ishlab chiqarishni rivojlantirish, ish o'rinlarini tashkil etish borasida nisbatan kengroq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Bunday mamlakatlarda odatda ishsizlik va ishga layoqatli aholining ish izlab boshqa davlatlarga borish darajasi past o'qimishli odamning ma'lumotsiz odamga qaraganda ish topishi osonroq. Barcha mamlakatlarda ishsizlik darajasi har doim ma'lumoti past yoki yo'q aholi orasida yuqoridir.

Ta'lim aholining salomatlik darajasi va uning kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi, ya'ni inson rivojlanishining yana bir muhim ko'rsatkichi bilan bevosita bog'liqdir. O'qimishli aholi o'z sog'lig'ini asrab-avaylaydi, profilaktika choralarini yaxshi qo'llaydi, asosan sog'lom turmush tarziga rioya qilib hayot kechiradi, kasallikni o'z vaqtida aniqlaydi, o'ziga birinchi yordam ko'rsatadi, malakali tibbiy yordamga murojaat qila oladi. Inson rivojlanishining asosiy parametrlari - ta'lim ko'rsatkichlari va aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ulushini ifoda etuvchi

ko'rsatkichlar hajmi taqqoslansa, yuqorida aytilgan gaplar o'z tasdig'ini topadi. Ayrim mamlakatlar darajasida ta'lim ko'rsatkichining ahamiyati yalpi ichki mahsulot yuqori ko'rsatkichiga har doim ham mos kelmasa, mamlakatlar aholi jon boshiga daromad miqdori bo'yicha jamlansa, bunday muvofiqlik o'z-o'zidan oydinlashadi. Ta'lim darajasi ko'rsatkichining oshishiga qarab yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi ham o'sadi.

Ta'limning insonning ma'naviy va aqliy ehtiyojlarini qondirish, qobiliyatini shakllantirishga ta'sirini aniqlashda uning muhim jihatlarini bir-biri bilan bog'liq holda davlat, jamiyat va shaxs nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mezoni qabul qilingan.

**Shaxs darajasi** - bu shaxsning o'z iste'dodini to'liq namoyon etish, tabiat in'om etgan aqliy qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatidir. Ayni paytda bu insonga ishda o'zini namoyon etish imkonini beradigan umumiy va kasbiy bilimni egallashdir. O'qimishli kishining ma'naviy olami nisbatan boy, hayoti faqat moddiy farovonlik bilan cheklanib qolmaydi. Ta'lim insonga o'zining ma'naviy ehtiyojlarini amalga oshirish, hayotini to'laqonli va mukammal qilish imkonini beradi.

**Davlat darajasi** - davlat mamlakat aqliy salohiyatini rivojlantirishdan manfaatdor bo'lishi darkor. Iqtisod fanlarini keng joriy etishda zarur bilimga ega bo'lish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va uning milliy boyligini to'plashning muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Aholining ma'naviy boyligi mamlakatda huquqiy madaniyatni, shuningdek, xalqning ozod, demokratik, huquqiy davlatda yashash va mehnat qilish, o'z huquq va erkinliklarini anglash, ulardan shaxs, davlat hamda jamiyat manfaati yo'lida foydalanish qobiliyatini uzviy hamda oson shakllantiradi.

Ta'lim inson rivojlanishining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanishini, jamiyatning muhim muammolarini hal etishda ham u asosiy o'rin egallashini va ta'lim inson rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va gumanitar muammolarni bartaraf etishga mislsiz ta'sir ko'rsatadi.

Inson rivojlanishi konstepstiyasining boshlanishini insoniyat tarixining boshlang'ich davrlari, ko'plab madaniy va diniy manbalardan topish mumkin. Nafaqat qadimdagi muarrixlar, balki faylasuflar ham (Demokrat, Platon, Arastu, Lukretsiy va boshqalar) ijtimoiy rivojlanish mohiyatini anglashga harakat qilgan.

O'rta asrlarda yashab ijod qilgan Didro ana shunday faylasuflar sirasidan. U insonni Yer yuzida eng qadrlil, madaniyat sohasidagi yutuqlarning yagona bunyodkori, aql sohibi, hamma narsaning ibtidosi va intihosi deb hisoblagan.

Rivojlanish timsoli tenglik va ijtimoiy odillik bilan chambarchas bog'liqdir. Inson rivojlanishi konstepstiyasining asosiy jihatlaridan sanalgan ushbu dastlabki qoidani Sharqning buyuk mutafakkir va faylasuflari ham o'z asarlarida qayd etgan.

Buyuk Abu Ali ibn Sino ta'kidlaganidek, inson aynan boshqalarning ehtiyojini qondirishi tufayli insonligini namoyon etadi va boshqalar ham shu tariqa harakat qiladi. Kimdir ekin ekadi, kimdir non yopadi, yana kimdir tikish qilsa, boshqasi igna yasaydi va shu yo'sinda hamma bir-birining ehtiyojini qondiradi.

Alisher Navoiyning fikricha, inson - yerda yaratilgan eng aziz va mukarram zot. Aynan inson va uning manfaatlari ahamiyatlilik, zarurlik va qadr-qimmatning asosiy mezonidir. Yer yuzida hamma narsa inson uchun yaratilgan. Yer yuzida yaratilgan barcha narsalar, quyosh, yeru-osmon, tog'lar, tekisliklar, dengiz va daryolar, o'simliklar, hayvonlar, gullar, qushlar, havo, olov, yil fasllari, ya'ni tabiat go'zalliklari, uning bitmas-tuganmas boyliklari insonga xizmat qilish uchun mo'ljallangan. Beruniyning ta'kidlashicha, mamlakat farovonligi undagi ilm-fanning ahvoli, taraqqiy etishiga ham bog'liq. Uning fikricha, insonning eng katta baxti bilimga egaligidir, chunki unga aql berilgan. Baxtni ana shunday tushunishgina jamiyatda tinchlik va xotirjamlikka olib keladi.

Inson haqiqiy roxat-farog'atga yetgani sari unga yetishga bo'lgan intilishi kuchayib borgandagina o'sha farogatni chin dildan his qiladi. Inson ruhi o'zi bilmagan narsani anglaganida ham ana shunday holat ro'y beradi, insonning eng oliy burchi esa boshqalar, ayniqsa, kambag'allarga g'amxo'rlik qilishidir. Inson rivojlanishi konsepsiyasining zamonaviy tushunchasiga iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati Amarti Senning "Rivojlanish imkoniyatlarni kengaytirish demakdir", deb nomlangan asarida chop etilgan nazariy ishlanmalari katta ta'sir ko'rsatdi. Bu asarda u rivojlanish jarayonini faqat moddiy yoki iqtisodiy farovonlikning oshishi sifatida emas, balki inson imkoniyatlarini kengaytirish jarayoni sifatida ko'rib chiqdi. Amarti Sen mazkur jarayonni ko'plab variantlar



orasidan eng maqbulini tanlab olish uchun inson erkinligini kengaytirish bilan bog'ladi. Amarti Sen konstepstiyasi asosida rivojlanishga insonga e'tibor qaratilgan jarayon sifatida ta'rif berildi. Natijada ushbu g'oyalar BMT Rivojlanish dasturi ekspertlari guruhi tomonidan birlashtirilib, ilk bor 1990 yildagi Inson rivojlanishi to'g'risidagi ma'ruzada taqdim etildi. Shundan so'ng har yili shunday ma'ruzalar tayyorlana boshlandi.

Inson rivojlanishi konstepstiyasining asosiy qoidasi odamlar nafaqat iqtisodiy rivojlanish vositasi, balki uning asosiy maqsadi hisoblanishini taqozo etadi. «Inson rivojlanishi - odamlar o'z salohiyatini to'liq rivojlantirib, o'z ehtiyoj va manfaatlariga muvofiq sermahsul ijodiy hayot kechira oladigan atrof-muhitni yaratishdir. Tanlash imkoniyatini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish juda muhim hisoblanadi. Inson rivojlanishining eng asosiy sharti uzoq va sog'lom turmush kechirish, yaxshi xabardor bo'lish, munosib hayot kechirish uchun zarur mablag'ga ega bo'lish, jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatidan iboratdir».

Inson rivojlanishi konstepstiyasi iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy nazariyasiga zid emas. Biroq u iqtisodiy rivojlanishni nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, balki inson rivojlanishiga ham qaratgan holda ularning cheklanganligi va ijtimoiy munosabatlardan muayyan darajada uzilib qolishining oldini oladi. Iqtisodiy o'sish va inson rivojlanishi maktablari o'rtasidagi tafovut shundan iboratki, iqtisodiy o'sish o'z e'tiborini faqat bir narsa, ya'ni daromad olishni kengaytirishga qaratsa, inson rivojlanishi inson tanlovini - u xoh iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yoki siyosiy tanlov bo'lsin, kengaytirishni o'z ichiga oladi.

Konstepstiya inson rivojlanishiga ikki yoqlama yondashuvni ko'rib chiqadi:

➤ birinchisi - bu salomatlikni mustahkamlab, bilim egallash va kasbiy ko'nikmalarni takomillashtirish orqali inson imkoniyatlarini kengaytirish:

➤ ikkinchisi - bu odamlarning ishlab chiqarish maqsadlari, madaniy, siyosiy faoliyat va dam olish uchun o'zi egallagan qobiliyatdan foydalanish jarayonidir. Shunday qilib, ushbu konstepstiya inson rivojlanishini faqat ishlab chiqarish faoliyati uchun resurslarni shakllantirish va moddiy boylikni ko'paytirishga yo'naltirmagan.

Daromad, inson rivojlanishi konstepstiyasiga ko'ra - garchi juda kam bo'lsada,

inson egalik qilishni istaydigan tanlovlardan biri, xolos. Biroq bu inson hayotining murakkabligi va xilma-xilligini belgilay olmaydi. Bunda salomatlik, ta'lim, yashash muhiti, harakatlar va so'z erkinligi ham muhim o'rin tutadi. Shu bois rivojlanish daromad va boylikni oshirishdan ko'ra ko'proq bo'lishi darkor. Uning maqsadi faqat odamlar bo'lishi kerak. Daromad eng so'nggi maqsad emas, balki iqtisodiyot, ijtimoiy faoliyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa soqalarda odamlar imkoniyatlarini kengaytirish vositasi hisoblanadi.

Shu tariqa inson rivojlanishining maqsadi odamlarni moddiy farovonlik bilan ta'minlash, sog'lom va bunyodkorlik hayotidan yetarli cha bahra olish imkoniyatini beradigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hamda ekologik muhitni yaratishdan va eng asosiysi esa bilim saviyasini mustahkamlashdan iborat.

Shu bilan birga aholining savodxonlik darajasini, aholining boshlang'ich, o'rta hamda oliy ta'lim bilan qamrab olinishini aks ettiruvchi va shu tariqa mamlakatda ta'lim tizimi ahvolini ifoda etuvchi ta'lim darajasi yuksaltirishdan iboratdir.

Inson rivojlanishi konsepsiyasida ta'lim asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi. So'nggi o'n yilda jahon hamjamiyatida ta'limni rivojlantirish borasida ulkan yutuqlarga erishildi. 1970 yilda jahonda odamlarning 36 foizi hatto bazaviy ma'lumotga ega emasdi. Ammo, 2009 yilda aholi sonining ikki baravar o'sishiga qaramay, bunday odamlar soni 26 foizga kamaydi. 1975 yilgacha dunyoda katta yoshli har ikkinchi kishi yozish va o'qishni bilmagan bo'lsa, ayni paytda savodsiz odamlar soni deyarli yarim baravarga qisqardi.

Shunga qaramay, butun dunyoda ta'lim sohasida hali yechilmagan muammolar ko'p. Yer sharida qariyb 100 million nafar maktab yoshidagi bola maktabga bormaydi, boz ustiga ularning 5/3 qismini qizlar tashkil etadi.

MDH mamlakatlari, jumladan, O'zbekistonda ta'lim darajasi ko'rsatkichi juda yuqori. Buning ustiga Hamdo'stlik mamlakatlarining barchasida bu ko'rsatkich kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi va yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichidan ham yuqori. O'zbekiston ta'lim darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida turadi. Respublikada keyingi o'n yil mobaynida ko'plab maktablar, kollejlari, listeylar va ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash evaziga pedagoglar

hamda o'quvchilar soni ko'paymoqda, ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasi rivojlantirilmoqda.

**Ta'lim va jamiyat taraqqiyoti.** Insoniyat sivilizastiyasi davomida ta'lim va ilm-fanni yuqori darajada rivojlantirish ijtimoiy, texnik hamda iqtisodiy taraqqiyotning muhim vositalaridan hisoblangan. Qadimgi mamlakatlar va sivilizastiyalar erishgan muvaffaqiyatlar butun dunyoga ma'lum. O'sha davrlardagi hukmdorlar ilm-fan, san'at va madaniyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. O'rta asrlarda qadimgi Misr, Xitoy, Yunoniston va Rim tarixi insoniyat rivojlanishida nafaqat buyuk davr, balki bugungi kunda ham o'rnak olsa arziydigan namuna hisoblanadi. Inson rivojlanishining yangi tarixi, chunonchi Yaponiya, Yevropa davlatlari, AQSH, Singapur, Tayvan (Xitoy) va boshqa qator mamlakatlarning o'z farovonligi hamda rivojlanishiga ilmiy kashfiyotlar katta ta'sir ko'rsatganidan dalolat beruvchi tajribasidan saboq olsa bo'ladi. Bu yutuqlar jamiyatda ta'lim va ilm-fanga, shuningdek, ular asosida shakllanadigan madaniyat hamda san'atga bo'lgan e'tiborli munosabat natijasidir.

XXI asr arafasida jahon hamjamiyati inson sivilizatsiyasini shakllantirish, mamlakatlar va alohida shaxsni rivojlantirishda ta'limning roli hamda vazifasini tubdan qayta ko'rib chiqqa boshladi. Dastlab, ta'limni tubdan isloh qilish ilmiy-texnik inqilobning «ijtimoiy natijalari»dan biri sifatida ko'rib chiqildi. Ammo keyinchalik natija sababga aylandi. Ta'lim iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili hamda sharti, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini shakllantirish, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlash mexanizmi bo'ldi.

Ta'limni rivojlantirish, uni tubdan qayta o'zgartirishda aniq yo'nalishlar belgilandi.

Birinchisi - bu ta'limni tubdan demokratlashtirish. Ushbu ilg'or yo'nalish yangi sanoatlashgan va ma'lum darajada rivojlanayotgan mamlakatlarni qamrab oldi. Yaxshi rivojlangan davlatlar o'z oldiga tobora rivojlanib borayotgan oliy ta'limning umumiylikka aylantirish masalasini qo'ydi

Ikkinchisi - 60-yillar boshida yuzaga kelgan uzluksiz ta'lim g'oyasi keyinchalik jadal sur'atda rivojlantirildi. Jahon hamjamiyati asta-sekin eski - ta'lim bir umrga

g'oyasini - ta'lim butun umr davomida g'oyasiga almashtirmoqda. Bu yerda gap ta'limning qadr-qimmatini, davlat, ijtimoiy, shaxsiy ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etish haqida bormoqda. Eng asosiysi, uchinchi - yangi, chinakamiga istiqbolli prinsip, ya'ni ta'lim bu nafaqat mutaxassislarni tayyorlash vositasi, balki jamiyatning umumiy intellektual, texnologik va madaniy darajasini oshirish, innovatsiyalar va taraqqiyotga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlash, jamiyatda zamonaviy turmush tarzini shakllantirishni jamoatchilik ongiga singdirish, davlat siyosatiga joriy yetishdir. Aholisining savodi nisbatan yuqori mamlakat ishlab chiqarishni rivojlantirish, ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha ko'proq imkoniyatga ega. Bunday mamlakatlarda odatda ishsizlik va ishga layoqatli aholining ish izlab boshqa davlatlarga borish darajasi past.

Yuqori ma'lumotli odamlar, kasbiy mahoratini muntazam oshirish, eng murakkab texnologiyalarni o'zlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan xodimlarga ega mamlakat transmilliy korporatsiyalar e'tiborini doim o'ziga jalb qiladi. Bu ayniqsa, ilm talab buyumlar ishlab chiqarish va yuqori texnologiyali xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan kompaniyalarning investitsiya siyosati haqida gap borganda juda seziladi. Odatda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya ma'lumot darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga oqib keladi va bu yerda yangi, ko'p haq to'lanadigan ish o'rinlarini tashkil etadi.

Ma'lumoti yuqori odamning ma'lumotsiz kishiga qaraganda ish topishi osonroq. Har qanday mamlakatda ishsizlik darajasi har doim ma'lumotsiz aholisi orasida yuqori.

Shu sababli ta'limni rivojlantirish, undan har bir fuqaroning foydalanishini kengaytirish ishsizlikka qarshi kurash bo'yicha davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylanishi shart.

Ta'lim sohasidagi islohotlar, shuningdek, ilmiy-texnika taraqqiyoti sur'ati va yo'nalishi dunyoning turli mamlakatlari hamda mintaqalariga bir xil ta'sir ko'rsatgani yo'q. Natijada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida tafovut yanada kuchaydi. Rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'limning umumiy va uzluksiz ta'lim amalga oshirilgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa hanuzgacha umumiy

savodxonlik xususidagi masala hal etilganicha yo'q.

Ta'lim aholining salomatlik darajasi ko'rsatkichi va uning kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi, ya'ni inson rivojlanishining yana bir ko'rsatkichi bilan bevosita bog'liqdir.

Birinchi omil - bu hukumatning ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan manfaatdorligi, siyosiy irodasi va qobiliyati. Qayd etilgan jihatlarning har biri ta'limni rivojlantirishda hal qiluvchi o'ringa ega va buni ushbu sohani rivojlantirishda hukumatning roli deb atash mumkin. Ya'ni, agar bularning bittasi amalga oshmasa ham ta'limni rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Hukumatning ta'lim sohasidagi islohotlar amalga oshirilishini va aholining bilim olishdan keng foydalanishini ta'minlash salohiyati hukumat a'zolarining bilim saviyasi hamda davlatning moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq.

Ikkinchi omil - bu ta'limdan aholi keng qatlamining foydalanish darajasi. Qadimgi sivilizatsiya mamlakatlari, shuningdek, Uyg'onish davri va ilk o'rta asrda Yevropa hamda Markaziy Osiyo davlatlarida yangi era boshlanguncha ilm fan va madaniyatning yuksalishi o'zining muayyan cheklanishiga ega bo'lgan. Buning sababi jamiyatning tor doiradagi, elita qismi yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgani tufayli taraqqiyot ham unga asoslanganidadir. Natijada o'sha davrning buyuk odamlarining kashfiyotlariga talab bo'lmadi. Negaki, jamiyat bu kashfiyotlarni qabul qilish va hayotga tatbiq etishga tayyor emasdi. Uchinchi omil — bu ta'lim sifati va uni inson faoliyati natijalariga aylantirish qobiliyati. Aholi savodxonligining yuqori darajasi aholi bilim darajasining muhim me'zoni hisoblanadi. Biroq, bu yagona me'zon emas. Aholining ta'limdan foydalanishi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega ko'plab mamlakatlar jamiyatni innovatsion rivojlantirish borasida bunday ko'rsatkichlarga erisholmagan. Bu holat uning xususiyatlarini aniqlab beruvchi ko'plab omillarni o'z ichiga olgan bo'lib, turli sabablar bilan izohlanadi.

Bu yerda ushbu omillarning asosiylari hisoblangan ikkitasini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

a) talabchanlik va tabiiy hamda muhandislik fanlari sohasidagi bilim darajasini

oshirish;

b) bilimni inson faoliyatining barcha jabhalariga tez o'zgartirishga qodir institutlarni tashkil etish.

Respublika byudjetidan ta'lim uchun ajratilayotgan mablag'lar ulushi 50 foizdan ortiqni tashkil etayotganini ham aynan ta'limning roli katta ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, ta'lim sohasiga mablag' sarflash muayyan subyektiv sabablar tufayli kutilgan iqtisodiy natijalarga olib kelmasligi mumkin.

Quyidagilar shunday sabablar sirasiga kiradi:

➤ mamlakatni rivojlantirishning noto'g'ri tanlangan strategiyasi, hukumat iqtisodiy siyosatidagi jiddiy xatoliklar. Masalan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va xizmatlar tegishli ravishda qo'llab-quvvatlanmaganda, qazib olish sanoati, yuqori likvidli xomashyoni eksport qilish bilan bog'liq tarmoqlarni rivojlantirishni jadallashtirish. Bu holat milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli manfaatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ishlab chiqarilmaydigan xomashyo uchun jahonda narxlar konyukturasi yomonlashganda iqtisodiy o'sish qayta ishlash sanoati va yuqori texnologiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanmagani bois to'xtashi yoki keskin pasayishi ehtimoldan holi emas. Ta'lim tizimi esa bu vaqtda xomashyo sohasida mehnat qiladigan mutaxassislar sonini ko'paytirishi mumkin. Natijada mamlakat aholi bilim darajasining o'sishi iqtisodiyot sohasi bilan bir xil rivojlanmaydi;

➤ malakali kadrlarning chetga kyetib qolishi. Mamlakatda ilm talab, yuqori texnologiyali tarmoqlarning yetarlicha rivojlanmagani, moliyalashning kamayishi, moddiy rag'batlar va innovatsiya faoliyati mexanizmlarining yo'qligi malakali mutaxassislar hamda olimlarning ketib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatda mutaxassislarni tayyorlash uchun sarflangan katta miqdordagi mablag'lar xodimlarga ilmiy, innovatsiya va ishlab chiqarish faoliyati uchun qulay sharoitlar taklif etishga qodir boshqa mamlakatlar tomonidan o'zlashtiriladi;

➤ ta'lim jarayonining ish beruvchilar talab va ehtiyojlariga mos kelmasligi. Buning natijasida o'quv yurtlari bitiruvchilari o'qish jarayonida egallagan bilimni amalda qo'llashni bilmaydi, ilg'or xorijiy tajribani mahalliy sharoitga moslashtira olmaydi;

➤ ta'lim muassasalari ishi sifatining pastligi, ularda poraxo'rlikning avj olishi va buning natijasida mutaxassislarni tayyorlash sifatining pasayishi va bitiruvchilarning o'z kasbini yaxshi bilmasligiga olib keladi. Qayd etilgan ushbu jihatlarni bartaraf etish hozirgi dunyoda o'zining raqobatbardoshligini saqlashga intiladigan har qanday mamlakatda iqtisodiy va ta'lim sohasidagi islohotlarning muhim qismiga aylanishi lozim.

Ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohatlarning asosiy yo'nalishlari:

- ta'lim tizimini, mazmunini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- ota-ona, o'qituvchi. O'qituvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- va bu islohotlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiq etishdan iborat.

### **3.Ma'naviy-ma'rifiy strategik islohotlar va uning barkamol inson tarbiyasidagi roli**

Xalqimiz ma'naviyat va madaniyat, ta'lim va tarbiya sohalarida boy merosga ega bo'lib, yosh avlodni hamisha insonparvarlik, vatanparvarlik, do'stlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, birodarlik va kamtarlik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelgan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ta'kidlaganlaridek, «Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir»<sup>75</sup>.

Ma'naviyat – ajdodlarni avlodlarga, o'tmishni bugunga, bugunni esa kelajakka bog'lovchi ko'prik vazifasini bajaradi. U ota-bobolarimiz to'plagan jamiki yaxshi fazilatlar va xislatlar, qadriyatlar va an'analarning majmui, qolaversa, ajdodlarimiz

---

<sup>75</sup> Karimov I.A. Yuksak ma-naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008. - B.19.

to'plagan tarixiy-ijtimoiy tajriba va barcha qarashlarni o'zida mujassam etadi. Tariximizning boyligi va buyukligi, avvalo, xalqimizning yuksak ma'naviyati va ma'rifati bilan bog'liqdir. Imom al-Buxoriy, Imom al-Termiziy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz insoniyat taraqqiyotiga, xususan, ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifatning yuksalishiga ulkan hissa qo'shganlar. Temuriylar, Boburiylar to'monidan yaratilgan buyuk saltanatlar, ular rahnamoligida barpo etilgan muhtasham tarixiy obidalar bugun ham xalqimiz dahosining yorqin namunalari sifatida dunyo ahlini hayratga solib kelmoqda.

Konstitutsiyaning 12-moddasida: «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas», deb belgilab qo'yilganini eslash maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda olib borilayotgan ma'naviy targ'ibot-tashviqot jarayoni zamirida yurtimizdagi turli millat, ijtimoiy toifa, kasb-u korga mansub bo'lgan kishilarni ma'naviy tajovuzlardan asrash, ularni ogohlikka chorlash, mavjud xavf va tahdidlarning oqibatlarini anglab yetish, ular haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish, eng muhimi, milliy g'oya asosida xalqni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g'oyalarga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashga qaratilgan tizimli va aniq maqsadli amaliy harakatlar mujassamdir.

Chunki maqsadimiz oddiy va hayotiy – odamlarimiz qalbi va ongida yuqorida zikr etilgan insoniy tuyg'ular qaror topishi, jamiyatimizda olijanob fazilatlar ustuvor bo'lishiga erishishdir. Tabiiyki, bunda yurtdoshlarimizning nafaqat bilimini oshirish, balki ular qalbida mustaqilligimizni mustahkamlash bilan bog'liq yangicha tafakkur, yangi g'oyalarni kamol toptirish, ularni yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi va Vatanimiz taraqqiyotini ta'minlash yo'lida ezgu ishlarga rag'batlantirish, odamlar ongu-shuurida hayotimizning turli sohalarida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarga daxldorlik, bunyodkorlik, kelajakka ishonch va shukronalik tuyg'ularini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.



Birinchi Prezidentimizning tashabbusi va tarixiy jasorati bilan 1989-yildayoq o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani, 1990-1991 yillarda qabul qilingan qator hujjatlarga muvofiq yurtimizda «Navro'z» bayrami qayta tiklangani<sup>77</sup>, Ramazon va Qurbon hayitlari katta bayram hamda dam olish kunlari deb e'lon qilingani<sup>78</sup> kabi muhim tarixiy qarorlar xalqimizning asriy orzu va armonlari ro'yobga chiqishi, milliy qadriyatlarimiz tiklanishi yo'lida ilk yirik qadamlar bo'lganini alohida ta'kidlash darkor.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda-ajdodlarimizning bizgacha yyetib kelgan boy madaniy meroslarini o'rganish ham katta o'rin egallaydi. Shu sababli Birinchi Prezidentimiz tomonlaridan qadriyatlar, urf-odatlar, buyuk otabobolarimizning bizga qoldirgan meroslarini o'rganish va targ'ib etish uchun keng yo'llar ochildi. Bu boradagi tadbirlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq amalga oshirila boshlandi. Xususan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning rivojlanishi uchun davlat tomonidan katta mablag'lar ajratildi. O'zbekistondagi barcha davlat teatrlari, madaniyat uylari, san'at oliy o'quv yurtlari, folklor-etnografik guruhlar madaniyat o'choqlariga aylanib qoldi. Teatr sahnalarida yangi zamonaviy spektakllar qo'yila boshladi.

Badiiy adabiyotda partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazaridan yondoshishga chek qo'yildi. Bahovuddin Naqshband, Feruz, Xo'ja Ahror, Cho'lpon, Fitrat kabi allomalarning nomlari tiklanib asarlari chop etildi. Barkamol avlodni tarbiyalashdagi katta xizmatlarni hisobga olib adabiyotning ilg'or namoyandalari Abdulla Oripov, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Qayibergen To'lepbergenov, Ibrohim Yusupovlar O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldilar.

---

<sup>77</sup> Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: “Ma'naviyat”,1998. - B.17.

<sup>78</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021.

## Sharq mutafakkirlarining komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlari

### ✓ Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850)

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850) Sharqning buyuk olimi. «Algebra» va «Algoritm» tushunchalarining paydo bo'lishi Xorazmiy faoliyati bilan bog'liqdir. «Algoritm» Xorazmiy nomining lotin tilidagi ifodasidan, «Algebra» so'zi esa uning matematikaga oid «Al-jabr val-Muqobala» asarining birinchi so'zining lotincha talaffuzdan olingandir.

Xorazmiy musulmon dunyosida birinchi bo'lib riyoziyot, geografiya, tarix fanlarining rivojini boshlab berdi. Uning ko'pgina asarlari lotin tiliga tarjima qilingan. Ma'lumotlarga qaraganda, Xorazmiyning «Arifmetikaga oid risola»sining arabcha nusxasi saqlanmagan. «Al-Xorazmiy hind hisobi haqida», «Algebra haqida risola» ilmiy ishlari, matematika rivojiga katta hissa qo'shgan asarlardir.



Buyuk olim, al-jabr fanining otasi Abu Abdullox Muhammad ibn Axmad ibn Yusuf al-Xorazmiy 783 yilda Xorazmda tug'ilgan. Uning yoshligi va ilm olish davri, asosan Zamaxshar va Qiyot shaharlarida o'tgan. Xorazmiy boshlang'ich ma'lumotini o'z uyida otasidan olgan. Uning otasi o'qimishli inson bo'lgan. Qadimiy diniy urf-odatlarini, yerli xalq yozuvchilarini bilgan. Diniy va ilmiy adabiyotlardan xabardor bo'lgan. Shuning uchun ham al-Xorazmiy bolaligidayoq, bu ilmiy manbalardan o'rganish imkoniga ega bo'lgan. Xorazmiy matematika bilan juda berilib shug'ullangan. Shu sohaga oid barcha asarlarni qunt bilan o'rgangan. U arab, fors, yunon tillarini ham o'rganib, bu tilda yaratilgan asarlarni ham o'qib olish qobiliyatiga ega bo'lgan. U «Al-jabr va al-muqobala» asari bilan matematika fanini rivojlantirdi hamda amalda qo'llash usullarini bayon etdi.

«Al-jabr» keyinchalik matematikaning alohida bo'limiga aylandi va «algebra» deb ataladigan bo'ldi. Shu bilan birga u «Falakiyot jadvallari», «Quyosh soatlari to'g'risida» kabi risolalar ham yozgan. Xorazmiyning ta'lim borasidagi fikrlari har bir fanning qonun-qoidalarini va ularni o'qitish yo'llarini asoslagani bilan muhimdir. Bu haqda olimning o'zi shunday yozgan: «Men arifmetikaning sodda va murakkab masalalarini o'z ichiga olgan «Al-jabr val muqobala» kitobini yozdim. Chunki bu

kitob vasiyatnoma yozish, huquq ishlari, savdo-sotiq, ariq qazish, geometrik hisoblashlar uchun juda zarur deb hisobladim”.

Xorazmiy o'z davrigacha bo'lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar Vavilon (Babil), Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o'rgandi va o'zi xayotiy talablar nuqtai nazarida ulardan farq etuvchi yangi kashfiyot yaratdi.

Muhammad al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-l muqobala” asarida (“Al-jabr al-muqobala xisobi haqida qisqacha kitob”) sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar, ularni echish yo'llarini bayon etadi. Bu asar uch qismdan iborat. Birinchisi algebraik qism, uning oxirida savdo muomalasiga oid kichik bir bo'lim kiritiladi; ikkinchisi, geometrik qism – algebraik usul qo'llab o'lchashlar haqida; uchinchi qism vasiyatlar haqida bo'lib, muallif uni “Vasiyatlar kitobi” deb ataydi.

Muhammad al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi “Hind arifmetikasi haqida kitob” (“Hisob al-Hind”)dir.

Asar o'nlik tizim raqamlari (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9) ga bag'ishlangan.

Mutafakkir hindlarning falakiyoti va matematikaga oid “Sind hind” nomli qo'llanmasini o'qib, uning yanglish va qiyin tomonlarini qayta tikladi, uning mundarijasiga yangi boblarni qo'shdi va bu asarni “Qisqargan sind hind” (“Agrorizmi hind hisobi haqida”) deb atadi. Ushbu asar faqat Sharqdagina emas, Yevropada ham qo'llanma sifatida shuhrat qozondi. U Xindistonda kashf etilgan raqamlarni soddalashtirdi va birinchi marta arab tilida bayon etdi. Ungacha ancha qo'pol sanoq usullaridan foydalanib qilingan o'nlik tizimining kashf etilishi fan olamida sanoq tizimida inqilobiy o'zgarish deb ta'riflanadi. Evropaga 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 raqamlaridan foydalanish va nol yordamida eng katta sonlarni yozish va joylarni aniq ko'rsatish X-XI asrlarda arablardan kirib kelgan.

Xorazmiy “Kitob surati-l-ard” (“Yevropa surati kitobi”) birinchi yozilgan geografiyaga oid hisoblanadi. Bu asar A.Axmedovning taxminicha, xaritani tavsiflagan asardir. Asar Muhammad al-Xorazmiyning ko'p yillik olib borgan tekshirish-kuzatish ishlarining natijasi edi.

Alloma Sharq mamlakatlari ustida kuzatishlar olib borib, mamlakat va shaharlarning xaritasini chizadi, nomlar ro'parasiga uzunlik va kenglik darajalarini ko'rsatdi. U geografiyaga oid asarlarida yerni yetti iqlimga bo'ladi, hamda yerning xaritasini chizadi. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, olimning to'rt xaritasi (Azov dengizi, Nil daryosi, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari xaritasi) saqlanib qolgan<sup>80</sup>. Ushbu asari ham Sharq va G'arbda muhim ahamiyatga egadir.

Xorazmiyning tarix va musiqaga oid, quyosh soatlari to'g'risida ham asarlari bo'lib, "Tarix kitobi" ("Kitob at-tarix") xalifalik tarixiga oid va xalifalikning birinchi tarixchilaridan sanaladi.

Muhammad al-Xorazmiy o'quvchilarni mustaqil bilim olishga va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Masalan, u o'zining "Xorazmiy ziji" nomli astronomik jadvalining muqaddimasida shunday yozadi: ".....o'quvchi quyidagini bilishi talab qilinadi: agar u shu (ishga) bu san'at (falakiyot)ni bilmasdan turib kirishsa, u bu chiziqlar haqiqatda aniqlagan (chiziqlar) bo'lmay, balki keyingi davrlardagi xisoblashlar natijasidir, deb noto'g'ri o'ylashi mumkin. Basharti, u bu qoidalardan foydalanishni yaxshi o'rgangan va Ptolomeyning "Almajisti"sini o'rganish tajribasiga ega bo'lgan bo'lsa, bu holda u bu yerda zaruran o'rinli bo'lgan barcha narsaga shubha ko'zi bilan qaraydi"<sup>81</sup>.

Muhammad al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim xissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi (samoviy obyekt larning harakatini aks ettiruvchi jadval asosida matematik masalalarning algoritm metodida yechishini ishlab chiqdi). U matematik g'oyalar asosida odamlarning xayotiy zarurati yotishini, ilmiy kashfiyotlar odalarning amaliy talablari asosida paydo bo'lishini asosladi. Masalan, yer ishlari, binolar qurish, kanallar ochish shunday paydo bo'lgan, deydi<sup>82</sup>. U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi. Xorazmiy o'zining ko'pgina asarlari xususan, "Yaxudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash" kabi asarlari bilan fan sohasida juda katta xissa qo'shdi. Bular ma'rifiy-tarbiyashunoslik jihatidan ham hozirgi

<sup>80</sup> Irisov A. Al-Xorazmiy va Forobiy – Toshkent: O'zbekiston, 1961, 8-9 betlar.

<sup>81</sup> Al-Xorazmiy, Muhammad ibn-Muso. Tanlangan asarlar, mas'ul muharrirlar: S.Sirojiddinov, U.I.Karimov, M.M.Xayrullayev. – Toshkent: Fan, 1983. 173-bet.

<sup>82</sup> Xasanboyeva O., Xasanbayev J., Xamidov H. Pedagogika tarixi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1997, 40-bet.

muhim ahamiyatga egadir.

## ✓Abu Nasr Forobiy

(873-950)

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O`zlug` ibn Tarxon Forobiy (870-950) - Markaziy Osiyo ilmiy tafakkurining yirik vakili. Uning fan va madaniyat taraqqiyotiga qo`shgan hissasini turli sohalarda olib borgan ilmiy tadqiqotlari, yozgan asarlari asosida aniqlash mumkin. Forobiyning ilmiy merosi nihoyatda rang-barang bo`lib, avvalo ikki katta yo`nalishga bo`lish mumkin:

Qadimgi yunon faylasuflari va tabiatshunoslari ilmiy merosini izohlash, targ`ib qilish va o`rganishga bag`ishlangan asarlar;

O`rta asr faniga aloqador bo`lgan muammolarni mustaqil ravishda ilmiy tekshirib chiqishga bag`ishlangan asarlar.



Abu Nasr Muhammad ibn Uzlug` Talxon Forobiy jaxon madaniyatiga katta hissa qo`shgan mutafakkir, o`rta Osiyolik faylasuf allomadir. Forobiy 873-yilda Sirdaryoning Forob degan joyida tug`ilgan. Dastlab, Marvda tahsil ko`rgan. Keyin Bog`dodga borib, Abu Bashir Matt ibn Yunusdan yunon tili va falsafasi bo`yicha saboq olgan. Yuxanna ibn Xiylondan mantiq va tabobatni o`rgangan. Yunon faysasuflarining, ayniqsa, Aristotelning asarlarini sinchiklab o`qigan. Islomiy ishlarni ham qunt bilan o`zlashtirgan. Forobiy aniq fanlar, ilmi nujum, riyoziyot, musiqa, tabobat fanlariga juda qiziqqan. Tarixiy manbaalarga ko`ra u Buxoroda bo`lgan kezlarida Buxoro amiri Mansur ibn Nux Somoniyning iltimosiga ko`ra falsafiy asar “At-taxliliy” asarini yozadi. Shu asar tufayli u “Muallim as-soniy” (“Ikkinchi muallim”) laqabi bilan mashhur bo`ladi. Olim 70 dan ortiq tillarda so`zlasha olgan. O`z zamonasining yetuk ilm sohibi bo`lgan Forobiyning falsafa, mantiq, psixologiya, musiqa, matematika va boshqalarga oid 160 dan ortiq asarlari ma`lum bo`lib, ularning ko`pi juda keng, hatto dunyo miqyosida shuhrat qozongan.

“Al – muallim as-soniy” (“Ikkinchi muallim”), Arastudan keyin “Sharq Arastusi” nomlariga sazovor bo`lgan Forobiyning mazkur fanlarga doir asarlaridan tashqari, ijtimoiy hayot, bilimning shakllari, bosqichlari va usullari axloq, tarbiya, tilshunoslik, she`riyat va boshqa sohalarga bag`ishlangan asarlari ham mavjud.

Masalan, “Kalom fil aql al-kabir” (Kattalarning aqli haqida soʻz), “Kitob fil aql as-sagʻir” (“Yoshlarning aqli haqida kitob”), “Kitob fi ixso al-ulum va at-taʻrif” (“Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi”), “Kalom fi sheʻr val qavofi” (“Sheʻr va qofiyalar haqida soʻz”), “Risola fit tanbih ala asbob as-saodat” (“Baxt-saodatga erishuv yoʻllari haqida risola”), “As-siyrat al-fazila” (“Fazilatli xulqlar”) ana shular jumlasidandir.

Forobiy asarlarining mazmuniga qarab 7 ta katta guruhga boʻlib chiqishimiz mumkin. Ana shu turkumlash jarayonidagi eng muhim boʻlim tarbiya masalasiga bagʻishlangan yettinchi qismidir.

U maʼlum tarbiyaga oid, “Baxt-saodatga erishish yoʻllari haqida risola”, “Fozil odamlar shaxhri”, “Fazilatli hulqlar”, “Shaharni oʻrganish haqida” kabi asarlar yaratgan.

Forobiy nihoyatda buyuk olim va mutafakkir edi. Chunonchi, uning asarlarini oʻrganish shuni koʻrsatadiki, oʻz ilmiy qarashlari bilan yangi davrga darcha ocha bilgan va zamondoshlaridan bir necha asr olgʻa ketgan.

Forobiy oʻzining falsafiy qarashlariga insonga bilim va tarbiya berishni asoslagan. U inson – aqlli mavjudot deyilganda, uning aqlli boʻlishga, layoqatliligi, lekin yomon hatti-harakatlarga ham qobiliyatligini tushunishini uqtirgan. Insonlarga doimiy bilim va tarbiya berishni zarur deb hisoblagan Forobiy oʻzining ideal jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruxlarga boʻlgan. Kishilarning diniy mazxabiga emas, balki tabiiy xususiyatlariga, avvalo aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni oʻrganish va xayotiy tajriba toʻplash jarayonida orttirgan bilim va koʻnikmalariga katta ahamiyat bergan.

Faylasuf olim M.Xayrullayev alloma asarlarini ularning mazmuniga qarab quyidagi guruxlarga boʻladi:

1. Falsafaning umumiy muammolariga, yaʼni bilimning umumiy xususiyatlari, qonuniyatlari va turli kategoriyalariga bagʻishlangan asarlar.

2. Insonning bilish faoliyatining falsafiy jixatlariga bagʻishlangan, yaʼni bilishning shakllari, bosqichlari va usullari haqidagi asarlar – mantiqning turli muammolari ham shunga kiradi.

3. Falsafa va boshqa aniq ilmlarning boshlang'ichi, predmeti, mazmuni va tematikasi haqidagi asarlar.

4. Materiyaning miqdoriy, makoniy, hajmiy munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan, ya'ni matematika fanlari – arifmetika, geometriya, astronomiya va boshqa musiqaga oid asarlar.

5. Materiyaning xossalarini, turlarini noorganik tabiatning, hayvonlar va insonlar organizmining xususiyatlarini tekshiruvchi, tabiiy fanlar: fizika, kimyo, optika, tibbiyot va boshqalar.

6. Tilshunoslik, poetika, ritorika, xusnixat – xattotlikka doir asarlari.

7. Ijtimoiy-siyosiy xayotga, ijtimoiy tuzumning o'ziga xos xususiyatlariga, davlatni boshqarish masalalariga, axloq va uning kategoriyalari, tarbiya masalalariga bag'ishlangan huquqshunoslik, siyosat, etika, pedagogikaga oid asarlari<sup>83</sup>.

Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy, falsafiy, axloq, ta'lim-tarbiyaga oid ta'limotidan ma'lumki, uning falsafiy ma'rifiy, ijtimoiy qarashlariga inson muammosi eng muhim muammo sifatida qaraladi. “Ixso al-ulum”, “Aql to'g'risida”, “Fozil odamlar shaxri”, “Ideal jamoa haqida”, “Baxt-saodatga erishuv to'g'risida” kabi risolalarida ana shu insonning kamolga etishishida muhim bo'lgan omillarni, maqsad va vazifalarni, ta'lim-tarbiya usullari va uslublarini yoritib bergan<sup>84</sup>.

Abu Nasr Forobiy inson xaqiqiy kamolga yetishishi uchun avvalo ilmiy bilimlarga ega bo'lishi zarur, deydi. Bunda Inson o'zida ixtiyoriy ravishda aqliy xislatlarni egallashga ehtiyoj sezishga zarur, tarbiyani esa ana shu fazilatlariga inson faqat baxt-saodatga eltuvchi jamoa bo'lgandagina erishadi, deydi. “Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sabab yashash uchun zarur bo'lgan kishilarning bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlanuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishishi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishish uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson

<sup>83</sup> Xayrullayev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. - Toshkent. O'zbekiston, 1971, 310-bet.

<sup>84</sup> Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: Istiqlol, 2003, 125-bet.

shaxslari ko'payadi va axoli yashaydigan qismiga o'rnamadilar"<sup>85</sup>.

Abu Nasr Forobiyning ta'lim-tarbiyaga oid ta'limotining metodologik asosini uning inson to'g'risidagi falsafiy qarashlari tashkil etadi. Alloma odamning fiziologik tuzilishi, psixologiyasi, moddiy va ma'naviy olamini o'rganar ekan, u insondagi qobiliyat va kuchning, ruhiyat va quvvatning, aqliy va so'zlash qobiliyatining boshqa tabiat mavjudotlarida yo'qligi va ana shu ruhiy quvvat jarayoni, ya'ni narsa va hodisalarni bilish, insonga aqliy ta'sir etish, uni ilm ma'rifatga ega etish kabilarni tadbiq etishga alohida diqqat bilan qaraydi.

Forobiy o'zining "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm, bu - olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi ilmlarni o'rganish lozim. Undan so'ng umuman, jonli tabiat – o'simlik va hayvonlar haqidagi bilimlar o'rganiladi.

Forobiy falsafasida insonparvarlik g'oyalari alohida o'rin egallagan. Uning fikricha, har qanday feodal zulm urushlar bartarf bo'lgan taqdirda hamma millatlar tinch, ozod, xushchaqchaq, baxtiyor hayot kechirishlari mumkin.

"Bundan keyin biz insonni o'rganishga kirishamiz va insonning inson bo'lishidan kutilgan maqsad va muddaoni o'rganamiz va shuning natijasida nima va qanday narsa ekanligini bilib, aniqlab olamiz. Shundan keyin biz insonning hozirgi kamolotga erishuviga sabab bo'lgan narsalarni o'rganishni boshlaymiz. Bu narsalar esa xayr-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlar bo'lib, bu fazilatlar insonni shu kamolotga erishuvidan maxrum qiladigan salbiy xislatlarni ajratib o'tamiz. Bu salbiy xislatlar har turli yomon oqibat, odatlar, nuqsonlar va ba'mani hatti-harakatlarning o'zi bilan tanishib chiqamiz.... Mana shu tanishishga madaniy, ya'ni Madinaga (shaharga yoki jamoaga) oid bilimlar deb nom beramiz. Bu ilm shunday narsalarni o'rgatuvchi ilmki, uning yordamida shahar xalqlari va shaharlik bo'lmagan xalqlarni o'z ichiga olgan, ya'ni inson olamiga xos bo'lgan barcha xislatlarni o'zida umumlashtirgan odamzod jismidagi xar turli a'zolar kabi (umumiy xususiyatlar)

---

<sup>85</sup> Forobiy, Abu Nasr. Risolalar. - Toshkent: Fan, 1975, 134-bet.



kishiga ma'lum bo'ladi"<sup>86</sup>.

Ma'lumki, Abu Nasr Forobiy inson ruhida, ya'ni uning ma'naviy hayotida uchraydigan fazilatlarni ikkiga bo'ladi: tug'ma fazilatlar va ilm-san'at (kasb-hunar), xulq-atvor, xoxish va ko'nikma, malakalar yordamida qo'lga kiritiladigan (M.Xayrullayev) fazilatlarga ajratadi<sup>87</sup>.

Demak, alloma insonning kamolga yetishida quyidagilarni muhim deb hisoblaydi:

- inson ma'lum jamiyatda, o'zaro munosabatlar jarayonida kamolga yetishadi;
- inson boshqa mavjudotlardan aqliy va ruxiy quvvatlari bilan ustunlikka ega;
- inson o'z tug'ma qobiliyatini kamolga yetishishi uchun kuch sarf etadi, intiladi.

Bu jarayonda inson uchun ta'lim-tarbiya zarur hisoblanadi. Forobiy bunga ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqaligina erishish mumkinligini aytdi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy kamolotga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi va xayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya qiladi.

Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan "komil" insonni tarbiyalashdan iborat, deb biladi.

### **FOROBIY FALSAFASIDA KOMIL INSONNI TARBIYALASH**

Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Uning quyidagi pedagogik qarashlari yoshlarga muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi:

1. Ta'lim – so'z va organish bilan amalga oshiriladi.
2. Tarbiya esa, amaliyot, ish, tajriba bilan, ya'ni shu yo'l bilan amalga oshiriladi, deydi.
3. Har kimki ilm hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon illatlardan saqlanadigan bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.

---

<sup>86</sup> Forobiy, Abu Nasr. Risolalar. - Toshkent: Fan, 1975, 71-72-betlar.

<sup>87</sup> Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. - Toshkent : Istiqlol, 2003, 130-bet.

4. Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noto'g'ri bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.

5. Ma'lumki, inson hech qachon tug'ilganda yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydi. Biroq har bir kishida biron-bir fazilatga yoki qabihlikka mayl, qobiliyat bo'ladi va shu fazilatlarni 2 turga bo'ladi: fikriy va aqliy.

Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib, aqlilik, donolik, faxm-farosatlilik, zehnlilikdan iborat.

Xulqiy fazilat – intiluvchan quvvatga kirib iffat, shijoat, saxiylik va adolatlilikni o'z ichiga oladi. Yomon fazilatlar razillikdir. Forobiyning yuqoridagi ta'lim-tarbiyaga oid konsepsiyasi shaxsni komil inson qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Forobiy bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida “qattiq” yoki “yumshoq” usullardan foydalanish kerak, deb xisoblagan:

1. Tarbiyalanuvchilar o'qish-o'rganishga moyil bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi.

2. Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsa, qattiq usul qo'llanilishi lozim.

Forobiy fanlarni tasniflash bilan birga, ularni qanday o'rganish masalasiga alohida to'xtalgan. Uning fikricha, har bir fanni o'rganuvchi oldin o'zini shu ilmni o'zlashtirishga tayyorlashga, so'ngra haqiqatni izlashi va o'zining salomatligiga, odob-axloqiga jiddiy e'tibor berishi lozim. Kimki, ilm xikmatni o'rganishni istasa, bu ishni yoshligidan boshlashi, salomatligining yaxshi bo'lishiga intilishi, axloqli, odobli bo'lishi, so'zining uddasidan chiqishi, yomon ishlardan saqlanishi, xiyonat va makrdan uzoq yurishi kerak. Forobiyning ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari avvalo Olloxni bilishga, insoniyat yaratgan ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Forobiyning axloqiy qarashlari muhim ahamiyatga egadir. U qomusiy bilimlar soxibi sifatida bu muammoni ilmiy nuqtai nazardan asoslashga intildi. U o'zining “Ideal shahar kishilarining axloqiy qarashlari”, “Rux madaniyati haqida risola” asarlarida insonni komil bo'lishi uchun, avvalo yuksak axloqli bo'lish zarurligini

alohida ta'kidlagan.

Professor Y.Jumaboyev o'z tadqiqotlarida Forobiyning axloqiy g'oyalarini xar tomonlama o'rganib xulosa sifatida shunday yozadi:

“Axloqiy tarbiya masalalarini va etikaning nazariy muammolarini ishlab chiqish-mutafakkir ijtimoiy qarashlarining eng muhim qismidir”<sup>88</sup>.

Forobiyning fikricha, etika insondagi hatti-harakatlarning asosiy normalari va qoidalarini o'rgansa, siyosiy fan butun jamiyatdagi jami a'zolarining odob-axloqini, hatti-harakatini boshqarish haqida bilim beradi.

Forobiy axloqni ikki guruhga bo'lgan edi: ezgulik – yaxshi sifatlarga va yovuzlik – yoki yomon sifatlarga ajratgan. Insonning eng olijanob fazilati baxtga intilishdir. Uning talqinicha, asosiy baxt – shu dunyoda, real hayot sharoitida erishiladigan baxtdir. Chinakam baxtga erishgan kishilardan yuksak axloqiy munosabatni, hamkorlik va o'zaro yordamni, axil-inoq yashashni talab qiladi.

Forobiy axloqiy fazilatni o'zlashtirish va shakllantirish masalasini taxlil qilishda Aristotelning g'oyalariga tayanib quyidagilarni yozgan: “Arastu axloqiy fazilatlarni qanday o'zlashtirish mumkinligini tushuntiradi: 1. Adolatli, pok, jasur bo'lishga odatlanish shu bilan birga yomon qiliqlardan qutulish uchun ham ma'lum muddat o'tishi kerak. Bu vaqt davomida inson o'zining yomon qiliqlaridan voz kecha oladi. 2. Agar odamda tug'ma kuchli g'urur tuyg'ulari bo'lmasa, u holda o'sha odam o'z ruxini mashq ila tarbiyalashi zarur. Arastu aytdiki, tarbiyali odamlar o'z ruxlarini doimo quvonish, ortiqcha kulish, qattiq xafa bo'lish, ortiqcha qayg'urish kabi xolatlardan saqlay bilishi kerak”<sup>89</sup>.

Abu Nasr Forobiy insonning baxt-saodatga erishuvi uchun ularni baxtli-saodatli qila oladigan jamoa va har tomonlama kamolga yetgan raxbar bo'lish kerak, deydi. Fozil shaharni boshqaradigan axloqan yetuk hokim bir qancha go'zal xislatlarga ega bo'lishi lozim, deydi.

1. Bunday odamning barcha a'zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu a'zolari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlar osonlik bilan amalga oshira olsin.

---

<sup>88</sup> Jumaboev Y. O'rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. - Toshkent: “O'zbekiston”, 1980, 95-bet.

<sup>89</sup> Xasanboeva O. Tarbiya haqida. - Toshkent: O'qituvchi, 1997. 44-bet.

2. Barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi, aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo'lsak.

3. Xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birontasini ham esdan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo'lsin.

4. Zexni shu darajada tez va o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin.

5. So'zlari aniq bo'lsin. Fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin.

6. Bilish va o'qishga muhabbat bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin.

7. Ovqatlanishda, ichkilik iste'mol qilishda, ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlarini o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo'lsin.

8. Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin.

9. Ruhning g'ururi va vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi o'z tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan bo'lsin.

10. Dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin.

11. O'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga, adolatsizlikni jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, o'z odamlari va boshqalarga adolatli bo'lsin, go'zal va yaxshi xisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda odamlarni adolatga targ'ib etadigan, adolatsizlik oqibatlarini yo'qotadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan bo'lsin.

12. Adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur deb bilgan narsalarni amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin<sup>90</sup>. Forobiy ta'kidlagan ushbu xislatlar komil insonga xosdir.

---

<sup>90</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. - Toshkent, 1993, 186-187-betlar.

U bu xislatlarni xar bir insonda ko'rishni istaydi.

Forobiyning fikricha, insonning axloqiy sahovatli va idrokli bo'lishida bilimlarni egallash muhim ahamiyatga ega. Inson bilimi orqaligina o'z maqsadiga erisha oladi. Forobiyning ta'kidlashicha, inson mehnatsiz yashay olmaydi, shu bilan birga u doimo odamlar bilan muloqotda bo'lishi, hunar egallashi lozim. Shundagina uning intilishi, istagi, ehtiyojlari amalga oshadi. Forobiy insonning axloqiy madaniyatli bo'lishida, uning aqlu-zakovatini ijodiy va bunyodkorlik kuchini yuksak baholaydi. Uning fikricha, aql-idrok, mehnat insonni ijtimoiy jihatdan faollashtiradi.

Forobiy ijodida insonning baxt haqidagi ta'limoti asosiy o'rinni egallaydi. Abu Nasr Forobiy "Insonning vujudidagi maqsad – eng oliy baxt-saodatga eltuvchidir; avvalo u baxt-saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvini o'ziga g'oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak. Keyin bu baxt-saodatga olib boradigan ish, amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olishi zarur. So'ngra esa baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmog'i lozim"<sup>89</sup> deya ta'kidlagan. Forobiy axloqiy madaniyatning fazilatlaridan hisoblangan sahovat masalasiga alohida e'tibor bergan. U o'z zamonasidagi adolatsizliklarga befarq bo'lmagan.

Forobiyning ta'kidlashicha, kishilar o'rtasidagi o'zaro yordam, do'stona va qardoshlik munosabatlar, sahovatli bo'lish, ozodlik, baxt, rohat-farog'at kalitidir.

Sahovatlilik ham komillikning bir belgisidir. Forobiy har bir insonni, kishilarni sahovatli bo'lishini orzu qiladi va ularga sahovatsiz kishilarni qarama-qarshi qo'yadi.

Forobiy raxharlar uchun zarur turli fazilatlarini tushuntiradi. Eng birinchi fazilat – ochiqko'ngillik, ikkinchisi – mehr-shafqat, uchinchisi – kelajagi porloqlik, to'rtinchisi – obro'-e'tibor qozonish....

Forobiyning deyarli barcha asarlarida bosh mavzu bu inson va uning baxtga, kamolga erishishi to'g'risidadir. Alloma o'z asarlarida inson qadr-qimmatini ulug'laydi hamda. Uning komil bo'lishi, baxt-saodatga erishishi uchun aqliy, ma'naviy, axloqiy, ruhiy mezon yaratadi. Uning ta'limotidagi asosiy maqsad bu fozil shahar (al-madina – al-fozila) ya'ni mukammal adolatli shahar hamda fozil shaharni

---

<sup>89</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. - Toshkent, 1993, 189-bet.

boshqaruvchi va barpo etuvchi fozil odamlardir.

Bundan ko'rinadiki, fozil shahar bu biz qurmoqchi bo'lgan huquqiy demokratik davlat fozil odamlar esa asriy orzuyimiz bo'lgan komil insonlardir.

Forobiy antik davr olimlari - Platon, Aflotun , Yevklid, Ptolemey, Porfiriya va boshqalar asarlariga sharxlar yozgan. Uning sharhlari O'rta va Yaqin Sharq ilg'or mutafakkirlarining dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Abu Ali ibn Sino Forobiy sharxlarini o'qib, Aflotun asarlarini tushunganligini ta'kidlaydi.

Farobiy falsafaning umumiy masalalariga, insonning bilish tomonlarining falsafiy bilish tomonlariga, materiyaning miqdori, fazoviy va hajmiy munosabatlarni o'rganishga, materiya xossalari va turlarini, noorganik tabiatning, hayvonlar va inson organizmining xususiyatlari, tilshunoslik, she'riyat, notiqlik, ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish va boshqa masalalarga oid asarlar yozdi.


Forobiyning inson kamolotiga doir axloqiy g'oyalari asrlar osha o'z qimmatini saqlab kelmoqda. Uning bebaho fikrlari bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda katta ilmiy manbaa bo'lib xizmat qilmoqda.

Forobiyning tabiatshunoslikka oid «Hajm va miqdor haqida so'z», «Fazo geometriyasiga kirish haqidagi qisqartma kitob», «Astronomiya qoidalari haqida mulohazalarni to'g'irlash usuli haqida maqola», «Fizika asoslari haqida kitob», «Alkimyo ilmining zarurligi va uni inkor etuvchilarga raddiya haqida maqola», «Inson a'zolari haqida risola», «Hayvon a'zolari to'g'risida so'z» va boshqalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotganlari yo'q.

Forobiy asarlari XII asrdan boshlab, lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga tarjima qilinib, Yevropada keng tarqaldi. Toshkentda Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Forobiyning 16 risolasi saqlanmoqda. Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) mashhur qomusiy olim. Yevropada «Avitsenna» nomi bilan mashhur bo'lgan olim, Buxoroda tug'ilib o'sdi, so'ngra, O'rta Osiyo, Eronning ko'pgina shaharlarida ilmiy faoliyatini olib bordi. Eronning Hamadon shahrida vafot etgan.


Abu Nasr al-Forobiydan keyin ham qator olimlar ilmlar tasnifi masalasini

o'rgandilar.



Ular o'sha davr ilmlarini o'z ichiga olgan mavsu'a (ensiklopediya) yaratdilar. Bu mavsuqa falsafiy ilmlarga bag'ishlangan bo'lib, unda idrok va mantiqiy tafakkurga asoslangan ilmlar nazarda tutilardi. Ular metafizika va ilohiyot qatorida unga riyoziyot va tabiatni kiritgan edilar. Mavsu'ada riyoziyot va mantiqqa o'n to'rtta risola tabiiyotga o'n yettita, metafizika va psixologiyaga - o'nta, ilohiyot va din masalalariga - o'n bitta risola bag'ishlangan edi.

### ✓Abu Ali ibn Sino (980-1037)



Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali (980.8, Afshona qishlog'i - 1037.18.6, Hamadon sh., Eron) - jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan o'rta osiyolik buyuk qomusiy olim. G'arbda Avitsenna nomi bilan mashhur. Jahon madaniyati tarixida qomusiy bilimga ega bo'lgan yirik arbob sifatida alohida o'rin tutadi. U fanning turli sohalariga oid 450 dan ortiq asar yozadi. Ularda tibbiyot, musiqa, falsafa, etika, ilohiyotshunoslik, ijtimoiy-siyosiy, tilshunoslik, estetika masalalari atroflicha ko'rib chiqilgan. Olim yaratgan «Kitobi ash-shifo» 21 tomdan iborat bo'lib, falsafiy bilimlar qomusi hisoblanadi, o'z ichiga 4 ta katta bo'lim (mantiq, fizika, matematika, metafizika)ni oladi.

Abu Ali ibn Sino buyuk alloma va mutafakkirdir. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilib, Hamadon shahrida vafot etgan. Ibn Sinodan qolgan ma'naviy meros taxminan 280 nomdan ziyodroqdir. Ular tibbiyot, falsafa, mantiq, psixologiya, axloq, musiqa, farmakologiya va boshqa sohalariga bag'ishlangan.

Abu Ali ibn Sino 980-yilda Buxoro Sharqi yaqinidagi Afshona qishlog'ida

kichik amaldor oilasida dunyoga kelgan. Ilmga chanqoq Ibn Sino yoshligidanoq turli-tuman fanlarga qiziqib, tib ilmiga o'z mehrini berdi. U maktabda o'qib ko'pgina ustozlardan dars oladi. Masalan: Abdulloh Botimiydan falsafa mantiq, handasa bo'yicha, Buxorolik Abu Mansur Qamariydan til bo'yicha ta'lim oladi. Ibn Sino avval qur'on va adab aruz qofiya darslarini o'qiydi va bu fanlarni to'liq o'zlashtiradi. Shu bilan birgalikda yosh Ibn Sino arifmetika va algebra fanlarini ham chuqur o'zlashtiradi. Ayniqsa, u tabiiy fanlarni to'liq o'zlashtiradi. Ayniqsa u tabiiy fanlarni sevib o'rganadi va tabobat ilmi bilan jiddiy shug'ullanadi. Ibn Sino o'zining yuksak qobiliyati hamda mehnatsevarligi tufayli fanlarni juda tez va osonlik bilan o'zlashtirgan. Tibbiyotga mehri juda baland bo'lgani bois u tib ilmining xech kim bilmagan sirlarini ocha boshladi va 17-yoshidanoq Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida shuhrat qozonadi.

Ibn Sino insonni komil bo'lib shakllanishining birinchi omili bu fanni egallashdir, deb hisoblaydi. Zero ilmu-fan insonni yuksak kamolga yetkazadi. Har bir o'rgangan ilm biz uchun bu dunyo sirlarini ochadi. Shu bilan birgalikda inson buncha osonlik bilan erisha olmaydi. Qiyinchiliklarga chidam, bardosh va harakat olqishgagina erishish mumkin deydi; "Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir"<sup>90</sup>.

Bu hikmatdan bizga shu ma'lumki, inson qanchalik bilim sari intilsa, unga hech qanday to'siqlar to'siqlik qila olmaydi. Qalbdagi ilm olishga bo'lgan kuchli istak uni komillikka yetaklaydi. Aksincha, ilm olishdan bosh tortgan insonlar hayot haqiqatini tushuna olmay, yuksak kamolotga erisha olmay o'tadilar.

Ibn Sino insonni mukammal bo'lmog'i uchun nafaqat ilm-fanni chuqur egallashi, balki axloqdan barkamol bo'lmog'i ham lozimligini ta'kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sino tarbiya tizimida barkamol shaxs tarbiyasiga keng o'rin bergan shaxs tarbiyasini qanday bo'lishi va u kelajakda qanday inson bo'lishi bevosita ta'lim va tarbiyasiga bog'liq ekanligini uqtiradi. Allomaning bolani tarbiyalash hamda o'qitish haqidagi ko'p fikrlari o'zining chuqurligi, insonparvarligi

---

<sup>90</sup> Abu Ali Ibn Sino. Falsafiy qissalar. Nashrga tayyorlovchi va tarjimon. A.Irisov. –Toshkent: O'zbekiston, 1963, 15-b.



hamda hozirgi zamon pedagogikasi uchun ahamiyatliligi bilan insonni hayratda qoldiradi.

Abu Ali ibn Sino ta'lim tarbiya tizimini quyidagicha tashkil qiladi:

1. Aqliy tarbiya.
2. Jismoniy sog'lomlashtirish tarbiyasi.
3. Estetik tarbiya.
4. Axloqiy tarbiya.
5. Mehnat tarbiyasi<sup>91</sup>.

Ibn Sino bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash malakasiga katta e'tibor berib, "Tadbir ul-Manozil" asarining maxsus bo'limini aynan shu masalaga bag'ishlagan.

Kitobning "Bolani maktabga o'qitish va tarbiyalash" bo'limida bolani fanga va maktabga jalb qilish haqida to'xtalgan. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, bolalar birga ta'lim olish kerak, shunda ularda intilish va fanga nisbatan qiziquvchanlik kuchli bo'ladi. Birdamlilik orqali bolalar do'stlashadilar va axloqan barkamol bo'lib kamol topadilar.

Ibn Sino o'zining tarbiyasiga oid asarlarida o'qituvchining roliga katta e'tibor bilan qaragan. U avvalo, tarbiyada tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishiga hamda uni to'g'ri tanlay bilishga o'z e'tiborini qaratgan.

Alloma bola 6 yoshga to'lishi bilan uni o'qituvchining tarbiyasiga berishni tavsiya qiladi.

Tarbiyachi "Rostgo'y, dono, odil, ozoda kiyinadigan, xushmuomala" bo'lishi zarurligini uqtiradi va yosh avlodni o'qitadigan hamda tarbiyalaydigan kishilar oldida bir qancha talablar qo'ygan.

Uning fikricha;

1. Tarbiyachi bolalar bilan muomalada bosiq bo'lishi kerak.
2. Muallim o'quvchilar ta'limni qanday o'zlashtirilayotganini kuzatib borish zarur.
3. O'qitish davomida o'qituvchi har xil usul va metodlardan foydalanishi zarur.
4. Tarbiyachi o'quvchining xotirasi va boshqa aqliy qobiliyatini bilishi lozim.

---

<sup>91</sup> Xasanboyeva O., Xasanboyev J., Xamidov H. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1997, 55-bet.

5. Tarbiyachi bolalardan tarbiyalashga tegishli jazo choralarini qo'llashi, o'qilganlarni takrorlashlarga majbur qilish orqali ularni fanga qiziqitira olishi kerak.

6. Tarbiyachi o'z fikrini o'quvchiga bayon qilishdan oldin undan masalaning mohiyatiga o'zi tushunib olishi, keyin uni qisqa, aniq, adabiy tilda tushuntirishi va bunda ko'p gapirishdan qochishi zarur.

Har bir fikr haqiqat bilan tasdiqlanishi, bolalarda hissiyot uyg'otadigan bo'lishi lozim<sup>92</sup>.

Ibn Sino bola tarbiyasida avvalo, tarbiyasiga e'tibor bergan holda uni o'qitish jarayoniga ham o'z diqqatini qaratgan.

Bolani birdan kitobga jalb qilib qo'ymaslik kerak.

O'qitish asta-sekin, osondan qiyinga o'tish yo'li bilan olib borilishi lozim.

O'quvchilar bilan amalga oshiriladigan tarbiya ularning yoshiga mos bo'lishi kerak.

O'qitish jamoa tarzida uyushtirilishi darkor.

O'qitish bolani mayli va qobiliyatini hisobga olgan holda olib borilishi kerak.

O'qitish jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borilishi zarur<sup>93</sup>.

Yuqorida ko'rsatilgan allomaning fikrlari hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatli bo'lib, o'quvchi har tomonlama chuqur va mustaham bilim olishiga Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida barkamol shaxs tarbiyasi birinchi o'rinda turadi. Zero, mukammal tarbiyalangan shaxs bevosita barkamol avlod tarbiyachisidir. Ibn Sino bola tarbiyasida eng mas'ul shahs ota-ona deb ta'kidlaydi va ularning dastlabki eng muhim vazifasi bolaga to'g'ri va munosib ism qo'yishda deb biladi. Alloma barkamol shahs tarbiyasida nafaqat aqliy, axloqiy tarbiya bilan birgalikda jismoniy tarbiya ham juda zarurligini uqtiradi.

Abu Ali Ibn Sinogacha shaxsning barkamol bo'lib voyaga etishida jismoniy tarbiyaning ta'siri haqida bir butun, yaxlit ta'minot yaratilmagan. Alloma birinchi bo'lib jismoniy tarbiyaning ilmiy pedagogik jihatdan bir butun tizimini yaratdi<sup>94</sup>.

Jismoniy mashqlar, uyqu, badanni toza tutish, tartibga rioya qilish inson

<sup>92</sup> Raximov S.R. Ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. - Toshkent: O'qituvchi, 1967, 75-bet.

<sup>93</sup> Abu Ali Ibn Sino. Falsafiy qissalar. Nashrga tayyorlovchi va tarjimon. A.Irisov. - Toshkent, 1963, 16-bet.

<sup>94</sup> Rahimov S. Komil inson tarbiyasi. O'rta maxsus, kasb – hunar muassasalari uchun qo'llanma. – Toshkent: "Istiqlol", 2003, 151 bet.

sog'ligini saqlashda asosiy va muhim ekanligini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan asosladi.

Bolalarga tug'ilmasdan turib g'amxo'rlik qilish, go'daklik davridan boshlab tarbiyani boshlash zarurligini ta'kidlaydi.

Bolaning barkamol bo'lib shakllanishida unga g'amxo'rlik, poklik, mas'ulyatni his etish, do'stona munosabatlar tuyg'usini singdirib borish zarurligini ta'kidlagan.

Bolaning istagan narsasini muhayyo qilish, istamaganini undan chetlatish zarur. Bunda birinchisi bolaning nafsi (ruhi) uchun bo'lib, bola yaxshi hulqli bo'lib o'sadi va keyinchalik bu unga ajralmas malaka bo'lib qoladi.

Ikkinchisi, uning badani uchun bo'lib, yomon hulqning paydo bo'lishidan saqlaydi. Chunki mijoz buzilishi yomon xulqning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, g'azab tanani kuchli qizdiradi, qayg'u kuchni quritadi, hafsalasizlik insoniy quvvatni bo'shashtirib, mijozni balg'amlikka moyil qiladi. Hulqning mo'tadil bo'lishidan esa nafs ham, badan ham sog'lom bo'ladi.

Ibn Sino inson jamiyatda o'z o'rmini topishi uchun, axloqan yetuk bo'lishi lozimligini uqtiradi, ya'ni: u adolatparvar, oqil, dono, ziyrak, jasur hamda ma'rifatli bo'lmog'i zarurligini ta'kidlaydi. Mutafakkir insonning insoniyligi uning sabr-qanoatliligida hamda sahoatliligida va olijanobligida deb biladi. Inson qachon sabrli bo'lsa, hayot qiyinchiliklarini chidam bilan yengsa, u yuksak axloqqa va chinakam baxtga erishadi.

Barcha ilmlarni o'rgangan olim 500 ga yaqin asar muallifidir. Uning qalamiga xos bo'lgan asarlari lotin va boshqa Yevropa xalqlari tillariga o'girilgan.

Uning eng yirik asarlariga quyidagilar kiradi: «Tib ilmi qonuni», «Ruhni davolash kitobi», «Najot kitobi», «Ko'rsatmalar va nasihatlar kitobi», «Bilim kitobi», «Insof kitobi», «Usul 'ilm al-handasa» ("Geometriya negizlari") va boshqalar.

Ibn Sino aniq fanlar sohasida yunonlarda mavjud tushunchalarga anchagina yangiliklar kiritdi va bu yo'nalishni boyitdi. U hind hisobini, yunon olimlari Yevklid va Ptolemey asarlaridagi riyoziy tushunchalarni o'zlashtirdi, Isfaxonda yashaganida muntazam falakiyot amaliyoti bilan shug'ullandi va Isfaxonda rasadxona barpo yetib,

unda 1024-1032 yillar boshqardi, kuzatuvlar olib bordi va bu sohada bir nechta risola ham yozdi<sup>95</sup>.

G'arbiy Yevropada Ibn Sinoning riyoziyot sohasidagi ilmiy merosi XVIII asr oxirlaridan boshlab qayd etilgan (Masalan, J.E.Montyuklaning «Riyoziyot tarixi» kitobida)<sup>96</sup>. So'ngra G.Libri (1838), F.Vyopke (1859), M.Kantor (1880), P.Tanneri (1882)<sup>97</sup>, ayniqsa, K.Brokkelman (1898)<sup>98</sup> hamda G.Zuter (1900)<sup>99</sup> va boshqalar tadqiqotlari orqali Ibn Sinoning riyoziyot sohasidagi xizmati G'arbiga tanildi. Agar K.Brokkelman Ibn Sinoning asarlari, jumladan, riyoziyotga oid asarlari haqida ma'lumot keltirgan bo'lsa, G.Zuter uning barcha riyoziy va falakiyotga oid asarlari ro'yxatini bergan hamda ushbu sohadagi ijodiga ham nisbatan keng to'xtalgan. Aytish mumkinki, XX asr boshlariga kelib, Ibn Sinoning riyoziy merosi xususida hozirgi zamon fanida aniq tasavvur hosil bo'ldi<sup>100</sup>. Bu nashrlar shakl jihatdan tadqiqot va tarjima-lavhalardan iborat edi.

Ushbu yo'nalishdagi izlanishlar keyingi yillarda ham davom etdi. Chunonchi, Ibn Sinoning «Kitob ash-shifo» asaridagi riyoziy masalalar X.M.Muhammadiyev (planimetriya qismi)<sup>101</sup> hamda M.S.Sharipovalar (umumiy tahlil shaklida)<sup>103</sup> o'rgandilar. «Donishnoma» risolasidan esa fizika-riyoziyotga oid qismlarni B.A.Rozenfeld va N.A.Sadovskiylar rus tiliga o'girdilar<sup>104</sup>. M.A.Ahadova, S.U.Umarov va B.A.Rozenfeld (ruscha tarjimaga yozgan kirish so'zda) tadqiqotlar e'lon qildilar<sup>105</sup>.

<sup>95</sup> Матвиевская Г.П. Из истории изучения физико-математического наследия Ибн Сины /Математика и астрономия в трудах Ибн Сины, его современников и последователей. – Т. 1981. С.20.

<sup>96</sup> Montucla J.E. Histoire des mathematiques, t.1, Paris, 1758; 1802; Матвиевская Г.П. Из истории изучения физико-математического наследия Ибн Сины /Математика и астрономия в трудах Ибн Сины, его современников и последователей. – Т. 1981. 155. С. 20; 39.

<sup>97</sup> Матвиевская Г.П. Из истории изучения физико-математического наследия Ибн Сины /Математика и астрономия в трудах Ибн Сины, его современников и последователей. – Т. 1981. 155. С. 20-22.

<sup>98</sup> Brokelmann C. Geschichte der Arabischen Literatur. Bd. I, Weimar, 1898. P.452-458. ( Математика и астрономия в трудах Ибн Сины, его современников и последователей. – Т. 1981. 155. С.22).

<sup>99</sup> Suter H. Mathematiker und Astronomen der Arabern und ihre Werke. Abhandl. zur Gesch. d. mathem. Wiss. “. Н.Х. 1900. (Математика и астрономия в трудах Ибн Сины, его современников и последователей. – Т. 1981. С.155. С. 22; 39).

<sup>100</sup> Матвиевская Г.П. Из истории изучения физико-математического наследия Ибн Сины /Математика и астрономия в трудах Ибн Сины, его современников и последователей. – Т. 1981. 155. С.22-23.

<sup>101</sup> Мухаммадиев Х.М. Планиметрическая часть «Китоб аш-Шифо». Ученые записки Ленинабадского гос.педин-та.Вып.XV. Душанбе, 1962. С.5-8.

<sup>103</sup> Шарипова М.С. Математические главы «Книга исцеления». Ибн Сины. Автореф.канд.дис. Душанбе, 1967 ва б.

<sup>104</sup> Ибн Сина. Математические главы «Книги знания» (Донишнома). Душанбе, «Ирфон», 1967.

<sup>105</sup> Ахадова М.А. Физико-математические сочинения Ибн Сины на таджикском языке. Автореф.канд.дис.-

Aniq fanlarning yana bir yo'nalishi – falakiyot ham Ibn Sino merosidan o'rin olgan va bu haqidagi tadqiqotlar Yevropada dastlab E.Videmanga tegishli. U «Kitob ash-shifo», «Yulduzlar hukmini inkor qilish haqidagi risola», «Astronomik asbob yasashda boshqa usullarga nisbatan afzalroq usul haqida kitob» nemis tiliga tarjima qilib, chop qildi<sup>106</sup>.

Ibn Sino fizika, mexanika, optika va musiqa sohalariga ham to'xtalغان. Uning bu haqidagi «Kitob ash-shifo», «Kitob an-najot», «Donishnoma», Ibn Sinoning Abu Rayhon Beruniy bilan yozishmalari, «Tabiatning qiliqlari» («Kurazayi tabiat»), «Me'yor al-uqul» («Ong o'lchovi»), «Maqola fi-n-nafs» («Nafs haqida maqola»), «Tib qonunlari», «Musiqa nazariyasiga kirish» kabi asarlarida qayd etilgan.

Ibn Sino qadimgi Yunon olimi Aflotun yo'lidan borib, falsafiy ilmlarni ikki sohaga bo'ladi:



Bu tasnif bilish predmetining inson tomonidan amalga oshiradigan faoliyati tamoyillariga asoslanadi. Nazariy fanlarning maqsadi haqiqatni ifodalaydi, narsalarning mavjudligini inson faoliyatiga bog'lamasdan turib o'rganadi; amaliy bilimlarning maqsadi farovonlikka erishishni ko'zda tutib, shu faoliyatning o'zini tekshiradi.

Nazariy fanlar sirasiga fizika, matematika, metafizika kiradi. «Donishnoma»da qayd etilishicha, bu uch fandan odamlarga va ularning bilimiga eng yaqinlari tabiat haqidagi fandır, biroq unda ham ko'p narsalar aniq emas; matematikada noaniqliklar va chalkashlik ozroq, metafizikaning predmeti alohida narsalar emas, balki

Ташкент, 1965; Ахадова М.А. Трактат Абу Али ибн Сины «Мерило разума». – В кн.: Из истории точных наук на средневековом Ближнем и Среднем востоке. – Ташкент: Фан, 1972, - С.42-57.

<sup>106</sup> Wiedemann E. Zur Geschichte der Astrologie. “Das Weltail”, Bd. 22. 1922. 121-126; Wiedemann E. Uber ein von Avicenna hergestelltes Beobachtungsinstrument. “Zeitschr. für Instrumentenkunde”. Bd. 45. 1925, 269-275; Wiedemann E. Einleitung zu dem astronomischen Teil des Kitab al Schifa (Werk der Genesung) von Ibn Sina, “Sitzungsber. d. phys.-med. Soz. In Erlangen”, Bd. 58-59, 1926-1927, 225-227. (Математика и асономия в трудах Ибн Сины, его современников и последователей. – Т. 1981. С.155. С. 26-28;40).

mohiyatdir. Nazariy bilimlarning amaliyot bilan aloqasi ularda birlamchi va ikkilamchi fanlarning ajralib chiqishi bilan amalga oshiriladi.

A) Sof fizika sohasi: predmetlar, narsalar, ularning harakat manbalari, osmon jismlarinig yerdagi hayotga ta'siri, o'simliklar, minerallar, hayvonlar va inson ruhi. Amaliy fizika: tibbiyot, astrologiya, tush ta'birini aytib berish ilmi, sehrgarlik, al-kimyoy ilmi va boshqalar.

B) Sof matematika: arifmetika, astronomiya, musiqa nazariyasi. Amaliy matematika: hindlarning o'nlik sanog'i, algebra, geometriya, musiqaviy cholg'ular tayyorlash san'ati.

Bu tasnifdan ko'rinadiki, unda musulmon o'rta asrida fanlarni tasnif qilishga va ularning hunarmandchilik ishlab chiqarishi, savdo va kundalik turmush bilan aloqasini ta'minlaydigan tajribaviy bilimlar, malakalar, eksperimental uslublar o'z aksini topgandir.

V) Sof metafizika: fanning birinchi asoslari; hayotiy-zaruriylikni isbot qilish; «birlamchi» va «ikkilamchi» ma'naviy substansiyalar; olam va yerdagi jismlarning «ma'naviy substansiya»ga tobeligi; amaliy metafizika: vahiylik va narigi olam savoblari haqidagi bilim.

**Mantiq.** Ibn Sino insonning bilish faoliyatini o'rganishni inson nutqini, so'zini tadqiq etishdan boshlaydi. Uning fikricha, mantiq har qanday nutqni emas, balki ma'no va shaklni ifodalaydigan nutqni o'rganadi. Mantiq fikrlar tarozisidir.

Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi, bunda mantiq ilmining roli kattadir. «Aql tarozisida o'lchanmagan har qanday bilim chin bo'la olmaydi, demakki, u haqiqiy bilim emas». Bu yerda Ibn Sino Sharq falsafasidagi aql nazariyasiga asoslanadi. Insonning aqli bir necha darajaga ega bo'lib, asosan o'z taraqqiyotida to'rt bosqichni bosib o'tadi, so'nggi bosqich-yyetuk haqiqatni egallash dunyoviy aql bilan bog'lanib ketishdan iborat bo'ladi. Binobarin, Ibn Sino aqlga kosmik xarakter beradi.

Shunday qilib, Ibn Sino fikricha, mantiq ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarni keltirib chiqarish, ularni bir-biridan farq qilish, chin bilim nimadan iborat, yolg'on nima va ularning turlari xususidagi fan yoki nazariy san'atdir.

**Fizika.** Ibn Sino fizika deganda tabiat to'g'risidagi fanni ko'zda tutadi, u sezgilar orqali idrok etiladigan va hamma vaqt o'zgarishni boshidan kechirib turadigan holatlarini o'rganadi. Tabiat, Ibn Sino fikricha, harakat va sukunatni boshlab beradigan kuch emas, balki moddiy narsalardan tortib mavjudotlargacha bo'lgan narsalar majmuidir, ham kuch, ham mohiyatdir.

Fizikaning bevosita bahs mavzusi - bu o'zicha harakat qiluvchi va sukunat holatidagi jismlardir.

**Metafizika.** Ibn Sino metafizikani ikki qismga bo'ladi: umumiy metafizika, ilohiy metafizika. Umumiy metafizika tabiatshunoslik fanlari negizini, ilohiy metafizika esa iqtisod, etika va siyosatga xizmat qiladigan amaliy fan, ya'ni emanatsion - tajallus nazariyasi tamoyillarini ifoda etadi.

Ibn Sinoning tibbiyot fanlarini asoslab berish, amaliy tibbiyot sohasidagi xizmatlari beqiyosdir. Uning tibbiyotga bag'ishlangan asarlarini quyidagicha tasnif etish mumkin:

- Nazariy va amaliy tibbiyotning barcha qismlarini o'zida jamlagan asarlar («Tib qonunlari», «Tibbiyot urjuzalari»);

- Anatomiya va fiziologiyaga bag'ishlangan asarlar: «Anatomiya bo'yicha urjuza», «Badanni boshqarish», «Ichkilikning nafi va zararlari haqida» va boshqalar;

- Gigiyena va salomatlikni saqlashga bag'ishlangan asarlar: «Sayyohlarning rejimi haqida», «Sog'lom badan haqida», «Sog'likni saqlash haqida», «Tibbiy maslahatlar», «Tibbiy vasiyatnomalar» va boshqalar;

- Diagnostika va bemorlarni davolash haqidagi kitoblar: «Tomir urushi haqida», «Asab kasalliklar va falajlar», «Qon quyish metodlari haqida» va boshqalar;

- Dorishunoslik bo'yicha asarlar: «Tajribadan o'tgan dorilar haqida urjuza», «Oddiy dorilarning me'yorlari haqida», «Ovqat va dorilar», «Sachratqi haqida» va boshqalar;

- Tibbiyotning boshqa masalalarga bag'ishlangan asarlar: «Tib haqida hikmatli so'zlar», «Gippokrat vasiyatlari haqida tibbiy urjuza», «Tibbiy lug'at» va boshqalar.

Ibn Sinoning «Kitob al-qonun fit-tibb» (qisqacha «Qonun») asarida o'zigacha bo'lgan tib masalalari qaytadan qarab chiqiladi va inson organizmini o'rganish

sohasida hali ilmda ma'lum bo'lmagan bir qancha yangiliklar bayon qilinadi.

Kitob 5 ta mustaqil asardan iborat:

1. Birinchi kitobda tibbiyotning nazariy asoslari, bahs mavzusi, vazifalari, kasallikning kelib chiqishi, sog'liqni saqlash yo'llari.

2. Ikkinchi kitob kishi anatomiyasi haqida fikr yuritiladi.

3. Uchinchi kitobda 800 ga yaqin dorining xususiyatlari, iste'mol qilish usullari.

4. To'rtinchi kitobda ayrim organlarning soch, tirnoqlar va boshqalar kasalliklari suyak sinishi, chiqishi, jarohatlari hamda davolash usullari borasida ma'lumot beradi.

5. Beshinchi kitob farmakologiyaga bag'ishlangan bo'lib, murakkab dorilarning organizmga ta'siri, ularni tayyorlash va iste'mol qilish tamoyillari haqida so'z yuritadi.

Ibn Sinoning fikricha, tibbiyotning asosiy vazifasi inson sog'liqini saqlash, kasalliklarning kelib chiqishi sabablarini aniqlash, ularga barham berish vositalarini belgilashdan iboratdir.

Bunga: rukn, mijoz, xilt (sok)lar, a'zolar, ruhlar, quvvatlar, ishlar kiradi. Ruknlarga esa turli jismlarni paydo qiluvchi to'rt asosiy unsur – tuproq, suv, olov, havo kiradi.

Ibn Sinoning falsafiy fanlarni rivojlantirishga qo'shgan hissasi ham kattadir. Falsafada u o'zining panteistik tamoyillaridan kelib chiqib, ilohiyot va borliq bir-biriga zid, bir-birini inkor etuvchilar emas, balki bir butun holda mavjud degan xulosaga keladi. Abadiylik ilohiyotga ham, moddiy olamga ham daxldor. Lekin tangri va moddiy olam, tabiat ma'lum pog'onalar yordamida bog'lanadi. Zanjirning bir tomonida tangri-zaruriy vujud, ikkinchi tomonidan tabiat yotadi. Tabiat tangri ta'siridan shu darajada uzoqki, u o'z qonuniyatlari yordamida voqea bo'ladi, o'zgaradi, rivojlanadi.

Shunday qilib, Olloh va olam bog'lanishi sabab va oqibat bog'lanishi tarzida tushuniladi: Olloh abadiy bo'lganligidan uning oqibati bo'lmish olam ham abadiy abaddir. Sababi bog'lanish, ya'ni determenizm Ibn Sino falsafiy fikrlashining muhim tomoni bo'lib, u tabiatdagi muayyan tartibni tushunishda ham alohida ahamiyatga molikdir. Binobarin, avval tog'-toshlar, so'ngra o'simliklar, hayvonlar,



taraqqiyotning keyingi tizimida uning yakuni sifatida inson vujudga keladi, degan fikr Ibn Sino tomonidan ishlab chiqilgan va rivojlantirilgan muhim falsafiy-ilmiy konsepsiyadir.

Real narsalarni chuqur bilish, boshqacha aytganda, fan bilan shug'ullanish insonga xos fazilat bo'lib, vujudi vojib, vujudi mumkin, substansiya, aksidensiya; materiya, shakl, aql, jon, unsur, jism, sezish, quvvat, mineral, nutq kabi kategoriyalarning mazmunini bilishni taqozo etadi.

Ibn Sino ijodida insonning tabiiy holatini ifodalaydigan nazm bilan yozilgan 8 ta doston yuzaga keladi: sog'likni saqlash-gigiyena haqida urjuza; yilning to'rt fasllari haqida urjuza; anatomiya haqida urjuza; Gippokrat vasiyatlar haqida urjuza; tajribadan o'tgan amaliyotlar haqida urjuza; tibbiy nasihatlar haqida urjuza; aloqa haqida urjuza; tabobat haqida urjuza.

Tabiiy hodisalar: ziddiyatlar, harakat, rivojlanish olamni idora qiluvchi manba-«tuzilish va buzilish»dan iborat ziddiyatdir; birinchi insonlar haqida afsonalar (birinchi insonlar - Odam va Havo, Mard va Mardona, Misho va Mishona); davriy hodisalar; to'fon haqida, yorug'lik nuri (nurning tezligi, nur harakati va tovush harakati, nur va qorong'ulik, Oy nuri va Quyosh nuri); saqlanish g'oyasi. Simmetriya, «Tabiat Yangilishishi» (modda mo'tadil miqdorda saqlanadi, tabiatda simmetriya ifodasi - gul barglari (3,4,5,6 va 18 ta bo'ladi, 7 ta yoki 9 ta bo'lmaydi); umr masalasi (uzoq umr ko'radigan mintaqaga Farg'ona ham kiradi).

**Abu Ali ibn Sinoning** handasaga oid risolalari qatoriga “Donishnoma”<sup>107</sup>, “Yevklidga sharhlar” va “Usul ilm al-handasa”<sup>108</sup> (“Handasa negizlari”) kiradi.

“Donishnoma”ning falsafa, mantiq va fizika qismlarini A.M.Bogouddinov 1957 yilda rus tiliga sharhlar bilan tarjima qilgan.

O'rta asrlarda to'rtta riyoziy fanlar: handasa, falakiyot, hisob va musiqa birgalikda o'qitilgan. Ibn Sino Yevklidning “Negizlar” asarini “kvadrivium”ga asoslanib sharhlagan.

<sup>107</sup> Ибн Сина. Даниш-намэ – “Книга знания”. – Душанбе: Таджгосиздат. 1967. – 180 с.

<sup>108</sup> Ibn Sino Abu Ali. Tahriri Uqlidis. 2720-raqamli Ayo Sofiya kutubxonasidagi asar qo'lyozmasining mikrofilmi.

Buyuk olimning “Usul ilm al-handasa”si 1976 yilda Qohirada uni “Aniqlanadigan negizlar” nomi bilan nashr qilindi. Ulardan keyin aksiomalarni “Umumiy tushunchalar” deb atagan.


Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosini shartli ravishda 4 qismga, ya’ni falsafiy, tabiiy, adabiy va tibbiy sohalarga bo’lish mumkin, olim shularning har birida chuqur iz qoldirgan. Lekin asarlarining miqdoriy nisbatiga nazar solsak, olimning qiziqish va e’tibori ko’proq falsafa va tibga qaratilganini ko’ramiz. Garchi, uni «Avitsenna» sifatida G’arbda mashhur qilgan uning tibbiy merosi, xususan, «Tib qonunlari» bo’lsada, «Shayhur-raisi» nomi, eng avval, uning buyuk faylasufligiga ishoradir.

Olimning falsafaga oid eng yirik va muhim asari «Kitob ash-shifo»dir. U 4 qismdan iborat: 1) mantiq - 9 bo’lakka bo’lingan: al-madhal - mantiqqa kirish; al-maqulot - kategoriyalar; al-iborat - interpretatsiya; al-qiyos - sillogizm; al-burhon - isbot, dalil; al-jadal - tortishuv, dialektika; as-safsata - sofistika; al-xitoba - ritorika; ash-she’r - poetika (she’r san’ati); 2) tabiiyot (bu yerda minerallar, o’simliklar, hayvonot olami va insonlar haqida alohida-alohida bo’limlarda gapiriladi; 3) riyoziyot - 4 ga bo’lingan; hisob (arifmetika), handasa (geometriya), astronomiya va musiqa; 4) metafizika yoki ilohiyot. Bu asarning ayrim qismlari lotin, suryoniy, ibroniy, nemis, ingliz, fransuz, rus, fors va o’zbek tillarida nashr etilgan.

Abu Ali Ibn Sinoning yana bir yirik falsafiy asari «Kitob an-najot» «Kitob ash-shifo»ning qisqartirilgan shakli bo’lib, u ham qisman jahonning bir necha tillariga tarjima qilingan. Olimning falsafiy qarashlari yana «Al-ishorat vat-tanbihot» («Ishoralar va tanbihlar»), «Hikmat al-mashriqiyn» («Sharqchilar falsafasi»), «Kitob al-ishorat fil-mantiq val-hikmat» («Mantiq va falsafaning ishoralari»), fors tilida yozilgan «Donishnoma» («Bilim kitobi») va boshqa turli hajmdagi falsafiy risolalarda hamda «Tayr qissasi», «Salomon va Ibsol», «Hayy ibn Yaqzon», «Yusuf haqida qissa» kabi falsafiy mazmunli badiiy qissalarda o’z aksini topgan. Abu Ali Ibn Sinoning dunyoqarashi Aristotel ta’limoti va Forobiy asarlari ta’sirida shakllandi. Uning fikricha, falsafaning vazifasi mavjudotni, ya’ni barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o’zaro munosabati, bir-biriga o’tishini zaruriyat, imkoniyat, voqe’lik, sababiyat omillari asosida har tomonlama o’rganishdan iborat.

Olamda mavjud barcha narsalar ikkiga bo'linadi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Zaruriy vujud eng irodali, qudratli, dono Tangridir. Qolgan narsalar imkoniyat tarzida mavjud bo'lib, Tangridan kelib chiqadi. Zaruriy vujud bilan imkoniy vujud munosabati sabab va oqibat munosabatidir. Bu jarayonda olamdagi hamma narsalar emanatsiya tarzida, ya'ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida asta-sekin amalga oshadi. Shu tartibda imkoniyat shaklida mavjud bo'lgan aql, jon, jism, ular bilan bog'liq osmon sferalari kelib chiqadi. Bular hammasi substansiya (javhar) bo'lib, yana borliqda aksidensiya - narsalarning belgilari, rangi, hajmi, xillari mavjud. Jism shakl va moddadan tashkil topadi. Xudo abadiy, uning oqibati bo'lmish materiya ham abadiydir. Uning o'zi boshqa tayin jismlarning asosidir. Narsalarning moddiy asosi hech qachon yo'qolmaydi. Materiyaning eng sodda bo'linmas shakli 4 unsur: havo, olov, suv, tuproqdan iborat. Ularning turlicha o'zaro birikuv natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi. Murakkab narsalar shaklan o'zgarishi mumkin, lekin ularning moddiy asosi bo'lgan 4 unsur yo'qolmaydi, abadiy saqlanadi.

#### **✓Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy (973-1043)**



Abu Rayxon Muhammad ibn Ahmad Beruniy (973-1043) Markaziy Osiyo tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fikriga katta hissa qo'shgan qomusiy olimdir. Beruniyning madaniyatimiz tarixida salmoqli o'rin turadigan yirik asarlari mavjud: «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Xorazmning mashhur kishilari», «Geodeziya», «Hindiston», «Qonuni Mas'udi», «Minerologiya», «Saydana» va boshqalar. Beruniyning yirik asarlaridan biri «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asaridir.

Abu Rayhon Beruniy 973 yil 4 sentyabrda Markaziy Osiyoning yirik madaniyat markazi – Xorazmda dunyoga keldi. U o'z yurtida tahsil ko'rdi. Beruniy matematika, jo'g'rofiya, yulduzlar ilmi, tibbiyot fanlariga oid ko'p kitoblarni o'qib chiqadi. Falsafa, botanika, minerologiya hamda yana boshqa tabiiy fanlarni chuqur o'rganadi. Fors va arab tillarini va qadimgi ajdodlar tillarini qunt bilan o'rganadi. U o'ziga

Markaziy Osiyolik buyuk matematik va falakkiyotshunos olim Abu Nasr Iroqni ustoz deb biladi. Beruniy yoshlik chog'idanoq fanda, ayniqsa falakkiyot ilmida katta muvafaqqiyatlarga erishdi.

Abu Rayhon Beruniy bir necha yil koinot, metallar va qimmatbaho toshlar ustida kuzatish va tajribalar olib bordi va keyinchalik ana shu tadqiqotlari asosida "Minerologiya" asarini yaratdi. Uning "Geodeziya" asarida geografiya va astronomiya fanlari bilan bir qatorda poleantologik kuzatishlari natijalari ham bayon qilingan. Beruniyning yana bir muhim asari "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar"dir. Bu asarda ham u bir necha fanlar yuzasidan dastlabki tushuncha va ma'lumotlar bergan.

Abu Rayhon Beruniy o'zining ijtimoiy-falsafiy qarashida odam tanasidagi a'zolarining bir-biriga zidligi, ularda bir-biridan farq qiluvchi turli-tuman hatti-harakat va fe'l-atvor mavjudligi asoslangan.

Beruniy inson tabiati jihatidan bir-biriga zid a'zolar qo'shilmasidan tarkib topgan murakkab tanaga ega va shuning uchun uning holati o'z fe'l-atvoriga ko'ra xilma-xil bo'ladi. Uning fikricha, odamlarning qiyofasi bir-biriga o'xshasada, ular ayni chog'da bir-biridan farq qiladi. Ushbu farq ularning mijozi, fe'l-atvori va tabiiy xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Beruniy irqiy tafovutlaridan qat'iy nazar, odamlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikning kuchi insoniyat baxt-saodatining poydevori, deb hisobladi. U jamoatchilik, axloq-odob, go'zallik qoidalariga rioya qilish har bir odamning burchi ekanligini ta'kidladi<sup>109</sup>.

Abu Rayhon Beruniy o'z dunyoqarashida xudoga ishonish har bir musulmonning vazifasi, deb tushungan va olijanob insonning burchi islom qonun-qoidalariga rioya etishdangina iborat emas, balki yaxshilik qilishdan iboratligini uqtirgan. Uning ta'kidlashicha, "Yaxshilik qilish – umuman hammaga va hususan o'z qarindoshlariga zaiflik chog'ida yaxshi istak bilan, iloji bo'lganda esa amaliy ish bilan yaxshilik tilashdir"<sup>110</sup>.

Beruniy mamlakat obodonchiligi ilm-fanning ravnaqiga bog'liq bo'lsa,

<sup>109</sup> Xasanboyeva O., Xasanboyev J., Xamidov H. Pedagogika tarixi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1997, 47-bet.

<sup>110</sup> Xasanboyeva O., Xasanboyev J., Xamidov H. Pedagogika tarixi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1997, 47-bet.

yoshlarning baxt-saodati va kamolotini uning bilimi, axloqi va ma'rifatida deb biladi. Shu sababli ham u yoshlarni ilm-ma'rifatga chorlaydi. Beruniy yoshlardan rahmdil, mehribon, kishilarga iltifotli, hayrihox bo'lishni, yordamga muhtoj insonga yordam berishni, ayyorlik, adolatsizlik, boylikka xirs qo'yish, yolg'on gapirish kabi sifatlarga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi. Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi 2 turga bo'ladi.

Beruniy o'z qarashlarida insonni ulug'laydi va insonni ezgu xislatlarini yuqori o'ringa qo'yadi. Uning fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifatlaridan biri. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o'zaro muloqoti, ijtimoiy muhit – jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi. Abu Rayhon Beruniy ham tarbiyaga musulmon dini axloqiy tarbiya talablaridan kelib chiqqan holda ta'rif beradi. Axloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va tarkib topadi. Yaxshilik va yomonlik insonning xulq-atvorini anglaydigan mezon sifatida qo'llaniladi. Yaxshi xislatlarga to'g'rilik, odillik, o'zini saqlash, insof, kamtarlik, lutf, sobit qadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, rahbarlikda adolatlilik, tadbirkorlik kabilarni kiritadi. Beruniy ta'kidlagan ushbu yaxshi xislatlarda komil insonga xos bo'lgan fazilatlar ham aytib o'tilgan.

Yomon xislatlarga esa insonning bir-birini ta'qib qilishi, raqobat, o'z manfaatini ko'zlash, boshliq bo'lish uchun kurashish va hokazolarni kiritadi.

Abu Rayhon Beruniy yaxshi xulqlar turkumiga faxrlanish tuyg'usini kiritib, o'zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida shunday deydi: “..... faxrlanish haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe'llarda oldin ketish, ilmu-hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud (nopokliklardan) tozalanishdir. Kimda shunday (sifatlar) topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular topilmasa, hukm uning zarariga bo'ladi”<sup>111</sup>.

Beruniy yaxshi fazilatlariga yana sahovat, odamgarchilik va mardlikni kiritadi. Ular haqida fikr yuritib, mard kishi haqiqat uchun kurashib, hech qanday ta'qib va xavf-hatarga qaramay, yolg'onga qarshi kurashishi lozimligini uqtiradi.

---

<sup>111</sup> Beruniy Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1968, 151-bet.

Olim o'zining "Javohirot" asarida odamgarchilik haqida shunday deydi: "Odamgarchilik, ya'ni muruvvat kishining o'zi, urug'-aymog'i va o'z ahvoliga ta'sir etishi bilan chegaralanadi. Mardlik esa undan ham ustuvor turib, o'zidan tashqariga o'tadi. Muruvvatli mard kishi o'zidan va o'ziniki ekanligiga hech kim tortishib o'tirmaydigan narsadan boshqasiga egalik qilmaydi. Agar u odamlarning osoyishtaligi deb mashaqqatga chidash bersa, ziqnalik qilmasdan, boshqalarga berilmay, unga ato qilingan narsalarni birovlarga bersa, bunday odam o'shanday qudrat bilan shuhrat topgan mard kishi sanaladi, u o'zining muloyimligi, irodasi, mustahkamligi, kamtarligi bilan tanilib, garchi u shu marta ahlidan bo'lmasa ham, oliy darajaga ko'tariladi".

Beruniy sahovatlilikni ham muhim axloqiy mezon deb belgilaydi. Uning fikricha, odam hamma vaqt boshqalarning baxt-saodati haqida o'ylashi lozim. Muruvvat insonning chinakam axloqiy xislatlaridan biri bo'lib, Beruniyning fikricha, bunday odamlar hayrixoh bo'ladi, boylik orttirishga intilmaydi, dehqonchilik, savdosotiq, hunarmandchilik kabi ishlar bilan shug'ullanib halol mehnat bilan yashaydi.

Muruvvatli kishi mard bo'lib, mol-mulkidan boshqa hech narsaga ega bo'lmaydi. Beruniy sahovat, rahmdillik, sabr-toqat, axloqiylik insonning asosiy xislatlaridan deb biladi. Shuning uchun ham axloqiy qarashlarida inson asosiy o'rinni egallaydi.

U insonni doimo komillik darajasiga erishishligi haqida fikr yuritadi. Yomon xislat va fazilatlarni qoralaydi. Beruniy yolg'on doim rostdan yengiladi, degan edi. Shuning uchun rostgo'ylik fazilatini hamma o'ziga mujassam qilishni orzu qilgan. U yolg'onchilik haqida shunday deydi: "Yolg'onchilikka shu qadar o'rganganlar borki, agar ulardan nogaxon: rost gapirib qo'yishdan qo'rqmasam, yo'q der edim, degan javob eshitasiz. Bunday kishilar adolatdan chetga chiqib o'zlarini xavfga tashlagan bo'ladilar"<sup>112</sup>.

Rostgo'ylik - komillikning asosiy belgisi sanaladi. Beruniy insonning har bir axloqiy xislatiga chuqur e'tibor qaratib, yaxshi yoki yomon xulq insonning taqdirini belgilaydi, deb ta'kidlaydi.

---

<sup>112</sup> Xasanboyeva O., Xasanboyev J., Xamidov H. Pedagogika tarixi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1997, 49-bet.

Beruniy ilm-fanning muxlisi va buyuk homiysi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gulshaniga bog'liq, odamlarning baxti esa uning ma'rifatida deb bilgan. Ma'rifat dushmanlariga, yomon urf-odatlariga, adolatsizlikka qarshi bo'lgan.

U insonning kamolotga erishuvi tajribaga tayanuvchi aql-idrokka amal qilishdan boshlanishini, inson tashqi dunyoni bilishga qobilligini, shu asosda bilim olishni, haqiqatni izlashni, haqiqat esa uning to'g'ri his-tuyg'ularini taqozo etishini va shularning hammasi inson shaxsini kamol topishining bosh yo'li ekanini bayon etadi. Beruniy inson axloqini shakllantiruvchi vosita – mehnat, deb hisoblaydi. Uning fikricha, aql-idrok va mehnat jamlanishigina kishilarning to'g'ri hayoti va pok axloqini belgilab beradi. U o'zining “Minerologiya”, “Feruza”, “100 hikmat”, “Ayol makri” va yana bir qator yozgan hikmatlar, naqlar va she'rlarida axloqiy tarbiyaning bosh mezoni mehnat tarbiyasi, ekanini asoslab berdi. Mehnat inson qalbida muruvvat hissini uyg'otadi. Beruniyning muruvvat haqidagi g'oyasida hayrixox bo'lishlik, halol, haqg'o'y va boylik orttirishga intilmaydigan, o'z mehnati hamda o'zgalarning mehnatini hurmatlaydigan sifatlarni nazarda tutgan edi.

Beruniy har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblarini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli, olimlar mehnatiga alohida e'tibor beradi va hayrixox bo'lishga chaqiradi. Yana shuni ta'kidlaydiki, og'ir mehnat qiluvchi insonlarni dehqonlarni, konchilarni rag'batlantirib turish lozim deydi.

Beruniy insonni komil qilib tarbiyalashda dastavval unga bolaligidanoq mehnat qilishni o'rgatish lozim, deydi.

Mutafakkir o'zining “Minerologiya” asarida faqatgina qimmatbaho toshlar haqida emas, balki mehnat va hunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish metodlari haqida qimmatli fikrlarini bildiradi.

Beruniy o'zining asarlarida insonning kamolga yetishi uning aqliy tafakkurining rivojlanishi, axloqan kamolga yetishi, jismonan sog'lom va barkamol bo'lishiga bog'liq ekanligini aytib o'tgan.

U inson va axloqiy tarbiya haqida fikr yuritar ekan, “Insonga yer yuzini obod

etishgi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun har bir inson yuksak axloqli “komil” bo’lishi lozimligini ta’kidlab o’tgan.

Beruniy aqliy tarbiyani insonning tafakkurini rivojlantirib, dunyoqarashini kengaytiradi va o’z-o’zini anglashga ta’sir etishini aniqladi.

Mutafakkir, avvalo, “shaxsiy kamolga etishi tajribaga tayanuvchi aql-idrokning amal qilishidan boshlanadi. Binobarin, inson tashqi dunyoni bilishga qobil, ana shu asosda u bilimlar oladi, bilimlar esa uning fikrini haqiqat bilan bir narsa qilib qo’yadi, haqiqat esa “to’g’ri qalbni, ya’ni to’g’ri his-tuyg’ularini taqozo etadi. Inson shaxsi shu tariqa kamol topib boradi”, - deb uqtiradi<sup>113</sup>.

Abu Rayhon Beruniy o’zidan avval yashagan olimlarning bilish haqidagi ta’limotlarini rivojlantirib, o’zi ham yangiliklar yaratib ularni boyitadi.

U inson fikrlashda mulohaza yuritish, tahlil qilish, hukm chiqarish qobiliyatiga ega ekan, ilmiy haqiqatni aniqlashda kuzatish va tajribaga asoslanish kerakligiga muhim e’tibor qaratadi.

Bunday holat dunyoni ilmiy bilishga to’siqlik qiluvchi noto’g’ri fikrlardan saqlaydi<sup>114</sup>.

Mutafakkir ilmiy bilishning ilk bosqichi sifatida kuzatishni qo’yib, uni tajribalar asosida rivojlantirishni ilmiy haqiqatni bilishga asos qilib oladi. Bunga misol qilib, Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini misol keltirish mumkin.

“Mening butun fikri-yodim, qalbim-bilimlarni targ’ib qilishga qaratilgan, Chunki men bilim orttirish lazzatidan bahramand bo’ldim. Buni men o’zim uchun katta baxt deb hisoblayman” – deb yozadi Beruniy.

Beruniy O’rta Osiyo, Eron, Hindistonning qator shaharlarida bo’lgan. U arab, Yunon, fors, turkiy va hind tillarini yaxshi bilgan. Beruniy Jurjonda muxojirlik davrida «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», G’aznada «Xorazmning mashhur kishilari», «Turar joylar (orasidagi) masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash» (bu asarning qo’lyozmasi Istanbulda saqlanadi, rus tiliga «Geodeziya» nomi bilan tarjima qilingan), «Munajjimlik san’atidan boshlang’ich

<sup>113</sup> Jumaboev Y. O’rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. - Toshkent: O’zbekiston, 1980., 114-bet.

<sup>114</sup> Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: “Istiqol”, 2003, 132-bet.



tushunchalar», «Hindiston», astronomiyaga oid «Al-Qonun al-Ma'sudiy» («Ma'sud qonuni»), minerologiyaga oid «Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo'yicha ma'lumotlar to'plami», oxirgi asari «Dorivor o'simliklar haqida kitob»i Turkiyadan topildi va asar «Saydana» nomi bilan mashhur bo'lib, unda Eron, Turkistonda o'sadigan dorivor o'simliklarga tavsif beriladi.

Beruniyning 152 kitob va risolalaridan 28 ta asarigina bizgacha yetib kelgan.

Beruniyning falakiyot sohasidagi xizmati katta. U turli nazariyalar to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini bildiradi. Beruniy yoritgichlar harakatini handasaviy izohlash asosida olamning tuzilishini tushuntiradigan geosentrik va geliosentrik sistema teng kuchga ega, degan xulosaga keladi. Beruniy birinchi bo'lib, osmon yoritgichlarining harakat troyektoriyasi va shakli ellipsoid ekanligi haqida fikr yuritgan, Quyoshni tushuntirishda o'z xulosalariga ega.

Beruniy o'sha vaqtda ma'lum bo'lmagan Boltiq va Oq dengiz, Sibir, Xitoy va Tibet o'lkalariga ta'rif beradi. Yer sharining Janubiy tomonida quruqlik mavjud deb taxmin qiladi. Beruniy Yevropalik olimlardan 450 yil oldin g'arbiy yarim sharda yaxlit bir quruqlik borligini «Al-Qonun al-Ma'sudiy» asarida yozadi. Uning geografik kengliklar va uzoqliklar, Yer sharining o'lchamlari haqida ma'lumotlari o'tgan zamondoshlariga nisbatan ancha aniqligi bilan ajralib turadi.

Beruniyning geologiya va minerologiya sohasidagi ishlari, kashfiyotlari ulkan ahamiyatga ega. U Yer taraqqiyotining o'ziga xosligi, hududiyliigi to'g'risida to'xtalib, Amudaryo etaklari, Orol dengizining paydo bo'lishi haqida o'z xulosalarini bildiradi. U tog'larni paydo bo'lishi va yo'q bo'lib ketishi tabiiy omillar asosida yuz berishini talqin etuvchi nazariyani olg'a suradi.

Akademik Muzaffar Xayrullaev yozishicha: «Tabiiy fanlar tarixida Beruniyning abadiy qoladigan xizmati shundaki, u o'zining ilmiy tekshirish ishlarida o'zi ishlab chiqqan ilmiy tadqiqot metodiga, tajriba va kuzatishlariga suyanadi. Olim o'z oldiga fanni aniq ma'lumotlar bilan boyitish, nazariyalarni ishlab chiqish, yangi usul va qonunlarni ochish vazifasini qo'ygan».

Geograf, professor Hamidulla Hasanov Beruniy to'g'risida shunday yozadi: «O'rta Osiyo va Xuroson geografiya fani tarixini aslida «Beruniyning geografik

maktabi» deb atash ma'qul bo'lar edi, chunki Beruniy O'rta Osiyo va Xuroson fanining faxri bo'lish bilan birga, jahonning eng ulug' olimlaridan biridir».

Abu Rayhon Beruniy “Tafhim”ni bayon etishda mana shu metodologik tamoyilga amal qilgan.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinadiki, uning risolasi mantiqiy tuzilishi riyoziy jiddiylik usuli bilan birikib ketadi. Shu bilan birga muallif asarni bayon etishda ilmiylikka amal qiladi.

Risolaning planimetrik bo'limini bayon qilganidan so'ng, stereometriyaga o'tishdan oldin, nisbatlar nazariyasini bayon qiladi. Bunda uning son haqidagi tushunchani handasaviy obyektlarni ham o'z ichiga oluvchi umumiy fanga, ya'ni musbat haqiqiy sonlar tushunchasigacha kengaytirish borasidagi harakati yanada aniq namoyon bo'ladi. Haqiqatan ham nisbatlar nazariyasi hisob yordamida handasaviy obyektlar, ya'ni kesmalar nisbatiga asoslangan. Undan tashqari nisbatlar nazariyasi – olimda faqat kesmalar uzunliklarining, ya'ni planimetriya obyektlarining nisbatidir. Shu bo'limni planimetrik va stereometrik bo'limlar orasida keltirish bilan uning planimetriyaga aloqadorligini uqtirmoqchi bo'ladi. Bu bilan Abu Rayhon Beruniy o'z metodologik tamoyiliga amal qilib, mantiqiy izchillik va riyoziy qat'iylikni saqlashga intiladi.

“Tafhim”ning stereometrik bo'limida u kub, prizma, to'g'ri va og'ma silindr, konus, uning kesimlari, shar, unga ichki chizilgan shakllar, beshta muntazam ko'pyoqliklar, sferadagi katta, kichik doiralar, qutb va o'q ta'riflanadi. Olim muntazam ko'pyoqlilardan kub, ikosaedr, oktaedr, tetraedr, dodekaedrni mos ravishda “yer”, “suv”, “havo”, “o't” va “osmon” jismi deb ataydi. Ularning bunday atalishi Platondan boshlanadi, chunki u olov (o't) atomlari tetraedr, yerniki – kub, havoniki – oktaedr, suvniki – ikosaedr va butun olam – dodekaedr shakliga ega deb hisoblagan edi.

Abu Rayhon Beruniy pifagorchilar an'anasiga ko'ra, tub va murakkab, «mukammal», «yetishmovchi», «ortiqcha», «do'stona», kvadrat, kub, saxiy, jismoniy va piramidal sonlarni bayon etdi.

O'rta asrlar savdo-sotiq ishlarida, asosan, yelkali tarozilardan foydalanilgan. Olim «karastun» – yelkali tarozini tushuntirdi va uni nisbatlar nazariyasi bilan bog'ladi. Shuningdek, u «Jo'g'rofiya» hamda shu bobning «Gnomonika» bo'limidagi ma'lumotlar Sharq savdogar, sayyohlariga quruqlik va dengiz safarlarida yo'l, vaqtni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Abu Rayhon Beruniyning tog' balandligini bilgan holda Yer radiusini ilk bora aniq o'lchadi va  $12851370 \text{ gaz} = 3212,8 \text{ mil} = 6340 \text{ km}$  ekanligini aniqladi.

Buyuk olimning riyoziyotda murakkabdan oddiyga usuli orqali «Sezgiga – eng yaqini jism, keyin – sirt, so'ng – chiziq va bularning hammasidan eng uzog'i nuqtadir» degan tamoyili bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarb ekanligini ko'rishimiz mumkin.


### **✓Abu Bakr Muhammad Ibn Zakariyo Ar-Roziy**

Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy (865.28.8 - 925.26.10) — sharqning qomusiy olimi, tabib va mutafakkir. O'rta asr Yevropasida lotincha Razes nomi bilan tanilib, tabobat sohasida o'z davrining Jolinus (Galen)i deb sanalgan. Shuningdek, kimyo, botanika, matematika, astronomiya, mantiq va falsafa kabi fanlarni chuqur o'rgangan; adabiyot va musiqa bilan ham shug'ullangan. Roziy bir qancha vaqt Ray va Bag'dod shifoxonalarini boshqargan. U O'rta Osiyo, jumladan, Buxoro ilm ahli bilan ilmiy muloqotda bo'lgan. Ko'z kasalligiga uchrab, umrining oxirida ko'r bo'lib qolgan. Roziyning tabobatga oid asarlaridan 36 tasi bizgacha yetib kelgan.


Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy terapiya, xirurgiya, diagnostika, sanitariya-gigiyena, farmakognoziya, farmakologiya, anatomiya, psixologiya kabi ilmlarni yangi g'oya va ixtirolar bilan boyitgan. Tabobat bilan bog'liq bo'lgan botanika, mineralogiya va kimyo fani sohasida ham ancha muvaffaqiyatlarga erishgan. Roziyning eng muhim asarlaridan biri «Kitob al-hoviy fit-tib» («Tibbiyotga oid bilimlar majmuasi») nomli to'plamidir.

**Falsafiy-ijtimoiy qarashlari.** Roziy o'rta asr Yaqin va O'rta Sharq xalqlari falsafasida mavjud bo'lgan ta'limotlarning birortasiga bog'liq bo'lmagan holda borliq va uning mohiyati haqida o'z mustaqil ta'limotini yaratdi. Uningcha, borliq - yagona

bir-biriga bo'ysunmagan 5 mustaqil boshlang'ich mohiyat (yaratuvchi, jon, vaqt, makon, materiya)dan vujudga kelgan.



Bularning har biri borliqning vujudga kelishi va mavjud bo'lib qolishida «zaruriy vujud»lardir. Roziy materiya, makon, zamoni yaratuvchi va jon bilan bir xil zaruriy mohiyat deb hisoblab, moddiylikni ilohiylikka, ilohiylikni moddiylikka bo'ysundiradi. U o'z davrining yirik tabiatshunosi sifatida moddiy olam hodisalari va jarayonlarini materiya va uning xususiyatlari bilan izohlashga harakat qildi, o'z naturfalsafiy qarashlarida ma'lum darajada ilmiy nuqtai nazarga yondashildi. O'rta asr falsafasi uchun erishgan eng katta yutuqlaridan biri - Roziyning narsalar moddiy atom zarralardan tuzilgani haqidagi ta'limotidir. U Demokrit va Epikur atomistik ta'limotini o'rta asrlarda birinchi marta qayta tikladi. Uning fikricha, materiya dastlab «bo'linmas zarralar (atom) holatida bo'ladi», «og'irlik va tanaga ega», «moddiy zarralarning bo'shliq zarralari bilan qo'shilishi» natijasida 4 unsur: tuproq, suv, havo va olov paydo bo'ladi.



Atomlarning moddiyligi, abadiyligi va obyektivligi tufayli ulardan vujudga kelgan moddiy olam ham obyektiv va abadiydir. Roziy makon va zamoni ham substansiya deb tushunadi, bu bilan ularni materiyadan va bir-biridan ajratadi. Roziyning bundan maqsadi ularning obyektivligini ta'kidlashdir. Roziy bilish nazariyasida moddiy olam hodisalarining inson sezgi a'zolariga ta'sir yetib unda aks

etishi, tashqi olam bilish obyektga, inson esa bilish subyekti ekanini ta'kidlaydi: «Sezgi - seziluvchi narsalarning sezuvchiga ta'siri». Roziy bilishning eng kuchli quroli sifatida aqlga yuqori baho beradi. Unin fikrigicha, insonning ijodiy faoliyati faqat aql tufaylidir. «Aql bizni oliyjanoblikka yetaklaydi, hayotimizni go'zallashtiradi, maqsadlarimizga yetkazadi». Roziyning axloqqa oid 3 asari «Kitob tibb ar-ruhoniyy» («Ruhiiy tabobat»), «Kitob siyrat al-falsafiyah» («Falsafiiy hayot tarzi»), «Maqola fi amorot il-iqbol va-davla» («Davlatmandlik va baxt-iqbol haqida») bizgacha yetib kelgan. Roziy Suqrotni axloq sohasida o'zining va barcha faylasuflarning ustozini deb hisoblaydi. Roziy ratsional (aqliy) gedonizm tarafdori bo'lib, dunyo noz-ne'matlaridan aqlga muvofiq va me'yor bilan lazzatlanishni yoqlaydi. O'rta asr manbalarida Roziy dinning ayrim aqida va tamoyillariga salbiy munosabatda bo'lgani hamda payg'ambarlik haqida aqidaga zid bo'lgan asar yozgani ta'kidlanadi. Lekin, uning tabiiy-ilmiy merosi va falsafiiy qarashlari yaqin va O'rta Sharq xalqlari ma'naviiy merosida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Roziyning ilmiy merosini birinchi marta o'rgangan olim Abu Rayhon Beruniydir. Beruniy Roziyning tarjimai holi, dunyoqarashi va asarlarini tadqiq yetib, «Fehrist kutub Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy» («Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy kitoblarining ro'yxati») asarini yozgan. Roziyning asosiy asarlari o'rta asrlardayoq G'arbiy Yevropada mashhur bo'lgan, ba'zilar lotin va boshqa Yevropa tillariga tarjima qilinib, keng o'rganilgan. Keyingi davr olimlarining, jumladan, O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida Roziy asarlarining ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan qo'lyozma nusxalari va ularning tarjimalari aniqlandi.

O'rta asr bosqichida Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim ilm-fan va madaniyatiga cherkovning kuchli ta'sirini ko'ramiz. Yevropa xristian ilm-fani XII-XIII asrlargacha inqirozga uchradi. Ammo, Sharqda bu davrda, ya'ni VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilm-fan taraqqiyotining rivoji kuzatildi.

Arab olimlari ichida Muhammad al-Battani (850-929 yillar) - astronom, yangi astronomik jadval muallifi; Ibn Yunus (950-1009 yillar) - matematika, trigonometriya sohasida ilmiy ish olib borib, bir vaqtda Quyosh va Oy tutilishini kuzatdi; Ibn al-Haysam (965-1020 yillar) - optika sohasida; faylasuf, tabiatshunos Ibn Rushd (1126-

1198 yillar) kabilar musulmon dunyosi ilm-fanini taraqqiy etishiga katta hissa qo'shishdi.

Ma'lumki, VIII asrda Yaqin Sharqda Arab xalifaligi shakllandi va rivoj topdi. VIII asr oxiri - IX asrning o'rtalariga kelib, Arab xalifaligi Sharqda yirik imperiyaga aylandi. Bu davrda birinchi akademiya - «Bayt al-hikma» tashkil topdi. Bu yerda turli ilmiy, diniy muzokaralar uyushtirilib, turli millatlarga xos olimlar bilan birgalikda ilmiy muhokamalar avj oldi. Yaqin va O'rta Sharqda yangi-yangi ilmgohlar vujudga keldi, asarlar yozish, kitob ko'chirish, arab tiliga tarjima qilish uchun maxsus tilmochlar maktabi tuzildi. Bu davrda hukmdorlardan Mansur, Xorun ar-Rashid, halifa Ma'munning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi kattadir. Akademiya faoliyatida O'rta Osiyodan kelgan olimlar ham muhim o'rin egalladilar.

VIII asrning 30-yillariga kelib Mavoraunnahrning deyarli barcha yerlari arablarga bo'ysundiriladi va Islom madaniyati, adabiyot, san'at, fan, falsafa, axloq, urf-odat, ta'lim-tarbiya kabilarning barchasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'rta Osiyoda islom dinshunosligi IX asrda o'ta rivoj topgan bo'lsa, ilm-fan taraqqiyotining cho'qqisi XII asrga to'g'ri keladi.

O'rta asrning buyuk daholaridan biri Abu Ali ibn Sinoning O'rta Osiyo ilm-fani va madaniyatiga qo'shgan hissasi buyuk va beqiyosdir.

Olimning «Kitob ash-Shifo», «Tib qonunlari», «Bilimlar kitobi», «Tabiat durdonasi» kabi asarlari mashhurdir. Borliqni talqin etishda Ibn Sino Forobiy izidan borib, uni «vujudi vojib» va «vujudi mumkin»dan iborat, deb e'tirof etadi. «Vujudi vojib» birinchi sabab vazifasini bajaradi. «Vujudi mumkin» esa uning oqibatidir. Yaratilishi doimiy bo'lganligi uchun yaratilgan «vujudi mumkin» ham abadiydir. Olimning sababiyatga oid mulohazalari ham e'tiborga molikdir. Unga ko'ra, sabablar moddiy (muayyan holatni keltirib chiqaruvchi sabab), faol (muayyan holatni o'zgartiruvchi sabab), shakliy (turli xil quvvatlar bilan bog'langan sabab) va tugallovchi (barcha sabablarning pirovard maqsadi) sabablardan iboratdir.

## ✓Muhammad Tarag'ay – Ulug'bek (1394-1449)

Ulug'bek taxallusi, asl ismi Muhammad Tarag'ay (1394 yil 22 mart -1449 yil 27 oktyabr, Samarqand) - buyuk o'zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi. Shohruxning o'g'li, Amir Temurning nabirasi.



Tarixdan ma'lumki, Ulug'bek 1424-1428-yillarda Samarqand shahri yaqinidagi Obirahmat degan joyda rasadxona qurdiradi, o'zining astronomiyaga oid kuzatishlarini bevosita shu yerning o'zida olib boradi. Uning 1437 yilda tugatgan «Ziji jadidi Ko'ragoniy» («Ko'rag'oniyning yangi astronomik jadvali») asari ana shunday ilmiy kuzatish va xulosalar negizida dunyoga keladi.

Buyuk vatandoshimiz, olim va davlat arbobi Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning hayot yo'li va ijodi mana 628 yildirki, Sharq va G'arb olimlari va madaniyat arboblarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Muhammad Tarag'ay, yani Mirzo Ulug'bek hijriy 796-yil Jumodiy-ul-avvalning 19 da (milodiy 1394-yil 22 mart) Amir Temurning o'n yetti yashar kichik o'g'li Shohruxning xotini Gavharshod og'aning ko'zi yorib, o'g'il ko'radi. Yangi tug'ilgan bolaga katta bobosining nomi bilan ism beriladi. Lekin uning bobosi alohida mehr bilan Beklarning ichida yeng «Ulug'i» deb atayvergani uchun uning nomi Ulug'bek bo'lib qoladi. Ulug'bek, Saroy Mulk xonim (Bibixonim)ning qaramog'iga tarbiyalanadi.

Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» asarida yozishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib Ulug'bekning tug'ilgani va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo'lishini bashorat qilganlari xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qal'asi qamalini to'xtatib, uning xalqiga yuklangan to'lovni bekor qiladi. Uning o'z nabirasiga Muhammad Tarag'ay deb ism qo'yganini ham munajjimlarning yuqoridagi bashorati bilan bog'lash mumkin.

Professor Hamidulla Hasanovning yozishicha, Ulug'bek Morog'a (Tehron yonida) rasadxonasini ko'rib, havas bilan «men ham shundayini quraman» deb ahd

qilgan ekan. Ulug'bekning yoshi 26-27 larga yetganda olimlar hayoti bilan juda yaqinlashgan. Uning atrofida 60-70 tacha matematik va astronom olimlar to'plangan.

Samarqandda 1408-1410 yillarda ilm-fan rivoj topgan. Qozi Zoda Rumiyy, Said Sharif Jurjoniylardan ta'lim olgan. Ulug'bek keyinchalik o'zi ham madrasada matematikadan ma'ruzalar o'qigan.

Manbalarga tayangan holda ta'kidlash mumkinki, Qozi Zoda Rumiyy (1354-1430) Kichik Osiyoning Bursa shahrida tug'ilgan va 20 yoshlarida Xuroson va Movarounnahrda ilm izlab kelib qoladi.

Ma'lumki, rasadxona 1427-1429-yillarda qurilib, unga G'iyosiddin Jamshid Koshiy mudir yetib tayinlangan. Keyinchalik, Qozi Zoda Rumiyy rahbarlik qilgan. Undan keyin Ali Qushchi mudir bo'lgan.

Ulug'bek «Zij»ining muqaddimasida 3 yirik olim nomini keltiradi. Ular - Qozi Zoda Rumiyy, Jamshid Koshiy va Alovuddin Ali ibn Muhammad Qushchi.

Mirzo Ulug'bek rahbarligida yozib bitkazilgan «Ziji Ko'ragoniy» kitobi (uni «Ziji sultoni Ko'ragoniy», «Ziji jadi-di Sultoni», «Ziji Ulug'bek» deb ham ataydilar) Ulug'bek rasadxonasining mahsulidir va O'rta Osiyo hamda butun jahon fani tarixida shohona bir ilmiy asardir.

Ulug'bek «Zij»i umumiy muqaddima va to'rt kitob (maqola)dan iborat. Muqaddimada Ulug'bek Qur'on oyatlari va hadislarini keltirish bilan astronomiya fanining zarurligini asoslaydi.

«Zij»ning birinchi kitobi muqaddima va yetti bobdan iborat. Muqaddimada, Ulug'bek kunlarning turlari, har xil xalqlarda kun boshini o'lchash usullarini, tekis va egri soatlarni ta'riflaydi. «Zij»ning birinchi kitobining 1-bobi hijriy taqvimda yil va oy boshlarini aniqlashga bag'ishlangan. Kitobning 2-bobi «Rumlar tarixida», ya'ni miloddan avvalgi 312 yil 1 oktyabrda, ya'ni Iskandar III ning taxtga o'tirgan kundan boshlangan. Bu tarixni (erani) odatda Iskandar tarixi deyiladi. Lekin, bu bilan Iskandar Zulqarnayn tarixi nazarda tutilmaydi (Ashraf Ahmedov, 1994). Kitobning qolgan boblarida «Forslar tarixida», davriy taqvim va Xitoy bilan Turkistonda vaqt o'lchash masalalari, nihoyat, shu kitobning so'nggi bobi taqvimlarda mashhur kunlar va bayramlarga bag'ishlangan.



Ulug'bek «Zij»ining II kitobi 22 bobdan iborat bo'lib, matematika, atronomiya masalalari bayon etilgan.

Ulug'bek «Zij»ining III kitobi sayyoralar harakati nazariyasiga va yulduzlar astronomiyasiga bag'ishlangan.

Ulug'bek «Zij»ining IV kitobi ilmi nujunga - astrologiyaga bag'ishlangan.

Ma'lumki, «Ziji Ko'ragoniy»da yulduzlar jadvali bilan birga yer yuzidagi shaharlar va boshqa geografik obyektlarning geografik koordinatalari ham ko'rsatilgan.

Ulug'bekning «Ziji Ko'ragoniy» asari o'rta asrlardagi nafaqat astronomiyaning, balki matematikaning ham cho'qqisi edi. Ulug'bek qo'llagan matematik uslub formulalar va qoidalarning yuksak darajada aniq ekanligi bundan guvohlik beradi.

Markaziy Osiyo tabiatshunosligining keyingi taraqqiyoti buyuk olim Ulug'bek nomi bilan uzviy bog'liqdir.

«Ulug'bek akademiyasi» nomli kitobda (muallif Abdurahmonov, Toshkent, 1993) qayd etilishicha bu asar kirish, to'rt kitob (bo'lim)dan iboratdir. «Ziji»ning birinchi kitobi eralar va turli taqvimlarga bag'ishlangan. Unda hijriy, Yunon eralari, ularni hisoblash usullari, ular orasidagi munosabatlar qarab chiqiladi. Yil hisobida kabisa yilini topish masalasi ko'riladi, Ulug'bekning fikricha har 30 yilga 11 ta kabisa yili to'g'ri keladi. Ikkinchi kitobda matematik xisob-kitoblar tizimi beriladi.

Uchinchi kitob trigonometrik jadvallarga bag'ishlangan. Uning amaliy astronomiyaga bag'ishlangan qismida sayyoralar harakati nazariyasi, osmon yoritgichlarning koordinatalarini aniqlash, yulduzlar va sayyoralar orasidagi masofalarni belgilash kabi masalalar yoritiladi.

«Ziji»ning to'rtinchi kitobi ilmi nujum, ya'ni astrologiyaga bag'ishlanadi. Ilmi nujumda sayyoralarning turlicha mos turishlariga qarab kishilarning tole'nomasini tuzish, sayyoralarning turli-tuman joylashuvining kishilar taqdiriga ta'siri masalalari qarab chiqiladi.

Shuni aytish kerakki, Ulug'bek jadvali o'z davrining eng mukammal yutuqlaridan hisoblanadi. Chunonchi, Ulug'bekning yil hisobi hozirgi zamon hisob-kitoblariga qiyos qilinganda bir daqiqa ikki soniyaga tafovut qiladi. Temuriylar

davrida ilmu fanning barcha sohalari, shu jumladan tabiatshunoslikda ham muhim ishlar qilindi.

### ✓ **Muhammad ibn Umar Sa'diddin at-Taftazoniy (1322-1392)**

TAFTAZONIY (1322, Niso yaqinidagi Taftazon qishlog'i - 1392.12.8. Samarqand) - qomusiy olim. Taftazoniy qariyb 30 yil (1340 yildan 1372 yilgacha) davomida Hirot va Movarounnahrning turli shaharlaridagi madrasalarda falsafa va mantiqdan dars bergan. So'ngra Temur da'vatiga binoan Samarqandga kelib, saroyda xizmat qilgan va umrining oxirigacha shu saroyda yashab ijod bilan shug'ullangan.

Sa'diddin Taftazoniy islom falsafasi, mantiq, she'riyat va arab tiliga bag'ishlangan 46 dan ortiq asarlarning muallifi. Uning mashhur asarlari: «Mantiq va kalomga sayqal berish», «Din asoslarini izlovchilarning maqsadlari», «Keng talqin», «Yo'l boshlovchi rahbar» va hokazo. Uning ilmiy-falsafiy qarashlari negizida iroda erkinligi muammosi alohida o'rin tutadi.

### ✓ **Koshiy(Al-Koshiy), G'iyosiddin Jamshid (1430 yilda v.e.)**

KOSHIY (Al-Koshiy), G'iyosiddin Jamshid (taxm. 1430 yilda Samarqandda vafot etgan) - atoqli matematik va astronom. Asli Eronlik Koshon shahridan bo'lib, boshlang'ich matematik ma'lumotni shu yerda olgan va 15-asr boshida Ulug'bekning taklifi bilan Samarqandga kelgan; bu yerda Qozizoda Rumiylar bilan birga Ulug'bek rasadxonasi va madrasasi qurilishiga rahbarlik qilgan.

Koshiy Ulug'bek qo'l ostida ishlagan Husayn Birjoniy, Ali Qushchi va boshqalarning kamolotga yetishishiga katta hissa qo'shgan. Koshiy astronomiyaga oid «Ziji Hoqoniy dar takmili ziji Elxoniy» («Elxoniy astronomik jadvalini takomillashtirishda Hoqoniy astronomik jadvalining ahamiyati»), «Sullam us-samo» («Osmon narvoni»), «Nuzxat ul-xaloiq» («Bog'lar sayri») va matematikaga oid «Risola al-muhitiya» («Aylana haqida risola»), «Risola ul-atvor al-jayb» («Vatarlar va sinus haqida risola»), «Miftog' ul-hisob» («Arifmetika kaliti») asarlarini yozgan.

Koshiy birinchi bo'lib, matematikaga pozitsion asosda o'nli kasrlarni kiritdi va nazariy asoslari, ixtiyoriy ko'rsatkichli ildiz chiqarishga doir «Nyuton binomi»ning koeffitsiyentlarini topishda ba'zi bir formulalarga to'g'ri keladigan additiv usulni qo'lladi. Koshiy  $\sin\pi$  va  $\pi$  sonini o'nlik sistemada 17 xona aniqlik bilan hisobladi. Koshiy o'rta asr sharq matematikasining yuqori bosqichga ko'tarishga katta hissa qo'shdi.

**Ali Qushchi** (vafoti - 1474) yirik matematik va astronom sifatida Samarqandda shuhrat topgan. U 20 dan ortiq asar yozgan bo'lib, quyidagi risolalari mashhurdir: «Hisob haqida risola», «Kasrlar risolasi», «Hisob haqida», «Astronomiya ilmi haqida risola», «Sharhi Ziji Ulug'bek» va h.k. Nazariy falsafiy va tabiiy ilmiy fikrlar keyinchalik Mirsaid Jurjoniy, Suf Qoraboqiy, Cho'g'on Valixonov va boshqalar tomonidan ijodiy rivojlantirildi. Ibn Sino, Zakariyo, ar-Roziy va Beruniy kabi jahon falsafiy tafakkuri tarixida birinchilardan bo'lib, kuzatuv va tajribaga muhim e'tibor qaratdi.

O'rta asrda qomusiy olimlar bilan bir qatorda tibbiyotga oid aniq ilm sohasi bilan shug'ullangan yirik olimlar ham faol ish olib borganlar: Ismoil Jurjoniy, Chag'miniy, Mahmud Qoshg'ariy, Zahridin Bayxaqiy va boshqalar.

Shunday qilib, O'rta Osiyoda ilk Uyg'onish davri IX-XII asrlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, Yevropa tarixida madaniy yuksalish Renessans, uyg'onish davri XV-XVII asrlarga xosdir.

1991-yili buyuk alloma, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy yubileyini o'tkazish katta ahamiyatga molik voqea bo'ldi. Bu tantanaga bag'ishlanib Respublikamizda shoirning asarlari nashrdan chiqarildi.

1994-yil Mirzo Ulug'bek tavallud topgan kunining 600 yilligi keng ko'lamda, jahon miqyosida nishonlandi. YUNESKOning Parijdagi qarorgohida yubileyga bag'ishlangan haftalik o'tdi.

Mustaqillik yillarida buyuk sohibqiron Amir Temurning 660 yilligi Fransiyada keng nishonlandi. YUNESKO tomonidan 1996-yil "Amir Temur yili" deb e'lon qilindi. Shu yili YUNESKOning Parijdagi qarorgohida "Temuriylar davri, fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi" mavzuida anjuman va unga

bag'ishlangan ko'rgazma ochildi. Mamlakatimizda "Temur va temuriylar" muzeyi, Amir Temur nomi berilgan bog'lar, ko'chalar barpo etildi.

Islom olamining allomasi Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamahshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahovuddin Naqshbandiyning 675 yilligi keng ko'lamda nishonlandi. Ularning boy asarlari nashrdan chiqarildi.

Barcha viloyatlar va shaharlarda har yili Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiyarga bag'ishlanib kechalar o'tkazila boshlandi, Jaloliddin Manguberding 800 yillik tavalludi, "Alpomish" dostoni yaratilishining 1000 yilligi keng miqyosda nishonlandi.

Ma'naviy hayotni takomillashtirish maqsadida Imom al-Buxoriyning yubileyiga bag'ishlab, Qur'oni Karimdan keyin ikkinchi o'rinda turadigan "Al-Jome as-Sahih" ("Ishonarli to'plam"), "Al-adab, al-mufrad" ("Adab durdonalari") o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashrdan chiqarildi.

1998-yili Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Ahmad al-Farg'oniy tavalludning 1200 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi. Respublikada yubileylar munosabati bilan allomalalar hayotiga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar va badiiy ko'rgazmalar ochildi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbuslari va bevosita ishtiroklari bilan buyuk vatandoshlarimiz fiqh ilmining bilimdoni, nomi sharq va g'arbda mashhur bo'lgan Abul Hasan ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg'oniy, al-Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi, kalom ilmining asoschisi Imom Abu Mansur al-Motrudiy tavalludining 1130 yilligi butun mamlakatimizda keng nishonlab o'tildi. O'zbekiston hukumatining har tomonlama qo'llab-quvvatlashi bilan 1991-yilda Haj qilish baxtiga 350 kishi sazovar bo'lgan bo'lsa, 2001-yili hojilarning soni 3801 kishiga yetdi (Bugungi kunda bu ko'rsatkich Prezidentimiz farmonlari bilan 5 ming 500 kishini tashkil etmoqda).

1992-yil Birinchi Prezidentimiz farmoni bilan Ramazon va Qurbon hayit kunlari umumxalq bayrami deb e'lon qilindi.

"Movarounnahr" diniy boshqarmasi faoliyati Respublikamiz hayotida o'z

o'rnini egalladi. Diniy boshqarma qoshida Islom Universiteti va viloyatlarda madrasalar tashkil etildi. «Islom nuri» gazetasi chop etildi. Mustaqillik arafasida O'zbekiston bo'yicha 87 masjid bo'lsa, 1998-yilda ularning soni 3000ga, 2006-yilda esa 5000ga yetdi. Din inson ruhini poklashi, odamlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashi, milliy qadriyat va an'analarni asrashga xizmat qilishi bilan jamiyat hayotida muhim o'rin tutib kelgan. Hozirgi kunda ko'p millatli O'zbekiston Respublikasida islom dini bilan bir qatorda 17 ta diniy konfessiyalar yonma-yon yashab kelmoqda.

1995-yili rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasi tashkil etilganligining 125 yilligi yubileyi, O'zbekiston yevangel-lyutteran jamoasi tashkil etilganining 100 yilligiga bag'ishlangan "Bir osmon ostida" shiori bilan musulmon va xristian dinlari vakillari o'rtasida o'tkazilgan muloqat katta ahamiyat kasb etdi. Toshkentda 2000-yilning sentabrida YUNESKO rahnamoligida "Jahon dinlari tinchlik madaniyati yo'lida" mavzuida dinlararo muloqot xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Unda AQSH, Fransiya, Rossiya, Eron, Isroil, Hindiston, Xitoy, Vatikan kabi o'ttizga yaqin mamlakat, shuningdek, xalqaro diniy muassasalar vakillari qatnashdilar. Anjumanni o'tkazish uchun aynan O'zbekiston tanlangani bejiz emas. Zero, bu o'lkadan dunyoga dong'i ketgan buyuk allomalar, islom olamida katta hurmatga ega bo'lgan buyuk zotlar yetishib chiqqan. Hozirgi kunda mustaqil O'zbekistonda din va vijdon erkinligi mustahkam qaror topgan va barcha diniy konfessiyalar birgalikda mustahkam tinchlikni saqlash, diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilikka qarshi dadil kurash olib bormoqda. AQSH sobiq davlat sekretari Madlen Olbrayt 2000-yil aprelida Toshkent Sinagogida ibodat qilgandan keyin: «O'zbekistonda yana takror aytaman, O'zbekistonda barcha dinlarga bir xil e'tibor berayotgani vijdon erkinligi to'la ta'minlanganligi meni juda quvontirdi. Bu jihatdan O'zbekistonni butun dunyoga ibrat qilib ko'rsatsa arziydi», degan edi.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlab o'tganlaridek "Ma'naviyatning mohiyati shunchalik kengki, uni o'lchab ham, poyoniga yetkazib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olamdir".

Bozor munosabatlari sharoitida ma'naviyat va ma'rifat ishlariga g'oyat katta

e'tibor berilganligi mustaqil O'zbekistonda yangi jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'ldi.

Hayotning o'zi, taraqqiyot qonuniyatlari, erishilgan marralar, istiqboldagi maqsad va vazifalar demokratik islohotlarni qat'iyat bilan davom ettirishni taqozo etadi. O'zbekiston Prezidentining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrdagi qo'shma majlisida «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiya-si»da ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning barcha yo'nalishlari qatorida ma'naviyat sohasiga oid vazifalar ham aniq belgilab berilgan. Chunki Konsepsiyada zikr etilgan ulug'vor va murakkab vazifalarni hal etish, avvalo, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat-ma'rifat, targ'ibot-tashviqot masalalariga borib taqaladi.

Konsepsiya, o'z mohiyatiga ko'ra, davlat va jamiyat rivojining prinsipial jihatdan yangi bosqichida mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha boshlangan keng ko'lamli ishlarni yanada izchil davom ettirish dasturi edi. Zero, Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: «Ma'naviyat haqida har qancha da'vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o'ylangan tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko'zlangan maqsadga erisholmaymiz, ya'ni, inson qalbiga yo'l topolmaymiz».

O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish ekan, bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi, har bir inson uchun muqaddas bo'lgan yuksak qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

Respublikamizda ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda, O'zbekiston hukumati tariximizdagi ta'lim jarayonlarini o'rganib chiqib, ilg'or taraqqiy etgan mamlakatlarning ta'lim tashabbusini inobatga olib, ta'limni isloh qilish dasturini tayyorlandi. Barcha e'tibor ta'lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning moddiy-texnika bazasini zamon va davr talablari darajasiga ko'tarish va O'zbekistonning ma'rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi. Shu maqsadda 2020 yil Respublikamizda “Ta'lim to'g'risida”gi qonun

qabul qilindi.

Ta'limni isloh qilish quyidagi tamoyillar asosida olib borildi:

- ta'lim tarbiyaning insonparvarligi va demokrataviyligi;
- ta'lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;
- e'tiqodi, dinidan qat'iy nazar barcha fuqarolar uchun ta'lim olish

imkoniyatlari yaratilganligi;

- ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta'siridan xolisligi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy tamoyillari aniq belgilab ko'rsatildi:

- uzluksizlik: ta'lim-fan-ishlab chiqarish;
- mutaxassislariga talab istiqbolini o'rganish;
- o'qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash;
- o'quvchi yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak axloqli, ma'naviyatli va vijdonli

yetib tarbiyalash;

- korxonalarda maktab - institutlar bazasini mustahkamlashdan foydalanish;
- chet el sarmoyalaridan foydalanish.

Ta'lim to'g'risidagi yangi qonunga ko'ra, uzluksiz ta'lim quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi zarurligi belgilab qo'yildi:

- maktabgacha - oila va bog'cha tarbiyasi;
- boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflar;
- umumiy ta'lim majburiy bo'lib, 5-9 sinflarda umumiy bilim asoslari,

dunyoqarash shakllanadi;

- majburiy-ixtiyoriy tisdagi o'rta-maxsus bilim va kasb-hunar o'quv yurtlari:

3 yilga mo'ljallangan akademik litseylar, maxsus kasb-hunar kollejlari;

➤ oliy ta'lim: bakalavr - 4 yil, magistratura - 2 yil o'qish muddati, keyinchalik ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun aspirantura - 3 yilga, doktorantura - 2 yil muddatga belgilangan.

Yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan keng shug'ullanishi uchun barcha sharoitlar yaratib qo'yildi.

Yagona maqsad, yagona g'oya bo'lmasa jamiyat inqirozga uchraydi, halok

bo'ladi. Buni biz yaqin va olis o'tmishdagi tariximizdan bilamiz. Milliy g'oya kelajak maqsadni ifodalaydigan xalqimizning ming yillik tarixini buyuk kelajak bilan bog'laydigan, ana shu yuksak maqsad yo'lida 130 dan ortiq millatlar va elatlarni, barcha kishilarimizni birlashtiruvchi bayroq vazifasini bajaradi.

#### **4. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi**

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm-rusmlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamon qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy qadriyatlar tizimini obyektiv anglashda qadriyatlar va ma'naviyat olamini bilish va uni amaliy o'rganish muhim ahamiyatga ega. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi<sup>101</sup>.

Qadriyat turlari:

1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.
2. An'analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar.
3. Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar.
4. Odamlar o'rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik, xayrixoxlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar.
5. Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.

Qadriyatlarni xilma-xil shakl va turlarga ajratib o'rganish mumkin:

1. Umuminsoniy qadriyatlar.

---

<sup>101</sup> Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -Toshkent: Akademiya, 2005, 195-200-betlar.



2.Mintaqaviy qadriyatlar.

3.Milliy qadriyatlar.

4.Diniy qadriyatlar.

Milliy ma'naviy qadriyatlar - ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir. Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik, o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1. Milliy qadriyatlar milliy g'oya uchun ma'naviy negiz, manba bo'lib xizmat qiladi.

2. Milliy g'oya qadriyatlarni boyitish, yanada yuksak bosqichga ko'tarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish omili bo'lib hisoblanadi.

3. Milliy g'oya xalqning tub manfaatlari nuqtai nazardan mavjud ma'naviy qadriyatlarga baho beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma'naviy mezonini bo'lib maydonga chiqadi<sup>115</sup>.

Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya - jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir. Shaxs hayotida, umuman insoniyat taraqqiyotida, millat va davlat taraqqiyotining ma'lum davrlarida ma'naviyat va milliy g'oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydonga chiqadi.

Demak, qadriyatlarning xilma-xil shakllari mavjud: moddiy va ma'naviy, milliy, mintaqaviy, umumbashariy qadriyatlar jamiyat hayotining sohalarini bo'yicha: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, qadriyatlar, ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy va boshqa qadriyatlar.

Moddiy qadriyatlar haqiqiy qadriyatlarning namoyon bo'lish vositalaridir (masalan, hayotda kerak bo'ladigan turli buyumlar). Insoniyat tarixi unga xizmat qiladigan, o'zi yaratgan, suyanadigan va qo'llab-quvvatlaydigan qadriyatlar dunyosining kengayishi, boyish va takomillashish tarixidir. Insoniyat o'zining kundalik mehnati bilan yaratayotgan sun'iy narsalar dunyosida yashaydi. Biz yaratayotgan ushbu moddiy va ma'naviy boyliklar olamining gulto'ji, sarasi qadriyatlardir.

---

<sup>115</sup> Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -Toshkent: Akademiya, 2005, 195-200-betlar.

Milliy g'oyaga asoslangan qadriyatlar va qadriyat mezonlari kishilarga, ularning xulq-atvorini tartibga solish va to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiladi. Bunday o'ziga xos boshqarishning samaradorligi kishilarimizning milliy g'oya bilan bog'liq qadriyatlar olamini bilishga bog'liq<sup>116</sup>.

Hozirgi zamonda ilg'or davlatlar hayotining demokratik tamoyillari ham inson qadrini nechog'li yuksaklikka ko'tarishi bilan baholanadi. Mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, islohotlarning mohiyati ham ana shu tamoyildan kelib chiqadi. Bu tamoyilni amalga oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog'lom tafakkurning shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ko'p asrlik tarixga ega. O'zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar, urf-odat va marosimlarni tahlil qilish, bularning paydo bo'lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko'rsatadi. Masalan, «Avesto» bundan 2700 yil muqaddam 12 ming mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan bu asar paydo bo'lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o'tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to'planganligi, shubhasiz. Bu asar yuksak madaniy hayot, falsafa va fan, xattotlik va mushtariylik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o'z qimmatini yo'qotmadi. Davrlar o'tishi bilan milliy ma'naviy qadriyatlar ham o'zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan me'yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi.

XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Bu sharoitda milliy qadriyatlarga chetdan bo'ladigan ta'sir beqiyos darajada zo'rayadi. Bu ta'sir, bir tomondan, milliy madaniyatlarning boyishi, qadriyatlarning qayta baholanishi va yuksalishiga, ikkinchi tomondan esa, millatning ruhiyati va qadriyatiga yot bo'lgan odat va harakatlarning kirib kelishiga sabab bo'ladi.

---

<sup>116</sup> Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent, 1998, 333-bet.

Jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni tiklashga quyidagi jihatlarga e'tibor berish lozim:

1. Xalqimiz istiqbol tufayli siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritganligi.
2. O'z taqdirini o'zi belgilashning chinakam egasi bo'lganligi.
3. O'zining ma'naviy-tarixiy ildizlarini o'rganish imkoniyati yuzaga kelganligi, ammo uning juda murakkab jarayonlarda amalga oshirilayotganligi.

4. Mustaqillikning dastlabki yillarida «siyosiy, madaniy ekstremizm xavfi» tug'ilishi mumkinligining hisobga olinganligi, respublikada mustaqillikni saqlab qolishda, barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini chuqurroq, atroflicha, aniq misollar yordamida yoritish o'zining amaliy ahamiyatiga ega.

5. Vatan - eng oliy makon, u menikidir.
6. Eng oliy qadriyat - inson.
7. Mulkning eng oliy shakli - intellektual mulk va inson faoliyatining eng oliy turi - intellektual mehnat.

8. Vaqt eng oliy boylik.
9. Umuminsoniy qadriyatlar.
10. Moddiy qadriyatlar.
11. Milliy qadriyatlar.
12. Tabiiy qadriyatlar.
13. Iqtisodiy qadriyatlar.
14. Ijtimoiy - siyosiy qadriyatlar.
15. Ma'naviy qadriyatlar.
16. Axloqiy qadriyatlar.
17. Diniy qadriyatlar.
18. Oilaviy qadriyatlar.
19. Demokratik qadriyatlar va h.k.

O'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy negizlari quyidagilardan iborat:

1. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.
2. Xalqimiz ma'naviy merosini mustahkamlash, rivojlantirish.
3. Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi.

#### 4.Vatanparvarlik .

Ma'lumki, qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra xilma-xildir. Ular orasida tabiiy, moddiy, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qadriyatlar alohida ajralib turadi. Biroq shunday bo'lsa-da, qadriyatlarning eng oliysi insonning o'zi, uning hayoti, huquqi va erki, sog'lom va farovon turmushi hisoblanadi. Inson qadr-qimmatini, sharafini ulug'lash – jamiyatimiz poklanishi va ravnaqining muhim omilidir. Buni biz kundalik hayotimizda ko'rib turibmiz<sup>118</sup>.

Milliy ma'naviy meros, qadriyatlarning tarkibi. Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan tashkil topgan:

- 1) Tarixiy meros va tarixiy xotira.
- 2) Madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, qadimiy qo'lyozmalar.
- 3) Ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari.
- 4) San'at va milliy adabiyot.
- 5) Axloqiy fazilatlar.
- 6) Diniy qadriyatlar.
- 7) Urf-odat, an'ana va marosimlar.
- 8) Ma'rifat, ta'lim-tarbiya va hokazolar.

Milliy-ma'naviy qadriyatlarning ana shu har bir ko'rinishi muhim ahamiyatga ega. Bularning har birini misollar tariqasida chuqur tushuntirib berish mumkin.

Demak, milliy-ma'naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Inson shunday bir borliqki, tabiatda undan ulug' va mo'tabar boshqa biron bir mavjudot yo'q. Inson tabiat yaratgan ja'mi mo'jizalarning sultoni, jumlai jahon deb ataluvchi tabiatning gultojidir.

Barkamol shaxs – demokratik jamiyat tushunchasidir. Ma'naviy barkamol inson haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar, falsafiy fikrlar tarixda kecha paydo bo'lgan emas. Uning tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari ijodiy, falsafiy ta'limotlariga borib taqaladi. Shu sabab "Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak.

---

<sup>118</sup> Jondor To'lanov. Qadriyatlar falsafasi.- Toshkent: O'zbekiston, 1998, 333-bet.

Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonga ta'rif berib, ongi yuksak, mustaqil fikrli, xulq-atvori bilan ibratli, bilimli, ma'rifatli kishi tushuniladi. Milliy-ma'naviy negizlarni bilish uchun tarixni, milliy o'zlikni anglash ham zarur, chunki xalq ma'naviyatning asosidir.

**Xulosa.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» tamoyiliga asos solinadi. Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qarama-qarshilikdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar yaratilganda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga yordam beradi. Xususan, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish bo'yicha yetarli darajada yuqori darajadagi ommaviy ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari sektorining ijtimoiy hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmagan, shu sababli mavjud muammolarni hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.


#### **Mavzuni mustahkamlash yuzasidan savollar:**


1. O'rta Osiyoda o'rta asrda ilm-fan taraqqiyotining cho'qqisi qaysi davrga to'g'ri keladi?
2. Muhammad Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» asariga izoh bering.
3. Ahmad al-Farg'oniyning tabiatshunoslikka qo'shgan hissasini tushuntirib bering.
4. Abu Nasr Farobiyning tabiatshunoslikka oid asarlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Abu Ali ibn Sino tibbiyotdan tashqari yana qanday fan sohalari bilan shug'ullangan?
6. Abu Rayhon Beruniy - Quyi Amudaryo tabiatini o'rgangan olim haqida ma'lumot bering.
7. Beruniyning geodeziya, etnografiya, o'lkashunoslikka oid asarlariga izoh bering.

8. Mirzo Ulug'bek ilm-fan g'amxo'ri ekanligini ta'riflang.
9. Ulug'bekning «Ziji Ko'ragoniy» asarini mazmunini izohlang.
10. Nimaga O'rta Osiyoda IX-XII asrlardan ilm-fan rivojlanib, keyinchalik inqirozga yuz tutgan?
11. Renessans so'zining ma'nosi qanday?
12. 1-2-Renessans qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
13. Yangi O'zbekiston va ma'naviy yangilanish strategiyasi nimalardan iborat?
14. Ma'naviy yangilanishlarda inson ko'rsatkichi muhim mezon sifatida nimalarga e'tibor berish zarur?
15. Ma'naviy-ma'rifiy strategik islohotlar va uning barkamol inson tarbiyasidagi roli qanday?
16. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi uyg'unligi nimalarda ko'rinadi?

## TARQATMA MATERIALLAR

**1-ilova**





### Adabiyotlar:

1. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari / A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuhamedov, U.G'afurov, J.Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.
2. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To'ldirilgan nashr. Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sharq, 2014. – 536 b.
3. Ilmdan boshqa najot yo'q / A.Abdullayev, N.Hakimova, Sh.Jo'raev, J.Karimov. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. – 156 b.
4. Otamuratov S.O. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. – Toshkent, 2012.
5. Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. – Toshkent: Sharq nashriyot, matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001.
6. Shermuhammedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2016. – 224 b.
7. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni (yangi tahriri) 2021 yil 6 iyul. <https://lex.uz/acts/-65108>.
8. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi,

2008.

9. Najmiddinov J. Missionerlik: kecha va bugun. - Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.

10. Ochildiev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari. - Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.

11. Hasanboev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. – Toshkent: TIU, 2014. – 552 b.

12. Abdulla Oripov. Buyuk eposga ehtirom // “Ma’naviy hayot”, 2016 yil, 8 fevral.

13. O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganish bo'yicha materiallar, 3-to'plam. - Toshkent: “Fan” , 2009.

14. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

15. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

16. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

## **7- MAVZU. MAFKURAVIY PROFILAKTIKA – YOSH AVLODNI G'OYAVIY HIMOYALASH OMILI**

### **Reja:**

**1. Yoshlarni g'ayriinsoniy g'oyalardan qonuniy tarzda himoya qilish zaruriyati.**

**2. Mafkuraviy profilaktika va uning g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar tizimida tutgan o'rni.**

**3. Mafkuraviy profilaktika – yoshlarning fuqarolik mas'uliyatini oshirish va takomillashtirishning tezkor amaliy uslub va vositasi.**

*Tayanch atamalar: profilaktika, ma'naviy bo'shliq, mafkuraviy immunitet, yoshlar, tarbiya, oila, mahalla, ta'lim muassasi, turli xil yot g'oyalar, yot g'oyalarga qarshi kurash, uslub va vositalar.*



## **1.Yoshlarni g'ayriinsoniy g'oyalardan qonuniy tarzda himoya qilish zaruriyati**

Bugungi kundagi butun dunyoning mafkuraviy manzarasi barcha insoniyat oldiga keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bu esa, bir tomondan, taraqqiyot deb nomlansa-da, boshqa tomondan, insoniyatni misli ko'rilmagan mafkuraviy xavf-xatarlarga ham to'g'ridan-to'g'ri duchor qilmoqda. Eng achinarli jihati, sodda va mustaqil tafakkurga ega bo'lmagan odamlarning, xususan, yoshlarning umriga zomin ham bo'lmoqda.

Ushbu tahlikali jarayon ota-onalar, keng jamoatchilik, umuman, barchani hushyor etishi va ogohlikka chorlashi lozim. Chunki yoshlar har qanday davlatning kelajagi hisoblanadi. Shunday ekan, ularni begonalar qo'lga bermasdan tarbiyasi bilan, albatta, o'zimiz shug'ullanishimiz lozim.

Ma'lumki, mustaqillik himoya qilingandagina, shukuhli va ishonchli qo'llarda bo'ladi. Bugun O'zbekistonni qurolli hujum yo'li bilan matv etish mumkin emas. Shuning uchun ham, g'animlar ma'naviy-mafkuraviy tahdid usulini qo'llamoqda. Har qanday tahdid, u qanday mazmun va shaklda bo'lmasin, qonun yo'li bilan bartaraf etish orqali hal etilsagina adolatli bo'ladi. Shu sababli, mamlakatimiz aholisini, xususan, yoshlarini yetti yot begona g'oya va mafkuralardan himoya qilish uchun qonunchilik bazasini yaratish tarixiy zaruriyat. Shuning uchun 1991 yildan boshlab 2020-yilgacha bo'lgan davrda Konstitutsiya va kodekslardan tashqari, bu sohada 25 ga yaqin qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 38 dan ortiq farmoni va 18 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 53 ta qarori, 54 ta idoraviy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan<sup>119</sup>. Shular orasida yoshlarni g'ayriinsoniy g'oyalardan qonuniy tarzda himoya qilishning ilmiy-amaliy konseptual asoslarini tashkil qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlardan biri bo'lgan "O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni<sup>120</sup> ning konseptual mohiyati yoritilgan. Shunga ko'ra, *mafkuraviy profilaktikaning ilmiy-amaliy konseptual asoslari deb mamlakat aholisini mustaqillikka sadoqat ruhida*

---

<sup>119</sup> O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining "Huquqiy axborot" kanali materiallari asosida tayyorlangan // <https://uza.uz/oz/society/adliya-vazirligining-maslahat-zarur-bo'lganda-bizga-murojat-25-04-2020>.

<sup>120</sup> O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonuni. – Toshkent: Adolat, 2016. – 80 b.

*tarbiyalashning uzluksizligini ta'minlash maqsadida, ularni g'ayriinsoniy g'oya va mafkuralardan asrash, tarqalib ketmasligining oldini olish uchun davlat va ilmiy jamoatchilik tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy chora-tadbirlar tizimiga aytiladi, degan falsafiy ta'rif berilgan.*

Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish va ular bo'yicha faoliyat yuritish har bir shaxs uchun jinsi, yoshi, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, majburiydir. Umumiy aholisining yarmidan ko'pi yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatimiz uchun bu masala bevosita tegishlidir. O'zbekistonda aholining qariyb 35 foizini 16 yoshgacha bo'lgan bolalar, 60 foizdan ziyodini esa 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, mamlakatda yoshlarga oid siyosat doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning roli va ahamiyati o'z-o'zidan tushunarli va ravshan bo'ladi.

Bugungi kundagi dunyoning mafkuraviy manzarasi butun insoniyat oldiga keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bu bir tomondan, taraqqiyot deb nomlansa-da, boshqa tomondan insoniyatni misli ko'rilmagan xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda.

Ushbu tahlikali jarayon ota-onalar, keng jamoatchilik, umuman, barchani hushyor etishi va ogohlikka chorlashi lozim. Chunki yoshlar har qanday davlatning kelajagi hisoblanadi. Shunday ekan, ularni begonalar qo'liga bermasdan tarbiyasi bilan, albatta, o'zimiz shug'ullanishimiz lozim.

Jamiyatda eng avvalo, ularning qalbiga quloq solishimiz, qiynayotgan muammolarini eshita olishimiz va bu muammolar uchun amaliy yechim topishimiz zarur. Birlamchi vazifa uyushmagan yoshlar bilan ishlashning aniq tizimini ishlab chiqishimiz lozim.

Bu tizimning asosini o'zbek davlatchiligi tarixida shakllangan o'ziga xos milliy an'analar, ajdodlar tomonidan qolgan boy ma'naviy meros tashkil etadi. Demak, birinchi navbatda, Sharqona tarbiya elementlarini bugungi kun fan-texnika yutuqlari bilan uyg'unlashtirish, ularda zamonaviy bilim va ko'nikmani, xorijiy tilni egallash darajasi – ularning har tomonlama kamolotining asosi bo'lib hisoblanadi. Yoshlarni mana shunday muhitda o'sishlari uchun barcha kuch hamda imkoniyatlarni safarbar

etish lozim. Shu sababli, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "...Bizning navqiron avlodimiz manfaatlarini ta'minlash borasidagi faoliyatimiz yaqinda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun asosida qat'iy davom ettiriladi. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati barcha yoshlarimiz intiladigan, ularning qobiliyat va iqtidorini ro'yobga chiqaradigan va manfaatlarini haqiqiy himoya qiladigan tashkilotga aylanishi uchun barcha choralarni ko'ramiz"<sup>121</sup>, deb ta'kidlaydi.

Mustaqillik sharofati bilan qabul qilingan konstitutsiyamizda aynan yoshlarning huquq va erkinliklari tegishli konstitutsiyaviy normalar asosida o'z ifodasini topgan. Zotan, konstitutsiyaning muqaddimasidayoq hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'ullikni nazarda tutuvchi norma belgilab qo'yilgan. Mazkur konstitutsiyaviy norma bugungi va ertangi avlod vakillarining huquq va manfaatlari ifodalanganligini anglatadi. Davlat o'z yoshlarining kelajagi uchun mas'ullikni zimmasiga olmoqda. Sababi, davlatimiz huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda yoshlarimizning ertangi kun uchun munosib vorislik masalasiga e'tibor qaratmoqda. Umuman, yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini tashkil etuvchi qonun hujjatlarining doirasi juda ham keng. Bu borada "Yoshlar yili", "Sog'lom ona va bola yili", "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"<sup>122</sup> davlat dasturlari doirasida amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan mustaqillik yillarida qabul qilingan amaldagi qonun hujjatlari atroflicha tahlil qilinib, yoshlar huquqlari, manfaatlari va erkinliklari belgilangan qonun hujjatlari tizimi shakllantirilganligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ishchi guruh tomonidan amaldagi normativ-huquqiy bazani, uning yoshlar manfaatlari va huquqlarini himoya qilishga oid qismini takomillashtirish maqsadida inventarizatsiyadan o'tkazish jarayoni Konstitutsiya va kodekslardan tashqari, bu sohada 22 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15 ta Farmoni va 11 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 41 ta qarori, 32 ta idoraviy-me'yoriy hujjat mavjud ekanligini ko'rsatdi. Yana o'nlab yangi qonun hujjatlari qabul qilinganligi hisobga olinsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalariga asoslangan, yoshlarga

---

<sup>121</sup> Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" mavzusidagi ma'ruzasidan. // "Xalq so'zi", 2016 yil 8 dekabr – № 243 (6678).

<sup>122</sup> Qarang: <https://lex.uz/docs/3121798>.

oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimi 150 dan ortiq qonun hujjatlaridan tashkil topganligi ma'lum bo'ladi<sup>123</sup>.

Konstitutsiya – keng qamrovli, ijtimoiy hayotning barcha sohalari uchun bosh huquqiy me'zon, oliy yuridik kuchga ega hujjat shu bilan bir qatorda, unda belgilangan huquq va erkinliklar uning 18-moddasiga muvofiq, barcha toifa vakillariga nisbatan irqiy, e'tiqodiy, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar bir xildir. Muhimi, Konstitutsiyaning qator normalarida bevosita yoki bilvosita yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilanganligini ko'rish mumkin. Masalan, 37-moddada har bir insonning mehnat qilishi, adolatli mehnat sharoitlarida ishlashi, erkin kasb tanlashi va ishsizlikdan himoyalanih huquqi<sup>124</sup> belgilangan. Xullas, o'z-o'zidan ma'lumki, mehnat bozorida barcha bir xil mehnat sharoitida ishlash imkoniyatiga ega emas. Lekin ushbu norma shunday ifodalanganki, u mehnat qilish huquqi va adolatli mehnat sharoiti tushunchalari hamma uchun bir xil tushuncha emasligini ko'rsatib turadi. Shuning uchun ham, 2001-yilning 7- yanvarida qabul qilingan «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning 20-moddasida yoshlar uchun 21 ta qo'shimcha kafolatlar belgilab qo'yilgan. Mehnat Kodeksining 77-moddasiga binoan, yoshlarni mehnatga tayyorlash maqsadida umumta'lim maktablari, hunar-texnika bilim yurtlari va o'rta maxsus o'quv yurtlarining o'quvchilarini o'n besh yoshga to'lganlaridan keyin ota-onasidan birining yoki ular o'rnini bosuvchi vasiy yoki homiyning bevosita rizoligi natijasida bolaning sog'ligi va kamolotiga ta'sir etmaydigan va ta'lim olish jarayonini buzmaydigan engil ishlarni o'qishdan so'ng bo'sh vaqtlarida bajarishga ruxsat beriladi. Bundan tashqari, yoshlarni 18 yoshga to'lmagan shaxslar uchun ishga qabul qilishdagi kafolatlar, yoshlarning mehnatga oid huquqiy munosabatlarda katta yoshdagi xodimlar bilan teng huquqda bo'lishlari hamda qo'shimcha imtiyozlardan foydalanishlari, ularning mehnatidan foydalanish ta'qiqlanadigan ishlar ro'yxati mavjudligi, ular uchun qisqartirilgan ish vaqti belgilanishi (haftasiga 36, 16 yoshgacha 24 soatdan oshmagan), kundalik ish vaqti qisqartirilgan hollardagi mehnatga haq to'lash, yillik

<sup>123</sup> Fayziyev Sh. Yosh avlod huquq va manfaatlarining muhim kafolati. // "Huquq va burch". 2008 yil. 8-9-son.

<sup>124</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021 yil, 9-bet.

mehnat ta'tili berishda imtiyozlar mavjudligi, tungi ishlarga va ish vaqti belgilanmagan davlat va jamoat ishlariga majburiy jalb etishning ta'qiqlanishi hamda mehnat shartnomasini bekor qilishdagi qo'shimcha kafolatlar shular jumlasidandir.

Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunning 5-moddasi bu qonunning yana bir muhim yo'nalishi har tomonlama kamolotga yetgan yoki barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Unda ko'rsatilishicha, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanga sodiqlik ruhida va ularning har birida fuqarolik burchi bilan, adolatparvar, insonparvar shu nuqtaiy nazardan ma'naviy qadriyatlarni qadrlash ruhida tarbiyalash, boshqa mamlakatlardan kirib kelayotgan ta'sirlar va zararli g'oyalarga qarshi fikr bildiradigan, o'z hayot yo'li, e'tiqodi, tafakkuri va o'ziga xos ma'naviy-ma'rifiy, diniy-irfoniy, ratsional va irratsional tafakkurga ega qilib tarbiyalash masalasi ko'ndalang qilib qo'yilgan. Shuningdek, axloqiy nigilizm, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan hatti-harakatlaridan, diniy ruhga ega bo'lgan har qanday salbiy g'oyalardan himoya qilish masalalari alohida qayd etiladi.

Bu borada xalqaro hamjamiyat tomonidan har qanday davlatda amalga oshirilayotgan ishlarning natijasiga baho beruvchi ikki mezon tan olingan. Bu o'sha mamlakatdagi sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlaridir.

“Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb vazifamiz – yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini yuksaltirish, farzandlarimizning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishdan iborat.

Bu vazifalarni amalga oshirishda biz ajdodlardan qolgan boy ma'naviy merosga tayanamiz. Yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini kamol toptirish, ularni sog'lom turmush tarzi ruhida tarbiyalashga qaratilgan targ'ibot ishlarini kuchaytiramiz. Bu boradagi siyosatimiz yangi qabul qilingan, jumladan, “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun talablari asosida qat'iy davom ettiriladi”<sup>125</sup>, deb ta'kidlaydi Shavkat Mirziyoyev.

“O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”ning 40-moddasida: «Har bir inson

---

<sup>125</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal – demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi “Demokratik islohatlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir” mavzusidagi ma'ruzasi // “Xalq so'zi”, 2016 yil, 2 noyabr. № 216 (6651).

malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega»<sup>126</sup> ekanligi belgilangan. Mazkur konstitutsiyaviy normaning hayotiylikini ta'minlash maqsadida sog'liqni saqlash tizimiga har yili Davlat byudjeti xarajatlarining 12-15 foizdan ortiq qismi yo'naltirilmoqda. Qisqa davr ichida tibbiyot muassasalari faoliyati to'la takomillashtirildi, 3200 dan ortiq qishloq vrachlik punktlari barpo etildi, ixtisoslashtirilgan ilmiy-amalii tibbiy markazlar tashkil etildi, 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning deyarli 100 foizi yiliga ikki marta, tug'ish yoshidagi ayollar esa har yili chuqur tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.

Islohotlarning natijasi sifatida, o'tgan 31 yil davomida onalar va go'daklar o'limi uch barobardan ko'proq kamaydi.

O'zbekiston 2011-yilda «Bolalarni asraylik» xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan 161 mamlakatdan iborat jahon reytingida o'sib kelayotgan yosh avlod salomatligi haqida eng ko'p g'amxo'rlik ko'rsatilayotgan davlatlar orasida 9-o'rinni egalladi<sup>127</sup>.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov «O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: «Sog'lom ona – sog'lom bola» mavzusidagi xalqaro simpoziumning ochilishidagi nutqida bu muvaffaqiyatlarimizning omillari hakida atroflicha to'xtalib, mustaqil rivojlanish yillarida mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimini barpo etishni davom ettirish va yangilash imkonini berayotgan mustahkam poydevor yaratilganiga anjuman ishtirokchilari e'tiborini qaratdi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotida olib borilayotgan islohotlarimizni quyidagicha "...mamlakatimizning bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqayotgan yoshlarimizning tafakkuri va dunyoqarashini keskin o'zgartirgan, mutlaqo yangi ta'lim va tarbiya tizimini yaratish va hayotga tatbiq qilish ishlariga bevosita mualliflik va rahbarlik qildilar. Yurtimizda ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sport kabi muhim sohalar faol tarzda rivojlanmoqda. Davlatimiz rahbari xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga ehtirom

---

<sup>126</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2019 yil, 9-bet.

<sup>127</sup> Karimov I. A. O'zbekiston ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: "Sog'lom ona – sog'lom bola" mavzusidagi xalqaro simpozium ochilishidagi nutq. – Toshkent: "O'zbekiston", 2012. 26-36-betlar.

bilan munosabatda bo'lish, muqaddas dinimiz, an'ana va urf-odatlarimiz, bebaho tarixiy merosimizni salab qolish va rivojlantirishni davlat siyosati darajasiga ko'tardi"<sup>129</sup>, deb ta'kidlaydi O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

“Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir”<sup>130</sup>. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ushbu 41-moddasi ijrosi yuzasidan ham faxrlansa arziydigan islohotlar amalga oshirildi.

Yoshlar ijtimoiy psixologiyasini shakllantirish hamda rivojlantirish uzoq davom etadigan dialektik jarayon bo'lib, u jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy va boshqa o'zgarishlarga butunlay bog'liq.

Ijtimoiy munosabatlarning hozirgi islohoti va evolyusiyasi, milliy tiklanish, ma'naviy qadriyatlar qaytadan jonlanayotgan davrda yoshlar psixologiyasini shakllantirish maqsadida ajdodlar bilan avlodlar, xalqning tarixiy o'tmishi bilan kelajagi o'rtasidagi aloqa tiklanmoqda, tajriba, bilim, an'analar va madaniy merosni to'plash va avlodlarga qoldirishda vorisilikka amal qilinmoqda. Lekin bu o'tmishdagi an'analarimizga ko'r-ko'rona, ongsizlarcha rioya etish emas, balki ulardan xalqning o'zini o'zi axloqiy va ma'naviy kamol toptirish jarayonlarini chuqurlashtirishlarini puxtalik bilan tanlash hamda foydalanishdir.

Yoshlarning ijtimoiy psixologiyasini va ijtimoiy ongini bilish va zarur ijobiy yo'nalishda shakllantirishda “turmush tarzi” kategoriyasini to'g'ri tushunishning ahamiyati katta. Turmush tarzi falsafiy-sotsiologik kategoriya bo'lib, individ, ijtimoiy guruh va hokazolarning hayot faoliyati (mehnati, turmushi, bo'sh vaqti, madaniyati, turmush uslubi va boshqalarning turmush sharoiti bilan birlikdagi) majmuini qamrab oladi. Yosh avlod tomonidan ajdodlar turmush tarzining, qadriyatlar normalari ijobiy elementlarining meros qilib olinishi hamda o'zlashtirilishi oiladagi, maktabgacha muassasalardagi, umumta'lim maktablaridagi, litseylardagi, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi, mehnat jamoalaridagi muayyan maqsadni ko'zlab olib borilgan g'oyaviy-tarbiyaviy ishlar jarayonida ijtimoiy munosabatlar butun majmui ta'siri

---

<sup>129</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz –Toshkent: «O'zbekiston», NMIU, 2017. – 592. B. 8.

<sup>130</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: “O'zbekiston”, 2021.

ostida amalga oshiriladi. Hozirgi yoshlarning umum qabul qilingan standartlarga muvofiq keluvchi turmush tarzini shakllantirish dialektik jarayondir. Ayni mahalda, yoshlarning turmush tarzini shakllantirishda yoshlarning o'z hayotiy yo'lini shaxs sifatida faol tanlash, shaxsiy tajriba asosida qadriyat yo'nalishlarini muayyan maqsadni ko'zlab ishlab chiqishning roli katta.

Globalashuv davrida O'zbekistonda demokratik-huquqiy davlat qurishda yoshlarning o'ziga xos o'rnini qaror toptirish demokratiya hamda o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish, yoshlar huquqlarini himoyalash, jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, intizom va jamoat tartibini mustahkamlash, mulkchilik shakli xilma-xilligi va respublikaning bozor iqtisodiyotiga o'tishi sharoitida xo'jalik faoliyatining huquqiy masalalarini ishlab chiqish hamda yoshlarning o'ziga xos jihatlari muammolarini chuqur va har tomonlama tahlil qilish zarur.

O'zbekiston xalqlari ildizi ming yillar qa'riga kirib boradigan boy falsafiy madaniyatga ega. Hozir madaniyatning ushbu boy qatlamidan foydalanib real voqelikdan ajralib qolgan nazariy masalalar bilan abstrakt shug'ullanmay, balki hayotning o'zi olg'a surgan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishning dolzarb muammolari bilan shug'ullanishi lozim bo'lgan chinakam ilmiy falsafani tiklash va shu asosda jamiyatni tubdan yangilashga qaratilgan konkret takliflarni ishlab chiqish darkor. Falsafa tarixiy voqelikka monand ijtimoiy ongni shakllantirishi darkor<sup>132</sup>.

Yangilanayotgan jamiyat yangilangan falsafaga muhtoj bo'ladi. O'zbekiston olimlari shuni hisobga olib, ma'naviy madaniyatni rivojlantirish masalalariga ham an'anaviy qarashni qayta ko'rib chiqishlari kerak.

Jamiyatshunoslar xalqning, ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy psixologiyasi hamda ijtimoiy ongi holati uchun bevosita mas'uldirlar, shu bois bu masalada oddiy kuzatuvchi bo'lib qola olishmaydi.

Milliy qomusimizda, ya'ni konstitutsiyaga muvofiq, mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha jabhalari fuqarolar erkin faoliyati asosida rivojlanadi.

Turli ijtimoiy guruhlar maqsadlari xilma-xil bo'lishiga qaramay, xalqimizning

---

<sup>132</sup> Сагдуллаев А. С., Костецкий В. А., Наркулов Н. К. История Узбекистана. – Ташкент, 1998.



tub manfaatlari umumiydir. Bu – milliy mustaqillikni mustahkamlash va respublikani kelajagi buyuk davlatga aylantirish. Binobarin, hozirgi sharoitda davlat mafkurasi bo'lishga da'vo qilmagan holda, aholi barcha kuchlarini birlashtiradigan, ularni umumiy vazifani bajarishga – respublika milliy mustaqilligini, suverenitetini mustahkamlashga yo'naltiradigan, “o'tmish bilan kelajak o'rtasidagi ko'ppik”<sup>133</sup> va millatni birlashtiruvchi bayroq<sup>134</sup> sifatidagi mafkurani, milliy istiqlol va taraqqiyot mafkurasini yaratish uchun chinakam asos mavjud.

O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonunining qabul qilinishi hukumatimizning bu sohadagi yuksak g'amxo'rlikining yana bir yorqin ifodasi bo'ldi. Yoshlar mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi. Shuning uchun ham, ular hukumatimizning oliy e'tiboridadir. Bu g'amxo'rliklarning qonun bilan mustahkamlanishi ular qalbiga katta quvonch va iftixor bag'ishladi. Ushbu qonunning maqsadi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ayonlashadiki, jamiyatimizda olib boriladigan yoshlarga oid siyosatning asl mohiyati deganda biz, avvalo, hukumatimiz tomonidan amalga oshiriladigan yoshlarni ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham ma'naviy jihatdan shakllantirish va ularning aqliy salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan o'ziga xos, takrorlanmas ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimini nazarda tutish mumkin. Yoshlar (yosh fuqarolar) deganda esa 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar nazarda tutiladi. Yosh oila, yosh mutaxassis va yosh tadbirkor degan hollarda ham ushbu yosh oralig'idagi fuqarolar tushuniladi.

Yangi qabul qilingan qonunda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari ham yorqin belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, bu siyosatda ochiqlik va shaffoflik aks etib turadi, bu siyosatni ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi ta'minlanadi, yoshlarning tashabbuslari qo'llab-quvvatlanadi va rag'batlantiriladi. Demak, bundan ko'rinadiki, yoshlar tarbiyasida ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlar ustuvorlik qiladi, ularning faoliyatiga kamsitish nuqtai nazari

---

<sup>133</sup> Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. – T., “O'zbekiston”, 1999. 91-bet.

<sup>134</sup> Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. – T., “O'zbekiston”, 1999. 87-bet.

bilan qarashga yo'l qo'yilmaydi.

Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunda asosiy yo'nalishlar sifatida yoshlarning huquqlari va erkinliklari, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, yoshlarning hayoti va sog'lig'i hamda ma'naviy, intellektual, psixologik, jismoniy, axloqiy jihatdan barkamolliklariga ko'maklashish va boshqalarni o'z ichiga qamrab olishi belgilab berildi.

Shuni mamnuniyat bilan aytish mumkinki, bu sohada mamlakatimizda mustaqillik yillarida namunali shart-sharoitlar vujudga keltirildi. Barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ta'lim tizimida, sog'liqni saqlash va sport, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda keskin islohotlar yuzaga keltirildi. Natijada, yoshlarimiz xalqaro fan olimpiadalarida, xalqaro ko'rik-tanlovlarda, sport musobaqalarida misli ko'rilmagan natijalarni qo'lga kiritmoqda. Ayniqsa, Braziliyada bo'lib o'tgan Olimpiada va Paralimpiadada O'zbekistonlik yoshlarning erishgan yutuqlari hammamizga g'oyat quvonch bag'ishladi.

Qonunda ushbu siyosatni ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda bunda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning vakolatlari aniq belgilab berildi. Shunga ko'ra, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, mehnat, prokuratura, ichki ishlar, adliya, mudofaa ishlari va boshqa organlarning bu sohadagi ishtirokchilik va hamkorlik vazifalari belgilab ko'rsatilgan. Masalan, nodavlat notijorat tashkilotlari jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriyligi asosida tashkil etiladigan, shuningdek, daromad olishni o'zining faoliyat maqsadi deb bilmagan, olingan daromadni o'zining a'zolari orasida teng taqsimlaydigan yoshlarning barcha huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishni himoya qilishni, shu bilan birga, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishni o'zining maqsadlari deb biladigan, o'zini o'zi boshqaradigan tashkilotdir.

Ushbu tashkilotni davlat har tomonlama moddiy va moliyaviy tomondan qo'llab-quvvatlaydi, ularga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ta'lim muassasalarining binolaridan, klublar, madaniyat va aholi dam olish markazlaridan, sport inshootlaridan foydalanish huquqini beradi. Unga 14 yoshga to'lgan shaxs a'zo bo'lishi mumkinligi qayd etilgan.

Qonunda yoshlarni kamolotga xos uslubda shakllantirishning nazariy jihatlari ya'ni, ularni sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, yuqumli kasalliklarga va boshqa ijtimoiy xavfli kasalliklarga, ichkilikbozlik, giyohvandlik, kashandalik hamda o'zga zararli illatlarga qarshi kurashishga doir profilaktik chora-tadbirlar, bu tadbirlarning yoshlar tarbiyasidagi o'рни, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ular orasida sportni ommaviylashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

## **2. Ma'furaviy profilaktika va uning g'oyaviy-ma'furaviy jarayonlar tizimida tutgan o'рни**

Ma'furaviy profilaktika haqida turli xil ta'riflar mavjud bo'lib, shulardan J.Ya.Yaxshilikov va N.E.Muhammadiyevlar: *“Ma'furaviy profilaktika – bu g'ayriinsoniy g'oya va ma'furalarning oldini olish, ularning tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun davlat, jamoat tashkilotlari tomonidan ko'riladigan chora-tadbirlar tizimidir”*<sup>137</sup>, – degan ta'rifni e'tirof etgan holda, jamiyatning ma'naviy hayotida yuz beradigan ma'furaviy jarayonlar tizimidagi o'рни: yoshlarning tabiiy va tibbiy jihatdan genafondi buzilishining oldini olish; yoshlar o'rtasida yuzaga keladigan ma'furaviy munosabatlarni tartibga solish; yoshlarni, ularning ongini zaharlashga qaratilgan buzg'unchi g'oya va ma'furalarning keltirib chiqaruvchi oqibatlaridan ogohlantirish; yoshlarni internet tarmoqlari orqali tezlikda tarqatilayotgan buzg'unchi g'oya va ma'furalarning xurujidan asrash; yoshlarni g'ayriqonuniy ishlarni bajarishga chorlovchi g'oya-ma'furalarning sub'ektlariga nisbatan qonuniy tartibda choralarni ko'rish kabilar bilan ifodalanishi bayon qilingan.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti shu narsani ko'rsatadiki, jamiyatdagi har bir aholi qatlami o'z maqsad va muddaolarini ifoda etuvchi ma'furaviy tizimini yaratgach, boshqalarni ham shuning ta'siriga tortishga, o'z maslakdoshlari qatorini kengaytirishga harakat qilib kelgan va u hozir ham davom etmoqda. Bunda ushbu yo'nalishdagi ma'naviy-ma'rifiy faoliyat va ta'lim-tarbiya jarayoni muhim

<sup>137</sup> Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. – Toshkent: Cho'lpon NMIU, 2018. – B. 521.

ahamiyatga ega.

G'oyalar jamiyatda haqchil bo'lib, ko'pchilikning ehtiyojlariga javob bersa, mamlakatdagi barcha sohalarda ta'lim-tarbiya masalasiga katta e'tibor qaratilsa, tarbiyachi o'qituvchilar faol va vatanparvar bo'lsa, tarbiyadan ko'zlangan maqsad mukammal bo'ladi. Shunda o'sib kelayotgan yosh avlod o'z maqsadini anglab yetishi va o'z mafkurasini shakllantirib borishida har bir yosh o'z maqsadlarini qalbi va ongi, shuuriga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi. Mana shundagina jamiyatning, ayniqsa, barkamol avlodning mafkuraviy immun tizimi to'laqonli ahamiyat kasb etadi.

“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”<sup>138</sup> davlat dasturda yoshlarni ma'naviy yetuk va ruhiy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash masalasiga jiddiy yetibor qaratilgan.

Unda, shuningdek, ta'limning barcha shakllarini bugungi kun zamon talablari asosida takomillashtirish masalasi o'ta dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifadir.

Bugungi kun yoshlari ta'lim-tarbiyasi to'g'risida fikr yurutganda “Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini juda-juda istardim: Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib, izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq”.

Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so'zlar!

Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi.

Haqiqatan ham, bugungi kunda “Yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va

---

<sup>138</sup> Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan // “Xalq so'zi”, 2016 yil 8 dekabr.

ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda"<sup>139</sup>, deb ta'kidlaydi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Shu ma'noda, g'oyaviy profilaktikaning yosh avlodni g'oyaviy himoyalashdagi asosiy vazifalarga jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk yoshlarni tarbiyalashga bo'lgan intilishlar insoniyat sivilizatsiyasining ma'no-mazmunini tashkil qiladi. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko'rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, gumanistik g'oyalarga munosabatida hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Ya'ni jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat sivilizatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi komillik mezonini insonni, shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni baxtli, saodatli qilishdan iborat bo'lib kelgan.

Mafkuraviy profilaktika tushunchasi jamiyatda yashovchi barcha qatlam vakillarining dunyoqarashini shakllantirib, ularda muayyan g'oya va maqsadlarini ifoda etadigan mafkuraviy bilimlar bilan qurollantirishga safarbar etadigan jarayondir. O'zbekiston sharoitida bunday faoliyatning asosiy vazifasi – xalqimizning bosh g'oyasini barpo etish yo'lidagi asriy istaklari, maqsadlarini, istiqloq g'oyasining mohiyatini barcha qatlam vakillariga, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirishdan iborat bo'ladi.

Bugungi kunda mafkuraviy profilaktikaning yosh avlodni g'oyaviy himoyalash omili sifatida, oila, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb hunar maktablari, oliy ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalarining yuksak bilim va tafakkurga asoslangan faoliyati taqozo qiladi. Mazmun-mohiyatga ko'ra ham, shuningdek rivojlangan davlatlarning tajribasida ham mafkuraviy tarbiyani olib boruvchi asosiy bo'g'in uzluksiz ta'lim tizimidir. Zero, mafkuraviy maqsad va muddaolarni kishilar, ayniqsa, yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirish vazifasi asosan oila va ta'lim muassasalari orqali amalga oshirilishi mubolag'asiz jarayondir.

Ma'lumki, profilaktika tushunchasini tabiiy fanlarda, ayniqsa, tibbiyotda ko'proq qo'llanishiga o'rganib qolganmiz. U mazkur sohada kasallikning oldini olish

---

<sup>139</sup> Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan // "Xalq so'zi", 2016 yil 8 dekabr.

va davolash jarayonining tarkibiy qismi sifatida tushuniladi. “G’oyalar falsafasi nuqtai nazaridan mafkuraviy profilaktika ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g’oyaviy-tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy ishlar majmui bo’lib, butun g’oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladigan faoliyatni ifodalash uchun qo’llanadigan tushunchadir. Mafkuraviy profilaktika g’oyaviy bo’shliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikning oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g’oyalar ta’siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g’oyaviy ta’sirning xilma-xil usul va yo’llaridan foydalanib, turli vositalar qo’llanadi”<sup>140</sup>. G’oyaviy, va mafkuraviy targ’ibot va tashvivot ishlar yosh avlodni g’oyaviy himoyalash jarayonlari har doim mukammalilik bilan vazifalarni to’g’ri olib borish samarali natijaga erishish mumkin. Jamiyat hayotini turli sohalarida yoshlar orasida mafkuraviy immunitet hosil qilish va shu xususida shakllangan hamda rivojlangan mafkuraviy profilaktikaning o’zbek xalqi yoshlarini himoyalashda o’ta muhim. Shu boisdan buzg’unchi va g’arazli g’oyalarning mamlakatimizga kirib kelishini har tomonlama oldini olishga tayanadi.

Turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bugungi tahlikali vaziyatda bebaho boyligimiz bo’lgan tinchlik va osoyishtalikni ko’z qorachig’idek saqlashimiz, yurtimizdagi millatlar va dinlararo hamjihatlik, o’zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlashimiz kerak”<sup>141</sup>, - deb ta’kidlaydi Shavkat Mirziyoyev.

Yosh avlodni g’oyaviy jihatdan himoyalashga yordam beradigan asosiy narsa ta’lim-tarbiya, targ’ibot-tashviqot tizimi mafkuraviy profilaktikadir. Ezgu g’oya va qarashlar ruhida yoshlarni tarbiyalash va shu tarbiyani ularning ongiga singdirishga xizmat qiladigan tuzilmalar oila, maktab, mahalla va turli jamoa tashkilotlari bunda o’z o’rniga ega. Bundan ko’rinadiki, har qanday jamiyatning taraqqiyoti millatlararo totuvlik va ular o’rtasidagi o’zaro hurmatni targ’ib etuvchi turkiy bitiklar, qo’shiqlaru raqslar, turli ko’rinish va mazmundagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar mafkuraviy profilaktikani – yosh avlodni g’oyaviy himoyalashni amalga oshirish omillaridan iboratdir. Mafkuraviy immun tizimining shakllanishi mafkuraviy tarbiyaga bog’liq

---

<sup>140</sup> Qarang: Nazarov Q. G’oyalar falsafasi. – Toshkent: Akademiya, 2011. – B. 28.

<sup>141</sup> Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi nutq. // “Xalq so’zi”, 2016 yil 9 sentyabr.

bo'lib, uning ta'siri natijasida alohida shaxsdan tortib, guruh, millat, jamiyatni har xil zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoyalashga xizmat qiladi.

“Immunitet” so'zi tibbiy tushuncha bo'lib, u organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashga, turli tashqi ta'sirlardan, infeksiyalardan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmuini ifodalaydi. Sodaroq qilib aytganda, immunitet – organizmning o'z-o'zini turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyati.

Mafkuraviy immunitetning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni aytish mumkin. Birinchidan, insonning umumiy immuniteti, ijtimoiy jarayonlarning mahsuli bo'lib, muayyan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar asosida shakllanib boradi. Ikkinchidan, u har bir davrning xususiyatlariga, muayyan avlod yashayotgan zamon va jamiyatning taraqqiyot qonunlariga bog'liq bo'ladi. Uchinchidan, jamiyatda mustahkam g'oyaviy immunitet tizimi shakllangandagina, shu jamiyatning mafkuraviy daxlsizligi va barqarorligi ta'minlanadi<sup>142</sup>.

Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi elementi - bilimdir. Ammo bilimning ham turlari ko'p. Ular o'z mohiyatiga ko'ra, Vatan va xalq maqsadlari bilan mukammal bog'liq bo'ladi.

Yosh avlod qalbi va ongini egallashga bo'lgan harakatlar to'xtamas ekan, jamiyat muayyan sog'lom mafkuraga ehtiyoj sezib yashaydi. Jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, odatda, uning tanazzuli, halokatiga sabab bo'ladigan fashizm, kommunistizm, diniy-ekstremizm kabi nosog'lom mafkura shakllaridan farqli o'laroq, sog'lom mafkura insoniyat taraqqiyotini tezlashtiradi, xalq farovonligi, Vatan ravnaqiga imkon yaratadi.

Jamiyatimiz va aholimizga xos mafkuraviy immunitetni izdan chiqarishga urinishlar asosan quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda:

– Bizga begona va yot g'oyalarni targ'ib qilish (kosmopolitizm, nigilizm, ekstremizm, terrorizm, ommaviy madaniyat va shafqatsiz individualizm kabi xalqimizga yot g'oyalar turli vositalar bilan targ'ib-tashviq qilinmoqda);

– Milliy mentalitetimizga xos bo'lmagan odatlarni targ'ib qilish (televideniya, radio va Internet orqali xalqimiz turmush tarziga yot bo'lgan turli odatlar targ'ib-

---

<sup>142</sup> Qarang: Nazarov Q. G'oyalar falsafasi (tajribaviy qo'llanma). – TOSHKENT: “Akademiya”, 2011.– 213–214 betlar.

tashviq etilmoqda. Misol uchun, oila qurish odatini olaylik. Emishki, oila qurishda yoshlar obdon bir-birini sinashlari, iloji bo'lsa, ma'lum muddat birga yashashlari lozim emish. Bu millatimiz mentalitetiga xos bo'lmagan holatdan boshqa narsa emas);

– Yoshlar dunyoqarashini buzish, ularning tafakkur va turmush tarzini o'zgartirishga intilish (o'z Vatanini yomon ko'rsatish, o'tmishga nisbatan bepisandlik ruhini qaror toptirish, davlat va jamiyatga nisbatan ishonchsizlik uyg'otish. Buning aksi o'laroq, o'zga hayotni xuddi jannatdek ko'klarga ko'tarib maqtash).

Yosh avlodga mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ular o'zlashtirayotgan bilimlar va milliy mafkuramizning asosiy g'oyalari yaxlit tizimni tashkil qiladi. Bunda nafaqat ijtimoiy-gumanitar fanlar, balki tabiiy-fundamental fanlarning ham o'ziga xos uslublari ishlab chiqilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida mafkuraviy profilaktikani, ya'ni yosh avlodni g'oyaviy himoyalashda ta'sirchanligini oshirib borish mafkuraviy immunitetni shakllantirish va uni mustahkamlashning asosiy omillaridan biridir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yosh avlodni nafaqat zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida tarbiyalash imkonini yaratadi, shu bilan birga, globallashuv jarayonida turli ko'rinishdagi mafkuraviy tajovuzlar haqidagi tasavvurlarini ham oshirib borishga yordam beradi. Yosh avlodni har tomonlama, yetuk insonlar qilib tarbiyalash, mustaqil fikrlashni shakllantirishda mafkuraviy profilaktika – yosh avlodni g'oyaviy himoyalash mohiyatida milliy qadriyatlar, Sharqona demokratiya elementlarini uzluksiz va uzviy tarzda singdirib boriladi.

Ma'lumki, tafakkur bilan bog'liq mute'lik har qanday qaramlikdan ham dahshatli hisoblanadi. Hozirgi davrda dunyoning mafkuraviy manzarasidagi rang-baranglik yoki oddiy qilib aytganda, mafkuraning ta'siri yadro poligonlariga nisbatan katta kuchga ega bo'lgan bir paytda, insonlar, ayniqsa, yoshlar har xil yot mafkuralar ta'siriga berilmaslik uchun mafkuraviy jihatdan qurollangan bo'lmog'i zarur.

Oila, mahalla va o'quv muassasalarining mafkuraviy profilaktikani yosh avlodni g'oyaviy himoyalash jarayonidagi o'рни katta bo'lib, barkamol avlod tarbiyasi, jamiyatning istiqbolini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday profilaktika



murakkab, doimiy hamkorlikdagi, mushtarak maqsad yo'lidagi intilishlari uyg'unlashishini talab qiladi. Bu jarayon umumiy manfaat va maqsadlar sari jamiyatda tarbiyaning vorisiyligini ta'minlovchi makonni vujudga keltiradi. Bu makon yosh avlod, komil inson tarbiyasining ajralmas qismidir. Shuningdek, g'oyaviy profilaktika, ya'ni yosh avlodni g'oyaviy himoyalashda fan, ta'lim, adabiyot va san'atning roli alohida bo'lib, sohada ularning imkoniyatlaridan foydalanish asosiy omillaridan biridir. Yosh avlod fanni o'rganish bilan tabiat va jamiyat, tafakkurdagi o'zgarishlar, taraqqiyot asoslari va tamoyillarini o'rganadi. Ayni paytda, shu jarayonni milliy g'oyaning mazmun-mohiyati bilan bog'lash va uni har bir shaxsning o'z hayotida aks etishi oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyatga ega. Mustaqillikni mustahkamlashda va istiqloq imkoniyatlaridan samarali foydalanishda, shubhasiz, mafkuraviy targ'ibot vositalaridan bo'lgan kitoblar, darsliklarda ifodalangan bilimlarning o'rni katta. Chunki yosh avlod ongi va qalbiga milliy mafkuraning ezgu qadriyatlarini jo qilishda aynan shu targ'ibot vositalaridan oqilona foydalanish eng samarali yo'l hisoblanadi.

“Yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda.

Bu borada zamonaviy kompyuter texnologiyalari va ayniqsa, Internet tizimi bizdan ancha ildamlab ketganini ham inobatga olish zarur.

Ana shu vazifani hal etishda turli darsliklarni yaratish, ularni chop etish va moliyalashtirish masalalarida idoralar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchilik, afsuski, jiddiy to'siq bo'lmoqda.

Shu munosabat bilan, Bosh vazirga alohida komissiya tuzib, bir oy muddatda darsliklar, maxsus va badiiy adabiyotga bo'lgan real ehtiyojni, ularni boshqa tillarga tarjima qilish, ular bilan o'quv yurtlari, kutubxona va axborot-resurs markazlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini taqdim etish topshirildi.

Bunda yoshlar va aholining keng qatlamlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish masalalariga ham alohida e'tibor berish lozim bo'ladi.

Shu o'rinda hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan

masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi"<sup>143</sup>, - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Milliy g'oyaning shaxs, yosh avlod tarbiyasidagi hamda bugungi mafkuraviy tarbiyani takomillashtirishda o'ziga xos turfalikni mujassam etgan san'at asarlaridan ham o'rinli foydalanish lozim. San'atning qaysi bir turini olib ko'rmaylik, ularda bugungi voqelik, tariximiz, ijtimoiy munosabatlarning turli ko'rinishlari o'z aksini topgan. Shuningdek, ushbu san'at asarlarini targ'ib qilishning samarali usuli sifatida ham ko'rish mumkin. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasida uchrab turadigan ayrim illatlar mentalitetimizga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan xorij madaniyatining "san'at asarlari" orqali kirib kelmoqda. Uning salbiy oqibatlari yoshlarimizning ayrim holatlarda nojo'ya hatti-harakatlari, axloqida uchrayotgan qusurlar mafkuraviy profilaktikani kuchaytirish masalasiga yanada chuqurroq e'tibor qaratishni taqozo qiladi, degan xulosaga keldik.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish jamiyat va mamlakatning mafkuraviy xavfsizligini ta'minlash omillaridan biri hisoblanadi. "Mafkuraviy xavfsizlik" tushunchasining mohiyati shuki jamiyatda turfa xil shakllarda o'zini namoyon qiladigan tajovuzlar, buzg'unchi g'oyalar ta'siridan himoyalanih darajasidir. Mazkur sohadagi profilaktikaning asosiy vazifasi deganda, jamiyat ma'naviy hayotida bo'shliq paydo bo'lishining oldini olish, o'zining pirovard maqsadlariga mos va unga xizmat qiladigan g'oyalar tizimini shakllantirish, uni muttasil mustahkamlab borish, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdek jarayonlar nazarda tutiladi.

Ma'lumki, har qanday mamlakatning mafkuraviy xavfsizligiga tashqi va ichki omillar o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Bugungi kunda turli xil mafkura markazlari va poligonlarining O'zbekistonda yangi jamiyat qurishga to'sqinlik qilish uchun g'arazli niyatlariga erishishda ba'zi fuqarolardan "qurol" sifatida foydalanishga intilishlarida mafkuraviy xavfsizlik uchun real tashqi tahdidlar mavjudligini ko'ramiz.

---

<sup>143</sup> Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. // "Xalq so'zi", 2017 yil 16 yanvar.

Shuningdek, qo'shni davlatlardagi terrorizm, diniy ekstremizm va mavjud siyosiy beqarorlik ham mamlakatimiz mafkuraviy xavfsizligiga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkinligini doimo nazarda tutish lozim.

“Kamolot yoshlar ijtimoiy harakatining o'zini mustahkamlash, uning mamlakatimizdagi barcha yoshlar chin dildan intiladigan tashkilotga, ortiqcha tadbirlar o'tkazish va rasmiyatchilik ko'rinishlaridan holi bo'lgan, yoshlar manfaatlarining haqiqiy himoyachisiga aylanishiga erishish zarur. Uning joylardagi tuzilmalari faoliyatini, xususan shahar va tumanlarda, uzoq qishloq va mahallalarda uyushmagan yoshlar o'rtasida olib boriladigan ishlarni kuchaytirish bo'yicha hali oldimizda katta vazifalar turibdi. Yoshlar bilan ishlash masalasi ijtimoiy siyosatimizning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, bu borada keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturini amalga oshirishini taqozo etadi”<sup>145</sup>, deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlovchi ichki omil jamiyatning siyosiy-ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy salohiyati hamda fuqarolarda mafkuraviy immunitetning shakllanganlik darajasidir. Bundan tashqari, mafkuraviy xavfsizlik xalqning asriy an'analari, tili, dini, ma'naviyati va milliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi lozim. Shuningdek, davlat idoralari, jamoat tashkilotlari va uyushmalari, madaniy-ma'rifiy muassasalar tomonidan amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tizimi mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning zaruriy shartidir. Mafkuraviy xavfsizlik ilmiy asoslangan ijtimoiy siyosat, huquqiy madaniyat, jamiyatning ma'naviy yetukligi va demokratiyalashuvi bilan uzviy ravishda amalga oshiriladigan g'oyaviy tarbiyaga tayanadi. Jamiyat, davlat va shaxs mafkuraviy xavfsizligini ta'minlash davlatimiz siyosatining tarkibiy qismi, mamlakatimiz hayotining barqarorligini mustahkamlash omili hisoblanadi.

Butun insoniyat tarixi, xalqimizning necha ming yillik o'tmishi achchiq saboq va xulosalar asosida bir haqiqatni isbotlab bermoqda. Ya'ni, biz barqaror taraqqiyot

---

<sup>145</sup> Mirziyoyev Sh.M. “Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir”. Tadbirkorlar va ishbilanmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi ma'ruzasi. // “Xalq so'zi”, 2016 yil, 2 noyabr.

va farovon hayotga erishish yo'lida o'z oldimizga qanday reja va dasturlarni qo'ymaylik, barcha olijanob orzu-intilishlarimizni amalga oshirishning yagona sharti va garovi – bu tinchlik va osoyishtalikdir. Bejiz emaski, yurtimizdagi qaysi xonadonga kirmang, qanday yig'in yoki ma'raka bo'lmasin, fotihaga qo'l ochilganda, yoshu-qari, erkak-u ayol – barchamiz Yaratgandan tinchlik va osoyishtalikni so'rab duo qilamiz.

Ma'lumki, insonning eng ustuvor va muqaddas huquqlaridan biri – bu tinch yashash huquqidir. Davlat va jamiyatning burchi ana shu huquqni barcha qonuniy vositalar bilan kafolatlab berishdan iborat. Bu huquqni amalga oshirish – davlat va jamiyatni demokratlashtirishning eng muhim shartidir. Demokratiyaning insonparvarligi ham birinchi galda ana shu mezon bilan o'lchanadi.

Milliy g'oyamizning asosiy mazmunini ifoda etadigan yo'nalishlar haqida gapirganda, hech shubhasiz, biz Vatan ravnaqi va taraqqiyotini tasavvur qilamiz”<sup>146</sup>.

Mafkuraviy immunitetni fuqarolar ongiga singdirish, avvalambor, oiladan boshlanadi. Vatanga muhabbat tushunchalarning o'q ildizi avvalo, oilada, undagi tarbiya vositalari bilan, so'ngra, ajdodlarimiz o'giti, Sharqona mehr-oqibat orqali amalga oshadi. Bu tushunchalarni yoshlar qalbi hamda ongiga singdirishda ta'lim va tarbiyaning turli shakllari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mulohazalarimizdan xulosa yasaydigan bo'lsak:

*Birinchi*dan, mafkuraviy immun tizimi mustahkam bo'lgan insongina hozirgi kunda o'zining jirkanch niyatlarini amalga oshirish maqsadida turli xil yo'llar bilan kirib kelayotgan, yoshlarimizning qalbi va ongini qandaydir zararli va buzg'unchi g'oyalar bilan egallashga harakat qilayotgan yovuzlarga qarshi ham kurasha oladi, ham o'z yurtini himoya qiladi.

*Ikkinchi*dan, mazkur vazifa bilan bog'liq mafkuraviy immunitetni kamol toptirish ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy va milliy-mafkuraviy tarbiya omillari bilan bog'liq. Bu katta mehnat talab qiluvchi murakkab jarayon bo'lib, barcha kasbdagi kishilarda, xususan, yoshlarda Vatanga sadoqat, Yurt tinchligi va Xalq farovonligi g'oyalarini amalga oshirish yo'lidagi fidoiylilik kabi fazilatlarni kamol toptirishdir.

---

<sup>146</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008 yil, 72–73-betlar.

*Uchinchidan*, mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan g'oyaviy tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri aholining turli qatlamlari uchun umumiy tamoyillarga ega bo'lgan fuqarolik mas'uliyati va insoniylik burchi bilan bog'liq tushunchalarni shakllantirishdan iborat. Bu tushunchalar qadim zamonlardan buyon ma'lum. Ammo ular deyarli hamma vaqt kishining milliy, sinfiy, irqiy, diniy, hududiy holatlariga qarab, turli chekinishlar yoki imtiyozlar bilan bog'liq bo'lgan.

*To'rtinchidan*, Yer yuzidagi barcha inson zoti irqi, dini, millati, jinsi, yashab turgan hududidan qat'iy nazar, teng va teng bo'lib yashashga haqli ekanligini, ularning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash jamiyatning asosiy vazifasi bo'lishi lozimligini mutafakkirlar allaqachon asoslab berganlar. Shu bilan birga, dunyodagi har bir insonning ota-onasi, el-yurti, xalqi, farzandlari, o'tmish va kelajak oldida burchi va mas'uliyati mavjudligi ham azaldan e'tirof yetib kelinadi.

### **3.Mafkuraviy profilaktika – yoshlarning fuqarolik mas'uliyatini oshirish va takomillashtirishning tezkor amaliy uslub va vositasi**

Jamiyat taraqqiyotining “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” bosqichiga o'tishda yoshlarning fuqarolik mas'uliyatini oshirish va takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bunday ulkan vazifani bajarishda yoshlarning aksariyati mas'uliyatni his qilsa, ayrimlari his qilmasligi ham mumkin. Shuni inobatga olgan holda “*Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonun*”ning 5-moddasida: “Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash; yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan hatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish”<sup>148</sup>, – zarurligi belgilab qo'yilgan. Shu qonun talablaridan kelib chiqqan holda “*yoshlarning fuqarolik mas'uliyati*” tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta'rif berilgan. *Yoshlarning fuqarolik mas'uliyati*

---

<sup>148</sup> O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonuni. – Toshkent: Adolat, 2016. – B.4.

*deb biron bir mamlakat hududida tug'ilib o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan*<sup>149</sup> fuqarolarning davlatning asosiy qonunida belgilab berilgan huquq, erkinlik va burchlarini bajarishda sodir etgan hatti-harakatlarining oqibati, natijasi uchun javobgarlikni his qilish qobiliyatiga aytiladi. Ana shu qobiliyatni oshirish va takomillashtirishda mafkuraviy profilaktika metod va vosita sifatida: yoshlarni jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida sodir bo'layotgan voqea, jarayon, o'zgarishlarning haqiqiy ahvoli; jamiyatni yangilash uchun ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy sohalarida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ularni bajarishda bo'layotgan qiyinchiliklar; mamlakat aholisining "ommaviy madaniyat" ta'siriga tushib qolish sabablari va undan forig' bo'lish yo'llari; xalqning tinch-osuda yashashiga halaqit beruvchi, tahdid soluvchi kuchlarning asl maqsadlari, ularning moliyaviy imkoniyatlari va shu kabilar haqida yoshlarni ogoh qilish va ayni vaqtda ularni g'oyaviy-mafkuraviy, axloqiy, kasbiy jihatdan buzishga urinayotgan kimsa - subyektlarni zararlantirish vositasi ham ekanligi ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston yoshlarida fuqarolik mas'uliyatining shakllanishi va uning takomillashishi jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarning davomi va uzviy qismi. Chunki jamiyat o'z demokratik rivojlanishida fuqarolarga tenglik, ozodlik, birodarlikni hayotiy voqelikka aylantiruvchi turli huquqlarni berish bilan cheklanmaydi, balki shu huquqlarga rioya qilishni, o'z huquqlaridan ijobiy, jamiyat manfaatlarini ko'zlab foydalanishni talab qiladi. Barchamizga yaxshi ayonki, inson manfaatlarini yurt tinchligi, jamiyatimizdagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidan ajratgan holda tasavvur eta olmaymiz. Bularning barchasi bizning bebaho boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek saqlash har birimizning muqaddas burchimizdir.

Bu borada mahalla idoralari, xotin-qizlar, nuroniylar, yoshlar tashkilotlarining o'rni va rolini yanada kuchaytirish e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Ayni vaqtda, hozirgi murakkab zamon tinch-osoyishta hayotimizni asrash va mustahkamlash, xalqimizning kafolatlangan xavfsizligini ta'minlash masalasini

---

<sup>149</sup> O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonuni. – Toshkent: Adolat, 2016. – B.5.

yanada dolzarb qilib qo'ymoqda. Shu maqsadda biz hozirgi vaqtda ichki ishlar vazirligi tizimini tubdan o'zgartirish chora-tadbirlarini ko'rayapmiz.

O'z paytida muhtaram Yurtboshimiz ichki ishlar organlarining eng quyi tizimida profilaktika inspektorlarini tashkil qilgan edilar. Ammo bugun bu inspektorlar profilaktika, ya'ni jinoyatlarning oldini olish bilan shug'ullanmayapti, aksincha, sodir bo'lgan jinoyatlarni ro'yxatga olish, yuqori idoralarga hisobot yozish bilan band.

Shu sababli, bu masalaga qarashimizni tubdan o'zgartirib, mahalladagi uchastka nozirlariga samarali faoliyat ko'rsatishi uchun barcha zarur ish va turmush sharoitlari yaratilgan. Shuningdek, har bir tuman hokimi va tuman ichki ishlar bo'limlari rahbarlarining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy etildi. Bu rahbarlarning asosiy vazifasi mahallada uchastka inspektorlari bilan ishlashni tashkil etishdan iboratdir"<sup>150</sup>, – deb ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Shu sababli, jamiyat qanchalik yuksak darajada demokratik bo'lsa, undagi fuqarolarning mas'uliyati ham shu darajada jiddiy va keng qamrovli bo'ladi. Haqiqiy demokratik jamiyatda fuqaro mavjud huquqlardan foydalanuvchi boqimanda emas, balki bu huquqlarga suyanib, jamiyatning muammolarini hal etishda faol shaxs bo'lishi lozimligi tabiiy holdir. Barkamol insonni voyaga yetkazish va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalari bir kunda yoki bir faslda o'z echimini to'la topadigan oddiy muammolar tizimiga kirmaydi, balki uzoq yillar davomida hal qilinadi. Bu yo'nalishda ham pirovard maqsadlarga erishish uchun tadrijiylik asosida ish ko'rish, o'zgarishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish davr talabidir.

“Jamiyatimizda qonun ustuvorligi, tartib-intizom, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashimiz zarur. Barchamizga ma'lumki, Islom Abdug'aniyevich Karimov: “Odamlar hamma narsaga chidashi mumkin, lekin adolatsizlikka chiday olmaydi”, deb ko'p-ko'p ta'kidlar edilar. Biz barpo etayotgan huquqiy davlatda adolatsizlikning hech qanday shaklda ustun bo'lishiga yo'l qo'ymasligimiz zarur. Bu hokimiyatning barcha tarmoqlari, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlarining va ayniqsa, huquqni muhofaza qilish organlarining birinchi darajali vazifasidir. Biz

---

<sup>150</sup> Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasidan. // “Xalq so'zi”, 2016 yil 8 dekabr.

xalqimizning, bugungi zamonning ana shu muhim talabi so'zsiz bajarilishini ta'minlashimiz shart.

Ikkinchidan, davlatimiz xavfsizligini har tomonlama mustahkamlashimiz, har bir fuqaroning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashimiz lozim. Vaziyatni izdan chiqarish, nifoq solish, dushmanlik urug'ini sepish, turli mojarolarni keltirib chiqarish va hatto, qon to'kilishini istayotgan kuchlar ham mavjudligi hech kimga sir emas.

Ochiq tan olish kerak, biz notinch zamonda, notinch bir mintaqada yashamoqdamiz. Shu sababli, Vatanimiz himoyasini ishonchli kafolatlayotgan, mudofaa qobiliyatimizni mustahkamlayotgan va davlat chegaralarimiz daxlsizligini ta'minlayotgan tizimli chora-tadbirlar kompleksini joriy etishni qat'iyat bilan davom ettirishimiz zarur"<sup>151</sup>, – deb ta'kidlaydi Shavkat Mirziyoyev.

Alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda jamiyatimizda mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantirishda O'zbekiston Respubikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan "Kuch – bilim va tafakkurda" g'oyasini jamiyatimiz hayotiga har tomonlama chuqur tatbiq etish asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Chunki, aynan ana shu g'oyada inson ongi, tafakkuri va xulq-atvoriga ta'sir qilishga qaratilgan har qanday xurujlardan kafolatli himoyalalanish va qarshi zarba berishning manbalari mujassamlashgan. Buning uchun ma'naviy va ma'rifiy hamda ta'lim-tarbiya va madaniy sohadagi barcha chora-tadbirlarni sifat jihatdan yangi, zamonaviy darajalarga tezroq olib chiqish zarur. Umumta'lim maktablari, litsey va kasb-hunar maktablari, shuningdek, oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati bilan bog'liq, zamonaviy o'quv reja va uslublarini joriy etish talab darajasida emas.

Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o'rgatish vazifalari hali sifatli va to'liq holda yechilgani yo'q.

Yana bir muammoni hal etish ham o'ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish

---

<sup>151</sup> Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutq. // "Xalq so'zi", 2016 yil 9 sentyabr.



zarur.

Uchinchi vazifa – ta’lim muassasalarini, eng avvalo, kasb-hunar maktablarini oqilona joylashtirishni, shuningdek, iqtisodiyot, ijtimoiy soha va har bir hududning zarur mutaxassislariga bo’lgan talabini to’g’ri aniqlashni tanqidiy tahlil qilishdir.

Hozircha ushbu mexanizm ishlamayapti. Tarmoqlar rahbarlari kadrlarga ehtiyoj to’g’risidagi ma’lumotni Oliy ta’lim vazirligi va Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etishadi. Keyin mutaxassislarni tayyorlash kvotalari bo’yicha chuqur o’ylanmagan takliflar ishlab chiqiladi. Buning natijasida kadrlar sifati va ularni ishga joylashtirish muammosi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Afsuski, hech kim buning uchun javobgar emas. Nima sababdan? Axir u o’rinda gap barchamizning farzandlarimiz to’g’risida, hech bir mubolag’asiz aytish kerakki, mamlakatimizning kelajagi haqida ketyapti”<sup>152</sup>, - deya ta’kidlaydi Shavkat Mirziyoyev.

Yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, unda yuksak ma’naviyat tamoyillari va mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamma vaqt jamiyat oldidagi muhim vazifadir. Zero, jamiyat kelajagi, xalq, millatning davomiyligi, Vatan taraqqiyoti ana shu tarbiyaning to’g’ri yo’lga qo’yilishi va samaradorligiga bog’liq. Bu yana shuning uchun ham zarurki, keyingi paytlarda ba’zi xorij ommaviy axborot vositalarida yoshlarni ma’naviy jihatdan buzishga qaratilgan targ’ibot-tashviqot ishlari olib borilayotganligi ma’lum bo’lib qolmoqda. Ayrim muxoliflarimiz, xorijdagi bir qancha matbuot organlari, internetdan ustakorona foydalanuvchilar noxolis xulosalar, buzg’unchi g’oyalarni tarqatishni davom ettirmoqda.

Aholi, ayniqsa, yosh avlod ma’naviyatini buzishga intilayotgan kimsalar chet eldagi homiylaridan madad oladi. Ilgari ular ashaddiy aqidaparast homiylardan moddiy va ma’naviy madad olgan bo’lsa, endi esa “rangli inqilob” ijodkorlari, “demokratiya tranziti” g’oyalarni tarqatuvchi mafkuraviy poligonlar bilan ham aloqa bog’lagan. Bunday qora niyatli kuchlarning o’z vaqtida madh etilishi O’zbekistonda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, mustaqillik va milliy xavfsizlikni

---

<sup>152</sup> Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. – “Xalq so’zi” 2017, 16 yanvar.

qo'riqlash uchun kuchli davlatning bo'lishi zarurligini isbotladi. Kuchli davlat bo'lmasa, demokratiya va taraqqiyotni saqlash, islohotlarni muvaffaqiyatli davom ettirish mumkin emas. Biz istiqlolni ko'z qorachig'iday asrash uchun jonajon davlatimiz atrofida yanada jiplashishimiz lozim.

Bu borada xalqimizga xos bo'lgan el-yurt, mahalla-ko'y nazaridan qolmaslik, dinu diyonatdan tashqari chiqmaslik, or-nomus, hamiyat, mardlik, vijdon amriga itoat etish adolatparvarlik, haqgo'ylik sifatleri yo'qolmasligi kerak. Hayo, andisha, lafz, omonatga xiyonat qilmaslik, rostgo'ylik xalqimiz tafakkuridan mustahkam o'rin olib kelgan. Shunday qilib, milliy g'oya, ma'naviy tarbiya, odob-axloq, ma'rifat yot g'oyalar, zararli tahdidlarni bartaraf etishda asosiy kuchdir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "...doim bir narsaga e'tibor beraman: bolalarimiz, qizlarimizning kiyinishiga qaranglar, ular qanday kiyinadi? Qaranglar, kim bizning bolalarimizdek chiroyli kiyinadi? Bu bir qarashda mayda narsa bo'lib tuyulishi mumkin. Aslida bu mayda gap emas. Mana, kollejlarga, litseylarga qatnaydigan bolalarning kiyinishiga qaranglar, galstukni shunday boplab bog'laydiki, men goh-goh oynaning oldiga kelib, ular qanday bog'lar ekan, deb mashq qilaman. Kollejda o'qiyotgan, endigina 16 yoshga kirgan bola mana shunday bejirim kiyinadi. Qizlar-chi? Bizning chiroyli qizlarimizni boshqalar bilan solishtirishning hojati yo'q. Ular baribir birinchi o'rinda turadi, dunyoda bizning qizlarimizga teng keladigani yo'q. ...Haqiqatan ham, biz yoshlarimiz, farzandlarimizning yonib turgan ko'zlari, g'ayrat-shijoati, bilimga intilishi, dunyoda hech kimdan kam bo'lmayman, degan harakatini yorug' kelajagimizning, ezgu maqsadlarimizga erishishning asosiy omili va garovi sifatida ko'ramiz"<sup>153</sup>.

Mafkuraviy profilaktika O'zbekiston yoshlarida fuqarolik mas'uliyatining shakllanishi va uning takomillashishida zamonaviy usullarga asoslanishi muhim ahamiyatga egadir. Bu boradagi tarbiyani amalga oshirishning vositalari ko'p. Hozirgi kunda fuqarolarni ijtimoiy va siyosiy jihatdan tarbiyalab borish zaruriyatidir. Bunda ularda siyosiy ong, siyosiy qarash va siyosiy madaniyatni shakllantirish muhim o'rin tutadi. Buning uchun oila, ta'lim tizimi, mahalla va ish joylari orasida

---

<sup>153</sup> Karimov I. A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: "O'zbekiston", 2015. 246–247-betlar.

shunday mexanizm shakllanishi kerakki, har bir inson bolaligidan to umrining oxiriga qadar siyosiy voqelikni va ijtimoiy hayot jarayonlarini to'g'ri idrok qilsin. Alohida zamonaviy madaniyatni shakllantirish, bunda odamlarni milliy va umuminsoniy madaniyat uyg'unligi asosida erkin va mustaqil fikrlashga, mushohada yuritishga, oila va qavm-qarindoshlarni hurmat qilishga, dunyoda bo'layotgan har bir voqeylikka o'z munosabatini bildirishga o'rgatish nihoyatda muhim.

Avvalambor, bilimga intilish, ikkinchidan, hech tortinmasdan boshqalardan o'rganish kerak. Men bolalarimga aytmoqchiman: aziz farzandlarim, hech qachon o'qish-o'rganishdan, izlanishdan uyalmanglar. Odamzod bor ekan, umrining oxirigacha o'rganadi. Men hamma narsani bilaman, deb boshqalarni pisand qilmasdan yuradigan odamning hech qachon biri ikki bo'lmaydi, – degandi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: bolalarimizni shuning uchun ham yaxshi ko'ramanki, ularda g'o'dayish, osmonda parvoz qilish degan narsalar yo'q. Va Xudodan so'rayman, bunday holatlar ularda bo'lmasin ham. Biz doim o'rganishga, tinchlikni qadrlab, tarixdan saboq chiqarib yashashga tayyor bo'lgan xalqmiz. Bugun biz ayni shunday yoshlarni, hammani hayratda qoldiradigan yosh avlodni tarbiyalayapmiz”<sup>154</sup>.

Mafkuraviy profilaktika jarayonida yosh avlod ruhiyatini ko'taradigan, uning ichki, botiniy qudratini namoyon etadigan tadbirlarni ko'proq tashkil etish, shu ruhdagi adabiy-badiiy asarlar, ilmiy-publitsistik tadqiqotlarni ko'paytirishni rag'batlantirish, ularni yoshlar ongiga singdirishga erishish lozim. Mustaqillik davrida erishilgan yutuqlarning ahamiyati, salohiyati va jozibasini ko'rsatish, istiqlol, xalq erki, milliy davlatchiligimiz eng sharaflig, eng muqaddas qadriyat ekanini yoshlar ongiga muntazam singdirib borish ham bunda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, turli tadbirlar o'tkazish asosida ta'lim va tarbiyani har doim qo'shib olib borish, oila, mahalla va o'quv yurtlarida ma'naviy tarbiyaga alohida e'tibor berish kabi chora-tadbirlarning ham mafkuraviy immunitetni shakllantirish va mustahkamlashda o'z o'rni bor.

Xullas, bugungi kunda jamiyat hayotida kechayotgan jarayonlarni chuqur tahlil qilish, turli g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan ogoh bo'lish, xoriждан kirib kelayotgan

---

<sup>154</sup> Karimov I. A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2015. 247–248-betlar.

mamlakatimiz manfaatlarini, milliy an'ana va qadriyatlarimizga yot g'oya va qarashlar qanday maqsadni ko'zlayotganini anglab yetish ham mafkuraviy profilaktikaga yordam beradi. Bu borada ommaviy axborot vositalari, radio, televideniya orqali aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida izchil targ'ibot va tashviqot ishlarini yo'lga qo'yish, ularning ta'sirchanligini oshirishga erishish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Millatning o'ziga xosligi, betakrorligi, rang-barangligi va ijtimoiy jarayonda o'zgarib borishi bilan bog'liq g'oyalarining eng asosiy tayanchi uning genofondidir. Genofond faqat irsiyat orqali o'tadigan tabiiy o'ziga xoslik emas, balki tarixiy belgilar, ijtimoiy xususiyatlar, milliy rang-baranglik va o'zgaruvchanlikni ham o'zida ifodalaydi. Aynan biror xalq, millat, elatni yo'qotish uchun qilingan tajovuz «genotsid» deb atalishi bejiz emas. Millat tarixiy va ijtimoiy o'zgarishlar, urush va qirg'inlar natijasida asta-sekin o'zgarishi, kamayib ketishi mumkin. Ammo uning genofondi o'zgarishi millatni nihoyatda tez o'zgarishiga, avlodlaridan meros qolgan tabiiy-tarixiy xislatlari, moddiy boyliklari, ma'naviyati, jumladan, g'oyalari ham tez yo'qolib ketishiga olib keladi.

Milliy g'oyalar kishilarning yashash joyi, turmush sharoiti bilan bog'liqlikda ham shakllanadi. Ana shunday g'oyalarning eng asosiylaridan biri odamlarning, ayniqsa, yoshlarning tug'ilgan ona yurtini sevish tuyg'usi sifatida namoyon bo'ladigan vatanparvarlikdir. U har bir inson tug'ilib, voyaga etgan joy, millat o'tmishi va hayoti bilan bog'langan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hududga nisbatan muhabbatni ifodalaydi. Butun insoniyatga xos bo'lgan vatanparvarlik hamma millat vakillari uchun bir xil ijobiy ma'noga ega, uni biror xalqda ko'proq, boshqasida kamroq shakllangan deyish uchun asos yo'q. Shu ma'noda, vatanparvarlik muayyan millat va jamiyatni vujudga keltirgan va saqlab turadigan joyga nisbatan dunyoga kelgan tabiiy-ijtimoiy tushunchadir. Bu tushuncha har qanday millatga mansub kishini tabiat bilan chambarchas bog'lagani va bashariyat farzandi ekanini isbotlaydi. Unda o'zi mansub bo'lgan millat shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan hududga nisbatan ma'naviy qarzdorlik, burch va mas'uliyati bilan bog'liq tuyg'ulari namoyon bo'ladi. Vatan ana shunday tuygularni uyg'ota olgani uchun ham milliy g'oyalar makonidir.

Milliy g'oyaning muhim jihatlaridan biri millat uchun umumiy muomala vositasi bo'lgan milliy til bilan bog'liqligidir. Chunki, har bir millat o'z ona tilini asrab-avaylash, kelajakda omon saqlashni o'z milliy g'oyasiga singdiradi. Mutaxassislar olamda 5000 ga yaqin til borligini qayd qiladi, ularni 15 ta katta oilaga bo'lib o'rganadi, tillar takomillashuvi bilan birga, ular egallagan hudud maydoni ham o'zgarib borishini ta'kidlaydi. Masalan, VII asrgacha Arabiston yarim orolining bir qismida tarqalgan arab tili, undan keyingi bir necha asr orasida Afrika va Osiyoning boshqa qismlariga ham tarqaldi. Xuddi shunday, xalqimiz so'zlaydigan til ham Kichik Osiyodan Shimoliy Sharqiy Sibirgacha bo'lgan keng hududda tarqalgan. Shu bilan birga, qadimda Osiyoda keng tarqalgan massagetlar, xetlar va xunlar tili butunlay yo'qolib ketgan. Ma'lumki, sobiq ittifoq davrida respublikamizda o'zbek tilining mavqeyi pasayib, ishlatilish doirasi kamayib ketgan edi. Asosiy xalqi o'zbeklardan iborat bo'lgan joyda sodir bo'lgan bu ahvol to'g'ridan-to'g'ri milliylik va umuminsoniylik talablarining buzilishini anglatar edi. O'zbekistonda «Davlat tili to'g'risidagi qonun»ning qabul qilinishi 1989- yil o'zbek tilining davlat tili deb e'tirof etilishi va boshqa milliy tillar rivoji uchun imkoniyat yaratilishi bu sohadagi maqsadlarning ro'yobga chiqishidir.

Milliy g'oyalar tizimi millatning ma'naviy merosi, an'analari, urf-odatlarini, milliy adabiyoti, san'ati va boshqa sohalarda ham namoyon bo'ladi. Ular asosida har bir millat tarixiy rivojlanish jarayonida avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan xususiyatlarini o'ziga xos tarzda ifodalaydi. Mafkuraviy nuqtai nazardan har qanday millat faqat muayyan hududda yashaydigan va bir xil tilda so'zlashadigan kishilardangina iborat emas, balki umumiy g'oyalar, madaniy-ma'naviy tamoyillar asosida mavjud bo'lib turadigan tarixiy-ijtimoiy birlik hamdir.

Milliy g'oya tarixiy rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot davomida takomillashib va sayqallanib boradi. Hamma davrlarda bo'lgani kabi, g'oyalar bilan bog'liq jarayonlarda ham, eskilik o'rniga yangilik vujudga kelishi, uzluksiz yangilanish bilan birga, muqarrar va zaruriy vorislik namoyon bo'ladi. Bunda innovatsiya (lot. - yangilanish) va an'ana (lot. - o'tish, uzatish) alohida o'rin tutadi. An'analar milliy g'oyada o'ziga xos shaklda ifodalanadi, avlodlardan-avlodlarga o'tish orqali

saqlanadi. Milliy g'oyada mazkur tarixiy birlikning ichki munosabatlarini tartibga soluvchi, bu munosabatlarning biror faoliyat yoki hatti-harakatda ifodalanishini namoyon qiladigan talablar va qonun-qoidalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu sohadagi g'oyalar amaliyoti to'g'risida so'z yuritilganda, albatta, muayyan millat tomonidan tarixiy rivojlanish jarayonida jahon xalqlari madaniyatiga qo'shilgan hissa ham nazarda tutiladi. Madaniyat insoniyat tarixi ilk davrlaridan beri uning ajralmas hamrohi, insonning o'zi kabi qadimiydir. Olamda madaniyatsiz el, millat va xalq yo'q. Har qanday xalq yoki millat tarixiy taraqqiyot darajasiga mos keladigai o'ziga xos madaniyatga, bu borada ham umuminsoniy rivojlanishda o'z xususiyatlariga ega. Misrlilar fir'avnlari zamonidan qolgan piramidalar, xitoyliklar Buyuk Xitoy devori, Yevropaliklar Ellada va Rim tarixi bilan bog'liq yodgorliklari, bizning xalqimiz alloma bobolarimizning ilmiy kashfiyotlari bilan umuminsoniy sivilizatsiyaga katta hissa qo'shganlari kabi, boshqa xalqlarning ham bunda o'z o'rnini va hissasi bor. Bu borada muayyan xalqning o'ziga xosligi, uning hozirgi davrdagi rivojlanishini ilgarigi ijtimoiy holati bilan solishtirilishi masalasida nihoyatda ehtiyotkorlik bilan fikr yuritish zarur, ammo bu masalaga boshqa millat manfaati nuqtai nazaridan yondashish ilmiylik va xolislik tamoyiliga mos kelmaydi.

Bugungi kunda milliy g'oyaning amal qilishida, asosan, uchta jihatni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: a) muayyan millatga oid kishilarning ijtimoiy ongi bilan bog'liqlik; b) uni shu millatga xos o'zaro munosabat va faoliyat orqali amalga oshirish; v) iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, moddiy va ma'naviy sohadagi biror maqsad yoki ideal tarzida namoyon bo'lish. Bu jihatlar haqida fikr yuritganda, avvalo, milliy g'oyalarning millatga mansub kishilar jamoadan yosh avlod ongida aks etishi, ularda xilma-xil tuyg'ular, ehtiyoj va maqsadlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishini alohida ta'kidlash lozim. Bundan tashqari, milliy g'oya ijtimoiy ongda biror bilim yoki haqiqat sifatida saqlanadi, avloddan-avlodga uzatiladi, meros sifatida qoldiriladi. Muayyan millatga mansub kishilar tabiatga, ijtimoiy muhitga, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar va boshqalarga, hatto o'zlariga nisbatan munosabatda ham milliy g'oya talablariga e'tibor beradi. Bir tomondan, u bilan bog'liq voqeylik qonunlariga, talab va qoidalariga amal qilsalar, ikkinchi tomondan esa, o'z faoliyat va hatti-

harakatlarida bu boradagi odat va an'analarni bajarishga harakat qiladilar. Vorislik tarzida meros qoldirilgan milliy g'oya va uning tamoyillari shu ma'noda kishilarning ushbu yo'nalishdagi faoliyati va hatti-harakati orqali namoyon bo'ladi hamda voqeylikka aylanadi.

«Shu bilan birga, milliy g'oyaga xos xususiyatlar, ko'p hollarda u yoki bu millat kishilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ham namoyon bo'ladi. Ozodlik va erkinlik, ezgulik va bunyodkorlikka intilish, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish dunyodagi millatlarga xos umuminsoniy g'oyalarga asoslangan. Har bir millat bu jarayonda umumiy maqsadlar yo'lida o'zaro hamkor va hamjihat bo'lish bilan birga, o'zi uchun ustuvor ideallarga sadoqat ruhini tarbiyalash, amaliy faoliyatda bu tamoyilga amal qilishi lozim. Bundan tashqari, milliy g'oya millat uchun biror bir ideal yoki maqsad tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Xalq dahosi, ma'naviy-aqliy yetukligi, bilimlari, ilm-fandagi erishgan yutuqlari ana shu ideal - maqsadlarga yetishish borasidagi faoliyatda namoyon bo'ladi. Biz eslatgan antik davrdagi Misr va Xitoy, Qadimgi Rim va Afinaga xos madaniy yuksalish, temuriylar davridagi taraqqiyot, jahon xalqlari alloma va mutafakkirlarining kashfiyotlari, mamlakatimizdagi bugungi ulkan bunyodkorlik ishlari ana shunday ideal - maqsadlarga intilish yo'lida erishilgan natijalarga misol bo'ladi, deb ayta olamiz.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Har qanday millat ijtimoiy-tarixiy birlik sifatida o'ziga xos, betakror jihatlarga ega. O'z milliy g'oyasining obyektiva va sub'ektiva sifatida har bir millat uni rivojlantirib, takomillashtirib boradi. Shu bilan birga, o'zi ham ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib, yangilanib, rang-barang jihatlar kashf yetib boradi, bu ikkala xususiyat ham milliy g'oyada aks etadi.

2. Milliy g'oya milliy makonda shakllanadi, rang-barang tarzda namoyon bo'ladi, yoshlar ongiga ta'sir qiladi, ular uchun ma'naviy mezon rolini o'ynaydi, ijtimoiy rivojlanish jarayonida doimo yangilanib, avloddan-avlodga o'tib boradi.

3. Milliy g'oya yosh avlodlarning o'zaro munosabatlari, ijtimoiy faoliyati, hatti-harakatlari hamda ular bilan bog'liq bo'lgan ehtiyoj, qiziqish va intilishlar uchun asos

bo'ladi, maqsad va ideallar sifatida O'zbekiston yoshlarini ulkan ishlarga safarbar qiladi.

4. Mafkuraviy profilaktika o'z xarakteriga ko'ra pozitiv va negativ shakliga ko'ra esa individual, jamoaviy yoki ommaviy bo'lishi mumkin.

5. Mafkuraviy profilaktika mexanizmi undan manfaaddor bo'lgan subyektini, u tomonidan ma'lum mezonlar asosida tanlangan insonni, inson faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida tayyorlangan dastur yoki loyihani, ko'zlangan maqsad xarakteri, auditoriya xususiyatlari, ijtimoiy shart-sharoitlar va mavjud imkoniyatlarga mutanosib ravishda tanlangan profilaktika shakli, unga xos uslub va vositalarni, natijalarni monitoring qilish tadbirlarini o'z ichiga oladi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Ma'naviy bo'shliq deganda nimani tushunasiz?
2. Yot g'oyalar qanday kirib keladi?
3. Yoshlarni g'ayriinsoniy g'oyalardan qonuniy tarzda himoya qilish zaruriyati nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Mafkuraviy profilaktika va uning g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar tizimida tutgan o'rni nimalardan iborat?
5. Mafkuraviy profilaktika – yoshlarning fuqarolik mas'uliyatini oshirish va takomillashtirishning tezkor amaliy uslub va vositasi qanday amalga oshiriladi?
6. Mafkuraviy profilaktika deganda nimani tushunasiz?
7. Mafkuraviy profilaktikani amalga oshirish mexanizmi qanday amalga oshiriladi?
8. Mafkuraviy profilaktikaning qanday ko'rinishlari bor?
9. Ma'naviyat milliy g'oya va mafkura bilan qanday aloqadorligi bor?
10. Yoshlarni bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etish uchun qanday ishlarni amalga oshirish zarur?



## TARQATMA MATERIALLAR:

1-ilova

**MAFKURAVIY JARAYONLARNING  
GLABALLASHUVI**

Bunda bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yoʻnalish, tendensiya namoyon boʻlmoqda. Jumladan, insoniyat sivilizatsiyasi tarixida erishgan har qanday moddiy va maʼnaviy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib, baynalminallashib, universallashtirib bormoqda.

The image shows four globes of the Earth. The first globe on the left is a colorful, multi-colored globe. The second globe is a blue and white globe with a network of lines. The third globe is a blue and white globe with a network of lines and a group of people silhouettes. The fourth globe is a blue and white globe with a network of lines and a group of people silhouettes.

2-ilova

**INSONIYATNING MA'NAVIY  
ZAIFLASHUVI**

Mazkur mafkuraviy hodisa eng tashvishlisidir. Chunki inson oʻz kashfiyotlariga mahliyo boʻlib, dunyoqarash, axloq va faoliyat jihatidan zaiflashib bormoqda. Terrorizm, diniy ekstremizm va “demokratiyani olgʻa siljitish” harakatlari shuning natijasidir. Bu harakatlar milliy birlik, birodarlik va hamkorlikka rahna solmoqda. Insoniyatning maʼnaviy zaiflashuvi uning oʻziga zarar keltirmoqda. Bilim olish, kelajakni oʻylash va ijtimoiy axloq qoidalariga rioya qilish oʻrniga nafsga berilish, shahvat domiga tushish va bugungi kun bilan yashash egallab bormoqda.

## MA'NAVY TAHDID

**Globallashuv jarayonlari hukm surayotgan sharoitda milliy o'zlikni saqlab qolish muammolari, millatning ma'naviy-axloqiy, etno-madaniy va tarixiy qadriyatlari barham topishiga qaratilgan xavf-xatarlardan biri bu ma'naviy tahdidlardir.**



## MA'NAVY TAHDID

**Bizningcha, bu to'laqonli ta'rif bo'lib, u bir necha jihatlari bilan diqqatni tortadi. Shu ma'noda quyidagilarga e'tibor berish lozim:**

<b>Ma'naviy tahdidlarning xususiyatlari</b>	<b>•Ma'naviy tahdidlarning zarari</b>	<b>•Ma'naviy tahdidlarning turlari</b>
·til tanlamaydi	·inson erkinligiga daxl qiladi	·mafkuraviy
·din tanlamaydi	·inson ruhiy dunyosini izdan chiqaradi	·g'oyaviy
·e'tiqod tanlamaydi	·maqsadli amalga oshiriladi	·informatсион

## Mafkuraviy tahdidlar

Bu turga kiruvchi tahdidlar keng qamrovligi va uzoqni koʻzlovchi xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Mafkuraviy tahdidlarning bugungi kunda quyidagi koʻrinishlari koʻzga tashlanmoqda:

- milliy qadriyatlarni kamsitish,
- milliy axloq qoidalarini inkor qilish,
- moʻtadil qarashlarni nazar-pisand qilmaslik va bularning oʻrniga muayyan davlatlar irodasiga itoat qilish,
- kosmologik qoidalarni maqtash va oʻzga jamiyatlar manfaatlariga mos dunyoqarashni mutlaq haqiqat sifatida targʻib qilish.

## “DUNYO FUQAROLIGI”

*Kosmopolitizm* (yunon, *kosmopolites* – “dunyo fuqarosi”) – dunyo fuqaroligini daʼvo qilish, shuningdek, milliy va davlat suverenitetini rad etish, turli milliy anʼana, madaniyat hamda vatanparvarlik tuygʻusidan voz kechish gʻoyasini ilgari suradigan qarash.









**“OMMAVIY MADANIYAT”**

**“OMMAVIY MADANIYAT” – pop-madaniyat – mazkur jamiyatda aholining keng qatlamlari orasida yoyilib, ustuvor bo‘lgan madaniyat. U o‘z ichiga maishiy hayot, qiziqishlar (sport, pop-musiqa), ommaviy axborot vositalari kabilarni oladi.**

Three images of pop culture scenes: a concert, a talk show, and a party, all crossed out with a large red X.



## Giyohvandlik

Giyohvandlik birinchi sigaretaning birinchi tortimidan boshlanadi. Sigaretdan asta-sekin ichkilikbozlik undan so'ng esa axloqiy buzqlik oqibatida nasha chekishga o'tiladi. Nashaga kuchli tobelik yuzaga keladi. Asta-sekin odam xumorini nasha bilan qondirolmay qoladi. Giyohvand moddani tomiriga uradi.



## Giyohvandlik

Giyohvandlik tahdidi chetdan turib, ongli ravishda o'ziga yoshlarni tortishga harakat qilmoqda. Chunki yoshlar qiziquvchan, hayot ne'matlarini totib ko'rishga intiluvchan, ammo oqibatlarini o'ylashga kirishmagan bo'lishadi.





## KOSMOPOLITIZM, VATANSIZLIK

“Yashash qayerda yaxshi bo‘lsa, shu yer men uchun Vatan” deb yurganlar topiladi. Bunday qarashda haqiqiy vatanparvarlik tuyg‘usining mujassam emasligi ko‘rinadi. Chunki, birinchidan, “yashash”dan ma’no va maqsad faqat yaxshi eb-ichish, rohat va farog‘atni o‘ylash, o‘zi uchun “barcha qulayliklarga” ega bo‘lgan “huzur-halovat”dangina iborat emas. Faqat shu bilan hayotning ma’no-mazmuni, yashashdan maqsad belgilanmaydi; ikkinchidan, bunday toifa odamlar, haqiqiy Vatan tuyg‘usini anglamaydilar yoki uni anglashdan yiroq.

## G‘ALABA FORMULASI

Bugungi kunda mutaassiblik ijtimoiy illat sifatida qabul qilinib, jamiyat taraqqiyotini cheklovchi asos sifatida rad etiladi. Mutaassiblikning, umuman, ma’naviy, mafkuraviy tahdidlarning oldini olish yo‘llari ko‘p. Lekin ular orasida 1-Prezident Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan quyidagi metodologiya muhim ahamiyatga ega:

*G‘OYAGA QARSHI – G‘OYA,*

*FIKRG A QARSHI – FIKR,*

*JAHOLATGA QARSHI – MA’RIFAT.*



## Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining “Huquqiy axborot” kanali materiallari asosida tayyorlangan // <https://uza.uz/oz/society/adliya-vazirligi-u-u-iy-masla-at-zarur-b-lganda-bizga-murozh-25-04-2020>.
3. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar: statistik to'plam. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2011.
4. O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonuni. – Toshkent: Adolat, 2016.
5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” mavzusi ma'ruzasidan. // “Xalq so'zi”, 2016 yil 8 dekabr – № 243 (6678).
6. Mirziyoyev Sh.M. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal – demokratik partiyasining VIII syezdidagi “Demokratik islohatlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir” mavzusidagi ma'ruzasi // “Xalq so'zi”, 2016 yil, 2 noyabr. № 216 (6651).
7. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutq. // “Xalq so'zi”, 2016 yil 9 sentyabr.
8. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. – “Xalq so'zi” 2017, 16 yanvar.
9. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: «O'zbekiston», NMIU, - 2017. – 592.

10. Mirziyoyev Sh.M. 2001 yil 4 yanvardagi F-1322- son farmoyishiga ilova <https://lex.uz/docs/1275190>.
11. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008.
12. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2015.
13. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: “O'zbekiston” 2012.
14. Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir // “Xalq so'zi”, 2013 yil 6 dekabr. – № 240 (5914).
15. Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. – Toshkent: Sharq nashriyot, matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001.
16. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi (tajribaviy qo'llanma). – Toshkent: “Akademiya”, 2011.
17. Сагдуллаев А.С., Костецкий В. А., Наркулов Н.К. История Узбекистана. – Ташкент, 1998.
18. Tulenov J., Yusupov K., G'afurov Z. Istiqlol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va yo'nalishlari. – Toshkent: “O'zbekiston”, 1993.
19. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. – Toshkent: Cho'lpon NMIU, 2018. – B. 521. (684 b.).
20. Fayziyev Sh. Yosh avlod huquq va manfaatlarining muhim kafolati. // “Huquq va burch”. 2008 yil. 8-9-son.

## GLOSSARIY

<b>Atamaning o'zbek tilida nomlanishi</b>	<b>Atamaning ingliz tilida nomlanishi</b>	<b>Atamaning rus tilida nomlanishi</b>	<b>Atamaning nomlanishi</b>
<b>Avesto</b>	<b>Avesta</b>	<b>Авеста</b>	<b>Avesto</b> - 1) zardushtiylik diniga taalluqli adabiyotlarning umumiy nomi; 2) zardushtiylik dinining asosiy kitobi; 3) “nasihatnoma”, “qonunlar to'plami”, “bilimlar majmuasi” sifatida talqin qilinadigan tarixiy manba
<b>Aksiologiya</b>	<b>Axiology</b>	<b>Аксиология</b>	<b>Aksiologiya</b> - (yunon. axio – qadriyat va logos – fan, ta'limot) atamasi ilmiy bilimlar sohasiga o'tgan asrning ikkinchi yarmida, nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan
<b>Alisher Navoiy</b>	<b>Alisher Navai</b>	<b>Алишер Наваи</b>	Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o'zbek adabiyotining asoschisi, mashhur shoir, olim, yirik mutafakkir, davlat arbobi, ma'naviyatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan siymodir
<b>Al-Farg'oniy</b>	<b>Al-Fargani</b>	<b>Фергани</b>	<b>Al-Farg'oniy</b> - Bag'doddagi “Bayt-ul Hikma” ilmiy markazida ilmiy ishlar bilan shug'ullangan. Kitoblari Yevropa

			o'rta asrlar universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik va qo'llanma hisoblangan
<b>Al-Xorazmiy</b>	<b>Algorithm</b>	<b>Ал-Хоразми</b>	<b>Al-Xorazmiy</b> - Bag'doddagi "Bayt-ul Hikma" markazini boshqargan. Ilmu-fan sohasida bir qancha shoh asarlar yaratgan va insoniyat amaliyotiga olamshumul ilmiy-amaliy yangiliklarni kiritgan.
<b>Altruizm</b>	<b>Altruism</b>	<b>Алтруизм</b>	<b>Altruizm</b> - egoizmga qarama – qarshi axloqiy tamoyil bo'lib, shaxsiy manfaatlaridan kechib, o'zgalar manfaati, baxt-saodati yo'lida beg'araz xizmat qilish degan ma'noni anglatadi
<b>An'ana</b>	<b>Tradition</b>	<b>Традиция</b>	<b>An'ana</b> - madaniy tajribaning u yoki bu unsurlarini saqlaydigan, avloddan-avlodga o'tadigan, ma'naviy qadriyatlarga asoslangan, ijtimoiy jarayonlarning tarixiy-genetik uzviyligini bog'lashga xizmat qiladigan universal shakl
<b>Axloq</b>	<b>Moral</b>	<b>Морал</b>	<b>Axloq</b> - kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos tartib, qoidalari yig'indisi.
<b>Baqa va fano</b>	<b>Eternal and</b>	<b>Вечный и</b>	<b>Baqa va fano</b> - (arab. baqa –

	<b>transient universe</b>	<b>земной мир</b>	abadiylik, barqarorlik, lomakonlik; fano – o’tkinchilik) – cheksizlik va cheklilik ma’nolarini bildiradi
<b>Bahovuddin Naqshband</b>	<b>Bakhovuddin Nakshband</b>	<b>Бахавуддин Накшбанд</b>	Hazrat Xojai Buzurg, Shoxi Naqshband va Baxouddin Balogardon nomlari bilan ma’lum va mashhur, naqshbandiya ta’limoti va tariqatining asoschisi
<b>Bixeviorizm</b>	<b>Bixeviorism</b>	<b>Bixeviorizm</b>	<b>Bixeviorizm</b> - vehaviour – xulq–odat, hatti – harakat) – XIX asr. oxiri XX asr boshlarida psixologiyada paydo bo’lgan yo’nalish
<b>Borliq</b>	<b>Universe</b>	<b>Существование</b>	<b>Borliq</b> - butun mavjudotni, uning o’tmishi, hozirgi davri va kelajagini qamrab oluvchi falsafiy tushuncha
<b>Vedalar</b>	<b>Vedas</b>	<b>Веды</b>	<b>Vedalar</b> - hind xalqining qadimgi ma’naviy madaniyati taraqqiyotining asosiy shaklini tashkil etuvchi adabiy yozuvi
<b>Buddizm</b>	<b>Buddhism</b>	<b>Буддизм</b>	<b>Buddizm</b> - diniy–falsafiy ta’limot B. dastlabki jahon dinlardan (xristianlik va islom kabi) biridir
<b>Bxagovatgita</b>	<b>Bxagovatgita</b>	<b>Бхаговатгита</b>	<b>Bxagovatgita</b> - qadimgi hindlarning diniy, falsafiy – epik yodgorligi
<b>Vandalizm</b>	<b>Vandalizm</b>	<b>Вандализм</b>	<b>Vandalizm</b> - ajdodlar tomonidan

			bunyod etilgan madaniy va ma'naviy boyliklarni, qadriyat-larni asossiz, o'ylamay yo'q qilish, vayron qilish g'oyasi ustuvor bo'lgan oqim
<b>Virtuallik</b>	<b>Virtually</b>	<b>Виртуализм</b>	<b>Virtuallik</b> - (ing. virtual reality, virtual – borligicha, lot. virtus – potensial, ehtimollik, energiya, kuch, shuningdek, tasavvurdagi xayol) – kompyuter yordamida modellash-tirish asosida foydalanuvchi sun'iy dunyoga cho'mib, maxsus sensorli moslamalar orqali unda harakat qilish imkonini beradi
<b>Volyuntarizm</b>	<b>Voluntarism</b>	<b>Волюнтаризм</b>	<b>Volyuntarizm</b> - (lot. Voluntas – iroda) iroda borliqning eng oliy ko'rinishi deb qarovchi falsafiy oqim
<b>Geosiyosat</b>	<b>Geopolitics</b>	<b>Геополитика</b>	<b>Geosiyosat</b> - turli xil davlat va xalqlarning manfaatlarini sistemasi unga bo'lgan yondashuv uslublari, vositalari u yoki bu hududiy joylashuvi, salohiyotiga bo'lgan munosabatda ifodalangan maqsadlar o'z ifodasini topgan tushuncha
<b>Gumanizm</b>	<b>Humanism</b>	<b>Гуманизм</b>	<b>Gumanizm</b> - insonni himoya qilishga, uning huquqlariga kafillik berishni maqsad qilib

			olgan ta'limot
<b>Davlat</b>	<b>State</b>	<b>Государство</b>	<b>Davlat</b> - hokimiyatning vujudga kelishi va faoliyat ko'rsatishi natijasida shakllangan jamiyat hayotini siyosiy tashkil etishni bildiradi
<b>Daosizm</b>	<b>Daoism</b>	<b>Даосизм</b>	<b>Daosizm</b> - qadimgi Xitoydagi falsafiy ta'limot
<b>Demokratiya</b>	<b>Democracy</b>	<b>Демократия</b>	<b>Demokratiya</b> - "xalq hokimiyati" ma'nosini anglatadi
<b>Jadidchilik</b>	<b>Djadidism</b>	<b>Джадидизм</b>	<b>Jadidchilik</b> - XIX asrda milliy ozodlik harakati mafkurasi vazifasini bajargan
<b>Jamiyat</b>	<b>Society</b>	<b>Общество</b>	<b>Jamiyat</b> - kishilar orasidagi ijtimoiy munosabatlarning tarixiy taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan ijtimoiy borliqdir
<b>Ideal</b>	<b>Ideal</b>	<b>Идеал</b>	<b>Ideal</b> - orzu-intilishning oliy maqsadi
<b>Idealizm</b>	<b>Idealism</b>	<b>Идеализм</b>	<b>Idealizm</b> - moddiylikni inkor yetib, olamning asosida ruh yoki g'oyalar yotadi, dunyoning mavjudligi va rivojlanib borishida g'oyalar belgilovchidir, deb ta'kidlovchi qarash
<b>Ijtimoiy fikr</b>	<b>Social opinion</b>	<b>Социальная мысль</b>	<b>Ijtimoiy fikr</b> - yuz berayotgan vaziyatlar, voqealar va hatti-harakatlarning jamiyat a'zolari tomonidan ma'qullanishi yoki

			ma'qullanmasligi
<b>Individualizm</b>	<b>Individualism</b>	<b>Индивидуализм</b>	<b>Individualizm</b> - inson individual hayotining alohidaliligini ta'kidlaydi
<b>Intuitsiya</b>	<b>Intuition</b>	<b>Интуиция</b>	<b>Intuitsiya</b> - hech bir mushohada va isbotga tayanmasdan turib, birdaniga, yaxlitligicha qamrab olish asosida yangi bilimga ega bo'lish jarayoni
<b>Kalom</b>	<b>Kalam</b>	<b>Калам</b>	<b>Kalom</b> - umumiy ma'noda barcha fikr-mulohazalarni anglatadi, maxsus ma'nosida, islom aqidalarini diniy obro'li shaxslarga ergashib emas (taqlid), balki aqlga asoslanib sharhlaydigan spekulativ ilmni (ilm-al-kalom) bildiradi
<b>Kamtarlik</b>	<b>Humility</b>	<b>Скромность</b>	<b>Kamtarlik</b> - shaxsning atrofida qilargalarga va o'z-o'ziga munosabatini ifodalovchi, uning o'ziga nisbatan ortiqcha izzat-ikrom, e'tibor talab qilmasligida, maqtanishni istamaydigan, mag'rurlanmaydigan, kamsuqumlikda namoyon bo'ladigan, axloqiy xislat
<b>Kibr</b>	<b>Arrogance</b>	<b>Высокомерие</b>	<b>Kibr</b> - kibru havo, dimog'dorlik – o'z qobiliyatiga, o'z shaxsiyatiga ortiqcha baho berish, o'zini boshqalardan yuqori his etish,



			kalondimog'lik oqibatida namoyon bo'ladigan, salbiy shaxsiy sifat
<b>Kiberterrorizm</b>	<b>Kiberterroris m</b>	<b>Кибертерроризм</b>	<b>Kiberterrorizm</b> - kompyuter sistemasiga hujum
<b>Madaniyat</b>	<b>Culture</b>	<b>Культура</b>	<b>Madaniyat</b> - u jamiyat taraqqiyoti davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilgan barcha moddiy va ma'naviy yutuqlarning majmuidir
<b>Mafkura</b>	<b>Ideology</b>	<b>Идеология</b>	<b>Mafkura</b> - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmui
<b>Ma'naviyat</b>	<b>Spirituality</b>	<b>Духовность</b>	<b>Ma'naviyat</b> - insonning butun umri davomida, uning kuchiga kuch qo'shadigan, idrok va aql-zakovatini kengaytiradigan va mustahkamlaydigan vosita
<b>Mentalitet</b>	<b>Mentality</b>	<b>Менталитет</b>	<b>Mentalitet</b> - aql, tafakkur, fikr yuritish tarzi, fikrlash usuli, kishi ruhiyati tarzi
<b>Millat</b>	<b>Nation</b>	<b>Нация</b>	<b>Millat</b> - ma'lum davlat fuqarolarining yagona til va o'z-o'zini anglash asosida tashkil topgan etnik birligi
<b>Milliy ma'naviy tiklanish</b>	<b>National – spiritual renew</b>	<b>Национальное духовное возобновлени</b>	<b>Milliy</b> - o'z mustaqilligini qo'lga keltirishi natijasida milliy rivojlanish borasida ana shu boy

		<b>e</b>	berilgan imkoniyatlardan foydalanish, o'tmishda yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni milliy rivojlanishiga yo'naltirilgan umummilliy faoliyatdir
<b>Milliy ong</b>	<b>National</b>	<b>Национальное сознание</b>	<b>Milliy ong</b> - millatning mavjud bo'lishi, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqboli bilan bog'liq omil hisoblanadi
<b>Milliy g'urur</b>	<b>National proud</b>	<b>Национальная гордость</b>	<b>Milliy g'urur</b> - har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyat
<b>Mifologiya</b>	<b>Mycology</b>	<b>Мифология</b>	<b>Mifologiya</b> - yunon. miphos – doston, qissa, afsona va logos–ta'limot
<b>Optimizm</b>	<b>Optimism</b>	<b>Оптимизм</b>	<b>Optimizm</b> - (lot. optimus – eng yaxshi, degan ma'noni bildiradi) kechayotgan voqea, hodisalarning borishiga ikki xil qarama–qarshi fikrlar yoki munosabatlarni yaxshilikka yo'yish bilan ifodalash
<b>Pessimizm</b>	<b>Pessimism</b>	<b>Пессимизм</b>	<b>Pessimizm</b> - (lot. ressimus – eng yomon) kechayotgan voqea-hodisalarning sodir bo'lishiga ikki xil qarama-qarshi fikrlar yoki munosabatlarning oqibatini

			samarasiz (fatalizm emas), tushkunlikka yo'yish bilan ifodalaydi
<b>Renessans</b>	<b>Renaissanice</b>	<b>Ренессанс</b>	<b>Renessans</b> - qadimgi yunon madaniyati, fani, falsafasining tiklanishini ifodalaydi
<b>Siyosat</b>	<b>Policy</b>	<b>Политика</b>	<b>Siyosat</b> - davlat miqyosida va davlatlararo munosabatlarda hokimiyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat
<b>So'fiylik</b>	<b>Sufism</b>	<b>Суфизм</b>	<b>So'fiylik</b> - islom dini paydo bo'lgandan so'ng uning doirasida Qur'on va hadisga mos ravishda shakllangan ta'limot
<b>Taqdir</b>	<b>Fate</b>	<b>Судба</b>	<b>Taqdir</b> - har bir inson hayoti va faoliyatini hamda olamdagi barcha hodisalarni yagona yaratuvchi – Ollox, amriga bog'lovchi, diniy aqida
<b>Teizm</b>	<b>Teism</b>	<b>Теизм</b>	<b>Teizm</b> - diniy-falsafiy ta'limot bo'lib, olamni, Xudo tomonidan yaratilganini tan oladi
<b>Tolerantlik</b>	<b>Tolerates</b>	<b>Толерантизм</b>	<b>Tolereantlik</b> - o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan chidamlilik, bag'rikenglik
<b>Ulug'bek</b>	<b>Ulugbek</b>	<b>Улугбек</b>	<b>Ulug'bek</b> - Amir Temurning

			nabirasi, Shohruxning o'g'li – Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394–1449) dunyoda, davlat arbobi va olim sifatida ma'lum va mashhur
<b>Falsafa</b>	<b>Philosophy</b>	<b>Философия</b>	<b>Falsafa</b> - insonning dunyoda tutgan o'rni va dunyoqarashining yaxlit sistemasini ifodalovchi ma'naviy faoliyatining bir shakli
<b>Fan</b>	<b>Science</b>	<b>Наука</b>	<b>Fan</b> - ijtimoiy ong shakllaridan biri. Fan tabiat, jamiyat va tafakkur haqidagi yangi bilimlar hosil qilishdan to ularni tadbiiq qilishgacha bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi
<b>Fuqarolik jamiyati</b>	<b>Civil society</b>	<b>Гражданское общество</b>	<b>Fuqarolik jamiyati</b> - yuksak darajada uyushgan, batartib munosabatlar tizimiga tayangan, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari mukammal qaror topgan jamiyatdir
<b>Shovinizm</b>	<b>Chauvinism</b>	<b>ШОВИНИЗМ</b>	<b>Shovinizm</b> - boshqa millatlarni mensimaslikni va o'z millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar
<b>Egoizm</b>	<b>Egoism</b>	<b>ЕГОИЗМ</b>	<b>Egoizm</b> - o'z-o'zini qadrlash, sevisht, shaxsiy «men»i to'g'risidagi fikrlariga asoslangan

			fe'l–atvorni anglatadi
<b>Etnomadaniya</b> <b>t</b>	<b>Ethno</b> <b>culture</b>	<b>Этнокультура</b>	<b>Etnomadaniyat</b> - millatga tegishli bo'lib, uning tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan urf, odat, an'ana, qadriyatlari, udum, marosimlari, kiyimlar, moddiy va ma'naviy merosi, tafakkuri, ongi, g'oyaviy hamda axloqiy jihatdan o'ziga xosligini ifodalovchi ma'naviy boyligidir
<b>E'tiqod</b>	<b>Belief</b>	<b>Бера</b>	<b>E'tiqod</b> - odam ongi, ruhiyati bilan bog'lanib ketadigan, olamdagi narsa, hodisa, jarayonlarga alohida munosabatni qaror toptiradigan ma'naviy-ruhiy holat

## TESTLAR

**1. “Ma’naviyatshunoslik” fani qachondan o’qitilmoqda?**

- A) 2022 yil
- B) 1991 yil
- C) 1997 yil
- D) 1994 yil

**2. Boy berilgan salohiyatni qaytadan millat taraqqiyotiga yo’naltirish bu...?**

- A) Milliy tiklanish
- B) Milliy yuksalish
- C) Milliy taraqqiyot
- D) Milliy yangilanish

**3. “Ma’naviyat” so’zining lug’aviy ma’nosi nima?**

- A) Lotincha - ta’lim, bilim degan ma’noni anglatadi
- B) Arabcha - ma’nolar majmui degan ma’noni bildiradi
- C) Forscha - bilmoq, o’rganmoq degan ma’noni anglatadi
- D) Yunoncha - mantiqiy fikrlash ma’nosini anglatadi

**4. “Ma’sud qonuni”, “Hindiston”, “Geodeziya”, “Minerologiya” asarlarining muallifi kim?**

- A) Abu Ali ibn Sino
- B) Ahmad al-Farg’oniy
- C) Abu Rayhon Beruniy
- D) Abu Nasr Forobiy

**5. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida qaysi omillarni ma’naviyat mezonlar hisoblagan?**

- A) Ma’rifat va san’atni
- B) Fan, adabiyot-san’atni
- C) Huquq, adabiyot va tarixni
- D) Ma’naviy meros, madaniy boyliklar, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya tizimini

**6. Milliy ma'naviyatning asosiy o'zagi nima?**

- A) Milliy qadriyat
- B) Tarixiy xotira
- C) Milliy axloq
- D) Urf-odat, an'ana

**7. Qadriyatlar necha yirik guruhga bo'linadi?**

- A) An'anaviy, zamonaviy, demokratik qadriyatlar
- B) Milliy, mintaqaviy, umuminsoniy qadriyatlar
- C) Shaxsiy, kasbiy, milliy qadriyatlar
- D) Diniy va dunyoviy qadriyatlar

**8. "Ta'limni-tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi, bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir",- degan fikr kimga tegishli?**

- A) A.Avloniy
- B) I.A.Karimov
- C) A.Navoiy
- D) M.Behbudiy

**9. Insonning erkin ruhiy dunyosini izdan chiqarishga qaratilgan mafkuraviy, g'oyaviy, informatsion xuruj bu...**

- A) Agressiya
- B) Qadriyatlarni toptash
- C) Ma'naviy tahdid
- D) G'oyaviy tajovuz

**10. Milliy taraqqiyot bu ...**

- \*A) An'anaviylikka asoslangan rivojlanish
- B) Zamonaviylikka asoslangan rivojlanish
- C) Boshqalar erishgan yutuqlarga qarab rivojlanish
- D) Evolyusion xarakterdagi uzluksiz jarayondagi rivojlanish

**11. “Ma’naviyatni anglash o’zlikka qaytish demakdir” degan fikr kimga tegishli?**

- A) Alisher Navoiyga
- B) Viktor Gyugoga
- C) I.A.Karimovga
- D) Mahmudxo’ja Behbudiyga

**12. Qadriyatlar ichida eng oliysi bu ...**

- A) Inson va uning hayoti
- B) Tabiiy qadriyatlar
- C) Milliy va umuminsoniy qadriyatlar
- D) Mintaqaviy qadriyatlar

**13. “Imon” tushunchasi qanday ma’noni izohlaydi?**

- A) Arabcha – ishonch degan ma’noni ifodalaydi
- B) Arabcha - itoat degan ma’noni ifodalaydi
- C) Arabcha - mustahkam iroda degan ma’noni ifodalaydi
- D) Arabcha - sobit qolish degan ma’noni ifodalaydi

**14. “Ezgulikka sadoqati bo’lmagan, biror narsaga ixlos qo’ymagan, ishonmagan odam qo’rqinchlidir” degan fikr kimga tegishli?**

- A) Ahmad Yugnakiyga
- B) Najmiddin Kubroga
- C) Abu Nasr Forobiyga
- D) Islom Karimovga

**15. A.Navoiyning “Lisonut-tayr”ida qushlar Simurg’ni izlab nimani topadi?**

- A) Haqiqatni
- B) O’zi va o’zligini
- C) Adolatni



D) To'g'ri javob yo'q

**16. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatining takomili nechta davrga bo'lib o'rganiladi?**

- A) Ikki davrga.
- B) Beshta davrga
- C) Olti davrga
- D) Uch davrga

**17. Insoniy bilimlar necha turga bo'linadi?**

- A) Naqliy va aqliy
- B) Mantiqiy
- C) Amaliy
- D) Barcha javoblar to'g'ri

**18. "Avesto"da insonning qaysi amoliga shon-shavkat baxsh etilishi ta'kidlangan?**

- A) Jismoniy va ma'naviy pokligiga
- B) Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ishiga
- C) Taqvodorlik, kamsuqumlik, mehnatsevarligiga
- D) Ko'p kasb-hunar, ilm egasi-yu, oilaparvarligiga

**9. "Yasht" so'zining lug'aviy ma'nosi nimani ifodalaydi?**

- A) Yoro'g'lilik, poklik, halollik.
- B) Ezgulik, tinchlik, yaratuvchilik.
- C) Sajda, topinish, ta'zim
- D) Ishonch, e'tiqod.

**20. "Avesto" kitobining eng katta qismi qaysi?**

- A) Visparad
- B) Yasna
- C) Yasht

D) Vendidod.

**21. YUNESKO umumjahon madaniy merosi ro'yxatidan qancha moddiy va madaniy yodgorliklarimiz joy olgan?**

- A) 1000 dan ortig'i
- B) 2000 tachasi
- C) 4000 dan ortig'i
- D) 500 dan ortiq

**22. "Usuliy jadid" maktablari Samarqandda qachondan faoliyat ko'rsata boshlagan?**

- A) 1903 yildan
- B) 1905 yildan
- C) 1904 yildan
- D) 1902 yildan

**23. Quyidagilardan qaysida ma'naviy tarbiya vositalari to'g'ri berilgan?**

- A) Aql va bilim, adolat, shavqat
- B) Ibrat, yaxshilik, himmat, or-nomus
- C) Iroda, malaka, ezgulik, oliyjanoblik
- D) Aql, bilim, iroda, ibrat, mehr

**24. Misr poytaxti Qohirada qaysi buyuk ajdodimizga muhtasham haykal o'rnatilgan?**

- A) Ahmad al-Farg'oniyga
- B) Alisher Navoiyga
- C) Mirzo Ulug'bekka
- D) Zaxiriddin Muhammad Boburga

**25. So'fiylik qachon paydo bo'lgan?**

- A) 11-12 asrlar
- B) 9-10 asrlar

- C) 8-9 asrlar
- D) 12-13 asrlar

**26. “Avesto” kitobining Ardvisuraga bag’ishlangan 5-yashtida nima ulug’lanadi?**

- A) Yer
- B) Suv.
- C) Olov
- D) Havo

**27. A.Navoiy bobomizga hurmat va ehtirom ramzi sifatida dunyoning qaysi mamlakat shaharlarida uning haykallari o’rnatilgan?**

- A) Qohira, Dehli va Anqarada
- B) Kiyev, Riga va Parijda
- C) Moskva, Tokio va Bokuda
- D) Tbilisi, Pekin va Minskda

**28. Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi qachon tashkil topgan?**

- A) 1994 yil 23 aprel
- B) 1996 yil 10 sentyabr
- C) 1998 yil 9 sentyabr
- D) 1999 yil 3 sentyabr

**29. Prezident I.A.Karimov- eng buyuk jasorat deb, nimani e’tirof etadi?**

- A) Fidoiylkni
- B) Vatanparvarlikni
- C) Ma’naviy jasoratni
- D) Azmu shijoatni

**30. Qur’on oyatlaridan kelib chiqsak, unda bilim necha turga ajratiladi?**

- A) Naqliy bilim va aqliy bilim

- B) Insoniy bilim
- C) Ilohiy-irfoniy
- D) Ilohiy va insoniy

**31. Umuminsoniy qadriyat bo'lmish "ma'rifat" so'zining lug'aviy ma'nosi**

- A) Aql, bilim, fan
- B) Idrok etish, fikrlash
- C) Bilish, tanish, bilim
- D) O'qish, ko'rish, tinglash

**32. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonun" qachon qabul qilingan?**

- A) 1998 yil 1 - may
- B) 1999 yil 10 - aprel
- C) 1998 yil 2 - sentyabr
- D) 1998 yil 22-iyun

**33. Komil insonning axloqiy fazilatlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?**

- A) Faollik, botirlik, kek saqlamaslik, olijanoblik, hayolilik
- B) G'amxo'rlik, odamiylik, xushmuomalalik, halollik, boadablik
- C) Bama'nilik, xotirjamlik, ulug'sifatlik, tadbirkorlik, zehnlilik
- D) Ko'tarinkilik, hayolilik, xijolatpazlik, savodxonlik, omilkorlik

**34. Tasavvuf ta'limotida- inson uchun eng katta yov deb, nimaga aytilgan?**

- A) Kalondumog'lik
- B) Kibru havo
- C) Manmanlik
- D) Nafs

**35. Tarixdagi birinchi ziyolilar kimlar bo'lgan?**

- A) Payg'ambarlar
- B) Yunon faylasuflar

C) Xitoy faylasuflari

D) Sharq allomalari

**36. Atoqli astronom Yan Gelvetsiyning (1647 y.) “Selenografiya” kitobida aytilishicha? Oydagi kraterlardan ikkitasiga buyuk vatandoshlarimizning nomi berilgan. Ular kimlar?**

A) Ahmad al-Farg’oniy va Mirzo Ulug’bek

B) Abu Rayhon Beruniy va Ali Qushchi

C) G’iyosiddin al-Koshiy va Qozizoda Rumi

D) Muso al-Xorazmiy va Ahmad al-Farg’oniy

**37. Quyidagilardan qaysi biri milliy o’zlikni anglash belgilaridan emas?**

A) Urf – odat, an’analar

B) Ma’naviy qadriyatlar

C) Madaniy meros

D) Mahalliychilik

**38. Ma’naviyatning tarkibiy qismlari qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?**

A) Tarixiy xotira, og’zaki ijodiyot va axloq

B) An’ana, urf-odat, marosimlar

C) Adabiyot, san’at va ma’rifat

D) Meros, madaniyat, mafkura va qadriyat

**39. Umuminsoniy qadriyatlarning o’ziga xosligi nimada?**

A) Uni barcha millat, elat, xalqlarning maqsad va manfaatlariga mosligi

B) Barcha uchun barobar me’yorlarning unda mavjudligi

C) Dunyo xalqlarining ezgu orzu umidlarini o’zida namyon etganligi

D) Jahon madaniy merosini o’zida ifodalaganligi

**40. Mustaqil O’zbekiston BMTning YUNESKO tashkilotiga qachon a’zo bo’lgan ?**

A) 1994 yil 2 – mart

B) 1992 yil 12 – sentyabr

- C) 1993 yil 26 – oktyabr
- D) 1993 yil 10 – avgust

**41. I.A.Karimov “Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita...” deb nimani nazarda tutgan?**

- A) Teatr san’atini
- B) So’z san’ati, badiiy adabiyotni
- C) Kino san’atini
- D) Tasviriy san’atni

**42.A. Navoiy asarlaridan qaysi birida komil insonga xos xususiyatlar sanab o’tilgan**

- A) “Nasoyimul - muhabbat”
- B) “Lison ut - tayr”
- C) “Hayratul-abror”
- D) “Mahbubul - qulub”

**43. “Informatika” so’zi qaysi tildan olingan?**

- A) Fransuz
- B) Lotin
- C) Ingiliz
- D) Italyan

**44. Toshkentning bosh markaziy maydoni qachondan “Mustaqillik maydoni” deb ataladi?**

- A) 1991 yil 5 sentyabr
- B) 1992 yil 25 avgust
- C) 1989 yil 21 oktyabr
- D) 1994 yil 1 sentyabr

**45.Sharq Uyg’onish davri qaysi asrlarni o’z ichiga oladi?**

- A) XII-XVII asrlarni

- B) IX – XV asrlarni
- C) XV – XVII asrlarni
- D) XIX asr oxri XX asr boshlarini

**46. Munofiqlik belgisi nechta, bular qaysilari?**

- A) Yolg'on so'zlash
- B) Va'dasining ustidan chiqmaslik
- C) Omonatga xiyonat
- D) Barcha javoblar to'g'ri

**47. Qomusiy olimlarimizdan kim “Shayx ur rais ” deya ta'suflangan?**

- A) Abu Rayhon Beruniy
- B) Abu Nasr Farobiy
- C) Muxammad Muso al - Xorazmiy
- D) Abu Ali ibn Sino

**48. Hadisda nima narsadan oldin-nimani g'animat bilish zarurligi ta'kidlangan, bular qaysi?**

- A) O'limdan avval tiriklikni, betoblikdan avval salomatlikni
- B) Keksalikdan avval yoshlikni, faqirlikdan oldin boylikni
- C) Bandlikdan avval bo'sh vaqtni
- D) Barcha javoblar to'g'ri

**49. “Insondagi yaxshi fe'llar, amallar halol luqmadandir” degan fikr kimga tegishli?**

- A) Abduholiq G'ijduvoni
- B) Imom al-Buxoriy
- C) Bahouddin Naqshband
- D) Imom at-Termziy

**50. Islomgacha milliy ma'naviyatimiz haqidagi ma'lumotlarning asosiy manbaalari**

- A) Turkiy toshbitiklar va Avesto
- B) Antropologik tadqiqotlar
- C) Arxeologik yodgorliklar va etnografik ma'lumotlar
- D) Barcha javoblar to'g'ri

**51. Shaxs ma'naviyatni shakllantirishning muhim vositalari qaysilari?**

- A) Ommaviy axborot vositalari, san'at va adabiyot
- B) Oila
- C) Ta'lim-tarbiya tizimi, nodavlat tashkilotlari, jamg'armalar
- D) Barcha javoblar to'g'ri

**52. Bir-biriga qarama – qarshi mafkuralarni ko'rsating?**

- A) Shovinizm va sionizm
- B) Gumanizm va fashizm
- C) Fundamentalizm va bolshivizm
- D) Anarxiya va monarxiya

**53. Eng qadimgi mif va afsonalar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Mitra, Anaxita, Kayumars, Yima, Gershasp, Elbek
- B) Xubbi, Jamshid, Shiroq, Zarina, Alp Erto'nga
- C) To'maris, Rustam, Siyovush, Yusuf va Zulayxo
- D) Tohir va Zuhra, Yoriltosh, Go'ro'g'li, Alpomish

**54. "Bilimsiz kishi sog'lom bo'lsa ham, u o'likdir", degan fikr kimga tegishli?**

- A) Yusuf Xos Xojibga
- B) Axmad Yugnakiyga
- C) Abu Ali Ibn Sinoga
- D) Alisher Navoiyga

**55. "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi" degan fikr kimga tegishli?**



- A) Davlatshoh Samarqandiyga
- B) Abdurazzoq Samarqandiyga
- C) Xondamirga
- D) Prezident Islom Karimovga

**56. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini nechanchi bobi oilaga bag'ishlangan?**

- A) 7 bobi
- B) 4 bobi
- C) 14 bobi
- D) 21 bobi

**57. Birinchi o'zbek jadid dramaturgi kim?**

- A) A.Avloniy
- B) H.H.Niyoziy
- C) M.Behbudiy
- D) A.Fitrat

**58. Qadimgi yunon tilida "Metodos" nima ma'noni ifodalagan?**

- A) "To'g'rilik".
- B) "Yo'l", "Tariq"
- C) "Jamlanma"
- D) Tadqiqot

**59. A.Navoiy qaysi asarida ijtimoiy toifalar haqida fikr bildirgan?**

- A) "Xazoyinul-maoniy"
- B) "Lisonut-tayr"
- C) "Mahbubul-qulub"
- D) "Mezonul-avzon"

**60. A. Navoiy "majoz tariqi" haqida so'z yuritganda necha guruh shoirlarni tilga oladi?**

- A) 12-14 asrlardagi 3 guruh shoirlarni
- B) 12, 14-15 asrlardagi 2 guruh shoirlarni
- C) 13-15 asrlardagi 4 guruh shoirlarni
- D) 9-14 asrlardagi 5 guruh shoirlarni

**61.A. Avloniy nimani “...insonlar madori, hayoti, rahbari, najotidir” deydi?**

- A) Ilm
- B) Madaniyat
- C) Mehnat
- D) Ma’rifat

**62. Ota-bobolarimiz islom diniga qancha vaqtdan beri e’tiqod qilib kelmoqdalar?**

- A) 1200 yildan beri
- B) 1300 yildan beri
- C) 1100 yildan beri
- D) 1250 yildan beri

**63. “Islom” so’zining izohi nima?**

- A) Tinchlik-totuvlik
- B) Hilm
- C) O’ziga va o’zgaga yashlik tilash
- D) Barcha javoblar to’g’ri

**64.O’rta Osiyolik qaysi mutafakkir Sharq Gegeli degan unvonga sazovor bo’lgan ?**

- A) Ahmad Donish
- B) Abdurahmon Jomiy
- C) Abdulqodir Bedil
- D) Axmad Yugnakiy

**65.“Jadid” so’zining lug’aviy ma’nosi nima?**

- A) Ma'rifat
- B) Yangilanish, yangi usul.
- C) Hurlik, ozodlik
- D) Adolat, haqiqat

**66. "Alpomish" dostonining 1000 yilligi qachon nishonlangan?**

- A) 1999 yilda
- B) 2000 yilda
- C) 2005 yilda
- D) 2009 yilda

**67. "Odamzod bironing bo'yiga qarab to'n bichmaydi" degan ibora kimga tegishli?**

- A) A.Cho'lponga
- B) I.A.Karimovga
- C) A.Fitratga
- D) M.Behbudiyga

**68. Mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qachon qabul qilingan?**

- A) 1998 yil 5 yanvar
- B) 1994 yil 1 iyul
- C) 1997 yil 29 avgust
- D) 1999 yil 16 avgust

**69. "Tarix-xalq ma'naviyatining asosidir", degan fikr kimga tegishli?**

- A) Sharofiddin Ali Yazdiyga
- B) Mirxodga
- C) Nizomiddin Shomiyga
- D) Prezident Islom Karimovga

**70. "Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib**

**qoladigan yagona kuch-ma’rifadir” degan fikr kimga tegishli?**

- A) Mahmudxo’ja Behbudiyga.
- B) Abdulla Avloniyga.
- C) Munavvarqori Abdurashidxonovga.
- D. Prezident Islom Karimovga

**71. “Nafsga mag’lub shoh – qul, nafsdan ustunlikka erishgan g’arib shohdir” – degan fikr kimga tegishli ?**

- A) Najmiddin Kubroga.
- B) Axmad Yassaviyga.
- C) Abduholiq G’ijduvoniya.
- D) Baxouddin Naqshbandga

**72.“Millat” so’zining lug’aviy ma’nosi**

- A) “Tub mohiyat”, “Negiz”
- B) “Poydevor”, “Ustun”
- C) “Asos”, “Jamoat”
- D) “Omma”, “xalq”

**73. Mamlakatimizda nechta milliy madaniy markazlar faoliyat ko’rsatmoqda?**

- A) 50 ta
- B) 80 ta
- C) 130 ta
- D) 180 ta

**74. “Adovat emas-adolat yengadi”, iborasi kimga tegishli?**

- A) Sohibqiron Amir Temurga
- B) Ahmad Donishga
- C) Mirzo Ulug’bekka
- D) Zahiriddin Muhammad Boburga

**75. “Kuch-bilim va tafakkurda” iborasi kimga tegishli?**

- A) Sohibquron Amir Temurga
- B) Prezident Islom Karimovga
- C) Abu Nasr Forobiyga
- D) Alisher Navoiyga

**76. Ma’naviyatning ma’no-mazmunini belgilagan asosiy xususiyati nimada?**

- A) Insonning ruhini poklashga, qalbini ulg’aytirishga qaratilgani
- B) Insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatini bildirgani
- C) Inson qalbida, ko’ngil ko’zgusida aks etgan haqiqat nuri ekanligi
- D) Insonning jismoniy, aqliy va ruhiy balog’ati va dunyoqarashini ifodalaganligi

**77. “Avesto” – so’zining ma’nosi qanday izohga ega?**

- A) “Nasihatnoma”
- B) “Bilimlar majmuasi”
- C) “Qat’iy qonunlar”
- D) Hayot yo’riqnomasi

**78. Mamlakatimizda 2000 yil qanday ma’naviy qadriyat mohiyati bilan atalgan edi?**

- A) “Mehr - muruvvat” yili
- B) “Inson manfaatlari” yili
- C) “Sog’lom avlod” yili
- D) “Qariyalarni qadrlash” yili

**79. Markaziy Osiyodagi ilk shahar ma’naviyatini aks ettiruvchi qadimiy manbaa bu...?**

- A) Firdavsiyning “Shohnoma”si
- B) O’rxo’n-Enisey yodgorliklari
- C) “Avesto” kitobi
- D) Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asari

**80. Qadimgi turkiy tosh bitiklarida qaysi ma'naviy fazilatlar o'z ifodasini topgan?**

- A) Ajdodlar xotirasiga ehtirom
- B) Jasorat va mardu maydonlik
- C) Ozodlik, erk uchun kurash
- D) El-yurt birligi, mustaqil davlatchilik, vatanparvarlik

**81.I.A.Karimov mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning qanday ma'naviy-axloqiy negizlarini ko'rsatib bergan?**

- A) Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik
- B) Xalqimiz ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish
- C) Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi va vatanparvarlik
- D) Barcha javoblar to'g'ri

**82. "Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin" degan fikr kimga tegishli?**

- A) Jaloliddin Manguberdiga
- B) Mirzo Ulug'bekka
- C) Zahiriddin Muhammad Boburga
- D) Sohibquron Amir Temurga

**83.Mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i qachon tasdiqlangan?**

- A) 1992 yil 2 – iyul
- B) 1994 yil 31 – avgust
- C) 1991 yil 18 – noyabr
- D) 1990 yil 1 – sentyabr

**84.Mustaqillik davrida qanday yangi bayramlar qadriyat darajasiga ko'tarildi ?**

- A) "Ustoz va murabbiylar" kuni, "Konstitutsiya qabul qilingan" kun

- B) “Xotin-qizlar bayrami” kuni “Bolalarni himoya qilish” kuni
- C) “Mehnatkashlar hamjihatligi” kuni “Hosilni yig’ib olish” kuni
- D) Yangi yil, “Mehrjon” bayrami

**85. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g’oyasi qaysi?**

- A) Turli diniy ta’limotlarning uyg’un rivojlanishini ta’minlash
- B) Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish
- C) Fikrlar, qarashlar erkinligini ta’minlab rivojlantirish
- D) Bu Vatan – barchamizniki

**86. “Ma’naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag’ni ayash o’z kelajagiga bolta urish demakdir”, degan fikr kimga tegishli?**

- A) Viktor Gyugoga
- B) Abdulla Avloniyga
- C) Albert Kamyuga
- D) Prezident Islom Karimovga

**87. Ma’naviyatni necha guruhga bo’lish mumkin?**

- A) 1 guruhga: Shaxs ma’naviyati
- B) 2-guruhga: Milliy va mintaqaviy ma’naviyatga
- C) 3-guruhga: Milliy, mintaqaviy, umuminsoniy ma’naviyatga
- D) 4-guruhga: Shaxs, milliy, mintaqaviy, umuminsoniy ma’naviyatga

**88. Insoniy illatlar ichida eng qattoli bu...?**

- A) Oqibatsizlik va loqaydlik
- B) G’aflat va shahvatparastli
- C) Takabburlik, kalondumog’lik
- D) Xudbinlik va nafs

**89. 1993 yildan boshlab, har yili 27 iyun sanasini Matbuot kuni sifatida nishonlaymiz. Shu kuni O’zbek demokratik matbuoti tarixida qaysi gazeta chiqqan?**

- A) “Taraqqiy”

- B) “Sadoyi Turkiston”
- C) “Xurshud”
- D) “Sadoi Farg’ona”

**90. Kvaziilmiy bilim qanday bilim?**

- A) Majbur qilish metodiga asoslanmagan bilim
- B) Zo’ravonlik va majbur qilish metodlariga asoslangan, o’ziga hamkor izlovchi bilim
- C) Borliqning eng umumiy tomonlarni aks ettiruvchi bilim
- D) Kuzatish, tajribaga asoslangan bilim

**91. Mifologik bilim bu...**

- A) Borliqni bilvosita o’rganish usuli
- B) Borliqning fantastik in’ikosi
- C) Tabiat hodisalarini ibtidoiy tushuntirish usuli
- D) Borliq haqida inson tafakkurining qadimgi shakli

**92. Qanday ilmlarni egallash kishi ikki dunyosini obod qiladi deyilgan?**

- A) Kalom ilmi va fiqh ilmi
- B) Kalom va hadis ilmi
- C) Dunyoviy va diniy ilm
- D) To’g’ri javob yo’q

**93. Aristotelning “Metofizika”siga qaysi buyuk mutfakkirlarimiz sharh yozgan?**

- A) Abu Rayxon Beruniy
- B) Abu Nasr Forobiy
- C) Muhammad Muso al – Xorazmiy
- D) Abu Ali Ibn Sino

**94. “Halol kishi doimo xotirjamlikdadir, birovga xiyonat-u yomonlik qiladigan kishi esa halokatga girifdordir” degan fikr kimga tegishli?**



- A) Muhammad az – Zamaxshariy
- B) Abu Mansur Moturidiy
- C) Abduxoliq G'ijduvoni
- D) Ahmad Yassaviy

**95. Ajdodlar ma'naviy merosini kelajak avlod qanday qabul qiladi?**

- A) Qat'iy – o'zgarmas hodisa sifatida
- B) Muqaddas narsa sifatida
- C) Yangicha ma'no-mazmun berib, takomillashtirib
- D) Qat'iy qoida sifatida

**96. Tabiiy qadriyatlarni kelajak avlodlarga bekamu ko'st qoldirish nima deyiladi?**

- A) Ekologik madaniyat
- B) Ekologik tarbiya
- C) Ekologik ehtiyoj
- D) Ekologik ta'lim

**97. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi qachon tasdiqlangan?**

- A) 1991 yil 22 oktyabr
- B) 1994 yil 2 iyul
- C) 1992 yil 12 avgust
- D) 1992 yil 2 iyul

**98. Iroda nima?**

- A) Matonatli bo'lish
- B) Dovyuraklik
- C) O'z faoliyatini- o'zi tartibga solish
- D) Mustahkamlik, sabr, matonat

**99. Milliy urf – odat nima?**

- A) Milliy taraqqiyotda yangilik bilan eskilik o'rtasidagi obyektiv zaruriy aloqa
- B) An'analar sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan tartib qoida
- C) Ko'nikma bo'lib qolgan odatlar
- D) Bir millatga tegishli bo'lgan qadriyatlar tizimi

**100. Ma'naviyatga tahdidning qanday ko'rinishlari mavjud?**

- A) Axloqsizlikni madaniyat deb bilish
- B) Ma'naviy qadriyatlarga eskilik sarqiti deb qarash
- C) "Ommaviy madaniyat" niqobi ostida axloqsizlik, induvidualizm, egotsentrizm
- D) Barcha javoblar to'g'ri

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonuni. – Toshkent: Adolat, 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 26 mart 2021 yilgi PQ-5040-sonli Qarori.//<https://lex.uz/docs/5344692>.
4. O'zbekiston Respublikasining “Terorizmga qarshi kurash to'g'risida”gi qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Axborotnomasi, 2001 yil, 1-2-son, 15- modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 yil, 25-son, 287-m).
5. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2011.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil 6-son 70-modda).
7. Deputat fikri. Akmal Saidov. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari. Uchinchi Renessans va ma'naviy-ma'rifiy uyg'onish // <https://parliamentgov.uz/uz/events/opinion/33444>.
8. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. <https://iiv.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>.
9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining “Huquqiy axborot” kanali materiallari asosida tayyorlangan // <https://uza.uz/oz/society/adliya-vazirligi-u-u-iy-masla-at-zarur-b-lganda-bizga-murozh-25-04-2020>.

10. O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonuni. – Toshkent: Adolat, 2016. – 80 b.

11. «Ma'naviyat kerakmi - yo'qmi deb yurganlar ham yo'q emas». Prezident Shavkat Mirziyoyev ma'naviyat masalalariga bag'ishlangan nutq. 2021 yil 20 yanvar. <https://kun.uz/news/2021/01/20/prezident-manaviyat-kerakmi-yoqmi-deb-yurganlar-ham-yoq-emas>.

12. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi // “Xalq so'zi”, 2016 yil, 9-sentyabr.

13. Mirziyoyev Sh.M. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal – demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi “Demokratik islohatlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir” mavzusidagi ma'ruzasi // “Xalq so'zi”, 2016 yil, 2 noyabr. № 216 (6651).

14. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasidan. // “Xalq so'zi”, 2016 yil 8 dekabr.

15. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. // “Xalq so'zi”, 2017 yil 16 yanvar.

16. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz -T «O'zbekiston», NMIU, - 2017.

17. Mirziyoyev Sh.M. 2021 yil 4 yanvardagi F-1322- son farmoyishiga ilova <https://lex.uz/docs/1275190>.

18. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.

19. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng

oliy bahodir. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018.

20. Karimov I.A. O‘zbekistonning 16 yillik taraqqiyot yo‘li. – Toshkent: O‘zbekiston, 1994.

21. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1999.

22. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq et‘qodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.

23. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.

24. Karimov I. A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlanirish konsepsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruza. 2010 yil 12 noyabr. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2010.

25. Karimov I. A. O‘zbekiston ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: “Sog‘lom ona – sog‘lom bola mavzusidagi xalqaro simpozium ochilishidagi nutq. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2012.

26. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: “O‘zbekiston” 2012.

27. Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir // “Xalq so‘zi”, 2013 yil 6 dekabr. – № 240 (5914).

28. Karimov I.A. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo‘lida va fuqarolik jamiyati barpo etishda mustahkam poydevordir. - Toshkent: “O‘zbekiston” 2009.

29. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2015.

30. Abdulla Avloniy. Odob bo‘stoni va axloq gulistoni. - Toshkent: “Fan”, 1994, 30-bet.

31. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.

32. Abdurahmonov M., Otamurotov S., Ma'naviy salohiyat. O'quv qo'llanma. Toshkent: Universitet, 2009.
33. Abu Hamid Muhammad G'azzoliy. Oxiratnoma. - Buxoro, 1992.
34. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 3-jildlik saylanma. H.Hikmatullaev, U.Karimov hamkorlikda. - Tashkent: Mehnat, 1993.
35. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
36. Aliyev A. Istiqlol va adabiy meros. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
37. Akromxo'jayev O. Beruniy – dastlabki tadqiqotchi. - Toshkent: Fan, 1976.
38. Abu Hamid Muhammad G'azzoliy, «Oxiratnoma». Buxoro, 1992.
39. Ахадова М.А. Физико-математические сочинения Ибн Сины на таджикском языке. Автореф.канд.дис.-Ташкент, 1965.
40. Ахадова М.А. Трактат Абу Али ибн Сины «Мерило разума». – В кн.: Из истории точных наук на средневековом Ближнем и Среднем востоке. – Ташкент: Фан, 1972.
41. Barkamol avlod orzusi . Toshkent: “Sharq”, nashriyoti Matbaa Konserni, 2008.
42. Belenitskiy A. Mesto mineralogicheskogo traktata. – Moskva, 1973.
43. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. T. 1. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Mas'ul muharrirlar I.Abdullayev, O.Fayzullayev; Tarj. A.Rasulov. - Tashkent: Fan, 1968.
44. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. T. 3. Turar joylar (orasidagi) masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash. [Geodeziya] // Muqaddima, tarj. va izohlar muallifi A.Ahmedov. - Toshkent: Fan, 1982.
45. Beruniy Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1968.
46. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari. – Toshkent, 1997.
47. Jumaboyev Y. O'rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. - Toshkent: O'zbekiston, 1980.
48. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. - Toshkent:

O'zbekiston, 1996.

49. Ibn Abi Usaybia. Uyun al-anbo fit-tabaqot al-atibbo. – Qohira, 1882. - II juz'.

50. Ibn Sino. Tibbiy o'g'itlar. - Tashkent: Fan, Mehnat, 1991.

51. Ibn Sino. I kitob: Tib qonunlari. - Tashkent: Fan, 1954.

52. Ibn Sino. II kitob: Tib qonunlari. - Tashkent: Fan, 1956.

53. Ibn Sino. IV kitob: Tib qonunlari. - Tashkent: Fan, 1960.

54. Ibn Sino. V kitob: Tibqonunlari. - Tashkent: Fan, 1961.

55. Ибн Сина. Математические главы «Книги знания» (Донишнома). Душанбе, «Ирфон», 1967.

56. Ibn Sino Abu Ali. Tahriri Uqlidis. 2720-raqamli Ayo Sofiya kutubxonasidagi asar qo'lyozmasining mikrofilmi.

57. Abu Ali Ibn Sino. Falsafiy qissalar. Nashrga tayyorlovchi va tarjimon. A.Irisov. - Toshkent, 1963.

58. Al-Xorazmiy, Muhammad ibn-Muso. Tanlangan asarlar, mas'ul muharrirlar: S.Sirojiddinov, U.I.Karimov, M.M.Xayrullayev. – Toshkent: Fan, 1983.

59. Imomnazarov M., Saidov M. Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy asoslari. O'quv qo'llanma. - Tashkent: "Akademiya", 2005.

60. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. O'quv qo'll. - Tashkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2006.

61. Irisov A. Abu Ali ibn Sino. - Tashkent: Fan, 1980.

62. Irisov A. Al-Xorazmiy va Forobiy – Toshkent: O'zbekiston, 1961.

63. Jalolov A. Mustaqillik ma'suliyati. – Toshkent: "O'qituvchi". 1996.

64. Jumaboyev Y. O'rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. - Toshkent: "O'zbekiston", 1980.

65. Завадовский Ю.Н. Материалы для биографии Абу Али ибн Сины. - Тадж.ССР: Изв. АН. Тадж.ССР, отд. общ. наук. Вып. 2. 1958.

66. Ziyoyev X. Istiqlol-ma'naviyat negizi. - Toshkent: Ma'naviyat, 1999.

67. Каримов У.И. К вопросу о взглядах Ибн Сины на химию // Материалы научной сессии АНУзССР. посв. к 1000-летию юбилею Ибн Сины. - Ташкент:

Фан, 1953.

68. Каримов У.И. Классификация наук по Ибн Сины // Материалы Первой Всесоюзной научной конференции востоковедов в г.Ташкенте 4-11 июня 1957. - Ташкент: Фан, 1958.

69. Леммлейн Г.Г. Минералогические сведения. - Москва: АН СССР, 1992.

70. Макавельский А.О. Авесто.Баку, «Азербайжан», 1960.

71. Матвиевская Г.П. Из истории изучения физико-математического наследия Ибн Сины // Математика и астрономия в трудах Ибн Сины, его современников и последователей. - Ташкент: Фан, 1981.

72. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2019.

73. Mahmudov T. Mustaqillik va Ma'naviyat, - Toshkent: Sharq. - 2001.

74. Mahmudov T. Nafosat va ma'naviy qadriyatlar. – Toshkent, 2001.

75. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - Toshkent: O'zbekiston, 2000.

76. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. O'quv qo'llanma. “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. - Toshkent, 2006.

77. Мухаммадиев Х.М. Планиметрическая часть «Китоб аш-Шифо». Ученые записки Ленинабадского гос.педин-та.Вып.XV. Душанбе, 1962.

78. Muhammad Tohir ibn Abu-l-Qosim, Ajoyib at-tabaqot, O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondi, ashyo raqami 9042, 175a-varaq.

79. Muhammad payg'ambar qissasi. Hadislar. – Toshkent: Kamalak, 1991.

80. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jayev. “Dinshunoslik” O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2014.

81. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi. – Toshkent: Akademiya, 2011.

82. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi (tajribaviy qo'llanma). – Toshkent: “Akademiya”, 2011.

83. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: Istiqlol, 2003, 125-bet.



84. Oynisa Musurmonova. Oila ma'naviyati-milliy g'urur. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2000.
85. Otamurotov S., Ramatov J., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. - Toshkent, 2002.
86. Otamuratov S., Otamuratov S. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. O'quv qo'llanma. - Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2003.
87. Otamurotov S., Abduraxmonov M., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. Darslik. – Toshkent, 2009.
88. Otamurotov S., M.Abdurahmonov., Sh.Rizayev. O'zbekistonda ma'naviyat sohasidagi islohotlar: rivojlanish bosqichlari, erishilgan natijalar va istiqboli. Toshkent: Akademiya, 2010.
89. Otamuratov S.O. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. – Toshkent, 2012.
90. Raximov S.R. Ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. - Toshkent: O'qituvchi, 1967.
91. Rahimov S. Komil inson tarbiyasi. O'rta maxsus, kasb – hunar muassasalari uchun qo'llanma. – Toshkent: “Istiqlol”, 2003.
92. Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. – Toshkent: Sharq nashriyot, matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001.
93. Saifnazarov I., Obidov A. Dinlararo hamjihatlik – ijtimoiy barqarorlik omli. – Toshkent: Innovatsion-rivojlanish matbaa uyi, 2019.
94. Сагдуллаев А. С., Костецкий В. А., Наркулов Н. К. История Узбекистана. – Toshkent, 1998.
95. Садыков Х.У. Беруни и его работы по астрономии и математической географии. - Москва: АН СССР, 1953.
96. Sahobiddin Siddiqov, Ibn Sino ba'di 900 sol (Ibn Sino 900 yildan so'ng), gaz. “Maorif va madaniyat”. - Dushanba, 1980 yil, 28 fevral
97. SVR, I. - Toshkent: Fan, 1952.
98. SVR, VIII. - Toshkent: Fan, 1967.

99. Сираждинов С.Х., Матвиевская Г.П., Ахмедов А. Математика и астрономия в работах Абу Райхана Беруни. - Ташкент: Фан, 1973.
100. Tulenov J., Yusupov K., G'afurov Z. Istiqlol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va yo'nalishlari. – Toshkent: “O'zbekiston”, 1993.
101. Tulenov J., Qodirov B., G'ofurov Z. Ma'naviy yuksalish sari. –Toshkent: “Mehnat”, 2000.
102. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent, 1998.
103. «Temur tuzuklari». - Toshkent, 1991.
104. Fayziyev Sh. Yosh avlod huquq va manfaatlarining muhim kafolati. // “Huquq va burch”. 2008 yil. 8-9-son.
105. Forobiy, Abu Nasr. Risolalar. - Toshkent: Fan, 1975.
106. Umarov E., Abdullayev M. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2006.
107. Usmonov T. Beruniyning fizika tarixidagi o'rni. - Toshkent: Fan, 1977.
108. Xasanboyeva O., Xasanbayev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1997.
109. Xasanboeva O. Tarbiya haqida. - Toshkent: O'qituvchi, 1997.
110. Xayrullaev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. - Toshkent. O'zbekiston, 1971.
111. Choriyev A. Inson falsafasi. II. Mustaqil shaxs. - Toshkent: Chinor ENK. 2002.
112. Sharifjon mahdum Sadri Ziyo, Tazkirai shuaro'i mutaqaddimiyn va salotin, O'zR FA SHI fondi, ashyo raqami 2193/X, 272a-varaq.
113. Шарипова М.С. Математические главы «Книга исцеления». Ибн Сины. Автореф.канд.дис. Душанбе, 1967.
114. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti (bundan keyin O'zR FA SHI deb yoziladi) fondi, ashyo raqamli qo'lyozma 9042, 174b-varaq.
115. Qahharova Sh. Global ma'naviyat - globallashuvning g'oyaviy asosi. - Toshkent: Tafakkur nashriyoti. 2009.
116. Quranboyev Q., Abdurahmonov M. Islom Karimov. “Yuksak ma'naviyat-

yengilmas kuch” asarini o’qitish bo’yicha o’quv-uslubiy qo’llanma. – Toshkent, 2010.

117. Hamdamova M. Ma’naviyat asoslari. O’quv qo’llanma. “Fan va texnologiya” nashriyoti. - Toshkent, 2008.

118. Hikmatullayev H. Abu Ali ibn Sinoning «Yurak dorilari» risolasi. - Tashkent: Fan, 1966.

119. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g’oya: O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. – Toshkent: Cho’lpon NMIU, 2018.

120. Erkaev A.P. Ma’naviyat millat nishoni. – Toshkent, 1997.

121. Ergashev F., Ergashev I. Fidoiylik – hayot mazmuni. – Toshkent: O’zbekiston, 2001.

122. Erkayev A. “Ma’naviyatshunoslik”. I-jild. Ma’naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi Monografiya. - Toshkent: Ma’naviyat, 2018.

123. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. II- jild. Ma’naviyat metodologiyasi va praktsiologiyasi Monografiya. - Toshkent: Ma’naviyat, 2018

124. Eshonqulov A. Ma’naviyat tarbiyasi. // Muloqot, 1997. №1.

125. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. - Toshkent: Universitet, 1998.

126. M.Quronov. Milliy tarbiya. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.

127. Quronov M. Otalar kitobi. – Toshkent: O’zbekiston, 2007.

128. Sezgin F. Geaschichte des arabischen Schrifltums. - Leiden, 1974.

129. Gartz J. De interprytibus et explanatoribus Euclidis arabicis. - Halae 1823.

130. Klamroth M. Veber den arabischen Euklid. Zeitschr.d. Deutsch Morgenland. Ges.Bd 35. 1881.

131. Steinsneider M. Euklid bei Arabern. Eine bibliographische Studie. «Zeitschr.fur Math. u. Phys». Bd 31. 1886.

132. Steinschneider M. Die arabischen Ubersetzungen aus dem Griechischen. Zweiter Abschnitt Mathematik // «Zeitschr. d. Deutsch. Morgenland. Ges.»Bd. 50. 1896.

133. Steinschneider M. Die arabischen Bearbeiter des Almagest//“Bibl. math.”,

F. 2, b. 6.

134. Wiedemann E. Zur Geschichte der Astrologie. "Das Weltall", Bd. 22. 1922. 121-126.

135. Wiedemann E. Über ein von Avicenna hergestelltes Beobachtungsinstrument."Zeitschr., für Instrumentenkunde". Bd. 45. 1925.

136. Wiedemann E. Einleitung zu dem astronomischen Teil des Kitab al Schifa (Werk der Genesung) von Ibn Sina, "Sitzungsber, d. phys.-med. Soz. In Erlangen", Bd. 58-59, 1926-1927.

137. Montucla J.E. Histoire des mathematiques, t.1, Paris, 1758; 1802.

138. Brokelmann C. Geschichte der Arabischen Literatur. Bd. I, Weimar, 1898.

139. Suter H. Mathematiker und Astronomen der Arabern und ihre Werke. Abhandl. zur Gesch. d. mathem. Wiss. H.X. 1900.

#### **Axborot manbalari:**

140. "Xalq so'zi" gazetasi –www info XS. Uz.

141. "Turkiston" gazetasi - www turkiston sarkor. uz.

142. "Ma'rifat" jurnali - www ma'rifat – inform.

143. "Jamiyat va boshqaruv" jurnali - www rzult academy freenet uz.

144. "Moziydan sado" jurnali - www moziy dostlink. Net

145. www.mfa.uz.

146. www.press-servise.uz.

147. www.literature.uz

148. www.Ziyonetuz..

149. www.pedagog.uz

**150.** www.edu.uz

## MUNDARIJA:

Kirish.....5

### **I BOB. MA'NAVIYATSHUNOSLIKKA KIRISH.**

1-mavzu. “Ma’naviyatshunoslik” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari.....9

2- mavzu. Sharq allomalari merosining milliy ma’naviyatimizga ta’siri.....59

### **II BOB. ISTIBDOD VA ISTIQLOL: MA'NAVIYAT UCHUN OLIB BORILGAN KURASHLAR VA HOZIRGI ZAMON.**

3-mavzu. Mustamlakachilik va qaramlik yillarida ma`naviyat.....115

4-mavzu. Oila-jamiyat-ma’naviyat shaxs ma’naviyatini rivojlantirish omillari va vositalari.....143

### **III BOB. YANGILANAYOTGAN O`ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY TAJAVUZLARDAN ASRASHNING TAKTIKA VA STRATEGIYASI.**

5-mavzu. Globallashuv jarayonida yoshlar ma`naviyati va ma`naviy tahdidlar.....183

6-mavzu. Yangi O`zbekistonning ma`naviy yangilanish strategiyasi.....249

7-mavzu. Mafkuraviy profilaktika – yosh avlodni g’oyaviy himoyalash omili.....328

**Glossariy.....371**

**Testlar.....382**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....403**

## СОДЕРЖАНИЕ:

<b>ВВЕДЕНИЕ.....</b>	<b>5</b>
<b>I ГЛАВА. ВВЕДЕНИЕ В ДУХОВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ.</b>	
Тема 1. Предмет, цель, задачи по предмету «Духовности».....	9
Тема 2. Влияние наследия восточных ученых на национальную духовность.....	59
<b>ГЛАВА II. КОЛОНИАЛИЗМ И НЕЗАВИСИМОСТЬ: БОРЬБА ЗА ДУХОВНОСТЬ И НАСТОЯЩЕЕ.</b>	
Тема 3. Духовность в годы колониализма и зависимости.....	115
Тема 4. Факторы и средства развития духовности личности: семья- общество-духовность.....	143
<b>ГЛАВА III. ТАКТИКА И СТРАТЕГИЯ ЗАЩИТЫ МОЛОДЕЖИ ОБНОВЛЯЮЩЕГОСЯ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ НАПАДЕНИЙ В ГОДЫ ИНФОРМАЦИОННОЙ ВОЙНЫ.</b>	
Тема 5. Молодежная духовность и духовная угроза в процессе глобализации.....	183
Тема 6. Стратегия духовного обновления Нового Узбекистана.....	249
Тема 7. Идеологическая профилактика является фактором идеологической защиты подрастающего поколения.....	328
<b>Глоссарий.....</b>	<b>371</b>
<b>Тесты.....</b>	<b>382</b>
<b>Список использованной литературы.....</b>	<b>403</b>

## CONTENT:

<b>INTRODUCTION.....</b>	<b>5</b>
<b>I CHAPTER. INTRODUCTION TO SPIRITUAL RESEARCH.</b>	
Topic 1. Subject, purpose, tasks in the subject of «Spirituality».....	9
Topic 2. The. influence of the heritage of Eastern scientists on national spirituality.....	59
<b>CHAPTER II. COLONIALISM AND INDEPENDENCE: THE STRUGGLE FOR SPIRITUALITY AND THE PRESENT</b>	
Topic 3. Spirituality in the years of colonialism and dependence.....	115
Topic 4. Factors and means of developing the spirituality of the individual: family-society-spirituality.....	143
<b>CHAPTER III. TACTICS AND STRATEGY OF PROTECTING THE YOUTH OF RENEWING UZBEKISTAN FROM IDEOLOGICAL ATTACKS DURING THE INFORMATION WAR.</b>	
Topic 5. Youth spirituality and spiritual threat in the process of globalization.....	183
Topic 6. The strategy of spiritual renewal of New Uzbekistan.....	249
Topic 7. Ideological prevention is a factor in the ideological protection of the younger generation.....	328
<b>Glossary.....</b>	<b>371</b>
<b>Tests.....</b>	<b>382</b>
<b>Referense.....</b>	<b>403</b>

**Gularam Kamilovna Masharipova,  
Tamara Jo'raevna Xo'janova**

**MA'NAVIYATSHUNOSLIK FANIDAN  
(BARCHA TA'LIM YO'NALISHLARI BAKALAVR TALABALARI UCHUN  
DARSLIK)**

Nashriyot litsenziyasi: № 1939. 18.02.2021 y.  
Bosishga ruxsat etildi: 09.12.2022 y.  
Ofset bosma. "Times" garniturası. Bichimi: 60/84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
Nashriyot bosma tabog'i: 26. Adadi: 100 nusxa.

Nashriyot manzili:  
"Fan ziyosi" nashriyoti,  
Toshkent shahri, Otchopar ko'chasi, 82-uy  
Tel.: 212-47-79, 230-04-74



**FAN ZIYOSI**

Fan ziyosi nashriyoti. Science intelligence Publishing.Limited Liabilitu company.  
Tashkent. Email: pachxanovich@mail.ru +998933764407. +9989093033161

OOO "FAN ZIYOSI" bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Otchopar ko'chasi, 82-uy